

X-33



B.A. Xasanov,  
K.T. Nurmanov,  
R.B. Hasanova

# ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBI

076.2  
336  
X-33

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.A. Xasanov,  
K.T. Nurmanov,  
R.B. Hasanova

## ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBI

(Kredit-modul bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

YAK: 336.6 (075)



TOSHKENT - 2021

**UO'K: 657.622 (075.8)**

**KBK: 65.261**

**X 56**

**X 56      B.A.Xasanov, K.T.Nurmanov, R.B.Hasanova. Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 416 b.**

**ISBN 978-9943-7626-0-2**

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asaridan kelib chiqqan holda zamonaviy boshqaruv hisobida hisob siyosati, boshqaruv hisobining ta'minot, ishlab chiqarish va tijorat-ta'minot faoliyatlari, zamonaviy boshqaruv hisobiga yo'naltirilgan yangi texnologiya va innovatsiyalar, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyasi, ishlab chiqarish zararsizligining tahlili, budgetlashtirish kabi boshqaruv hisobining zamonaviy yo'nalishlariga bag'ishlangan. Qo'llanma Oliy ta'lif Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan namunaviy va ishchi o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan.

"Zamonaviy boshqaruv hisobi" fani bo'yicha mazkur darslikdan iqtisodiy oliy o'quv yurtlarining shu sohadagi o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlari va yuqori bosqich talabalariga mo'ljallangan. Shuningdek, undan xo'jalik yuriuvchi subyektlarning boshqaruv xizmati xodimlari va mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

**UO'K: 657.622 (075.8)**

**KBK: 65.261**

#### **T a q r i z c h i l a r:**

**Qo'ziyev I.N.**

Toshkent moliya instituti "Audit" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor.

**Ergasheva Sh.T.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi professori, i.f.n.

**Maxmudov A.N.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliaviy tahlil va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**ISBN 978-9943-7626-0-2**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

4-bob.	TA'MINOT FAOLIYATINING BOSHQARUV HISOBI .....	99		Nazorat savollari .....	212
4.1.	Umumiy boshqaruv tizimida ta'minot jarayoni va moddiy zaxiralarni baholash .....	99	8-bob.	BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH .....	213
4.2.	Materiallarni qabul qilish va saqlashda xarajatlar tasnifi va uning hisobi .....	113	8.1.	Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish .....	213
4.3.	Zaxiralar me'yorini nazorat qilish va rejalashtirish ... Test topshiriqlari .....	126 130	8.2.	Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari .....	216
	Nazorat savollari .....	131	8.3.	Ishlab chiqarish dastagi samarasini aniqlash tartibi .....	221
5-bob.	ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINING BOSHQARUV HISOBI .....	133	8.4.	Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish .....	225
5.1.	Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishni tashkil etish .....	133	8.5.	Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish .....	234
5.2.	Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish .. Test topshiriqlari .....	135 139	8.6.	Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash .....	241
	Nazorat savollari .....	141	8.7.	Rivojlangan mamlakatlarda biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish tajribasi .... Test topshiriqlari .....	253 263
6-bob.	MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH USULLARI .....	143	9-bob.	Nazorat savollari .....	265
6.1.	Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turli xil belgilariiga qarab turkumlanishi .....	143	XO'JALIK SUBYEKTLARDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI .....	267	
6.2.	Mahsulot tannarxining ishlab chiqarishni boshqarishdagi ahamiyati .....	163	9.1.	Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish .....	267
6.3.	Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning an'anaviy usullari .....	164	9.2.	Javobgarlik markazlarining turlari .....	269
	Test topshiriqlari .....	174	9.3.	Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan tizimlari .....	274
	Nazorat savollari .....	176	9.4.	Savdo va sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisob tizimini avtomatlashtirishning xususiyatlari ... Test topshiriqlari .....	278 286
7-bob.	ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBIGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TIZIMLAR VA USULLAR .....	178	Nazorat savollari .....	289	
7.1.	"Standart-kost" tizimining xususiyati va mohiyati ...	178	10-bob.	BOSHQARUV HISOBIDA TRANSFERT BAHONI SHAKLLANTIRISH .....	290
7.2.	"Direkt-kosting" tizimining mohiyati va ahamiyati	185	10.1.	Korxona baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni .....	290
7.3.	"JIT", "ABC" va "SCA" tizimlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish .....	190	10.2.	Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari .....	295
7.4.	Funktional - qiymat tahlili usulini boshqaruv hisobida qo'llash .....	201	10.3.	Transfert bahoni belgilash usullari .....	301
7.5.	Boshqaruv samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini hisoblashda KPI usulining o'rni va ahamiyati .....	207	10.4.	Transfert bahoni xarajatlar va qiymat yondoshuvlari asosida shakllantirish .....	305
	Test topshiriqlari .....	209	10.5.	Transfert bahoni shakllantirish omillarini ekonometrik modellashtirish usullari .. Test topshiriqlari .....	308 325

	Nazorat savollari .....	328
11-bob.	OPERATSION SEGMENTLAR HISOBI VA HISOBOTI .....	329
11.1.	Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllari	329
11.2.	Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari .....	333
11.3.	Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida	342
11.4.	Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash	348
	Test topshiriqlari .....	358
	Nazorat savollari .....	360
12-bob.	STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH .....	361
12.1.	Strategik boshqaruv hisobining ahamiyati, mohiyati va tashkil etish usullari .....	361
12.2.	Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlarni strategik tahlil qilish tizimini shakllantirish .....	370
12.3.	Mahsulot sifatiga sarflanadigan xarajatlarni strategik boshqaruv hisobi usullari .....	380
	Test topshiriqlari .....	393
	Nazorat savollari .....	396
	ASOSIY TAYANCH SO'Z VA IBORALAR .....	397
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	404
	ILOVALAR .....	407

## KIRISH

Mustaqillik yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muayyan tajribalar to'planganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi besh yil mobaynida yirik strategik dasturlar, konseptsiyalar va yo'l xaritalarining qabul qilinishi bu jarayonni hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlar va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasi, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirish.

Tarmoqlar bo'yicha tannarx o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsada, kimyo va engil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda".<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-soni "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" nomli ma'rurasida bir nechta muhim yo'nalishdagи masalalar bo'yicha tegishli choralarini hayotga tatbiq etishning mohiyati va ahamiyati, bajarilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar qatorida tijorat banklari bilan birga, iqtisodiyotimizning real sektori korxonalarida hisob-kitob ishlarini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda yangicha yondashuvlarni shakllantirish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va uslublarining joriy qilinishi, moliya-bank hamda real sektor axboroti saviyasi va sifatini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatining ochiqligini oshirish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish, etakchi xalqaro reyting talablaridan keng ko'lamda foydalanishni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.

ta'minlash vazifalari aniq belgilab berildi. Ushbu vazifalarni hal etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

*birinchidan*, moliyaviy hisobotlar va buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotlarning yangi xalqaro andozalari tavsiyalarini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish;

*ikkinchidan*, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib, tijorat banklari va real sektorning hisobvaraqlar rejasini takomillashtirish;

*uchinchidan*, tijorat moliya-bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini, jumladan, yillik moliyaviy hisobotlarini ommaviy axborot vositalari va internet-saytlarida muntazam e'lon qilib borish.

Farmon<sup>2</sup> bilan korporativ boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganini alohida qayd etish kerak. Unda xalqaro tajribani chuqur o'rganish asosida korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini tafbiq etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish maqsadida qulay sharoitlarni yaratish, bunday jamiyatlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, hisob va hisobotlarning xalqaro standartlarini qo'llash, aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatida davlat organlari, aksiyadorlar va menejmentlar o'rtafigi vakolat va vazifalarni bir-biridan aniq ajratish, aksiyadorlik jamiyatlar faoliyati ustidan nazoratni va strategik boshqaruvni ta'minlashda aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning rolini ko'tarish, korporativ boshqaruv sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha topshiriqlar berilgan.

Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi amaliyotining istiqbolli yo'nalishlaridan biri, uning muhim tarkibiy qismi hisoblangan boshqaruv hisobining ahamiyati beqiyos darajada ortib boradi. Binobarin, boshqaruvda hisobi korxona faoliyatini tezkor va istiqbolli boshqarishda asosiy o'rnlardan birini egallashi, xalqaro standartlar talablariga to'liq muvofiq kelishi, xarajatlar va mahsulot tannarxini boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi lozim. Boshqaruv hisobi yangicha talqinda to'rtta o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan: budgetlashtirish (boshqaruv hisobi tizimida rejalshtirish), xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisob va hisobot, ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtafigi

transfert bahoni shakllantirish kabi qismlardan iborat. Uning maqsadi va harakat doirasi moliyaviy hisobdan kengroq bo'lib, nafaqat xo'jalik jarayonlarini oldindan tashxislab berishni, balki joriy va istiqbolga mo'ljallangan rejalshtirish, boshqaruv hamda investitsiya qarorlari dasturini ishlab chiqishni, ishlab chiqarish va moliyaviy natijalar hisobini yuritishni ham qamrab oladi.

"Zamonaviy boshqaruv hisobi" fanining asosiy vazifasi foydalanuvchilarning boshqaruv hisobining nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslari, mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari, korxona faoliyatida transfert baholarini shakllantirish tartibi to'g'risida atroflicha bilimga ega bo'lishlariga ko'maklashishdir.

Ushbu darslikda "Zamonaviy boshqaruv hisobi" fanining predmeti va metodi, uning moliyaviy hisob bilan o'zaro bog'liqligi, xarajatlarning turkumlanishi va hisobi, kalkulyatsiyalashning tamoyillari, ob'ekti va usullari, budgetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, transfert bahoni o'rnatisht usullari oshib berilgan. Qo'llanmada zamonaviy boshqaruv hisobini xalqaro amaliyotda tarkib topgan tajribasi va undan mustaqil respublikamiz korxonalarida boshqaruv hisobining yangi tartibini joriy etishda foydalanish maqsadga muvofiqligi yoritilgan. Bundan tashqari, kitobda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash, avtonom va integratsiyalashgan tizimlar asosida boshqaruv hisobini tashkil etish hamda ularni avtomatlashtirish kabi masalalarga ilk bora e'tibor qaratilgan. Har bir bobning yakunida kitobxonlarning mavzu bo'yicha oltin bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari va nazorat savollari keltirilgan. Shu bilan birga, darslikning oxirida berilgan tayanch so'z va iboralar, ilmiy-amaliy ilovalar uning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

**Mualliflar**

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 17-son, 204-modda

# **1-bob. ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBI JARAYONINING MAZMUNI VA KONTSEPTSIYASI**

## **1.1. Zamonaviy boshqaruv hisobi fanining predmeti va metodi**

Respublikamizda keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiyalash jarayonini davom ettirishda xo'jalik subyektlari faoliyatining barcha jarayonlarida iqtisodiy axborotlarga nisbatan haqqoniylig, o'z vaqtidalik, xolislik va aniqlik kabi talablar qo'yiladi. Hozirgi paytda olingan iqtisodiy axborotlar ichki va tashqi foydalanuvchilar talabini to'liq qondirishi hamda eng kam miqdorda mehnat va vaqt sarf qilgan holda shakllantirilishi lozim. Shuningdek, iqtisodiy axborotlar korxona faoliyatini budgetlashtirish, istiqbolni belgilash, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini to'g'ri tashkil etish bo'yicha samarali boshqaruv qarori qabul qilishda zaruriy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Bu kabi masalalar respublikamizda "Zamonaviy boshqaruv hisobi" fanini yuzaga keltirish va uni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

"Zamonaviy boshqaruv hisobi" fanining predmeti xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish, budgetlashtirish, istiqbolda subyekt taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, segmentlar bo'yicha hisobot tuzish, samarali transfert baholarini shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini yoritish hisoblanadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqtlanining deyarli 90 foizini boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga sarflaydilar. Bu esa o'z navbatida boshqaruv hisobi bilan yuqori malakali mutaxassislar shug'ullanishini talab etadi.

Zamonaviy boshqaruv hisobi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

*birinchidan*, bozor munosabatlari zarurati bilan paydo bo'lgan korxona va uning turli bo'g'inlaridagi tarkibiy tuzilmalarining faoliyatlar yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchi;

*ikkinchidan*, korxona hisob siyosatiga muvofiq yuritiladigan, tarkibiga korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini budgetlashtirish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish, xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning ilg'or usullarini qo'llash, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobot tuzish,

ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtaсидаги muomalalarda foydalaniladigan transfert baholarni shakllantirish;

*uchinchidan*, evolyutsion yo'l bilan rivojlanib boruvchi ichki xo'jalik hisobining sintetik tizimi, bir nechta iqtisodiy fanlar majmuasida tug'ilgan kompleks fandir.

Korxonalarda boshqaruv hisobini samarali yuritish dastlabki va yig'ma hujjatlarni aylanish tezkorligi, qabul qilingan ichki hisobot shakllari, ularning tuzish davriyligi hamda taqdim qilish muddatları, axborotlar tizimini takomillashtirishga mosligi ta'sir qiladi.

Zamonaviy boshqaruv hisobida hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, schyotlar va ikkiyoklama yozuv, balansda umumlashtirish va hisobot kabi moliyaviy hisob usullarining barcha elementlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, unda iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik usullar ham keng qo'llaniladi.

Zamonaviy boshqaruv hisobida an'anaviy buxgalteriya hisobi, operativ-texnik va statistika hisobi hamda iqtisodiy tahlilning ko'pgina unsurlaridan foydalanadi.

Zamonaviy boshqaruv hisobini tashkil etilishi va o'z vaqtida yuritilishi oqilona boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilinishi, korxona faoliyatini rejalashtirish, tahlil va nazorat qilish imkonini berib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Odatda, korxonalarda zamonaviy boshqaruv hisobi quyidagi faoliyat turlari bo'yicha yuritiladi:

- ta'minot-tayyorlov faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- moliya-tijorat faoliyati;
- tashkiliy faoliyat.

Korxonalarda ta'minot-tayyorlov faoliyati takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uning uzuksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur sohada dastlabki boshqaruv axborotlari yig'iladi va qayta ishlanadi.

Zamonaviy boshqaruv hisobi axborotlarni shakllantirishda ishlab chiqarish faoliyati muhim o'rinn tutadi. Unda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, o'zgarishi, ularni javobgarlik markazlari bo'yicha hisobini tashkil qilish, shuningdek, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini yuritish, sarflangan xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni hisobga olish amalga oshiriladi.

Moliya-tijorat faoliyatida esa korxona iqtisodiy bo'linmalari (segmentlari) bo'yicha sotish, ma'muriy xarajatlar budgeti tuziladi va ularning bajarilishi nazorat qilinadi.

Tashkiliy faoliyat bo'yicha zamonaviy boshqaruv hisobini tashkil qilish alohida bo'linmalar menejerlari zimmasiga xarajatlar hajmi, ularning samaradorligi to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish vazifasini yuklaydi. Bunda ishlab chiqarish zararsizligi nuqtasining dastlabki hisob-kitoblari amalga oshiriladi, o'zgaruvchan, doimiy xarajatlar va foyda o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi.

Zamonaviy boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bilan shug'ullanibgina qolmasdan, balki korxona rahbariga joriy va istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilishda ko'maklashishi zarur. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida zamonaviy boshqaruv hisobining nazariy-uslubiy asoslarini ishslash zarurati quyidagi omillar mavjudligi bilan izohlanadi:

- rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, buxgalteriya hisobini moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishi;

- buxgalteriya hisobida mahsulotlar tannarxini hisoblash, haqiqiyaning xarajatlardan chetlanishlarni boshqarishda «Standart-kost» hisob tizimining paydo bo'lishi;

- xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi, natijada korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish, xarajatlarni samarali taqsimlash maqsadida tannarxni kalkulyatsiya qilishning «Direkt-kosting» kabi zamonaviy tizimlarini rivojlantirish zaruratinu yuzaga kelishi;

- korxonalar amaliyotiga «zararsizlik nuqtasi», «marjinal daromad», «ishlab chiqarish dastagi» va boshqa yangi iqtisodiy atamalarning kirib kelishi hamda ularni xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirish zarurati;

- korxonalar hisob tizimi oldiga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni rejashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini strategik boshqarish, ularga mos transfert baholarni shakllantirish, xarajatlar va daromadlar hisobining samarali modelini yaratish kabi vazifalarni qo'yilishi;

- buxgalteriya hisobida yangi kompyuter texnologiyalari, axborot dasturlarining keng joriy etilishi, shuningdek, boshqaruv hisobini avtomatlashtirish asoslarini ishlab chiqish muammosining mavjudligi va h.k.

Zamonaviy boshqaruv hisobi korxonaning ichki vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning "nou-xau"sidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy boshqaruv hisobining muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish borasida istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar manbasini shakllantirish va rahbarlarni ular bilan ta'minlash;

- korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarishda menejerlarga ishonchli, yuqori samarador axborotlarni o'z vaqtida etkazib berish;

- mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini to'g'ri aniqlash, belgilangan me'yordan chetlanishlar va ularning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatib berish va h.k.

Boshqaruv hisobi axborotlari korxonaning tezkor va strategik vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Tezkor vazifalarga quyidagilar kiritiladi:

- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini aniqlash;

- ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasini topish;

- mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar turlari, ularni sotishning muvofiq hajmini rejashtirish;

- qo'shimcha buyurtmalarni qabul qilish yoki rad etish;

- baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Strategik vazifalar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

- uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni jalb qilish;

- biznes tarkibini o'zgartirish;

- mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish.

Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv hisobi o'z vazifalari orqali korxona ichki faoliyati, uning strategiyasi va taktikasi bilan boshqaruvning asosiy axborot poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy boshqaruv hisobining strategiyasi istiqbolda korxona taraqqiyotini belgilovchi loyihamlar tahlili, istiqbolni belgilash, budgetlashtirish, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobotini tuzish, oqilona transfert baholarini o'rnatish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini ifodalaydi. Zamonaviy boshqaruv hisobining taktikasi esa joriy davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bo'yicha hisob yuritish, dalillash,

qabul qilingan qarorlarni tahlil va nazorat qilish, shuningdek, ularning ijrosi uchun javobgarlik kabilardan iborat.

## 1.2. Zamonaviy boshqaruv hisobining tarixiy shakllanishi

*Buxgalteriya hisobi barcha fan va san'atlardan yuqori turadi, chunki hamma unga ehtiyoj sezadi, u esa hech kimga nisbatan ehtiyoj sezmaydi. Buxgalteriya hisobisiz dunyo boshqaruvsiz qolgan, odamlar esa bir-birlarini tushuna olmagan bo'lar edilar.*

*Bartalomeo de Salazano*

Respublikamizda zamonaviy boshqaruv hisobini alohida fan sifatida rivojlantirish yo'nalişlarini belgilash uning tarixiy shakllanish jarayonini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy boshqaruv hisobi dastlab boshqaruv hisobi bo'lib, buxgalteriya hisobining tarkibida mustaqil fan sifatida rasman 1972 yilda tan olindi. Bu paytda buxgalterlarning Amerika assotsiatsiyasi tomonidan boshqaruv hisobi bo'yicha bitiruvchilarga buxgalter-tahlilchi malakasini beradigan diplomli dasturi ishlab chiqilgan edi.

Binobarin, mustaqil o'quv fani sifatida boshqaruv hisobi olyi o'quv yurtlarining o'quv rejasiga kiritilgan edi. Uning paydo bo'lishi hamda shakllanishi kalkulyatsiya va ishlab chiqarish hisoblarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Kalkulyatsiya hisobi xo'jalik hisobi paydo bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida kelib chiqqan va tovar almashuv muomalalari natijasi bo'lib hisoblangan. "Kalkulyatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjimada "calcul" – toshcha, ya'ni "toshchalar bilan sanash" ma'nosini anglatadi. Ikkiyoqlama yozuvning paydo bo'lishi kalkulyatsiya hisobining rivojlanishini yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tardi. Korxonaning umumiyligi buxgalteriyasi tarkibida kalkulyatsiya hisobining ajratib ko'rsatilishi esa buxgalteriya hisobini yana takomillashtirish imkonini berdi.

Iqtsodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro hisob tizimi asosida takomillashtirish, jumladan axborotlarni o'z vaqtida foydalanuvchilarga etkazish, tijorat sirini saqlanishini

ta'minlash, korxona buxgalteriyasini ikki mustaqil qism: moliyaviy va kalkulyatsiya hisobiga bo'linishini shart qilib qo'ysi.

Bu tarzda buxgalteriyaning mustaqil qismlarga bo'linishi moliyaviy hisobni markazlashtirish va kalkulyatsiya hisobini esa nomarkazlashtirishga sabab bo'ldi. Natijada, kalkulyatsiya hisobi o'z vazifalariga ega bo'la boshladi va boshqaruv jarayonini tezkor-tahlilii axborot bilan ta'minlash, korxona bo'linmalari xarajatlari va daromadlarini nazorat qilish imkoniyatini yaratdi. Ushbu omillar xarajatlar me'yorlari, mahsulotning normativ kalkulyatsiyasini ishlab chiqish, haqiqiy xarajatlarning me'yoriy xarajatlarga muvofiqligini tezkor nazorat qilish, mavjud chetlanishlarni aniqlash va bartaraf qilishga imkon tug'dirdi hamda tannarxning shakllanish jarayonini boshqarishning chetlanishlar bo'yicha boshqaruv usuli yuzaga keldi.

XX asrning 40-yillari ohirida AQSH va G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlarida "ishlab chiqarish hisobi" atamasiga almashina boshladi. Bu davrda buxgalteriya hisobi boshqaruv siyosatini shakllanishi va amalga oshirilishida faol ishtirok eta boshladi, buxgalterlar esa taxminlash, rejalashtirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish va korxona boshqaruv xizmatlarini axborot bilan ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish sohasida faoliyat yurita boshladilar.

O'zbekiston korxonalarida ko'pgina buxgalterlar an'anaviy buxgalteriya hisobi bilan shug'ullanadilar. Ko'pgina korxonalarda boshqaruv hisobi olib borilmaydi yoki bu hisob juda sust rivojlangan. Uning ko'pgina unsurlari bizning an'anaviy buxgalteriya va operativ hisobimizga, iqtisodiy tahlilimiz tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston hisob amaliyoti hali marketing imkoniyatlardan foydalangan emas, unda haqiqiy xarajatlarning taxminiylardan og'ishishlarini, mahsulotni sotishning zararsizlik nuqtasini aniqlash, budgetlashtirish, transfert bahoni shakllantirish, ichki hisob va auditning metodikasi kabi katta imkoniyatlardan foydalanimayapti.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasida ish vaqtining asosiy qismini boshqaruv hisobini tiklash va yurgazishga xarajat qiladilar, ayni vaqtda, an'anaviy moliyaviy hisobga faqat qolgan qismigina ketadi. Respublikamiz korxonalarida esa bu nisbatning, afsuski, mutlaqo aksini ko'ramiz. Bunga sabab, boshqaruv hisobining O'zbekistondagi mavjud qonuniy va me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topmaganidir. Masalan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi

qonunda faqat buxgalteriya hisobiga aniqlik kiritilgan, unda na moliyaviy va boshqaruv hisobi to‘g‘risida hech narsa deyilmagan. Ma’lumki, u yoki bu hodisa mohiyatini tushunish uchun dastlab uning tarixan tiklanish va rivojlanish, shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash zarur.

Boshqaruv hisobining tiklanishi va shakllanishini kalkulyatsion va ishlab chiqarish hisoblarini rivojlanishi tarixidan ajralgan holda tasavvur etish qiyin.

Boshqaruv hisobi tiklanishi va rivojlanishi yo‘lida mavjud buxgalteriya bazasida ikki mustaqil schyotlar rejası – moliyaviy va boshqaruv hisobini qo‘llash amaliy qadam bo‘lib qoldi. Bunday bo‘linish sezilarli tarzda Yevropa mamlakatlarining yagona milliy rejalar shakllanishiga ta’sir qila boshladı. Gap shundaki, ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya va h.k.) buxgalteriya hisobi yagona hisob rejası bo‘yicha olib borildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa Yevropa iqtisodiy hayotida AQSH kapitali hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi, shu bilan birga buxgalteriya hisobining shakllanishiga ingliz-amerika yondashuvchi bo‘ldi. Chunki boshqaruv hisobida taxminlash va rejalashtirish funksiyalari tarkibiy funksiyalardan bo‘lib qoldi, ularning yagona buxgalteriyada qo‘llanishi esa korxonaning tijorat sirlari buzilishiga olib keldi. Shu sababdan Yevropa milliy hisob rejalarining bundan keyingi rivojlanishi ularning moliyaviy hisobot tuzish imkoniyatiga muvofiqlashuvi yo‘lidan bordi va ko‘pchilik hollarda moliyaviy hisob doiralari bilan chegaralana boshladı.

### **1.3. Zamonaviy boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o‘rtasidagi bog‘liqlik**

Zamonaviy boshqaruv hisobining mohiyatini chuqurroq anglash u bilan ishlab chiqarish hisobi orasidagi bog‘lanish va farqli jihatlarni ajratishga bevosita bog‘liq.

Ishlab chiqarish hisobi – ishlab chiqarish xarajatlari va korxona daromadini boshqarish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi. U korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq barcha masalalarni batafsil aks ettirishi lozim.

Zamonaviy boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin (1.1-jadval).

### **1.1-jadval.**

#### **Korxonada ichki xo‘jalik hisobining turlari va ular o‘rtasidagi aloqadorlik**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Zamonaviy boshqaruv hisobi	Ishlab chiqarish hisobi	Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi
1.	Rejalashtirish (budjetlashtirish)	+	+	-
2.	Taxminlash (prognostika)	+	+	-
3.	Ichki (segmentar) hisob va hisobot	+	-	-
4.	Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi aniqlash	+	+	+
5.	Transfert bahoni shakllantirish	+	-	-
6.	Istiqlolni belgilash	+	-	-

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy boshqaruv hisobi ishlab chiqarish hisobidan kengroq bo‘lib, o‘z ichiga ichki (segmentar) hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish hamda istiqlolni belgilash kabi hisobning yangi yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish hisobi esa yuqoridaqilardan tashqari quyidagi ko‘rsatkichlarni ham o‘zida aks ettiradi:

- xarajatlar va daromadlarning turlari;
- javobgarlik markazlari bo‘yicha xarajatlar va daromadlar hisobi;
- xarajatlar va daromadlarni hisobdan chiqarish hisobi.

### **1.4. Moliyaviy va boshqaruv hisobining o‘zaro bog‘liqligi**

Korxonalarda buxgalteriya hisobini istiqbolli rivojlantirish moliyaviy va boshqaruv hisobi kabi uning muhim tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganishni taqozo etadi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi o‘rtasida ko‘pgina umumiyliliklar mavjud, chunki ularning ikkalasi ham korxona hisob tizimi axborotidan foydalananadi.

Moliyaviy hisobning qabul qilingan tamoyillari boshqaruv hisobida ham amal qilishi mumkin, chunki korxona rahbarlari o‘z faoliyatlarida mutlaqo tekshirilmagan taxminlar va fikrlarga tayanib ish qilishlari mumkin emas. Bundan tashqari, har ikkala kichik tizim

axborotidan zaruriy boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun foydalaniladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi mavjud tafovutlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

**1. Hisobning maqsadi.** Moliyaviy hisobning maqsadi korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini baholash, aktivlar va passivlarning holati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish, davriy va yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan iborat. Bu ma'lumotlar ma'muriyatning o'zi uchun ham, tashqi foydalanuvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'ladi. Tashqi foydalanuvchilar, investor va kreditorlar korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to'lov qobiliyati, kreditga layoqati, mazkur korxonaga berilgan investitsiyalarning rentabellik darajasi kabilarga baho berishda aynan shu ma'lumotlarning aniq belgilangan talablar va standartlarga muvofiq ravishda olib borilganiga e'tibor beradilar.

Boshqaruv hisobining asosiy maqsadi esa korxona rahbariyatini oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlashdir.

**2. Hisob siyosatini ishlab chiqish.** Moliyaviy hisobda hisob siyosati uni yuritish qoidalari, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish tartibini ifodalaydi.

Boshqaruv hisobi hisob siyosatida asosan korxona faoliyatini budjetlashtirish, taxminlash, tannarx hisoblash, transfert bahoni shakllantirish, segmentar hisobot tuzish masalalari o'z ifodasini topadi.

**3. Axborotlarni buxgalteriya hisobi schyotlari tizimida aks ettirish.** Moliyaviy hisob schyotlari tizimi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari holati hamda harakati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni umumlashtiradi. Ushbu schyotlarni O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini schyotlar rejasiga va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga»ga nomli milliy standartiga asoslanadi. Ushbu schyotlarni rejasining yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrdagi 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrdaga 1181-son bilan ro'yxtiga olingan.

Boshqaruv hisobi schyotlar rejasiga esa korxona va uning bo'linmalari faoliyati to'g'risida strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish, budjetlashtirish, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini tashkil etish, "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tizimi bo'yicha

moliyaviy natijalarni aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur schyotlar rejasini amaliyatga joriy etish ikki razryadli buxgalteriya hisobi schyotlari tizimidan to'rt razryadli tizimga o'tish zaruratini keltirib chiqaradi:

a) balans schyotlari, ya'ni balans tuzishda ishtirok etuvchi schyotlar;

b) operatsion, "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tizimi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalaniladigan schyotlar.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida boshqaruv hisobi schyotlar rejasining Germaniya va Rossiyada muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan tizimlari amal qilmoqda.

**4. Axborotdan foydalanuvchilar.** Moliyaviy hisobni tashqi hisob deb ham ataydilar. Uning natijalari chop etib boriladi, biroq, moliyaviy hisobotlar nafaqat moliyaviy axborotlarni, shuningdek, korxonalar faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni, ularning yangi mahsulotlarini namoyish etuvchi reklama tusidagi axborotlarni ham o'z ichiga oladi. Moliyaviy hisob axborotlaridan foydalanuvchilar, asosan korxonadan tashqarida bo'ladilar. Ushbu axborot korxona rahbariyati, davlat organlari, kreditorlar, aktsionerlar, investorlar (ichki va tashqi foydalanuvchilar) uchun zarur. Boshqaruv hisobini, binobarin, ichki hisob deb atash mumkin. Uning natijalaridan korxona boshqaruvi xodimlari, ta'sischilar va kuzatuv kengashi a'zolari foydalanadilar.

**5. Axborotni taqdim etish shakllari.** O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga muvofiq, moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi, pul oqimlari to'g'risidagi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllari, shuningdek, izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlardan iborat. Moliyaviy hisobot shakllari Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyruq bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda 1209-raqam bilan ro'yxtiga olingan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha Qoidalar» bo'yicha taqdim etiladi. Shuningdek, korxonalar soliqlar, ijtimoiy ta'minot va sug'urta, mehnat birjalariga o'rnatilgan tartibda hisobot topshiradilar.

Boshqaruv hisobi axborotlari esa foydalanuvchilarga erkin shaklda taqdim etiladi.

**6. Hisobni yuritish majburiyati.** Moliyaviy hisob rasmiy hisob bo'lib, barcha korxonalar uchun uni yuritish majburiyidir. Moliyaviy

hisobot hujjatlari soliq idoralari va boshqa tegishli joylarga taqdim etiladi, ular auditorlarning tekshiruv ob'ekti hisoblanib, chop etilishi shartdir.

Boshqaruv hisobini olib borish korxona rahbariyati talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

**7. Hisobni tashkil etish qoidalari.** Moliyaviy hisobda moliyaviy hisobot axborotlari aniq tamoyil va qoidalarga muvofiq shakllanishi hamda aks ettirilishi shart, ular asosida ma'lumotlar qayd qilinadi, baholanadi va tegishli schyotlarda rasmiylashtiriladi. Ushbu tamoyil va qoidalalar «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida belgilab qo'yiladi.

Boshqaruv hisobini yuritish tartib-qoidalari korxonaning strategik va taktik maqsadlaridan, xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Bu hisob turida ma'lumotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ahamiyatlilik darajasiga e'tibor beriladi.

**8. Hisob tamoyillari.** Moliyaviy hisob umumiyligi tamoyillarga tayanadi, bular buxgalteriya hisobini ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, anqlik, mazmunning shakldan ustunligi, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi, moliyaviy hisobotning betarafligi va h.k. Bu tamoyillarga korxona xodimlari bilan bir qatorda davlat idoralari vakillari ham amal qiladilar.

Boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari esa hisobni ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, uzuksizlik, anqlik, hisoblash, ehtiyyotkorlik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi va h.k. hisoblanadi.

**9. Hisobning asosiy ob'ektlari.** Moliyaviy hisobotlarda korxona odatda yagona, yaxlit deb ta'riflanadi. Ko'p tarmoqli faoliyat olib boruvchi yirik korxonalar har bir soha bo'yicha ya'ni korxonaning yirik segmentlari bo'yicha xarajat va daromadlarni umumlashtirilgan moliyaviy hisobotda aks ettirishi shart.

Boshqaruv hisobi, odatda korxonaning alohida bo'linmalarini: bo'limlar, tseklar, uchastkalar, ish joylari faoliyati to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi.

**10. Hisobning asosiy tuzilmasi.** Moliyaviy hisob quyidagi asosiy tenglikka muvofiq shakllanadi:

$$\text{Aktivlar} = \text{O}'z mablag'lari manbalari} + \text{Majburiyatlar}$$

$$(A = E + L)$$

Boshqaruv hisobi axboroti tuzilmasi va tarkibi uning

foydalanuvchilarini ehtiyojlariga bog'liq. Boshqaruv hisobining har qanday tuzilmasi eng avvalo xarajatlar, daromadlar va aktivlar kabi kategoriyalarga tayanadi. Bu tuzilmalarni qo'llashda asosiy mezon zarur axborotning foydaliligidir.

**11. Axborotning oshkoraliq darjasasi.** Moliyaviy hisob axborotlari uning foydalanuvchilari uchun ochiq hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuning 19-moddasiga ko'ra, mazkur axborotlar soliq organlariga, ta'sis hujjatlari muvofiq mulkdorlarga, davlat statistika organlariga, qonun hujjatlari muvofiq boshqa organlarga taqdim qilinadi.

Boshqaruv hisobi axborotlari ko'proq maxfiylik xususiyatiga ega bo'lib, ulardan korxona menejerlari, ta'sischilar va kuzatuv kengashi a'zolari boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanadilar. Ushbu axborotlar korxonaning tijorat siri hisoblanadi. Ular hisobotdan tashqi foydalanuvchilarga berilmaydi.

**12. Axborotni aks ettirish usullari va yo'llari.** Moliyaviy hisob qiymatda shakllanadigan axborotni o'z ichiga oladi. Korxonaning moliyaviy hisoboti bosh daftardagi barcha schyotlar bo'yicha yakuniy qoldiqlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy hisobda xo'jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, buxgalteriya balansi va hisobot va h.k. usullarida ifoda etiladi. Unda moliyaviy hisobot ma'lumotlari albatta pul birligi ko'rinishida aks ettirilishi zarur. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari bosh daftarning yakuniy yozuvlariga mos keladi.

Boshqaruv hisobida xo'jalik muomalalarini aks ettirishda ikkiyoqlama yozuv usuliga asoslanish shart emas. Mazkur hisob turida ma'lumotlar har qanday o'lchov birligida hisoblanishi mumkin. Shuningdek, unda moliyaviy hisobot shakllari axborotlarining Bosh kitob ma'lumotlari bilan mos kelishi va taqqoslanishi shart emas.

Boshqaruv axborotini qayd etish va aks ettirishda esa moliyaviy hisob usullari bilan birgalikda ekonometrika, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

**13. Axborotlarni o'lchash.** Xo'jalik jarayonlarini umumlashtirish uchun moliyaviy hisobda faqat qiyamat o'lchovi qo'llaniladi va so'mlarda ifoda etiladi.

Boshqaruv hisobida esa hisob o'lchovlarining moddiy, mehnat va qiyamat kabi barcha turlaridan foydalaniladi.

**14. Hisobot tuzishning davriyligi.** Moliyaviy hisobot qat'iy belgilangan muddatlarda tuziladi hamda taqdim etiladi.

Boshqaruv hisobida hisobot har kuni, har hafta va h.k. muddatlarda tuzilishi mumkin. Hisobotlarni taqdim etish muddati korxona rahbariyati tomonidan belgilanadi. Muhimi, hisobot iste'molchilarga foydali bo'lishi va o'z vaqtida taqdim etilishi lozim.

**15. Axborotning sodir bo'lishi vaqtini.** Moliyaviy hisob korxonaning moliyaviy tarixini aks ettiradi. Unda xo'jalik muomalalari ularning sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlar orqali qayd etiladi ya'ni hisobning bu turi korxona xo'jalik faoliyatida allaqachon sodir bo'lgan muomalalarni tasdiqlaydi.

Boshqaruv hisobining maqsadi esa sodir bo'lgan voqealar tahlili asosida istiqbolga mo'ljallangan tavsiyalar, boshqaruv va investitsiya qarorlari dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Moliyaviy hisob xo'jalik muomalalari sodir bo'lgandan so'ng, boshqaruv hisobi esa voqealari oldindan tashxislab berishi zarur. Shu boisdan, boshqaruv hisobini ko'pincha taxminlash hisobi, maxfiy hisob deb ham ataydilar.

**16. Axborotning aniqlik va ishonchlilik darajasi.** Moliyaviy axborot sodir bo'lgan operatsiyalarni aks ettiradi, shu bois, u xolislik xususiyatiga ega va auditorlik tekshiruvidan o'tadi.

Boshqaruv hisobi esa ko'proq bo'lajak davrga mo'ljallangan istiqbol bilan ish tutadi. Shu bois, boshqaruv hisobidagi axborot ehtimollik va subyektiv (xususiylik) tavsifiga ega.


**17. Xarajatlar va daromadlarni guruhlash yo'llari.** Moliyaviy hisobda xarajatlar kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha, daromadlar esa korxona va uning faoliyat turlari (segmentlari) bo'yicha guruhlanadi va aks ettiriladi.

Boshqaruv hisobida xarajatlar xarajat moddalarini bo'yicha, daromadlar esa bo'linmalar va mahsulot(ish, xizmat)lar turlari bo'yicha guruhlanadi va aks ettiriladi. Xarajat moddalarining ro'yxati tarmoq yo'riqnomalari bilan belgilanadi hamda korxonaning hisob siyosatida ifodalanadi.

Boshqaruv va moliyaviy hisoblar turli mualliflar tomonidan turlicha qiyosiy talqin qilinadi. Ushbu muammoga turli mualliflar qarashlarini umumlashtirilgan holda quyidagi belgilarni taklif etishni maqsadga muvoofiq deb bilamiz. Ular ko'p darajada boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtafiga mavjud tafovutlarni va mohiyatini xoliroq aks ettiradi.

Boshqaruv hisobidagi axborot tuzilmasi, tarkibi uning foydalanuvchilarning ehtiyojlariga bog'liq. Boshqaruv hisobining har qanday tizimi, eng avvalo xarajatlar, daromadlar va aktivlar kabi kategoriyalarga tayanadi va asosli qurilmalardan o'ziga yoqqanini tanlab oladi. Bu tuzilmalarni qo'llashda asosiy mezon uzatiladigan axborotning foydaliligidir.

YA.V. Sokolov boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtafiga munosabatni noyob chizmasini taklif etadi. 1.1-chizma.



A – boshqaruv hisobi; S – moliyaviy hisob; B – hisob siyosati.

#### 1.1-chizma. Boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtafigagi bog'liqlik va nisbati

Uning fikricha, S – sohasi – faqat tashqi foydalanuvchilar manfaatlari uchun olib boriladigan hisobni o'zida namoyon etadi. B – sohasi – boshqaruv hisobining ichki va tashqi foydalanuvchilar manfaatlarini ko'zlab olib boriladigan qismidir, A – sohasi esa – ma'muriyat talabi asosida shakllantiriladigan boshqaruv hisobi.

Taqdim etilgan chizma shuni ko'rsatadiki, hisob siyosati boshqaruv va moliyaviy hisoblar o'rtafiga bog'lovchi halqa hisoblanib, u korxonaning ichki va tashqi foydalanuvchilari manfaatlari yo'lida tashkil etiladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, tezkor, statistik va soliq hisobi bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi korxonaning umumiy hisobi tizimiga kiradi va ikki qismiga bo'linadi: **moliyaviy** va **ishlab chiqarish**; korxona xarajatlari va daromadlari ularning ob'ekti (manbai) hisoblanadi. Ishlab chiqarish hisobining tahliliy (analitik) axboroti mutlaqo ichki boshqaruv uchun foydalilanadi. Moliyaviy hisobda esa asosan tashkilotning tijorat sirini namoyon

etmaydigan axborot to'planadi, shu munosabat bilan uni yangi tashqi foydalanuvchilarga taqdim etadilar.


Boshqaruv hisobi esa faqat hisob amallari bilan cheklanmaydi, balki boshqaruvning boshqa funksiyalari hisobiga mohiyati jihatidan ishlab chiqish hisobini boshqaruv hisobiga aylantiradi.

Boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini quyidagi ko'rinishda taqdim etish mumkin.

Boshqaruv hisobi imkoniyatini ochish uchun boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatish zarur.

Boshqaruv hisobi taktikasi quyidagilaridan iborat: tashkil etish, hisob, nazorat, dalillash, avval qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish va moslashtirish, shuningdek uning ijrosi uchun javobgarlik.

Boshqaruv hisobining strategiyasi uzoq davr mobaynida korxona taraqqiyotini belgilovchi tahlil, taxminlash, rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini o'zida namoyon etadi.



## 1.2-chizma. Boshqaruv va moliyaviy hisobot o'rtasidagi bog'liqlik

O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"<sup>3</sup>gi qonunida belgilanganidek: "Korxona o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va xomashyo resurslari va materiallarning mavjudligi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot istiqbollarini belgilaydi".<sup>3</sup>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi. Qonunlar va farmonlar. – T.: O'zbekiston, 1992 yil. 87-bet.

Integratsiya jarayonida hal qiluvchi nuqta xarajatlar va daromadlarni taqqoslash bo'lganligi sababli boshqaruv hisobi uchun eng muhimmi xarajatlar va daromadlarni boshqarish hamda daromadlarga ta'sir qilish vositasini bilan natijalar orqali boshqarish bo'lib qoladi.

## Test topshiriqlari

### 1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobi qanday qismlarga bo'linadi?

- a) moliyaviy hisob va statistik hisob;
- b) boshqaruv hisobi va dinamik hisob;
- v) moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi;
- g) moliyaviy hisob va soliq hisobi;
- d) boshqaruv hisobi va soliq hisobi.

### 2. Zamonaviy boshqaruv hisobi...

a) korxona va uning iqtisodiy bo'lmalari faoliyatlarini yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchi ichki xo'jalik hisobining sintetik tizimidir;

b) korxona va uning iqtisodiy bo'lmalari faoliyatlarini yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir;

v) korxona va uning turli bo'g'inlaridagi tarkibiy tuzilmalarining faoliyatlarini yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan xarajat va daromadlar to'g'risidagi axborot tizimidir;

g) korxonaning faoliyati yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi axborotni taqdim etuvchi ichki xo'jalik hisobining tizimidir;

e) korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvolini baholash, aktivlar va passivlarning holati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish, davriy va yillik buxgalteriya hisobotini tuzishni amalga oshiruvchi hisob tizimidir.

### 3. Zamonaviy boshqaruv hisobining maqsadi ifodalangan qatorni aniqlang?

- a) tashqi foydalanuvchilar uchun axborotlarni etkazib berish;
- b) ichki foydalanuvchilar uchun axborotlarni shakllantirish;
- v) tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun axborotlarni yig'ish;
- g) boshqaruv hisobining maqsadi aniq emas;
- e) moliyaviy hisobning maqsadi bilan bir xil.

### 4. «Zamonaviy boshqaruv hisobi»ning tamoyillarini belgilang?

- a) xolislik va qiyoslanuvchanlik;

- b) ikkiyoqlama yozuv va ehtiyotkorlik;
- v) boshqaruv hisobi umumiy tamoyillarga ega emas
- g) oddiylik va tezkorlik
- d) tezkorlik va qiyoslanuvchanlik.

**5. Zamonaviy boshqaruv hisobining axborotlari qanday o'chanadi?**

- a) moddiy, mehnat va qiymat;
- b) moddiy;
- v) mehnat;
- g) qiymat;
- d) mehnat va qiymat.

**6. Zamonaviy boshqaruv hisobining axborotlari kimlarga taqdim etiladi?**

- a) soliq organlariga;
- b) statistika boshqarmasiga;
- v) erkin shaklda taqdim etiladi;
- g) moliya bo'limiga;
- d) bank muassasalariga.

**7. «Zamonaviy boshqaruv hisobi»ning axborot manbalari nimalardan iborat?**

- a) moliyaviy ma'lumotlar, marketing, soliq, sug'urta, texnologik chiqindilar haqidagi ma'lumotlar;
- b) marketing, soliq, sug'urta, texnologik chiqindilar haqidagi ma'lumotlar;
- v) sug'urta, texnologik chiqindilar haqidagi ma'lumotlar;
- g) moliyaviy ma'lumotlar, marketingga oid ma'lumotlar;
- d) moliyaviy ma'lumotlar.

**8. Zamonaviy boshqaruv hisobining elementlarini aniqlang?**

- a) rejalashtirish (budgetlashtirish);
- b) rejalashtirish, taxminlash, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash, segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish;
- v) taxminlash, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash;
- g) segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish;
- e) rejalashtirish, taxminlash, segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish.

**9. Zamonaviy boshqaruv hisobining asosiy tuzilmasi nimalardan iborat?**

- a) xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natija;

- b) daromadlar va moliyaviy natija;
- v) aktivlar va passivlar;
- g) aktivlar, kapital va majburiyatlar;
- d) xarajatlar va zararlar.

**10. Ishlab chiqarish hisobining elementlarini aniqlang?**

- a) rejalashtirish, taxminlash, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash;
- b) xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash;
- v) rejalashtirish, taxminlash;
- g) segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish;
- d) transfert bahoni shakllantirish.

**Nazorat savollari**

1. Zamonaviy boshqaruv hisobiga ta'rif bering.
2. Zamonaviy boshqaruv hisobining maqsadi nima?
3. Respublikamiz korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish zaruratin yuzaga keltirayotgan omillarni sanab bering.
4. Zamonaviy boshqaruv hisobining qanday elementlari mavjud?
5. Korxona faoliyatida boshqaruv hisobi qanday o'rinn tutadi?
6. Zamonaviy boshqaruv hisobining shakllanishida kalkulyatsiya va ishlab chiqarish hisobining roli nimalardan iborat?
7. Kalkulyatsiya hisobi nima?
8. Ishlab chiqarish hisobi nima?
9. Boshqaruv hisobining vazifalari nimalardan iborat?
10. Boshqaruv hisobining strategiyasi va taktikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
11. Axborotdan foydalanuvchilar nuqtai-nazaridan boshqaruv hisobi va moliyaviy hisob o'rtasida qanday farqlar mavjud?
12. Axborot manbalariga ko'ra boshqaruv hisobi moliyaviy hisobdan qanday farqlanadi?
13. Moliyaviy va boshqaruv hisobida hisobning asosiy tuzilmasi qanday ko'rinishga ega?
14. Axborotni taqdim etish shakllariga muvofiq hisob turlarining farqini ko'rsatib bering.
15. Moliyaviy va boshqaruv hisobida axborotlar qanday o'chanadi?

## **2-bob. ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA HISOB SIYOSATI**

### **2.1. Hisob siyosati haqida tushuncha va uning nazariy asoslari**

Hisob yuritish siyosati xo'jalik subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining alternativ usullari va shakllaridan korxona tanlab olgan va e'lon qilgan buxgalteriya hisobining usullari va shakllarining yig'indisidir.

Hisob siyosatiga amaldagi me'yoriy hujjatlarda ham turlicha talqin qilinadi. Masalan buxgalteriya hisobi milliy standartlarida quyidagi tushuncha keltirilgan: "Hisob siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qabul qiladigan usullarning yig'masi tushuniladi, moliyaviy hisobot shu usullarga muvofiq va ularning qoidalari va asoslariga muvofiq ravishda tuziladi"<sup>4</sup>.

Buxgalteriya hisobini guruhlarga ajratish va xo'jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to'lash, hujjatlar aylanmasini, mol-mulkni ro'yxatga olishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobida hisobotlarni qo'llanish usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va o'zga tegishli usullar, uslubiyatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullariga kiradi.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatini tuzish va uni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar jahon hamda O'zbekiston miqiyosida etarli darajada o'rganilmagan. Ammo xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatiga oid bir qancha ilmiy ishlari jahon va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan. Masalan, Smirnova L.R o'zining ilmiy asarida, hisob siyosatining hisob siyosatida hisobning muhim variantlarini har xil operatsiyalarda to'g'ri qulay bo'lishi kerak, shuningdek, tijorat banklarning hisob siyosatini shakllantirishda uзви bog'liq soliqlarni rejalashtirish va baholay bilishdir, deb baholaydi<sup>5</sup>.

Astaxov V.P. tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi uchta qismga ajratgan holda hisob siyosati ko'rildi:

1. Buxgalteriya hisobining metodikasi hisob ob'ektlarni tan olish, o'lhash va hisob raqamlarida aks ettirishning tanlab olingen usullarini

ifodalovchi holatlarni ko'rsatishni, metodologik jihatlarni balans va hisobotning boshqa shakllarning har bir elementi bo'yicha ifodalash lozim deb hisoblaydi.

2. Buxgalteriya hisobini yuritish texnikasi, bunda buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan ishchi schyotlar rejasini, hisob registrlarni schyotlarga biriktirilishini, hujjatlar shakllarining albomini, inventarizatsiyani o'tkazish muddatlari va tartibini, zamnaviy kompyuterlar va boshqa tashkiliy texnikasi vositalarni, ularni qo'llash uchun zarur bo'lgan klassifikator va kodifikatorlarni kiritadi.

3. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish buxgalteriya ishini tanlab olingen tashkiliy shaklini, hisob xodimlari mehnatini tashkil qilish usuli, funktional majburiyatlarini buxgalterlar o'rtasida taqsimlashni tanlangan variantini, hujjatlar aylanishining tashkil qilinishini, bosh buxgalterni tayinlanishi, ishdan bo'shatilishi, huquqlari, majburiyatlarini ko'rsatgan.

Itespublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng hisob siyosatini tuzish va takomillashtirish misollarida olimlarimiz quyidagicha ta'riflagan:

A.X. Pardayev tomonidan berilgan izohda «Korxona hisob siyosati korxonaning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va umumiylaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan va e'lon qiladigan buxgalteriya hisobining shakl va uslublar to'plamidir» deyilgan<sup>6</sup>.

N.YU. Jurayev esa «Hisob siyosati xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining muqobil usullari va shakllaridan korxona tanlab olgan hamda e'lon qilgan buxgalteriya hisobi tizimidir» degan<sup>7</sup>.

B. Hoshimov xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatini buxgalteriya hisobini ma'lum qoidalar va tamoyillar bo'yicha quyidagicha asoslagan:

Tamoyil va qoidalarning shunday majmuini o'rnatish kerakki, uni amalda qo'llash hisob yuritishning maksimal samarasini ta'minlasin". Bunda samara deb moliyaviy va boshqaruv axborotlarni o'z vaqtida shakllantirish keng doiradagi foydalanuvchilar uchun ishonchliligi, ravonligi va foydaliligin ta'minlash tushunilgan<sup>8</sup>.

F.G'. G'ulomova esa korxonalar hisob siyosatini tarkibiy jihatdan 4 ta qismga ajratib o'rgangan, bu quyidagilar:

<sup>4</sup> Hisob siyosat va moliyaviy hisobot. I-soni BHMS. O'zRAV ro'yxatga olingen. 14.08.1998 y. 474-son. O'zR MV tasdiqlangan. 26.07.1998 y. 17-17/86-son.

<sup>5</sup> Смирнова Л.Р. Банковский учёт. – М., 2000. 55-бет

<sup>6</sup> Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. – T., 2002. 18-bet.

<sup>7</sup> Jo'rayev N. Korxonaning hisob siyosati. – T., 1998. 3-bet.

<sup>8</sup> Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariysi. – T., 2004.

1. Umumiy tartiblar – bunda buxgalteriya hisobini yuritish maqsadi, korxona rahbari va bosh buxgalterning huquqlari, majburiyatlari aks ettirish tavsiya etilgan.

2. Hisob metodikasi buxgalteriya hisobining ob'ektlari bo'yicha ularni baholash va aks ettirishning tanlab olingan variantlarni ko'rsatish tavsiya etilgan.

3. Hisob texniksi buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan schyotlar rejasini, hisobini yuritish texnikasini, inventarizatsiya o'tkazish muddatlari, ya'ni hisobni yuritish texnikasiga doir aniq usullarni aks ettirish tavsiya qilinadi<sup>9</sup>.

4. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishi buxgalteriya hisobi kim tomonidan yuritilishini, buxgalteriya ishini tanlab olingan tashkiliy shaklini ko'rsatish tavsiya qilingan.

B.A. Xasanov tomonidan qo'yidagicha ta'rif berilgan va 1-son Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga kiritishni maqsadga muvofiq deb bilgan holda "Hisob siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning tanlangan aniq qonuniy usullarini o'zida mujassamlashtiruvchi va foydalanuvchilarning axborot olish talablarini to'liq qoniqtirishga xizmat qiluvchi ichki me'yoriy hujjat tushuniladi" deb asoslagan. U hisob siyosatini ichki me'yoriy hujjat sifatida qo'yidagi talablarga javob berishi lozimligini aytgan:

- aniq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashi;

- ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilarning manfaatlariga xizmat qilish;

- ichki axborot foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektda belgilangan xususiy ichki talablarga to'liq amal qilinayotganligini kunlik faoliyat nazorat qilib borishga imkon yaratish;

- buxgalteriya hisobi axborotlarini tashqi foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilishini engillashtirish va boshqalar<sup>10</sup>.

J. Qurbonboevning ilmiy ishida hisob siyosatiga bergan ta'rifi quyidagichadir, «Hisob siyosati buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobini tuzish va topshirish uchun muqobil tamoyillar, shart va qoidalarga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyekt

rahbari tomonidan qabul qilingan maqbul usullar va qoidalar majmuasi tushuniladi»<sup>11</sup>.

Hisob siyosati, subyekt buxgalteriya hisobining analitik jihatining ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilar manfaatlariga mos keltirishga qaratilishi kerakligini olimlar o'z ilmiy ishlarda buxgalteriya hisobining kontseptual masalalarida belgilab bergen.

Buxgalteriya hisobini yuritishning me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullaridan foydalanish tartibini muayyanlashtirish

Mustaqil ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobini yuritish usullariga me'yoriy hujjat maqomini berish

Sub'ekt tuzilishi va faoliyat xususiyatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi usullarini amalga oshirish mexanizmlarini o'rnatish

## 2.1-chizma. Xo'jalik subyektlarida hisob siyosatini ishlab chiqish maqsadi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamонавиy boshqaruв hisobini tashkil qilish va uni yuritish muhim vazifalardan bo'lib, hisob jarayonini tashkil qilish amaldagi moliyaviy qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy boshqaruв hisobining kontseptsiyasini yaratishda yangicha yondashuvning mazmuni shundan iboratki, buxgalteriya hisobini davlat tomonidan belgilangan umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda subyektlarda zamонавиy boshqaruв hisobini yuritishdan ko'zlangan asosiy vazifalarni bajarish uchun mustaqil ravishda hisob yuritish siyosatini ishlab chiqadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati rahbar tomonidan 1-sonli BHMS asosida tuzilib, subyektning turli yillar uchun taqdim qilingan moliyaviy hisobotlaridagi ko'rsatkichlar taqqoslanuvchan, hamda boshqa aloqador milliy standartlar (BHMS) asosida

<sup>9</sup> G'ulomova F.G\*. Uchetnaya politika predpriyatiya. – T., 2004.  
<sup>10</sup> Xasanov B.A. Boshqaruв hisobi. – T., 2005.

shakllantirilgan bo'lishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyekt har bir kalender yili uchun o'z hisob siyosatini ishlab chiqishi kerak.

Zamonaviy boshqaruv hisobining hisob siyosatida asosan xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, budgetlashtirish, segmentar hisob va hisobotni tuzish, trasfert bahoni shakllantirish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mahsulotlarni baholash va sotish tartibi, boshqaruv hisobining ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish va boshqalar belgilanadi. Navbatdagi hisobot yili uchun ishlab chiqilgan hisob siyosati subyekt rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng huquqiy maqomga ega bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati subyekt rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Hisob siyosatining shakllantirishda subyekt tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobini yuritish usullari buyruq chiqqan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan qo'llaniladi. Bunda xo'jalik subyekti bo'lmalarinmg joylashgan joylaridan qat'i nazar, barcha tarkibiy bo'lmalari tomonidan qo'llaniladi.

Yangi tashkil etilgan xo'jalik subyektlari qabul qilgan hisob siyosatini, moliyaviy hisobotini matbuotda birinchi nashr etilishigacha, lekin davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan 90 kundan kechikmasdan rasmiylashtirilishi kerak.

Kalendar yili ichida hisob siyosati o'zgarmaydi. Faqat quyidagi hollarda xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati o'zgarishi mumkin:

1. Subyekt qaytadan tashkil etilsa.
  2. Mulkdorlarning almashishi natijasida.
  3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgarsa yoki O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ tizimida o'zgarish bo'lsa.
  4. Buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilsa.
- Hisob siyosati oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:
- to'liqlilik (barcha faktlarni hisobda to'liq aks ettirishini ta'minlash);
  - ehtiyojkorlik nobudgarchiliklarni aks ettirishga tayyor bo'lish;
  - mazmunning shakldan ustunligi;
  - qarama-qarshilik;
  - oqilona.

AQSHda Umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillari (GAAP – Generally Accepted Accounting Principles). Tizimida hisob siyosati shakllantiriladi. Ushbu tartib buxgalteriya hisobi standartlari vazifasini bajaradi. Standartlarni ishlab chiqishda "Moliyaviy hisob bo'yicha Qo'mita" (FASB), "Qimmatli qog'ozlar va birja bo'yicha Komissiya" (SEC) va "Amerika jamoatchi diplomli buxgalterlar instituti" (AICPA) kabi tashkilotlar faol ishtirok etadi. Buyuk Britaniyada hisob va hisobotga(hisob siyosatiga) qo'yilgan umumiyl talablar "Kompaniyalar to'g'risidagi" qonun bilan tartibga solinadi (Company Act, 2006, CA 2006). Ushbu qonunning 15 moddasida boshqariladigan buxgalteriya hisobi va hisoboti haqida so'z yuritilgan. Germaniyada buxgalteriya hisobi va hisoboti (hisob siyosati) soliqli tortish nuqtai nazardan tashkil etilgan. Buxgalteriya hisobi amaliyoti bo'yicha "Buxgalterlar instituti shug'ullanadi" (IW-1931 y). Shuningdek "Buxgalterlar Palatasi" (WSO) ham faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda hisob siyosati Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi (umummilliyy doirada). Shu asosida iqtisodiyot tarmoqlari o'zining hisob siyosatini ishlab chiqadi (xo'jalik subyekti doirasida)

Xalqaro tajribadan shu narsa ma'lumki, har qanday hisob siyosati quyidagi ikki xil usulda tashkil etiladi:

*birinchidan*, Umummilliyy hisob yuritish siyosati mamlakat davlat yoki nodavlat muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va unda amaldagi qonunlar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi xo'jalik subyektlari uchun umumiyl bo'lgan uslubiy asoslar ishlab chiqiladi;

*ikkinchidan*, xo'jalik subyektlarining hisob yuritish siyosati uni ishlab chiqarishda umummilliyy hisob yuritish siyosatidan kelib chiqib, o'z faoliyatini samarali tashkil qilish uchun zarur bo'lganlarini tanlab oladilar va uni tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektda hisob yuritish siyosatini shakllantirishga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Mulk shakllarining tushkiliy huquqiy asoslari (aktsionerlik jamiyati, jamoa hokimahri va hokazalar)	Baho siyosatini yuritishdagi mustaqillik	Subyektning iqtisodiy va huquqiy axborotlar bilan ta'minlash darajasi
Iqtisodiyotning qaysi tarmoqqa mansubligi	Subyektning boshqaruv faoliyatida	Xo'jalik, soliq, buxgalteriya to'g'risidagi qonunlarning ahvoli va ma'lumotlar darajasi

(qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo va xokazo)	kompyuterlardan foydalanish darajasi	
Soliqqa tortish tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi	Moliya xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish strategiyasi	Buxgalterianing malakasi, subyekt rahbarlarining iqtisodiy tejamkorligi, tashabbuskorligi, moddiy rag‘batlantirish tizimlari

Hisob yuritish siyosati oldiga qator talablar ham quyiladiki, ulardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Xo‘jalik subyektida hisob siyosati yagona bo‘lishi zarur	Xo‘jalik faoliyatiga tegishli faktlar o‘sha hisob davrida aks ettirilishi zarur
Subyekt har bir aniq muomalalarga nisbatan buxgalteriya hisobida bitta usul qo‘llanilishi zarur	Hisob yuritish siyosati belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi zarur (buyruq, farmoyish)

Hisob siyosatining mazmunini ifodalaydigan ma’lumotlar quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik subyektining hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruq (farmoyish);
- buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasи;
- tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllari va ichki buxgalteriya hisobotlari uchun hujjatlar shakllarining ro‘yxati;
- hujjatlar aylanish reja-grafigi va hisob axborotlariga ishlov berish texnologiyalari;
- ayrim ko‘rsatkichlarni hisobga olish bo‘yicha tasdiqlangan uslubiyot va tekshiriladigan korxona hisob siyosati to‘g‘risidagi buyruqqa boshqa ilovalar;
- quyidagi masalalarni bayon qiladigan (ochib beradigan) tushuntirish xati.

Xo‘jalik subyektining hisob siyosatiga taalluqli ma’lumotlar:

- hisob siyosatini shakllantirishda tanlab olinadigan, o‘tgan yilidan farq qiladigan buxgalteriya hisobini yuritish usullari;
- hisobot yilida yoki hisobot yilidan keyingi davrlarda buxgalteriya hisobotlaridan foydalanuvchilarning baholash va qaror qabul qilishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan hisob siyosatidagi o‘zgarishlar;
- hisobot sanasidan keyin sodir bo‘lgan hodisalar va xo‘jalik faoliyatining shartli faktlari, muomalalarni to‘xtatish, bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan foya.

Umuman olganda, hisob siyosati o‘z ichiga moliyaviy hisob va

boshqaruv hisobining xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Ya‘ni hisob siyosatida quyidagilar o‘z aksini topishi kerak:

#### I. Tashkiliy - texnik masalalar.

- hujjatlar aylanish qoidalari va reja - grafigi;
- ichki hisobot (tarkibi, shakllari, davriyiligi, tuzish va taqdim qilish muddatlari, foydalanuvchilar) – bevosita boshqaruv hisobiga tegishli bo‘limi;

- ichki nazorat tizimi (ichki audit xizmati, mutaxassis, rahbar) – boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan;

- buxgalteriya (yoki moliya-hisob markazi) to‘g‘risidagi Nizom va buxgalteriya yoki moliya - hisob markazi (MHM) xodimlarining xizmat vazifalari taqsimoti;

#### II. Uslubiy masalalar.

- tovar-moddiy zaxiralar haqiqiy sarfining me’yordan og‘ishishlarini nazorat qilish usullari (boshqaruv hisobining ta’minton faoliyati);

- umumishlab chiqarish xarajatlari va boshqa bilvosita xarajatlarni taqsimlash tartibi (boshqaruv hisobida xarajatlar hisobga olish tartibi);

- davr sarflarini hisobdan o‘chirish tartibi (boshqaruv hisobida xarajatlar hisobga olish tartibi);

- tugallanmagan ishlab chiqarishni aniqlash (boshqaruv hisobida xarajatlar hisobga olish tartibi);

#### III. Soliqqa oid masalalar.

- alohida hisob yuritishni tashkil etish tartibi (faoliyat turlari bo‘yicha, sotilgan tovarlar bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat solig‘i olinadigan va olinmaydigan);

- ijtimoiy soha ob‘ektlarini alohida hisobga olishni tashkil etish (mulklar imtiyoz berilgan va imtiyoz berilmagan ishlab chiqarishlarda birga qo‘shib ishlatilgan hollarda mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozga huquq olish uchun).


Hisob siyosatining belgilangan tartibini keyingi paragraflarda zamонавиb boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan yondashilgan holda ko‘rib chiqiladi.

#### 2.2. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining uslubiyati

Xo‘jalik subyektlarida hisob yuritish siyosati hisob jarayonining uch tomonini: uslubiy, texnik va tashkiliy tomonlarini o‘z ichiga olishi lozim.

Boshqaruv hisobida hisob yuritish siyosatining uslubiy asosida subyektning asosiy vositalariga eskirish (amortizatsiya) hisoblash tartibi, subyekt mulki va majburiyatlarini baholash usuli va boshqalar aks ettiriladi.

Hisob siyosatining uslubiy jihatdan subyektning buxgalteriyasida hisob yuritish jarayonida ko'llaniladigan boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari va uslubiy qoidalari aks ettiriladi. Boshqaruv hisobini yuritish va tashkil etishning aniq bir yo'nalishi bo'yicha subyektning hisob siyosatini shakllantirishda, buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimiga kiradigan me'yoriy hujjatlar va qonunlarda ko'zda tutilgan usulning bir nechta variantlaridan bittasini tanlash orqali amalga oshiriladi. Xo'jalik subyektlarida tanlangan hisob siyosati buxgalteriya hisobi tizimini to'laligini ta'minlashi lozim. Shuning uchun u hisob jarayonining barcha jihatlarini qamrab olinishi talab etiladi: uslubiy (metodologik), texnik va tashkiliy jihatlari.



## 2.2-chizma. Xo'jalik yurituvchi subyekt hisob siyosatining asosiy jihatlari

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hisob siyosatining uslubiy jihatni mol-mulk va majburiyatlarni baholash, mol-mulk turlari bo'yicha amortizatsiyalarni hisoblash bilan birga xarajatlarini hisobga olish, budjetlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi uslublarni nazarda tutadi. Quyida mazkur uslublardan ayrimlariga to'xtalib o'tiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalari tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi<sup>12</sup>:

- a) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;
- b) bir birlik uchun qiymati O'zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Asosiy vositalar va uning eskirishi hisobi amaldagi schyotlar rejasining tegishli schyotlarida olib boriladi. Asosiy vositalarni qabul qilishda uni BHMS 5-sonda ko'rsatilgan tartibdagidek dastlabki qiymatida baholanadi.

Asosiy vositalarning dastlabki qiymati quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- a) qayta baholashda;
- b) ob'ektga qo'shimcha kapital kuyilsa yoki kisman tugatilganda (demontaj), natijada asosiy vositalarning qiymati ko'payadi (kamayadi) yoki foydali xizmat muddati o'zgaradi. Asosiy vositalar dastlabki qiymatini oshiradigan kapital qo'yilmalarga modernizatsiya, rekonstruktsiya, texnik qayta qurollantirish va kapital remont xarajatlari misol bo'la oladi. Joriy remont va asosiy vositalarni ishchi holatida saqlash uchun ketadigan xarajatlar asosiy vositalar qiymatiga kiritilmaydi. Hozirgi vaqtida asosiy vositalar bo'yicha Amortizatsiya hisoblash buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish bo'yicha farqlanadi. Quyidagi usullardan birini tanlash mumkin:

- to'g'ri chiziqli usuli;
- qoldiqning kamayib borish usuli;
- yillar yig'indisi usuli;
- bajarilgan ish hajmiga nisbatan proportional ravishda hisoblash usuli. Oxirgi ikki usul amortizatsiya hisoblashning tezlashtirilgan usuli deb ham yuritiladi. Amortizatsyaning tezlashtirilgan usullari asosiy vositalar qiymatini qisqa muddatlarda ishlab chiqarish xarajatlariga

<sup>12</sup> Asosiy vositalar. 5-sonli BHMS. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003 yil 9 oktabrdagi 114-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).

o'tkazilishi imkoniyatini tug'diradi, asosiy vositalardan tezkor foydalanishni amalga oshiradi.

### 2.1-jadval. Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatida "Amortizatsiya siyosati"ni belgilab olish

T/r	Asosiy vositalarning turlari va nomi	Xizmat muddati (yil)	Amortizatsiya me'yori (%)
1.	Binolar, imoratlар va inshootlar	20	5
2.	Uzatish qurilmalari	15	8
3.	Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	15	8
4.	Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar	7	15
5.	Harakatlanuvchan transport	15-5	8-20
6.	Kompyuter, periferiya qurilmalari	5	20
7.	Boshqa aktivlar	10-8	10-15

Boshqaruv hisobida amortizatsiya hisoblash usullaridan birini tanlash, asosiy vositalarni baholash usullari korxona moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish daromad (foyda) solig'i, mol-mulk soliqlarini maqbullashtirish nuqtai nazaridan o'tkaziladi. Bu esa boshqaruv hisobining muhim elementi bo'lganligi sababli, har bir subyekt tomonidan alohida hal etadi. Agarda subyekt ma'lum kichik foydaga yoki zararga ega bo'lsa, mol-mulk solig'i miqdorini maqbullashtirish vazifalarini hal etish bilan bog'liq bo'ladi.

Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibi BHMS 7-soni "Nomoddiy aktivlar" hamda amaldagi buxgalteriya hisobiga doir qonunchilik va me'yoriy hujjatlar tomonidan tartibga solinadi. Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar ham uzoq muddatli aktivlarga kiritiladi (xizmat muddati 1 yildan ortiq). Nomoddiy aktivlarga quyidagilar misol bo'la oladilar: litsenziyalar, kompyuter dasturlari, patentlar, tashkiliy xarajatlar, gudvill (firma bahosi) va hokazo.

Shunday qilib, nomoddiy aktivlarning asosiy xususiyati bo'lib, ularning ko'rinnmasligi (material ko'rinishga ega bo'lmashigi) va xizmat muddati 1 yildan ortiq bo'lishi hisoblanadi. Nomoddiy aktivlar kelib tushgan vaqtida ularni sotib olish qiymatida va BHMS 7-sonda belgilangan xarajatlarni qo'shib aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlarga doir amortizatsiya ajratmalar, ularning dastlabki qiymatidan va xizmat muddatidan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda amortizatsiya ajratmalar korxonaning umumiyligi xarajatlariga mutanosib ravishda taqsimlab boriladi. Agar nomoddiy

aktivlarning xizmat muddatini aniqlab bo'limasa, u holda amortizatsiya hisoblash uchun 5 yil muddat belgilanadi. Har qanday vaziyatda ham nomoddiy aktivlarning xizmat qilish muddati xo'jalik subyekti faoliyati muddatidan oshmasligi kerak.

Buxgalteriya hisobi milliy standarti 7-soni «Nomoddiy aktivlar hisobi»ga muvofiq, nomoddiy aktivlar moddiy-ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmagan mulkiy ob'ektlar bo'lib, ular xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun yoki boshqarish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan nazorat qilinadi, shuningdek uzoq muddat (bir yildan ortiq) mobaynida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Nomoddiy aktivlarga ham quyidagi usullar orqali amortizatsiya hisoblab boriladi:

- to'g'ri chiziqli usul;
- kamayib boruvchi qoldiq usuli;
- bajarilgan ishlar hajmiga muvofiq holda eskirish hisoblash usuli.

Hozirgi kungacha dasturiy ta'minotlarga foydali xizmat qilish muddatlarini aniqlash juda murakkabligicha qolmoqda. Dasturiy ta'minotlarni (masalan, buxgalteriya hisobiga doir programmalar, me'yoriy - ma'lumotnomalar axborot tizimlari) sotib olishda ularga foydali xizmat muddatini, ularni yaratuvchi korxonalar belgilashi va shartnomalarda kelishuv asosida aks ettirishlari mumkin. Oluvchi korxonalar ularni sotib olishda dasturiy ta'minot programmalarining foydali xizmat muddatlarini nazorat qilishlari lozim.

Amaliyotda esa soliq tashkilotlari subyekt faoliyatini tekshirayotganda yuqorida xizmat muddati bo'yicha ma'lumotlar (hujjatlar) yo'q bo'lsa, ularga amortizatsiya hisoblash me'yori qilib 5 yilni belgilaydilar. Shuningdek, nomoddiy aktiv "Gudvill" uchun foydali xizmat muddati 20 yildan oshmasligi (xo'jalik subyekti faoliyati muddatidan ortiq bo'lmagan) ko'zda tutilgan.

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladigan material resurslarning tannarxi quyida keltirilgan usullarining bittasi orqali baholanishi mumkin: o'rtacha tannarx bo'yicha (AVECO), oldingi xaridlar tannarxi bo'yicha (FIFO).

Dastlabki keltirilgan ikkita usul bizning buxgalteriya hisobi amaliyotida odatiy hisoblanadi. Ulardan biri material zaxiralarning o'rtacha tannarxi sotib olish bahosi bilan tanishamiz. Usul, material zaxiralari qiymati oy boshidagi resurslar qoldig'ining o'rtacha qiymati plus hisobot davrida sotib olingan materiallar tannarxi tahliliga asoslanadi. Belgilangan tannarx ishlab chiqarishda ishlatiladigan va

hisobot davri oxirida saqlashga qolgan material zaxiralarga tegishli bo‘ladi.

Ikkinci usul sotib olinayotgan materiallarning birligi tannarxi-asosan material resurslar nomenklaturasi katta bo‘lman, maxsus buyurtmalarni (individual ishlarni) bajaradigan korxonalar tomonidan qo‘llaniladi. Bu usul sotib olinadigan bir turga mansub materiallar hisobini yuritish va nazorat qilish mumkinligini tahlil qiladi. Ayrim hollarda uni ma’lum bir materiallar guruhlari uchun boshqa usullar bilan birgalikda qo‘llashadi (qimmatbaho, defitsit, ko‘proq kerakli bo‘lgan materiallar).

Boshqaruv hisobida materiallarni FIFO usuli bilan baholash zaxiralarni olinish ketma-ketligida, ya’ni ishlab chiqarishga birinchi bo‘lib kelgan zaxiralar dastlabki olinish bahosida hisoblanadi. Bu usulni qo‘llash natijasi bo‘lib, oxirgi sotib olish haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobot davri oxiriga zaxiralarini baholash hamda sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxida materiallarni dastlabki sotib olish bahosida hisoblanadi.

Nazariy jihatdan ishlab chiqarish zaxiralarini baholashning yana bir yo‘li mavjud oxirgi sotib olish bahosida hisoblash (LIFO). LIFO usulining mazmuni ishlab chiqarishga kelib tushadigan zaxiralar oxirgi sotib olish bahosida hisoblanadi, hisobot davrining oxiriga zaxiralar esa oldingi sotib olish bahosidan kelib hisoblanadi. Bu usul sotishdan olingan foydani aniqroq aniqlashga imkon beradi, lekin hisobot davri oxiriga kelib zaxiralar tannarxini o‘zgartiradi. FIFO usulidan farqli ularoq LIFO usuli joriy daromad va xarajatlar bog‘liqligini ta’minlaydi (moslik tamoyili va hisob-kitob tamoyili) va inflyatsiya ta’sirini yo‘q qilishga imkon yaratadi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda LIFO usuli qo‘llanilmaydi.

Boshqaruv hisobida moddiy boyliklarni baholash bo‘yicha tanlangan har qanday usul birinchi navbatda moddiy zaxiralar bahosini, ombordagi qoldiqda, keyinchalik moddiy boyliklarning chiqib ketish qiymatini aniqlashga mo‘ljallangan. Moddiy boyliklarning chiqib ketish qiymati ombordagi qoldiqning jami summasidan (moddiy boyliklar qiymati va joriy davrda kirim olinganini hisobga olgan holda) davr oxiridagi moddiy boyliklar qiymatini ayirish orqali aniqlanadi.

Boshqaruv hisobida baholashning FIFO va LIFO usullari xalqaro buxgalteriya hisobi standartlarida belgilangan bo‘lib, hozirgi hisob uchun ham nazariy, ham amaliy tomonidan yangilik hisoblanadi.

Material xarajatlar tannarxining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy natijalarni, xususan tannarxni boshqarish (nazorat qilish) ko‘p jihatdan tannarxdagi material xarajatlarning miqdorini boshqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Inflyatsiya sharoitida, FIFO usuli

tannarxning pasayishi va balansda materiallar qoldig‘ining ko‘payishiga olib keladi. LIFO usuli xuddi shu sharoitda tannarxni oshiradi va balansda materiallar qoldig‘ini kamaytiradi.

LIFO usuli inflyatsiya sharoitida tannarx qiymati real bozor qiymati bilan deyarli bir xil bo‘ladi. FIFO usuli ham inflyatsiya sharoitida juda qulay, chunki uni qo‘llash tannarxning kamayishi va natijada foydaning oshishiga olib keladi. Shunday ekan, korxonalar (daromad (foyda) solig‘i yuzasidan imtiyozga ega bo‘lgan qismi) kelajakda bu usulni qo‘llashni tahlil qilib chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amaldagi me’yoriy hujjatlar debtorlik qarzlarini hisobdan chiqarish, korxona balansida bo‘lgan, quyidagi holatlarda ruxsat etiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bo‘yicha dav‘o qilish muddati davomidagi hollarda. Umumiylar da’vo qilish muddati 3 yil qilib belgilangan.

2. Korxonaga qarzdorning bankrot deb e’lon qilinishi va qarzni olish imkoniyatining yo‘qligi hollarda.

3. Tovarlarni ortib jo‘natgandan 3 oy o‘tgandan keyin.

Buxgalteriya hisobi va hisobtini yuritish bo‘yicha Nizomga muvofiq, korxonalar dargumon qarzlar rezerv tashkil qilishi mumkin. 1999 yilning 1 yanvarigacha faqtgina hisobot yili oxirida debtorlik qarzlarini yillik inventarizatsiyasi o‘tkazilgandan keyingina tashkil qilish mumkin edi. Ammo yangi Nizomning qabul qilinishi, 1999 yilning 1 yanvaridan kuchga kiritilgan, rezerv tashkil qilish yil davomida mumkinligiga ruxsat berdi.

Shu o‘rinda, dargumon qarzlarni qanday baholash mumkin va rezerv summasini qanday aniqlashimiz mumkin degan savol tug‘iladi. Moliyaviy hisobot tayyorlanadigan vaqtida qaysi schyotlar bo‘yicha to‘lov amalga oshirilishini aniqlash mumkin bo‘lamanligi sababli, kutilayotgan zararlarni qoplash summasini hisoblab chiqish zarur. Albatta, baholash katta farq qilishi mumkin. Korxona buxgalteriyasi joriy iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda oldingi yillar tajribasiga asoslanib hisob - kitoblarni amalga oshirishlari mumkin.

Dargumon qarzlarni baholash bo‘yicha ikkita umumiylar mavjud: sof kreditga sotishdan foiz usuli va to‘lov muddatlari bo‘yicha olinadigan schyotlar hisobi usuli. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari sharoitida ikkala usul ham maqbuldir. Bunda, birinchi usulning maqsadi dargumon qarz natijasida paydo bo‘lgan xarajatlarni aniq o‘lchash bo‘lsa, ikkinchi usulning maqsadi olinadigan schyotlarning sof tannarxini aniq

o'chashdan iborat bo'ladi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga muvofiq barcha xo'jalik subyektlari buxgalteriya hisobi va hisobotni taqdim qilishda milliy valyuta-so'mda yuritishlari lozim. Buxgalteriya hisobida valyuta mablag'lari, shuning bilan birga chet el valyutasidagi operatsiyalar, xo'jalik operatsiyasi ro'y bergan kunda Markaziy bank kursi bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi.

Boshqaruv hisobida "Xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, ijobji (salbiy) kurs farqlari moliyaviy faoliyatdan daromadlar (xarajatlar) tarkibiga kiradi va buxgalteriya hisobida tranzit schyotlar "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi" schyotlari bo'yicha aks ettiriladi.

Harakatdagi me'yoriy hujjatlarda buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari keltirilgan. Xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasi va BHMS 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" ning 20, 21 bandlarda ehtiyyotkorlik va ishonchlilik tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Unga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan axborot joriy ko'rsatkichlari bilan taqqoslanuvchan va xo'jalik subyekti aylamma aktivlarining holatini hisobotda haqqoniy va to'la yoritishi lozim. Har qanday valyuta kursi, Markaziy bank tomonidan kotirovkalanadigan, vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, bu esa kursdagi farqlarni vujudga keltiradi. Korxona shu bilan bog'liq holda balansdagi valyuta moddalarini har oyda Markaziy bank kursi bo'yicha qayta baholaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Valyuta va eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotni tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, chet el valyutasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish qoidalari asosida kursdagi farqlar hisobi tartibga solinadi.

Yuqoridaq qoidaning ikkinchi bo'limida balansdagi valyuta moddalarini qayta hisoblash tartibi keltirilgan. Uning 2.3 bandiga muvofiq balansning valyuta moddalari so'm ekvivalentida Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblanishi lozim.

Kursdagi farqlar hisobi uchun yangi schyotlar rejasida quyidagi schyotlar ko'rsatib o'tilgan:

- kursdagi farqlar bo'yicha daromadlar (9540);
- kursdagi farqlar bo'yicha zararlar (9620);
- hisobotlarni konsolidatsiyalashda vujudga keladigan kursdagi farqlar (9590, 9690);
- muddati uzaytirilgan daromad (6210);

- boshqa muddati uzaytirilgan majburiyatlar (6290);

- ustav kapitalini shakkantirish kursdagi farqlar (8522). Chet el valyutasida sodir bo'lgan operatsiya, ushbu operatsiya sanasidagi chet el valyutasi summasiga hisobot valyutasi va chet el valyutasi o'rta ettidagi almashish kursini qo'llash orqali hisobot valyutasida aks ettirilishi kerak. Operatsiya sanasidagi almashish kursi, amaliy maqsadda, ko'pincha operatsiya sodir bo'lgan sanadagi haqiqiy kursga yaqin kurs qo'llaniladi, masalan, hisobot davri ichida sodir bo'lgan chet el valyutasida amalga oshirilgan hamma operatsiyalar uchun bir hafta yoki bir oyning o'rta hisobdagi kursini ishlatsa bo'ladi. Agar valyuta almashish kursi sezilarli tebranib tursa, ma'lum bir hisobot davri ichidagi o'rta hisob kursi qo'llanilishi to'g'ri kelmaydi.

Kurs tebranishlari sababli sodir bo'lgan buxgalteriya balansini tayyorlash kunidagi pul mablag'larining balans narxi o'zgarishi, ular sodir bo'lgan davrning daromadlari yoki xarajatlari deb tan olinadi. Hisobkitobni amalga oshirish davrida pul moddasining hisoblangan qaymati va pul moddasining balans narxi o'rta etsidagi farq keltirib chiqaradigan kurs tebranishlari, hisob qilingan davrning daromadini yoki xarajatlarini ko'paytiradi.

Boshqaruv hisobida kursdagi farqlar subyektning foydasiga yoki zarariga o'tkaziladi. Kursdagi farqlar korxona foydasiga yoki zarariga yoxud ularni buxgalteriya hisobida qabul qilinishiga muvofiq (ya'ni, aktivning balans qiymatiga qo'shiladigan yoki qo'shilmaydigan), yoki hisobot yili davomida paydo bo'ladigan kursdagi farqlarni hisobga olinishiga ko'ra o'tkazilib boriladi.

Agar subyekt aktiv sotib olish natijasida paydo bo'ladigan majburiyatini qoplay olsa yoki mumkin bo'lgan zararlardan xorijiy valyutada sug'urta qila olsa, kursdagi farqlar aktivning balans qiymatiga kiritilmaydi. Lekin, almashish kursining o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan zararlar, majburiyat to'lana olinmaganda va qarshi kurash uchun amaliy vositalar bo'lmagandagina, aktiv bilan bog'liq bo'lgan bevosita zararlarning bir qismini tashkil etadi. Xorijiy valyutada yozilgan aktivning narxi, korxona bevosita yaqinda xarid qilingan aktivdan kelib chiqadigan majburiyatlarini to'lashi kerak bo'lgan hisobot valyutada ko'rsatilgan summa kabi sanaladi.

Xo'jalik subyekti o'zi qo'llayotgan hisob siyosatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishi lozim: xorijiy muomalalari Markaziy bankning kelishuv amalga oshirilgan kundagi kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi; valyuta kursi bo'yicha farq har oyda, salbiy bo'lsa 9620-schyoti debetida,

ijobiy bo'lsa 9540 schyoti kreditida aks ettiriladi hamda 9910-schyot bilan yopiladi.

Ma'lumki, korxona xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari daromad, xarajatlar va sof foydadan iboratdir. Daromad, xo'jalik faoliyati natijasida kelib tushgan tushumlar evaziga korxona aktivlari miqdorining ko'payishi yoki majburiyatlarining kamayishini anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, korxona aktivlari miqdorini ko'paytiruvchi barcha turdag'i xo'jalik jarayonlari natijasini daromad, deb bo'lmaydi. Masalan, korxonada kredit mablag'larining jalg qilinishi, debitorlik qarzlarining kelib tushishi va ta'sischilarining korxona ustav kapitaliga kiritilgan qo'shimcha mablag'lari ham daromad summasiga qo'shilmaydi. Demak, yuqorida farqlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, daromad korxona aktivlaridan foydalanish, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar evaziga korxonaga kelib tushgan tushumdir. Daromad korxonada ushbu jarayonlar bilan bog'liq ma'lum turdag'i xarajatlarni vujudga keltiradi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarni hisobga olishdagi asosiy masala ularni tan olish paytini aniqlash hisoblanadi. BHMSda tan olishni moddaning korxona moliyaviy hisobotlariga kiritilish jarayoni deb ta'riflaydi. Ya'ni, tan olish ko'rsatilgan summani hisobotning yakuniy ko'rsatkichlarida aks ettirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi "Asosiy xo'jalik faoliyati daromadlari" nomli 2-sonli BHMSda daromad va xarajat moddalarining tan olish mezonlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- modda o'lhash uchun tegishli asosga ega va ishlatilgan summani oqilona baholashni amalga oshirish imkonii mavjudligi;
- kelgusi iqtisodiy manfaatlarning olinishi yoki chiqib ketishiga, ishlatilgan moddalar uchun bunday manfaatlarni olinishi yoki berilishi ehtimolining mavjudligi.

Shunday qilib, daromadlar odatda shartnomaning bajarilishi amalga oshirilganda va tushumni o'lhash va olish imkonii mavjudligi to'g'risida qat'iy ishonch hosil bo'lganda tan olinadi.

Tan olishning to'rt mezoni qo'llaniladi:

- aniqlash;
- baholash;
- o'z vaqtidalik
- ishonchlilik.

Ushbu mezonlarning boshqaruv hisobi tizimidagi ahamiyati shundan iboratki, agar ulardan biri bajarilmasa, daromadni tan olish,

ushbu mezonlar to'liq bajarilgunga qadar cho'ziladi. Mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlari tan olishning asosiy mezonlaridan biri sotuvchi xaridorga sotilgan tovarlarga egalik qilish huquqidani kelib chiqadigan sezilarli risk va qulayliklarni bergenligidir. Agar sotuvchi egalik huquqini saqlab qolsa, odatda bu bitimni sotish sifatida tan olib bo'lmaydi.

"Asosiy xo'jalik faoliyati daromadlari" nomli 2-sonli BHMSning tarkibi asosan uchta bo'limdan iborat: mahsulot sotishdan ko'rilgan daromad; xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan daromad; foizlar, dividentlar va royligi. Birinchi ikki bo'limdagi moddalarning daromadligiga shubha tug'ilmasada, uchinchi bo'lim bo'yicha ayrim mulohazalar tug'iladi.

Ushbu hisob ob'ektlari daromaddan ko'ra ko'proq foyda moddasiga to'g'ri keladi. Masalan, royligi korxonani nomoddiy aktivlaridan foydalanilganligi uchun hisoblangan foizlardir. Daromadning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ushbu jarayonlar bilan bog'liq ma'lum xarajatlarni vujudga keltiradi, ya'ni daromad korxonaning biron activi evaziga shakllanadi.

Ushbu holatda esa nomoddiy aktiv boshqa korxonaga sotilgani yo'q, balki vaqtinchalik foydalanishga berilgadi va ma'lum vaqtidan so'ng u korxonaga qaytariladi.

Royaltini daromaddan ko'ra korxona foydasi deb hisoblashga quyidagi asoslar ham sabab bo'ladi:

- nomoddiy aktivni boshqa korxonaga vaqtinchalik foydalanishga berishda korxonada xarajat vujudga kelmaydi;
- nomoddiy aktivning ma'nnaviy eskirish xarajatlari alohida 0500- "Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi" schyotida aks ettiriladi;
- ushbu modda hisoblanganda, daromadni aks ettirishga mo'ljallangan 9010, 9310, 9320 schyotlarida emas, balki 9510 "Royalti va kapitalning transfertidan olingan daromadlar" schyotining krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Daromadlarni tan olishning korxona hisob siyosatida ochib berilishi lozim bo'lgan quyidagi usullari mavjud:

- berish paytida (sotish paytida) tan olingan daromad;
- daromadni etkazib berishdan keyin tan olish;
- tan olishning naqd pul mablag'lari olinmaguncha muddatini uzaytirish;
- daromadlarni etkazib berishgacha tan olish.

Birinchi holatda, daromadni tan olish uchun shartlar — shartnomani bajarish va tushum olish imkoniyati, odatda tovarlar yoki xizmatlarni

berish paytida bajariladi. Shunday qilib, mahsulotlarni sotishdan olingen daromad sotish kuni, ya'ni mahsulot mijozga berilgan kuni tan olinadi. Ko'rsatilgan xizmatlardan olingen daromad xizmatlar bajarilganida tan olinadi.

Ikkinchisi holatda, kitob nashr qilish yoki asbob-uskunalar ishlab chiqarish kabi sanoatning ayrim sohalarida mijozlarga ma'lum hollarda va katta vaqt oraliqlarida tovarlarni qaytarib berish bo'yicha keng huquqlar beriladi. Shu sababli, mahsulot etkazib berilgan vaqtida, yakuniy natijada qaysi summa sotiladigan bo'lismi to'g'ri aniqlash bo'yicha muammolar kelib chiqadi. Qaytarish huquqiga nisbatan BHXS quyidagini qayd qiladi: "Qaytarib beriladigan tovarlar uchun bozor o'rganilmaganda, korxona qaytarib beriladigan tovarlarning aniq hisoblab bo'lmaydigan summalariga duch kelganda, daromad tan olinmaydi".

Daromadni olish imkonini etarli darajada kafolatlanmagan bo'lsa, daromadning tan olinishini noaniqlik tugatilmaguncha kechiktirish zarurati paydo bo'ladi. To'lov muddatini uzaytirib sotish usuli va xarajatlarni qoplash usuli daromadning tan olinishini naqd pul mablag'lar olinmaguncha muddatini uzaytirishning, ya'ni uchinchi holatning muqobil varianti hisoblanadi.

Birinchi muqobil variant qo'llanilganda, daromad sotish paytida emas, faqat pul olinganda tan olinadi. Bu usul BHXS bo'yicha cheklangan holda qo'llaniladi. Masalan, u oldindan to'lov nisbatan past va yakuniy pul tushumi to'la kafolatlanmaydigan, ko'chmas mulk sotish bo'yicha hisobni yuritish uchun qo'llaniladi.

Ikkinchisi muqobil variant, ba'zi hollarda to'ldirilmaydigan xarajatlarni usuli deb ham ataladi. Barcha tegishli qilingan foydani tan olish variantigacha qoplanishi kerak. Xarajatlarni qoplash usulini yakuniy daromadlar yoki foyda realizatsiyasini bashorat qilib bo'lmaydigan, nihoyatda riskli hollarda qo'llash lozim.

To'rtinchi holatda, ya'ni daromadlarni etkazib berishgacha tan olish usuli korxona qurilish bo'yicha uzoq muddatli shartnoma tuzayotganda (bunga ko'priklar, ofis binolari va boshqalar) daromad va xarajatlarni hisobga olish muammosi mavjud bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilishda quyidagi ikki muqobil variantlar yordam beradi.

1. Yakunlangan shartnoma usuli daromadlar, xarajatlarni, ya'ni foyda shartnoma yakunlanishi bilan tan olinadi. Qurilishda kelib chiqadigan xarajatlarni tovar-moddiy zaxiralarni (joriy qurilishda) schyotida akkumulyatsiya qilinadi. Bajarilgan ishlar dalolatnomalari, agar ular mavjud bo'lsa, daromadlar deb yozilmaydi, aksincha, tovar-moddiy

zaxiralar schyotiga teskari bo'lgan schyotda (oligan bo'naklar) to'planadi. Shartnoma tugaganda, daromadlar va xarajatlarni schyotigacha hamma schyotlar yopiladi va qurilish ob'ekti bo'yicha yangi foyda tan olinadi.

2. Tugallanish foizi usuli daromadlar, xarajatlarni yangi foyda qurilish loyihasining tugallanish foizini baholash asosida, har bir hisobot davrida tan olinadi. Bu usul, uzuksiz sotish shartnomasi bo'yicha ishlarning o'tkazilishi ro'y berishini, agar foydalanuvchilarga o'z vaqtida axborot berilsa, daromadlar shartnoma tugashigacha tan olinishi lozimligini bildiradi. Tugallanganlik foizini aniqlab bo'lgandan so'ng joriy davrda tan olish uchun daromadlar summasini quyidagicha aniqlash mumkin:

Joriy davr daromadlari = (tugallanganlik foizi x shartnomaning umumiy daromadi) - oldingi davrlarda tan olingen daromadlar summasi.

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlarni hisobot davrlari bo'yicha teng aks ettirish maqsadida ayrim xarajatlarni rezervlash usulini qo'llaydilar, ularga ishchilarning ta'til haqi summalarini, ta'mirlash ishlariga ketgan summalarini va hokazolar kiradi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ruxsati bilan). Bunday xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Hisobot davrida ishchilarning ish haqlarini rezervlash usuli keng tarqalgan. Odatda ishchilarnga ta'til yil davomida notejis ravishda beriladi. Shunga ko'ra, ta'til vaqtiga hisoblanadigan ish haqi summalarini ayrim oylarda o'zgarib turadi, bu esa mahsulot tannarxining buzilishiga olib keladi. Ta'til uchun beriladigan to'lovlar mahsulot tannarxiga ta'sir etmasligi uchun kelgusida ta'til vaqtida to'lanadigan ish haqqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalarini rezervlaydilar, ya'ni belgilangan me'yorlar asosida hisoblaydilar. Buni har oyning ishlab chiqarish xarajatlari ishchilarning ta'til xarajatlarni haqiqiy summalarini emas, balki hisoblangan ish haqiga nisbatan reja fondiga bo'lish yo'li bilan amalga oshirilib, foizi rejaga asosan aniqlanadi.

### 2.3. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining texnikaviy va tashkiliy jihatlari

Hisob yuritishning texnik asosida hisob registrlari, schyotlarda xo'jalik jarayonlarini aks ettirish sxemasi, hujjatlar aylanishi kabilari o'z aksini topadi. Hisob yuritishning tashkiliy tomonida buxgalteriyada hisob ishlarining taqsimlanishi, hisob ishlarini tashkil qilish va boshqaruv jarayonidagi o'rni aniq ko'rsatiladi.

Hisob siyosatining tashkiliy jihatida xo'jalik subyektida tashkil qilingan buxgalteriya xizmatining tashkiliy shakllari, buxgalteriya xizmatining tarkibi va hisobning markazlashtirilgan darajasi, subyekt bo'linmalarini alohida balansga ajratish va ichki nazoratni tashkil qilish masalalarini o'z ichiga oladi. Hisob siyosatining texnik jihatni esa quyidagi masalalarini o'z ichiga oladi:

1. Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan schyotlar rejasini asosida ishlab chiqilgan ishchi schyotlar rejasini;
2. Dastlabki hujjatlarning hisob shakllaridan foydalanish tartibi;
3. Buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi va ularni qayta ishlash tartibi;
4. Mulk va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish.

### **2.3-chizma. Hisob siyosatining texnik jihatni**

Boshqaruv hisobida hisob siyosatini shakllantirishning tashkiliy jihatida tashkil qilinadigan buxgalteriya xizmatining tuzilishi va tarkibini aniqlash va ularning lavozimi bo'yicha huquq, burch va majburiyatlar belgilanadi. "Buxgalteriya hisob to'g'risida"gi qonunga muvofiq subyekt rahbari bosh buxgalter lavozimini tayinlash va buxgalteriya hisobini talab darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun etarli sharoit yaratilishi uchun javobgar hisoblanadi. Bosh buxgalter buxgalteriya apparatiga rahbarlik qiladi va hisob-kitoblarning aniqligi, to'g'riliqi va o'z vaqtida bajarilishiga javobgar hisoblanadi. Shuningdek, hisob siyosatining tashkiliy jihatida subyekt buxgalteriyasining ish jadvali ham ko'rsatiladi. Unda buxgalteriya xodimlarining ish kumi taqsimlanishi ish kunlari mobaynida kelib tushgan hisob-kitob pul hujjatlarini o'z vaqtida qabul qilish, qayta ishlash, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish va kunlik aylanma qaydnomalarni belgilangan vaqtga tuzishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatining texnik jihatidagi asosiy masalalardan biri O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan schyotlar rejasini asosida ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish hisoblanadi<sup>13</sup>. Ammo ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqishda subyekt faqatgina o'zida sodir bo'ladigan

muomalalardan kelib chiqqan holda ro'yxatiga o'zgartirish kiritishga haqlidir va ularning ro'yxatini keltirishi zarur. Bu ba'zan ikkinchi tartibli ish schyotlari deb ham ataladi va yuqorida aytib o'tilganidek, subyektda amalga oshiriladigan muomalalarning iqtisodiy mazmunini hisobga olgan holda buxgalteriya hisobi schyotlarida hisobga olishning usuli uslubiy tamoyillariga amal qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatini shakllantirish, buxgalteriya hisobini yuritish, to'liq va aniq buxgalteriya hisobotini o'z vaqtida taqdim etish uchun subyekt bosh buxgalteri javobgar bo'ladi. Amalda bo'lgan qoidalarga muvofiq subyektlarda buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishini mustaqil belgilaydi. Bu, odatda, yagona buxgalteriya bo'linmasi bo'lib, bir qator bo'limlardan, jumladan: materiallar bo'limi, ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar bo'limi, kassa muomalalari bo'limi, asosiy vositalar hisobi bo'limi, mol etkazib beruvchilar va boshqa majburiyatlar bilan hisob-kitob bo'limlaridan tashkil topishi mumkin. Tashkiliy tuzilishdan qat'i nazar, barcha buxgalteriya xodimlari bosh buxgalterga bo'ysunishi lozim. Xo'jalik subyektlarida boshqaruv hisobi nuqtai nazzardan hisob siyosatining tashkiliy-texnikaviy jihatlarini belgilovchi tarkibiy qismlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

*Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining ish rejasini.* Unda mazkur subyektda qo'llaniluvchi hisobvaraqlar: uzoq muddatli aktivlar asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlар joriy qismi, olinadigan schyotlar joriy qismi, pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa joriy aktivlar, majburiyatlar, joriy majburiyatlar, uzoq muddatli majburiyatlar, xususiy kapital kapital, taqsimlanmagan foyda va rezervlar, moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatalishi daromadlar va xarajatlар hamda balansdan tashqari schyotlar ro'yxatini ko'rsatish tavsiya etiladi.

*Boshlang'ich hisob hujjatlari shakllari.* O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan qarorga binoan boshlangich hisob hujjatlari hisobga olish uchun faqat belgilangan yagona shakllarda tuzilgan taqdirdagina qabul qilinadi.

*Mulk va majburiyatlarning turlarini baholash usullari.* Asosiy vositalar pulga sotib olinganida ularni amaldagi xarid qilish va tayyorlash xarajatlari, shu jumladan etkazib beruvchiga, tashkilotlarga qurilish pudrati shartnomalari bo'yicha to'langan haq, boj yig'imlari, qoplanmaydigan soliqlar, ro'yxatga olish yig'imlari, davlat boji va asosiy

<sup>13</sup> Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasini (21-BHMS). Mazkur hisobvaraqlar rejasiga O'zR AV 12.11.2003 y. 1181-1-soni ro'yxatga olingan O'zRMV buyrug'iga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

vositalar ob'ektiga mulkdorlik huquqining egallanishi munosabati bilan vujudga keluvchi boshqa to'lovlari, vositachi tashkilotlarga to'langan haq, birja yig'imlari, transportirovka, montaj, o'rnatish va ob'ektni xarid qilish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning summalarini bo'yicha kirim qilinadi<sup>14</sup>.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobiga qabul qilingan qiymati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va mazkur standartda belgilangan holatlardan tashqari hollarda o'zgartirilmaydi.

Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini o'zgartirishga asosiy vositalarning tegishli ob'ektlari qurib bitkazilgan, qo'shimcha jihozlangan, rekonstruktsiya qilingan, zamonaviylashtirilgan, texnik qayta qurollantirilgan, qisman tugatilgan va ular qayta baholangan holatlarda ruxsat etiladi.

Qurib bitkazish, qo'shimcha jihozlash, zamonaviylashtirish ishlariga asosiy vositalar ob'ekting texnologik yoki xizmat mo'jalining o'zgarishi, oshirilgan ishlar ko'lami va sifatni yanada yaxshilashga doir boshqa holatlar tufayli qilinishi lozim bo'lgan ishlar kiritiladi.

Rekonstruktsiya qilish ishlariga ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq bo'lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatini yaxshilash va nomenklaturasini o'zgartirish maqsadlarida asosiy vositalarni rekonstruktsiya qilish loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan mavjud asosiy vositalar ob'ektlarini qayta qurish kiritiladi.

Texnik qayta qurollantirishga ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma'nani va jismonan eskirgan uskunalarini zamonaviylashtirish va ularni yangilari, unumdonligi yanada yuqori bo'lganlari bilan almashtirish asosida asosiy vositalar va ularning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi kiradi.

*Mol-mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasi.* Qoidalarga muvofiq, subyekt mol-mulki va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish tartibi va muddatlarini subyekt rahbari belgilaydi va tasdiqlaydi. Bu hisob siyosatining tarkibiy qismidir. Quyidagi hollarda inventarlash o'tkazilishi shart:

- mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, davlat korxonasi o'zgartirilgan (davlat tasarrufidan chiqarilgan) chog'da qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda;

- yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, inventarlash hisobot yilining 1 oktyabridan kechiktirmay o'tkaziladigan mol-mulkdan tashqari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 28.08.98 yilda 486-son bilan ro'yxatga olingen "Tovar-moddiy zaxiralari" deb nomlangan 4-ton BHMSga binoan tovar-moddiy zaxiralari bir yilda kamida bir marta inventarlanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23.09.98 yilda 491-son bilan ro'yxatga olingen "Asosiy vositalar" deb nomlangan 5-ton BIMSga muvofiq asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

Pul mablag'lari, pul hujjatlari, boyliklar va qat'iy hisobdag'i blanklar oyda bir marta, yonilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda.

Ayrim joylar va mavsumiy tusda ishlaydigan korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralari ular eng kam miqdorda qolganda quyidagi hollarda inventarlanadi:

- asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish - topshirish kunida);
- o'g'rilik yoki suiiste'mol, shuningdek, boyliklarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki g'ayritabiyy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;

- xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda<sup>15</sup>.

Umumiy moddiy javobgarlik sharoitida inventarlash subyekt rahbari o'zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortiq a'zolari chiqib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a'zosi talabi bilan o'tkaziladi.

Inventarizatsiya natijalari xo'jalik subyekti daromadlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi: inventarizatsiya paytida aniqlangan ortiqcha qimmatliklar subyekt foydasiga kirim qilinadi, bordi-yu kamomad aniqlangan va u moddiy javobgar shaxslardan ob'ektning balans qiymatidan ortiq bozor bahosida undirilgan bo'lsa, ortiq summa ham suhyekt daromadi (operatsion)ga kiritiladi.

<sup>14</sup> Asosiy vositalar. 5-tonli BHMS. Asosiy vositalarni baholash.

**2.2-jadval.**  
**Xo'jalik subyektida mol-mulk ayrim turlari va moliyaviy natijalarni inventarlashni o'tkazish qoidalari**

T/r	Ob'ekt nomi	O'tkazish qoidasi
1.	Asosiy vositalar	<p>Inventar varaqchalar, inventar daftarlari yoki ro'yxatlarining mavjudligi va qanday holatdaligi;</p> <p>Texnik pasportlar yoki boshqa texnik hujjatlarning mavjudligi va qanday holatdaligi;</p> <p>Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ijara, saqlashga va vaqtincha foydalanishga topshirilgan yoki qabul qilingan asosiy vositalarga doir hujjatlarning mavjudligi. hujjatlar yo'q bo'lsa, ularning olinishi yoki rasmiylashtirilishini ta'minlash zarur.</p> <p>Buxgalteriya hisobi registrlari yoki texnik hujjatlarda tafovutlar yoki noaniqliklar topilgan taqdirda ularga tegishli tuzatishlar va aniqlashtirishlar kiritilishi kerak</p>
2.	Nomoddiy aktivlar	<p>Nomoddiy aktivlarni inventarlaganda quyidagilar tekshirilishi zarur: tashkilotning ulardan foydalanishga doir huquqlarini tasdiqlaydigan hujjatlarning mavjudligi; nomoddiy aktivlar balansda to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilganligi</p>
3.	Moliyaviy qo'yilmalar	<p>Moliyaviy qo'yilmalarni inventarlaganda qimmatli qog'ozlarga doir haqiqatdagi xarajatlar va boshqa tashkilotlarning ustav kapitallari, shuningdek, boshqa tashkilotlarga berilgan qarzlar tekshiriladi</p>
4.	Tovar-moddiy boyliklar	<p>Tovar-moddiy boyliklarni inventarlash, qoidaga ko'ra, mazkur xonada boyliklarning joylashish tartibida bajarilishi kerak. Inventarlash vaqtida bir turdag'i tovar-moddiy boyliklardan boshqasiga tartibsiz o'tishga yo'1 qo'yib bo'lmaydi.</p> <p>Tovar-moddiy boyliklar turli alohida xonalarda bitta moddiy javobgar shaxsda saqlanganda inventarlash saqlash joylari bo'yicha ketma-ketlikda o'tkaziladi. Boyliklar tekshirilganidan keyin xona eshibi plombalananadi va komissiya ishlash uchun keyingi xonaga o'tadi.</p> <p>Tovar-moddiy boyliklar inventarlash ro'yxatiga har bir nom bo'yicha kiritiladi, bunda nomenklatura raqami, turi, guruhi, artikuli, navi va miqdori ko'rsatiladi</p>
5.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	<p>Tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarlash uning hajmlari va haqiqiy tannarxini Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi to'g'risidagi nizom bilan belgilangan tartibga va uning asosida ishlab chiqilgan tarmoq yo'reqnomalariga muvofiq belgilash maqsadini qo'yadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarishda bo'lgan buyumlarga doir zaxiralar (detallar, uzellar, agregatlar) va tayyorlanishi hamda yig'ilishi tugallanmagan buyumlarning haqiqatda mavjudligini aniqlash;</li> <li>- hisobga olinmagan brakni aniqlash;</li> </ul>

6.		<ul style="list-style-type: none"> <li>-tugallanmagan ishlab chiqarish (zaxiralar)ning haqiqatda komplektlangani va yig'ishning detallar bilan ta'minlanganini aniqlash;</li> <li>- bekor qilingan buyurtmalar, shuningdek, bajarilishi to'xtatib qo'yilgan buyurtmalar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish qoldijini aniqlash;</li> <li>- ishlab chiqarishda bo'lgan zaxiralar (detallar, uzellar, agregatlar) va tayyorlanishi hamda yig'ilishi tugallanmagan buyumlarning haqiqiy tannarxini belgilash</li> </ul>
7.	Hisob-kitoblarni inventarlash	<p>Kassa inventarlanganda pul mablag'lari va kassada bo'lgan boshqa boyliklarning haqiqatda mavjudligi tekshiriladi. Qat'iy hisobdag'i blanklar ham tekshiruvdan o'tkaziladi.</p> <p>Kassada pul mablag'laringha haqiqatda mavjudligi hisob-kitob qilinganda pul belgilari, pochta markalari va davlat boji markalari hisobga qabul qilinadi.</p> <p>Hech qanday hujjatlar yoki tilxatlar kassadagi naqd pul qoldig'iga kiritilmaydi. Kassirning kassada mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli bo'lмаган pul mablag'lari va boshqa boyliklar borligi to'g'risidagi bayonotlari e'tiborga olinmaydi</p> <p>Naqd pul mablag'lari inventarlash dalolatnomasida boyliklar qoldig'i inventarlash kunida naturada va hisob ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatiladi va inventarlash natijasi belgilanadi.</p>
8.	Inventarlash bo'yicha solishtirish qaydnomalari	<p>Banklar bilan ssudalar bo'yicha, budjet, xaridorlar, mol etkazib beruvchilar, hisobdor shaxslar, ishchi va xizmatchilar, deponentlar hamda boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarlash tegishli hujjatlar bo'yicha qoldiqlarni aniqlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida qayd etilgan summalarning asosiliginini sinchiklab tekshirishga asoslanadi.</p> <p>Komissiya debitor va kreditorlar schyotlari bo'yicha qarzlarining paydo bo'lishi, ularning realligi va shunday bo'lgan taqdirda, da'vo etish muddatlarini o'tkazib yuborishda aybdor shaxslarni aniqlaydi</p>
		<p>Solishtirish qaydnomalari inventarlash paytida hisob ma'lumotlarda tafovutlar aniqlangan boyliklar bo'yicha tuziladi.</p> <p>Solishtirish qaydnomalarda inventarlash natijalari, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatkichlar va inventarlash ro'yxatları (dalolatnomalari) ma'lumotlari o'rtaisdagi tafovutlar aks ettiriladi.</p> <p>Ortiqcha va kam chiqqan tovar-moddiy boyliklarning qiymati solishtirish qaydnomalarda ularning buxgalteriya hisobidagi bahosiga muvofiq keltiriladi</p>

Xo'jalik subyektlarida hujjat aylanishi qoidalari va hisob ma'lumotlariga ishlov berish texnologiyasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunda boshlang'ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda

imzolagan shaxslar ularning o‘z vaqtida to‘g‘ri va aniq tuzilishi, shuningdek buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularning belgilangan muddatlarda topshirilishiga javobgar bo‘ladi.

Inventarlash tugaganidan so‘ng inventarlash to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshirishlar o‘tkazilishi mumkin. Ularni inventarlash komissiyalari a’zolari va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida, albatta inventarlash o‘tkazilgan ombor, omborxonasi, sho‘ba va hokazolar ochilishiga qadar o‘tkazish kerak. Inventarlashlar to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va inventarlash to‘g‘ri o‘tkazilganligini nazorat tariqasida tekshirishlarni hisobga olish daftarida ro‘yxatga olinadi.

Inventarlash natijalari inventarlash tugagan oydagini hisob va hisobotda, yillik inventarlashda esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak. Hisobot yilda o‘tkazilgan inventarlashlar natijalari ma’lumotlari inventarlashda aniqlangan natijalar qaydnomasida umumylashtiriladi. Inventarlash vaqtida aniqlangan boyliklar haqiqatda mayjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlarni tartibga solish to‘g‘risidagi takliflar ko‘rib chiqish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariga taqdim etiladi.

Namuna

«ABS» MCHJ

Toshkent shahri

«\_\_\_» 20 \_\_\_\_y.

Buyruq №\_\_\_\_\_

#### Mazmuni: «Hisob siyosati to‘g‘risida»

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» qonuni va BHMS 1-sonli «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot», shuningdek boshqa milliy standartlar, amaldagi qonuniy hamda belgilangan me’yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqib buyuraman:

1. 20\_yilning 1 yanvaridan «ABS» MCHJning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi va ularning buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarini yuritishni tartibga soluvchi hisob siyosati ishlab chiqilsin.

2. Firma faoliyatida hisob siyosatini ishlab chiqish va uni yuritish bosh buxgalter zimmasiga yuklatilsin.

3. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

«ABS» MCHJ direktori

A. Shodiyev

#### «ABS» MCHJning hisob siyosati to‘g‘risida NIZOMI

##### *I. Umumiyy qoidalar*

«ABS» MCHJda buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa qonuniy hamda me’yoriy hujjatlariga usoslangan holda yuritiladi.

Subyekt aktivlari, o‘z mablag‘larining manbalari, majburiyatlar, xo‘jalik operatsiyalarining hisobi ikki yoqlama yozuv asosida pul, natura va mehnat o‘chlov birliklarida yoppasiga, uzlusiz, hujjatli hamda o‘zaro bog‘liqlikda aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunidan kelib chiqqan holda quyidagilar belgilansin:

Xo‘jalik aktivlari, xususiy kapitali va majburiyatlar to‘g‘risida to‘la, ishonchli ma’lumotlar berish;

Sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarining qonunga zid kelmasligi va belgilangan talablarga asosan hujjatlarda rasmiylashtirilishi, qayta ishlaniishi hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishini ta’minlash;

Moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish uchun zarur ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aniq hamda ishonchli shakllantirish;

Moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, xo‘jalik ikki imkoniyatlaridan samarali foydalanish qo‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash;

Buxgalteriya hisobini tashkil qilish uchun javobgarlik xususiy firma rahbari zimmasiga yuklatilishi;

Subyekt bosh buxgalteri sodir bo‘lgan barcha operatsiyalarni belgilangan talablar asosida hujjatlarda rasmiylashtirilishini, qabul qilingan hujjatlar aylanishi asosida ularning harakatlanishi va qayta ishlaniishi, shuningdek, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishini amalga oshirilishi, nazorat qilishni belgilangan muddatlarda hisobotlarni tegishli davlat idoralari hamda tashkilotlarga topshirishi;

Bosh buxgalter subyekt rahbari bilan birgalikda moddiy, pul mablag‘lari, hisob-kitob hamda moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha hujjatlarga imzo qo‘yishi;

Bosh buxgalter Respublikamizda amal qilayotgan qonuniy va me’yoriy hujjatlarga, shartnomalarga, moliyaviy majburiyatlarga zid

keladigan hujjatlarni rasmiylashtirmaydi va ularni ijro uchun qabul qilmaydi.

### *2. Hisob siyosatining uslubiy jihat*

Subyektda asosiy vositalarga qiymati eng kam ish haqi miqdorining ellik barobaridan yuqori va foydalanish muddati 12 oydan ziyod bo'lgan ishlab chiqarish, noishlab chiqarish sohalarida, shuningdek, ijaraga berish maqsadida qurilgan, ishlab chiqilgan hamda sotib olingan, ammo qayta sotishga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish vositalari kiritiladi. Ushbu talabga javob bermagan ishlab chiqarish vositalari, inventarlar, tayyor mahsulot va tovarlar sifatida hisobga olinadi.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati BHMS 5-sonli "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq ularning sotib olish (qurish, ishlab chiqarish) qiymati, transportirovka qilish, o'rnatish, sinash, to'langan soliqlar va boshqa xarajatlardan tashkil topadi;

Asosiy vositalarni qayta baholash yilning boshi 1 yanvar holatida amalga oshiriladi;

Asosiy vositalarning qiymatiga eskirish hisoblash yo'li bilan qoplanadi. Bunda xo'jalikda mavjud asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning to'g'ri chiziqli usulini qo'llash orqali amalga oshiriladi;

Nomoddiy aktivlarning qiymati amortizatsiya hisoblashning to'g'ri chiziqli usulini qo'llash orqali amalga oshiriladi;

### *3. Hisob siyosatining texnik jihat*

21-sonli BHMS «xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga»ga asosan buxgalteriya hisobining ishchi rejasiga schyotlari rejasiga ishlab chiqiladi hamda unga muvofiq yuritiladi.

Subyektda buxgalteriya hisobi 20-sonli «Kichik tadbirkorlik subyektlarida hisob yuritishning soddalashtirilgan shakli va hisobot tuzish to'g'risida»gi milliy standartiga asoslanib buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini qo'llaydi.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini qo'llash jarayonida subyekt rahbariyati va mutaxassislarining ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini, ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy-teknologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda zarur ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida buxgalteriya hisobining registrlari 20-BHMSning 5.4-bandiga asoslanib o'zgartiriladi va moslashtiriladi.

Buxgalteriya hisobining registrlari xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish dastlabki hujjatlari va buxgalteriya hisob-kitoblariga asosan amalga oshiriladi.

Dastlabki hujjat shakllari sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati operatsiyalarini rasmiylashtirilishda qo'llanilayotgan hujjatlardan foydalaniadi. Amalda mavjud dastlabki hujjat shakllari firma faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar mavjud bo'lмаган hollarda 20-BHMSning 5.6-bandiga asoslanib mustaqil ravishda ishlab chiqiladi.

Buxgalteriya hisobida hujjatlар аylanishi belgilangan grafik asosida amalgा oshiriladi va unga amal qilish mas'uliyati hujjatlarni tuzgan hamda imzo qо'yan shaxslar zimmasiga yuklatiladi.

Hujjatlар аylanishi grafигiga amal qilish firma bosh buxgalteriga yuklatiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi xarajatlarni hisobga оlishning buyurtmali usulida hisobga olinadi. Taqsimlanadigan xarajatlari ishlab chiqarishni kalkulyatsiya ob'ektlari o'rтasida barcha xarajatlarga (xom-ashyo va materiallar chegirgandan so'nggi) mutanosib taqsimlanadi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining haqqoniyligini ta'minlash maqsadida mulk, moliyaviy majburiyatlar 19-sonli BHMS "Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish"da belgilangan muddatlarda, undagi tartib-qoidalarga amal qilgan holda o'tkaziladi.

Tovar-moddiy boyliklar, asosiy vositalar va pul mablag'lari ortiqcha chiqqan hollarda inventarizatsiya o'tkazilgan hisobot oyning xo'jalik faoliyati natijalariga olib boriladi.

### *4. Hisob siyosatining tashkiliy jihat*

Subyekt buxgalteriyasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasiga muvofiq bosh buxgalter lavozimini joriy qilish asosida markazlashtirilgan holda tashkil qilinadi va xodimlar tarkibini tasdiqlaydi.

## **«ABS» MCHJning "Hisob siyosati to'g'risida NIZOMI"ga muvofiq "Boshqaruv hisobi"ni tashkil qilish va yuritish tartibi**

«ABS» MCHJda (bundan keyin-subyekt) boshqaruv hisobi subyektning buxgalteriya hisobi tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshqaruv hisobi erkin tarzda tashkil etiladi va yuritiladi.

Boshqaruv hisobining asosiy maqsadi – subyekt rahbariyatini oqilonla boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishchonchli axborotlar bilan ta'minlashdan iborat.

Boshqaruv hisobi hisob siyosatida asosan korxona faoliyatini budgetlashtirish, taxminlash, tannarx hisoblash, transfert bahoni shakllantirish, segmentar hisobot tuzish masalalari o'z ifodasini topadi.

Boshqaruv hisobi schyotlar rejasi esa subyekt va uning bo'linmalari faoliyati to'g'risida strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish, budgetlashtirish, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini tashkil etish, "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tizimi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur schyotlar rejasi quyidagicha tashkil etiladi:

- balans schyotlari, ya'ni balans tuzishda ishtirot etuvchi schyotlar;
- operatsion, "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" tizimi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalilanadigan schyotlar.

Boshqaruv hisobi axborotlari foydalanuvchilarga erkin shaklda taqdim etiladi. Boshqaruv hisobini yuritish tartib-qoidalari subyektning strategik va taktik maqsadlaridan, xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Bu hisob turida ma'lumotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ahamiyatlilik darajasiga e'tibor beriladi.

Boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari – hisobni ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, uzlusizlik, aniqlik, hisoblash, ehtiyyotkorlik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi kabilardan foydalilanadi. Boshqaruv hisobi, odatda alohida bo'linmalar: bo'limlar, tsexlар, uchastkalar, ish joylari faoliyati to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi.

Subyektda boshqaruv hisobi axboroti tuzilmasi va tarkibi uning foydalanuvchilarini ehtiyojlariga bog'liq. Boshqaruv hisobining har qanday tuzilmasi, eng avvalo xarajatlar, daromadlar va aktivlar kabi kategoriyalarga tayanadi. Bu tuzilmalarni qo'llashda asosiy mezon zarur axborotning foydaliligidir. Subyektda boshqaruv hisobi axborotlari ko'proq maxfiylik xususiyatiga ega bo'lib, ulardan subyekt menejerlari, ta'sischilar va kuzatuv kengashi a'zolari boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanishi mumkin. Ushbu axborotlar korxonaning tijorat siri hisoblanadi. Ular hisobotdan tashqi foydalanuvchilarga berilmaydi.

Xo'jalik muomalalarini aks ettirishda ikkiyoqlama yozuv usuliga asoslanish shart emas. Mazkur hisob turida ma'lumotlar har qanday o'lchov birligida hisoblanishi mumkin. Shuningdek, unda moliyaviy hisobot shakllari axborotlarining Bosh kitob ma'lumotlari bilan mos kelishi va taqqoslanishi shart emas. Boshqaruv axborotini qayd etish va aks ettirishda esa moliyaviy hisob usullari bilan bиргаликда ekonometrika, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan ham foydalilanadi.

Hisob o'lchovlarining moddiy, mehnat va qiymat kabi barcha turlaridan foydalaniladi. Hisobot har kuni, har haftada tuzilishi mumkin. Hisobotlarni taqdim etish muddati rahbar tomonidan belgilanadi. Hisobot iste'molchilarga foydali bo'lishi va o'z vaqtida taqdim etilishi shart.

Subyektda xo'jalik muomalalari tahlili asosida istiqbolga mo'ljallangan tavsiyalar, boshqaruv va investitsiya qarorlari dasturini ishlab chiqishdan iborat va ko'proq bo'lajak davrga mo'ljallangan istiqbol bilan ish tutadi. Shuningdek, axborot ehtimollik va subyektiv (xususiylik) tavsifiga ega. Xarajatlar xarajat moddalarini bo'yicha, daromadlar esa bo'linmalar va mahsulot(ish, xizmat)lar turlari bo'yicha guruhanadi va aks ettiriladi. Xarajat moddalarining ro'yxati tarmoq yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

#### **2.4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS)**

##### **shakllanishida hisob siyosatiga umumi yondashuv**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tovarlar, sarmoyalalar va ishchi kuchining davlatlar o'rtaida erkin harakatlanishini talab etadi. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi, respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalalar kirib kelishi kengayishi natijasida respublikamiz tijorat banklari, xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy hisobotlarini takomillashtirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirishni talab qilmoqda. Chunki tijorat banklari bozor infratuzulmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa xo'jalik subyektlari moliyaviy ko'rsatkichlariga baho berishda va ularning xalqaro miqyosda harakat qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham hisob siyosatini shakllantirishda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarni kelib chiqish tarixi va uning evolyutsiyasini ko'rib chiqish lozim.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha qo'mita (XMHSQ) xususiy sektordagi mustaqil organ hisoblanib, uning maqsadi butun dunyodagi kompaniya va boshqa tashkilotlarning moliyaviy hisobotini tuzishda qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi tamoyillarini unifikatsiyalashga erishishdir. Ushbu qo'mita Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Niderlandiya, Buyuk Britaniya

va Irlandiya hamda Amerika Qo'shma Shtatlari buxgalterlar kasbiy tashkilotlari bitimiga muvofiq 1973 yil 29 iyunda tuzildi.

Qo'mita bugungi kunda MHXS ishiga ko'plab boshqa davlat va tashkilotlardan jalb qilingan bo'lib, ular HMHSKga a'zo bo'imasa-da, Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo'llamoqda. 1973 yildan 2001 yilgacha ushbu standartlar qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan va bu standartlar xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (International Accounting Standards) deb yuritilgan. 2001 yildan boshlab ushbu qo'mita kengashga (International Finance Report Standards of Board) aylantirildi va u tomonidan ishlab chiqilgan standartlar (International Finance Report Standards) IFRS deb chop etila boshlandi.

Moliyaviy Hisobotlar Xalqaro Standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishi, kelishuvi va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish;
- hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatalishi (sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda endi rivojlanib borayotgan bozorlar uchun);
- fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni MHXSlariga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda;
- kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to'lig'icha MHXSlariga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan ishlatalishi;
- MHXS talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar soni ortganligi tufayli foydalanilishi.

Yuqoridagilar tufayli MHXS butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. Hatto ba'zi mamlakatlar MHXSni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatalishmoqda, ba'zilari esa mamlakat xususiyatidan kelib chiqib ba'zi o'zgarishlarni kiritmoqdalar. Ko'p millatli yirik kompaniyalar esa MHXSlaridan foydalanish ular uchun qulayligini ta'kidlashmoqda.

MHXSKning Ustavida ko'rsatilishicha maqsadi quyidagicha:

- Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish jarayonida foydalanish hamda jamoatchilik ehtiyoji uchun moliyaviy hisobot standartlarini shakllantirish va chop etish, ularning qabul qilinishi va ularga amal qilinishiga har tomonlama yondashish;

- Moliyaviy hisobotni taqdim etishga aloqador bo'lgan hisob standartlari va jarayonlari, qoidalarini muvofiqlashtirish va umumiy holda yaxshilab borish ustida ish olib borish.

HMHSK vazifalari uning Nizomida quyidagicha aniqlangan: a) jamiyat manfaati asosida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tuzish va taqdim etish buxgalteriya hisobi standartlari va chop etish, ular moliyaviy hisobotni taqdim qilishda rioya etilishi butun jahonda qo'llashni va har tomonlama qabul qilinishi va rioya qilinishi va tatbiq etishni kuzatish;

b) moliyaviy hisobotni taqdim etishga taalluqli buxgalteriya standartlar va jarayonlarni takomillashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha ish olib borish.

### 2.3-jadval.

#### **MHXS kengashi a'zolari<sup>16</sup>:**

1.	Sei Devid Tivid (rais) (avval KPMGda)
2.	Tomas Djons (rais o'rinosari) (avval Citicorpda)
3.	Meri Bart (avval Arthur Andersen)
4.	Stiven Kuper ( avval UBSda)
5.	Filipp Danju (avval Arthur Andersen)
6.	Yan Engstryom (avval Volvo)
7.	Robert Garnett (avval Anglo American)
8.	Jilbert Jelar (avval KPMG)
9.	Djeyms Leysenring
10.	Uorren MakGregor (avval Stevenson McGregor)

### 2.4-jadval.

#### **Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Qo'mitasi (BHXSQ) tarkibi**

1.	"Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mita"ning Vasiylik ( <i>popechitelskij</i> ) kengashi ( <i>International Accounting Standards Committee Foundation</i> )
2.	MHXSQ boshqaruvi (International Financial Standards Board)
3.	Standartlar bo'yicha maslahat kengashi (Standards Advisory Council)
4.	MHXS interpretatsiyalar bo'yicha qo'mita (International Financial Reporting Interpretations Committee)

#### **BHXSQ vasiylik kengashi:**

- Kengash a'zolarining 6 tasi Osiyo va Okeaniyadan;
- Yevropadan 8 ta;

<sup>16</sup> [WWW.IASC.ORG.COM](http://www.iasc.org.com) sayti ma'lumotlari. 2010.

- Shimoliy Amerikadan 6 ta;
- qolgan 2 tasi dunyoning xohlagan regionidan (erkin tarzida) tanlanadi.

## 2.5-jadval.

### BHXSQ vasiylik kengashi a'zolari<sup>17</sup>

T/r	Mamlakatlar	BHXSQ vasiylik kengashi a'zolari
1.	Osiyo va Okeaniya	Marvin Cheung, ( <i>Xitoy</i> ), Tsuguoki (AKI) Fujinuma, ( <i>Yaponiya</i> ), Lyu Chjunli, ( <i>Xitoy</i> ), Djeffri Lyusi, ( <i>Avstraliya</i> ), TV Moxandas Pay, ( <i>Hindiston</i> ), Noriaki Shimazaki, ( <i>Yaponiya</i> )
2.	Yevropa	Gerrit Zalm (rais), Klemens Borsig, ( <i>Germaniya</i> ) Oskar Fanjul, ( <i>Ispaniya</i> ), Alitsiya Kornasiewicz, ( <i>Polsha</i> ), Ser Brayan Nikolson, ( <i>Buyuk Britaniya</i> ), Iv-Tibo de Silguy, ( <i>Fransiya</i> ), Luidji Spaventa, ( <i>Italiya</i> ), Antonio Vegezzi, ( <i>Shveysariya</i> )
3.	Shimoliy Amerika	Samuil Dipiazza, Skott Evans, Robert Glauber, Harvi Goldschmid, Polya Tele, Devid Sidvell
4.	Erkin region	Pedro Malan, ( <i>Braziliya</i> ), Djeffa Van Roen, ( <i>Janubiy Afrika</i> )

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning qo'llanishidan asosiy maqsad, mamlakatda qabul qilingan hisob, hisobot va audit qoidalari xalqaro standart talablariga moslashtirish evaziga buxgalteriya hisobining shaffofligi va oshkoraligini ta'minlashdir. Mutaxassislarining fikricha, bank tizimida MHXSni muvaffaqiyatli qo'llash barcha moliya muassasalarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini faol joriy etishga ko'maklashadi. Subyektlarda MHXSni qo'llash ular tomonidan ham nazorat, ham boshqaruv maqsadlarini ko'zlab, ishonchli moliyaviy axborot berishini ta'minlashi lozim. Respublika xo'jalik subyektlarida MHXSni qo'llash bilan bir vaqtida o'z hisob axboroti tizimini (avvalo boshqaruv maqsadidagi hisobni va ichki nazoratni) takomillashtirish uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash hamda taqdim etishda qo'yidagi tamoyillar asos qilib olinadi va mana shu talablarga javob bergan taqdirdagina ular haqiqiy real bahosiga ega bo'ladi. Ular qo'yidagilar:

Hisoblash tamoyili daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobida e'tirof etiladi va kelgan davrda tushishi yoki paydo bo'lishiga qarab (pul

mablag'larini olish yoki to'lash asosida emas) moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.

Ikkiyoqlama yozuv usulida hisob-kitobni yuritish tamoyili ikkiyoqlama yozuv usulida hisob-kitobni yuritish deganda shu narsa tushuniladiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar ikkiyoqlama yozuv tizimi asosida buxgalteriya operatsiyalarini qayd etishi kerak, ikkiyoqlama yozuv shundan iboratki, bitta operatsiya bo'yicha bitta summaning o'zi buxgalteriya hisobining ikkita hisobvaraqlarida bittasining debetida va boshqasining kreditida aks ettiriladi.

Uzluksizlik tamoyili xo'jalik yurituvchi subyekt uzluksiz ishlaydigan, ya'ni kelajakda ishlashni davom ettiradigan subyekt deb hisoblanadi. Uning o'z faoliyatini tugatish yoki faoliyat ko'laminancha qisqartirish niyati ham, zarurati ham yo'q deb taxmin qilinadi.

Xo'jalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash tamoyili barcha operatsiyalar va voqealar moliyaviy hisobotlardagi axborotlarni umumlashtirish maqsadida pul bilan baholanadi.

Ishonchlilik tamoyili axborot, unda jiddiy xatolar va taxminlar bo'lmasa va unga foydalanuvchilar asoslanishsa, ishonchli bo'ladi. Operatsiyalar yoki voqealarning ishonchliligi boshlang'ich hisob-kitob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Ehtiyyotkorlik tamoyili qarorlar qabul qilishda ehtiyyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa etarlicha baholanmasligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir.

Mazmunning shakldan ustunligi tamoyili agar hisob-kitob hujjatlari va moliyaviy hisobotda axborot, operatsiyalar va voqealarning mazmunini ishonchli darajada aks ettirsa, bunday axborot uning huquqiy shakli bilangina emas, balki mohiyati va iqtisodiy realligi bilan muvofiq holda hisobga olinishi va taqdim etilishi zarur.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyligi tamoyili moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun bir hisobot davridagi axborot boshqa hisobot davridagisi bilan qiyoslanadigan bo'lishi kerak. Foydalanuvchilar tijorat bankining moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan hisob-kitob siyosatidan, ana shu siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va shunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishlari lozim.

Moliyaviy hisobotdagi betaraflik tamoyili moliyaviy hisobotda beriladigan axborot ishonchli bo'lishi uchun taxminlardan mustaqil bo'lishi lozim.

<sup>17</sup> [www.iasc.ora.com](http://www.iasc.ora.com) sayti ma'lumotlari.

Hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi tamoyili hisobot davrida bo‘lgan daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo‘lgan xarajatlarga aks ettiriladi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni o‘rnatish qiyin bo‘lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o‘rtasida taqsimlanadi. Bu masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga taalluqlidir.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi tamoyili aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholash qoidasi shundan iboratki, ularning tannarxi yoki sotib olish qiymati asosiy bahodir. Standartlarda ko‘zda tutilgan ayrim hollarda haqiqiy baho sotib olish qiymatidan farq qilishi mumkin.

Tushunararlilik tamoyili moliyaviy hisobotlarda berilayotgan axborot foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak.

Ahamiyatlilik tamoyili moliyaviy axborot foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojlarini qondirish va ularga operatsion, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatiga baho berishda ko‘maklashish uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak.

Jiddiylik tamoyili agar axborotni kiritmaslik yoki noto‘g‘ri taqdim etish axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qilingan iqtisodiy qarorlariga ta’sir etsa, u jiddiy hisoblanadi. Axborotning ahamiyatiga uning mohiyati ham, shuningdek uning qimmati (jiddiyligi) ham ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Muhimlik tamoyili agar axborotning tushirib qoldirilishi yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilishi axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta’sir qilsa, bunday axborot muhim hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlar xarakteri va vazifalari jihatidan o‘xshash bo‘lgan va alohida ko‘rsatilishi mumkin bo‘lmagan miqdorlar bilan umumlashtirilishi lozim bo‘lgan miqdorlar bir moddada aks ettiriladi. Biroq, alohida o‘zini olganda ham, boshqalarga qo‘shganda ham muhim hisoblangan axborot o‘zga axborot bilan to‘la umumlashtirilmasligi lozim. Shu munosabat bilan agar axborotning ochib berilmasligi hisobotdan foydalanuvchilar moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa, bunday axborot muhim hisoblanadi.

Haqqoniy va xolis taqdim tamoyili moliyaviy hisobotlar foydalanuvchida tijorat bankining moliyaviy ahvoli, operatsiyalar

natijalari, pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida haqqoniy va xolis tasavvur yaratishi kerak.

Tugallanganlik tamoyili moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlash maqsadida axborot etarlicha to‘la hajmda taqdim etilishi kerak.

Izchillik tamoyili hisob siyosati bir davrdan ikkinchi davrga izchil o‘tkazilib boradi, deb hisoblanadi. Foydalanuvchilar tijorat bankining moliyaviy ahvolidagi o‘zgartirish tamoyilini belgilash uchun har xil hisobot davrida ularning moliyaviy hisobotlarini taqqlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

O‘z vaqtida taqdim etish tamoyili hisobot axborotining asossiz darajada kechiktirilishi bilan u o‘zining iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotadi. Axborotni o‘z vaqtida taqdim etish uchun bitimning yoki boshqa voqeanning barcha jihatlari ma’lum bo‘lgunga qadar hisobotga zarurat paydo bo‘lishi mumkin, bu esa uning ishonchlilagini buzadi. Boshqa tomondan, agar hisobot barcha jihatlar ma’lum bo‘lguncha kechiktirilsa, hatto eng ishonchli axborot ham foydalanuvchilarga katta foya keltirmaydi, chunki ular ilgariroq qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Ahamiyatlilik bilan ishonchlilik o‘rtasida mutanosiblikka erishish maqsadida iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qanday qilib eng yaxshi tarzda qondirish masalasini hal etish kerak.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo‘jalik operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga guruhlaydi.

Aktivlar, xususiy sarmoya va majburiyatlardan buxgalteriya balansida subyektning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan elementlaridir. Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotda moliyaviy faoliyatning ko‘rsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan elementlaridir.

Ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratiladigan moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyati butun dunyoda yil sayin oshib bormoqda. Lekin, buxgalteriya hisobini xalqaro darajada standartlashtirish jarayoni murakkab va buxgalteriya hisobi milliy standartlarining xilma-xillihi bilan bog‘liq qator muammolarni hal etishni talab qiladi. Ular hisob ob‘ektlarini har xil baholash, hisobot ko‘rsatkichlarini har xil aniqlanishini belgilaydi. Hattoki u yoki bu ob‘ektni hisobga olishga yondashuvdagagi bitta tafovut mazkur ob‘ekt bilan

bog'liq bo'lgan, boshqa ob'ektlardagi ko'rsatkichlarning farq qilishiga olib keladi.

**2.6-jadval.  
O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari  
(BHMS - UzNAS) va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari  
(MHXS - IAS) bo'yicha taqposlanishi**

BHMS	MHXS
<b>o'xshashliklari</b>	
<p>Moliyaviy hisobotining maqsadi – xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va moliya-xo'jalik faoliyatni to'g'risida foydalanuvchilarga axborotlar taqdim etish.</p> <p>BHMS va MHXS bo'yicha axborotdan foydalanuvchilar ro'yxati umuman mos keladi.</p>	
<b>farqlari</b>	
Moliyaviy hisobot soliqlarmi to'g'ri hisoblash va qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish vositasini bo'lib xizmat qiladi	Moliyaviy hisobot qonunchilik ijrosi va soliqlarni hisoblash to'g'rilingini nazorat qilish vositasini bo'lib xizmat qilmaydi
BHMSda bunday vazifa moliyaviy hisobot oldiga bevosita qo'yilmagan	Moliyaviy hisobot pul mablag'larning investitsiyalash manbalaridan tushumini bashoratlash uchun foydalanuvchiga yordam berishi lozim
"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida moliyaviy hisobot majburiy tartibda taqdim etiladigan foydalanuvchilar ro'yxati ko'rsatilgan bo'lib, boshqa foydalanuvchilar batafsil berilmagan	MHXSda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar barcha guruhlarining ro'yxati berilgan
Moliyaviy hisobotdan barcha foydalanuvchilarning manfatlarini tavsiflamaydi	MHXS moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar barcha guruhlarining manfaatlarni aniqlaydi
Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ichki va tashqiga bo'lib, ichki foydalanuvchilarga rahbariyat kabi mulkdorlar ham kiradi	MHXS foydalanuvchilarni ichki va tashqi foydalanuvchilarga bo'lmasdan, barcha foydalanuvchilar korxonaga nisbatan tashqi foydalanuvchilar hisoblanadi
Subyekt rahbariyati buxgalteriya hisobotidan asosiy foydalanuvchilar qatoriga kiradi va foydalanuvchilar ruyxatida birinchini ko'rsatiladi	MHXSga muvofiq firma rahbariyati moliyaviy hisobotdan asosiy foydalanuvchi hisoblanmaydi va foydalanuvchilar ro'yxatini oxirida ko'rsatiladi
Boshqaruv vazifalarini hal etish buxgalteriya hisobotidan foydalanishning maqsadlaridan biri hisoblanadi	MHXS boshqaruv vazifalarini hal etish uchun moliyaviy hisobotdan foydalanishni maqsad qilib qo'yaydi
Subyektning zarar ko'rmasligiga erishish uchun moliyaviy hisobotdan foydalanishni maqsad qilib qo'ygan	MHXS firmanın zarar ko'rmaslikka erishishi uchun moliyaviy hisobotdan foydalanishni maqsad qilib qo'yaydi

Moliyaviy ahvol to'g'risidagi axborotlar aktivlar, majburiyatlar va kapital to'g'risida; moliyaviy natijalar to'g'risida buxgalteriya hisobida

shakllantirilgan axborotlardan iborat. Bunda «Buxgalteriya hisoboti bir vaqtning o'zida, bir tomondan aktivlar, majburiyatlar va kapital to'g'risida, boshqa tomondan, daromadlar va xarajatlar to'g'risida ishonchli axborot bera oladimi?» - degan savol vujudga keladi.

Xalqaro standartlarning aniq mazmuni moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarga qaraganda, ko'proq moliyaviy ahvol to'g'risidagi ishonchli axborotlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Aktivlarni tan olish amallariga nisbatan qo'yiladigan qat'iy talablar ham, adolatli qiymat asosida baholash bo'yicha kiritilgan talablar va boshqalar ham shundan dalolat beradi. Bunday yondashuvda "korxona sof aktivlari qiymatining qo'shimcha o'sishi"ga asoslangan, "foydalilik" ko'rsatkichi eng axborotga boy hisoblangan bo'lar edi.

Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar bo'yicha tashkil etishga o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda quydagi yondashuvlardan kelib chiqishi lozim:

*birinchidan*, buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchi mamlakatlarning hisob tamoyillariga muvofiq moliyaviy hisobotning barcha ko'rsatkichlarini ularning valyutasiga to'liq o'tkazib yoki ayrim elementlarini o'tkazgan holda tayyorlanadi. Bunday axborotlar moliyaviy hisobotning alohida shakllariga ilova sifatida rasmiylashtiriladi;

*ikkinchidan*, axborotdan foydalanuvchilarning hisob tamoyillaridan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot valyutasi va barcha ko'rsatkichlarini o'tkazish yo'li bilan "takrorlovchi moliyaviy hisobot", ya'ni mazmun jihatdan bir xil ikkita hisobot tayyorlanadi: o'zi uchun milliy standartlarga muvofiq tuzilgan va hamkor uchun xalqaro standartlar yoki uning hisob tamoyillariga muvofiq tuzilgan bo'lishi.

*uchinchidan*, qat'iy ravishda xalqaro standartlarga muvofiq tuzish va moliyaviy hisobot milliy standartlari talablaridan kelib chiqib tuziladi, agar ular xalqaro standartlar talablariga zid bo'lmasa.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida ham (8-son MHXS, *Hisob siyosati va hisob siyosatidagi o'zgarishlar va fundamental xatoliklar*) aynan boshqaruv hisobiga tegishli masalalar alohida hisob ob'ekti sifatida ifodalanmagan. Bu esa boshqaruv hisobini qat'iy yuritish emas, balki erkin tarzda shakllantirish va axborotlarni maxfiy bo'lishini nazarda tutadi.

### Test savollari

1. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunning qaysi moddasida buxgalteriya hisobini tashkil etish qoidalari ko'rsatib berilgan.

- a) 5-moddasida;
- b) 6-moddasida;
- v) 7-moddasida;
- g) 8-moddasida.

**2. Boshqaruv hisobida ikkiyoqlama yozuv deganda nimani tushunasiz?**

- a) xo'jalikda sodir bo'lgan muomalalarini ikkita schyotning qarama-qarshi tomonida aks ettirish;
- b) xo'jalik muomalalarini dastlabki hujjatlarda qayd etish;
- s) xo'jalik mol-mulkini baholash;
- d) Xo'jalik muom-ni bitta schyotning debetiga yozish.

**3. Boshqaruv hisobini tashkil etishni kim amalgalashadi?**

- a) rahbar;
- b) bosh buxgalter;
- v) iqtisodchi;
- g) auditor.

**4. Boshqaruv hisobida qo'llaniladigan hujjatlarining majburiy rekvizitlarini aniqlang.**

a) korxonaning (muassasaning) nomi; hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy; xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o'lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida); mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari va muhr.

b) korxonaning (muassasaning) nomi; hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy; mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari va muhr.

v) hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy; xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o'lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida); mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari va muhr.

g) korxonaning (muassasaning) nomi; hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy; xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o'lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida) va muhr.

**5. «Hisob yuritish siyosati». Bu tushuncha nechanchi BHMSda o'z ifodasini topgan.**

- a) 00-BHMS;
- b) 01-BHMS;
- v) 02-BHMS;
- g) 03-BHMS.

**6. Korxona ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab hisob siyosati qancha muddat ichida tasdiqlanishi kerak.**

- a) 60 kun ichida;

- b) 70 kun ichida;
- v) 80 kun ichida;
- g) 90 kun ichida.

**7. "Hisob yuritish siyosati"ni kim tasdiqlaydi.**

- a) rahbar;
- b) bosh buxgalter;
- v) iqtisodchi;
- g) auditor.

**8. Boshqaruv hisobi "Hisob yuritish siyosati"ga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang.**

a) mulkchilik shakllari, faoliyat turi, ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, soliq solish, bahoni belgilash, investitsiya dasturlari, moddiy-texnika bazasi, buxgalteriya xodimlari, xodimlarning malaka darajasi, manfaatdorlik va javobgarlik;

b) ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, soliq solish, bahoni belgilash, investitsiya dasturlari, moddiy-texnika bazasi, buxgalteriya xodimlari, xodimlarning malaka darajasi, manfaatdorlik va javobgarlik;

v) faoliyat turi, ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, soliq solish, bahoni belgilash, investitsiya dasturlari, moddiy-texnika bazasi, buxgalteriya xodimlari, xodimlarning malaka darajasi;

g) mulkchilik shakllari, faoliyat turi, ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, soliq solish, investitsiya dasturlari, moddiy-texnika bazasi, buxgalteriya xodimlari, manfaatdorlik va javobgarlik.

**9. "Hisob yuritish siyosati"ning tarkibini aniqlang**

a) umumiy qoidalar, hisob siyosatining uslubiy jihat, hisob siyosatining texnik jihat;

b) hisob siyosatining uslubiy jihat, hisob siyosatining texnik jihat, hisob siyosatining tashkiliy jihat;

v) umumiy qoidalar, hisob siyosatining uslubiy jihat, hisob siyosatining texnik jihat, hisob siyosatining tashkiliy jihat;

g) umumiy qoidalar, hisob siyosatining texnik jihat, hisob siyosatining tashkiliy jihat.

**10. Buxgalteriya hisobi registrlarini aniqlang.**

a) buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlari, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir;

b) buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, daftarlari, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir;

v) buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir;

g) buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlari.

### Nazorat savollari

1. Boshqaruv hisobida hisob siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Hisob siyosati kim tomonidan shakllantiriladi va uni kim tasdiqlaydi?
3. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining tarkibi nimalardan iborat?
4. Boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosatining uslubiy ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
5. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining tashkiliy ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
6. Boshqaruv hisobiida hisob siyosatining texnik tomonlari deganda nimani tushunasiz?
7. Hisob siyosati qaysi muddat ichida shakllantirilishi kerak?
8. Hisob siyosati har yil uchun yangi tuziladimi?
9. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining ahamiyati nimada?
10. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va ularni qo'llashdagi muammolar nimalardan iborat?
11. Boshqaruv hisobining ob'ektlariga nimalar kiritiladi?
12. Hisob siyosatini to'g'ri shakllanishiga kim javobgar bo'ladi?
13. Boshqaruv hisobida hisob yuritish siyosatii qaysi me'yoriy hujjalarga asosan shakllantiriladi?

## 3-bob. BOSHQARUV HISOBIDA KORXONA FAOLIYATINI BUDJETLASHTIRISH

### 3.1. Budgetlashtirish va uning korxona faoliyatini rejalashtirishda tutgan o'rni

"Budget" atamasi keng ma'noda, davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida hukumat ixtiyorida markazlashgan pul fondlarining, korxonalar ixtiyorida esa markazlashmagan pul fondlarining shakllanishi va ulardan oqilona foydalananishni anglatadi.

Tor ma'noda esa, "budgetlashtirish" atamasi hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritilmagan, chunki korxonaning doimiy asosga qo'yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznes-rejalashtirish bilan cheklangan edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv hisobida rejalashtirish jarayonini ta'riflash uchun "budgetlashtirish" atamasidan keng foydalilanadi.

**Budgetlashtirish** korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi.

Budgetlashtirishning afzalligi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarining xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Budgetlashtirishda asosiy e'tibor mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Budgetlashtirishning quyidagi ijobjiy jihatlari mavjud:

- 1)korxonaning asosiy maqsadini ta'minlashda xizmat qiladigan jarayonlarni rejalashtiridi;
- 2)alohida bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- 3)korxona bo'linmalari rahbarlarini o'z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga ko'makashadi;
- 4)korxona xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rioxay qilishlarini ta'minlashga xizmat qiladi;
- 5)korxona alohida bo'linmalari rahbarlarini belgilangan rejalarining bajarilish darajasini baholashlarida asos bo'ladi.

Budgetlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- 1)korxonaning maqsadlariga erishishini ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish;

2)barcha darajadagi rahbarlarni o'zları javobgar markazlar maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;

3)turli xil bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo'linmalar xodimlarining manfaatlari e'tiborga olinadi;

4)korxona joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta'minlash;

5) javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo'yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o'tash;

6)menejerlar malakasini oshirishda ko'maklashish.

Quyida ushbu vazifalarga batafsilroq to'xtalamiz.

**Rejalashtirish.** Ko'pchilik hollarda, boshqaruv qarorlari bo'yicha rejalar ishlab chiqarish dasturini tayyorlash jarayonida shakllantiriladi va budgetlarni tuzishda mazmunan aniqlashtiriladi.

**Muvofiqlashtirish.** Korxonaning har bir javobgarlik markazi boshqa javobgarlik markazlari ish jarayoniga ta'sir etadi va ularning faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Budgetlarni tayyorlashda alohida faoliyat turlari o'zaro muvofiqlashtiriladi, bunda barcha bo'linmalar kelishuv asosida, korxona umumiyligi maqsadidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatadi. Bu holatda ishlab chiqarish rejasini marketing bo'limi rejasini bilan muvofiqlashtirish, jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini rejalashtirilgan sotish hajmi va tayyor mahsulotlar qoldig'i bilan taqqoslash asosiy talablardan hisoblanadi. Xomashyo va materiallarni sotib olishni rejalashtirishda ishlab chiqarish budgetida ifodalangan mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan talab tahlil qilinadi.

Ishlab chiqilgan rejalar barcha qatnashchilar ularning shartlari bilan to'liq tanishib olmaguncha amalga oshirilmasligi lozim.

Rejalar quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

– qancha mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqariladi;

– ishlab chiqarishda qatnashadigan xodimlar, foydalaniladigan usullar va asbob-uskunalar to'g'risida ma'lumotlar;

– qancha xomashyo va materiallarni sotib olinadi;

– sotish bahosi qanday belgilanadi, kelgusida qanday chekllov larga rivoja qilinadi va h.k.

Ushbu ma'lumotlar reklama, texnik xizmat ko'rsatish, ma'muriy va mehnatga haq to'lash xarajatlarini rejalashtirish hamda mahsulot sifatini samarali boshqarishga imkon beradi.

**Rag'batlantirish.** Budgetlarni tuzish jarayoni javobgarlik markazlari rahbarlari maqsadini amalga oshirishda muhim rag'batlantirish vositasi bo'lishi mumkin.

Budgetlarning rag'batlantirish roli ko'proq menejerlarni o'z bo'linmalarida budgetlarni tuzish jarayonida faol qatnashishlarida namoyon bo'ladi.

**Nazorat.** Puxta tayyorlangan budgetlar haqiqiy erishilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi, shuningdek, ular budgetlarni tuzish jarayonida kutilgan barcha o'zgarishlar natijalarini baholashni o'z ichiga oladi.

Hozirgacha korxonalar amaliyotida joriy natijalar o'tgan yil natijalari bilan taqqoslanib kelingan. Ko'pgina korxonalar ayni paytda ham taqqoslashning asosiy vositasi sifatida ushbu usuldan foydalanoqda. Ammo, bu tarixiy usul joriy yil uchun rejalashtirilgan rivojlantirish dasturidagi o'zgarishlarni aks ettermaydi.

Haqiqiy ko'rsatkichlarni budget ma'lumotlari bilan taqqoslash boshqaruv faoliyatida asosiy e'tiborni qaysi jihatlarga qaratish zarurligini belgilab beradi.

Haqiqiy erishilgan natijalar bilan budget ma'lumotlari o'rtasidagi chetlanishlar tahlili quyidagi afzalliklarga ega:

1)korxona faoliyatidagi eng avval hal qilinishi lozim bo'lgan muammoli jihatlarni aniqlashga ko'maklashadi;

2)budgetlarni tuzish jarayonida o'rganilmagan yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga yordamlashadi;

3)bosh budgetdagi mavjud nomuvofiqliklarni ochib beradi.

**Baholash.** Har oyda budgetlardagi chetlanishlarni aniqlash butun hisobot davri uchun nazorat maqsadlariga xizmat qiladi. Hisobot davri haqiqiy natijalari bilan budget ma'lumotlarini taqqoslash yil oxirida javobgarlik markazlari va ular rahbarlari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni baholash imkonini beradi.

**Malakani oshirish.** Budgetlar menejerlarning malakasini oshirishda ham ijobjiy samara beradi ya'ni menejerlar budgetlarni tuzishda o'z bo'linmalar faoliyati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarga, shuningdek, javobgarlik markazlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lislari mumkin. Bu esa korxona javobgar markazlariga mas'ul shaxslarni tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Budgetlashtirish samarali boshqaruv usullaridan hisoblanib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1)korxonaning faoliyati bilan bo'linmalar faoliyatini kompleks rejalahtiradi;

2)budjetlashtirish loyihasini ishlab chiqish imkonini yaratadi;

3)tuzilgan biznes-rejani tasdiqlaydi;

4)o'zgarib turuvchi ichki va tashqi salbiy omillarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar kelgusida daromadlarini oshirishlari uchun o'zlarining faoliyatlarini istiqbolli rejalahtirishlari zarur bo'ladi. Uning asosini budjetlashtirish tashkil etadi.

Boshqaruv hisobining asosiy vazifasi hisoblangan va boshqaruv nazoratini ta'minlashda muhim bo'lgan rejalahtirish jarayoni quyidagi tamoyillarga tayanadi:

-korxona tomonidan ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirish uchun o'rta va uzoq muddatli rejalarни amalga oshirish uchun maxsus dasturlar tuzish;

-zarur budjet (smeta)larni ishlab chiqish. Budjetlarni ishlab chiqish zarurati korxona tuzadigan rejalar asosli bo'lishi va ularni amalga oshirish etarli moddiy mablag'lar mavjud bo'lishi belgilanadi.

Odatda, rejalahtirish jarayoni amal qilish vaqtiga muvofiq uzoq, o'rta va qisqa muddatli, qo'yilgan maqsadga ko'ra esa operativ, taktik va strategik rejalahtirishga bo'linadi.

**Tezkor yoki qisqa muddatli rejalahtirish** tizimi kun, hafta, dekada, oy, chorak yoki bir yil davomida amalga oshiriladi. Bu rejalar bosh dastur asosida ishlab chiqilib, aniq maqsad va yo'naliishga ega bo'ladi, ularni bajarishda turli xil usullar qo'llaniladi. Tezkor rejalar korxona asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan taktik rejalarini ifoda etadi. Ular jumlasiga ishlab chiqarish rejası, umumishlab chiqarish xarajatlari rejası, moddiy texnika ta'minoti rejası kabilar kiradi.

**Taktik yoki o'rta muddatli rejalahtirish** 3-5 yil muddatni qamrab olib, korxonaning uzoq muddatli maqsadlarga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish yordamida amalga oshiriladi. Mazkur rejalahtirishda korxona maqsadining resurslar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi va turli xil moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosibliklar aniqlanadi.

**Strategik yoki uzoq muddatli rejalahtirishda** korxonaning 5-10 yil muddatga belgilangan rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqiladi. Bu kontseptsiya korxonani bozorda barqaror holatni saqlash va o'z segmentiga ega bo'lish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, to'lov qobiliyatini yaxshilash, foydani eng yuqori darajaga olib chiqish va

rentabellikni oshirish kabi strategik maqsadlariga erishishini ta'minlaydi. Strategik rejalar biznesni va tashkiliy tuzilmani belgilash, aniqlab olish bo'yicha tuziladigan bosh rejalar hisoblanib, alohida ehtiyoj bo'lmasa qayta tuzilmaydi. Ularga yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni o'rganish va xaridorlarni jalb qilish kabilarni kiritish mumkin.

Uzoq va o'rta muddatli rejalar korxona strategiyasini, qisqa muddatli rejalar esa taktikasini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Biznes-rejalahtirishni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- biznes-rejalahtirishning uzluksizligi;

- qo'yilgan maqsadga erishish yo'llaridan eng maqbulini tanlashga imkon beruvchi ko'p variantlilik;

- korxona xodimlarini rejalahtirishga to'liq jalb etilishini ta'minlovchi ishtiroy etishlilik.

**Biznes-reja** nazarda tutilgan biznesning qisqa va tushunarligini, belgilab olingan asosiy vazifalarning to'g'ri yechimlarini topishga imkon beruvchi muhim quroldir.

**Biznes-reja quyidagi tuzilmaga ega:**

1. Biznes kontseptsiyasi;

2. Hozirgi vaqtidagi vaziyat va korxona haqidagi qisqacha axborot;

3. Biznes ob'ekti tavsifi;

4. Bozorni taktik tahlil etishning mavjudligi;

5. Tashkiliy reja, shu jumladan huquqiy ta'minot;

6. Xodimlar faoliyati va boshqaruv;

7. Ishlab chiqarish rejası;

8. Marketing rejası;

9. Yirik tavakkalchilik va xavf-xatarlar;

10. Moliyaviy reja va moliyaviy strategiya.

Biznes-reja ko'zda tutilgan biznesni asoslash va muayyan vaqt mobaynidagi natijalarni baholash uchun mo'ljallanadi.

Biznes-reja faoliyat yo'naliishini belgilab olishga va biznes boshqarishga imkon beruvchi harakat hisoblanadi. Shu sababli, uni ichki xo'jalik rejalahtirilishining uzviy qismi yoki ijro va nazorat uchun amaliy qo'llanma sifatida e'tirof etish mumkin.

Korxonalarda biznes-reja investitsiyalarni yuqori daromad keltiradigan sohalarga yo'naltirishda ijobjiy samara beradi. Shu jihatdan u investorlar uchun biznesni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Biznes-reja nazarda tutilgan biznes muvaffaqiyatini kafolatlashi va

korxonaning tavakkalchilikka tayyorligini ta'minlashi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, biznes rejalashtirish - bu mahorat va san'atni talab qiluvchi jiddiy jarayondir.

Biznes rejalashtirishni jarayon sifatida amalga oshirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish lozim:

- korxona faoliyat ko'rsatayotgan muhitdagi o'zgarishlarga doimiy moslashuvchanlik;
- rejalashtirishning moslashuvchanlik xususiyatlарини nazarda tutuvchi uzluksizlik;
- manfaatlar muvofiqligi va integratsiyasiga asoslangan aloqadorlik;
- biznes-rejaning avval tuzilgan bo'limlarini umumlashtirish asosidagi takrorlanuvchanlik;
- qo'yilgan maqsadga erishishning muqobil imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlab olishga imkon beradigan ko'p variantlilik ;
- korxona barcha xodimlarini rejalashtirishga jalg etish nuqtai-nazardan jarayonni muhimligini nazarda tutuvchi ishtirot etish tamoyili;
- rejalashtirish jarayonida real muammolar va o'z-o'ziga baho berishni aks ettirishning aynan bir xilligi.

Biznes-rejalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari mavjud:

- *o'zaro bog'liqlik munosabatlari bo'yicha*: bunda ikkita mustaqil biznes-reja qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi va ulardan muqobil hamda yuqori daromad keltiradigani tanlab olinadi;

- *kutilayotgan daromad bo'yicha*: xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va texnologiyalarni yangilash hisobiga qo'shimcha daromad olish, bozorda munosib o'ringa ega bo'lish, biznesning yangi sohalarini o'zlashtirish, ijtimoiy samara va sifatga erishish;

- *tashkiliy ishlar bo'yicha*: aniq maqsadni belgilash, bozorni tadqiq etish va yuqori imkoniyatga ega loyihamar asosida rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Ta'kidlash lozimki, texnik-iqtisodiy asoslanish (TIA) ham ko'p jihatdan biznes-rejaga yaqin turadi. Undan biznes-rejaning asosiy farqi strategik yo'nalishi va tadbirkorlik xususiyatida hamda korxona ichki imkoniyatlarini tashqi muhit ta'siridagi ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyatning bozor xususiyatlari bilan o'zaro birikuvida namoyon bo'ladi.

Amaliyotda ko'pgina hollarda biznes rejalashtirish asossiz ravishda ichki xo'jalik rejalashtirilishi bilan bir xil deb qaraladi. Ammo, ular orasida quyidagi tafovutlar mavjud:

1)ichki xo'jalik rejalashtirishidan farqli o'laroq, biznes-rejalashtirish korxona umumiylar maqsadini emas, balki faoliyatning yangi turini rejalashtirish yoki biznes-rejaning mazmunini aniqlovchi eng muhim vazifalarni qamrab oladi. Biznes-reja, asosan, korxona rivojlanish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga mo'ljallanadi, ichki xo'jalikni rejalashtirish esa yuqoridagilardan tashqari joriy va istiqbolli faoliyatning xilma-xillagini ham o'z ichiga oladi;

2)biznes-reja, odatda, bajarilishi muayyan muddatlar bilan belgilangan innovatsion loyihalarga ishlab chiqiladi, bu muddatlar tugashi bilan loyiha ustidagi olib borilayotgan ish tugallanadi. Ichki xo'jalik rejalashtirishi korxonani boshqarishning barcha davrlarida uzluksiz amalga oshiriladi. Bunda davriy va yillik rejani bajarish mobaynida tegishli tuzatishlar kiritilgandan keyin navbatdagi rejani amalga oshirishga o'tiladi va h.k. Biznes-reja nafaqat aniq, balki yanada torroq chegaralarga ega, har qanday ichki xo'jalik rejasini esa bunday aniq cheklolvlarga ega bo'lmaydi;

3)biznes-reja tadbirkorlarni yangi faoliyatni boshlashi va mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur resurslar, avvalambor moliyaviy resurslarga ega bo'lish, shuningdek, ishonchli sheriklar qidirib topish, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni puxta tahlil qilishni talab etadi, bunda nafaqat ichki xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyati, balki kredit, moliyaviy va bank tizimlarida tavakkalning mavjud darajasi hisobga olinadi. Ichki xo'jalik rejalari ko'proq xususiy ravishda foydalanish uchun biznes-rejalar esa investorlar va kreditlar olish uchun zarur, xolos;

4)biznes-rejalar korxona rahbariyati ishtirokida ishlab chiqiladi. Ichki xo'jalik rejalashtirishini amalga oshirish bilan esa korxonaning tajribali menejerlari va bo'linmalar mutaxassislari shug'ullanadilar.

Ichki xo'jalik rejasini ishlab chiqishda har bir tadbirkorning shaxsan ishtiroti nafaqat real strategik va tezkor maqsadni ishlab chiqishga imkon tug'diradi, balki kelajakda xarajatlar va daromadlarni solishtirish asosida biznes-loyihani bajarishning eng mukammal shaklini tashkil etishni ham ta'minlaydi.

### 3.2. Bosh budget, uning tarkibi va tuzish tartibi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda budgetlashtirish jarayoni bosh budgetni tuzishdan boshlanadi. Uni tuzish quyidagi to'rtta asosiy bonqichiga ajratiladi. (3.1-chizma).

**Bosh budget** korxonaning rahbarlari uchun muhim bo'lib, rejalashtirilgan hisobot davrida ular oldida turgan maqsad va vazifalarni


aniq belgilash hamda ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, daromadlar va xarajatlarning shakllanish jarayoni, hisob-kitob va to'lovlar holatini doimiy ravishda kuzatib borishga imkon beradi.

Bosh budgetni tuzish investitsiya qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlashda korxona mulkdorlari uchun ham zarur hisoblanadi.

Budgetlarni tayyorlashda quyidagi smetalar tuziladi:

- moddiy xarajatlar smetasi;
- asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi xarajatlari smetasi;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega ustama xarajatlar smetasi;
- ma'muriy-boshqaruv xarajatlari smetasi.

**Operatsion budgetning** asosiy maqsadi moliyaviy mablag'larning taxminiy manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilab berishdir. Uni ishlab chiqish sotishlar rejasini tuzishdan boshlanadi. Ishlab chiqarish hajmi, tannarx, foya kabi korxonaning boshqa barcha iqtisodiy ko'rsatkichlari sotish hajmi va tannarxiga bog'liq bo'ladi.




### 3.1-chizma. Korxonada budgetlashtirish bosqichlari va uni amalga oshirish

Shuningdek, korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining alohida tamoyillari va bosqichlarini tavsiflovchi maxsus texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (TIK) ham operatsion budget orqali aks ettiriladi. Bunda marketing bo'limining ma'lumotlari asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Korxonaning operatsion budgetida daromadlar va xarajatlar miqdor hamda qiymat ko'rinishida ifodalanadi.

Operatsion budgetni tuzishda quyidagi budgetlardan foydalilanadi:



### 3.2-chizma. Sanoat korxonalari bosh budgetining pog'onaviy tuzilmasi

Bosh budgetni tuzishning yakuniy bosqichi kutilayotgan foya yoki zarar to'g'risidagi umumlashtirilgan smetani tuzib chiqish hisoblanadi. Mazkur smeta quyidagi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi:

- mahsulotlar sotish, ishlari bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingen daromadlar;

b) ishlab chiqarishga sarflanadigan xomashyo va materiallar xarajatlari;

v) asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning mehnat haqi xarajatlari;

g) ishlab chiqarish xususiyatidagi ustama xarajatlar;

d) sotilgan mahsulotlar tannarxi;

e) sotish va ma'muriy-boshqaruv xarajatlari;

z) ishlab chiqarishdan kutilayotgan soyda yoki zarar.

Korxonaning bosh budgeti operatsion, investitsiya va moliyaviy budgetlardan tashkil topadi.

1. Ishlab chiqarish budgeti;

2. Tovar-moddiy zaxiralalar va asosiy vositalarni sotib olish budgeti;

3. Tayyor mahsulotlar zaxiralari budgeti;

4. Davr xarajatlari budgeti;

a) sotish xarajatlari budgeti;

b) ma'muriy xarajatlars budgeti.

**Sotish xarajatlari budgeti** strategik rejalashtirish asosida xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e'tiborga olib vertikal hamda horizontal tartibda tuziladi. Ko'pgina hollarda sotishlar hajmi mavjud ishlab chiqarish quvvati bilan belgilanadi.

Sotish xarajatlari budgetini tuzish budgetlashtirishning murakkab bosqichi hisoblanadi. Buning sabablari quyidagilardir:

a) mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan tushgan tushum korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlariiga bog'liq emas;

b) bozorda nazorat qilib bo'lmaydigan hamda sotuv budgetiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladigan omillar juda ko'p. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

1. Raqobatchilarning faoliyati;

2. Milliy va jahon bozoridagi umumiyl holat;

3. Xaridorlar va mol etkazib beruvchilarning moliyaviy barqarorligi;

4. Reklama va boshqa hamkorlik xizmatlarining samaradorligi;

5. Baho siyosati;

6. Mahsulotning rentabelligi.

Yuqoridaqlardan kelib chiqqan holda sotish budgetini tuzishda quyidagi ikki usuldan foydalilanadi:

1. Statistik prognoz (umumiqtisodiy sharoitlar, bozor kon'yuturasi kabilarning grafikli matematik tahlili);

2. Ekspertlar bahosi (sotish bo'limi mutaxassislari va menejerlarning fikrlarini umumlashtirish asosida).

Sotishlarning rejalashtiriladigan hajmi belgilanganidan keyin ishlab chiqarish budgeti, uning asosida tovar-moddiy zaxiralari va asosiy vositalarni sotib olish, ma'muriy xarajatlar budgetlari tuziladi.

### 3.1-jadval.

#### Pul mablag'lari budgeti ko'rsatkichlari, ming so'mda

Moddalar nomlari	yilga	Shu jumladan choraklar bo'yicha			
		I	II	III	IV
1	2	3	4	5	6
1. Hisobot davri boshiga pul mablag'lari	1500,0	600,0	440,0	320,0	140,0
2. Hisobot davrida pul mablag'larining kelib tushishi shu jumladan: mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan	4340,0	975	1200	1200	965
Asosiy vositalarni sotishdan	-	-	-	-	-
Boshqa jihozlarni sotishdan	-	-	-	-	-
Qimmatli qog'ozlar muomalalaridan	60,0	-	30,0	30,0	-
Mulkni boshqa korxonalarga ijara berishdan	160,0	40,0	40,0	40,0	40,0
Olingan dividendlardan	-	-	-	-	-
Boshqa tushumlardan	120,0	35,0	30,0	30,0	25,0
<b>Pul mablag'lari jami (1q2q)</b>	<b>5840,0</b>	<b>1575,0</b>	<b>1640,0</b>	<b>1520,0</b>	<b>1105,0</b>
<b>3. Hisobot davridagi jami to'lovlar, shu jumladan:</b>	<b>4550,0</b>	<b>1070,0</b>	<b>1110,0</b>	<b>1430,0</b>	<b>940,0</b>
Xomashyo va materiallar sotib olishga	2000,0	400,0	500,0	700,0	400,0
Mehnat haqi xarajatlariiga	1000,0	280,0	240,0	240,0	240,0
Soliqlar, yig'implar va chegirmalarni o'tkazish to'lovlariga	200,0	50,0	60,0	40,0	50,0
Ma'muriy xarajatlarga	800,0	200,0	150,0	300,0	150,0
Qurilish xarajatlariiga	450,0	100,0	100,0	150,0	100,0
Uskunalar va nomoddiy aktivlar sotib olishga qilingan xarajatlarga	100,0	40,0	60,0	-	-
Qimmatli qog'ozlar muoma-lalari bo'yicha xarajatlarga	-	-	-	-	-
Boshqa to'lovlargacha	150,0	80,0	-	20,0	50,0
<b>4. Pul mablag'larining etarililigi (etishmovchi-ligi) (1qQ2q-3q)</b>	<b>1290,0</b>	<b>505,0</b>	<b>530,0</b>	<b>90,0</b>	<b>165,0</b>
5. Kredit va boshqa qarzlar olish	-	-	-	-	-
6. Kreditlar va boshqa qarzlarini qaytarish	100,0	100,0	-	-	-
<b>7. Hisobot davri oxiriga pul mablag'lari qoldig'i (4q-6q)</b>	<b>1190,0</b>	<b>405,0</b>	<b>530,0</b>	<b>90,0</b>	<b>165,0</b>

**Investitsiya budgeti** korxonaning budget davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari rejasি hisoblanadi. Ushbu budget turi joriy davrdagi ishlab chiqarish ehtiyojlari (asbob-

uskunalar sotib olish va h.k.) hamda budjet davridan chetga chiquvchi uzoq muddatli xarajatlar (kapital qurilish, korxonani modernizatsiya qilish va shu kabi)ni o‘z ichiga oladi. Investitsiya budjetida korxonaning budjetlashtirish davridagi kapital qo‘yilmalari va uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalari rejalashtiriladi.

Korxona bosh budgetining muhim tarkibiy qismi **moliyaviy budjet** hisoblanadi. Uning yordamida sotishlar hajmi va tannarxi, daromadlar va xarajatlarning nisbati, sof foyda, o‘z mablag‘laridan foydalanish, investitsiya qo‘yilmalarining qoplanish muddati va boshqalar haqida to‘liq axborot olinadi.

Moliyaviy budjet amaliyatda “Pul mablag‘lari harakati budjeti” deb ham nomlanib, uning tarkibiga korxonaning budjet davridagi pul mablag‘larining kirimi va chiqimi, aylanma mablag‘lar harakati budjeti, shuningdek, taxminiy buxgalteriya balansi (korxonaning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi hisobot) kiradi (3.1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridagi hisobot davri oxiriga pul mablag‘larining ijobji qoldig‘i 1740,0 ming so‘mni tashkil etganligi korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Taxminiy buxgalteriya balansi korxona aktivlari va passivlarining hisobot davrigacha bo‘lgan holatini aks ettiradi. Mazkur balans shaklini tuzish bilan bosh budgetni tayyorlash jarayoni yakunlanadi. “Toshkentsut” aktsionerlik jamiyatining 2004 yil uchun budgetlashtirilgan taxminiy balansi 9-ilovada keltirilgan.

Korxonalarda budgetlarni tuzish o‘tgan yillarning haqiqiy xarajatlari asosida amalga oshiriladi. Bunda rejaviy va haqiqiy ko‘rsatkichlarni taqqoslashda aniqlangan chetlanishlar kelgusi davr uchun tuziladigan budgetda inobatga olinadi.

Budgetlarni tayyorlashda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

1. Ehtiyyotkorlik va aniqlik tamoyillariga asoslanish;
2. Muvozanatlangan holda tuzish qoidasiga rivoja qilish;
3. Moddiy, mehnat va pul birliklarida baholanish;
4. Budgetni tuzishda javobgar qilib tayinlangan xodimning mas’uliyat bilan yondashishi talab qilinadi.

Shuningdek, budgetlarni tuzish ularni tayyorlashda qatnashuvchi barcha bo‘linmalar kelishivi asosida amalga oshirilishi, keyin esa tasdiqlash uchun korxona rahbariyatiga taqdim etilishi lozim. Korxona rahbariyati ma’qullagach budget haqiqiy hisoblanadi. Tasdiqlangan budgetga asoslanib, xarajat va daromadlarning oylik rejalarini tuziladi. Mazkur rejalar korxonada xarajatlarni boshqarish va iqtisodiy ko‘rsatkich

(sotishlar hajmi, sof foyda, aktivlar rentabelligi, foyda me’yori va h.k.)larning zaruriy darajasiga erishishga xizmat qiladi.

### 3.3. Moslashuvchan va statik budjet, ularni tuzish asoslari

Budgetlar oldiga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq, moslashuvchan va statik turlarga ajratiladi.

**Statik budjet** korxonaning ishchan faolligini muayyan darajasida hisob-kitob qilinadi. Unda daromadlar va xarajatlar sotishlar darajasidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi.

Statik budjet korxona moliyaviy natijalarining haqiqiyligini ifodalaydi hamda pul va foiz nisbatlaridagi ko‘rsatkichlarning mutlaq raqamlarini taqqoslashga imkon beradi.

Statik budjet ko‘rsatkichlarini moslashuvchan budjet ko‘rsatkichlari bilan taqqoslashda sotishning haqiqiy hajmi e’tiborga olinmaydi ya’ni natijalarining qiyosiy tahlili keltiriladi.

### 3.2-jadval.

Xo‘jalik subyektining statik budjeti, ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqiy	Chetlanishlar <sup>18</sup> (`s`, `i`)
1.	Sotish hajmi, dona	150	200	50 (i)
2.	Sotishdan olingen tushum	45000	60000	15000 (i)
3.	Ishlab chiqarish xarajatlari	35000	41000	6000 (s)
4.	Marjinal daromad	10000	19000	9000 (i)
5.	Davr xarajatlari: <i>shu jumladan:</i> - sotish xarajatlari; - ma’muriy xarajatlar	6000 2000 4000	8000 3000 5000	2000 (s) 1000 (s) 1000 (s)
6.	Operatsion foyda (4q-5q)	4000	11000	7000 (i)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonasi statik budjetda nazarda tutilgan ko‘pgina ko‘rsatkichlarga erishmagan.

Statik budjetda ko‘rsatkichlarni rejalashtirish amalga oshirilsa, moslashuvchan budjetni tuzishda natijalarining omilli tahlil usulidan foydalilanildi.

**Moslashuvchan budjetda** ishlab chiqarishning rejalashtirilgan hajmi tuzatish yo‘li bilan hisob-kitob qilinadi. Unda sotish hajmini hisoblashning bir qancha muqobil variantlaridan foydalilanildi.

<sup>18</sup> Izoh: «(i)» - belgisi resurslar iqtisod qilinganligi sababli ijobji chetlanishni, «(s)» - belgisi salbiy chetlanishni ifodalaydi.

Moslashuvchan budjetda ishlab chiqarish xarajatlari uchun avval mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan me'yorlar belgilanadi, keyin ushbu me'yorlar asosida haqiqiy sotish hajmiga mos keladigan ishlab chiqarishni rejalashtiriladigan hajmi aniqlanadi (3.3-jadval).

### **Xo'jalik subyektining moslashuvchan budjeti, ming so'mda**

T/r	Ko'rsatkichlar	Haqiqiy bajarilgani	Haqiqiy bajarilganga moslashtirilgan budjet	Haqiqiy byudjetning moslashtirilgandan chetlanishi («», «»)*
1.	Sotish hajmi, dona	3000	3000	
2.	Sotishdan olingan tushum	300000	445000	145000 (s)
3.	Ishlab chiqarish xarajatlari	210000	350000	140000 (i)
4.	Marjinal daromad	90000	95000	5000 (s)
5.	Davr xarajatlari: shu jumladan: - sotish xarajatlari; - ma'muriy xarajatlar	55000 33000 22000	58000 33500 24500	3000 (i) 500 (i) 2500 (i)
6.	Operatsion foyda	35000	37000	2000 (s)

Korxonada javobgarlik markazlari bo'yicha moslashuvchan budjetlar tuzish xarajatlari va daromadlarni samarali boshqarishga, chetlanishlar bo'yicha tezkor choralar qabul qilishga, ijobjiy va salbiy chetlanishlarni rejalashtirilgan foyda summasiga mos ravishda tuzatib borishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, korxona faoliyatini strategik rejalashtirishda budjetlashtirish aylanma va moliyaviy resurslar, investitsiya faoliyati uchun moliyalashtirish mablag'larini jalb etish, xarajatlari va daromadlar, pul mablag'lari harakati to'g'risida zarur ma'lumotlar olish imkonini beradi.

### **3.4. Budjetlashtirishda ishlab chiqarish dasturi**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish dasturini tuzish korxona faoliyatini budjetlashtirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Budjetlashtirishda ishlab chiqarish dasturi** mahsulot ishlab

chiqarish va sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talabi asosida sifat va muddatni tavsiflovchi kompleks rejani o'zida namoyon etadi.

Buyurtmachilarning talab va taklif qonuni talablari asosida tovarlarga bo'lgan ehtiyoji, tuzilgan shartnomalar va buyurtmalarning mavjud portfeli, shuningdek, mahsulot (ish, xizmat)larning taklifi korxona ishlab chiqarish dasturining asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish dasturini tuzishda turli usullar: darajali taxminlash, vaziyatli rejalar tuzish, chiziqli dasturlash, mahsulot (ish va xizmat)lar turlarini diversifikatsiyalash (kengaytirish) qo'llaniladi.

*Darajali taxminlash* sotishlar va foydaniing kutilgan hajmini uchta maksimal, ehtimol, minimal nuqtalari bo'yicha avvaldan rejalashtirishni nazarda tutadi.

*Vaziyatli rejalashtirish* korxona ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish jarayoni bilan bir qatorda beqaror bozor sharoitlarida uni amalga oshirishda ham bir qancha qulayliklar tug'diradi.

Ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish, odatda, uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) butun korxona uchun yillik ishlab chiqarish rejasini tuzish;
- 2) rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun ustuvor maqsadlarni aniqlash;

3) yillik ishlab chiqarish rejasini korxonaning alohida bo'linmalar yoki ishtirokchilar bo'yicha taqsimlash.

Amaliyotda ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishning "quyidan yuqoriga" yoki nomarkazlashtirilgan holda, "yuqoridan quyiga" yoki markazlashtirilgan holda va takroran rejalashtirish ko'rinishlari qo'llaniladi.

*Quyidan yuqoriga* rejalashtirish shuni anglatadiki, bunda ishlab chiqarish rejasni boshqarishning quyi darajasida ya'ni korxona bo'linmalarida va funktsional xizmatlar bo'yicha tuziladi.

*Yuqoridan quyiga* rejalashtirilganda rejalar butun korxona bo'yicha ishlab chiqiladi va bo'linmalar uchun tezkor rejalashtirish asos bo'lib xizmat qiladi.

*Takroran rejalashtirish* korxona rahbariyati bilan barcha bo'linmalar va funktsional xizmatlar o'rtasidagi uzviy o'zaro hamkorlikni nazarda tutadi.

Korxona yoki uning bo'linmasining yillik ishlab chiqarish hajmi mahsulot birligini mos taxminiy bozor baholariga ko'paytirish orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M_0 = \sum_n^n M_n B_n + \sum_p^p M_p B_p + \sum_y^y M_y B_y$$

bu yerda:

$M_0$  - korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturi, so'm;  
 $M_n, M_r, M_u$  - mahsulot (ish va xizmat)lar yillik hajmi, dona;  
 $B_n, B_r, B_u$  - mahsulot (ish va xizmat)lar birliklarining taxminiy bozor baholari, so'm/dona;

$n, p, y$  - mahsulot (ish va xizmat)larning nomenklaturasi.

Korxona ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish mahsulot sotish rejasini tuzishdan boshlanadi. Unda har bir mahsulot, shuningdek korxona faoliyatining kelgusi davrida amalga oshiriladigan ishlar va xizmatlar ko'rsatiladi. Bir maromda mahsulot etkazib berilganda rejalashtirilgan muddatda sotishlar hajmini topish uchun quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$Ms = Tu \cdot Sr$$

bu yerda,

$Ms$  - mahsulot sotishning rejalashtirilgan hajmi;  
 $Tu$  - tovarlarni o'rtacha bir kunda sotish miqdori;  
 $Sr$  - sotishning rejalashtiriladigan davri (kun, oy, kvartal, yil).  
Sotishlarning rejalashtiriladigan hajmini bozor segmentlari bo'yicha quyidagi shaklda shartli misollar yordamida ifodalash mumkin (3.4-jadval).

Bu kabi holatlarni chuqur tahlil qilish kelgusida sotish rejasini tuzishda yuqori samara beradi.

#### 3.4-jadval.

#### Xo'jalik subyektining bozor segmentlari bo'yicha rejalashtirilayotgan savdosi hajmi

Iste'molchilar bo'yicha bozor segmentlari	O'lerov birligi	20xx			20xx		y
		I ch.	II ch.	III ch.	IV ch.	1 ya/y.	
<b>A mahsulot:</b>	tonna						
- X iste'molchi	tonna	200	300	350	250	500	100
- U iste'molchi	tonna	150	200	250	200	350	450
- va h.k.	-	-	-	-	-	-	-
Jami:		500	850	1100	750	1550	1900
<b>V mahsulot:</b>	tonna						
- Z iste'molchi	tonna	1400	1150	2150	2150	4050	5500
- va h.k.	-	-	-	-	-	-	-
Jami	tonna	4300	3450	6500	5050	12500	15050
<b>Hammasi</b>	tonna	4800	4300	7600	5800	14050	16950
							34200

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, X va U iste'molchilar talabi 2001 yilning to'rtinchi choragigacha o'sib borgan, keyin esa kamaygan.

Mavsumiy tebranishlarga xos beqaror ishlab chiqarishda sotishlar rejası, odatda, har oyga tuziladi. Korxona mahsulot sotishining yillik rejasiga tovar va xizmatlarning quyidagi turlari kiritiladi: ichki bozorda mahsulot sotish hajmi, o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar hajmi, tovarlarning eksportga jo'natish hajmi, tayyor mahsulot zaxiralari, ishlab chiqarishga mo'ljallangan ishlar va xizmatlar miqdori va h.k.

Korxonalarini mahsulot turlari bo'yicha bozordagi mavqeini baholashda 3.5-jadvaldan foydalilaniladi.

#### 3.5-jadval.

#### ovar bozorida ishlab chiqarish korxonasi ishtirokining tafsifi

Mahsulot turi	Ishlab chiqarish hajmi, (ming so'm)	Bozorga chiqarilgan mahsulot (ming so'm)	Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bozorga chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmi, (ming so'm)	Ishlab chiqarish korxonasingin bozorga etkazib bergan mahsuloti ulushi, %da
Tvorog	2900	2635	23960	11,0
Smetana	3100	3898	25991	15,0

Jadval ma'lumotlari bir vaqtning o'zida bozor sig'imi va unda ishlab chiqarish korxonasi mahsulotlari hissasini aks ettiradi. Unga asosanib kelgusida sotishlar hajmi moddiy va qiymat ko'rinishida rejalashtiriladi.

**Sotishlar rejası** asosiy strategik va tezkor hujjat hisoblanadi. Sotishlar va mahsulot ishlab chiqarish rejalarini o'zarbo'li hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish rejasini marketing tadqiqotlari natijalarini korxona ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan taqqoslash asosida ishlab chiqiladi.

Sotishlar hajmi kabi ishlab chiqarish hajmi ham o'tgan hisobot yilining oxirida nomenklatura nuqtai-nazaridan davrlar bo'yicha budjetlashtiriladi: birinchi yili - kvartallar bo'yicha (zarurat tug'ilganda - oylar bo'yicha); ikkinchi yili - yarim yilliklar bo'yicha; keyingi yillarda esa yillik istiqbolli rejalar tuziladi.

Korxonani ishlab chiqarish zaxiralariga bo'lgan talabini quyidagi shartli misollarda ifodalash mumkin (3.6-jadval):

### 3.6-jadval.

#### Tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan talabning hisob-kitobi

Tovar moddiy zaxiralarning turlari	20xx yilgi ishlab chiqarish dasturi bo'yicha moddiy zaxiralarga talab		20xx yilgi ishlab chiqarish dasturi bo'yicha moddiy zaxiralarga talab		Mol etkazib beruvchilar
	miqdori	qiymati (mln. so'm)	miqdori	qiymati mln. so'm)	
Materiallar - hammasi shu jumladan:	12300	485	15400	450	Cavdo aktsionerlik jamiyatlar, fermer xo'jaliklari
A - turi	4200	262	4890	264	
B - turi	3650	148	4760	190	
va h.k.					
Sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar - hammasi shu jumladan:	10550	625	11430	870	AJ «Bravo-sut» «Nestle» qo'shma korxonasi
V - turi	3310	245	4315	305	
S - turi	2040	172	3150	435	
va h.k.					
<b>Jami</b>					

Mavjud va talab etiladigan zaxiralarni solishtirma tahlili menejerlarni hisobot davri davomida ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta'minlanish imkoniyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Shunday qilib, mazkur jadval ma'lumotlari asosida korxonaning tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan talabini aniqlash mumkin. Bu esa, kelgusida ishlab chiqarish rejasini tuzishda muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Mehnat, umumishlab chiqarish, ma'muriy va sotish xarajatlaridagi talab ham xuddi shu tarzda aniqlanadi. Keyin o'tkazilgan hisob-kitoblar asosida investitsiyalar asosiy vositalarni sotib olish va aylanma kapital o'sishiga bo'lgan umumiy talab aniqlanadi.

Korxona ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish, odatdagidek, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini rejalashtirish bilan yakunlanadi.

#### 3.5. Rejalashtirish va uning xususiyatlari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xarajatlarni rejalashtirish xarajatlar tarkibi va mahsulot (ish va xizmat)larning reja tannarxini dastlabki baholashdan boshlanadi.

**Rejalashtirish** ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan

tovar-moddiy zaxiralarning qiymati va kutilayotgan foyda hajmini aniqlashda yuqori samara beradi.

Xarajatlarni dastlabki baholash esa bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. U quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

1. Ishlab chiqarish hajmini aniq belgilash;
2. Mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi;
3. Materiallarni almashtirish variantlari;
4. Materiallar va chet korxonalar xizmatlarining qulayligini baholash.

Ishlab chiqarish xarajatlari budgetini ishlab chiqish jarayonida asosan smeta va normativ usuldan foydalilanadi.

**Smeta usulida** korxonaning barcha bo'linmalari rejali asosida korxona miqyosida xarajatlarning yig'ma rejasni shakllantiriladi.

Respublikamizda smeta usuli ancha keng tarqalgan usul hisoblanadi. Uning qo'llanilishi kompleks rejalashtirishni yagona tizimga keltirishni ta'minlaydi.

**Normativ usul** asosida ishlab chiqarish xarajatlari budgeti tuziladi.

Yillik ishlab chiqarish hajmini inobatga olib, alohida mahsulotlar tannarxini xarajatlarning iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha smetasini tuzish uchun shaxmatli jadval ishlab chiqiladi (6-ilova).

Xarajatlarni shaxmatli jadvali tuzilgandan so'ng korxonaning faoliyat davri uchun rejalashtiriladigan xarajatlarning yig'ma smetasini ishlab chiqiladi.

Xalqaro amaliyotda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni rejalashtirishda normativ usuldan keng foydalilanadi. Normativ xarajatlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Nx = Nmx + Nms + Nux$$

bu yerda:

*Nx* - mahsulot birligini ishlab chiqarishning normativ xarajatlari;

*Nmx* - normativ moddiy xarajatlar;

*Nms* - normativ mehnat xarajatlari;

*Nux* - normativ ustama xarajatlar.

Normativ ustama xarajatlar normativ bevosita mehnat xarajatlari bo'yicha foizlarda ifodalanadi. Normativ mehnat xarajatlaridan ishchi kuchi xarajatlarini rejalashtirish maqsadida foydalilanadi, ularning hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ikk = Nmm \cdot Ss$$

bu yerda:

*I<sub>kx</sub>* - ishchi kuchining rejalashtiriladigan xarajatlari;

*N<sub>mm</sub>* - normalashtirilgan mahsulot miqdori;

*S<sub>s</sub>* - mehnatga haq to'lash soatbay stavkalari (mukofotlarsiz).

Normativ xarajatlardan chetlanishni baholash va quyidagi uning kelib chiqish sabablarini aniqlash zarur:

1. Bevosita va bilvosita xarajatlarni o'zgarishi, sotib olingan materiallar qiyamatidagi chetlanishlar natijasida;

2. Mahsulot sifatini ta'minlashga sarflangan xarajatlar natijasida;

3. Normalar va normativlarni o'zgarishlari natijasida;

4. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, talab, baho ta'siri yoki boshqa omillar natijasida.

Xarajatlarni dastlabki baholash tannarxi yuqori va foyda keltirmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni to'xtatish imkonini beradi.

Xarajatlarni baholashning so'nggi bosqichida rejalashtirish jarayoni standart mahsulot tayyorlash uchun barcha zaruriy xarajatlarni hisobga olishni nazarda tutadi, chunki yangi mahsulot ishlab chiqarish katta miqdordagi moddiy, mehnat va qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan taxminiy moddiy xarajatlarni mahsulotlar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar moddiy xarajatlarni normatividan va bozor baholaridan kelib chiqqan holda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_{tx} = T_{mbb} \cdot M_{xs}$$

bu yerda:

*M<sub>tx</sub>* - taxminiy moddiy xarajatlari;

*T<sub>mbb</sub>* - tovar-moddiy zaxiralarning bozor bahosi;

*M<sub>xs</sub>* - moddiy xarajatlarning bir birligini normativi.

Xodimlarning asosiy mehnat haqiga ketadigan taxminiy xarajatlarni asosiy va qo'shimcha mehnat haqi, umumishlab chiqarish, ma'muriy-boshqarish, sotish xarajatlarni rejalashtirilgan ulushini qo'shib aniqlanadi.

Agar bu ulush birdan kichik bo'lsa hisob-kitoblar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$I_{xt} = \frac{I_0 : (1 + K_{tij}) - I_m}{1 + K_{qo'sh} + K_{ust}}$$

bu yerda,

*I<sub>xt</sub>* - xodimlarning asosiy mehnat haqiga sarflanadigan taxminiy xarajatlari;

*K<sub>tij</sub>, K<sub>ust</sub>, K<sub>qo'sh</sub>* - tijorat, ustama xarajatlari va qo'shimcha mehnat haqi xarajatlarni mahsulot tannarxiga qo'shish stavkalari.

Agar mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan taxminiy xarajatlar hajmi kutilgan foydadan oshib ketsa, bu holat mahsulotni iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh emasligini anglatadi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish choralarini ko'rish talab qilinadi.

Mahsulotni alohida turlari tannarxini rejalashtirish xomashyo va materiallar, texnologik maqsadlar uchun foydalaniладigan yonilg'i va energiya, mehnat haqi xarajatlari normativlariga rioya etishni nazarda tutadi. Shuningdek, rejalashtirish bilvosita umumishlab chiqarish, davr xarajatlari va sotish xarajatlari normativlari uchun ham zarur.

Mahsulot birligi to'liq tannarxi rejasini bevosita va bilvosita xarajatlarni quyidagi formula bo'yicha umumlashtiradi.

$$T_n = \left[ M + I_0 \left( 1 + \frac{K_1 + K_2}{100} \right) + I_0 \frac{d}{100} + (I_0 + I_k) \frac{e}{100} \right]$$

bu yerda,

*T<sub>n</sub>* - mahsulotning reja tannarxi, so'm;

*M* - bevosita material xarajatlari, so'm;

*I<sub>0</sub>* - bevosita mehnat haqi, so'm;

*I<sub>k</sub>* - qo'shimcha mehnat haqi, so'm;

*K<sub>1</sub>* - umumishlab chiqarish xarajatlari, %;

*K<sub>2</sub>* - davr xarajatlari, %;

*d* - xodimlarning qo'shimcha mehnat haqi va mukofotlar foizi;

*e* - ijtimoiy ta'minotga chegirmalar foizi.

Mahsulot tannarxi rejasini ishlab chiqishda texnik, tashkiliy va boshqa omillar hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish manbalari aniqlanadi.

Bunday holatda mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasi bo'yicha o'rtacha tannarx (*T<sub>u</sub>*), mahsulot tannarxining haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farqni mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali topiladi:

$$T_y = \sum_i^n (T_1 - T_2) \cdot M$$

bu yerda:

*T<sub>1</sub>* - mahsulot birligining bazaviy tannarxi;

*T<sub>2</sub>* - mahsulot birligining rejalashtiriladigan tannarxi;

*M* - mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi.

Rejalashtirish jarayonida, odatda, jami va bir birlik mahsulot xarajatlarni aniqlash zarurati tug'iladi. Shu maqsadda barcha xarajatlarni

*o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'lish qabul qilingan.*

Jami tannarxga mahsulot hajmini ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlar kiradi, *bir birlik mahsulot tannarxiga esa mahsulot (ish va xizmat)lar birligini ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar kiritiladi*. Bir birlik mahsulot tannarxi – xarajatlarning o'rtacha kattaligi bo'lib, u jami xarajatlarni mahsulotni ishlab chiqarish yillik rejasini tashkil etuvchi umumiy birliklar miqdoriga bo'lish bilan belgilanadi. Jami va bir birlik mahsulotning tannarxi bilan ularni tashkil etuvchi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi analitik bog'liqlik quyidagi formulalar bilan ifoda etiladi:

Jami tannarx:

$$T_j = U_x + D_x \cdot M$$

Bir birlik mahsulotning tannarxi:

$$T_b = \frac{U_x + D_x}{M}$$

bu yerda:

$U_x$  - o'zgaruvchan xarajatlar;

$D_x$  - doimiy xarajatlar;

$M$  - mahsulotlar miqdori.

### 3.7-jadval.

**Rejalshtirilayotgan xarajatlar dinamikasini joriy yil uchun omilli tahlil usuli yordamida aniqlash tartibi, ming so'm**

Oylar	Mahsulot ishlab chiqarish dona	Jami tannarx			Xarajatlar dinamikasi	Bir birlikning tannarxi		
		Doimiy	O'zgaruvchan	Jami ( $T_j$ )		Doimiy	O'zgaruvchan	Jami ( $T_{bir}$ )
1	15	420	8	428	0,0	28,00	0,53	28,53
2	25	420	14	434	15,21	16,80	0,56	17,36
3	35	420	18	438	15,14	12,00	0,51	12,51
4	45	420	20	440	15,07	9,33	0,44	9,77
5	55	420	26	446	15,20	7,64	0,47	8,11
6	65	420	36	456	15,34	6,46	0,55	7,01
7	75	420	45	465	15,30	5,60	0,60	6,20
8	85	420	84	504	16,26	4,94	0,99	5,93
9	95	420	136	556	16,55	4,42	1,43	5,85
10	105	420	206	626	16,89	4,00	1,96	5,96
11	115	420	282	702	16,82	3,65	2,45	6,10
12	125	420	375	795	16,99	3,36	3,00	6,36


Keltirilgan formulalardan ko'rilib turibdiki, jami tannarx – mahsulotni yillik hajmini ishlab chiqarishga sarflangan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi, bir birlik mahsulotning tannarxi – jami ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulotlar miqdoriga bo'lish orqali aniqlangan tannarxdir.

Rejalshtirilayotgan xarajatlar dinamikasini omilli tahlil usuli yordamida aniqlash 3.7-jadvalda ko'rsatilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, yil davomida mahsulot hajmi 10 birlikka oshib borgan. Jami doimiy xarajatlar 420000 so'm darajasida saqlanib qolgan.

Jami o'zgaruvchan xarajatlar oylar bo'yicha o'sib borgan. Omilli tahlilning zanjirli bog'lanish usulini qo'llab, xarajatlar dinamikasi bazaviy oya nisbatan hisoblab topiladi. Misol, fevral oyida jami xarajatlar 434000 so'm bo'lsa, uni yanvar oyidagi 428000 so'm jami xarajatlarga bo'lib, topilgan summani yanvar oyining rejalshtirilgan mahsulot (15 dona) miqdoriga ko'paytiriladi va natijada bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan chegaraviy xarajatlar topiladi. ((434000:428000)•15q15,21).

Hisob-kitoblarining ko'rsatishicha, korxonada bir birlik mahsulot tannarxini oylar bo'yicha pasayishi kuzatilgan. Buning sababi mahsulot hajmining ortish intervali bilan xarajatlarning o'sish dinamikasi bir tekisda bo'limganligidir.



**3.3-chizma. Rejalshtirilgan jami va bir birlik mahsulot tannarxining ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi**

Korxona 9 oyda 95 dona mahsulot ishlab chiqarganda 556000

so‘mlik jami xarajatlar hajmida eng katta daromad oladi. Demak, bu holatda korxona 95 birlik miqdorida mahsulot ishlab chiqarishi maqsadga muvofiqdir.

Rejalshtirilgan jami va bir birlik mahsulotning tannarxini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligini 3.3-chizma yordamida tahlil qilish mumkin.

Jami xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar summasiga teng, bir- birlik mahsulotning tannarxi o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga alohida hisob-kitob qilingan. O‘zgaruvchan xarajatlar bevosita moddiy va mehnat xarajatlari summasiga teng. Doimiy xarajatlar ma’muriy-boshqarish va mahsulotni sotish, shuningdek, binolar ijarasi, umumkorxona ahamiyatidagi binolarning eskirishi, xodimlarning mehnat haqini o‘z ichiga oladi. Bir- birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan chegaraviy xarajatlarni hisoblash uchun joriy davrdagi jami xarajatlar summasini bazis davrdagi jami xarajatlar summasiga bo‘lib, uni shu davrdagi mahsulot hajmiga ko‘paytiriladi.

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, jami mahsulot tannarxi oylar davomida bir tekisda o‘sib borish tendentsiyasiga ega bo‘lgan, natijada jami mahsulot tannarxi to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida bo‘lgan. Bir birlik mahsulotning tannarxi esa yoysimon ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Demak, mahsulot hajmi ortib borishi bilan jami tannarx ortib boradi. Shu bilan birga, bir birlik mahsulot tannarxi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ortishi bilan qisqarib boradi.

### Test topshiriqlari

#### 1. Budjetlashtirish – ...

- a) korxonaning ma’lum davrga mo‘ljallangan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejalshtirish hisoblanadi;
- b) korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o‘rta muddatli rejalshtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan bozor talablarini o‘rganishga imkon beradi;
- v) korxonaning asosiy maqsadini ta‘minlashda xizmat qiladigan jarayonlarni rejalshtiradi, alohida bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- g) korxona bo‘linmalarini rahbarlarini o‘z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga va xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rivoja qilishlarini ta‘minlashga xizmat qiladi;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

#### 2. Budjetlashtirish bosqichlari qaysi qatorda to‘g‘ri ifodalangan?

- a) budjetni ishlab chiqish, budjetni tasdiqlash, budjetni boshqarish, budjetni nazorat qilish;
- b) budjetni tahlil qilish, budjetni boshqarish, budjetni nazorat qilish;
- v) budjetni baholash, budjetni tasdiqlash, budjetni boshqarish;
- g) budjetni muhokama qilish, budjetni tasdiqlash;
- d) budjetni tasniflash, budjetni tahlil qilish, budjetni tasdiqlash.

#### 3. Bosh budjetning tarkibini aniqlang.

- a) statik budjet, operatsion budjet, investitsiya budjeti;
- b) operatsion budjet, investitsiya budjeti, moliyaviy budjet;
- v) ishlab chiqarish budjeti, moliyaviy budjet, moslashuvchan budjet;
- g) sotish budjeti, ishlab chiqarish budjeti, tayyor mahsulot zaxiralari budjeti, xaridlar budjeti;
- d) statik budjet, tayyor mahsulot zaxiralari budjeti.

#### 4. Davr xarajatlari budjeti tarkibi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) sotish xarajatlari budjeti, ma’muriy xarajatlar budjeti;
- b) ishlab chiqarish budjeti, sotish xarajatlari budjeti, ma’muriy xarajatlar budjeti;
- v) moslashuvchan budjet, ishlab chiqarish budjeti, sotish xarajatlari budjeti;
- g) statik budjet, sotish xarajatlari budjeti, ma’muriy xarajatlar budjeti;
- d) investitsiya budjeti, statik budjet, sotish xarajatlari budjeti.

#### 5. Budjetlarni tuzishga qanday talablar qo‘yiladi?

- a) ehtiyyotkorlik, anqlik;
- b) muvozanatlangan holda tuzish;
- v) moddiy, mehnat va pul birliklarida baholanish;
- g) javobgar xodimning mas’uliyat bilan yondashishi;
- d) barcha javob to‘g‘ri.

## **6. Budjetlar oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq qanday turlarga ajratiladi?**

- a) investitsiya budjeti, moliyaviy budjet;
- b) davr xarajatlari budjeti, investitsiya budjeti, moliyaviy budjet;
- v) statik budjet, moslashuvchan budjet;
- g) operatsion budjet, statik budjet, moslashuvchan budjet;
- d) tayyor mahsulotlar budjeti, investitsiya budjeti, moliyaviy budjet.

## **7. Operatsion budjet...**

a) xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e'tiborga olib, vertikal hamda gorizontal tartibda tuziladigan budjet shakli;

b) tovar-moddiy zaxiralari, asosiy vositalarni sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxiralari va davr xarajatlari to'g'risidagi axborotlar hamda moliyaviy mablag'larning taxminiy manbalarini ifodalovchi budjet turi;

v) sotish hajmi va tannarxi, daromad va xarajatlarning nisbati, sof foyda, o'z mablag'lardan samarali foydalanish, investitsiya qo'yilmalarining qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi budjet shakli;

g) korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi farqni ifodalovchi ko'rsatkich;

e) bo'linma rahbari mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushadigan tushumga javob beradigan markaz turi.

## **8. Moliyaviy budjet ta'rifini ifodalovchi qatorni aniqlang.**

a) bo'linma rahbari xarajatlar va foya uchun javob beradigan markaz turi;

b) xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e'tiborga olib, vertikal hamda gorizontal tartibda tuziladigan budjet shakli;

v) tovar-moddiy zaxiralari, asosiy vositalarni sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxiralari va davr xarajatlari to'g'risidagi axborotlar hamda moliyaviy mablag'larning taxminiy manbalarini ifodalovchi budjet turi;

g) korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi farqni ifodalovchi ko'rsatkich;

d) sotish hajmi va tannarxi, daromad va xarajatlarning nisbati, sof foyda, o'z mablag'lardan samarali foydalanish, investitsiya qo'yilmalarining qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi budjet shakli.

## **9. Investitsiya budjeti...**

a) sotish hajmi va tannarxi, daromad va xarajatlarning nisbati, sof foyda, o'z mablag'lardan samarali foydalanish, investitsiya qo'yilmalarining qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi budjet shakli;

b) korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi farqni ifodalovchi ko'rsatkich;

v) tovar-moddiy zaxiralari, asosiy vositalarni sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxiralari va davr xarajatlari to'g'risidagi axborotlar hamda moliyaviy mablag'larning taxminiy manbalarini ifodalovchi budjet turi;

g) korxonaning budjet davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari rejsasi;

d) xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e'tiborga olib, vertikal hamda gorizontal tartibda tuziladigan budjet shakli.

## **10. Ishlab chiqarish dasturini tuzishda qanday usullardan foydalaniladi?**

a) taqqoslash, guruhlash, chiziqli dasturlash;

b) darajali taxminlash, vaziyatli rejalar tuzish, chiziqli dasturlash, mahsulot (ish va xizmat)lar turlarini diversifikatsiyalash;

v) darajali taxminlash, vaziyatli rejalar tuzish, chiziqli dasturlash, zanjirli bog'lanish;

g) vaziyatli rejalar tuzish, chiziqli dasturlash, mahsulot (ish va xizmat)lar turlarini diversifikatsiyalash, induktsiya;

d) induktsiya, deduktsiya, darajali taxminlash.

## **Nazorat savollari**

1. Korxona faoliyatini budgetlashtirishning qanday ijobiy jihatlari mavjud?

2. Budgetlashtirish jarayonida biznes-reja qanday o'rinn tutadi?

3. Biznes-rejalar qanday tasniflanadi?

4. Biznes rejalashtirish qanday tamoyillar assosida amalga oshiriladi?

5. Korxona bosh budgetining vazifalari nimalardan iborat?

6. Korxonaning bosh budgeti qanday tarkibga ega?

7. Moliyaviy va investitsiya budjetlar qaysi ko'rsatkichlarni qamrab oladi?

8. Moslashuvchan va statik budgetlarning qanday farqli jihatlari mavjud?

9. Budgetlashtirish tizimida ishlab chiqarish dasturi qanday o'rincutadi?

10. Korxona ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish qay tartibda amalga oshiriladi?

11. Ishlab chiqarish dasturini tuzishda qanday usullardan foydalilaniladi?

12. Korxonada xarajatlarni rejalashtirish qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

13. Quyidan yuqoriga rejalashtirishning mohiyatini nimada?

14. Budgetlashtirish jarayonida takroran rejalashti-rish qanday tutadi?

15. Jami va bir birlik mahsulot tannarxini rejalashtirishning zarurati nimada?

#### **4-bob. TA'MINOT FAOLIYATINING BOSHQARUV HISOBI**

##### **4.1. Umumiy boshqaruv tizimida ta'minot jarayoni va moddiy zaxiralarni baholash**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik mablag'lari doiraviy harakatlanishi turli bosqichlarda bo'lib, har xil xo'jalik jarayonlarida: ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarida ishtirok etadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy bosqich bo'lib, aynan shu bosqichda moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi. Lekin ishlab chiqarish jarayonidan oldin yaxshi yo'lga qo'yilgan ta'minot jarayoni bo'lmasa, u muvaffaqiyatli amalga oshmaydi.

Boshqaruv hisobi tizimida ta'minot jarayonida xo'jalik yurituvchi subyekt mol etkazib beruvchilaridan asosiy vositalar, xomashyo, materiallar, yoqilg'ilar va mahsulot ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan boshqa buyumlarni sotib oladi. Bunday tovar-moddiy qiymatliklar hisobda haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Sotib olinadigan tovar-moddiy boyliklarning haqiqiy tannarxi ikkita asosiy miqdor: ularning xarid narxi va transport-tayyorlov xarajatlaridan iborat. Xarid narxi – xaridor va mol etkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq mol etkazib beruvchilar tomonidan to'ldiriladigan tovar hamda hisob-kitob hujjatlarida (schyot-faktura; to'lov talabnomasi va boshqalar) ko'rsatilgan qiymatdir. Erkin iqtisodiyot sharoitida tovar-moddiy zaxiralar talab va taklif darajasidan kelib chiqqan holda bozor narxlarida xarid qilinadi.

Materiallar xo'jalik subyekting buxgalteriya balansiga tannarxi bo'yicha kiritiladi, u xarid qiymati (etkazib beruvchiga to'lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Materiallarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

a) bojxona bojlari va yig'imlari;

b) materiallarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'imlar summalarini (agar ular qoplanmasa);

v) tovar-moddiy zaxiralar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;

g) materiallarni sertifikatlash va ularni materiallarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;

d) materiallarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga etkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, materiallarni barcha turdag'i transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlari, shu jumladan materiallarni tashishda xatarlarni sug'ortalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;

e) materiallarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

Xarid qilingan materiallarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlari (akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, materiallarni chet el valyutasiga xarid qilish chog'ida valyutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari), materialni xarid qilish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlari hamda aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmanan boshqa xarajatlari materiallarning tannarxiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida xarajatlari sifatida tan olinadi.

Muddatidan oldin to'lash natijasida yoki katta hajmda xarid qilish natijasida yoxud taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra olingen pul chegirmalari xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiyamatini kamaytirmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar qarz kapitali hisobiga xarid qilinganda yoki tayyorlanganda kredit (qarz)dan foydalanganlik uchun foizlar ko'rinishidagi xarajatlari uning hisobidan butkul yoki qisman sotib olingen materiallarning tannarxiga kiritilmaydi.

Materiallarni xarid qilish bo'yicha xarajatlari ularning yuzaga kelishini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Agar shartnoma shartlarida xarid qilinadigan materiallar uchun to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, mazkur materiallar buxgalteriya hisobiga to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiyomat bo'yicha qabul qilinadi. Bunda materiallarning to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymati bilan sotib olinayotgan materiallar bo'yicha umumiyligi to'lov summasi o'rta sidagi farq to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davri mobaynida joriy to'lovning kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha to'lov larning umumiyligi

summasidagi solishtirma og'irligiga bog'liq holda moliyaviy xarajatlari (foizlar bo'yicha xarajatlari) sifatida tan olinadi.

Materiallarga qo'shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlari bilan bog'liq xarajatlari tashkilotning mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmanan navlarga ajratish, o'rab-joylash va ularni tovar ko'rinishiga keltirish bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Yaroqli holga keltirish bo'yicha ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari, ularning ham tashkilot – xaridorning o'z kuchi bilan, ham chet tashkilotlar tomonidan bajarilishidan qat'i nazar materiallarning tannarxiga kiritiladi.

Ta'minot jarayoni subyektlarning ta'minot rejasiga asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: subyekt tomonidan sotib olinadigan materiallarning miqdori, muddati, turlari va hokazo. Shu munosabat bilan ta'minot jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari ta'minotning haqiqiy hajmini va sotib olinadigan materiallarning haqiqiy tannarxini aniqlashdan iborat. Buxgalteriya hisobining analitik va sintetik schyotlari tizimida sotib olinadigan materiallarning miqdori va turlari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllanib, ular ta'minot jarayonini miqdor va qiymat jihatidan nazorat qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimidan subyektlarning barcha turdag'i materiallarini sotib olish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham olish mumkin.

Materiallarni hisobga olish uchun 1000-»Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar» (1010-»Xomashyo va materiallar», 1020-»Sotib olingen yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar», 1030-»Yoqilg'ilar», 1040-»Ehtiyot qismlari», 1050-»Qurilish materiallari», 1060-»Idish va idish materiallari» va boshqa schyotlar) mo'ljalangan.

Materiallarni sotib olish uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq xaridor mol etkazib beruvchiga ko'rsatilgan summaning kamida 15 foizini oldin to'lov yo'li bilan o'tkazib berishi lozim. Buning uchun xaridor bankka to'lov topshirin nomasi (shartnoma va mol etkazib beruvchi taqdim qilgan schyot-fakturani ilova qilgan holda) taqdim etadi. So'ngra mol etkazib beruvchining yukni kuzatuvchi hujjatlariga muvofiq xaridor korxonada kirim hujjatlari rasmiylashtirilib, omborga kirim qilinadi va xarid narxiga yuqorida qayd qilingan schyotlardan tegishlisi debetlanadi. Tovar-moddiy qiyamatliklarga tegishli transport-tayyorlov xarajatlari ham ushbu schyotlarga olib boriladi. Shunday qilib, tovar-moddiy qiyamatliklarni hisobga oladigan schyotlarning debet oboroti ta'minotning haqiqiy hajmini, ya'ni hisobot davri ichida haqiqatan

olingen tovar-moddiy qiyamatliklarning umumiy summasini, ularning haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettridi. Ushbu schyotlarning kreditida esa, materiallarning haqiqiy tannarx bo'yicha sarflanishi ko'rsatiladi. Ularning qoldiqlari faqat debet tomonida bo'lib, tovar-moddiy qiyamatliklarning haqiqiy tannarxi bo'yicha omborda mavjudligini bildiradi.

#### 4.1-jadval.

##### «ABS» MCHJda moddiy-texnika ta'minot rejasining bajarilishi

T/r	Moddiy resurslar nomi	Material-larga talab (ming so'm).	Talabni qoplash manbai		Tuzilga n shartno-ma, (ming so'm)	Shartno-ma bo'yicha talab-ning qoplani shi (%)	Materi-allar olinishi, (ming so'm)	Shart-noma bajarili-shi (%)
			Ichki	Tashqi				
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Yog'och -taxta	520.000	400	3500	2950	84,0	2950	100
2.	Tsement	450.000	240	8200	7900	96,0	7900	100
3.	Oxak	10.200	300	4300	3000	70,0	3000	100
4.	Lok-bo'yoyq	20.000	600	6700	5500	82	6700	100
5.	G'isht	500	10000	20000	19000	86	22000	100

Ta'minot jarayonini boshqarish uchun tayyorlangan materiallarning umumiy hajmi ko'rsatkichidan tashqari keltirilgan materiallarning har bir turi to'g'risidagi ma'lumotlar ham zarur. Bunday ma'lumotlar analitik schyotlar yordamida olinadi.

Analitik hisobda, qoidaga ko'ra, tegishli material turining shartnoma bahosi bo'yicha qiymati ko'rsatiladi. Materiallarning harakatini aks ettiradigan dastlabki hujjatlarda faqat materiallarning shartnoma bahosi bo'yicha qiymati ko'rsatiladi. Transport-tayyorlov xarajatlari esa barcha materiallarga taalluqli jami summasi bilan yoziladi. Ushbu xarajatlarning har bir material turiga to'g'ri keladigan ulushi oy oxirida bir marta hisob-kitob yo'li bilan aniqlanib, alohida material turlarining haqiqiy tannarxini aniqlash uchun, ularning shartnoma baholari bo'yicha qiyatiga qo'shiladi.

Transport-tayyorlov xarajatlari (TTX) subyekt xarajatlari joriy oyda sarflangan materiallar, har xil sabablarga ko'ra chiqib ketgan

o'stirishdagi va boquvdagi chorva mollari qiyatiga mutanosib ravishda subyekt xarajatlariqa taqsimlanadi. Buning uchun sarflangan moddiy resurslarning har bir guruhi bo'yicha quyidagi formuladan foydalanim, dastavval TTX koeffitsienti (K<sub>TTX</sub>) aniqlanadi:

$$K_{TTX} = \frac{S_{TTX_{O/B}} + TTX_{O/D}}{S_{M_{sh,O/B}} + M_{sh,O/D}}, \quad (1)$$

STTX<sub>O/b</sub> – transport-tayyorlov xarajatlarning joriy oy boshiga qoldig'i;

TTX<sub>O/d</sub> – joriy oy davomida olingen materiallar bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari summasi;

S<sub>M<sub>sh, O/b</sub></sub> – materiallarning xarid bahosi bo'yicha joriy oy boshiga qoldig'i;

M<sub>sh, O/d</sub> – joriy oy davomida olingen materiallarning xarid bahosi bo'yicha qiymati.

So'ngra joriy oyda sarflangan materiallarga taqsimlanadigan tayyorlov transport xarajatlari summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\sum TTX = M_{s,j/o} x K_{TTX}, \quad (2)$$

M<sub>s,j/o</sub> – joriy oyda hisob bahosi bo'yicha sarflangan materiallar qiymati.

Bunda sarflangan materiallarning haqiqiy tannarxini (HT<sub>s.m.</sub>) quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$HT = M_{j,o/b} + \Sigma TTX, \quad (3)$$

Xo'jalik yurituvchi subyektning mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblari 4300- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar" (4310, 4320, 4330) va «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»da (6010, 6020) aks ettiriladi. 4300- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar" aktiv bo'lib, ularning debetida tovar-moddiy qiyatliklar, uzoq muddatli aktivlarning etkazib berilishi va ishlarning bajarilishi uchun o'tkazilgan bo'naklar aks ettiriladi.

6000- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" (6010, 6020) passiv bo'lib, ularning kreditida korxonaning turli mol etkazib beruvchi va pudratchilardan olingen tovar-moddiy qiyatliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa aktivlar uchun joriy qarzlari aks ettiriladi.

#### 4.2-jadval.

#### Boshqaruv hisobida ta'minot jarayoni hisobiga oid buxgalteriya hisobi schyotlarining o'zaro bog'lanishi

T/r	Muomala mazmuni	Summa	Schyotlar korrespondensiyasi	
			D-t	K-t
1.	Mol etkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq 15% bo'nak o'tkazildi	9180	4310	5110
2.	Mol etkazib beruvchilardan quyidagi materiallar korxonaga keltirilgan.	61200	1510	6010
3.	Materialarni temir yo'l stantsiyasidan korxona omboriga tashib keltirganligi uchun transport tashkilotiga hisoblandi	3000	1510	6010
4.	Sotib olingan materiallar shartnoma bahosi bo'yicha omborga kirim qilindi	60 000	1010	1510
5.	Mol etkazib beruvchilardan olingan materiallar bo'yicha transport tayyorlov xarajatlariiga to'g'ri keladigan farq – summa aniqlandi	4200	1610	1510
6.	Shartnomaga muvofiq 15%lik oldin to'lov hisobga qabul qilindi	9 180	6010	4310
7.	Hisob-kitob schyotidan qarzning qolgan qismini qoplash uchun o'tkazildi	55020	6010	5110

Ta'minot jarayoniga oid xo'jalik muomalalarini yangi schyotlar rejasiga bo'yicha hisobda aks ettirishning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz (4.2-jadval).

Bu schyotlarning debetida to'langan to'lov hujjatlarining summalarini, ya'ni mol etkazib beruvchilarga to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarning kamayishi ko'rsatiladi. 6010-»Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» (6010, 6020) schyotining kredit qoldig'i mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarning joriy qismini bildiradi.

Ushbu misolni rasm ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (4.1-chizma).


Ta'minot jarayoni hisobining ko'rsatkichlari xo'jalik subyektlarida ta'minot rejasining bajarilishini nazorat qilish imkonini yaratadi. Buning uchun haqiqiy sotib olingan materiallar reja bilan taqqoslanadi.

Haqiqiy transport-tayyorlov xarajatlarining belgilangan me'yorlariga mosligini ham shunday tarzda aniqlash mumkin.

Ushbu misolda materiallar shartnoma bahosi bo'yicha baholanib, transport-tayyorlov xarajatlari esa alohida aks ettirildi. Bunday tartib

tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olishning usullaridan biri hisoblanadi.

Xo'jalik subyektining ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlar ishlab chiqarilib, ularni tayyorlash ma'lum xarajatlarni talab etadi. Bunday xarajatlar sirasiga sarflangan materiallar, yoqilg'i va boshqa moddiy zaxiralalar qiymati, ishchilarining ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, asosiy vositalar eskirishi, nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va boshqalar kiradi. Nomlari yuqorida qayd qilingan xarajatlardan tashqari korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham amalga oshiriladi. Ular boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ish haqlari, binolarni isitish hamda yoritish xarajatlari va boshqalardan iborat. Qilingan xarajatlarning pul ifodasidagi jami summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini tashkil etadi.



#### 4.1-chizma. Boshqaruv hisobida ta'minot jarayonining schyotlarda ifodalananishi

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash buxgalteriya hisobining muhim bo'linmalaridan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish rezervlarini topish, materiallar, pul mablag'lari va mehnat resurslari ustidan mutazam nazorat o'rnatishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Zarur bo'lgan moddiy boyliklar, ya'ni asbob-uskuna, xomashyo va materiallar, yoqilg'i, ehtiyyot qismlar va boshqa moddiy boyliklarni

tuzilgan shartnomaga asosan mol yekazib beruvchilardan olinadi. Shartnomada muayyan moddiy boylikning nomi, miqdori, sifati, bahosi, to'lov shartlari, assortimenti va qaysi oyda olib kelinishi ko'rsatilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, xo'jalik subyekti o'ziga kerakli asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni sotib olishi, imorat va inshootlarni qurdirishi yoki o'z kuchi bilan qurishi ham mumkin.

Buxgalteriya hisobiga oid ba'zi manbalarda ta'minot jarayonini hisobga olish tavsiflanganda asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni sotib olish, shuningdek, ularning pudratchilar tomonidan yoki subyektning o'z kuchi bilan qurilishi masalalari nazarga olinmaydi. Ammo, asosiy vositalarni sotib olish, qurish va montaj qilish ishlari ham materiallarni tayyorlash kabi ta'minot jarayoniga kiradi. Shuning uchun ham ta'minot jarayonini hisobga olish ta'riflanganda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ta'minotini qo'shib izohlash maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruvin hisobi tizimida ta'minot jarayonini hisobga oluvchi schyotlar subyektning asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xomashyo va materiallar, yoqilg'i, qurilish materiallari va o'rnataladigan asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlar bilan qay darajada ta'minlanganligi, sotib olingan, qurilgan, ishlab chiqarilgan mehnat qurollari va buyumlarining haqiqiy tannarxi haqida tegishli ma'lumotlar beradi va ular ustidan to'la nazorat o'rnatadi.

Demak, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xomashyo va materiallar, yoqilg'i, ehtiyyot qismlar va boshqa mehnat buyumlarining haqiqiy tannarxi mol etkazib beruvchilarining schyot-fakturasida ko'rsatilgan qiymati, ta'minot tashkilotlariga to'langan ustamalar, transportga yuklash va tushirish chiqimlari, tashib keltirish uchun transport tashkilotlariga to'lovlari, mehnat buyumlarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xizmat safari chiqimlari, ularni tashib keltirish yo'lidagi tabiiy kamayish va boshqa chiqimlardan tashkil topadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallarni, xususan tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, materiallarni baholash, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda ayrim xususiyatlarga ega. Jumladan, yil davomida ishlab chiqarishdan olingan materiallar, jumladan urug'lik, ozuqa, to'shamalar va boshqa ishlab chiqarish zaxiralari reja tannarxi bo'yicha kirimga olinadi va hisobdan chiqariladi.

Xo'jalik subyektlarining yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlari – haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha; chetdan sotib

olanganlari esa haqiqiy tannarxi bo'yicha (xarid bahosiga tashib keltirish, yuklash va tushirish xarajatlarini qo'shgan holda) kirimga olinadi va hisobdan chiqariladi.

Ichki xo'jalik bo'linmalarining ishlarini baholash hamda nazorat qilish zaruratiga ko'ra rejalashtirish va hisobda ishlab chiqarishga ishlatiladigan tovar-moddiy zaxiralarga yagona ichki xo'jalik reja-hisob baholari o'matiladi. Materiallarga reja-hisob baholari ularning sotib olish baholariga ta'minot, transport-tayyorlov va boshqa ustamalar xarajatlarining tegishli qismi qo'shib o'rnataladi. Materiallarning o'tgan yili etishtirilgani haqiqiy tannarxi bo'yicha, joriy yildagisi esa reja tannarxi bo'yicha baholanib hisobga olinadi. Materiallarning ayrim turlarining yagona reja-hisob baholari ularning sifatiga qarab tabaqlanishi lozim.

Bugungi kunda materiallarni baholash va hisobdan chiqarishning amaliyotda qo'llanilayotgan tartibi me'yoriy talablarga javob bermaydi. Amaliyotda qo'llanilayotgan variantlar ularni bajarish texnikasi nuqtai nazaridan soddalashtirilgan, ammo talab qilinayotgan, zaxiralarni haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobdan chiqarish tamoyillariga rioya qilinmayapti. Mulkklarning oborot (ishlab chiqarish sarflariga qo'shilgan) qismi past baholanib, korxonaning moliyaviy ahvolini yomonlashtiradi va ularga nafaqat ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga, balki uni avvalgi darajada saqlab turishga ham imkon bermaydi.

Materiallar hisobini haqiqiy tannarx bo'yicha yuritishning yuzaga kelgan amaliyotidan kelib chiqqan holda mazkur uslubni hisob bahosi bo'yicha ikki variantda foydalanishg mumkin.

1. 1000-»Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar» (1010-1090) va 1610-»Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotlaridan foydalanib,

2. Ushbu schyotlar bilan birga 1510-»Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotini qo'llagan holda. Birinchi variantda qiymatliklarni tayyorlashga doir xarajatlar (xarid qiymatidan tashqari) to'g'risidagi axborotlar birdaniga 1610-»Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotida aks ettiriladi.

Moddiy-texnika ta'minoti jarayonini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralarni hisoblash qulay bo'lishi uchun ikkinchi variantda 1510-»Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotini tugatib, 1500-»Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar» tarkibida quyidagi uchta schyotdan foydalanish mumkin bo'ladi:

- 1510-“Tashib keltirish xarajatlari” schyoti,
- 1520-“Tayyorlash xarajatlari” schyoti

- 1530 – “Saqlash omborxonalar xarajatlari” schyoti .

Chetdan keltirilgan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning (konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha chetdan keltirilgan tovarlar bundan mustasno) xarid qiymati (keyingi o‘rnarda – xarid - qiymati) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S = Shq + T + Bx, \quad (4)$$

Bu yerda: S – chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarning xarid qiymati;


Shq - Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy bank kursi bo‘yicha hisoblangan chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarning shartnoma qiymati;

T – bojxona to‘lovlar.

Bx – chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarni sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Qo‘silgan qiymat solig‘i (QQS)ni to‘lovchi subyekt chetdan keltirilgan tovarlarga hisoblangan QQS summasini xarid qiymatiga qo‘shtaydi, balki umumiy belgilangan tartibda budjetga to‘lashi lozim bo‘lgan QQSni aniqlashda chegirib boradi. QQSni to‘lovchi bo‘lmagan korxonalar chetdan keltirilgan tovarlarga hisoblangan QQS summasini xarid qiymatiga qo‘sadi. O‘zining ehtiyojlari uchun chetdan keltirilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobda boshlang‘ich qiymati bo‘yicha QQS summasini qo‘shtan holda aks ettiriladi.

Ushbu xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagisi 54-soni qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami, 1999 y., 2сон, 9-modda) “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning 1.1.12-bandiga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda 44-son bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobining milliy standarti (№4-son BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralari”ga (1998 yil 28 avgust, ro‘yxat raqami 486-“Me’yoriy hujjalarni axborotnomasi” 1999 y., 5-son) va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 9 oktyabrdagi 114-soni buyrug‘i bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) «Asosiy vositalar»ga (2004 yil 20 yanvar, ro‘yxat raqami 1299 – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2004 y., 3-son, 35-modda) muvofiq shakllanadi.



#### 4.2-chizma. Boshqaru hisobida ta’minot jarayonini hisobga olish

Chetdan keltirilgan materiallar va boshqa aktivlarni (konsignatsiya shartnomasi bo'yicha chetdan keltirilgan tovarlar bundan mustasno) xarid qilish bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

a) materiallar va asosiy vositalar ob'ektlarini yuk bojxona deklaratsiyasini to'ldirish sanasidagi Markaziy bank kursi bo'yicha kirim (qabul) qilish;

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800), o'rnatiladigan asbob-uskunalarini hisobga oluvchi schyotlar (0700), materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900);

kredit 6010-»Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyoti - qarzlarning joriy qismi yoki 7010-»Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyoti - qarzlarning uzoq muddatli qismi;

b) bojxona to'lovleri (import uchun QQSdan tashqari) va chetdan keltirishda vujudga keladigan va belgilangan tartibda xarid qilish qiymatiga qo'shiladigan boshqa xarajatlar;

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800), o'rnatiladigan asbob-uskunalarini hisobga oluvchi schyotlar (0700), materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900);

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti;

kredit turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

v) QQSni to'lovchi korxonalar uchun chegirishga olib borilgan QQS summasiga:

debet 4410-»Budgetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri (turlari bo'yicha)» schyoti;

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti;

g) QQSni to'lamaydigan korxonalar uchun xarid qiymatiga qo'shilgan QQS summasiga:

debet materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000) yoki tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900);

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti;

d) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga qo'shiladigan QQS summasiga:

debet kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800), o'rnatiladigan asbob-uskunalarini hisobga oluvchi schyotlar (0700);

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti.

Konsignatsiya shartnomasiga asosan chetdan keltirilgan materiallar bo'yicha operatsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) konsignatsiya shartnomasi bo'yicha chetdan keltirilgan materiallar konsignatorning buxgalteriya hisobida balansdan tashqari 004-»Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» schyotining debeti bo'yicha aks ettiriladi;

b) chetdan keltirilgan konsignatsiya materiallar bo'yicha bojxona to'lovleri, QQS qo'shilgan holda hisoblanganda:

debet 3290-»Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti;

v) chetdan keltirilgan konsignatsiya materiallar bo'yicha QQS va bojxona to'lovleri bo'yicha qarzlar to'langanda (qoplanganda):

debet 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti;

kredit pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar;

g) konsignatsiya materiallar sotilganda:

debet 4010-»Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti – shartnoma bahosi bo'yicha sotilgan tovarlar summasiga hisoblangan QQS (QQSni to'lovchilar uchun) qo'shilgan holda;

kredit 9030-»Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyoti – komissiya mukofotlari (rag'batlantirish) summasiga;

kredit turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) – tovarlar invoysi va Bojxona Yuk Deklaratsiyasi bo'yicha sotish sanasidagi Markaziy bank kursi bo'yicha konsignatsiya tovari qiymtiga;

kredit 6410-»Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti – komissiya mukofotidan kelib chiqib, aniqlanadigan QQS summasiga (QQSni to'lovchilar uchun).

Bir vaqtning o'zida, sotilgan konsignatsiya materiallar qiymatini hisobdan chiqarish balansdan tashqari 004-»Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» schyotining krediti bo'yicha aks ettiriladi.

d) sotilgan konsignatsiya materiallarining ulushiga to‘g‘ri keladigan chetdan keltirilgan konsignatsiya materiallari bo‘yicha QQS qo‘shilgan holda bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni ushbu tovarlarni sotish paytida moliyaviy natijalarga olib borib hisobdan chiqarish:

debet davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400);

kredit 3290-»Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha olingan materiallar konsignantga qaytarilgan hollarda, 3290-“Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyotida aks ettirilgan bojxona to‘lovlari va QQS bo‘yicha konsignator xarajatlarning qaytarilgan tovarlar ulushiga to‘g‘ri keladigan qismi konsignatorning moliyaviy natijalariga olib borib hisobdan chiqariladi;

e) xaridorlar va buyurtmachilardan pul mablag‘lari kelib tushganda: debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4010-»Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

j) budjetga QQS bo‘yicha (QQSni to‘lovchilar uchun) qarzlar to‘langanda (qoplanganda):

debet 6410-“Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha”;

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar;

z) konsignatorga qarzlar to‘langanda (qoplanganda):

debet turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900);

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar.

Iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mahsulotni baholash masalasida turli nuqtai nazarlar mavjud: mahsulotni xarid narxlarida baholab, xarid narxlari va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farqni moliya natijalariga o‘tkazish o‘rtacha realizatsiya narxlariga ko‘ra, rejali tannarxga ko‘ra, haqiqiy tannarxga ko‘ra, biroq xarid narxlaridan yuqori emas (farqni moliya natijalariga o‘tkazish yo‘li bilan) va h.k. Har bir nuqtai nazarni batafsil ta’riflab o‘tirmasdan, ta’kidlash joizki, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga eng muvofiq keladigani ishlab chiqarilayotgan mahsulotni haqiqiy tannarxi bo‘yicha baholashdir.

Shunday qilib, materiallarni baholash ularni tashkil etish va boshqarishning muhim dastlabki sharti hisoblanadi.

Materiallarni baholash keng muhokama qilinayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Mavjud manbalarni sharhlash hamda ushbu baholash bo‘yicha barcha talablarga javob beradigan va kamchiliklardan xoli bo‘lgan qandaydir universal uslubning mavjud

emasligi isbotlanmoqda. Shu bilan birga, baholash masalalarining mohiyati va mazmuni bo‘yicha ko‘rib chiqilgan yo‘nalishlar oborotda bo‘lgan materiallarni baholash usullarini tanlash materiallarni va butun subyektni boshqarish samaradorligini oshirishga imkon beradigan har xil omillarni kompleks hisobga olishga bog‘liq.

Shuningdek, xarid qilinadigan materiallarni baholashni takomillashtirish masalasi ham muhokama qilinmoqda. Bu qiyamatliklar bo‘yicha eng maqbuli ularni xarid qilishning haqiqiy tannarxi bo‘yicha baholashdir. Biroq, joriy hisobda qat‘iy hisob narxlaridan foydalanish ehtiyoji tug‘iladi. Qat‘iy narx sifatida odatda, shartnoma (ulgurji) narxlar tavsiya etiladi. Biroq ayrim iqtisodchilar haqli tarzda qayd qilishicha, bu narxni qo‘llash hisob ishlarini murakkablashtirishga olib keladi, chunki materiallarning hisob nomenklaturasi keskin ko‘payib ketadi<sup>19</sup>. Bundan tashqari, olib kelish, yuklash-tushirish xarajatlari va sotish-ta’mnot tashkilotlarining qo‘sishma narxlari alohida hisobga olinadi, ular umuman olganda ulgurji narxining 20-25 foizigacha etadi. Shunga ko‘ra nomenklaturaning har bir pozitsiyasi bo‘yicha ko‘p sonli ulgurji narxlar materiallarning tegishli hisob guruhlari bo‘yicha o‘rtacha, yiriklashgan rejali narxlardan foydalanish, bu narxlardan chetga chiqishlarni alohida hisoblash taklif etiladi. Chetga chiqish summalarini belgilangan muddatlarda material sarfi yo‘nalishlari bo‘yicha hisobdan chiqariladi, bu esa chetga chiqishlarni har oyda hisobdan chiqarish eng qulay hisoblanadi.

#### **4.2. Materiallarni qabul qilish va saqlashda xarajatlar tasnifi va uning hisobi**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi mavjud materiallar quyidagi holatlarda tan olinadi:

- subyektga kelgusida aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy foya kelib tushishiga ishonch bo‘lsa;

- aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa;

- ularga bo‘lgan mulk huquqi o‘tsa.

Materiallarga bo‘lgan mulk huquqi, ular bilan bog‘liq xatarlar va mukofotlarning o‘tish payti uning shartlari kelishiladigan etkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi.

<sup>19</sup> Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariysi. – T.: Yangi asr avlod, 2004. – 279 b.  
Ibrohimov A. Jahon hisob standartlarini o‘zlashtirish. // Bozor, pul va kredit. 1999. 9-son. 51-53-b.  
Itkin Yu.M. Hisob tizimini shakllantirish zarurati. // Bozor, pul va kredit. 1999. 1. 51-54-b.

Materiallar subyektlarning balansiga (omboriga) quyidagi yo'llar bilan kelib tushishi mumkin:


- a) etkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;
- b) muassislardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;
- v) muassislar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanayotganda ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan tashkilotning ta'sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;
- g) tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);
- d) ayrboshlash;
- e) uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;
- j) ortiqcha (hisobga olinmagan) materiallarni aniqlash;
- z) ilgari berilgan material qarzining qaytarilishi yoki material qarzini olish;
- i) subyektning o'zida tayyorlanishi;
- k) hisobot davri oxirida tugallanmagan va tugallanmagan ishlab chiqarish tarzida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;
- l) materiallarga bo'lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Materiallar quyidagi ikki qiymat: hisobot davri oxiridagi tannarxidan (xarid qiymati yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki sotishning sof qiymatidan eng kam qiymat bo'yicha baholanadi.

Ma'lumki, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektda ichki nazorat tizimi mavjud. Ammo u ayrim subyektlarda samarali tashkil etilgan bo'lsa, ayrimlarda yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bevosita amaliyotni o'rganish shuni tasdiqladiki, asosan mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlarda ichki nazorat tizimi subyekt rahbariyati tomonidan oqilona tashkil etilgan va muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim subyektlarda esa ushbu tizim rasmiyatchilik uchun tashkil etilib, o'z holicha faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi holat ichki nazorat tizimining tashkiliy-uslubiy va kadr ta'minotining takomillashmaganligi bilan bevosita bog'liq.

R.D. Do'smuratov ta'riflashicha "Ichki nazorat tizimi – buxgalteriya hisobi va hisobotining to'g'riligini ta'minlashga qaratilgan, hamda korxona resurslaridan maqsadga muvofiq oqilona foydalanishga imkon yaratadigan doimiy, kundalik ishlar majmuidir"<sup>20</sup>.

<sup>20</sup> Do'smuratov R.D. Audit asoslari. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2003. – 127 b.



#### 4.3-chizma. Materiallarning guruhlanishi

Avvalo ichki nazoratning xo'jalik subyekti rahbariyat tomonidan tashkil etilib, barcha aloqador xodimlar uchun lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqilishini ta'kidlashi lozim. Shuningdek, ichki nazorat amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarining qonuniyligini va korxona faoliyati uchun maqsadga muvofiqligini aniqlash lozim. Shunday ekan, har qanday ichki nazorat tizimi ilmiy asoslangan tashkiliy-uslubiy ta'minotga ega bo'lishi zarur. Xususan, materiallar ta'minoti va saqlanishi ustidan ichki nazoratni samarali tashkil etish ko'p jihatdan uning tashkiliy-uslubiy ta'minotiga bog'liq.

Materiallar ta'minoti ichki nazoratining maqsadi quyidagilardan iborat:

- zaxiralarni etkazish, ularning yaqinligi va sifatini e'tiborga olgan holda faqat zarur bo'lganlarini xarid qilish;
- subyektning jami kreditorlik qarzlari tarkibida ta'minot jarayoni uchun qarzlarni alohida aks ettirish;
- ta'minot jarayoni bo'yicha kreditorlik qarzlarni hisobga olish tizimini samarali tashkil etish.

Ustav faoliyatining asosiy qismi ta'minot jarayonini tashkil etuvchi agrofirmalarda tovar-moddiy zaxiralar ta'minoti va uni hisobda aks ettirish tizimini quyidagicha tasvirlash mumkin.

Ta'minot jarayoni ichki nazoratining muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- xarid qilinishi ruxsat etilmagan tovarlar bo'yicha kreditorlik qarzları vujudga kelishining oldini olish chora-tadbirlari ko'riliши lozim;
- kreditorlik qarzları tovarlar va xizmatlar qabul qilinmasdan oldin aks ettirilmasligi lozim;
- faqat ruxsat etilgan kreditorlik qarzlarigina tegishli tarzda tahlil qilinishi va aks ettirilishi lozim;

Quyidagi vazifalarni bajaruvchi mas'ul shaxslar o'rtasida xizmat majburiyatlarini taqsimlash: tovar-moddiy qiymatliklar uchun buyurtma berish, ularni xarid qilish va yakuniy hisob-kitob qilish; bunday majburiyatlar taqsimotining asosiy maqsadi xodimlarning til biriktirib suiste'mol qilishining oldini olish.


Ichki nazorat tiziminining samarali faoliyat ko'rsatishida nazorat amallarining ta'sirchanligi muhim ahamiyatga ega.

1. Xarid uchun buyurtma berish tanlangan mol etkazib beruvchi ma'qullaganidan so'ng amalga oshirilishi lozim. Buning uchun ta'minot bo'limida mol etkazib beruvchilarning tasdiqlangan ro'yxati bo'lishi lozim. Bunday ro'yxatni tuzish zarur axborotlarni izlash uchun sarflanadigan vaqt ni qisqartirib, buyurtma takrorlanganida ta'minot bo'limining xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Bunday ro'yxat tovarlar yoki amaldagi mol etkazib beruvchilar bilan vujudga keladigan muammolar to'g'risidagi yangi axborotlar bilan muntazam to'ldirilib borishi lozim.

2. Buyurtma berilishidan oldin tasdiqlanishi lozim. Birinchi pog'onadagi tasdiqlash buyurtma berilgan bo'limda amalga oshiriladi. Bunda buyurtma bo'lim boshlig'i yoki vakolat berilgan boshqa xodim tomonidan tasdiqlanadi. Ayrim hollarda birinchi pog'onadagi vakolat etarli bo'lganligi va buyurtmani tasdiqlash yuqoriyoq darajada amalga oshiriladigan vaziyatlar vujudga kelishi mumkin.

Buyurtmani tasdiqlagan xodim, yoxud tegishli belgini qo'yishi, yoxud buyurtma blankasida o'zining shaxsiy xos raqam (kod)ini qo'yishi lozim.

Shunday qilib, xo'jalik subyektlarida ta'minot jarayonini samarali tashkil etish uchun uning tashkiliy va uslubiy jihatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



4.4-chizma. Materiallar ta'minoti jarayonining ichki nazorati

Buyurtmalarni tasdiqlashda xodimlar vakolati cheklangan bo‘lishi mumkin. Belgilangan limitdan oshiqcha buyurtmalar yuqoriroq pog‘onada tasdiqlanishi talab qilinadi. Kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun ruxsat etish vakolati deyarli butunlay chegaralangan bo‘lib, bunda muhim loyihalar yuqori ma’muriyat – odatda boshqaruv darajasida tasdiqlanadi.

Ta’minot bo‘limining faoliyati buyurtmalar berishda yuqori samarali va tejamli bo‘lishi uchun imkon qadar markazlashtirilgan bo‘lishi lozim.

Materiallarni qabul qilish va saqlash xarajatlarini kamaytirish hamda yo‘qotishlarning oldini olish maqsadida ularni qabul qilish uchun maxsus joy ajratiladi. Materiallarni ko‘p bosqichli etkazib berish va bir qancha saqlash joylarining mavjudligi ularning yo‘qolish xavfini oshiradi, saqlash, qabul qilish va tashish xarajatlarini ko‘paytiradi hamda zarur hujjatlar va materiallarni olishda ichki tartibsizlik va uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Olingen materiallar faqat ular uchun tasdiqlangan buyurtma mavjud bo‘lganidagina qabul qilinishi lozim. Har bir tasdiqlangan buyurtmaning nusxasi buyurtma bergen korxona omboriga jo‘natilishi zarur. Olinadigan buyurtmalar etkazib berilish muddatlarining kechiktirilmasligi uchun doimiy nazorat qilinishi lozim. Ta’minot bo‘limi mol etkazib beruvchilar bilan bajarilmagan buyurtmalar yuzasidan tekshiruv o‘tkazib turishi zarur.

Materiallar kirim qilinishidan oldin miqdori va sifati bo‘yicha tekshiriladi. Bunda katta partiyada olingen materiallar tanlab tekshirilishi va ayrimlari maxsus laboratoriya tahlilidan o‘tkazilishi mumkin. Kirim orderida qabul qilish sanasi, tekshiruv natijalari va qabul qiluvchi shaxs ismi, familiyasi ko‘rsatiladi.

Materiallar (TMQ) mol etkazib beruvchilarga qaytarilishi aniq hujjatlashtirilishi lozim. Buyurtmaga muvofiq kelmaydigan yoki nuqsonli tovarlar alohida saqlanishi va hisobga olinishi shart. Materiallar kirimini rad etish materiallarni qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilib, rad etish sabablari izohlangan hujjatlar bilan birga mol etkazib beruvchiga jo‘natiladi. Barcha qabul qilingan va qaytarilgan tovar-moddiy qiyamatliklar to‘g‘risidagi yozuvlar bo‘yicha yuk xatlar va schyotlar olingenligi tekshiriladi va nazorat qilinadi. Bunda buxgalteriya yozuvlarida qabul qilinmagan yoki rad etilgan tovar-moddiy qiyamatliklar bo‘yicha kreditorning qarzlari aks ettirilmaganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mol etkazib beruvchilardan olingen schyot-fakturalar

faqat berilgan buyurtma va kirim orderiga mos bo‘lganida ro‘yxatga olinishi lozim. Tegishli schyot-fakturalar olinmagan kirim orderlari hali hisobda aks ettirilmagan kreditorlik qarzini ko‘rsatadi. Hali da’vo qo‘zg‘atilmagan rad etishlar kreditorlik qarzlarining ko‘payishiga olib keladi.

Materiallar to‘g‘risidagi yozuvlar muntazam tuzatib borilishi va materiallar kirimi hamda qaytarilishi doir barcha xo‘jalik muomalalarini hisobga olgan holda to‘ldirib borilishi lozim. Birinchidan, bu quyidagilarning to‘liq aks ettirilishini ta’minalashi uchun zarur: kirim orderlarining nusxalari va rad etilgan tovarlar ro‘yxati nazorat maqsadida alohida saqlanishi lozim. Kompyuterlashtirilgan tizimlar buxgalteriya yozuvlariga paketi bilan yoki alohida ishlov berishni amalga oshirishi mumkin. Amalga oshirilgan jami muomalalar ustidan nazorat ishlov berishning boshlanishida ham, oxirida ham bajariladi. Ikkinchidan, bu aniqlikni ta’minalash uchun zarur bo‘lib, inventarizatsiya orqali amalga oshiriladi.

Ishlov berilgan schyot-fakturalar va schyotlar ro‘yxatga olinib, qoidaga ko‘ra olingen schyot-fakturalar va schyotlarga darhol shtamp qo‘yildi va raqamlanadi, so‘ngra mol etkazib beruvchilar bilan bo‘ladigan muomalalarni hisobga olish jurnalida aks ettiriladi.

Barcha schyot-fakturalar materiallar kirimi to‘g‘risidagi yozuvlar yoki boshqa tegishli hujjatlarga asosan tekshirilishi va tasdiqlanishi lozim. Schyot-fakturalarni tasdiqlash funktsiyasi, buyurtmalar qabul qilish ro‘yxatga olish va to‘lash funktsiyasidan qat’i nazar bajarilib, qoidaga ko‘ra, schyot-fakturalarni tasdiqlash ta’minot bo‘limining boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Barcha boshqa tuzatishlar (QQS, chegirmalar, transport xarajatlari va h.k.) kuzatuvchi hujjatlarga asosan tekshirilishi va tasdiqlanishi lozim. Ta’minot bo‘limi buyurtmalarni saqlash va shartnoma shartlarini aniqlash bilan shug‘ullanib, schyot-fakturalardagi hisob-kitoblarning to‘g‘riligini dastlabki buyurtmalardagi summalar bilan taqqoslagan holda tekshiriladi.

Faqat ruxsat etilgan xo‘jalik muomalalari mol etkazib beruvchilar jurnalidan tegishli tarzda mol etkazib beruvchilar bo‘yicha ochilgan analitik schyotlar va Bosh daftar schyotlariga o‘tkaziladi. Buyurtmani amalga oshirgan bo‘lim buyurtma blankasida xarajatlar xos raqami (kodi)ni ko‘rsatishi lozim. Ta’minot bo‘limi xodimlari jurnalda mol etkazib beruvchining xos raqami (kodi)ni ko‘rsatadi. Ushbu xos raqam (kod) tuzishning to‘g‘riliği ikkita usul bilan tekshirilishi mumkin:

1) mol etkazib beruvchilarning hujjatlarini mustaqil tekshirish;

2) har bir xarajat xos raqamii (kodi) bo'yicha reja va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash.

Mol etkazib beruvchilar jurnalidagi yakuniy qoldiq muntazam ravishda sintetik schyotlar qoldig'i bilan taqqoslanishi kerak. Nazorat schyoti bilan solishtirish – materiallar kirimi, qaytarilishi, chegirmalar va pulini to'lashni hisobga oladigan buxgalteriya registrlari bo'yicha tarqatib yozishning to'liqligini nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Mol etkazib beruvchilarning hujjatlari ularning jurnalidagi qoldiqlari bilan muntazam taqqoslanishi lozim. Bunday mustaqil tekshiruv jurnalda xos raqam (kod) tuzish, tovarlar kelishi, ularni qabul qilish va pulini to'lash ustidan nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Har qanday nomuvofiqliklar zudlik bilan tahlil qilinishi va bartaraf etilishi zarur.

Ichki nazorat muhitida majburiyatlar quyidagicha taqsimlanishi maqsadga muvofiq: mol etkazib beruvchilar ro'yxatini tasdiqlash; buyurtmalarni tasdiqlash; buyurtmalarni jo'natish; tovarlarni sifati va miqdori bo'yicha olish va qabul qilish; tovarlarni qaytarish; to'lanadigan schyot-fakturalar va schyotlarni ro'yxatga olish; schyot-faktura va schyotlarni ilova hujjatlari bilan taqqoslash; schyotlarni tekshirish; schyot-fakturalarni tasdiqlash; materiallar uchun to'lovlarini schyot-fakturalarda buxgalteriya hisobi registrlariga tarqatib yozish; ma'lumotlar blankasidagi tuzatishlarni (mol etkazib beruvchilar to'g'risidagi axborotlarga qo'shimcha kiritish, chiqarib tashlash va tuzatish) mol etkazib beruvchilarning hujjatlari bilan taqqoslash; to'lov uchun hujjatlarni rasmiylashtirish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt zaxiralar hajmi va xarajatlarning har bir turi bo'yicha tarkibidagi kutilmagan noxush o'zgarishlarni nazorat va tahlil qilishi lozim. Ichki nazorat tizimida materiallarning saqlanishi ustidan ichki nazorat maqsadi quyidagilardan iborat: zaxiralarning o'g'irlanishi, suiiste'mol, buzilishi va unumsiz sarflanishining oldini olish; Ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'limlari bilan samarali munosabatni ta'minlash. Tovar-moddiy qiymatliklarni saqlashda ishtirok etuvchilar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettiradigan tizimni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Materiallar ichki nazoratini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar:

- materiallarning yo'qolish, o'g'irlanish va samarasiz ishlatilish ehtimolini pasaytiradigan chora-tadbirlar ko'rishi lozim;

- material tegishli tarzda rasmiylashtirilmasdan ishlatilmasligi va siljilmasligi kafolatlanishi lozim;

- materiallar tannarxining to'g'ri shakllanishini ta'minlash zarur;
- buxgalteriya hisobotida mavjud zaxiralar to'g'ri bahoda aks ettirilishi lozim;


- analitik hisob registrlarida aks ettirilgan qoldiqlar bilan inventarizatsiya natijalarining mosligiga erishish lozim.

Boshqaruvin hisobi tizimida materiallarni hisobini tashkil qilishda alohida e'tiborni ularning tarkibi, holati, harakati, miqdori, qabul qilinishi, qayta baholash tartibi va shu kabilarga qaratish zarur. Amaliyotni o'rganish shuni tasdiqladiki, materiallar hisobi eng sermehnat va murakkab hisob ob'ekti hisoblanadi. Shuning uchun materiallarning ichki nazoratini quyidagi elementlar bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofiq:

- materiallar uchun buyurtma berish;
- materiallarning olinishi va kirimi;
- hisobda aks ettirish;
- materiallarning saqlanishi;
- ishlab chiqarishga berilishi.


Materiallar saqlanishining ichki nazoratida inventarizatsiyaning to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Inventarizatsiya o'tkazish O'zbekistonda davlat ahamiyatiga ega bo'lib, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunga muvofiq «Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining to'g'riligi hamda aniqligi aktivlar va majburiyatlarni majburiy suratda inventarizatsiya qilish orqali tasdiqlanadi» (11-modda).

Agar buxgalteriya balansining barcha moddalarini to'liq inventarizatsiya qilinmagan bo'lsa va bunday inventarizatsiya natijalari buxgalteriya hisobotiga kiritilmagan bo'lsa, buxgalteriya hisoboti haqiqiy hisoblanmaydi. Qonundan kelib chiqadigan ushbu talablarни amalgaga oshirish maqsadida №19-«Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) ishlab chiqilgan. (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrda №EG./17-19-20-75 sonli buyruq bilan tasdiqlangan va Adliya Vazirligida 1999 yil 2 noyabrda 833-raqam bilan ro'yxatga olingan).



#### 4.5-chizma. Materiallarni saqlanishining ichki nazorat tizimi

Ushbu standartlarga muvofiq korxonaning mol-mulklari va moliyaviy majburiyatlarini inventarizatsiya qilish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi belgilangan. Shuningdek, 4-son - «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS talablariga muvofiq, “mulkchilik va faoliyat turidan qat’iy nazar, barcha korxonalar har yili yillik hisobotlar va balanslarni tuzishdan oldin asosiy vositalar, kapital qo‘yilmalari, tugallanmagan kapital qurilishlar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari, hisob-kitoblar va balansning boshqa moddalarini inventarizatsiyadan o‘tkazishlari shart” (22-band) deb belgilangan. O‘tkazilgan inventarizatsiya natijalari “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasing buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga (O‘zR Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining 2004 yil 10 martdagи 37, 2004-26, 20/1-soni qarori bilan tasdiqlangan) muvofiq rasmiylashtiriladi. Bulardan tashqari inventarizatsiya jarayonida yuzaga keladigan ayrim masalalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik va Jinoyat Kodekslari bilan ham bevosita yoki bilvosita tarzda tartibga solib turiladi. Yuqorida bayon qilinganlar asosida O‘zbekistonda inventarizatsiyani tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini rasmiylashtirishning me’yoriy-huquqiy tizimini quyidagicha tasvirlash mumkin (4.6-chizma).



#### 4.6-chizma. Materiallar inventarizatsiyaning me’yoriy -huquqiy asoslari


Inventarizatsiya o‘tkazishdan maqsad korxona balansida aks ettirilgan barcha materiallar, kassadagi va bank schyotlaridagi pul mablag‘lari, debtorlik va kreditorlik qarzları, kelgusi davrlar xarajatlari, fondlar, zaxiralar summalarini hamda balansdagi boshqa moddalarining haqiqiy baholanganligini aniqlashdan iborat.

Inventarizatsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni va 19-«Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» nomli BHMSda belgilangan.

Inventarizatsiya o‘tkazish jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

- inventarizatsiya ro‘yxatlari va taqqoslash vedomostlari tuzish yo‘li bilan mulklarning haqiqatda mavjudligini aniqlash;
- sifat talablariga mos kelmaydigan ayrim tovar-moddiy qiymatliklarni aniqlash;
- normativdan oshiqcha, ishlatilmaydigan, keraksiz va uzoq vaqt turib qolgan mulklarni aniqlash;
- moddiy javobgar shaxslarni tanlash va ular bilan to‘la moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnomalar tuzilishining asosligini tekshirish;
- ularning saqlanish sharoitini fizik xossalarga muvofiq nazorat qilish;
- omborxona xo‘jaligi va o‘lchash asboblarining holatini aniqlash;
- dastlabki hisobning sifatini baholash;
- dastlabki hisobni yuritish qoidalariga riona qilinishini tekshirish;
- “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasing buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risidagi

Nizom”ga asosan pul mablag’lari, mulklar, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining haqiqiy qiymatini tekshirish.



#### 4.7-chizma. Inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari

Amaliyotda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan mulklar va majburiyatlar haqiqiy qoldiqlarining o'rtasidagi farqlar quyidagi sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin: tabiiy sabablar; qabul qilish va berish vaqtidagi xato va noaniqliklar; buxgalteriya hisobidagi xatolar; suiste'molliklar.

Shunday qilib, inventarizatsiya – ichki nazorat tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib, korxona aktivlari (mablag'lari) va majburiyatlarining qoldiqlarini hisob ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali samarali nazorat va boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi.

Bugungi kunda ko'p pog'onali tashkiliy tuzulmaga ega xo'jalik subyektlarida materiallarni hisobga olishning shakllangan modeli, uni xo'jalikning tashkiliy tuzulmasiga bog'lashga, zaxiralarni boshqarishga doir oqilona asoslangan, ko'p sonli va xilma-xil qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan relevant (muhim) axborotlarni olishga qayta yo'naltirilishi lozim. Moddiy resurslarni boshqarishning asosiy maqsadi - bu boshqariladigan ob'ektlarni birinchi va ikkinchi darajali ob'ektlarga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Birinchi darajali boshqariladigan ob'ektlar ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlari, ikkinchi darajalisi esa ularning doiraviy aylanishidagi konkret bosqichlar bo'lishi lozim. Materiallarni boshqarishning maqsadlarini bunday tabaqalashtirish boshqaruv funktsiyalari va hisob turlari maqsadlarini har tomonlama tadqiq qilishga imkon beradi.

Boshqaruv hisobida hisob va ichki nazoratning umumiy funktsiyalarini zaxiralarni boshqarishga doir bo'limlar, xizmatlar va bo'lmalarining vazifalari va funktsiyalari bilan o'zarbo'lish (uyg'unlashtirish) bo'yicha berilgan takliflar boshqaruv ob'ektiga

nisbatan to'liq axborot modelini yaratish va uning asosida boshqaruv funktsiyalarini takomillashtirishga imkon yaratadi.

Boshqaruv hisobi xizmati uchun aniq funktsiyalar ro'yxatini o'rnatish materiallar hisobi va ichki nazoratining modelini boshqaruvning boshqa funktsiyalari bilan uyg'unlashtirish uchun asos bo'ladi. Shu munosabat bilan boshqaruv hisobining moddiy bo'limida hal etiladigan vazifalar va ularning o'zarbo'lishi aniqlanadi.

Inventarizatsiya o'tkazishning mohiyati, usuli va qamrovi bo'yicha quyidagicha guruhlanadi:

*Tekshirish hajmining qamrovi bo'yicha:*

yoppasiga-ob'ekt har tomonlama va to'liq tekshiriladi;

Tanlama-ob'ektning asosiy ko'rsatkichlari tanlab olib tekshiriladi;

*O'tkazish vaqtiga qarab:*

rejali-subyekt tomonidan tuzilgan rejaga asosan(yilda bir marta) o'tkaziladi;

kutilmagan holda – javobgar shaxs kutmagan holda – shikoyat tushganda va hokazo o'tkaziladi.

Inventarizatsiyan o'tkazish usulidan umumiy rahbarlik subyektning rahbari yoki uning o'rinosarlari tomonidan amalga oshiriladi. Buyruqqa asosan tuzilgan inventarizatsiya komissiyasiga ishonchli mutaxassislar jalb qilinadi va natijasini (dalolatnomani) rahbar tasdiqlaydi. Inventarizatsiya komissiyasi o'tkazish davrida buxgalterning hisob ma'lumotlariga asoslangan holda materiallar inventarizatsiya ro'yxatini omborlar bo'yicha(inv-3) tuzadi. Uni o'tkazish vaqtida ombor mudiri tomonidan materiallar qabul qilish va chiqarish ta'qilanganadi, u niventarizatsiya komissiyasiga hamma hujjalarda ma'lumotlar omborxona hisobidagi tegishli kartochkalarga o'tkazilganligi va buxgalteriyaga topshirilganligi to'g'risida tilxat beradi.

Inventarizatsiyaning natijalarini aniqlash uchun materiallar qoldiqlarini hisobga oluvchi daftardan foydalanish mumkin, chunki unda inventarizatsiyaning natijasi bo'yicha tuzilgan ro'yxatga asosan jismoniy ko'rinishdagi materiallar qoldig'ini qayd qiluvchi maxsus ustun mavjud.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan farqlar-ortiqcha yoki kamomad, taqqoslash qaydnomasini tuzish natijasida, haqiqiy tannarxda hujjalashtiriladi.

Sarflangan materiallarning haqiqiy soni tsexlarda ishlatilmay qolgan materiallarning hisobot oyib boshidagi qoldig'iga sarflash uchun olingan materiallarning sonini kushib, inventarizatsiya natijasida aniqlangan ishlatilmay qolgan materiallar sonini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

So'ngra sarflangan materiallarning haqiqiy soni me'yordagi son bilan solishtiriladi va o'rtadagi farq aniqlanadi. Materialning me'yordagi sarfi ishlab chiqarilgan mahsulot sonini bitta mahsulotni ishlab chiqarish uchun belgilangan materiallar me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

#### 4.3. Zaxiralar me'yorini nazorat qilish va rejalshtirish

Boshqaruv hisobi tizimida materiallarning sarflanishi ustidan nazorat olib borish – bir xil mahsulot ishlab chiqarishda sarflangan materiallarning haqiqiy sonini ularning me'yorida ko'rsatilgan soni bilan taqsimlashdir. Materiallarning sarflanishi ustidan turli usullar yordamida nazorat olib boriladi:

- hujjatlashtirish;
- inventar;
- partiya bo'yicha bichish va boshqalar.

Hujjatlashtirish yordamida materiallarning bir turini ikkinchi tur bilan almashtirilganda vujudga keladigan farq hisobga olinib, talabnoma bilan rasmiyashtiriladi.

Ushbu hujjatda materiallarning me'yor bo'yicha sarflash soni va almashtirilgan materiallarning sarflanishi xususida ma'lumotlar ko'rsatilib, ularni taqoslash natijasida farq aniqlanadi. Materiallar sarflanishini nazorat qilishdagi hujjatlashtirish usulining mohiyati shundan iboratki, bunda materiallarning sarflanish me'yoriga karaganda ortiqcha xarajat yoki iqtisod qilinishiga yo'l qo'yish materiallar ishlab chiqarishda sarflanishidan avval aniqlanadi.

Boshqaruv hisobida nazorat qilishning partiya bichish usulida sarflash natijasi materiallarning har bir partiyasi bo'yicha aniqlanadi. Buning uchun bichish varaqasi yuritiladi. Unda ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish uchun berilgan materiallarning haqiqatdan sarflanganligi ko'rsatiladi. Har bir bichish varag'i bo'yicha materiallar sarflash natijasi aniqlanadi.

Inventar usuli bo'yicha materiallar sarflash natijasi hisobot oyi oxirida chiqarilmay, balki qolgan materiallarni inventarizatsiya qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Material boyliklaridan to'g'ri foydalanish maqsadida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt zarur bo'lмаган materiallarning bor yoki yo'qligini tekshirib ko'rishi lozim. So'ngra bu hakda yuqori tashkilotlarga (vazirlik yoki boshqarmalarga) ma'lum qilinadi. O'z navbatida, yuqori tashkilot zarur bo'lмаган materialarni qaramog'idagi mavjud xo'jalik

subyektlari o'rtasida qayta taqsimlaydi. Yuqori tashkilotlar tomonidan qayta taqsimlanmagan materiallarni subyekt boshqa tashkilotlarga sotishi mumkin. Bunday operatsiyalarga quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi:

-Sotish:

D-t - 5110- «Hisob-kitob» schyoti.

K-t - 9010- «Mahsulotlarni sotishdan tushum» schyoti.

Inventar va xo'jalik jihozlari.

Inventar va xo'jalik jihozlari deb qiymatidan qat'i nazar xizmat muddati 1 yildan kam bo'lgan buyumlarga aytildi.

Maxsus asbob-uskunalar, moslamalar, maxsus kiyimlar qiymati va xizmat qilish muddatidan qat'iy nazar arzon baholi inventar va xo'jalik jihozlari kiradi. Inventar va xo'jalik jihozlarining sintetik hisobi shu nomdagi 1080-schyotda yuritiladi. Ombordan foydalanishga berilgan shunday buyumlarning boshlang'ich qiymatiga quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi:

D-t- 2010,2310,2510 – Ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari.

K-t- 1080– Inventar va xo'jalik jihozlari.

Materiallar tegishli dastlabki o'lchov birliklarida (massasi, hajmi, schyoti va boshqalar bo'yicha) qabul qilinadi. Agar materiallar bir o'lchov birligida (og'irlik bo'yicha) qabul qilinib, boshqasi bo'yicha (schyot, hajm bo'yicha) sarflansa, ularning kirimi, saqlanishi va sarflanishi dastlabki hujjatlar va analitik hisob registrlarida bir vaqtning o'zida ikki xil o'lchov birligida aks ettiriladi (agar shunga maxsus ko'rsatma bo'lmasa).

Mol etkazib beruvchilardan sotib olingen materiallar, qoidaga ko'ra haqiqatda qabul qilingan miqdori bo'yicha yuk xatlar (ichki xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan) bilan rasmiyashtiriladi. Materiallar avtotransportda tashib keltirilganida yuk jo'natuvchining tovar-transport yuk xatiga muvofiq qabul qilinadi. Materiallarning haqiqatda qabul qilingan miqdori bilan mol etkazib beruvchining hujjatida ko'rsatilgan miqdori o'rtasida tafovut bo'lмагана, ombor mudiri ularni qabul qilish uchun rekvizitlari yuk xatidagi rekvizitlar bilan bir xil bo'lgan to'rburchak muhr bosadi yoki imzosi bilan tasdiqlaydi.

Materiallarning xo'jalik ichida harakati ichki xo'jalik yuk xatlari bilan rasmiyashtiriladi. Materiallarni ombordan berish ichki xo'jalik yuk xatlari), limit-ta'minot kartalari va boshqa dastlabki hujjatlar bilan rasmiyashtiriladi.

Yuk xat moddiy boyliklar omborxonadan bir marta berilganda to‘lg‘aziladi. Agar omborxonadan moddiy boyliklar muntazam berilsa, limit-zabor kartalaridan foydalaniladi. Limit-zabor kartalari bir kalendar oy uchun ikki nusxada yoziladi. U jamlama hujjat hisoblanadi va materiallar hisobini «Ruxsat etiladi» degan bиринчи bo‘limida qanday mahsulot va materiallar qancha miqdorda berilishi mumkinligi va uning amal qilish muddati ko‘rsatiladi. Bu bo‘limni korxona rahbari va buxgalter imzolaydi. Ikkinci bo‘limida materiallarning berilishi qayd qilinadi, limit tugagandan so‘ng materiallarni berish to‘xtatiladi. Zarurat tug‘ilgan hollarda rahbar tomonidan qo‘sishmcha limitga ruxsat berilishi mumkin.

Limit-ta‘minot varag‘ining bir nusxasi oluvchida, ikkinchi nusxasi esa omborchida bo‘ladi. Materiallar berilayotganda omborchi har ikkala nusxaga sana va berilgan narsalar miqdorini yozadi. Bunda omborcidagi limit-zabor kartasiga oluvchi, oluvchidagiga esa omborchi imzo qo‘yadi. Texnikalarni joriy va kapital ta‘mirlash uchun sarflangan ehtiyoj qismlar mashinalarni tuzatish defect (nuqson)lar qaydnomasiga asosan hisobdan chiqariladi.

Maxsus hujatlarsiz hisobdan chiqariladigan xomashyo va materiallarning qolgan turlarini ishlab chiqarishga sarflash ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish to‘g‘risidagi dalolatnoma yoki hisobot bilan rasmiylashtiriladi. Bu hujatlarda ishning nomi, hajmi va sarflangan materiallarning nomlari va nomenklatura raqamlari ko‘rsatiladi.

Omborlarga qabul qilingan va ombordan berilgan tovar-moddiy zaxiralarni ombor mudirlari tomonidan materiallarni omborxonada hisobga olish kartochkalari yoki omborxona hisobi daftarida hisobga olinadi. Tovar-moddiy zaxiralarni omborlarda va boshqa saqlash joylarida faqat miqdor ko‘rsatkichida hisobga olinadi.

Omborxona hisobi kartochkalari materiallarning har bir navi, turi, o‘lchami va boshqa sifat belgilari bo‘yicha yuritiladi.

Materiallarning hisobini olib boradigan buxgalter vaqtiga vaqt bilan omborxonaga kelib omborxona mudirining ishtirokida uning yozuvlari va omborxona hisobi kartochkalarida chiqargan qoldiqlarini tekshirib, yozuvlar va chiqarilgan qoldiqlar to‘g‘riligini o‘z imzosi va sana qo‘yib tasdiqlaydi.

Agar omborxonalarda materiallar hisobi omborxona hisobi daftarida yuritsa, ombor mudiri buxgalteriyadan oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftarlarni oladi. Ularda moddiy boyliklarning har bir turi va

navi uchun ma’lum betlar ajratiladi. Yozuvlar dastlabki hujjatlarga asosan, materiallar hisobi kartochkalarida qanday tartibda yuritsa, omborxona hisobi daftarida ham shunday yuritiladi.

Ombor mudirlari tomonidan har oyda har bir kartochka yoki omborxona hisobi daftaridagi har bir schyot bo‘yicha kirim va chiqim oborotlari jamlanib, moddiy qiymatliklar harakati to‘g‘risida hisobot ikki nusxada tuziladi. Ushbu hisobotlarga faqat mazkur oyda harakat (kirim-chiqim) sodir bo‘lgan materiallar kiritiladi. Tuzilgan hisobotlar hujjatlar aylanishining reja-graficida belgilangan muddatlarda xo‘jalik buxgaleriyasiga topshiriladi. Buxgalter hisobotlar va isbotlovchi hujjatlarni tekshiradi hamda qabul qilganligi to‘g‘risida hisobotning ikkinchi nusxasini imzolaydi va omborchiga qaytib beradi.

So‘ngra buxgalter hisobotlarni taksirovka qiladi va materiallarning har bir turi bo‘yicha pul ifodasidagi jamini hisoblaydi (kirim va chiqim bo‘yicha). Materiallar harakati to‘g‘risidagi hisobotlar xo‘jalik tarkibiy bo‘linmalari (bo‘limlar, tsexlari, bosh pudratchilar, fermalar, ijara jamoalari) bo‘yicha shaxsiy hisob varaqlari (ishlab chiqarish hisobotlari)ni tuzishda foydalaniladi. Masalan, mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlar omborxonalarining mudirlari materiallar harakati to‘g‘risidagi hisobot o‘rniga, kamida 15 kunda bir marta dastlabki hujjatlar bilan birga xo‘jalik buxgaleriyasiga topshiriladigan, yoqilg‘i va moylash materiallarning harakati to‘g‘risida hisobotni ikki nusxada tuzadilar.

Materiallarni to‘g‘ri, ilmiy asoslangan turkumlanishi boshqaruvning barcha bo‘g‘inlarini axborot bilan ta‘minlash uchun takror ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatishning birlamchi asosi hisoblanadi.

Materiallarni saqlash xarajatlarini hisobga olishning hozirgi kunda amalda bo‘lgan tartibini yanada yaxshilashni talab etadi. Ko‘p hollarda materiallarni saqlashga aloqador xarajatlar: omborlarning holati, ularning amortizatsiyasi, tegishli xodimlarning mehnat haqi va boshqalar umumxo‘jalik va umumishlab chiqarish xarajatlari hisobiga hisobdan chiqariladi va shu orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga qo‘shiladi. Bunday xarajatlarni mo‘ljallanishiga ko‘ra, ya’ni bevosita omborlarda saqlanayotgan materiallar bahosini oshirishga o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

Materiallarning kamomadi, nobudgarchiligi va ortiqchasini hisobga olishni takomillashtirish bo‘yicha amaldagi tartibga ko‘ra saqlanayotgan materiallarning tabiiy kamayish meyorlari doirasidagi kamomadi va nobudgarchiligi (biologik nobudgarchilikdan tashqari) ishlab chiqarish

yoki davr xarajatlari hisobiga hisobdan chiqariladi va shunga ko'ra aniqlangan ortiqcha mahsulot bu xarajatlarning kamayishi hisobiga yoziladi. Tabiiyki bu holat iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi. Materiallarning kamomadi va ortiqchasi tannarxni shakllantirish jarayoniga hech qanday aloqasi yo'q, shunday ekan ular xarajatlar schyotiga o'tkazilmasligi kerak.

### Test topshiriqlari

#### 1. Materiallar

- a) ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashadi;
- b) eng kam ish haqining 50 barobaridan kam buyumlar;
- v) o'zining qiymatini mahsulot t/nga to'liq o'tkazadi;
- g) hammasi to'g'ri.

#### 2. Materiallar hisobini to'g'ri tashkil qilish uchun... ishlab chiqiladi

- a) qaydnama tuziladi;
- b) narx-nomenklatura;
- v) dalolatnama;
- g) yuk-xati.

#### 3. Materiallarni baholashda ... usullardan foydalaniladi.

- a) shartnama, ulgurji va bozor bahosi;
- b) bozor va nomenklatura hisob bahosi;
- v) bozor, nomenklatura, haqiqiy tannarx, ulgurji va reja bahosi;
- g) reja va bozor bahosi.

#### 4. Qaysi BHMS va MHXSda qoidalari asosida materiallar hisobi yuritiladi.

- a) 2-BHMS va 4-MXXS;
- b) 3-BHMS va 5-MXXS;
- v) 4-BHMS va 2-MXXS;
- g) 5-BHMS va 3-MXXS.

#### 5. Boshqaruv hisobi tizimida materiallar hisobining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- a) ularni saqlash va nazorat qilish;
- b) muomalalarni o'z vaqtida hujjatlashtirish;
- v) ortiqcha materiallarni aniqlash va sotish;
- g) hammasi to'g'ri.

#### 6. Materiallardan foydalanish usuli va ishlab chiqarish jarayonida tayinlashiga qarab ular ... tavsiflanadi.

a) xomashyo, asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k;

b) asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k;

v) yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k;

g) xomashyo, asosiy materiallar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyyot qismlar, xo'jalik inventarlari.

#### 7. Materiallar kelib tushganda dastlab qaysi hujjat to'ldiriladi?

- a) qaydnama;
- b) yuk xati;
- v) yorliq;
- g) kirim orderi.

#### 8. Materiallar markazlashgan holda olib kelinsa, tovar-transport nakladnoyi (TTN) necha nusxada tuziladi?

- a) 2 nusxada;
- b) 3 nusxada;
- v) 4 nusxada;
- g) 5 nusxada.

#### 9. Olib kelingan materiallardan kamomad aniqlansa qaysi hujjat tezkorlik bilan tuziladi?

- a) qaydnama.
- b) yuk xati
- v) dalolatnama
- g) schyot-faktura

#### 10. Mol yuboruvchi oluvchiga qaysi hujjatni taqdim etadi?

- a) qaydnama;
- b) yuk xati;
- v) yorliq;
- g) schyot-faktura.

#### Nazorat savollari

1. Umumiy boshqaruv tizimida ta'minot jarayoni deganda nimani tushunasiz ?

2. Xo'jalik subyektlarida moddiy zaxiralarni baholash qanday amalga oshiriladi?

- 3. Materiallarni qabul qilishda xarajatlar qanday tavsiflanadi?
- 4. Materiallarni saqlashda xarajatlar tasnifini tushuntirib bering?

5. Materiallar kirimi va hisobdan chiqarishni hisobga olish tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. Materiallar me'yorini nazorat qilish tartibi nimalardan iborat?
7. Materiallarni nazorat qilish qanday rejalashtiriladi?

## 5-bob. ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINING BOSHQARUV HISOBI

### 5.1. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishni tashkil etish

Xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan har bir muomalaning buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi schyotlar guruhidan foydalaniladi:

- 2010-»Asosiy ishlab chiqarish»;
- 2310-»Yordamchi ishlab chiqarish»;
- 2510-»Umumishlab chiqarish»;
- 2610-»Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 3110-»Oldindan to'langan ijara haqi»;
- 3120-»Oldindan to'langan xizmat haqi»;
- 3190-»Boshqa bo'nak xarajatlari»;
- 8910-»Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervi».

Ishlab chiqarish xarajatlarini elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisob yuritishni ta'minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarishning barcha xarajatlari 2010-»Asosiy ishlab chiqarish» schyotida tayyorlanayotgan mahsulot turlari bo'yicha guruhanadi.

2010-»Asosiy ishlab chiqarish» schyotidan xarajatlarni hisobga olishda quyidagi korxona va tashkilotlar foydalanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalar;
- qurilish-montaj, geologiya-qidiruv ishlarini bajarish bo'yicha pudrat, geologiya va loyiha qidiruv tashkilotlari;
- xizmatlar ko'rsatish bo'yicha transport va aloqa korxonalar;
- ilmiy tadqiqot va konstrukturlik ishlarini bajarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot korxonalar;
- avtomobil yo'llarini asrash va ta'mirlash bo'yicha yo'l xo'jaliklari.

Ushbu schyotning debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar, shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, brakdan ko'rilgan yo'qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar aks ettiriladi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan

xizmatlarning haqiqiy tannarxi summasi aks ettiriladi.

Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini aniqlash uchun tegishli xarajatlar 2300-“Yordamchi ishlab chiqarish hisobi” schyotlarida guruhlanadi.

2300-“Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlaridan quyidagi yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olishda foydalilanadi:

- energiyaning har xil turlari (elektroenergiya, gaz va boshqalar) bilan yordam ko'rsatish;
- transport xizmatlarini amalga oshirish;
- asosiy vositalarni ta'mirlash;
- instrumentlar, shtamplar, qurilish detallari, konstruktsiyalarni tayyorlash;
- tosh, shag'al, qum va boshqa rudasiz materiallar qazib olish;
- yog'och materiallarini tayyorlash va ularga ishlov berish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tuzlash, qoqi qilish va konservalash (asosan savdo korxonalarida);
- maxsus kiyimlar va poyafzallarni ta'mirlash, tikish va boshqalar.

Shuningdek, mazkur schyotlarda 21-sonli BHMSga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar balansida turgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik bo'linmalari xarajatlari ham hisobga olinishi mumkin.

2300-“Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi” schyotlarining debetida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish bilan bog'liq bo'lgan bevosita xarajatlar, shu bilan birga yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar hamda brakdan ko'rigan yo'qotishlar xarajatlari aks ettiriladi.

2300-»Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlari debetlanganda quyidagi schyotlar kreditlanadi:

- 0200-»Asosiy vositalarning eskirishi hisobi»;
- 0500-»Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi hisobi»;
- 1000-»Materiallar hisobi»;
- 1100-»O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobi»;
- 1610-»Materiallar qiymatidagi og'ishishlar»;
- 2510-»Umumishlab chiqarish xarajatlari»;
- 2610-»Ishlab chiqarishdagi brak»;
- 2810-»Ombordagi tayyor mahsulotlar»
- 3100-»Kelgusi davrlar xarajatlari hisobi»;

- 3200-»Muddati uzaytirilgan xarajatlar hisobi»;
- 4860-»Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar»;
- 6010-»Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar»;
- 6500-»Sug'urta bo'yicha qarzlar va davlat maqsadli fondlariga to'lovlar hisobi»;
- 6710-»Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»;
- 6970-»Hisobdor shaxslarga qarzlar»;
- 6990-»Boshqa majburiyatlar»;
- 6110-»Alohidha balansga ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schyotlar»;
- 9390-»Boshqa operatsion daromadlar».

2300-»Yordamchi ishlab chiqarishlar hisobi» schyotlarining kreditida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (ko'rsatilgan xizmat, bajarilgan ishlar)ning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

## 5.2. Qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish

Xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari o'rtasida bilvosita xarajatlarni oqilona taqsimlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, mahsulotlarning texnologik turlari bo'yicha tannarxini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Bu holat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bahosini shakllantirish bo'yicha korxona hisob siyosatini ishlab chiqishda ijobji samara beradi.

Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish xarajatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1)mashina va uskunalarni asrash va ishlatish xarajatlari;
- 2)umumishlab chiqarish xarajatlari;
- 3)davr xarajatlari.

O'zbekistonda yuqorida biringchi va ikkinchi bandlardagi xarajatlar taqsimot bazasiga mutanosib ravishda mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladi. Davr xarajatlari esa korxonaning moliyaviy natijalari hisobidan qoplanadi. MDH davlatlarida esa yuqorida barcha xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi va schyotlar tizimi orqali to'liq tannarx hosil qilinadi.

Ushbu xarajatlar umumiy xususiyatga ega bo'lishi bilan birgalikda, ularning xususiy jihatlari ham mavjud: mashina va uskunalarni ishlatish va asrash xarajatlari shartli-o'zgaruvchan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog'liq. Umumishlab chiqarish va davr xarajatlari esa shartli-doimiy xarajatlar hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga

bog'liq bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va uni boshqarish xarajatlarini mahsulotlar tannarxiga kiritish orqali tannarx aniqlashning ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini umumkorxona miqyosida va bo'linmalar darajasida taqsimlash kabi usullari mavjud.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini umumkorxona miqyosida taqsimlash usulining mohiyati shundaki, bunda mazkur xarajatlar 2510-“Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyotining debetida yig'ib boriladi hamda hisobot davri oxirida ular yagona taqsimot bazasi asosida mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

Shuningdek, bu usulning afzalligi uning soddaligi va kam mehnattalabligida bo'lsa, asosiy kamchiligi esa, mahsulotlarning xilmayturlari haqiqiy tannarxini aniqlash paytida jiddiy xatoliklarga olib kelishidir.

Odatda, boshqaruv hisobi tizimida hisobot davri ichida umumishlab chiqarish xarajatlari smetasi tuzilib, unga asosan smetadagi xarajatlar haqiqatda erishilgan mahsulot hajmi va haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanib, tuzatilib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi 21-conli BHMSga binoan tasdiqlangan xarajat moddalariga bo'lib hisobga olib boriladi va korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq alohida hisob ob'ektlari o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevral 54сонли qarori (2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qaror asosidagi o'zgartirishlar bilan) bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagilardan iborat:

- mashina va uskunalarini asrash va ishlatish xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari;
- ishlab chiqarishga tayinlangan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- ishlab chiqarishdagi mulklarni sug'urtlash xarajatlari;
- isitish, yoritish va ishlab chiqarish binolarini asrash xarajatlari;
- ishlab chiqarishda foydalilanadigan binolar, mashina va uskunalar, ijara olingan boshqa mulklarning ijara to'lovleri;
- ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan

xodimlarning ish haqi;

- ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash jarayonida xarajatlarni hisobdan chiqariladigan ob'ektlar tanlanib, aniq tsex, mahsulot, shartnoma turiga tegishli xarajatlar tanlab olinadi va yig'iladi. Bu sharoitda umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimot bazasini tanlab olish muhimdir.

Bo'linmalar darajasida ishlab chiqarishning bilvosita xarajatlarini taqsimlash usuli ancha mehnattalabdir, biroq, u oldingi usulga nisbatan mahsulotlar alohida turlari bo'yicha tannarxni to'liqroq aniqlash imkonini beradi. Bu usulda mazkur xarajatlar alohida subschyotlar ochish yo'li bilan bo'linmalar darjasida hisobga olinadi.

Korxonalarda hisobot davri yakunida mahsulotlar alohida turlari bo'yicha ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarining taqsimoti har bir subschyot uchun amalga oshiriladi. Bunda har bir subschyotga bo'linma texnologik jarayoni xususiyatini ifodalovchi o'z taqsimot bazasi mos keladi. Masalan, korxona avtomatlashtirilgan bo'linmasining ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari bo'yicha asbob-uskunalar ish soatlariga binoan, qo'lda yig'ish tsexining ishlab chiqarish bilvosita xarajatlar esa mehnatning bevosita xarajatlariga ko'ra taqsimlanadi.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlarini hisobga olishda bu usulni qo'llab xatoliklarni batamom bartaraf etib bo'lmaydi, chunki birinchidan, umumkorxona ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotida, ikkinchidan, alohida bo'linma ichidagi turli ishlab chiqarish tizimlari bo'yicha ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotida xatolar bo'lishi mumkin.

Korxona alohida bo'linmalari, tsexlarining texnologik jarayonlari mehnat, kapital va materialtalabligi darajalari bilan farq qiladi.

Agar bo'linma faoliyati xarajatlari ichida ish haqining hissasi yuqori bo'lsa, shu bo'linma, tsex, brigadaning umumishlab chiqarish xarajatlarini mehnat resurslarini iste'mol qilish bilan bog'liq ko'rsatkichlarni asos qilib olinib, ular mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

Quyidagi jadvaldan kelib chiqib, bilvosita xarajatlar taqsimotining asosi sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari;
- mehnatning me'yoriy bevosita xarajatlari;

– korxonadagi muayyan texnologik jarayonda qatnashuvchi xodimlar soni.

### 5.1-jadval.

#### **“ABS” korxonasining umumishlab chiqarish xarajatlari ni taqsimlash (asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi xarajatlari)**

Mahsulot turlari	Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari		Umumishlab chiqarish xarajatlari, ming so‘mda
	ming so‘mda	% da	
Stollar	13786	0,28	129982
Stullar	7059	0,14	64914
Divan	23441	0,47	170612
Shkaflar	2180	0,05	20953
Oshxona anjomlari	3201	0,06	29748
<b>Jami</b>	<b>49667</b>	<b>100</b>	<b>416209</b>

Agar bo‘linma faoliyati kapitaltalab bo‘lsa, umumishlab chiqarish xarajatlari asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari asos qilib olinib taqsimlanadi. Bunda ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimoti bazasi sifatida asbob-uskunalarning haqiqiy ish soatlari, mahsulot turlari bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari yoki ma’lum texnik jarayonda foydalanilgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati olinadi.

Korxona bo‘linmasi faoliyati materialtalab bo‘lsa ya’ni unda mahsulotlar tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlarning asosiy qismini xomashyo va materiallar xarajatlari tashkil qilsa, taqsimot bazasiga xomashyo va materiallarning haqiqiy bevosita xarajatlari hamda ularning rejali tannarxi kiritiladi.

Agar bo‘linma faoliyati natijasi qandayligini (mehnattalab, kapitaltalab yoki materialtalab) aniq belgilash imkonii bo‘lmasa, taqsimotning aralash bazasidan foydalaniladi. Bunda taqsimot bazasi to‘liq bevosita moddiy xarajatlari (xomashyo, materiallar va asosiy vositalar mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxida katta salmoqqa ega bo‘lsa)dan iborat bo‘ladi.

Taqsimot bazalari korxona funktsional xizmatlari ya’ni boshqaruv apparati uchun ham ishlab chiqiladi. Bunda taqsimotning asosiy bazalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– ombor xo‘jaligi uchun bir birlik mahsulotni bir kun saqlashning normativ xarajatlari ombordagi mahsulotlarning o‘rtacha qoldig‘iga ko‘paytirilgani;

– dispetcherlik xizmati uchun tashib ketiladigan tayyor mahsulotlar

tonna-kilometrda;

– yuklarni jo‘natish bo‘limi uchun tayyor mahsulotlarni yuklab jo‘natish bo‘yicha shartnomalar miqdori.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlaring eng mos taqsimlash bazasini hisoblash uchun ma’lum joriy xarajatlar talab qilinadi. Shu sababli, korxonalarda uncha mehnattalab bo‘lмаган boshqa qo‘srimcha taqsimot bazalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularga mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hajmi, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxi, xomashyo va materiallarni sotib olish tannarxi, marjinal daromad, xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni kabilarni kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish bilvosita xarajatlari taqsimotining samarali tizimini tatbiq etish masalalariga e’tiborsizlik ko‘p hollarda ishlab chiqarish dasturi, sotishlar va korxona baho siyosatida jiddiy xatoliklarga sabab bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida, korxona moliyaviy faoliyatini salbiy natijalariga olib keladi.

### Test savollari

**1. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra necha xil elementdan iborat bo‘ladi?**

- a) 2 xil;
- b) 3 xil;
- v) 4 xil;
- g) 5 xil;
- d) 6 xil.

**2. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarga kiritiladi?**

- a) debtorlarning voz kechilgan qarzları;
- b) xodimlarning voz kechilgan karzları;
- v) asosiy vositalarni bepul berishdan ko‘rilgan zararlar;
- g) to‘langan foizlar ;
- d) to‘langan qarzlar.

**3. Valyuta kurslaridagi salbiy farqlar ... .**

- a) moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlarga kiradi;
- b) qo‘silgan kapitalni kamaytiradi;
- v) asosiy faoliyatga doir xarajatga kiradi;
- g) favquloddagi zararlarga kiradi;
- d) mahsulot tannarxiga kiradi.

**4. Amortizatsiya xarajatlari ... .**

- a) pullik to'lovlarni oshiradi;
- b) mahsulot tannarxini oshiradi;
- v) pul oqimiga ta'sir etadi;
- g) korxona daromadini oshiradi;
- d) foyda (daromad) solig'i summasini oshiradi.

**5. Yordamchi ishlab chiqarish xodimlari uchun ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari summasi aks ettirildi.**

- a) Dt 2310 Kt 6010;
- b) Dt 6010 Kt 6710;
- v) Dt 2310 Kt 6520;
- g) Dt 9430 Kt 6410;
- d) Dt 6710 Kt 6510;

**6. Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi hisoblandi:**

- a) Dt 2010 Kt 6710 ;
- b) Dt 2110 Kt 6610;
- v) Dt 1010 Kt 6510;
- g) Dt 2310 Kt 6910;
- d) Dt 2510 Kt 1090.

**7. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarildi:**

- a) Dt 2010 Kt 2510;
- b) Dt 2510 Kt 2010;
- v) Dt 2310 Kt 2010;
- g) Dt 2110 Kt 0410 ;
- d) Dt 9410 Kt 2510.

**8. Javobgarlik markazlari bu ...**

- a) boshqaruv xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, bo'linmalar xarajatlari va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan hisob ob'ekti;
- b) korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish;
- v) korxona daromadlari uning xarajatlarini to'liq qoplaydigan nuqta;
- g) mahsulot ishlab chiqarish va sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talablari asosida sifat va muddatni tavsiflovchi kompleks reja;
- d) korxona foydasini samarali boshqarishning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni o'zaro mutanosibligiga asoslangan

mexanizmi.

**9. Quyidagilardan qaysi biri qo'shimcha (bilvosita) xarajatlarni taqsimlash bazasi hisoblanadi?**

- a) asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari;
- b) mehnatning me'yoriy bevosita xarajatlari;
- v) korxonadagi muayyan texnologik jarayonda qatnashuvchi xodimlar soni;
- g) a, b va v;
- d) to'g'ri javob berilmagan.

**10. Korxonani javobgarlik markazlari bo'yicha boshqarishning qanday usullari mavjud?**

- a) chiziqli;
- b) funktsional;
- v) chiziqli-funktsional;
- g) matritsali;
- d) barcha javob to'g'ri.

**Nazorat savollari**

1. Korxona faoliyatida xarajatlar qanday ahamiyatga ega?
2. Xarjatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xarajatlar qaytartibda guruhlanadi?
3. Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi? Oddiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar hisobi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga qanday xarajatlar kiritiladi?
5. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi qanday xususiyatlarga ega?
6. Umumishlab chiqarish xarajatlari korxona faoliyatida qanday o'rinn tutadi?
7. Javobgarlik markazlari nima?
8. Xarajatlarni javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishning maqsadi nima?
9. Javobgarlik markazlari qanday tasniflanadi?
10. Javobgarlik markazlarini tasniflashga qanday talablar qo'yiladi?
11. Javobgarlik markazlarini boshqarishning qanday shakllari mavjud?

12.Javobgarlikning asosiy va yordamchi markazlari deganda nimani tushunasiz?

13.Xarajatlar markaziga ta’rif bering.

14.Javobgarlik markazlarini tashkil etish jarayoniga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

## 6-bob. MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH USULLARI

### 6.1. Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turli xil belgilariga qarab turkumlanishi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o‘rin tutadi. Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldag'i ifodasidir. Xarajat moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo‘lib, daromadlar va xarajatlar kontseptsiyasiga ko‘ra, shu davrning o‘zida daromad keltirishi kerak. Xarajatlarga milliy standartlarda quyidagicha ta’rif beriladi: “Xarajatlar - aktivlarni qisqarishi yoki sarflanishi natijasida iqtisodiy resurslarni kamayishi, shuningdek daromadlarni olishga oid xo‘jalik subyektni odatiy faoliyati natijasida majburiyatlarni paydo bo‘lishidir”<sup>21</sup>.

Xarajatlarini hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruva qarorlarini qabul qilish uchun subyekt ma’muriyatini zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash;

- chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o‘rnatish, ularni me’yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash;

- subyektning tarkibiy bo‘linmalari ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash;

- uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish texnologiyalarining qoplanishi, bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo‘yicha rentabellik darajasi, ularga qo‘yilgan kapitallarning samaradorligi va faoliyati bo‘yicha boshqaruva hisobi ma’lumotlarini bir tizimga keltirish.

Ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulotni tayyorlash uchun moddiylashtirilgan mehnat sarflarining pul shaklidagi ifodasiga aytildi.

<sup>21</sup> 1-sonli BHMS. Hisob siyosati va moliyaviy hisobot.

Xo'jalik subyektlarida xarajatlari turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiyligi, moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxonalarining xarajatlari asosan xomashyo, materiallar, yoqilg'i va mehnatga haq to'lash xarajatlari kabilardan iborat bo'ladi.

Aynan mana shu masala borasida, nafaqat amaliyotchilar, balki iqtisodchi olimlar tomonidan ham to'liq e'tirof etiladigan xarajatlarni boshqarishga yondashish mavjud. Bu xarajatlarning boshqaruv hisobini tashkil qilish nuqtai nazaridan tasnif qilinishidir. Ana shu umume'tirof etilgan klassifikatsiya mohiyatini quyidagicha guruhlash mumkin:

- shartli-o'zgaruvchan xarajatlari;
- shartli-doimiy xarajatlari;
- yarim o'zgaruvchan xarajatlari.




### 6.1-chizma. Xarajatlarni turkumlash

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, boshqaruv qarorlarini qabul qiliqda muhim o'rni bo'lgan xarajatlarning yuqorida sanab o'tilgan uch guruhga bo'linishini MDH mamlakatlari olimlari orasida birinchi bor ilmiy jihatdan asoslagan vatandoshlarimiz hisoblanadi<sup>22</sup>. Boshqaruv qarorlari eng optimal va qanchalik samarali bo'lmasin, shartli-doimiy xarajatlari uning ta'siriga tushmaydi, ular nisbatan doimiy hisoblanadi, lekin ishlab chiqarish hajmi oshib boravergan sari bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan miqdori kamayib boraveradi.

Shartli-o'zgaruvchan xarajatlari esa, aksincha xususiyatga ega bo'lib, ular boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaradi, lekin bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan miqdori o'zgarmasdan qolaveradi. To'g'ri xarajatlarning barchasi (mehnat xarajatlari, material va xomashyo xarajatlari) shartli-o'zgaruvchan xarajatlarga kiradi. Umumishlab chiqarish xarajatlarining ham bir qanchasi (elektroenergiya, yoqilg'i va sh.k.) shartli-o'zgaruvchan xarajatlarga kiradi.

<sup>22</sup> Абдукаримов И.Т. Анализ издержек обращения в кооперативной торговле. – М.: Экономика, 2005.




### 6.2-chizma. O'zgaruvchan xarajatlarni turkumlash

Bu xarajat to'g'ri rahbarlarning ishbilarmonlik faoliyati o'zgarishi bilan shunga muvofiq o'zgaradi, lekin ishlab chiqilgan mahsulot birligiga nisbatan o'zgarishsiz qoladi.

Shartli-doimiy xarajatlarga quyidagi xarajat turlari kiradi:<sup>23</sup> ijara xarajatlari, hisoblangan eskirish (amortizatsiya) summalar, mol-mulk colig'i xarajatlari, umumishlab chiqarish xarajatlarining aksariyat qismi. Tijorat xarajatlarining ham aksariyat qismi ana shunday shartli-doimiy xarajatlardir: reklama xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, kommunal xizmat xarajatlari va sh.k. Ma'muriy-boshqaruv apparati (idora) xarajatlarining ham deyarli aksariyat qismi shartli-doimiy xarajatlarga kiradi, shu bilan birgalikda bularning ichida ham shartli-o'zgaruvchan xarajatlar turlari uchrab turadi.

<sup>23</sup> Pardayev A.X. Boshqaruv xisobi. – T.: Akademika, 2002 y. – 176-b., 24-32-betlar.



### 6.3-chizma. Doimiy xarajatlarni turkumlash

Bu xarajat to‘g‘ri rahbarlarning ishbilarmonlik faoliyati o‘zgarishiga bog‘liq emas, o‘zgarmaydi, lekin mahsulot birligiga nisbatan doimo o‘zgaradi.

O‘zgaruvchi xarajatlarning standart miqdorlari korxonadagi resurslar sarfi me’yorlarigagina bog‘liq bo‘lsa, doimiy xarajatlar esa ham resurs sarfi me’yorlariga, shuningdek, amaldagi xarajatlar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, doimiy xarajatlardan ayrımlari resurslar sarfi me’yorları orqali hisoblangsana, qolgan bir qismi faqat amalda qilingan xarajatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Doimiy xarajatlarning shu ikkinchi qismi standartini aniqlashda oldingi yillarda ishlatalilgan shu ko‘rinishdagi xarajatlarning amaldagi qiymatiaridan foydalaniładi. Bunda me’yorlar 2-ifoda orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi bilan xarajat elementlarining o‘zgarishi orasidagi bog‘liqlik xarajatlarni nazorat qilishda asosiy o‘rinda turadi. Buning uchun o‘z navbatida o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni bir-biridan ajrata olish lozim.

Shu bilan birga, “o‘rtacha xarajatlar miqdori” tushunchasi ham mavjud. Aksariyat hollarda o‘rtacha xarajatlar “keltirilgan xarajatlar” ham deb yuritiladi. Shuni ta’kidlash joizki, xarajatlar ustidan nazorat olib borganda yoki umuman tannarxni hisobga olishda keltirilgan doimiy

xarajatlarni alohida-alohida inobatga olgan ma’qul. Chunki faoliyat natijasida erishish mumkin bo‘lgan ish hajmining o‘zgarishi faqat o‘zgaruvchan xarajatlar miqdoriga bevosita ta’sir etadi.

Xarajat moddalarini orasida mohiyati jihatidan korxona ish birliklarining oshishiga to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgaruvchi xarajatlarni o‘zgaruvchi xarajatlar guruhibiga kiritamiz. Bu guruhibiga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlar nima sababdan o‘zgaruvchan xarajatlar hisoblanishi asoslangan. Bu guruhibiga kiruvchi xarajatlar u yoki bu jihatdan korxona ish natijalariga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Korxonadaga doimiy xarajatlar guruhibiga kiruvchi xarajatlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ularning miqdori korxona faoliyati natijasi bo‘lgan ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq emas, ya’ni unga (ishlab chiqarish hajmiga) nisbatan doimiy xarajatlar o‘zgarmasdir. Doimiy xarajatlar mutlaq miqdorining ishlab chiqarish hajmiga nisbati keltirilgan doimiy xarajat miqdorini ifodalaydi va bu ko‘rsatkichning umumiyligi xarajatdagi ulushi ishlab chiqarish hajmi oshgan sari kamayib boradi.

Qayd etish joizki, ayrim xarajat turlarini shartli-doimiy xarajatlar turlariga ham, shartli-o‘zgaruvchan xarajatlar turlariga ham kiritib bo‘lmaydi. Aniqrog‘i, ayrim tur xarajatlar bir vaqtinig o‘zida ham o‘zgaruvchan, ham doimiy xarajat komponentiga ega bo‘ladigan xarajatlar hisoblanadi. Shuning uchun bunday xarajatlarni yarim o‘zgaruvchan xarajatlar deb hisobga olgan ma’qul.

Masalan, telefon xizmati xarajatlari:

- bir oylik belgilangan ta’rif to‘lanishi lozim bo‘lgan summa doimiy xarajat guruhibiga kiritiladi;
- shaharlارaro va xalqaro so‘zlashuv xarajatlari bo‘lsa, o‘zgaruvchan xarajat guruhibiga kiritiladi.

Ijara to‘lovlari xarajatlarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Do‘kon ijerasi qayd qilinadigan summa sifatidagi bir to‘lov va tovar aylanmasidan foiz sifatida ikkinchi to‘lovdan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Boshqaruva hisobini tashkil qilish bevosita “xarajat - ishlab chiqarish hajmi – foyda” ko‘rsatkichlarining tahlilidan boshlanishi lozim.


Agar buyurtmalar portfeliga muvofiq ishlab chiqarish hajmi aniqlangan bo‘lsa, ana shu modeldan foydalaniib, xarajatlar miqdorini aniqlash, bahoni belgilash va sof foyda qancha bo‘lishi mumkinligini bemalol aniqlash mumkii. Ushbu uchta ko‘rsatkich bir-biri bilan bevosita chambarchas bog‘langan bo‘lib, boshqaruva hisobi va shu boradagi nazoratning asosiy quroli bo‘lib qolishi lozim.

### Yarim o'zgaruvchan xarajatlar

Bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan, ham doimiy xarajat komponentiga ega bo'lgan xarajatlar  
Masalan, telefon xizmati xarajatlari:  
 a) bir oylik aniq to'laniши lozim bo'lgan summa - doimiy xarajat guruhiга kiritiladi.  
 b) shaharlарaro va xalqaro so'zlashuv xarajatlari bo'lsa, o'zgaruvchan xarajat guruhiга kiritiladi.

### 6.4-chizma. Yarim o'zgaruvchan xarajatlarni turkumlash

Har bir korxona va korxonadagi ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda "xarajat – ishlab chiqarish hajmi – foyda" ko'rsatkichlarining bog'lanishini ham grafik, ham formula yoki oddiy arifmetik hisoblar ko'rinishida ifodalash mumkin.



### 6.5-chizma. Ishlab chiqarish hajmi (ishlab chiqarish quvvati)

Boshqaruv hisobini yuritishda ayrim olingan korxonaning normal quvvat bilan ishlashi inobatga olinadi. Chizmada ko'rsatilganidek, amaliyotda nazariy quvvat ko'rsatkichidan foydalanishning real

imkoniyati yo'q. Korxona faoliyatini tashkil qilishning dastlabki bosqichidayoq mana shu ko'rsatkichlar mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratilishi talab qilinadi. Xususan, faoliyatning texnik-iqtisodiy usoslanishida (TEO loyixasi) barcha asosiy vositalar aktiv qismi uchun miqdorlar, ana shu ko'rsatkichlar ichidan o'rtacha (normal) quvvat doirasida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.


Shunga muvofiq, korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishda ayrim olingan texnologik jihozlarning normal quvvat bilan ishlashi hisobga olinishi lozim.

Ishlab chiqarish hajmi bilan xarajatlari o'rtasida (o'zgaruvchan xarajatlari) o'zaro to'g'ri chiziqli bog'lanish mavjud.

Shu bilan birqalikda bir qancha xarajatlar ishlab chiqarish quvvati bilan "to'g'ri chiziqli bog'lanishda" bo'lmaydi (to'g'ri chiziqsiz bog'lanish).

Agar hamma o'zgaruvchan xarajatlari ishlab chiqarish quvvati bilan to'g'ri chiziqli bog'lanishda bo'lganda edi, ularni tahlil qilish, rejalashtirish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish mumkin bo'lar edi.

### Xarajatlar (so'mda)




### 6.6-chizma. Ishlab chiqarish va xarajatlar o'rtasida o'zaro to'g'ri chiziqli bog'lanish

To'g'ri chiziqsiz bog'langan xarajatlarni rejalashtirish qiyin, lekin ularni ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisobga olish zarur.


Boshqarish maqsadlari uchun, odatda ma'lum vaqt oralig'i olinadi. Faraz qilinadiki, ana shu vaqt oralig'iда doimiy xarajatlari o'zgarishsiz

qoladi. Doimiy xarajatlar o'zgaradigan bo'lsa, relevant darajasining yangi chizig'i paydo bo'ladi.



**6.7-chizma. Doimiy xarajatlar va relevant darjasini bog'lanishi**


Bozorni shakllantirish va uni tartibga solish usullarini ishlab chiqish talab, taklif va baho kabi o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq bozor elementlarini to'g'ri belgilab olish orqali amalga oshiriladi. Tizimdagagi bu elementlar doimo o'zgaruvchan bo'lib, ishlab chiqarish omillari, xarajatlar va daromadlilik kabi omillar ta'sirida bo'ladi.



**6.8-chizma. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" ko'rsatkichlari tahlili**

Amaliyotda "xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqini grafik, turli formulalar yoki jadvallar ko'rinishida ham izohlash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va yalpi daromad o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, ishlab chiqarishning "zararsizlik" darajasini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda har qanday korxona rahbariyati oldida ishlab chiqarish hajmining "kritik nuqtasini", ya'ni daromad va xarajatlar tenglashgan nuqtani aniqlash muhimdir.



**6.9-chizma. "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi – foyda" ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi chizmasi**

Respublikamizda xarajat moddalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldaggi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (O'z.R. VM.ning 2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qarori bilan bilan o'zgartirishlar kiritilgan) «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanadi.

Bu Nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- bevosa va bilvosita moddiy xarajatlar;
- bevosa va bilvosita mehnat xarajatları;

– boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish yo‘nalishidagi ustama xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- ma‘muriy xarajatlari;

– boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar:

– foizlar bo‘yicha xarajatlar;

– xorijiy valyuta operatsiyalarida yuzaga keladigan salbiy kurs farqlari;

– qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholash;

– moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)larni qayta ishlashda foydalilaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xomashyo va materiallar, yoqilg‘i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi.

Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagicha tartibda guruhlanadi:

– ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

– ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;

– ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta ajratmalar;

– asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

– ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun quyidagi schyotlar belgilangan:

9610-»Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar»;

9620-»Kurs farqlaridan zararlar»;

9630-»Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar»;

9690-»Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar».

Mazkur schyotlar tranzit schyotlar hisoblanib, aktiv xarakterga ega. Ularning debet oborotlari xo‘jalik muomalalari natijasida sodir

bo‘lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oborotlari esa ularning hisobdan chiqarilishini ifodalaydi.

Xarajatlar hisobi haqidagi ma‘lumotlarni korxona quyidagi holatda shakllantirish kerak:

1. Xarajatlarni ularni paydo bulish joylari bo‘yicha hisobga olish;

2. Xarajatlar hisobini javobgar xo‘jalik markazlari bo‘yicha tashkil qilish;

3. Xarajatlarni ularni paydo qilgan ob’ektleri yoki ularni tashuvchilari, ya’ni alohida mahsulot turlari bo‘yicha jamlab berish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlar qo‘yilgan vazifalarga muvofiq xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo‘linadi.

Xarajatlarni elementlari bo‘yicha guruhash ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga qarab aniqlash va tegishli smetalar tuzishga asos bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha guruhash esa mahsulotlar tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur xarajatlar xomashyo va materiallarni tayyorlash, qayta ishlash, sifatsiz mahsulotlarni tuzatish, yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lmagan xarajatlarga korxonaning madaniy-maishiy ob’ektlariga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Shuningdek, korxonalarda xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga ko‘ra bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar korxonalarga mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to‘lash (ajratmalar bilan birga), ishlab chiqarishda foydalilanayotgan asosiy vositalar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Bevosita moddiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot (ish va xizmat)larning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotlar tayyorlash, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda foydalilaniladigan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar xarajatlarini ifodalaydi. Yuqoridaqilardan tashqari “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, quyidagi xarajatlar ham bevosita moddiy xarajatlar tarkibiga kiradi:

– normal texnologiya jarayonini ta’minalash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojiga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va

boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalilaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyoq qismlar, inventarlar qiymati, xo'jalik buyumlari va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalari.

– sotib olinadigan, kelgusida korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

– tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'limgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha muomalalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, ularni sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini markaziy ombordan tsextga, shuningdek, tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlar hisoblanadi.

– tabiiy xom ashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirish, yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtlarga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun esa yog'och-taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari.

– texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonalarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

– korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariiga sarflanadigan barcha turdag'i xarid qilinadigan

energiya. Bunda korxonaning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyiga transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari moddiy xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi.

– ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

– korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar, jumladan yuklash va tushirish ishlari ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kiritilishi zarur.

– korxonalar tomonidan mol etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

– mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materialari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

– moddiy xarajatlar elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalarini xizmatlaridan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlar, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 142-moddasida moddiy xarajatlar quyidagi tartibda guruhanadi:

1) xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

2) ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyoq qismlar;

3) inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'limgan boshqa mol-mulk;

4) soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdag'i yoqilg'i,

energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdag'i energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari;

5) yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo'jaligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov;

7) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog'idiagi texnologik yo'qotishlar;

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Ushbu moddaning qo'llanilishi maqsadida qaytariladigan chiqindilar deganda xomashyo (materiallar), yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdag'i moddiy resurslarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan, boshlang'ich resurslarning iste'molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalari) qisman yo'qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

agar bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;

agar bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Bevosita mehnat xarajatlari: bevosita ishlab chiqarish xodimlari, ishlab chiqarish jarayonida ishlayotgan mashina operatorlari va bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan boshqa xodimlar mehnat haqi xarajatlari.

Shuningdek, "Xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, bevosita mehnat xarajatlariga quyidagilar kiritiladi:

– xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif

stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

– kasb mahorati va murabbiylit uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;

– ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

– texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

– ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

– hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzlusiz ish staji uchun ustamalar;

– aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytgacha to'lanadigan yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

– qurilish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

– doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan oldin va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

– mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to'lovlar;

– xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan (yig‘ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo‘lda o‘tadigan kunlar uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko‘ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda tutilib qolningan kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to‘lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);

Shuningdek, Soliq kodeksida mehnatga haq to‘lash xarajatlariga quyidagi larni kiritadi:

1) haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;

2) ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

3) predmeti ishlarmi bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar, bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar mustasno;

4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a‘zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

5) rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:

a) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;

b) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjatlarida nazarda tutilgan to‘lovlar;

v) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;

g) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

d) ratsionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar.

6) kompensatsiya to‘lovlar (kompensatsiya):

a) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha to‘lovlar);

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maikamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlucksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

v) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

g) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lмаган xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

d) doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki ko‘chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan xodimlarning jo‘nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo‘ldagi har bir sutka uchun to‘lanadigan ish haqiga ustamalar;

e) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;

j) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishslash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to‘lanadigan summalar;

z) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqt umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

i) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqt uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

k) dala ta‘minoti;

7) ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash:

a) qonun hujjatlariga muvofiq:

yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta‘tilga haq to‘lash, shuningdek undan foydalanimaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta‘tilga haq to‘lash;

o‘qish bilan bog‘liq ta‘tilga va ijodiy ta‘tillarga haq to‘lash;

o'n ikki yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

b) asosiy ish joyi bo'yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolning holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

v) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

g) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

d) qishloq xo'jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

e) avvalgi ish joyi bo'yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolning holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vazifani vaqtincha bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash;

j) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishi vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha to'lanadigan ish haqi;

z) xodimning aybisiz bekor turib qolning vaqt uchun haq to'lash;

i) sog'lig'ining holatiga ko'ra engilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lgan kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda saqlanadigan avvalgi o'ttacha oylik ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lash, shuningdek vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash;

k) majburiy progul vaqt yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko'ra haq to'lash;

l) o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarning imtiyozli soatlari, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

m) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to'lash;

n) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqt uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar;

8) nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha to'lovlar.

Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqtি jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqt uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash;

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to'lash;

- donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haq to'lash.

o xo'jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdag'i tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

o belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarining boshqa turlari.

Bilvosita xarajatlar esa mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar hisoblanib, ularga ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqaruv asbob-uskunalarini saqlash va foydalananish xarajatlari kiradi.

Rejalahshtirilishiga qarab xarajatlarni qisqa va uzoq muddatli xarajatlarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli xarajatlar korxonaning taktik maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Uzoq muddatli xarajatlar esa korxonani strategik maqsadini

amalga oshirishda yuzaga keladi. Ularga ilmiy tekshirishlar, yangi texnologiyalarni olib kirish va rivojlantirish, tayyor mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar kiritiladi.

#### Xarajatlarni hisobga olish

T/R	Operatsiya mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1.	Ishlab chiqarishga materiallar sarfi	150	2010	1010
2.	Ishlab chiqarishga elektr energiyasi sarfi	37	2010	6010
3.	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi	162	2010	6710
4.	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga mukofot hisoblandi	20	2010	6710
5.	Ishlab chiqarishdagi ishchilar ish haqidan yagona nijimoiy to‘lov hnsoblandi	45,5	2010	6520
6.	Ummumishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish tannarxiga o‘tkazildi	56	2010	2510
7.	Ishlab chiqarish chiqindilari omborga topshirildi	8	1090	2010
8.	Yaroqsizlikka chiqqan mahsulotning haqiqiy tannarxi aks ettirildi	3	2610	2010
9.	Omborga haqiqiy tannarx bo‘yicha tayyor mahsulot kelib tushdi	497,5	2810	2010

Korxonalar faoliyatida yarim o‘zgaruvchan xarajatlar ham yuzaga keladi. Yarim o‘zgaruvchan xarajatlar bir vaqtning o‘zida ham o‘zgaruvchan, ham doimiy xarajat xususiyatiga ega bo‘lgan xarajatlar hisoblanadi. Ularga telefon xizmati xarajatlarini kiritish mumkin. Bunda bir oylik aniq to‘lanishi lozim bo‘lgan summa – doimiy xarajatlar, shaharlararo va xalqaro so‘zlashuv xarajatlari esa o‘zgaruvchan xarajatlar guruhiга kiritiladi.

Smeta kalkulyatsiyasidan mahsulotlar ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishda zamонавиу texnologiyani qo‘llash va kelgusi davrlarda sarflanadigan xarajatlar smetasini tuzishda foydalaniladi. Ushbu usul korxonada yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, mahsulotlar bahosini belgilash va ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish yo‘nalishidagi hamma xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bu esa ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va

moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

#### 6.2. Mahsulot tannarxining ishlab chiqarishni boshqarishdagi ahamiyati

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini to‘g‘ri aniqlashdir. *Mahsulot tannarxi* uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita xarajatlarning yig‘indisini qiymat ko‘rinishidagi ifodasidir.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruvin hisobining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi, chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi quyidagilar bo‘yicha boshqaruvin qarorlarining qabul qilinishi uchun asos bo‘ladi:

- qanday turdagani mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, qaysilarini esa to‘xtatish bo‘yicha;
- zarur yordamchi mahsulotlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida;
- ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotga baho belgilash borasida;
- ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish bo‘yicha;
- ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni rivojlantirish bo‘yicha berilgan tavsiyalarni asoslashda.

Boshqaruvin hisobida tannarx quyidagi asosiy ob‘ektlar bo‘yicha aniqlanadi:

- alohida bo‘linmalar bo‘yicha;
- alohida mahsulot turlari bo‘yicha.

Bunda xarajatlarni taqsimlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- xarajatlarni ular vujudga kelgan markazlar bo‘yicha to‘plash;
- xarajatlarni mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlash.

Xarajatlarni taqsimlash deganda, korxona faoliyatida vujudga kelgan xarajatlarni aniq ob‘ektlar bo‘yicha guruhlash jarayoni tushuniladi.

Xarajatlar ob‘ekti sarflangan xarajatlar hisobga olinishi zarur bo‘lgan tashkiliy bo‘limdir.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi bevosita xarajatlar, resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Korxonadagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilonra

foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda kalkulyatsion birlikni aniq belgilash muhim masala hisoblanadi.

**Kalkulyatsiya birligi** kalkulyatsiya ob'ekti o'lchovidir. Unitanlash mahsulotni tayyorlash xususiyatlari, nomenklatura kengligi, o'lchashda qo'llanadigan birliklar, amaldagi andozalar va ishlab chiqiladigan mahsulotning texnik shartlariga bog'liq bo'ladi.

Kalkulyatsiya ob'ektlarini belgilashda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlariga muvofiq ularning nomi, yog'lilik darajasi va idishning turiga qaraladi. Masalan, bir metr sig'imdagi qog'oz idishdagi 3,2 % yog'lilikka ega sut, 0,5 metr sig'imdagi polietilen idishdagi 20 % yog'lilikdagi smetana, 250 g. og'irlikdagi o'rama qog'ozli yog'sizlantirilgan tvorog va h.k.

Amaliy faoliyatda ishlab chiqarish korxonalari kalkulyatsiya birliklarning quyidagi guruhlaridan foydalanadilar:

- tabiiy birliklar dona, kilogramm, tonna, metr, kub metr, kilovatt-soat va h.k.;
- shartli-tabiiy birliklar – konservalar (quyultirilgan sut) 100 shartli bankalari va h.k.;
- foydalaniladigan (ekspluatatsion) birliklar quvvat, mahsulorlik va h.k.;
- ishlar birliklari tashib keltirilgan yukning bir tonnasi, yo'l qoplamasining yuz metri va h.k.;
- vaqt birliklari mashina-kun, mashina-soat, norma-soat va h.k.

### 6.3. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning an'anaviy usullari

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ, jarayonli, buyurtmali, to'liq tannarx, marjinal xarajatlarni umumlashtirish, xarajatlarni mutanosib taqsimlash, aralash kabi usullari mavjud.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning **normativ usuli** xarajatlarni hisobi normativ usulining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu usulning afzalligi unda hisob-kitoblarning oddiyligidir. Quyidagi sabablarni mazkur usulning kamchiliklariga kiritish mumkin:

- foydalanilgan zaxiralalar miqdori va ularga qo'yilgan baholar nazorati uchun me'yolarning mavjud emasligi;
- chetlanish sabablari, uning aybdorlari, joyini aniqlash va tahlil

etish imkoniyatini yo'qligi;

• ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisob-kitoblari faqat hisobot davri oxirida o'tkazilishi mumkin va h.k.

Normativ usulda normativ xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar o'rtaida yuzaga keladigan farq chetlanish deb ataladi.

Bir dona ishlab chiqarilgan mahsulotga to'g'ri keladigan normativ xarajatlar quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- bevosita normativ moddiy xarajatlar;
- bevosita moddiy xarajatlarning normativ miqdori;
- normativ ish vaqt (bevosita mehnat haqi xarajatlari);
- ish vaqtining normalashtirilgan stavkasi;
- o'zgaruvchan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koefitsienti;
- doimiy umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koefitsienti.

Ushbu usulni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega: har bir xarajat turi bo'yicha norma va normativlarning o'rnatilganligi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar birligi tannarxining normativ kalkulyatsiyasini tuzish, amaldagi normalar va ulardan chetlanishlar bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish.

Faqat miqdor bo'yicha normalardan foydalanilganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$H_x = F_{zx} \times (M_f \pm M_{hx})$$

bu yerda,

$M_f$  - xarajatlarning normativ miqdori;

$M_{hx}$  - haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi.

Sarflangan resurslardan ehtiyojga muvofiq normada foydalanilganda quyidagi formulani qo'llash maqsadga muvofiq:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times M$$

bu yerda,

$M_{xb}$  - sarflangan resurslarning bahosi o'zgarishi natijasida chetlanishlar.

Sarflangan resurslarning miqdori va bahosi bo'yicha normalardan foydalanib, haqiqiy xarajatlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times (M_m \pm M_{ch})$$

bu yerda,

$M_m$  - normativ miqdor;

*M4-haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi (sarflangan resurslar miqdori o'zgarishi sababli).*

Ushbu usul normativ kalkulyatsiyalarni har bir buyum bo'yicha majburiy dastlabki tuzilishini ko'zda tutadi, ular hisobot davri boshida amal qiluvchi xarajatlar normalari asosida hisob-kitob qilinadi. Tashkiliy va ilmiy-texnik tadbirlarni tatbiq etish normalari va normativ xarajatlar yangilanishi bilan normativ kalkulyatsiyalar ham yangilanadi.

Normativ usulda xarajatlar normalar doirasida va ulardan chetlanishlar bo'yicha olib boriladi. Mavjud chetlanishlar haqidagi axborot mahsulot tannarxini shaklantirish jarayonida tezkor ta'sir o'tkazish maqsadida boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu usulda mahsulotning haqiqiy normativ tannarxi har bir modda bo'yicha normalardan chetlanishlarni qo'shish yoki ayirish yo'li bilan hisoblanadi.

Normativ usuldan muvaffaqiyatli foydalanish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- resurslarning barcha turlari bo'yicha normativ asosni aniqlash;
- normativ kalkulyatsiyalarni oldindan tuzish;
- xarajatlarning kelib chiqish joylari, normalardan chetlanishlarning aybdorlari va normalar o'zgarishi sabablari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini qayd etuvchi birlamchi hujjatlarni ishlab chiqish;
- har bir ishlab chiqarish bo'linmasi va butun korxona bo'yicha mahsulotlar tannarxini shakllantirish ustidan o'rnatilgan nazorat natiasi bo'yicha tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilish va xulosalar chiqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

Normativ usul ombor xo'jaligini to'g'ri tashkil etishni ham talab qiladi. Bunda omborni og'irlik o'lchov jihozlari bilan ta'minlash, ishlab chiqarish bo'linmalarini esa suv, gaz bug', elektr quvvatini iste'mol qilish uchun o'lchov asboblari bilan ta'minlash, mahsulotlar nomenklaturasini ishlab chiqish, birlamchi hujjatlar va boshqa tashkiliy-texnik tadbirlarni sifatlari rasmiylashtirishdan iborat.

Shunday qilib, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli korxonalarda xarajatlar hisobi xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aniqroq hisoblashga imkon beradi, bundan tashqari bu usul xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni batafsil tahlil etib, aniqlangan chetlanishlar va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Demak, mazkur usul

xarajatlarni operativ nazorat qilish va chetlanishlarni boshqarish uchun qulaydir.

**Rejali (taxminiy) tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi** usuli normativ usulga qaraganda ko'proq qo'shimcha afzalliklarga ega. Unda normativ hajmlarga nisbatan rejalshtirilgan hajmlarni chuqurroq asoslanganligi, taxminlar aniqligi nazorat samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. U mavjud ishlab chiqarish resurslarini hisobga olgan holda materiallar, yoqilg'i, energiya, ish haqi va boshqa xarajatlarni progressiv normalardan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, unda rejali xarajatlar erishilgan natijaga emas, balki kelgusidagi taxminga asoslanadi.

Texnologik jarayonga nisbatan xarajatlar hisobini jarayonli va buyurtmalar bo'yicha tashkil etish mumkin.

Mahsulot tannarxini aniqlashning jarayonli usulidan mahsulot ishlab chiqarishda xomashyoning bir necha jarayondan o'tganidan so'ng tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda foydalaniladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli uzlusiz, bir necha bosqichdan iborat jarayonlar bo'yicha ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llaniladi. Bunda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish ikki usulda amalga oshiriladi:

- o'rtacha hisob usuli. Mazkur usulda xarajatlar, shu jumladan, hisobot davri boshidagi qoldiq summasi ham qo'shilib, shu davrda ishlab chiqilgan shartli tayyor mahsulot birligiga bo'linadi;

- FIFO usuli. Bunda hisobot davri boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i tugatiladi so'ngra yangi mahsulot ishlab chiqarish amalga oshiriladi. FIFO usulini qo'llashda birmuncha qiyinchiliklar mavjud, biroq o'rtacha hisob usuliga nisbatan aniqroq hisoblanadi.

Xarajatlar hisobini jarayonli usulining ikki varianti mavjud: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz.

**Yarim tayyor mahsulotli usulda** har bir oldingi qayta ishlangan mahsulot keyingi qayta ishlov uchun yarim tayyor mahsulot hisoblanadi va u tashqariga sotilishi mumkin. Bu yarim tayyor mahsulotlarni haqiqiy, normativ yoki rejali tannarx bo'yicha, hisob-kitob yoki mahsulotni sotish baholari bo'yicha baholash zaruratini belgilaydi. Bu variantda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida 2100 - "O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar" nomli aktiv schyotda aks

ettiriladi.

**Yarim tayyor mahsulotsiz usulda** har bir qayta ishlov bo'yicha, asosan, faqat ishlov berishga ketgan xarajatlar olinadi. Tayyor mahsulot tannarxi xomashyo, dastlabki materiallar xarajatlari, barcha qayta ishlash xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini umumlashtirish bilan aniqlanadi. Bunda faqat tayyor mahsulot tannarxi kalkulyatsiya qilinadi.

**Misol.** Korxona erkaklar poyafzali ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish uchta jarayonda tashkil etilgan. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- hisobot davrining birinchi choragida 1500 dona mahsulot ishlab chiqarilgan;
- dastlabki ishlov uchun xomashyo va materiallar sarflangan - 8400000 so'm;
- oraliq mahsulotlarga xarajatlar qilindi - 2400000 so'm;
- tayyor mahsulot holiga keltirish uchun mablag'lar sarflandi - 1200000 so'm.

Bunda jarayonlar bo'yicha tannarx aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

$$\begin{aligned}1\text{-jarayon} & - 8400000/1500=5600 \\2\text{-jarayon} & - 2400000/1500=1600 \\3\text{-jarayon} & - 1200000/1500=800 \\Jami: & 12000000/1500=8000.\end{aligned}$$

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinish turibdiki, bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi 8000 so'mni tashkil etadi.

Xarajatlar hisobining **buyurtmali usuli** xususiy va mayda turkumli ishlab chiqarishda, shuningdek, tajriba-eksperimental ishlab chiqarishda va ta'mirlash ishlarida qo'llanishi mumkin.

Buyurtmali usulning mohiyati, bir yoki bir necha xildagi mahsulotlarning uncha katta bo'Imagan turkumini tayyorlashda har bir buyurtma bo'yicha alohida xarajatlar hisobini amalga oshiriladi.

Xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- alohida buyurtmalar bo'yicha, shuningdek, bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo'llaniladi;
- bu usulda xarajatlar muayyan hisobot davri (bir oy, chorak, yil) oralig'ida emas, balki bajarilayotgan buyurtma davri bo'yicha aniqlanadi;

– qo'shimcha analitik ma'lumotlarni yig'ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin. Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo'yicha yig'ib boriladi.

Bu usulda barcha bevosita xarajatlar ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan buyurtma birligiga olib boriladi. Buyurtmali usulda umumishlab chiqarish xarajatlari maxsus usullar bo'yicha aniqlanadi va mahsulot tannarxiga olib boriladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning eng muqobil usuli normativ koeffitsientlar usulidir.

Koeffitsientlarni hisoblash uch bosqichda amalga oshiriladi:

- umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik budgeti tuziladi;
- xarajatlarning umumiyligi summasi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmiga qarab aniqlanadi. Bunda xodimlarning mehnat haqi, sarflangan kishi soat, sarflangan mashina-soat va h.k;
- rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan so'ng, pul birligi, soat va boshqa istalgan o'Ichov birligida aniqlanishi mumkin bo'lgan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsienti yuzaga keladi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning buyurtmali usulida kalkulyatsiya ob'ekti bo'lib muayyan miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)ga olingan buyurtma hisoblanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)da asosiy buxgalteriya hisobi hujjati bo'lib, buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi o'rtasida tuzilgan shartnomalar hisoblanadi. Mazkur shartnomada quyidagilar o'z ifodasini topadi: shartnomalar ob'ekti, shartnomalar subyektlari va ularning manzillari, mahsulot (ish, xizmat)ning hajmi va yuklab jo'natish (qabul qilib olish) muddati, shartnomalar bahosi, to'lov shakllari va boshqalar.

Buyurtmali usulda mahsulot tannarxini hisoblash yakka va turkumli ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi.

Buyurtmalar bo'yicha material, mehnat haqi va shu kabi xarajatlar alohida taqsimlash jadvallarida guruhlanadi. Buyurtma ob'ektining tannarxi u ochilgan kundan boshlab amalga ishlab chiqarish xarajatlarining yig'indisi summasi orqali aniqlanadi.

Buning uchun har bir buyurtmaga buxgalteriyada alohida kartochka ochiladi, unda buyurtma bo'yicha xarajatlar buyurtmani bajarishning butun muddati mobaynida hisobga olinadi.

Bevosita xarajatlar birlamchi hujjatlar asosida tsexlар va buyurtmalar bo'yicha hisobga olinadi. Bunda har bir buyurtma uchun alohida birlamchi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bilvosita xarajatlar korxonada mutanosib ravishda qabul qilingan taqsimot bazasiga binoan taqsimlash yo'li bilan mahsulotlar tannarxiga kiritiladi.

Buyurtmani bajarish davrida xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni tugagandan keyin kartochka yopiladi va buyurtmani bajarishga ketgan xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Bu xarajatlardan qaytarilgan chiqindilar, tuzatib bo'lmaydigan sifatsiz va foydalanimagan materiallarni omborga qaytarish xarajatlari chiqarib tashlangach, buyurtma bo'yicha ishlangan mahsulotning haqiqiy tannarxi kelib chiqadi.

Agar buyurtmaga muvofiq bir necha xil buyum tayyorlansa, haqiqiy xarajatlar summasini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga kalkulyatsiya moddalari bo'yicha bo'lish bilan birlik mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

**Misol.** «ABS» korxonasi buyurtmalar bo'yicha tikuv mashinasi va muzlatgich ishlab chiqaradi. Buyurtmachilar tomonidan korxonaga 6ta tikuv mashinasi va 8ta muzlatgichga buyurtma berilgan. Buyurtmalar bajarib bo'lingan. Bir dona buyurtmaning haqiqiy tannarxini aniqlash zarur.

Buyurtmalar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1) Moddiy xarajatlar amalga oshirildi:

- tikuv mashinalari uchun - 288000 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 768000 so'm.

2) Xodimlarga mehnat haqi to'landi:

- tikuv mashinalari uchun - 153600 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 409600 so'm.

3) Buyurtmalar bo'yicha umumishlab chiqarish xarajatlari hisoblandi.

- tikuv mashinalari uchun - 38400 so'm;
- muzlatgichlar uchun - 102400 so'm.

Ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan jami xarajatlar:

- tikuv mashinalari uchun -  $288000+153600+38400=480000$  so'm;

- muzlatgichlar uchun -  $768000+409600+102400=1280000$  so'm.

Ushbu ma'lumotlar bo'yicha bir dona buyurtmaning tannarxi quyidagicha bo'ladi:

*Tikuv mashinasi uchun -  $480000/6=80000$  so'm;*

*Muzlatgichlar uchun -  $1280000/8=160000$  so'm.*

Ko'pincha korxona amaliy faoliyatida jarayonli usul bilan bir qatorda buyurtmali usulning unsurlarini birgalikda qo'llovchi aralash tizimlardan foydalilaniladi. Bunday tizimlar turkumli va seriyali mahsulot ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi. Jumladan, muomalalar bo'yicha tannarx aniqlash usuli istiqbolli aralash tizimlardan biri hisoblanib, unda xarajatlarni hisobga olishning asosiy ob'ekti muomala hisoblanadi. Umumishlab chiqarish xarajatlari mazkur muomaladan o'tgan mahsulot birliklari o'rtasida asosiy ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Asosiy materiallarga ketgan xarajatlar ham buyurtmali usul kabi mahsulotning alohida turi tannarxiga kiritiladi. Muomalalar usulining afzalligi kalkulyatsiyani texnologik sharoitga yaqinlashtirishdan iborat.

Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining schyotlar tizimida tannarxni shakllantirish usuliga qarab xarajatlar hisobini to'liq yoki cheklangan tannarx (marjinal daromad usuli) bo'yicha tashkil etishlari mumkin.

**To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usulida** mahsulot tannarxiga doimiy va o'zgaruvchan, bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linishidan qat'i nazar, korxonaning barcha xarajatlari kiritiladi. Bevosita mahsulotga kiritib bo'lmaydigan xarajatlar avval ular kelib chiqqan javobgarlik markazlari bo'yicha taqsimlanadi, keyin esa tanlangan asosga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Ko'pincha taqsimlash bazasi sifatida ishlab chiqarish ishchilarining asosiy ish haqi, ishlab chiqarish tannarxi va h.k.lar tanlanadi.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlar hisobi usuli mamlakatimizda keng tarqalgan va moliyaviy hisob hamda soliqqa tortish bo'yicha normativ hujjatlar talablari va O'zbekistonda yuzaga kelgan an'analarga mos keladi. Biroq, mazkur usul mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda mahsulot birligi tannarxida sodir bo'ladigan

o'zgarishlarni hisobga olmaydi.

Xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida **cheklangan tannarx**, ya'mi **marjinal usul** bo'yicha xarajatlar hisobi usuliga alohida e'tibor berilishi zarur. Bu usulga muvofiq mahsulot tannarxiga korxona xarajatlarining hammasi kiritilmaydi, balki uning bir qismi - o'zgaruvchan xarajatlar kiritiladi. Ushbu usulda doimiy xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritmaydilar va shunday xarajatlar yuzaga kelganda o'sha davr foydasini kamaytirishga yo'naltiriladi. Aniq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

2013 yilda ABS korxonasi 10%li smetanani bir litrini ishlab chiqarish va sotishga qilingan o'rtacha xarajatlari so'mda quyidagicha:

1. Sotish bahosi	772-00
2. Qo'shilgan qiymat solig'i	129-00
3. O'zgaruvchan xarajatlar	270-20
4. Marjinal daromad (1q.-2q.-3q.)	372-80
5. Doimiy xarajatlar	265-80
6. Foya (3q.-4q.)	107-00

Misoldan ko'rinib turibdiki, smetana birligidan olingan marjinal daromad 372-80 so'm (772,00-129,00-270,00)ni tashkil etadi va o'ziga xos yalpi foya-brutto foydasi hosil bo'ladi. Marjinal daromad summasidan doimiy xarajatlar summasini ayirib operatsion foya-netto foydasi topiladi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tarmoq korxonalarida hali marjinal daromad kontseptsiyasi qo'llanilmayapti, vaholanki moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» marjinal daromadni aniqlash talablariga muvofiq tuzilgan va tasdiqlangan. Demak, boshqaruv hisobi tizimini ham shu talablarga moslashtirish lozim.

Binobarin, mahsulotlarning sotish bahosi va o'zgaruvchan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq qancha ko'p bo'lsa, marjinal daromad va rentabellik darajasi ham shuncha baland bo'ladi. Bundan tashqari, xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linishi korxona faoliyatini boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan u assortiment siyosati, zararli faoliyat yuritgan holda yopib qo'yish yoki inqirozga uchraganligini e'lon qilish haqida qaror qabul qilish uchun zarur.

Bu usulning asosiy afzalligi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning birlashishidan iborat. Ushbu xarajatlarni boshqarish quyidagi eng muhim vazifalarini hal etish imkonini beradi:

- mahsulot yoki buyurtma bahosining quyi chegarasini aniqlash;

- mahsulot turlari foydaliligin qiyosiy tahlili;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash;
- mahsulot yoki xizmatlarning o'z mahsuloti va ularni chetdan sotib olish o'rtasidagi tafovut;
- ishlab chiqarish texnologiyasini iqtisodiy nuqtai nazardan qulayligini tanlash;
- korxona raqobatbardoshliligi zaxirasi hamda zararsizlik nuqtasini belgilash va h.k.

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari texnologiya va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni taqozo etadi. Hozirgi paytda korxonalarda oddiy, jarayonli (shu jumladan, bo'linmali) va buyurtmali usullar xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlashning normativ usuli bilan bog'lab olib borilmoqda.

2010->»Asosiy ishlab chiqarish» schyotining har bir mahsulot turiga ochilgan analitik schyotlarida xarajatlar belgilangan xarajat moddalarini bo'yicha hisobga olib boriladi.

Analitik schyotlar mahsulotlarni qayta ishlashdagi texnologik jarayonlar bo'yicha ochiladi.

**Xarajatlarni umumlashtirish usuli (oddiy usul)**da mahsulot tannarxi mahsulotning alohida qismlari yoki ularni tayyorlash jarayoni bo'yicha aniqlanadi. Bu usul, odatda, bir xil mahsulot ishlab chiqarilganda qo'llaniladi.

**Qo'shimcha mahsulotga xarajatlarni chiqarib tashlash usuli** shundan iboratki, bunda ishlab chiqarishdan olinadigan mahsulotlar asosiy, qo'shimcha va yondoshlarga bo'linadi. Asosiy mahsulot tannarxini aniqlash uchun qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilar oldindan belgilangan baholar bo'yicha umumiy xarajatlardan chiqarib tashlanadi.

**Xarajatlarni mutanosib taqsimlash usuli** mahsulotlarning bir necha turini bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish sharti bilan ular tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul asosan aralash mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda xarajatlar hisobi ishlab chiqariladigan mahsulotlar guruhi bo'yicha tashkil etiladi, guruhlar ichidagi xarajatlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan, ba'zida mutanosib ravishda mahsulotlarning alohida turlariga taqsimlanadi.

**Kalkulyatsiya qilishning aralash usuli** yuqorida sanab o'tilgan usullarning har birini alohida qo'llash imkonini bo'limasa yoki mahsulot tannarxini asosli hisobga olish ta'minlansa, ularning bir nechtasini o'zaro birikuvini ifodalaydi.

## Test topshiriqlari

### 1. Amal qilish davriga ko'ra boshqaruv qarorlari qanday tasniflanadi?

- a) stereotip;
- b) strategik (uzoq muddatli);
- v) taktik (qisqa muddatli);
- g) b va v
- d) barcha javob to'g'ri.

### 2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qo'yiladigan talablar ifodalangan qatorni aniqlang.

- a) aniq yo'nalishga ega bo'lish va korxona manfaatlarini to'liq ifoda etish;
- b) ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganlik;
- v) qabul qilish va amalga oshirish muddatining aniqligi;
- g) tezkorlik, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lish;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

### 3. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlili ...

- a) menejerlarga ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish, zararsizlik nuqtasini aniqlashga imkon beradi;
- b) mahsulot tannarxini aniqlash usuli hisoblanadi;
- v) xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni hisobga oladi;
- g) ustama xarajatlar hisobini yuritadi;
- d) investitsiyalangan kapital daromadliligini aniqlaydi.

### 4. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlilining asosiy elementlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- a) marjinal daromad, zararsizlik nuqtasi;
- b) davr xarajatlari;
- v) ishlab chiqarish dastagi, chidamlilikning marjinal zaxirasi;
- g) favqulodda foyda va zararlar;
- d) a va v.

### 5. Marjinal daromad...

- a) mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi farq;
- b) korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish usuli
- v) boshqaruv xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, bo'linmalar daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan hisob ob'ekti

g) korxonaning budjet davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari rejasi

d) kelajakda yuzaga kelishi kutilayotgan, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaruvchi daromad.

### 6. Zararsizlik nuqtasi (rentabilidad chegarasi)...

- a) bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi markaz turidir;
- b) "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" (Cost-Volume-Profit) tahlil tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi;
- v) mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum ularga sarflangan barcha xarajatlari yig'indisiga tengligini ifodalaydi;
- g) b va g;
- d) to'g'ri javob berilmagan.

### 7. Chidamlilikning marjinal zaxirasi...

- a) bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar yoki xizmatlar bahosini aniqlash imkonini beradigan baho turidir;
- b) mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotishdan olinadigan haqiqiy tushumni sotishning zararsizligini ta'minlovchi ostonaviy tushumdan oshganligini ifodalovchi kattalikdir;
- v) sarflangan xarajatlar hisobga olinadigan maxsus tashkiliy bo'lim hisoblanadi;
- g) ishlab chiqarish tsexlari va korxona bo'linmalari bo'yicha boshqaruvni tashkil etish tizimidir;
- d) kelgusida paydo bo'lishi mo'ljallananayotgan, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaruvchi daromad va xarajatlar yig'indisidir.

### 8. Ishlab chiqarish dastagi...

- a) korxona foydasini boshqarishning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni o'zaro mutanosibligiga asoslangan mexanizmi;
- b) sotish hajmi o'zgarishiga bog'liq ravishda korxona foydasi o'zgarishini taxminlash, shuningdek, zararsiz faoliyat yuritish nuqtasini aniqlash imkonini beradi;
- v) korxona rahbarlariga xarajatlar va foydani boshqarish, yuqori foyda olish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishga ko'maklashuvchi moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi;
- g) korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash uchun marjinal daromadning etarli miqdorini belgilashi zarurligini ifodalaydi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**9. Qaysi qatorda investitsiya loyihalarini amaliyatga joriy etish ketma-ketligi to‘g‘ri ifodalangan?**

- a) loyihani tahlil etish, loyihani muhokama qilish, loyihani tugatish;
- b) loyihani muhokama qilish, loyihani baholash;
- v) loyihani ishlab chiqish, loyihani amalga oshirish;
- g) loyihani tahlil etish, loyiha qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash;
- d) to‘g‘ri javob berilmagan.

**10. Qaysi qatorda biznes tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish zarurati to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) bozor kon'yunkturasining o‘zgaruvchan talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini tez muddatlarda o‘zgartirish;
- b) ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;
- v) aylanma mablag‘lar aylanishi tezligini ta’minlash va nazorat qilish;
- g) korxonaning ishlab chiqarish va boshqa bo‘linmalari o‘rtasida oqilona baho siyosati yuritish;
- d) yuqoridaagi javoblarning barchasi to‘g‘ri.

#### **Nazorat savollari**

1. Mahsulot tannarxi nima?

2. Mahsulot tannarxini hisoblashda kalkulyatsiya birligi qanday ahamiyatga ega?

3. Kalkulyatsiya birliklari qanday tasniflanadi?

4. Kalkulyatsiya ob‘ektlari deganda nimani tushunasiz?

5. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari qanday guruhlanadi?

6. Korxona faoliyatida normativ usulni qo‘llashning qanday afzalliklari mavjud?

7. Yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz usullarga izoh bering.

8. Kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usulini mohiyati nimada?

9. Marjinal tannarx usulining qanday ijobjiy tomonlari bor?

10. “Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda” tahlili korxona ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda qanday ahamiyatga ega?

11. “Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda” tahlilining qanday asosiy elementlari mavjud?

12. Zararsizlik nuqtasi qanday hisoblanadi?

13. Marjinal daromadni aniqlashning qanday usullari mavjud?

14. Chidamlilikning marjinal zaxirasining iqtisodiy mohiyati nimada?

15. Korxonalarda ishlab chiqarish dastagi mexanizmidan foydalanish qanday xususiyatlarga ega?

16. Ishlab chiqarish dastagi o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

## **7-bob. ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBIGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TIZIMLAR VA USULLAR**

### **7.1. "Standart-kost" tizimining xususiyati va mohiyati**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar o'rtasida iqtisodiy raqobatbardoshlik muhitining shakllanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini hisoblashning ilg'or tizimlaridan foydalanish zaruratini tug'diradi.

Xorijiy mamlakatlarda buxgalteriya hisobini yuritishning zamonaviy sharoitida strategik va taktik xususiyatga ega bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni korxonaning xarajatlari va moliyaviy natijalari haqidagi axborotga tayanadi. Bu vazifani bajarishda "Standart-kost" hisob tizimi korxona xarajatlarini boshqarishda samarali qurollardan biri hisoblanadi. Uning asosida belgilangan normalar doirasida hamda ulardan chetlanishlar bo'yicha hisob yuritish va nazorat qilish tamoyillari yotadi.

"Standart-kost" atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: "standart" – mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy bo'lgan moliyaviy, moddiy va mehnat xarajatlari uchun oldindan hisoblab qo'yilgan xarajatlarni normativini anglatsa, "kost" so'zi esa mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni bildiradi. Shunday qilib, "Standart-kost" so'zi to'liq ma'nosida standart xarajatlarni anglatadi.

Standartlar – eng avvalo, ishlab chiqarishning bevosita xarajatlaridan foydalanish ustidan nazoratni o'rnatishga qaratilgan va bir-biriga bog'liq, smetalar esa taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun mo'ljallangan.

**«Standart-kost» tizimi** – xarajatlar hisobi va tannarx aniqlash tizimi bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi avvaldan puxta, obdon hisoblab chiqilgan me'yoriy xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi. Me'yoriy va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq chetlanish deb ataladi. Xarajatlarni samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri chetlanishlar tahlili deb yuritiladi.

"Standart-kost" tizimining tarkibi moddalar bo'yicha xarajatlarning quyidagi dastlabki (ishlab chiqarish jarayoni boshlanguncha) normalaridan tashkil topadi:

- asosiy materiallar;
- asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarining mehnat haqi;

○ ishlab chiqarishdagi taqsimlanadigan xarajatlar (yordamchi ishlab chiqarishdagi xodimlar ish haqi, yordamchi materiallar, ijara haqi, jihozlar amortizatsiyasi va h.k.)

○ sotish xarajatlari (mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlar).

"Standart-kost" hisob tizimi bo'yicha foyda quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi daromad;
2. Mahsulotning standart tannarxi;
3. Yalpi foyda (1q-2q);
4. Standartlardan chetlanishlar;
5. Foyda (3q-4q).

Standartlar va normalar yordamida hisoblab chiqilgan kalkulyatsiyalar ishlab chiqarish va xarajatlarni tezkor boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Xarajatlarning belgilangan standart normalaridan chetlanish darajasi mazkur chetlanishlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun tahlil qilinadi. Bu esa ma'muriyatga ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni tezkor bartaraf etishga, kelajakda ham ularning oldini olishga imkon yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Standart-kost" hisob tizimi xorij amaliyotida me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilmagan, shu sababli bu tizim standartlarni belgilash va hisob qaydnomalarini yurgizishning yagona usuliga ega emas, natijada birgina korxona ichida ham bazisli, joriy, mutlaq, taxminiy va engillashtirilgan kabi turli normalar amal qiladi.

Normalarni belgilashda mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, ishchi kuchi va xizmatlar xarajatini tabiiy holda ifoda etishga imkon beruvchi miqdoriy standartlardan keng foydalilanadi.

**Taqsimlanadigan xarajatlar.** Taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun mahsulotning taxminiy hajmidan kelib chiqib ma'lum davr uchun stavkalar belgilanadi. Taqsimlanadigan xarajatlar smetalari doimiy tavsifga ega, biroq ishlab chiqarish hajmining o'zgarishida taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun o'zgaruvchan standartlar va sirpanchiq smetalalar tuziladi.

Taqsimlanadigan xarajatlarning sirpanchiq smetalari mahsulot ishlab chiqarish miqdoriga bog'liq ravishda doimiy, o'zgaruvchan va yarim o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi. So'nggilari o'z navbatida, doimiy va o'zgaruvchan tarkibiy unsurlarga bo'lib chiqiladi. Bunday usulda taqsimlanadigan xarajatlarning smeta stavkasi (normasi) mahsulot ishlab chiqarish va doimiy xarajatlar birligiga oldindan

belgilangan normalar ulushining o‘zgaruvchan qismi sifatida aniqlanadi.

Mahsulotning standart tannarxini aniqlash uchun xomashyoning me’yoriy xarajatlari, ishchi kuchi va taqsimlanadigan xarajatlар umumlashtiriladi.

“Standart-kost” hisob tizimidan foydalanadigan korxonalar, odatda quyidagi xarajat moddalarini bo‘yicha hisobni tashkil etadilar (7.1.-jadval):

- xomashyo xarajati bo‘yicha chetlanishlar;
- mehnat haqi bo‘yicha chetlanishlar;
- umumishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha chetlanishlar;
- davr xarajatlari bo‘yicha chetlanishlar.

Zarurat tug‘ilganda (masalan, javobgarlik markazlari bo‘yicha bo‘linmalarda chetlanishlarni aks ettirishda) bu xarajat moddalarining har biri bo‘yicha analitik schyotlar ochilishi mumkin.

“Standart-kost” hisob tizimidagi asosiy talab – xarajatlarning belgilangan normalaridan chetlanishlari ustidan nazorat bo‘lib, u xarajatlar standartlarini takomillashtirishga imkon beradi. Agar bunday nazorat qo‘llanilmasa, u holda “Standart-kost” tizimining qo‘llanishi shartli bo‘lib qoladi va ijobjiy natija bermaydi.

«Standart-kost» hisob tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- «Standart-kost» tizimi xarajatlarni operativ boshqarishga ko‘maklashadi. Chetlanishlarni o‘rganishda e’tibor reja va normativlar mos kelmaydigan ob‘ektlarga qaratiladi. «Standart-kost» tizimida chetlanishlar boshqa tizimlardan ko‘ra tezkor va ancha aniq hisoblanadi;

- ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va qo‘llashga ko‘maklashadi. Investitsiyalar asosan tejamli texnologiyalarga yo‘naltirilishi lozimligi sababli, ishlab chiqarish texnologiyalari doimo qayta ko‘rib boriladi. Zarur paytda foydalanilayotgan ayrim elementlarga emas, balki butun texnologiya ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin;

- xarajatlarni qattiq va aniq nazorat qilishni ta‘minlaydi.

«Standart-kost» hisob tizimi tayyor mahsulot va uning tarkibiy qismlari aniq baholanishini nazarda tutadi. Me’yoriy xarajatlari bu tizimda nafaqat o‘rtacha norma, balki avvalgi yillar tajribasi asosida sinalgan kompleks baholash mezonlaridir. Yuqoridaq ijobjiy tomonlar bilan birgalikda «Standart-kost» tizimining quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- «Standart-kost» tizimini qo‘llash va uni takomillashtirish ko‘p vaqt va xarajatlari talab qiladi. Ammo amaliyot ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish samaradorligini oshishi hisobiga bu xarajatlari tezda qoplanib ketadi;

- «Standart-kost» tizimi iqtisodiyotda baholar, foiz stavkalari, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullari intensiv o‘zgarib turadigan, beqaror sharoitlarda ijobjiy samara bermay, o‘z dolzarbligini yo‘qotadi. O‘z navbatida, bunday sharoitlarda tizim xarajatlarni operativ nazorat qilishdagi ustuvor vazifalarni bajarmay, samarali boshqarish dastagi rolini ijro etmay qoladi;

- xususan, bozordagi raqobat natijasida shakllangan bahoning o‘zgarishi va infliyatsiyani, ombordagi tayyor mahsulotlar qoldig‘i va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblashni murakkablashtiradi;

- standartlarni barcha ishlab chiqarish xarajatlari qo‘llab bo‘lmaydi, shu sababli ularni nazorat qilish susayadi;

- korxona qisqa muddat ichida tavsif va tipi bo‘yicha turli buyurtmalarni katta miqdorda bajarayotganda standartlarni har bir buyurtmaga hisoblab chiqish imkonii chegaralangan. Bunday hollarda ilmiy asoslangan standartlar o‘rniga har bir mahsulotga o‘rtacha qiymat belgilanadi, u mahsulotga baho belgilash uchun asos (bazis) bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu kamchiliklarga qaramay korxonalarining rahbarlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash, shuningdek, boshqarish, rejalashtirish va zarur qarorlar qabul qilish uchun nazorat o‘rnatishning ishonchli quroli sifatida “Standart-kost” hisob tizimidan foydalanadilar.

Normativ usul va “Standart-kost” tizimini o‘rganish ular o‘rtasida umumiyliklar mayjudligini tasdiqlaydi. Demak, har ikkala tizim uchun quyidagilar umumiy tamoyil bo‘lib hisoblanadi:

- xarajatlarni qat’iy normalashtirish;
- xarajatlarni alohida moddalari bo‘yicha normativ kalkulyatsiyani oldindan (hisobot davri boshlanguncha) tuzish;
- chetlanishlarning paydo bo‘lishi va javobgarlik markazlaridagi chetlanishlar va joriy normalar bo‘yicha xarajatlarning bo‘linish hisobi hamda nazorati;

**7.1-jadval.**  
**“Standart-kost” hisob tizimida xarajat moddalari bo‘yicha**  
**chetlanishlarni turkumlash**

Chetlanish turlari	Chetlanishlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning hisob-kitobi	
1	2	3
<b>I. Xomashyo</b>		
1. <i>Xomashyo qiymatidagi chetlanishlar</i>	- <i>xomashyo birligining normativ tannarxi;</i> - <i>haqiqiy baho;</i> - <i>sotib olingan xomashyo qiymati.</i>	
2. <i>Xomashyo miqdori bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xomashyoning normativ miqdori;</i> - <i>xomashyo uchun sarolangan haqiqiy xarajat.</i>	
3. <i>Xomashyo birligiga sarflanadigan xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>xomashyo birligiga sarolangan normativ xarajatlar;</i> - <i>xomashyo birligiga sarolangan haqiqiy xarajatlar.</i>	
<b>II. Ishchi kuchi</b>		
1. <i>Mehnat haqi stavkalari bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>ish haqining normativ stavkasi;</i> - <i>ish haqining saatbay stavkasi;</i> - <i>haqiqiy ishlangan vaqt.</i>	
2. <i>Mehnat unumdorligi darjasini bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun normativ vaqt;</i> - <i>mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy vaqt;</i> - <i>mehnatga haq to‘lash normativ saatbay stavkasi.</i>	
<b>III. Qo‘srimcha xarajatlar</b>		
1. <i>Doimiy qo‘srimcha xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>mahsulot birligiga sarflanadigan doimiy qo‘srimcha xarajatlar me’yori;</i> - <i>mahsulot birligiga sarflanadigan haqiqiy doimiy qo‘srimcha xarajatlar;</i> - <i>ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.</i>	
2. <i>O‘zgaruvchan qo‘srimcha xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>mahsulot birligiga sarflanadigan o‘zgaruvchan qo‘srimcha xarajatlar me’yori;</i> - <i>mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy o‘zgaruvchan qo‘srimcha xarajat;</i> - <i>ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.</i>	
<b>IV. Yalpi foyda</b>		
1. <i>Sotish bahosi bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>mahsulot birligining normativ tannarxi;</i> - <i>mahsulot birligining haqiqiy tannarxi;</i> - <i>sotilgan mahsulot hajmi.</i>	
2. <i>Sotish hajmi bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>smeta bo‘yicha sotish hajmi;</i> - <i>haqiqiy sotilgan mahsulot hajmi;</i> - <i>mahsulot birligiga to‘g‘ri kelgan me’yoriy foyda.</i>	
3. <i>Yalpi foyda hajmi bo‘yicha chetlanishlar</i>	- <i>normativ foyda;</i> - <i>haqiqiy olingan foyda.</i>	

– ishlab chiqarish jarayonida va xarajatlarni boshqarishdagi salbiy

hodisalarini bartaraf etish uchun axborotdan foydalanish maqsadida paydo bo‘lgan chetlanishlarni tizimli umumlashtirish va tahlil qilish;

– mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlar hisobi usullarining har taraflamaligi hamda imkoniyatlarini inobatga olish.

– Shuni ta’kidlash lozimki, qayd qilingan umumiyl tamoyillar o‘rtasida quyidagi ayrim tafovutlar mavjud:

– normativ usuldan farqli ravishda “Standart-kost” hisob tizimida xarajatlar normalari o‘zgarishlarining alohida hisobi olib borilmaydi;

– xarajatlarning dastlabki hisoblangan normalari haqiqiy xarajatlarni standartlarga muvofiq holga keltirish uchun qat’iy belgilangan stavkalar sifatida ko‘rib chiqiladi;

– chetlanishlar paydo bo‘lganda standart normalari o‘zgarmaydi;  
– ular butun hisobot davriga nisbatan barqaror bo‘lib qoladi.

“Standart-kost” hisob tizimidan farqli o‘laroq, normativ hisob ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sotish jarayoniga mo‘ljallanmagan. Bu esa mahsulotning sotish bahosini belgilash va asoslashni qiyinlashtiradi.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish jarayoni bormoqda. U bozor iqtisodi va buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablariga tobora ko‘proq muvofiqlashtiril-moqda. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining “Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-sonli BHMSiga ko‘ra korxonalarga haqiqiy va normativ tannarx bo‘yicha buxgalteriya hisobi ob’ektlarini baholash va aks ettirish, buxgalteriya hisobini yuritishning shakl va usullarini mustaqil belgilash huquqi berilgan. Masalan, normativ tannarx bo‘yicha tayyor mahsulotlarning sintetik hisobini tashkil etuvchi korxonalar yangi schyotlar rejasiga muvofiq (2002y.) 2800-“Tayyor mahsulotlar hisobi” schyotlarini qo‘llashlari mumkin. Bu schyot hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqidagi axborotlarni umumlashtirish va ularning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini normativ (standart) tannarxidan chetlanishlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Hisobot oyi tugaganda 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyotida qayd etilgan mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi shu schyot kreditidan 2810-»Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti debetiga tuzatish provodkalari bilan o‘tkazilishi kerak. Bunda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot haqidagi axborot ikki xil bahoda shakllanadi: debet bo‘yicha - haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi, kredit bo‘yicha - normativ

tannarx. Oy oxirida 2810-»Ombordagi tayyor mahsulotlar hisobi» schyoti bo'yicha debet va kredit oborotlarini taqqoslash bilan haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining normativ tannarxdan chetlanishi aniqlanadi. Chetlanish summasi 2810-»Ombordagi tayyor mahsulotlar hisobi» schyoti kreditidan 9100-»Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisobi» schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi lozim. Har chorakda 2810-»Ombordagi tayyor mahsulotlar hisobi» schyoti yopiladi va kelasi chorakning boshigacha qoldiqqa ega bo'ladi.

Korxonalar amaliyotida normativ tannarx hisoblash tizimi orqali mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish xarajatlar hisobini xalqaro "Standart-kost" hisob tizimiga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Hisob amaliyotida 2800-»Tayyor mahsulotlar hisobi» schyotlaridan foydalanishda mahsulotning haqiqiy tannarxi ishlab chiqarilgan, yuklab jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar bo'yicha uning normativ tannarxidan chetlanishlari bo'yicha mehnattalab hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati qolmaydi, chunki, tayyor mahsulotlar bo'yicha aniqlangan chetlanishlar darhol 9100-»Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisobi» schyotlariga yozib qo'yiladi, biroq, bu variant faqatgina mahsulot ishlab chiqarilgan va o'sha chorakning o'zida sotilgan bo'lsagina sotilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlashga imkon beradi.

Amaldagi schyotlar rejasি korxonalarda normativ tannarx bo'yicha materiallar hisobini ikki usul bilan olib borish imkonini yaratadi:

- haqiqiy tannarx bo'yicha;
- hisob baholari bo'yicha.

Korxonalar hisob baholari sifatida materiallarni sotib olishda normativ yoki rejadagi qiymatdan, sotib olish yoki o'rtacha baholar va h.k.dan foydalanishlari mumkin.

Birinchi usulga ko'ra, 1000-»Materiallar hisobi» schyotlarida materiallarni sotib olish va tayyorlash bo'yicha barcha haqiqiy xarajatlar aks ettiriladi.

Ikkinci usulda, 1510-»Materiallarni tayyorlash va sotib olish hisobi» hamda 1610-»Materiallar qiymatidagi chetlanishlar hisobi» schyotlaridan foydalaniladi. Ushbu usullardan birontasini qo'llashni korxona mustaqil belgilaydi va uni o'z hisob siyosatida ko'rsatadi.

Materiallarning sintetik hisobi normativ usul bilan olib borilganda materiallar kirimi haqiqiy tannarx bo'yicha 1510-»Materiallarni

tayyorlash va sotib olish hisobi» schyotining debetida olib boriladi. Bunda kirim daftariga yozilgan materiallarning normativ qiymati 1000-»Materiallar hisobi» schyotlari va sotib olingen mahsulotlarning haqiqiy tannarxining normativ tannarxidan chetlanishlari 1610-»Materiallar qiymatidagi chetlanishlar hisobi» schyotining debeti hamda 1510-»Materiallarni tayyorlash va sotib olish hisobi» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Material va boshqa ishlab chiqarish zaxiralaring chetlar rejasida aks ettirilishidagi *vaqt o'rtasidagi tafovut* "Standart-kost" hisob tizimini qo'llashga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bir tomonidan tayyor mahsulotlar zaxiralari va jo'natilgan tovarlar normativ tannarx bo'yicha har hisobot kunining oxirida aks ettirilsa, ikkinchidan material zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobot davrining oxirida qayd qilinadi.

## 7.2. "Direkt-kosting" tizimining mohiyati va ahamiyati

Xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va samarali boshqarish tannarx aniqlashning zamонави tizimlarini amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi.

"Direkt-kosting" hisob tizimi ham respublikamiz buxgalteriya hisobi uchun yangi tizimlardan hisoblanib, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Germaniya va Avstraliyada mazkur usul "qisman xarajatlar hisobi" deb ataladi. Britaniyada u "marjinal xarajatlar hisobi", Fransiyada – "marjinal buxgalteriya" yoki "marjinal hisob" degan nomlarni olgan. O'zbekistonda esa "cheklangan, to'liq bo'limagan yoki qisqartirilgan tannarx hisobi" tushunchalari qo'llanilib kelmoqda.

G'arb mamlakatlarida marjinal daromad usulidan ishlab chiqarishni (ekstensiv) rivojlantirish modeli o'rniga yangi model – intensiv rivojlanish modeli sifatida foydalanila boshlandi. Bunday modeldan foydalanish, o'z navbatida, xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo'shimcha, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga aniq bo'lishni va shu asosda boshqarishning strategik vazifalarini hal etishni talab qiladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, "Direkt-kosting" tizimining paydo bo'lishi soф buxgalteriya hisobi bilan bog'liq edi. Hisob xodimlari o'sha davrda shunday xulosaga kelishdiki, barcha xarajatlar mazkur hisobot davriga va shu davrdagi ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog'liq ya'ni ular mahsulot sotilgandagi hisobot davriga tegishli bo'lishi lozim.

**“Direkt-kosting” tizimining asosiy maqsadi** korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga bog‘liq holda doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘lishdan iborat.

Dastlabki bosqichda tannarxga faqat o‘zgaruvchan xarajatlar kiritilar edi, doimiy xarajatlar esa korxonaning moliyaviy natijalariga hisobdan chiqarilar edi. Direct-Costing-System (bevosita xarajatlar hisobi tizimi)ning nomi ham shundan kelib chiqqan, keyinroq “Direkt-kosting” tizimi shunday hisob tizimiga aylandiki, unda tannarx faqat bevosita o‘zgaruvchan xarajatlar qismida hisob qilinadigan bo‘ldi. Mazkur nomdagagi bir qator shartliliklar ana shundan kelib chiqqan.

Amaliyotda “Direkt-kosting” tizimini turli variantlarda qo‘llash imkoniyati mavjud. Bevosita xarajatlar bo‘yicha kalkulyatsiyalashni ko‘zda tutuvchi klassik “Direkt-kosting” tizimida xarajatlarni kalkulyatsiyalash o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona va to‘liq quvvati bo‘yicha foydalanish xarajatlarini kalkulyatsiyalash jarayoniga barcha o‘zgaruvchan xarajatlar hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsientiga muvofiq aniqlanadi.

#### 7.2-jadval.

**“ABS” korxonasi ma’lumotlari asosida “Direkt-kosting” va mahsulotning to‘liq tannarxini hisoblash tizimlari bo‘yicha korxona moliyaviy natijasini aniqlashning qiyosiy ko‘rinishi**

T/r	“Direkt-kosting” tizimi bo‘yicha	Summa	T/r	To‘liq tannarx usuli bo‘yicha	Summa
1.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan tushum	358357	1.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan tushum	
2.	O‘zgaruvchan xarajatlar (sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi)	288916		Sotilgan mahsulotlarning to‘liq tannarxi	358357
3.	Marjinal daromad (10-20%) (mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarar))	69441	2.	Asosiy (operatsion) foyda (zarar)	334484
4.	Doimiy xarajatlar (davr xarajatlari)	45568	3.		23873
5.	Asosiy (operatsion) foyda (zarar)	23873			

“Direkt-kosting” hisob tizimida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tizimi quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi (7.2-jadval).

- hisobni birinchi navbatda marjinal daromad, ya’ni oraliq moliyaviy natijani aniqlashga yo‘naltirilishi;

- mahsulotni faqat o‘zgaruvchan xarajatlar nuqtai nazaridan hisobga olish va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash;

- korxona bo‘yicha doimiy xarajatlar hisobi va ularni yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun operatsion foydani kamaytirishga qaratish;

- bahoni tezkor boshqarish jarayoni asosi sifatida marjinal daromadni aniqlash;

- sotish hajmi, tannarx va foyda o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va munosabatni aniqlash;

- zararsizlik nuqtasini belgilash.

“Direkt-kosting” hisobi tizimining asosiy afzalliklari quyidagilar:

- mahsulot tannarxini hisoblashdagi soddalashtirish va aniqlik (chunki, tannarx faqat o‘zgaruvchan xarajatlar qismidagina rejalashtiriladi va hisobga olinadi);

- mahsulot turlari o‘rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun murakkab hisob-kitoblar qilinmasligi (ular mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmaydi va moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadi);

- rentabellik darajasi (zararsizlik nuqtasi, sotish hajmi), mahsulot bahosining quyi chegarasini aniqlash imkoniyati;

- mahsulotning xilma-xil turlari bo‘yicha rentabellik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash imkoniyati;

- o‘zi ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlar hamda ularni chetdan sotib olishdagi tanlov imkoniyati.

“Direkt-kosting” hisob tizimi rahbarlarga korxona miyosida va turli mahsulotlar bo‘yicha marjinal daromadning o‘zgarishiga e’tiborni kuchaytirishga imkon beradi, bunda yuqori rentabelli mahsulotni aniqlashda sotish bahosi va o‘zgaruvchan xarajatlar summasi o‘rtasidagi tafovut alohida mahsulotlar tannarxiga doimiy xarajatlarni kiritish natijasida yashirinib qolmaydi, mazkur tizim bozor sharoiti o‘zgarishiga javoban xaridorgir mahsulotlarni tez ilg‘ab olish imkonini

beradi. Erkin bozor raqobati sharoitida “Direkt-kosting” hisob tizimi korxonani boshqarish tizimi - marketingning tarkibiy qismiga aylanadi.

Bundan tashqari, “Direkt-kosting” hisob tizimi doimiy xarajatlar ustidan tezkor nazorat o‘rnatishga ko‘maklashadi, chunki tannarxni nazorat qilish jarayonida standart (normativ) xarajatlar (“Direkt-kosting” hisob tizimi «Standart-kost» tizimi bilan birgalikda tashkil etiladi) yoki moslashuvchan smetalardan foydalaniadi. Modomiki, “Direkt-kosting” tizimida standartlar qo‘llanilar ekan, bunda o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga normalar belgilanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, to‘liq tannarx hisobi tizimida qo‘srimcha xarajatlar taqsimlanmagan summasining bir qismi bir hisobot davridan boshqasiga o‘tadi, shu bois, ularni nazorat qilish sustplashadi. Bunday holda “Direkt-kosting” tizimi qo‘srimcha xarajatlar taqsimlanishining mehnattalabligini kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, “Direkt-kosting” tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tatbiq qilish unga xos bo‘lgan quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi:

- raqobat kurashida baholarni sun’iy ravishda pasaytirish kuzatilsa, doimiy xarajatlar marjinal daromad hisobidan qoplanishi mumkin bo‘lmaydi, ya’ni korxona zarar ko‘ra boshlaydi.

- “Direkt-kosting” tizimi muxoliflarining fikricha, bu tizim ishlab chiqarilgan mahsulotning to‘liq tannarxini schyotlar tizimida aniqlash mushkul. Shu bois, tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqirishning to‘liq tannarxini aniqlash zarur bo‘lganda shartli-doimiy xarajatlarni qo‘srimcha tarzda taqsimlash talab etiladi.

- faqat ishlab chiqarish tannarxi, ya’ni moddalarni qisqartirilgan nomenklatura nuqtai nazaridan hisob olib borish hisob talablariga javob bermaydi, chunki bunda zarur mahsulotning to‘la tannarxi hisob-kitob qilinmaydi.

“Direkt-kosting” tizimini O‘zbekiston korxonalarini boshqarishda qo‘llashning imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligini tahlil etish tadqiqotning navbatdagi bosqichi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarigacha mahsulotning to‘liq tannarxini kalkulyatsiya qilish O‘zbekiston buxgalteriya hisobi uchun an‘anaviy hisoblangan. Undagi hisob mahsulotning to‘liq tannarxi haqida ma‘lumotlar olishga qaratilgan. Bu variantda mahsulot tannarxi doimiy va o‘zgaruvchan, asosiy va qo‘srimchalarga, bevosita va bilvosita, uzlusiz ishlab chiqariladigan va davriyga bo‘linishidan qat’iy nazar, unga korxonaning barcha xarajatlari kiradi. Bevosita mahsulotga

taalluqli bo‘lmaydigan xarajatlar hisobot davri mobaynida yig‘ib-taqsimlovchi schyotlarda to‘planadi, so‘ngra hisob siyosati bo‘yicha tasdiqlangan bazaga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga o‘tkaziladi, biroq bu variantda mahsulot birligi tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish hajmi o‘zgarganda o‘zgarishi hisobga olinmaydi.

Agar korxona mahsulot ishlab chiqarish va sotishni kengaytirsa, mahsulot birligi tannarxi pasayadi, agar korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartirsa, tannarx o‘sadi. Bunday sharoitda O‘zbekiston korxonalarida “Direkt-kosting” tizimini qo‘llash zarurligi va maqsadga muvofiqligi dolzarb bo‘lib qoladi.

“Direkt-kosting” tizimi elementlarini respublikamiz amaliyotiga qo‘llashda 1994 yil burilish davri bo‘ldi. Bunda korxonalar asta-sekin tannarxni kalkulyatsiya qilishning O‘zbekiston hisobi uchun noan‘anaviy bo‘lgan usulini o‘zlashtira boshladilar. Bu usul “Direkt-kosting” tizimi asosida joriy qilina boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 martda 164-sonli «O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisoboti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash va buxgalteriya hisobi schyotlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori asosida buxgalteriya hisobini rivojlantirish bo‘yicha bir necha qadamlar qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqiangan va BMTning xalqaro ekspertlari ishtirokida ishlab chiqilgan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to‘g‘risida»gi Nizom (1995 yil 27 yanvar) qabul qilindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1995 yil 4 apreldagi 17-02/28-sonli Yo‘riqnomasi tasdiqlanib, unda ma‘muriy boshqaruvga oid xarajatlar «Davr xarajatlari» deb atalishi va ular «Foya va zararlar» schyotiga hisobdan chiqarilishi belgilab qo‘yildi. Albatta, bu tarixga aylangan haqiqat, biroq shu davrdan boshlab O‘zbekistonda «Direkt-kosting» tizimi va marjinal daromad kontseptsiyasiga asos solindi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur qoida 21-BHMSga asosan, buxgalteriya hisobida qo‘srimcha xarajatlar 9000-“Asosiy (operations) faoliyatdan olingan daromadlar hisobi” schyotlarining debeti va 9400-“Davr xarajatlari hisobi” schyotlarining krediti bo‘yicha qayd etilishini nazarda tutgan.

### **7.3. «JIT», «ABC» va «SCA» tizimlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish**

Xo'jalik subyektlari faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarini optimal darajada kamaytirib, bozorbop va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishni boshqarish va mehnatni tashkil qilishda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida foydalanilayotgan ilg'or usullardan biri sanalgan "JIT" ("Just-in-time" ya'ni "Aniq muddatda") tizimini qo'llash ijobiy samara beradi.

Zamonaviy boshqaruv hisobini yuritishning "JIT" tizimi XX asrning 70-yillarida Yaponiyada "Toyota" kompaniyasida joriy qilindi va "Kanban" ya'ni "Kartochka" yoki yozuvning vizual tizimi ma'nosida qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtida bu tizimdan jahonning sanoati rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

**"JIT" tiziminining muhim xususiyati** mahsulotlarni yirik turkumlarda ishlab chiqarishdan voz kechish, buning o'rniga uzlusiz, buyurtma olingan vaqtidan boshlab mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Mazkur tizimning asosiy maqsadi barcha ortiqcha xarajatlarni bartaraf qilish va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanishni ta'minlashdir.

Ushbu tizim «mahsulotni unga talab bo'lgandagina ishlab chiqarish», «faqat xaridorning buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqarish» kabi tamoyillarga asoslanadi, bu esa mahsulot (ish va xizmat)larga bo'lgan talabni har doim taklif bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

"JIT" tizimida ishlab chiqarish tsexlari va bo'linmalari mayda-mayda turkum buyurtmalar bilan ta'minlanadi hamda donalab mahsulot ishlab chiqarish boshlanadi. Bu tizim qo'llanilganda korxonada tovar-moddiy zaxiralarining me'yordan ortiqchasini mavjud bo'lishi salbiy holat hisoblanadi. Sababi, ularni saqlashga ortiqcha xarajatlar talab etiladi, shuningdek, moddiy zaxiralarning to'planib qolishi va moliyaviy resurslarning harakatsiz turishi korxona faoliyati samaradorligini so'ndiradi va raqobatbardoshligini susaytiradi.

Bu tizimda ishlab chiqarish jarayonida muomalalarning qat'iy ketma-ketligi ta'minlanib, detallar, qismilar va materiallar faqat foydalanish zarurati tug'ilgandagina xarid qilinadi.

"JIT" hisob tizimi ishlab chiqarilayotgan turkum miqdorini, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini kamaytirish, tovar-moddiy zaxiralar hajmini eng kam darajaga keltirish va ishlab chiqarish buyurtmalarini oylar va haftalar bo'yicha emas, balki kunlar va soatlar bo'yicha bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tizimni qo'llash vaqtida korxona xarajatlarining bir qismi bevosita doimiy xarajatlar guruhidan o'zgaruvchan xarajatlar tarkibiga o'tadi. Natijada, ma'muriy xarajatlar kamayib, bo'linmalarning o'z faoliyatlar natijalari uchun javobgarligi, o'z navbatida esa moddiy manfaatdorligi ham ortadi. Masalan, "JIT" tizimi bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etish sharoitida ishlab chiqarish liniyalarida ishchilar texnik xizmat, ta'mir va sozlash ishlarini ham bajarishlari kerak bo'ladi, aslida bularni boshqa ishchilar bajarishlari va bilvosita xarajatlarga kiritishlari lozim edi. Bu holat mahsulot birligi tannarxining aniqligini oshirishga imkon beradi.

"JIT" tizimini qo'llash xizmat sifatini ko'tarishga va bahoni aniq belgilashga imkoniyat tug'diradi, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish jarayonini soddalashtiradi, mahsulot sifatini yaxshilash, an'anaviy boshqarishda menejerlarga yordam beradi. Bu jarayonning soddalashishi ishlab chiqarish hisobi tizimini bahoni boshqarish tizimiga aylantiradi. "JIT" hisob tizimida materiallar va tugallanmagan ishlab chiqarish hisobi bitta yaxlit schyotda olib boriladi. Bunday sharoitda materiallar, ombordagi zaxiralar ustidan nazorat uchun alohida schyotdan foydalanish o'z dolzarbligini yo'qotadi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standartiga binoan moddiy boyliklar harakati bo'yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

*1. Pudratchilardan moddiy zaxiralarining kelib tushishi:*

Debet - "Materiallar hisobi" schyotlari

Kredit - "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" schyoti.

*2. Tovar-moddiy zaxiralar omborxonadan ishlab chiqarishga berildi:*

Debet «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti  
Kredit "Materiallar hisobi" schyotlari.

*3. Tayyor mahsulotlar omborga qabul qilindi:*

Debet «Tayyor mahsulotlar hisobi» schyoti  
Kredit «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti.

*4. Tayyor mahsulotlarni jo'natish va sotish:*

Debet - “Cotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisobi” schyoti

Kredit “Tayyor mahsulotlar hisobi” schyoti.

Ko‘plab firmalar sotib olishni tashkil etishda materiallarni xarid qilish bahosidan chetlanishlar hisobiga asosiy e’tiborni qaratadilar. Tegishli chegirishlar bilan katta miqdordagi materiallarni sotib olish yoki past sifatli mahsulot sotib olish hisobiga, odatda, hisob-kitob bahosidan maqbul tarzda chetlanishlarga erishiladi. “JIT” hisob tizimi sharoitida esa faqatgina sotib olish baholari darajasiga emas, balki materiallarning sifatiga, nafliligiga va umumiy qiymatiga katta e’tibor beriladi.

Ishlab chiqarish an’anaviy tashkil etilgan ko‘plab korxonalarda boshqaruvin hisobi sohasidagi muammolarning aksariyat qismi mehnat va boshqa xarajatlar bo‘yicha normativ xarajatlar hisobini joriy etish, shuningdek, ular bo‘yicha chetlanishlar hisobini yuritishni tashkil qiladi. “JIT” hisob tizimi bo‘yicha ishlaydigan kompaniyalarda “ishchi kuchi va qo‘sishma xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar hisobiga e’tibor susayadi. Chetlanishlar tahlilidan foydalanish korxona darajasida saqlanib qoladi, biroq har bir muayyan hodisa uchun chetlanishlarning mutlaq ahamiyati nuqtai-nazaridan asosiy e’tibor ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishning ma’lum tendentsiyalari hisobiga o’tadi”.

### 7.3-jadval.

#### Bevosita va bilvosita xarajatlarning tasniflanishi

T/ r	Xarajatlarning turlari	Xarajatlar turlari	
		Hisobning an’anaviy tizimida	“JIT” hisob tizimida
1.	Mehnat xarajatlari	Bevosita	Bevosita
2.	Moddiy xarajatlar	Bevosita	Bevosita
3.	Materiallarni qayta ishslash	Bilvosita	Bevosita
4.	Ta’mirlash va texnik xizmat	Bilvosita	Bevosita
5.	Energiya ta’minoti	Bevosita	Bevosita
6.	Joriy xarajatlar	Bilvosita	Bevosita
7.	Sifat kuzatuvi	Bilvosita	Bevosita
8.	Binolar va inshootlar amortizatsiyasi	Bilvosita	Bilvosita
9.	Sug‘urta to‘lovlari, soliq va yig‘imlar	Bilvosita	Bilvosita
10.	Binolar ijerasi	Bilvosita	Bilvosita
11.	Texnologik jihozlar amortizatsiyasi	Bilvosita	Bevosita
12.	Ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish	Bilvosita	Bilvosita

Hisobning an’anaviy tizimida bilvosita xarajatlarga kiritiladigan ko‘pgina xarajatlar “JIT” hisob tizimida bevosita xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligining e’tirof etilgan an’anaviy ko‘rsatkichlari (masalan, mahsulot ishlab chiqarish normasining bajarilishi va uskunalardan foydalanish koeffitsienti) “JIT” hisob tizimidagi bahoni boshqarish tamoyillari doirasiga kiritilmaydi.

Bunday nomuvofiqlik:

1)korxonaning rejalahshtirilgan zaruriy ehtiyojlarini inobatga olmasdan moddiy boyliklar zaxiralarini ortiqcha to‘planishiga sabab bo‘ladi;

2)me’yoriy ko‘rsatkichlar asosida samaradorlikni baholash natijasida sotish hajmi va mahsulot sifatiga qaraganda ishlab chiqarish hajmining ustuvorligiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytiradi.

“JIT” hisob tizimi quydagi ko‘pgina afzalliklarga ega:

– uni qo‘llash tovar-moddiy zaxiralarining ortiqcha to‘planishib qolishini oldini oladi.

– korxona faoliyatida “JIT” hisob tizimidan foydalanish olingen buyurtmalarni bajarilish imkoniyatlarini oshiradi, chunki bunda materiallarni xarid qilish va saqlashga kam vaqt sarflanadi. Buyurtmalarni bajarish jarayonining soddalashishi aylanma mablag‘larni ham ancha tejalishini ta’minlaydi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish grafigi bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi qisqaradi. Bu holat esa korxonaga bozor kon'yunkturasi talablaridan kelib chiqqan holda vaqtadan yutishga imkon beradi.

Bunda korxonaga foydali bo‘lgan va bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga tezkor o‘tish munosabati bilan mayda turkumli mahsulotlarni ishlab chiqarishning ham yuqori moslashuvchanligiga erishiladi.

Mazkur tizimni joriy etishda mahsulot sifatining yaxshilanishi kuzatiladi. Buyurtma berilgan mahsulot miqdori katta bo‘limganda sifat bilan bog‘liq muammo tez hal bo‘ladi va tuzatishlar zudlik bilan kiritiladi.

Yuqoridagilardan tashqari “JIT” hisob tizimining boshqa afzalliklari ham mavjud:

– tovar-moddiy zaxiralarining to‘planib qolish xavfi kamayadi;


– materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari uchun omborxonalarni saqlashga sarflanadigan ma’muriy xarajatlar qisqaradi;

– mahsulot sifatini oshirish hisobiga asosiy material xarajatlari qisqaradi;

– yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish tufayli zarar ko‘rish ehtimoli va qayta ishlash xarajatlari kamayadi.

Shu bilan birga, “JIT” hisob tizimi ishlab chiqarish hisobi xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Uni qo‘llash orqali bilvosita xarajatlarni kamaytirishga e’tibor kuchayadi. Bunday hol xarajat turlari o‘rtasida turli taqsimot bazalaridan foydalanish zaruratini kamaytiradi, shu bilan birga xarajatlар kalkulyatsiyasining aniqligi ortadi.

**«ABC» tizimi bo‘yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish**



### 7.1-chizma. ABC tizimi bo‘yicha xarajatlar hisobi

ABC hisob tizimi (“Activity-Based Costing”) javobgarlik markazlari bo‘yicha tannarx hisob-kitobini “Direkt-kosting” usulidagi kabi doimiy (fixed costing) va o‘zgaruvchan (variable costing) xarajatlarga bo‘lib hisobga olishni, ammo asosiy e’tiborni faoliyat turlari va funksional xizmatlarga qaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur tizim bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, jumladan Yevropa va Amerika korxonalarini amaliyotida keng qo‘llaniladi.

Umuman, ABC tizimi faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar hisobini (xarajatlarning funksional hisobi) anglatadi (7.1-chizma). Keltirilgan chizmadan ko‘rinib turibdiki, ABC tizimi ustama xarajatlar dinamikasi va mazkur xarajatlar turlarining kelib chiqish sabablarini, shuningdek ularni tayyor mahsulot qiymatiga kiritish tartibini hisobga olishga imkon beradi.

O‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi, ular ishlab chiqarish xarajatlarini aks ettiradi. Doimiy xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmaydi, balki ma’muriy-boshqaruv xarajatlar sifatida moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadi, biroq amalda korxona faoliyatini yuritish uchun bozorni tadqiq etish, mahsulotlarni uzoq muddat bilan ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish talab etiladi. Shu bois, hisob-kitoblarda marginal xarajatlar va daromadlar yaxshi natija berishiga qaramay, “Direkt-kosting” tizimini qo‘llash faqat quyidagi sharoitlardagina samara berishi ma’lum bo‘ldi:

*Birinchidan*, korxonaning bevosita xarajatlari umumiyligi xarajatlarning asosiy qismini tashkil etishi zarur.

*Ikkinchidan*, korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotni assortimenti va buyurtmalarning sonini oshirib yuborilmasligini nazorat qilish lozim. Bunday talablar qo‘yilganda xarajatlar hisobining avvalgi tizimi korxonaning yangi strategik boshqaruv siyosatiga javob bera olmay qoldi.

Bozor talabi va raqobat muhitiga moslashish uchun mahsulot assortimenti va sifatini keskin oshirish lozim bo‘ladi. Natijada, korxonada ustama xarajatlarning ikkita turi: yordamchi ishlab chiqarishlar va boshqaruv bo‘linmalarini asrash bilan bog‘liq xarajatlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Bunda buyurtmalarni va maxsus komponentlarni ishlab chiqarish xarajatlarga e’tibor qaratiladi.

Buyurtmalarni ishlab chiqarish xarajatlari shartnomalar tuzish bo‘yicha muzokaralar olib borish, buyurtmalar qabul qilish, schyotlar yozib berish, yuklarni jo‘natish va qayta ishlash kabi xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Maxsus komponentlar ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning yangi turini ishlab chiqarish uchun xarid qilinadigan yordamchi materiallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlarni keltirish bo‘yicha shartnomalar tuzish, ishlab chiqarishni nazorat va ekspertiza qilish, naryadlar yozish xarajatlari kiritiladi. AQSHning EMW

kompaniyasi misolida ko‘radigan bo‘lsak, maxsus komponentlarni ishlab chiqarish jarayonida har bir komponent uchun alohida naryad to‘lg‘azish talab qilingan. Natijada yil davomida o‘ndan ortiq ishlab chiqarish tsiklida 30000ta turli xil maxsus komponentga 325000 AQSH dollarlik naryadlar to‘lg‘azilgan.

Agar korxona bunday sharoitda bozorni chuqur o‘rganmasa, tannarx va baho ko‘rsatkichlarining nomutanosibligi muqarrar tusni oladi ya’ni mayda turkumli mahsulotga past baho, yirik turkumlilarga yuqori baho belgilanadi, natijada texnologik oddiy mahsulotga qaraganda murakkab va innovatsiya talab qiladigan mahsulotlarning foydaliligi yuqori bo‘lib ko‘rinadi.

Binobarin, boshqaruv hisobining asosiy vazifalarini hal etish uchun xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchanga bo‘lish usulini qo‘llash hamma sohada ham samara beravermagach, xarajatlar haqida ishonchli axborotni olishning yangi usullarini qidirib topish ABC hisob tizimining paydo bo‘lishiga olib keldi.

ABC tizimida korxona ishchi operatsiyalar to‘plami deb qaraladi. Ish jarayonida resurslar iste’mol qilinadi (materiallar, ish haqi, jihozlar) va muayyan natija yuzaga keladi. Resurslardan foydalanishi hisobga olgan holda parallel ravishda murakkab ishchi operatsiyalarini eng oddiy qismlarga bo‘lib chiqish yo‘li bilan korxonadagi ishlar miqdori va ketma-ketligini aniqlash “ABC”ni qo‘llashning *boshlang‘ich bosqichi* hisoblanadi.

ABC doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga qarab ishlar to‘rtta tarkibiy qismiga ajratiladi: Unit Level (donali ish), Batch Level (to‘plamli ish), Product Level (mahsulotli ish) va Facility Level (umumishlab chiqarish xarajatlari). Bunday tasnif xarajatlar va turli ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasidagi quyidagi bog‘liqlikni o‘rganishga asoslanadi: mahsulot birligini ishlab chiqarish, buyurtmani ishlab chiqarish, mahsulotni ishlab chiqarish.

jadval.

### Xarajatlarni samarali boshqarish tizimlarini qiyosiy

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari	Illi va ularni sut sanoatida qo‘llash imkoniyatlari Kamchiligi	Samarali qo‘llanilish sohali
1	<p><b>“Direkt-kosting” hisob usuli (oddiy va rivojlangan)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xarajatlarni me‘yorlashtirish, rejalahsilish, hisobga o‘sish va nazorat qilishning soodalashishiga;</li> <li>- hisobning qo‘shimcha imkoniyatlarini paylo bo‘lishi;</li> <li>- hisob ma‘lumotlari asosida ishlab chiqarishni operativ boshqarish imkoniyati;</li> <li>- mahsulot tannarxini aniqlashning oddiy va soddalig;</li> <li>- mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajmini, ishlab chiqarish va moliyaviy dastaklar samarasini, moliyaviy chidamlik zaxirasini aniqlash imkoniyati;</li> <li>- baholarni quyi chegarasini belgilash imkoniyati.</li> </ul>	<p><b>4</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xarajatlarni doimiy o‘garuvchanga asosli ravishda ajarishda muammollar tug‘ilishi;</li> <li>- ustama xarajatlarni taqsimlashda muammoning yechilmay qolishi;</li> <li>- mahsulotlar to‘liq tannarxini aniqlash zaruratining saqlanib qolishi;</li> <li>- soliqlar hisobi bilan bevosita aloqa va bog‘lanishning mavjud emasligi.</li> <li>- hisob yuritish qiyin, chunki bevosita o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot turari bo‘yicha, ularning ayrim qismi esa javobgarlik markazlari bo‘yicha rejalashtiriladi;</li> <li>- suini qayta ishlovchi mini korxonalar;</li> <li>- ir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar.</li> </ul>
	<p><b>“Standart-kost” hisob usuli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yuqori aniqlikda tannarxni kalkulyatsiya qilinishi;</li> <li>- xarajatlarni operativ nazorat qilinishi;</li> <li>- boshqaruvchilarni kuilayotgan hara-jattlar va daromadlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlashi.</li> </ul>	<p><b>3</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xarajatlarni doimiy o‘garuvchanga asosli ravishda ajarishda muammollar tug‘ilishi;</li> <li>- ustama xarajatlarni taqsimlashda muammoning yechilmay qolishi;</li> <li>- mahsulotlar to‘liq tannarxini aniqlash zaruratining saqlanib qo‘llash mayjud.</li> </ul>

	- normativlarning asoslanganligi;  ABC ("Activity-Based Costing) Xarajatlarning funktional hisobi usuli	- faoliyat turari bo'yicha hara-jatharni guruhlash imkoniyati; - mahsulot tannarxi tarkibida o'zgaruvchan xarajatlarning salmog'i yuqori bo'lishi ta minianib, buyurtmalari soni va mahsulot assortimentini oshirib yuborilmasligini nazorat qiladi;  - ustama xarajatlarni imkoniyat darajasida aniq taqsimlash va nadijada tannarxni hisoblashni amalga oshirilishi.	- normativlarni doimo yangilib turish zarurligi.  nazorat qilinmasligi.	- normativlarni doimo yangilib turish zarurligi.
	SCA (Strategic Cost Analysis) Xarajatlarni strategik tahlil qilish usuli	- mahsulot sifatini kompleks boshqarish tarmoyili (TQM) asosida mahsulot sifatini va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish; - iste'mol qiymati (xaridorming yutug'i)ni shakllantirish zanjiri yordamida raqobatchilar ustididan bargator mayqega ega bo'lish; - ustama xarajatlarni mini-mallashtirish; - fan-tehnika taraqiyotini o'rga-nib borish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish.	- korxonalarda mahsulot sifa- tini tahlil qilishni amalga o'shiring mayotganligi; - an'anaviy buxgalleriya hisobida xarajatlar me'yordamini bozor sharqitangiga moslab istiqbolli tuzatish borilmashligi; - rejalshtirilgan xarajatlardan keskin cheitanish- lamning mavjudligi, xomashyo va materiallar baholarining tez-lez o'zgarib turishi.	- sutni qayta ishlash korxonalarini va iqisodiyotning boshqa ishlab chiqarish sohalari.

198

Bunda xarajatlarning ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lgan yana bir muhim kategoriyasi hisobga olinmaydi, bu butun korxona faoliyatini ta'minlovchi xarajatlardir.

Bunday xarajatlarni hisobga olish uchun ishlarning to'rtinchи toifasi - Facility Level (umumishlab chiqarish xarajatlari) kiritiladi.

Dastlabki uch toifa, aniqrog'i, ularga sarflangan xarajatlar bevosita ma'lum bir mahsulotga tegishli bo'lishi mumkin, biroq umumishlab chiqarish xarajatlari natijalarini biron-bir mahsulot turiga tegishli qilib ko'rsatib bo'lmaydi, shu bois, ularni taqsimlash uchun turli arifmetik hisob-kitoblardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Faoliyat turiga sarflangan hamma resurslar uning qiymatini tashkil etadi. Korxonaning barcha faoliyat turlari ularni boshqarish uchun sarflangan xarajatlar bilan solishtirib chiqilishi kerak. Ko'pincha xarajatlar moddasi qaysidir bir faoliyat turiga mos keladi. Masalan, "Ta'minot bo'limi ish haqi" "Ta'minot" ishi jarayoni qiymatiga kiradi.

Shu bilan birga "Boshqaruv binosi ijaras" xarajat moddasi mutanosib ravishda "Ta'minot", "Ishlab chiqarish", "Marketing" va h.k. xarajat moddalari bo'yicha taqsimlab chiqilishi kerak.

ABC tizimiga ko'ra faoliyat turining natijasi kost-drayer indeks o'lchamiga, ya'ni taqsimot bazasiga ega bo'lishi muhimdir.

Masalan, «Ta'minot xarajatlari moddasi uchun» "Sotib olishlar miqdori" kost-drayer bo'la oladi, "Sozlash" moddasi uchun - "Sozlashlar miqdori".

ABCni qo'llashning ikkinchi bosqichi kost-drayer hisob-kitobi va ularning har bir resurslarini iste'mol qilish ko'rsatkichlaridan iborat. Bu ko'rsatkich ish bajarilishi birligi qiymatiga ko'paytiriladi.

Mahsulot tannarxini hisoblash jarayoni - ABC tizimini amaliyotga qo'llashning uchinchi bosqichini tashkil etadi.

Korxonani faoliyat turlari va funksional xizmatlarini ABC tizimida hisobga olish, shuningdek investitsiyalash, xodimlar hisobi, kadrlarni boshqarish kabi sohalari faoliyatini sifatli baholashga imkon beradi.

### «SCA» tizimi bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish

SCA (Strategic Cost Analysis) – xarajatlarni strategik tahlil qilish tizimi boshqaruv hisobining muhim elementi sifatida 90-yillarda paydo bo'ldi. Mazkur hisob tizimining asosiy tarkibiy qismi va markaziy ob'ekti – iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri (value chain) hisoblanadi.

Iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri usulida har bir tarkibiy bo'linma oldiga iste'mol qiymatini hozirgi darajada saqlagan holda xarajatlarni kamaytirish yoki xarajatlarni ko'paytirmagan holda iste'mol qiymati (daromad)ni oshirish imkoniyatini qidirish vazifasi qo'yiladi.

Zanjirning har bir halqasi ishlab chiqarish jarayonida zarurligi, shuningdek iste'mol qilinadigan resurslar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, shundan so'ng aniq muomalani bajarish qiymatini tavsiflovchi o'lcham – Cost Driver (kost-drayver) aniqlanadi. Kost-drayver va qiymatni shakllantirish zanjirini qayta qurish natijasida raqobatchilar ustidan barqaror mavqega ega bo'lishga harakat qilinadi. Bundan tashqari boshqaruv hisobi korxonani keskin raqobat sharoitida marketing maqsadlariga bo'ysunishiga olib keladi.

An'anaviy boshqaruv hisobida yagona kost-drayver bo'lib mahsulot hajmi hisoblansa, xarajatlarni strategik tahlil (SCA) qilish usulida ikkita: tarkibiy va operatsion kost-drayverlar ko'rib chiqiladi. Tarkibiy kost-drayverning beshta mezoni mavjud:

- ishlab chiqarishning ko'lami (ishlab chiqarishga, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (ITTKI) va marketingga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi);
- ta'sir doirasi (vertikal integratsiya darajasi);
- tajriba (kutilayotgan muomalalarni amalga oshirishning avvalgi iqtisodiy tajribasi natijasi qanday bo'lgan?);
- texnologiyalar va ularning xususiyatlari;
- murakkablik (mahsulot (ish, xizmatlar) nomenklaturasining kengligi).

Operatsion kost-drayverlar korxonaning tarkibiy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashishi bilan tavsiflanadi. U ham o'z navbatida quyidagi bo'laklarga bo'linadi:

- xodimlarni jalb etish – korxonaning umumiy maqsadiga erishish uchun xodimlar qay darajada bu ishga jalb etilgan;
- umumiy sifat nazorati (TQM – Total Quality Management);
- quvvatlardan to'liq foydalanish darajasi;
- mahsulotlarning konstruktsiyasi;
- mol yuboruvchi va xaridorlar bilan aloqalar.

Agar an'anaviy bahoning shakllanishini asosi qilib, mahsulot tannarxi olinsa, korxonaning mahsulot hajmi va chakana bahosi bazasida – «maqsadli tannarx» nomli bizga notanish bo'lgan yangi

kategoriya tug'iladi. Shunday qilib, xarajatlarni strategik boshqarishga ishlab chiqarish hajmini nazorat qilish, xarajatlarni iqtisod qilish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari, sotish va reklama xarajatlarini minimallashtirish orqali erishiladi.

*Misol.* Kompaniya videotexnika ishlab chiqarish jarayonida videomagnitonlarni takomillashtirib, o'z-o'zini tozalab boruvchi qalpoqchalar bilan jihozlashi uchun 10 AQSH dollari qo'shimcha mablag' sarflaydi. Bu an'anaviy boshqaruv hisobi nazariyasi bo'yicha ortiqcha xarajatdir. Agar xaridor qalpoqchani o'zi sotib olsa, bu unga yilinga 20 AQSH dollariga tushadi. Videomagniton 5 yil xizmat qilsa, demak xaridor 100 AQSH dollari qo'shimcha mablag' sarflaydi. Ishlab chiqaruvchi shuni inobatga olib, iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri qoidasiga binoan ( $100-10=90$ ) 90 AQSH dollari iqtisod qilinadigan mablag' hisobidan bahoni 10 AQSH dollariga oshirishi mumkin.

Demak, korporativ strategiya korxona erishishni maqsad qilib qo'yan strategik maqsadlar to'plami bo'lib, ularni amalga oshirish natijasida korxonada bajariladigan ishlar modelini tuzish, korporativ strategiyani ro'yobga chiqarishda korxona biznes jarayonining qayta tashkil qilinishini ta'minlaydi.

#### 7.4. Funktsional - qiymat tahlili usulini boshqaruv hisobida qo'llash

**Funktsional qiymat tahlili (FQT) usuli** ob'ekt (mahsulot, jarayon, tuzilma)ni tizimli tadqiq qilishning sifat va foydaliligini oshirgan holda uni loyihalash, ishlab chiqish va foydalanish sohalarida xarajatlarning eng kichik miqdorini ta'minlovchi usuldir.

FQT iqtisodiy tahlilning istiqbolli usuli sifatida boshqaruv hisobining muhim tarkibiy qismi va vositasи hisoblanadi.

Raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'z iqtisodiy faoliyatini tashkil etishda doimo ichki va tashqi omillar ta'siriga duch keladi. Bu kabi holatlar har bir korxona va firmaga moliyaviy-xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish asosida oqilona boshqaruv qarorlari, chora-tadbirlarini qabul qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu masalalarni hal etishga FQT usulini qo'llash asosida osongina erishish mumkin. FQT usulidan jahon iqtisodiyotida, xususan, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng foydalanilib kelinmoqda.

Xorij amaliyotida funktsional qiymat tahlilidan "qiymat tahlili" va "muhandislik qiymat tahlili" nomi ostida foydalanilmoqda. Birinchи

atamada so'z mavjud mahsulotlar tahlili haqida borsa, ikkinchisi – yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihalashtirilayotganda qo'llaniladi, biroq, har ikki turdag'i tahlilning maqsadi bir: ikkalasi ham oz miqdordagi xarajatlar hisobiga mahsulotlarning muqobil sifatlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni izohlash uchun xorij amaliyotida “boylikka rahbarlik qilish” yoki “boylikni boshqarish” atamalari tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Dastlab funksional qiymat tahlili usuli faqat ortiqcha xarajatlarni aniqlashning muhim vositasi hisoblangan. Biroq, undan hozirgi kunda mahsulotlarni loyihalashtirish va ishlab chiqarish jarayonida turli tadbirlarni tashkil etish va boshqarish sohasida samarasiz boshqaruv qarorlari qabul qilishni bartaraf etish maqsadida keng foydalanila boshlandi.

Funksional qiymat tahlili usuli mahsulot ishlab chiqarish va u bilan bog'liq boshqa xarajatlarni pasaytirishda foydalaniладиган usullardan tubdan farq qiladi, chunki, u funksional yondashuvni nazarda tutadi. Bu yondashuvning mohiyati ob'ektni muayyan shaklda emas, balki u bajaradigan funksiyalar nuqtai-nazaridan tahlil qilib chiqishdir.

Funksional yondashuv nafaqat buyurtmachilarining muayyan ehtiyojlarini o'rganish, balki bu ehtiyojlarni miqdor va sifat jihatlarini chuqurroqtahlil etish, ularni ishlab chiqarishga muvofiqlashtirish talab qiladi.

Funksional qiymat tahlilida funksiya deyilganda, munosabatlarning ayni tizimida biron-bir ob'ekt xususiyatini tashqi tomondan namoyon bo'lishi tushuniladi.

Funksional qiymat tahlilining ob'ekti sifatida uning funksiyalari (mahsulotlar va jarayonlarning iste'mol xususiyatlari) ya'ni, iste'mol qiymati, nafliliq bilan bu funksiyalarni yaratishga sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtaсидаги munosabat tushuniladi.

FQTning predmeti esa aniq mehnat mahsuli (mahsulotlar va jarayonlar)ning iste'mol qiymati va qiymati o'rtaсидаги sabab-oqibat aloqasi hisoblanadi.

Funksiyalar ob'ektiga qarab asosiy, yordamchi va keraksizlarga bo'linadi.

Asosiy funksiyalar xarajatlarni ularning qiymati va iste'mol qiymati nuqtai nazaridan tahlil etishdan iborat. Yordamchi funksiyalar deyilganda asosiy funksiyalarni bajarishga yoki ularni to'ldirishga imkon beruvchi funksiyalar tushuniladi. Keraksiz funksiyalar

tuzilmaning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi, aksincha, ob'ektning texnik jihatlari va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi.

FQT usulini iqtisodiyotning ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq kabi sohalariga samarali joriy etish imkoniyati mavjud.

Funksional qiymat tahlili bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Dastlabki, tayyorgarlik bosqichida asosiy tahlil ob'ekti hisoblangan xarajatlar manbai aniqlanadi. Bu jarayon ayniqsa, ishlab chiqaruvchining resurslari cheklanganda alohida ahamiyatga ega. Masalan, ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni takomillashtirish, ularga ishlov berish korxonaga kam miqdorda ishlab chiqariladigan boshqa qimmatroq mahsulotga qaraganda ko'proq foydali bo'lishi mumkin. Boshqalariga nisbatan tannarxi arzon va sifati yuqoriq mahsulot turi topilsa, mazkur bosqich tugallangan hisoblanadi.

Ikkinci, axborot bosqichida tadqiq qilinayotgan ob'ekt va uni tashkil etuvchi qismlar (materiallar, mahsulot tannarxi) to'g'risidagi ma'lumotlar to'planadi. Bu ma'lumotlar ochiq axborot tarmog'i orqali korxonaning konstrukturlik, iqtisodiy bo'linmalari va iste'molchilaridan tegishli xizmatlarning rahbarlariga bir necha yo'nalishlar bo'yicha kelib tushadi. Iste'molchilarining talablari bo'yicha ma'lumotlar korxonaning marketing bo'limida jamlanadi. Tahlil jarayonida dastlabki ma'lumotlarga qayta ishlov beriladi va ular barcha manfaatdor bo'linmalardan o'tgandan so'ng sifat va xarajatlarning tegishli ko'rsatkichlari loyiha rahbariga taqdim etiladi.

Uchinchi, tahliliy bosqichda mahsulot funksiyasining (uning tarkibi, foydalilik darajasi) qiymati va ikkinchi darajali foydasiz funksiyalarni kompleks tahlil qilish imkoniyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahsulotning qismlari nafaqat texnik, balki tarkibiy, estetik va boshqa jihatlardan ham tahlil qilinadi.

Ushbu tahlilni Ayzenxauerning ABC tamoyilidan foydalanib muvafaqqiyatli amalga oshirish mumkin. Bunga ko'ra funksiyalar:

- bosh, asosiy va foydalilarga (A);
- ikkinchi darajali, yordamchi va foydalilarga (V);
- ikkinchi darajali, yordamchi va foydasizlarga (S) bo'linadi.

Bunda funksiyalarni amalga oshirishda taqsimlash jadvalidan foydalaniladi.

Ushbu jadvalga asoslanib, ikkinchi darajali va foydasiz funktsiyalar hamda xarajatlar olib tashlanadi. Bunda yakuniy jadvalga ikkinchi darajali yordamchi, foydasiz funktsiyalar, ularning tarkibiy qismi kiritiladi. Bu ularning zarurligi to‘g‘risida dastlabki xulosa qilishga imkon beradi.

#### 7.5-jadval

**ABC tamoyiliga binoan “A” mahsulot bo‘yicha xizmat funktsiyalarini taqsimlash**

Tarkib toptiruvchi bo‘linmalar	Funktsiyalar				Bo‘linmalar bo‘yicha jami	Dastlabki xulosa
1.	A	V	V	S	1S	-
2.	V	S	A	S	2S	Takomillash-tirish kerak
3.	V	A	V	S	1S	-
4.	S	V	V	A	1S	-
Funktsiyalar bo‘yicha jami	1S	1S	-	3S	-	-
Dastlabki xulosa	-	-	-	Tugatish kerak	-	-

Shundan keyin smeta yoki undan muhimroq moddalarni tashkil etuvchi bo‘linmalar xarajatlari bo‘yicha jadval tuziladi va har bir bo‘linmaning funktsiyalarini ta‘minlashga sarflanadigan xarajatlar rejalashtiriladi. Bu mahsulot konstruktsiyasiga, ishlab chiqarish texnologiyasiga o‘zgartirishlar, o‘z mahsuloti qism va bo‘linmalaridan olingan butlovchi qismlarni almashtirish, bir materialni qayta ishlashda ancha arzon va tejamli, boshqasi bilan almashtirish yo‘li bilan xarajatlarni kamaytirishning yo‘nalishlari, ularni etkazib berish miqdorlarini aniqlash imkonini beradi va h.k.

Ishlab chiqarish omillari bo‘yicha funktsiyalarga sarflangan xarajatlarning guruhlashтирishi mahsulot qiymatini pasaytirish, yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday yo‘nalishlarni ekspert yo‘li bilan aniqlashda xarajatlarni zanjirli bog‘lanish usuli asosida qiyoslagan holda tartiblashtirish, mahsulotni arzonlashtirish yo‘lini tanlash lozim. Buning uchun 7.6-jadvali tuziladi.

Mazkur jadval umumiy xarajatlardagi funktsiyalarga sarfiangan barcha xarajatlarning oqilonal salmog‘i va unga mos keluvchi funktsiya ahamiyatliliginini taqqoslab, funktsiyalar bo‘yicha xarajatlar koefitsientini aniqlash imkonini yaratadi (4-ustun). Bunda,  $K_{2,1} \geq 1$  ga

qaraganda  $K_{3,4} \leq 1$  foydaliroq deb tanlanadi. Mazkur koefitsientning birdan katta bo‘lishi ushbu funktsiyaning samaradorligini oshirish zaruratini bildiradi. Bizning misolimizda ahamiyati jihatidan 30 % bo‘lgan funktsiya shunday funktsiya hisoblanadi.

#### 7.6-jadval.

**Funktsiyalarning ahamiyatliligi va ular  
qiymati koefitsientini taqqoslash**

Funktsiya-lar darajasi	Ahamiyat-liligi, %	Umumiy xarajatlardan funktsiyalarga sarflangan xarajatlarning solishtirma birligi, %	Funktsiyalarga sarflangan xarajatlar koefitsienti (K)
1	2	3	4
1	40	40	1,00
2	30	50	1,67
3	20	7	0,35
4	10	3	0,30
Jami	100	100	-

FQTning iqtisodiy samaradorligini quyidagi formula yordamida hisoblab, xarajatlar imkoniyat darajasida kichik hajmga ega bo‘lgan sharoitda, ularni pasaytirish qanday miqdorga egaligini aniqlaymiz:

$$K_{FQT} = \frac{Z_p - Z_m}{Z_m} \quad (5)$$

bu yerda,

$K_{FQT}$  - FQTning iqtisodiy samaradorligi (joriy xarajatlarning pasayish koefitsienti);

$Z_p$  - haqiqatda qilingan xarajatlar yig‘indisi;

$Z_m$  - mahsulotning loyiha bo‘yicha sarflanadigan minimal xarajatlari.

**To‘rtinchi bosqich** tadqiqot bosqichi hisoblanib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotning taklif etilayotgan variantlari baholanadi.

**Beshinchi bosqich** xulosa va tavsiyalar bosqichi bo‘lib, unda mahsulotni ishlab chiqarish va takomillashtirishning mazkur ishlab chiqarish uchun maqbul bo‘lgan variantlari ajratib olinadi. (7.7-jadval).

Ushbu jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish variantlarini tanlashda A, V, S va D mahsulotlarni ishlab chiqarishga e’tibor beriladi. Ularda funktsiyalarning ahamiyati va ishlab chiqarish rentabelligi ko‘rsatkichlari yuqori va qo‘yilgan taiablarga javob beradi.

Mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlari past bo‘lgan sharoitda funksiyalarning faoliyati yuqori bo‘lganda, rentabellik darajasi yuqori bo‘ladi.

Bularning barchasi ishlab chiqarishga muayyan mahsulotni yoki yo‘nalishlarni va ularni qiyoslash miqyosini tanlash haqida qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

FQTning so‘nggi bosqichi, tahlil natijalarini amaliyotda qo‘llash hisoblanadi. Bunda:

- mahsulotning tajriba namunalarini tayyorlash uchun chizmalar ishlab chiqish;
- maxsus moslama va asbob-uskunalarni tayyorlash hamda loyihalashtirish;
- tajriba nusxalarini tayyorlash va sinovdan o‘tkazish;
- konstruktsiyalarni o‘zgartirish uchun texnik hujjatlarni ishlab chiqish;
- buyurtmachi, muallif va ixtirochilar bilan amaliyotdagi o‘zgarishlarni kelishib olish.

#### 7.7-jadval.

##### Ishlab chiqarish uchun mahsulotlarni tanlash variantlari bo‘yicha qarorlar qabul qilish

Ko‘rsatkichlar		Xarajatlar			Boshqaruv qarorlari variant lari
		Past	O‘rtacha	Yuqori	
Funksiya larning ahamiyati	Yuqori	A Mahsulot rentabelligi yuqori	V Mahsulot rentabelligi o‘rtacha	S Mahsulot rentabel-ligi o‘rtacha	Maqbul
	O‘rtacha	D Mahsulot rentabelligi yuqori	E Mahsulot rentabelligi o‘rtacha	F Mahsulot rentabel ligi past	Bahsli
	Past	G Mahsulot rentabelligi o‘rtacha	H Mahsulot rentabelligi past	J Mahsulot rentabel-ligi past	Nomaqbul

Boshqaruv hisobida xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo‘yicha hisob yuritilganda hamda ABC usuli qo‘llanilganda FQT tizimi yuqori samara beradi.

#### 7.5. Boshqaruv samaradorligining muhim ko‘rsatkichlari hisoblashda KPI usulining o‘rn ni va ahamiyati

Paxta-to‘qimachilik klasterlari kooperatsiyasida ishtirot etayotgan korxonalarining samaradorligini muhim ko‘rsatkichlari (KPI usuli – “Key performance indicators”)ni joriy etishni tavsiya etamiz. Buning boisi, mazkur usul xalqaro amaliyotda keng joriy qilingan bo‘lib, uning mohiyati – ishchi xodimlar, menejerlar, texnik yordamchi xodimlar mehnatini natijavisi rag‘batlantirishdan iboratdir.

Iqtisodchi olma E.Ukolovaning taklificha, xodimlarni rag‘batlantirishning KPI usuli 3 variantdan iborat bo‘lishi zarur:

- ish haqi (oklad bo‘yicha);
- yumshoq ish haqi (oklad bo‘yicha);
- KPI va bonus.

Rag‘batlantirish(motivatsiya)ning taxminiy nisbatini 100% deb olsak, uning 30%ni ish haqiga nisbatan, 10%ni yumshoq ish haqiga nisbatan va KPI hamda bonus 60%ni tashkil etishi lozim.

Agar xodimning ish haqiga nisbatan yil mobaynida 30%gacha qo‘srimcha to‘lov amalga oshirilsa, aksincha, yumshoq ish haqi deb nomlangan bir martalik 10%lik to‘lov xodimning mansab lavozimini sifatli va o‘z vaqtida bajarishiga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan, agar menejerlar uchrashuvlarni tayinlaydigan funksiyani bajarsalar, u holda KPI amalga oshirilgan qo‘ng‘iroqlar sonidan, suhbatning sifatidan iborat bo‘lishi mumkin. Odatta korxonada KPI indikatori tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning samaradorlik ko‘rsatkichlari talablari to‘liq bajarilgan taqdirda, bu xodimning maoshi 1 000 000 - 2 000 000 so‘mgacha qilib belgilanishi va to‘lanishi mumkin.

Agar korxona boshqaruvida amaldagi axborot bazasi bilan ishlaydigan menejerlar faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularning yumshoq maoshi bir martalik mukofot pulini tashkil etadi ya’ni bunday rag‘batlantirish mahsulot sotishlarning hajmini oshishiga qarab belgilanadi. Mabodo korxonaning sotish hajmi bo‘yicha debtorlik qarzları ortsa, yumshoq oklad bo‘yicha 10%li rag‘batlantirish to‘lovi amalga oshirilmaydi. Shuningdek, hisobot yili yakuni bo‘yicha menejerlar o‘zlariga yuklatilgan funksiyalarning 80%ini bajargan taqdirda, ularga 60% KPI va bonus to‘lanishi maqsadga muvofiqli.

### 7.8-jadval.

Paxta-to'qimachilik klasterlari segmentlari faoliyati samaradorligini baholashning muhim ko'rsatkichlarini rejalashtirish mezoni

	Ko'rsatkichlar	KPI rejasi	KPIning salmog'i
KPI 1	Sotish hajmiga nisbatan yoki mijozlarni qamrab olish darajasi bo'yicha reja, %da	100%	30%
KPI 2	Ballar bo'yicha reja	100 ball	30%
KPI 3	Faollikni oshirish bo'yicha reja (Yangi mijozlarga qilingan qo'ng'iroqlar soni)	100	40%

**Манба.** Скриптор - Андрей Смирнов. Что такое KPI? Ключевой показатель эффективности сотрудника. [https://www.youtube.com/watch?v=sl\\_rHN\\_7L70&t=648s](https://www.youtube.com/watch?v=sl_rHN_7L70&t=648s)

Menejerlarning oylik mukofoti va ish haqi hajmi ular tomonidan bajarilgan ishlarning sifat ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda KPI ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Klaster korxonasining boshqaruv tizimida tijorat ishlari bo'yicha direktori va shu kabi ma'muriy-boshqaruv xodimlari faoliyat yuritayotgan bo'lsa, KPI yangi mijozlar uchun alohida rejalar va biznes uchun muhim bo'lgan boshqa ko'rsatkichlarni qo'shimcha ravishda o'z ichiga olishi mumkin.

Korxonaning ta'minot, marketing va istiqbolli rejalashtirish bo'limlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash muhimdir. Bunda KPI ko'rsatkichini aniqlashda mavjud shartnomalar, mijozlar soni bilan yangi tuzilgan shartnomalar va mijozlar sonining o'rtacha miqdorlarini konversiya (ikki xil yo'nalish) shaklida baholash kerak bo'ladi.

Klaster tizimidagi korxonalarning sotish shahobchasi yani chakana savdo do'konini mavjud bo'lsa, u holda KPIda sotuvchilar faoliyati sotuv cheklaridagi xaridlarning sonidan boshlab, qabul qilingan tovarlarning sotilgan tovarlarga nisbatigacha bo'lgan ko'rsatkichlar kompleks ravishda baholanadi.

KPI ko'rsatkichlari xodimlarning lavozimi, vazifasi va tarmoq xususiyatlarini inobatga olib, alohida-alohida tuziladi hamda ular umumiy motivatsiya hajmining atigi 10 foizini tashkil qiladi. Unga yakuniy moliyaviy natijaga ta'sir qiluvchi muhim ko'rsatkichlar kiritiladi.

Agar biz top-menejerlar(yuqori darajadagi boshqaruvchilar) faoliyatini baholash maqsadida KPIni tarkibiga nazar tashlasak, odatda

bu ko'pincha masala va muammolarning yechimi bo'yicha "muhim, ammo shoshilinch emas" tamoyiliga rioya qiluvchi samaradorlikning muhim ko'rsatkichlaridan iborat bo'ladi. Bunga misol qilib, korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotning pasporti, loyiha hujjatlari, texnik chizmalari, buklet, prospekt, risola kabi ma'lumotnomalarni tayyorlash va tasdiqlatish jarayonlarini keltirish mumkin. Shuningdek, hozirgi paytda jahon iqtisodiyotida dolzarb bo'lgan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi(CRM-Customer Relationship Management)ni misol keltirish mumkin.

CRM (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) - bu kompaniyaning CRM strategiyasini avtomatlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan korporativ axborot tizimi bo'lib, u mijozlar (kontragentlar) va ular bilan aloqalar tarixini sir saqlash orqali sotish hajmini oshirish, marketingni optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, pirovardida, biznes muolajalari va natijalarini tahlil qilishni takomillashtirish tizimidir.

Yuqorida tizimning nazariy asoslarini tadqiq etgan va amaliyatga joriy etgan iqtisodchi olimalar Gorodetskaya O.Yu., Gobareva Ya.L.larning fikrlarini qo'llab quvvatlaymiz:"CRM tizimi korxonalar uchun mahsulotlar(tovarlar) assortimentini optimallashtirish va tovar aylanmasini tezlashtirish vositalarini o'z ichiga olishi kerak. Bunday muammolarni hal qilish uchun axborot bazasi bo'lib har bir mijozning xarid hajmi va mahsulot turi to'g'risidagi ma'lumotlar; xaridlarning oraliq tezligi; mijozlarning didi, shu jumladan, mol etkazib berish uchun eng maqbul to'lov sxemalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur".

Bizning fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasteri korxonalarida KPI usulini joriy etish tom ma'noda, tadbirkorlikning rivoji uchun muhim bo'lgan innovatsion tadbirlar, ilg'or tajribalar va korporativ boshqaruv usullarini qo'llash maqsadida xodimlarni rag'batlantirish usuli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, mabodo klasterda KPI usuli qo'llanilmayotgan bo'lsa, agar xodimlar oraliq natijalar uchun rag'batlantirilmasa, ularni klaster tizimidagi korxonalarning "Hisob siyosati" Nizomiga buyruq orqali kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### Test topshiriqlari

1. «Standart-kost» hisob tiziminining ma'nosi nimadan iborat?
  - a) me'yoriy xarajatlar;
  - b) standart xarajatlar;

- v) o'zgaruvchan xarajatlar;
- g) o'zgarmas xarajatlar;
- d) a va b.

**2. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda qanday buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi?**

- a) Dt 9110 Kt 8810;
- b) Dt 9210 Kt 8920;
- v) Dt 9110 Kt 2810;
- g) Dt 9020 Kt 2810;
- d) Dt 9110 Kt 2910.

**3. Direkt-kosting tizimining mohiyati nimadan iborat?**

- a) me'yoriy xarajatlar;
- b) o'zgaruvchan xarajatlar;
- v) standart xarajatlar;
- g) doimiy xarajatlar;
- d) o'zgarmas xarajatlar.

**4. «Standart-kost» hisob tizimi qachon va qayerda paydo bo'lgan?**

- a) 1911 yil AQSHda;
- b) 1912 yil Fransiyada;
- v) 1914 yil Italiyada;
- g) 1915 yil Bolgariyada;
- d) 1920 yil Rossiyada.

**5. «Direkt-kosting» hisobi tizimi birinchi marta qachon va qayerda paydo bo'lgan?**

- a) 1934 yil Germaniyada;
- b) 1936 yil AQSHda;
- v) 1935 yil Fransiyada;
- g) 1937 yil Yaponiyada;
- d) 1933 yil Angliyada.

**6. «JIT» hisob tizimi - ...**

- a) faoliyat turlari va funksional xizmatlar bo'yicha hisob yuritishni nazarda tutadi;
- b) korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirishni ifodalaydi;
- v) korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq holda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishga asoslangan tannarx hisoblash tizimi;

g) mahsulotlarni yirik turkumlarda ishlab chiqarishdan voz kechish, buning o'miga uzlusiz, buyurtma olingan vaqtidan boshlab mahsulot ishlab chiqarish orqali ortiqcha xarajatlarni bartaraf qilish va ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanishga qaratilgan hisob yuritish tizimidir;

d) xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilish tizimi bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi avvaldan hisoblab chiqilgan normativ xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi.

**7. Qaysi qatorda «ABC» hisob tizimining kamchiligi ifodalangan?**

- a) bevosita xarajatlarning to'liq nazorat qilinmasligi;
- b) mahsulot sifatini tahlil qilishni amalga oshirilmayotganligi;
- v) xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchanga ajratilmamasligi;
- g) normativlarni doimo yangilab turish zarurligi;
- d) an'anaviy buxgalteriya hisobida xarajatlar me'yorlarini bozor sharoitlariga moslab istiqbolli tuzatib borilmasligi.

**8. SCA (Xarajatlarni strategik tahlil qilish) usulining afzalliliklari keltirilgan qatorni ko'rsating.**

- a) mahsulot sifatini kompleks boshqarish tamoyili (TQM) asosida mahsulot sifatini va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish;
- b) iste'mol qiymati (xaridorning yutug'i)ni shakllantirish zanjiri yordamida raqobatchilar ustidan barqaror mavqega ega bo'lish;
- v) ustama xarajatlarni minimallashtirish;
- g) fan-teknika taraqqiyotini o'rganib borish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**9. Funktsional qiymat tahlili usuli...**

- a) ob'ekt (mahsulot, jarayon, tuzilma)ni tizimli tadqiq qilishning sifat va foydaliligini oshirgan holda uni loyihalash, ishlab chiqish va foydalanish sohalarida xarajatlarning eng kichik miqdorini ta'minlovchi usul;
- b) korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq holda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishga asoslangan tannarx hisoblash tizimi;
- v) korxonaning muayyan qismini yoki nisbatan mustaqil bo'linmasini ma'lum vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratish.

g) bo'linma rahbari, nafaqat daromad va xarajatlarga, balki kapital quyilmalarga ajratilgan mablag'larning oqilona sarflanishiga ham javob beradigan markaz turi;

d) xarajatlarni strategik tahlil qilish tizimi bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismi va markaziy ob'ekti iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri hisoblanadi.

**10. Funktsional qiymat tahlili usuli nechta bosqichda amalga oshiriladi?**

- a) 4 ta;
- b) 5 ta;
- v) 6 ta;
- g) 7 ta;
- d) 8 ta;
- e) 9 ta.

**Nazorat savollari**

1. «Standart-Kost» hisob tizimining mohiyati nimadan iborat?
2. «Standart-Kost» hisob tizimi bilan amaldagi normativ hisob tizimi o'rtasida qanday umumiy va farqli jihatlar mavjud?
3. "Direkt-kosting" hisob tizimining qanday afzallikkari mavjud?
4. Boshqaruv hisobini tashkil etishda "JIT" tizimining qanday afzallik tomonlari mavjud?
5. "ABC" tizimi bo'yicha boshqaruv hisobi qanday tashkil etiladi?
6. SCA hisob tizimi korxona faoliyatida qanday o'rincutadi?

**8-bob. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH**

**8.1. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday ishlab chiqarish korxonasi rahbari turli xil oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishga majbur bo'ladi.

"Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" (Cost-Volume-Profit) o'zaro aloqadorlik tahlili zararsizlik nuqtasini aniqlashda menejerlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, mazkur tahlil tizimi yordamida buxgalterlar, auditorlar, ekspertlar va maslahatchilar korxona moliyaviy natijasini haqqoniy baholash va yaxshilash uchun muhim tavsiyalar berishlari mumkin.

**Zararsizlik nuqtasi** korxona daromadlari uning xarajatlarini to'liq qoplash nuqtasi bo'lib, moliyaviy natijalarni aniqlashning oddiy va aniq usuli hisoblanadi.

Baholar, korxona xarajatlari, mahsulotni sotish hajmi va tarkibiga oid har bir qabul qilingan qaror pirovard-natija korxona moliyaviy natijasida namoyon bo'ladi.

"Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish;
2. Xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va foydaning o'zgarishi mumkinligini aniqlash;
3. Korxona rahbarlarining qisqa muddatli boshqaruv qarorlari qabul qilishlariga ko'maklashish;
4. Korxonani istiqbolli rivojlantirish imkonini beradigan variantlar orasidan eng maqbulini tanlash va h.k.

"Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" tahlili tizimi nafaqat kichik tadbirkorlik subyektlari, balki yirik korxonalar rahbarlari uchun ham ishonchli boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimida xarajatlar, ishlab chiqarish jarayonlari va moliyaviy natijalar bog'liqligiga ta'sir etuvchi turli xil omillar o'rganiladi. Bu holat korxona menejerlarini muntazam ravishda sotish bahosi, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar, resurslarni sotib olish va ulardan oqilona foydalanish borasida qarorlar qabul qilishi zarurligi bilan ifodalanadi.

CVP-tahlili marjinal daromad, rentabellik ostonasi (zararsizlik nuqtasi), ishlab chiqarish dastagi va chidamlilikning marjinal zaxirasi kabi asosiy elementlardan iborat.

**Marjinal daromad** korxonalarda mahsulot (ish va xizmat)larni

sotishdan olinadigan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtasidagi tafovutni ifodalaydi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qoplovchi tushum hajmini hisoblash uchun korxonalarda marjinal daromad hajmi va koeffitsienti ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Marjinal daromad hajmi** korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash va foya olishga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Uni hisoblashning ikki usuli mavjud:

1. Birinchi usulda mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumdan barcha o'zgaruvchan xarajatlar chiqarib tashlanadi;

2. Ikkinci usulda esa marjinal daromad hajmi korxona doimiy xarajatlari va foydasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

**Marjinal daromadning o'rtacha hajmi deganda**, mahsulot bahosi bilan o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi tafovut tushuniladi. Bu ko'rsatkich mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan doimiy xarajatlarni qoplashga qo'shilgan hissa va olingan foydani aks ettradi.

**Marjinal daromad koeffitsienti** mahsulot sotishdan olingan tushumdagi marjinal daromadning ulushi yoki tovar bahosidagi marjinal daromadning o'rtacha ulushini ifodalaydi.

Rivojlangan mamlakatlar boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyotida CVP - tahlilini o'tkazishning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Ular ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, zararsizlik nuqtasini aniqlash va unga ta'sir etadigan omillarni hisoblash uchun ko'plab formulalar qo'llaniladi. Shu bilan birga, amaliyotning o'zi ham shunday har tomonlama qulay formulani qo'llashni talab etadiki, u CVP - tahlilini tashkil etuvchi barcha baholarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va ancha oddiy yo'l bilan har bir omilning ta'sirini aniqlashga imkon tug'dirishi lozim. Bunday maqsadga erishish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$M_F = \frac{X_d + F}{M_b} = \frac{X_d + F}{B_m - X_{uz}}$$

bu yerda,

$M_F$ - mahsulot hajmi;

$X_d$ - doimiy xarajatlar summasi;

$F$ - foya summasi;

$M_b$ -marjinal daromadning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasi;

$B_m$  - mahsulot birligi bahosi;

$X_{uz}$  - o'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasi.

Quyida 100000 so'mlik foydani olish uchun rejalashtiriladigan sotish hajmini aniqlaymiz.

$$M_F = \frac{X_d + F}{B - X_{uz}} = \frac{500000 + 100000}{200 - 120} = 7500 \text{ kg}$$

1. Bu yerda mahsulotni zararsiz sotish hajmi quyidagini tashkil etadi:

$$M_z = \frac{X_d}{B - X_{uz}} = \frac{500000}{200 - 120} = 6250 \text{ kg}$$

2. Berilgan koordinatlardagi kutilayotgan foya summasini aniqlaymiz:

$$F = M_F(B - X_{uz}) - X_d = 7500(200 - 120) - 500000 = 100000 \text{ so'm}$$

3. Berilgan koordinatlardagi doimiy xarajatlar summasini aniqlaymiz:

$$X_d = M_F(B - X_{uz}) - F = 7500(200 - 120) - 100000 = 500000 \text{ so'm}$$

4. Sotishlarning rejalashtirilgan bahosini aniqlaymiz:

$$B = X_{uz} + \frac{X_d + F}{M_F} = 120 + \frac{500000 + 100000}{7500} = 200 \text{ so'm}$$

5. O'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasini aniqlaymiz:

$$X_{uz} = B - \frac{X_d + F}{M_F} = 200 - \frac{500000 + 100000}{7500} = 120 \text{ so'm}$$

6. Marjinal daromadning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan summasini aniqlaymiz:

$$M_b = \frac{X_d + F}{M_F} = \frac{500000 + 100000}{7500} = 80 \text{ so'm.}$$

"Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foya" tahlilining muhim sharti korxona xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchanlarga bo'lish hisoblanadi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish va sotishlar hajmiga bog'liq bo'lmaydi, o'zgaruvchan xarajatlar esa - bu ikkita omilning o'zgarishiga mutanosib ravishda o'zgarib turadi. Shu bois, yuqorida keltirilgan formulalarga asosan zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun **mahsulotni zararsiz cotish koeffitsienti** ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_z = \frac{M_z}{M_F}$$

bu yerda,

$K_z$  - mahsulotni zararsiz sotish koeffitsienti;

$M_z$  - mahsulotni zararsiz sotish hajmi;

$M_o$  - mahsulotni foydali sotish hajmi.

Quyida mahsulotni zararsiz sotish koeffitsientini hisoblaymiz:

$$K_z = \frac{6250}{7500} = 0,83$$

Bu koeffitsient yordamida mahsulot sotish hajmiga bog'liq zararsizlik ko'rsatkichini aniqlaymiz.

1. Mahsulot sotish hajmini qiyamat ko'rinishida aniqlaymiz.

$$1500000 \times 0,83 = 1245000 \text{ so'm}$$

2. Mahsulotni zararsiz narxini belgilaymiz.

$$100 \times 0,83 = 83 \text{ so'm}$$

3. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarni aniqlaymiz.

$$60 \times 0,83 = 49,8 \text{ so'm}$$

4. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan marjinal daromad summasini aniqlaymiz.

$$40 \times 0,83 = 33,2 \text{ so'm}$$

SVR - tahlil tizimi hisob-kitoblarni soddalashtiradi va ularning mehnat talablilagini kamaytiradi, shuningdek, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishga imkon beradi.

SVR - tahlili amaliyotda goho zararsizlik nuqtasi tahlili deb ham yuritiladi.

**Zararsizlik nuqtasi (rentabellik chegarasi)** deganda, korxona ishlab chiqarishining shunday hajmi va tushumi tushuniladiki, bunda barcha xarajatlarni qoplanishi va dastlabki foyda olinishi ta'minlanadi ya'ni mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan tushum uning barcha xarajatlari yig'indisiga teng bo'ladi. Bu sotishlarning shunday hajmiki, unda korxona foyda ham, zarar ham ko'rmaydi.

Mazkur nuqta "Xatarli", "O'lik" yoki "Muvozanat" nuqtasi deyiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu nuqtani BEP ("Break-even point" - qisqartmasi) sifatida belgilanadi va u rentabellik nuqtasi yoki ostonasi deb ataladi.


## 8.2. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari

Zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni hisoblash grafik, tenglamalar va marjinal daromad kabi usullar yordamida amalga oshiriladi.

**Grafik usulda** zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni topish "Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda" yaxlit grafigini tuzish imkonini beradi (8.1-chizma).

Keltirilgan chizmadagi zararsizlik nuqtasiga mos keluvchi tushum **ostonaviy tushum** deb ataladi. Zararsizlik nuqtasidagi ishlab chiqarish (sotish) hajmi ishlab chiqarish (sotishlar)ning ostonaviy hajmi deb ataladi. Agar korxona sotishlarning ostonaviy hajmidan kam mahsulot sotsa, u zarar ko'radi, ko'p sotsa foyda oladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi va yalpi foyda chizmasini tasvirlashda turli darajadagi ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Zararsizlik nuqtasi chizmasi bo'yicha foyda va zararlar o'rtasidagi oqilona nisbatni aniqlash uchun jami xarajatlar va daromadlar chiziqlari orasidagi masofa aniqlanadi. Bunda foydaning oshishiga mahsulot hajmini o'zgarishi ta'sirini aniqlashda qulay usullardan biri foyda va mahsulot hajmi chizmasi hisoblanadi (8.1-chizma).




## 8.1-chizma. Zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni aniqlash tartibi

Keltirilgan chizmadan ko'rilib turibdiki, gorizontal o'q ishlab chiqarish va sotish hajmini, vertikal o'q esa hisobot davridagi foyda va

zararlarni aks ettirgan. Agar sotish hajmi nolga teng bo'lsa, unda maksimal zararlar doimiy xarajatlar summasiga teng bo'lishi shart, chunki korxonaning zararlari uning doimiy xarajatlari summasidan oshib ketmasligi lozim.

Har bir birlik mahsulot sotilganda, doimiy xarajatlardan yuqori 10000 so'mlik yalpi foydaga erishiladi, chunki foya va zararlarning intervali 10000 so'mdan qilib belgilangan, natijada sotish hajmi 6000 donaga etganda yalpi foya doimiy xarajatlar yig'indisiga tenglashadi.

Bunda har bir 6000 donadan yuqori sotilgan mahsulot uchun 10000 so'mdan qo'shimcha foya olinadi. Demak, sotish hajmi 10000 dona bo'lganda foya summasi 400000000 so'mni ( $40000 \text{ so'm} \times 10000 \text{ dona}$ ) tashkil etadi. Sotish hajmi va foya o'rtaqidagi bu nisbat chizmada punktir chiziq bilan ko'rsatilgan.




### 8.2-chizma. Foya va mahsulot hajmi o'rtaqidagi bog'liqlik

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish hajmi (quvvati) mashina va uskunalarining bo'sh turib qolishi, ularni ta'mirlash vaqtini, ishdagi tanaffuslar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, u optimal yoki real imkoniyat darajasiga ega bo'ladi. Optimal imkoniyat – mashina va jihozlarning bo'sh turmasdan yuqori unum bilan ishslash darajasi hisoblanadi. Real imkoniyat esa mashina va jihozlarning o'ttacha

(normal) quvvat bilan ishlashi mumkin bo'lgan imkoniyatidir. Demak, optimal imkoniyatdan real imkoniyatni chegirib tashlasak, ishlab chiqarish quvvati kelib chiqadi, bu amaliyotda nazariy quvvat (imkoniyat) deb ham ataladi.

Shu o'rinda, ishlab chiqarish hajmi bilan o'zgaruvchan xarajatlar o'rtaida o'zaro chiziqli bog'lanish mavjudligini ham ta'kidlab o'tish lozim, ya'ni koordinata tekisligida xarajatlar va mahsulot birligi ma'lum nuqtalarda kesishadi. Biroq, hamma o'zgaruvchan xarajatlar ham ishlab chiqarish quvvati bilan to'g'ri chiziqli bog'lanishda bo'lmaydi. Shu sababli, ularni rejalashtirish, tahlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanish imkoniyati mavjud emas. Chiziqsiz bog'langan xarajatlarni shartli ravishda chiziqli bog'lanishga moslashtirish maqsadida "chiziqli aproksimatsiya" usulidan foydalaniladi.



### 8.3-chizma. Relevantlik darajasining approksimatsiya chizig'i bilan o'zaro bog'liqligi

**Relevantli daromad va xarajatlar** haqiqiy olingen daromad va qilingan xarajatlar bo'lmay, ular kelajakda kutilayotgan daromad va xarajatlar hisoblanib, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaradi.

Ularni tan olishning ikkita mezoni mavjud:

1. Agar daromad va xarajatlarning kelgusi boshqaruv qarorlari

ta'sirida o'zgarishi ko'zda tutilsa, ular relevantli deyiladi;

2. Daromad va xarajatlarning miqdori boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgarsa, ya'ni ko'p variantlilik vujudga kelsa, ular relevantli deyiladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, haqiqiy xarajatlar va olingen daromadlar relevantli deb qaralmaydi, chunki qanday boshqaruv qarorlari qabul qilishdan qat'i nazar ularning miqdorini o'zgartirib bo'lmaydi.

Ko'p variantlilik ya'ni relevantlik holatini quyidagicha tasvirlash mumkin (8.3-chizma).

Ushbu chizmadan ko'rinish turibdiki, to'g'ri chiziqli o'zgaruvchan xarajatlar bilan egri chiziqli o'zgaruvchan xarajatlar ma'lum darajada alohida, ma'lum bir nuqtada esa bir tekisda harakat qiladi va keyinchalik yana ajralib ketadi. Mana shu chiziqlar qo'shilgan oraliq relevantlik darajasi deb ataladi.

**To'plamlar (tenglamalar) usuli** yordamida zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi)ni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

#### *Yalpi tushum - O'zgaruvchan xarajatlar - - Doimiy xarajatlar = Foyda*

Formula ko'rsatkichlari hisob-kitobini quyidagicha yoyib chiqish mumkin:

*(Bir birlik mahsulotning bahosi x Bir birlik mahsulotning miqdori) -  
(Bir birlik mahsulotga qilingan o'zgaruvchan xarajatlar x Bir birlik  
mahsulotning miqdori) - Doimiy xarajatlar = Foyda*

Sotishlarning zararsizlik (kritik) nuqtasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

**Marjinal daromad** usuli tenglamalar usulining turlaridan biri hisoblanadi. Bunda zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

*Zararsizlik nuqtasi = Doimiy xarajatlar / marjinal daromad  
normasi*

**Chidamlilikning marjinal zaxirasi** mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olinadigan haqiqiy tushumning sotishni zararsizligini ta'minlovchi ostonaviy tushumdan oshib ketishini ko'rsatuvchi kattalikdir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula bilan topiladi:

**Haqiqiy tushum – Ostonaviy tushum**

**Haqiqiy tushum x 100%**

**Chidamlilikning marjinal zaxirasi**

Mazkur formula yordamida ishlab chiqarish hajmini belgilash, sotish va zarur darajada foyda olish imkonini beradigan bahoni belgilash mumkin.

#### **8.3. Ishlab chiqarish dastagi samarasini aniqlash tartibi**

**Ishlab chiqarish dastagi** (leverage, so'zma-so'z tarjimada richag, dastak) – korxona foydasini samarali boshqarishning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni o'zaro mutanosibligiga asoslangan mexanizmidir. Uning yordamida sotish hajmi o'zgarishiga bog'liq ravishda korxona foydasi o'zgarishini taxminlash, shuningdek, zararsiz faoliyat yuritish nuqtasi topiladi. Korxona xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchanga bo'lishga asoslangan marjinal usuldan foydalanishda ishlab chiqarish dastagi mexanizmini qo'llanishi zaruriy shartdir.

Ishlab chiqarish dastagi samarasini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S_{II} = \frac{MD}{F} \text{ yoki } \frac{X_d + F}{F} = 1 + \frac{X_d}{F}$$

bu yerda,

$C_{II}$  - ishlab chiqarish dastagi samarasini;

$MD$  - marjinal daromad;

$X_d$  - doimiy xarajatlar;

$\Phi$  - foyda.

Ushbu formula yordamida topilgan ishlab chiqarish dastagi samarasining qiymati korxona tushumi o'zgarishiga bog'liq ravishda foydaning o'zgarishini taxminlash imkonini beradi.

Ushbu holat quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$S_{II} = \frac{\Delta F}{\Delta T}$$

bu yerda,

$\Delta F$  - foydaning o'zgarishi, % da;

$\Delta T$  - tushumning o'zgarishi, % da.

Yanada aniqroq tasavvur qilish uchun ishlab chiqarish dastagi samarasini «Andijonsut» aktsionerlik jamiyatining 2003 yilgi ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz, (so'mda).

1) Sotishlar summasi (tushum)	575454
2) O'zgaruvchan xarajatlar	444096
3) Marjinal daromad (1q-2q)	131358
4) Doimiy xarajatlar	74045
5) Asosiy faoliyat(operations) foydasi (3q-4q)	57313

6) Sotilgan mahsulot hajmi, dona	1050
7) Bir birlilik mahsulot bahosi, so‘m	548,05
8) Ishlab chiqarish dastagi samarasi (3q:5q)	2,29

Bizning misolimizda ishlab chiqarish dastagi samarasi 2,29 birlikni tashkil etadi (131358:57313). Bu shuni anglatadiki, korxona tushumi 1%ga pasayganda, foyda 2,29%ga qisqaradi, tushum 23%ga pasayganda esa, biz rentabellik ostonasiga etamiz ya’ni foyda nol bo‘ladi. Faraz qilaylik, tushum 10 %ga qisqardi va 517908,6 so‘mni tashkil etdi (575454x10:100). Bunday sharoitda korxona foydasi 22,9 %ga qisqaradi va 27232,02 so‘mni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish dastagi korxona rahbarlariga xarajatlar va foydani boshqarish, yuqori foyda olish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqishga ko‘maklashuvchi moliyaviy ko‘rsatkich hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich hajmining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar;
- sotish bahosi va hajmi;
- yuqoridagi omillar kombinatsiyasi (moliyaviy va ishlab chiqarish dastaklarini hisoblashda zanjirli bog‘lanish usulini qo‘llash).

Quyida «ABS» aktsionerlik jamiyatining yuqorida keltirilgan ma’lumotlari asosida har bir omilning ishlab chiqarish dastagi samarasiga ta’sirini tahlil qilib chiqamiz.

Sotish bahosini 10 % (bir donasi 602,86 so‘mgacha) oshishi sotishlar hajmini 633003 so‘mgacha, marjinal daromadning 188907 so‘mgacha (633003-444096) va foydani 114862 so‘m (188907-74045)gacha oshishiga olib keladi. Bunda biringina hisob-kitobda marjinal daromad ham 125,1 so‘mdan (131358so‘m:1050dona) 179,9 so‘mgacha (188907 so‘m:1050 dona) oshadi. Bunday tartibda doimiy xarajatlarni qoplash uchun sotishlarning kichik hajmi talab etiladi: zararsizlik nuqtasi 411 donani (74045 so‘m:179,9so‘m), korxona chidamliligining marjinal zaxirasi esa 639 dona (1050 dona – 411 dona) yoki 61 % gacha ortadi. Natijada korxona 57549 so‘m (114862-57313) miqdorida qo‘sishma foyda oladi. Bunda ishlab chiqarish dastagining samarasi 2,29 dan 1,64 birlikkacha (188907:114862) pasayadi.

O‘zgaruvchan xarajatlarni 10 %ga pasayishi (444096 so‘mdan 399686,4 so‘mgacha) marjinal daromadni 175767,6 so‘mgacha (575454-399686,4) va foydaning 101722,6 so‘mgacha (175767,6-74045) ortishiga olib keladi. Buning natijasida zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) 238854,8so‘mgacha [74045:(175767,6: 575454)] ortadi, miqdor

ko‘rinishida bu 227dona (238854,8:1050)ni tashkil etadi. Binobarin, korxona chidamlilagini marjinal zaxirasi 336599,2 so‘m (575454-238854,8)ni yoki 614 dona (336599,2 so‘m:548,05 so‘m)ni tashkil etadi. Bunday sharoitda korxonadagi ishlab chiqarish dastagi samarasi 1,7 birlikkacha (175767,6:101722,6) pasayadi. Doimiy xarajatlarning 10 %ga pasayishi davrida (74045 so‘mdan 66640,5 so‘mgacha) korxona foydasi 64717,5 so‘mgacha (575454-444096-66640,5) ortadi. Bunday sharoitda zararsizlik nuqtasi pul ifodasida 289741,3 so‘m [66640,5: (131358:575454)], hajm ko‘rinishida esa 528 donani (289741,3: 548,05) tashkil etadi. Bunda korxonada chidamlilikning marjinal zaxirasi 285712,7 so‘m (575454-289741,3) yoki 521 dona (285712,7: 548,05)ni tashkil etadi. Binobarin, doimiy xarajatlarni 10 %ga pasayishi natijasida ishlab chiqarish dastagi samarasi 2,03 birlikni (131358:64717,5)ni tashkil etadi va dastlabki darajasiga nisbatan 0,26 birlikka (2,29-2,03) pasayadi.

Ushbu hisob-kitoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish dastagi samarasining o‘zgarishida korxona xarajatlari umumiy summasidagi doimiy xarajatlarni hissasining o‘zgarishi muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, sotishlar hajmining o‘zgarishi foydaning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga nisbati turlicha bo‘lgan korxonalarda bir xilda bo‘lmasligi mumkin. Bunda korxona xarajatlarning umumiy summasidagi doimiy xarajatlarni solishtirma og‘irligi qancha past bo‘lsa, korxona tushumi o‘zgarishi sur’atlariga nisbatan foyda hajmi shunchalik o‘sadi.

Ishlab chiqarish dastagi mexanizmining namoyon bo‘lishi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish dastagining ijobiya samarasiga korxona mahsulot ishlab chiqarishining zararsiz nuqtasini bartaraf etgandan keyingina erishish mumkin. Bunda korxona o‘zining avvalgi doimiy xarajatlarni qoplash uchun marjinal daromadning etarli miqdorini belgilaydi;

2. Sotish hajmining bundan keyingi ortib borishi va zararsizlik nuqtasidan uzoqlasha borishi bilan ishlab chiqarish dastagi samarasi pasaya boradi. Sotish hajmini o‘sishining har bir keyingi foizi foyda summasining o‘sishini ta’minlaydi;

3. Ishlab chiqarish dastagi mexanizmi teskari yo‘nalishga ham ega, ya’ni sotish hajmining pasayishida korxona foydasi hajmi ham kamayib boradi;

4. Ishlab chiqarish dastagi va korxona foydasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud, korxona foydasi qancha yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish dastagi samarasi shuncha past bo‘ladi va uning teskarisi ham kuzatiladi;

5. Ishlab chiqarish dastagi samarası faqat qisqa muddatda yuzaga keladi, ya’ni korxona doimiy xarajatlari qisqa vaqt oralig‘idagina o‘zgarishsiz qoladi. Sotish hajmining ortishi jarayonida doimiy xarajatlar summasining navbatdagi o‘zgarishi ro‘y berishi bilanoq korxona zararsizlikning yangi nuqtasini belgilashi va unga o‘zining ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim.

Korxona tovar bozorining sotish hajmi pasayishi mumkinligini belgilab beruvchi noqulay kon'yunkturada, shuningdek, korxona iqtisodiy faoliyatining ilk bosqichlarida zararsizlik nuqtasi bartaraf etilmaganda, doimiy xarajatlarni pasaytirish uchun chora-tadbirlar ko‘riladi. Shuningdek, tovar bozorining qulay kon'yunkturasida va chidamlilikni ma’lum marjinal zaxirasi mavjudligida doimiy xarajatlarni iqtisod qilishni amalga oshirishga bo‘lgan talablar ancha pasayishi mumkin. Bunday sharoitlarda korxona asosiy ishlab chiqarish vositalarini qayta jihozlashi va yangilashi, real investitsiyalar hajmini ancha kengaytirishi lozim.

Zarurat tug‘ilganda, har bir korxona doimiy xarajatlarni summasi va hajmini pasaytirish uchun etarli darajada resurslarga ega bo‘lishi zarur. Ushbu resurslar tarkibiga tovar bozorining noqulay kon'yunkturasida ustama xarajatlarni (boshqarish xarajatlari)ni imkon darajada qisqartirish, amortizatsiya ajratmalarini kamaytirish maqsadida nomoddiy aktivlar va asbob-uskunalarini foydalanilmayotgan qismini sotish, asosiy vositalarni sotib olmasdan ularni operativ lizing shartnomasi asosida olish, kommunal xizmatlar hajmini qisqartirish va h.k.lar kiradi. O‘zgaruvchan xarajatlarni tejashning asosiy zaxiralari qatoriga quyidagilar kiritiladi: xodimlar mehnat unumdorligini oshirish hisobiga asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xodimlari sonini kamaytirish, tovar bozorining noqulay kon'yunkturasi sharoitida xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari hajmini qisqartirish, xomashyo va materiallarni etkazib berishning korxona uchun qulay sharoitlarni yaratish va boshq. Ishlab chiqarish dastagi mexanizmidan foydalanish doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni aniq maqsadga yo‘naltirish va boshqarish, beqaror bozor sharoitida ular o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni tezkor o‘zgartirib borish hamda korxona foydasini oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, CVP - tahlili korxona rahbarlariga o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni, baho va mahsulot sotish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga, ishbilarmonlik riskini pasaytirish imkonini yaratadi. Uni universal formulasini qo‘llash orqali o‘tkaziladigan tahlil sifatini oshirishga erishiladi.

#### 8.4. Investitsiya loyihalari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Investitsiya faoliyati korxona tomonidan investitsiya resurslarini (pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, aqliy salohiyat, kredit, yer va boshqa ko‘chmas mulk ob‘ektlari kabi) iqtisodiyot sohalarida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishishni maqsad qilib, joylashtirilish jarayonini o‘zida ifoda etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar yo‘naltiriladigan sohaga ko‘ra ishlab chiqarish va moliyaviy investitsiyalarga bo‘linishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ishlab chiqarish (real) investitsiyasi korxona faoliyatining muayyan sohasi va turiga, real kapital o‘sishiga, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, aylanma mablag‘lar qiyomatining o‘sishi, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini rivojlantirishga asosiy omil bo‘lувchi xarajatlardir.

Moliyaviy (portfelli) investitsiyalar esa qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalarga qilingan xarajatlarni ifodalaydi. Bu xarajatlarni bevosita moddiy kapitalni ko‘paytira olmaydi, ammo korxonaga qo‘sishma foyda keltiradi. Qo‘sishma foyda tarkibiga qimmatli qog‘ozlar kursining vaqtga qarab ijobjiy o‘zgarishi yoki ijobjiy valyuta tafovuti kiritiladi.

Investitsiya pul mablag‘larini biror-bir faoliyat turiga ma’lum muddatga sarflanishiga qarab, uzoq (1 yildan ortiq) va qisqa muddatli (1 yilgacha) investitsiyalarga bo‘linadi.

Investitsiya xarajatlari faqat kelgusida daromad keltirganligi bois investitsiya faoliyati korxonalar uchun murakkab hisoblanadi. Shu sababli, korxonalar oqilona investitsiya qarorlari qabul qilish uchun dastlab taklif etilayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashlari hamda ularning ko‘p mablag‘ talab qiladigan tomonlari haqida aniq ma’lumot olishga harakat qilishlari lozim.

Investitsiya loyihasi aniq, puxta o‘ylangan g‘oyaga, maqsadga ega bo‘lgan (shu jumladan, kapital qurilish ham), uni amalga oshirish uchun investitsiya qo‘yilishini talab qiladigan xarajat dasturidir.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkita sharti mavjud: loyihaga ma’lum miqdorda mablag‘lar sarflash zarurati, mablag‘larni sarflash va qoplash (foyda olish) o‘rtasida muayyan vaqt mavjudligi.

Investitsiya loyihalarini yaratish va uni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- investitsiya g‘oyalarining shakllanishi, ya’ni g‘oyani tanlash va

dastlabki asoslash, ekologik nuqtai nazaridan bir qarorga kelish, uni amalga oshirish davomida qo'yiladigan talablarga javob berish;

- investitsiya imkoniyatlarini izlash, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmat turiga bo'ladigan talabni o'rganish loyiha ishtirokchilar tarkibi bo'yicha takliflar, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- shartnomaga oid hujjatlarni tayyorlash;
- tender savdolariga tayyorgarlik;
- salohiyatli investorlar bilan muloqotlar;
- loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- nostandard texnologik jihozlarni tayyorlovchi va etkazib beruvchilarni aniqlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- ob'ektni ishlab chiqarishda tajribadan o'tkazish, iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi va ob'ektni loyiha quvvatiga etkazish.

Investitsiya loyihalarni amaliyatga tatbiq etlish jarayoni ikkita bosqichga ajratiladi:


**Loyihani ishlab chiqish** loyiha maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan boshlang'ich jarayon bo'lib, u dastlabki hisobkitoblarni bajarish, qulay variantlarni tanlash, loyiha qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslashdir.

Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda asosiy vazifa – loyihani amalga oshirish haqida qaror qabul qilish va bu loyiha investitsiya ajratish maqsadida har taraflama texnik-iqtisodiy asosnomada tayyorlashdir. Agar loyiha tijorat xususiyatiga ega bo'lsa, texnik-iqtisodiy asosnomaga qo'shimcha ravishda loyihaning biznes-rejasi ham ishlab chiqilishi lozim.

**Loyihani amalga oshirish** uni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish, loyihani muayyan iqtisodiy voqelikka aylantirish, loyihadagi barcha qo'yilgan maqsadlarga erishishdir.

Amaliyotda investitsiya jarayoni uch asosiy fazaga bo'linadi. Bunda investitsiya jarayonining butun davri loyihaning hayotiy muddati yoki hayotiy jarayoni deb ataladi.

Investitsiya loyihasi jarayoni fazalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini aniq tasavvur qilish uchun quyidagi chizmaga murojaat qilamiz (8.4-chizma).



**8.4-chizma. Investitsiya xarajatlari va ularni investitsiya loyihasining turli bosqichlarida keltirgan daromadining o'zgarishi**

Keltirilgan chizmaning quyi qismida loyihani amalga oshirish jarayonida sarflanadigan investitsiya zaxiralari hajmi, yuqori qismida esa loyiha kapital sarflashdan olingan daromad (foyda)ning o'zgarishi tasvirlangan.

Investitsiya jarayonining dastlabki fazasida loyihani iqtisodiy va texnik jihatdan asoslash bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi, ya'ni loyiha iqtisodiy, texnik va texnologik jihatdan qayta ishlanadi. Bu faza loyihani boshlang'ich hujjatlarini ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

**Investitsiya oldi (dastlabki) fazasi** investitsiya loyihasini ishlab chiqishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Mazkur faza investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki izlanishlardan boshlab uni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilingungacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi.

**Investitsiya jarayonining ikkinchi fazasi** investitsiya fazasi deb ataladi. Bu fazaning asosiy vazifikasi loyiha ajratilgan molivaviy investitsiyalarni to'g'ri sarflanishini hamda loyiha belgilangan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni va samaradorligini ta'minlashdir.

Investitsiya fazasida imorat va inshootlarni ta'mirlash ishlari bajariladi, jihozlar sotib olinadi va o'rnatiladi, ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllantiriladi, undan keyin mahsulotni turkumli ishlab chiqarish va sotishga o'tiladi.

Investitsiya fazasi tugab, loyiha amalga oshirila boshlagach, investitsiya xarajatlari hajmi kamayib boradi. Investitsiya loyihasi keltiradigan daromad hajmi esa ortadi, chunki u asta-sekin o'z samarasini bera boshlaydi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, sotish hajmining ko'paytirishga imkon beradi.

Loyihaning bu tariqa rivoji uning **foydalanish deb ataluvchi uchinchi fazasida** davom etadi. Uchinchi fazada ishlab chiqarish hajmini saqlab turish va ko'paytirish uchun asosiy vositalarning eskirishi orqali jamg'arilgan manbadan ham foydalaniladi. Unda mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromadni investitsiya xarajatlaridan oshishi kuzatiladi. Natijada  $t_1$  vaqtida daromadning umumiyligi summasi loyihaga qo'yilgan kapital qo'yilma qiymatiga teng bo'ladi va loyihani qoplash nuqtasiga etadi.

Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida uni moliyaviy jihatdan baholanadi. Buning uchun loyihani qoplash darajasi, investitsiyalar samaradorligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Korxonalar faoliyatida investitsiya manbalarining etishmasligi doimo ulardan oqilona foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Agar investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investitsiya hajmi etarli bo'lsa, korxona sarflangan investitsiyadan, investitsiya zaxirasining har bir birligidan ehtimoli kutilgan eng ko'p iqtisodiy samara olishga harakat qilinadi.

Korxonada investitsiyalar samaradorligini baholash "iqtisodiy samara" va "iqtisodiy samaradorlik" atamalarining farqli jihatlarini o'rganishga bevosita bog'liq.

**Iqtisodiy samara** investitsiyalash, kapital xarajatlash hisobiga erishiladigan natija bo'lib, quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrigacha samaradorlikni baholashda xarajatlar mezoni keng tarqalgan edi:

Aktsionerlik jamiyatlarining paydo bo'lishi, turli xil mulk shakllarining rivojlanishi, iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamayishi, ichki va tashqi investorlarning faollashuvi rentabellikni aniqlashga yangicha yondashuv investitsiyalar (yoki ularning alohida elementlari: kapital qo'yilma, kapital) samaradorligini hisoblashni talab qilmoqda.

Korxonalarning o'z mablag'larini kelgusida foiz stavkasi ko'rinishida foya olish maqsadida joriy qiymatida vaqtinchalik investitsiyalash jarayoni *diskontlash*, uning natijasida hosil bo'lgan ko'rsatkich - *diskontlangan qiymat* deyiladi.

Xarajatlarni diskontlash koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D_k = \frac{I_k}{P_{mo}}$$

bu yerda,

$I_k$ - investitsiyalarning qiymati;

$P_{mo}$ - yillik pul mablag'lari oqimi.

Investitsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddat talab qilinishi sababli mablag'larni investitsiyalash vaqtida pul mablag'larini ularning qaytimi bilan taqqoslash zarurati tug'iladi. Bu maqsadda pul mablag'larining kelgusi va haqiqiy qiymati tushunchalaridan foydalanish zarur.

**Pul mablag'larining kelgusi qiymati** joriy davrda investitsiyalangan mablag'larning summasini ifodalaydi, ular belgilangan foiz stavkasini hisobga olgan holda ma'lum vaqt oralig'ida shu summaga aylanadi.

**Pul mablag'larining haqiqiy (hozirgi) qiymati** foizning ma'lum stavkasini hisobga olgan kelgusi pul mablag'lari summasini bildiradi. Pul mablag'larining haqiqiy qiymatini aniqlash uchun ular qiymatini muayyan vaqtdagi diskontlashtirish jarayonini ham hisobga olish lozim, chunki u pul mablag'larining kelgusi miqdorda ortib borishiga teskar muomalani ifodalaydi. Bunday holda foiz summasi (diskont) pul mablag'larining yakuniy summasi (kelgusi qiymati) dan ayirib tashlanadi.

Mablag'larni investitsiya qilish va investitsiya foydasini shakllantirish bilan bog'liq moliyaviy hisob-kitoblarini amalga oshirish paytida pul mablag'lari qiymatini oshira borish (kompaunding) hamda diskontlash jarayonlarini oddiy va murakkab foizlar bo'yicha hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Oddiy foizlar qisqa muddatli investitsiyalashda, murakkab foizlar esa uzoq muddatli investitsiyalashda qo'llaniladi.

**Oddiy foizlar** deganda, mablag'larni investitsiyalash jarayonida shartnomaga asosan kelishilgan to'lovning hisobot davri (oy, chorak va h.k.) yakunida qo'yilmaning dastlabki (haqiqiy) qiymatiga asosan hisob qilinishi tushuniladi.

Oddiy foiz summasi qo'llanilganda qo'yilmani ortib borishi (kompaunding) jarayonida quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$I_n = K_0 \cdot n \cdot F_n$$

bu yerda,

$I_n$  - investitsiyalashni kelishilgan davri uchun foiz stavkasi;

$K_0$  - qo'yilmaning dastlabki summasi;

$n$  - investitsiyalash davomiyligi (har bir foiz to'lovi amalgalashiriladigan davlar miqdori bilan ifodalangan);

$F_n$  - o'nli kasr bilan ifoda etilgan, foydalilanadigan foiz stavkasi.

Ushbu holatda qo'yilmaning kelgusi qiymati ( $K_q$ ) foiz summasini hisobga olgan holda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_q = K_0 Q I_n = K_0 (1 Q n \cdot F_n)$$

**1-misol.** Quyida berilgan shartlar orqali bir yil uchun foiz summasini aniqlash zarur. Qo'yilmaning dastlabki summasi 500000 so'm. Har chorakda to'lanadigan foiz stavkasi - 10%. Bu miqdorlarni formulaga qo'yib chiqib foiz summasini aniqlaymiz:

$$I_n = 500000 \cdot 4 \cdot 0,1 = 200000 \text{ so'm}$$

QABC ichidagi ko'rsatkichlar ( $1Qn \cdot F_p$ ) oddiy foizlar summasini ortib borishi koeffitsienti deyiladi. Bu koeffitsient doim bir birlikdan katta bo'ladi.

Pul mablag'i qiymatini diskontlash jarayonida oddiy foiz summasini hisob-kitob qilishda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$D = K_b - K_0 \cdot \frac{1}{1 + n \cdot F_n}$$

**2-misol.** Quyidagi shartlar asosida bir yil uchun oddiy foiz bo'yicha diskont summasini aniqlash lozim. Qo'yilmaning yakuniy summasi 800000 so'm miqdorida belgilangan.

Har chorakda to'lanadigan diskont stavkasi 10%ni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlarni diskont summasini hisoblash formulasiga qo'yib chiqsak, quyidagi natijani olamiz:

$$D = 800000 - 800000 \cdot \frac{1}{1 + 4 \cdot 0,1} = 228571,4$$

Demak, bir yildan so'ng 800000 so'm olish uchun zarur bo'lgan investitsiya xarajatlarining haqiqiy qiymati quyidagicha bo'lishi lozim:

$$K_0 = 800000 - 228571,4 = 571428,6$$

**Murakkab foiz** deb, hisoblangan oddiy foiz summasi belgilangan har bir davrdan keyin to'lanmaydigan, balki asosiy qo'yilma summasiga qo'shib, keyingi to'lov davrida daromad keltiradigan investitsiya qilish natijasida yuzaga keladigan foyda summasiga aytildi.

Qo'yilma summasini hisoblashda murakkab foizlar bo'yicha uning ortib borishi quyidagi formula orqali topiladi:

$$K_{bs} = K_0 \cdot (1 Q F_n)^n$$

bu yerda,

$K_{bs}$  - qo'yilmaning murakkab foizlar bo'yicha ortib borish qiymati.

Ushbu formulaga muvofiq foiz summasi ( $I_n$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$I_n = K_0 Q K_{bs}$$

**3-misol.** Quyidagi shartlar asosida investitsiyalashning butun davrida murakkab foiz summasi bilan qo'yilmaning kelgusi qiymatini aniqlash talab qilinadi.

Qo'yilmaning dastlabki qiymati 500000 so'm.

Murakkab foizli usulda qo'llaniladigan va har chorakda to'lanadigan foiz stavkasi - 10%.

Investitsiyalashning umumiy davri ko'rsatkichlarini yuqoridagi formulaga qo'yib, qo'yilmaning kelgusi qiymatini aniqlaymiz:

$$K_{bs} = 500000 \cdot (1 + 0,11) = 555000$$

Ushbu holatda foiz summasi 55000 so'm (555000-500000)ni tashkil etadi.

Pul mablag'larining haqiqiy qiymatini hisoblashda murakkab foizlar bo'yicha diskontlash jarayonini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$K_x = \frac{K_0}{(1 + F_n)^n}$$

bu yerda,

$K_x$ -murakkab foizlar bo'yicha hisoblangan qo'yilmaning dastlabki summasi.

Shunga binoan diskont summasi ( $D_s$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$D_s = K_0 - K_x$$

**4-misol.** Quyidagi shartlar asosida bir yil uchun murakkab foizlar bo'yicha diskont summasi va pul mablag'ining haqiqiy qiymatini aniqlash zarur. Pul mablag'ining berilgan qiymati 500000 so'm.

Murakkab foizni diskontlash uchun foydalilanadigan stavkasi har chorakda 10%ni tashkil etadi.

Ushbu ko'rsatkichlarni formulaga qo'yib, pul mablag'ining haqiqiy qiymatini aniqlaymiz:

$$\text{Haqiqiy qiymat} = \frac{500000}{(1 + 0,1)^4} = 342465,8 \text{ so'm}$$

Shunga muvofiq, diskont summasi 157534,2 so'm (500000-342465,8)ni tashkil etadi.

Pul oqimlarini o'zaro teng to'lovlaringin bunday bir tekisligi annuitet deb ataladi. Annuitetga misol qilib investitsiyalar bo'yicha har chorakda to'lanadigan foiz to'lovlari summasi, ijaradagi mulk uchun bir tekis to'lov va h.k.larni olish mumkin. Annuitet ko'rinishidagi pul oqimlari to'lovlarini ketma-ketligini aniqlash pul mablag'larini ortib borish jarayonini hisoblashni ancha engillashtiradi hamda ular qiymatini diskontlash uchun soddalashtirilgan formulalar to'plamidan foydalanish imkonini beradi.

**5-misol.** Investor 500000 so'mni 1 yil muddat bilan depozit qo'yilmaga joylashtirishni mo'ljallagan. Bir bank investorga murakkab foizlar bo'yicha har chorakda 7,5% miqdorda to'lashni, ikkinchisi esa 10% miqdorida to'rt oyda bir marta, uchinchisi - 15% miqdorida yilda ikki marta, to'rtinchisi - 30% miqdorida yiliga bir marta to'lashni taklif qiladi.

Bu variantlarni taqqoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, investor uchun birinchi bank taklif etayotgan foiz stavkasi foydali hisoblanadi.

Annuitetning kelgusi qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$A_{\text{kel.}} = A_{\text{ts}} \cdot d_{\text{koef.}}$$

bu yerda,

$A_{\text{kel.}}$  - ma'lum davr oxirida annuitetning kelgusi qiymati;

$A_{\text{mc}}$  - annuitet to'lovi summasi;

$d_{\text{koef.}}$  - annuitet qiymati ortib borishini foizning qabul qilingan stavkasi va davrlarini hisobga olgan maxsus jadval bo'yicha aniqlanadigan koeffitsienti.

Investitsiyalashning qaysi varianti samaradorlilagini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (8.3-jadval).

Shunga binoan, annuitetning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$A_{\text{haq}} = \frac{A_{\text{qs}}}{A_{\text{dk}}}$$

bu yerda,

$A_{\text{haq}}$  - annuitetning haqiqiy qiymati;

$A_{\text{qs}}$  - annuitetni qoplash summasi;

$A_{\text{dk}}$  - qabul qilingan diskont stavkasi va davrlar miqdorini hisobga olib, maxsus jadvallar bo'yicha aniqlanadigan annuitetni diskontlash koeffitsienti.

### 8.3-jadval.

#### Investitsiyalashning turli sharoitlarida qo'yilmaning kelgusi qiymatini hisoblash

Variantlar	Qo'yilmaning Haqiqiy qiymati	Foiz stavkasi	Yakuniy kelgusi qivmat			
			1 chorak	2 chorak	3 chorak	4 chorak
1	500000	0,075	537500	577812,5	621148,4	667734,5
2	500000	0,1	550000	605000	665500	732050
3	500000	0,15	575000	661250	760437,5	874503,1
4	500000	0,3	650000	845000	1098500	1428050

Pul mablag'larining haqiqiy qiymatini baholashda inflyatsiya omili ham muhim ahamiyatga ega, u pul mablag'larining sotib olish qobiliyatini pasayishiga sabab bo'ladi.

Investitsiyalash jarayonida pul oqimlarini samarali boshqarish bilan bog'liq hisob-kitoblarga inflyatsiyaning ta'sirini baholashda pul mablag'larining nominal va haqiqiy qiymatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Pul mablag'larining nominal qiymati** pulning sotib olish qibiliyati o'zgarishini hisobga olmay uning hajmini baholashni nazarda tutadi.

**Pul mablag'larining haqiqiy qiymati** esa ularning kelgusi va hozirgi qiymatini aniq hisoblashda samarali qo'llanilishi mumkin.

Odatda, inflyatsiya ta'sirini baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

1) inflyatsiya sur'ati ( $I_s$ ). Bu ko'rsatkich muayyan davrda ( $n$ ) baholarning investitsiya hisob-kitoblarida ifoda etilgan o'nlik kasrdagi o'rta darajadagi o'sishni ifodalaydi.

2) inflyatsiya indeksi ( $I_{\text{indeks}}$ ).

1QI<sub>s</sub> deb belgilanadigan ko'rib chiqilayotgan davrda ( $n$ ) inflyatsiyani hisobga olgan holdagi pul mablag'larining qo'shilgan qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_{\text{haq}} = \frac{P_{\text{nom.}}}{I_{\text{indeks.}}}$$

bu yerda,

$P_{\text{haq}}$  - pul mablag'larining kelgusi haqiqiy qiymati;

*P<sub>nom.</sub>* - pul mablag'larining kelgusi nominal qiymati;

Mazkur formula yordamida pul mablag'lari qiymati ortib borishi jarayonidagi foizning foydalilaniladigan stavkasida inflyatsiya darajasi hisobga olingan bo'lmasa, pul mablag'larining aniq to'langan qiymatini aniqlash mumkin.

### 8.5. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish

Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatida boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni alohida o'rinn tutadi, u yuqori malaka va amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish korxona oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni aniqlashdan boshlanadi.

Boshqaruv qarorlari amal qilish davriga ko'ra strategik (uzoq muddatli) va qisqa muddatli qarorlarga bo'linadi.

Strategik boshqaruv qarorlari korxonaning oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida muhim ahamiyatga ega. Mazkur qarorlar korxona rahbariyati tomonidan istiqbolli rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi.

Qisqa muddatli qarorlar qo'yilgan maqsadga erishishda qabul qilinadigan tezkor qarorlardir. Ular korxonaning joriy rejalarini tuzish, kadrlar masalasini hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlariga bir qancha talablar qo'yiladi. Bu talablar boshqaruv qarorlarining ishonchliliginu ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish zarurati bilan izohlanadi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Aniq yo'nalishga ega bo'lisi va korxona manfaatlarini to'liq ifoda etishi. Bunda boshqaruv qarorlarining korxona oldida turgan maqsad va vazifalarui amalga oshirishga hamda uning foydasini oshirishga yo'naltirilishi nazarda tutiladi;

2. Ilmiy-amaliy jihatdan asoslanishi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlili natijalari, uning iqtisodiy imkoniyatlari hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini to'liq hisobga olish zarur;

3. Aniq muddatlarda qabul qilinishi va amalga oshirilishi. Boshqaruv qarorlarini amalga oshirish davri belgilab olinishi lozim. Bu

holat uni o'z vaqtida va oqilona bajarilishini nazorat qilishga ko'maklashadi;

4. Tezkor bo'lisi. Boshqaruv qarorlari bozor talablari va korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlardan kelib chiqib zarur hollarda tezkor qabul qilinishi zarur.

5. Yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lisi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda unumsiz va ortiqcha xaratatlarni rejalashtirilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xodimlar manfaatlarini korxonaning umumiy manfaatiga mos bo'lisi, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan tejamli foydalanish, korxonaning iqtisodiy, texnikaviy salohiyatini tahlil etish kabi jihatlarga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu hol esa o'z navbatida korxonalardan boshqarishni bozor iqtisodiyotiga mos mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi. Ushbu mexanizmlar korxonalarining yuqori samaradorlik bilan faoliyat ko'rsatishi, bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini va mahsulotlarini raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashi zarur. Bu masalalarni hozirgi zamон menejmentisiz hal etish murakkab hisoblanadi. Shu sababli, korxonalarini rivojlantirishda zamonaviy menejmentning mazmun va mohiyati, vazifalariga batafsilroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Menejmentga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda uning mohiyati va mazmuniga turli yondashuvlar mavjud:

#### 8.4-jadval.

#### Menejment atamasining mohiyati va mazmuniga mavjud yondashuvlar

Menejmentning mohiyati quyidagicha aniqlanadi	Vazifa, faoliyat turi
	Fan va san'at
	Boshqaruv organi yoki apparat
	Jarayon
	Insonlar kategoriysi

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, menejmentning ko'p yillik rivojlanishi boshqaruv faoliyatini ishlab chiqarish vazifasidan farq qiluvchi alohida vazifaga ajratadi.

Boshqaruv vazifa sifatida u tomonidan boshqaruv vazifalari, deb nom olgan boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Ular birinchi marta frantsuz olimi A.Fayol tomonidan asoslangan edi. Bu vazifalar rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish

va nazorat qilish kabilardan iborat. Keyinchalik, boshqaruv jarayonlarini yanada mukammallashtirish hisobiga ko'pgina ishlanmalarda bu vazifalar to'ldirib borilgan. Jumladan, menejment vazifalariga motivlashtirish, kommunikatsiya, tadqiq etish, baholash, qarorlarni qabul qilish kabilar qo'shildi.

Menejmentni vazifa sifatida ko'rib chiqish boshqaruv faoliyatini hamma turlarining tarkibi va mazmuni, shuningdek, ularni zamon va makondagi o'zaro aloqadorligini ishlab chiqishni talab etadi.

Menejment mustaqil fan sifatida XIX asning oxirida shakllana boshladi. Uning asosini ko'p yillar davomida to'planib borgan boshqaruv to'g'risidagi bilimlar tashkil etadi. Ular turli kontseptsiyalar, nazariyalar, tamoyillar, boshqaruv uslublari va shakllarida o'z aksini topgan. Menejmentning fan sifatidagi ta'rifi asosida boshqaruv xususidagi bilimlarning shakllanganligi va muayyan tizimga keltirilganligiga alohida o'rin beriladi. Bu esa birinchidan, korxonalarga joriy faoliyatni o'z vaqtida samarali boshqarishga, ikkinchidan esa istiqbolni belgilash va unga mos korxonaning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bois, boshqaruv fani o'zining nazariyasini ishlab chiqadi. Uning mazmunini esa boshqarish jarayonda insonlar faoliyatining qonun va qonuniyatlar, tamoyillari, vazifalari va uslublari tashkil etadi.

Amaliyotda menejmentni san'at sifatida tushunish keng tarqalgan. U xo'jalik korxonalari murakkab tizim ekanligi va ularning faoliyatiga bir nechta tashqi va ichki muhit omillari ta'sir etishiga asoslanadi. Bunday murakkab mexanizmni boshqarish yuqori sifat darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Shuning uchun ham menejment san'at sifatida talqin qilinadi va u tegishli kontseptsiya, nazariya, tamoyillar, shakl va uslublarga tayanadi.

Bu kabi yondashuvlar korxona menejerlariga nafaqat ilmiy bilimlarni doimo to'ldirib, yangilab borish, balki shaxsiy sifatlarni takomillashtirib borish, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash layoqatini mustahkamlashni talab qiluvchi fan va san'atni bir jarayonga birlashtirishga imkon beradi.

Korxonalarda ishlovchi xodimlar o'z kuch va imkoniyatlarini aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirishlari uchun menejerlar ular bilan doimo aloqadorlikda bo'lishlari va samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratib berishlari zarur.

Menejment shuningdek, integratsion jarayon sifatida ham talqin qilinadi. Uning asosida yuqori kasbiy malakaga ega mutaxassislar

korxona faoliyatini tashkil etadi va maqsadlarni aniqlash, ularga erishish uslublarini ishlab chiqish yo'li bilan korxonani boshqaradilar.

Ta'kidlanganidek, menejment jarayoni rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, motivatsiya va nazorat qilish kabi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ular yordamida menejer korxonada ishlovchi xodimlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratadi.

Shu munosabat bilan boshqaruv jarayonini menejment sohasida yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassislar amalga oshiradi. Ular korxona faoliyatini yuritadilar, maqsadlarni belgilaydilar, unga erishish usullarini ishlab chiqib amalda qo'llaydilar. Bu san'atga ma'lum bir insonlar kategoriysi – menejerlar ega bo'lishlari lozim. Ularning vazifasi xodimlarni oqilona boshqarish natijasida korxonani samarali faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat.

Ko'p hollarda menejment organ yoki boshqaruv apparati bilan tenglashtiriladi. Menejment – tijorat va notijorat korxonalarining o'ziga xos organidir. Korxona bu organlarsiz bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Shuning uchun boshqaruv apparati har qanday korxonani tarkibiy qismi hisoblanib, menejment faoliyatiga tenglashtirildi. Unda band bo'lgan xodimlarning bosh vazifasi pirovard maqsadga erishish uchun korxona ixtiyoridagi barcha resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iboratdir.

Shunday qilib, "menejment" atamasi boshqaruv xususidagi adabiyotlarda juda keng talqin etiladi. Binobarin, uning har qanday ta'rifi to'liq emas. Masalan, menejment har xil tamoyillar, vazifalar va menejmentning sotsial-iqtisodiy uslublaridan foydalananish asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida harakat qiluvchi korxonalarining optimal xo'jalik natijalariga erishishga qaratilgan kasbiy faoliyatining o'ziga xos turi. Bu ta'rifa urg'u menejment kasbiy faoliyat turi ekanligiga berilmoxqda.


Menejment alohida insonlar va jamoalarga tizimli ta'sir etishni ta'minlaydi. Bundan maqsad, kelishilgan holda birgalikda faoliyat ko'rsatib, ko'zlangan maqsadga erishishdan iborat. Shuningdek, menejment harakatlarni tanlash, ularni kombinatsiyalash, ketma-ketligini belgilash, pirovard natijalarini baholashni nazarda tutadi.

Hozirgi zamon menejmentining quydagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Ishlab chiqarish va biznes samaradorligini oshirishga intilish hamda korxona tomonidan rejalashtirilgan pirovard natijaga erishishga yo'naltirilganlik;

2. Tashqi muhitdagi o'zgarishlarga bog'liq holda belgilangan maqsadlar va dasturlarga doimo ravishda tuzatish kiritib borish;
3. Rejalashtirish jarayonini joriydan istiqbolga qarab o'zgartirish;
4. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ko'p variantli hisoblarni amalga oshirish uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
5. Korxona faoliyatini samarali boshqarishga barcha xodimlarni jalbetish;
7. Boshqaruv jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil etish va tegishli moslashuvchan qarorlar asosida ish olib borish;
8. Korxona boshqaruvining barcha bo'g'inalarida innovatsion yondashuvdan keng foydalanish va h.k.lar.

Korxonani samarali boshqarish xodimlarni qo'yilgan maqsadga erishish uchun moddiy, iqtisodiy, huquqiy sharoitlardan foydalanib, birgalikda harakat qilishlarini tashkil etadi. Xodimlar faoliyatining sharoitlari yaxlit holda korxonaning tashkiliy tuzilmasini tashkil etadi. Shu sababli, korxonani resurslar, ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot kabi uch elementdan iborat tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Bunda boshqaruv qismi ob'ektning holati to'g'risidagi va boshqa axborotlardan foydalanib, qarorlar qabul qilish orqali boshqaruv jarayonini amalga oshiradi (8.5-chizma).



8.5-chizma. Boshqaruv jarayoni modeli

Shuni ta'kidlash zarurki, korxonani samarali boshqarish quyidagilarga bevosita bog'liq:

- aniq maqsadning mavjudligi. Bu korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratadi, uning xodimlari harakati yo'nalishlarini belgilab beradi;

- korxona barqarorligi, ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarda mustahkamlik hamda doimiylikni ta'minlaydigan ichki muvofiqlashtiruvchi tizimning amal qilishi;

- korxonaning barcha ichki jarayonlarini o'z-o'zini tartibga solish tamoyili asosida muvofiqlashtirilganligi;

- korxonaning alohidaligi, ya'ni uni boshqa korxonalardan ajratib turuvchi chegaranining mavjudligi;

- tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lgan korxonalarni samarali faoliyat ko'rsatishi va ularni istiqbolli rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan korxonalarning samarali rivojlanishi quyidagi ijobji afzallikkлага ega:

birinchidan, aholining mavjud ehtiyojlarini to'laroq qondirishga imkon beradi;


ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu esa bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining o'sishida namoyon bo'ladi;

uchinchidan, aholining yashash darajasi, farovonligini yaxshilaydi;

to'rtinchidan, mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.

Mikroiqtisodiy nuqtai nazzardan esa korxona olayotgan foya miqdorini oshishi natijasida xodimlarning daromadlari ko'payadi, jamg'arishga ko'proq mablag' ajratilishi natijasida korxonaning ichki investitsiya qilish imkoniyatlari oshadi. Bu esa uni innovatsion asosda rivojlanishiga imkon beradi. Eng asosiysi, korxonaning mahsulotga bo'lgan talabi ko'proq darajada qondirib boriladi.

Amaliyotda, ko'pchilik hollarda qabul qilinadigan qarorlar tor doiraga ega bo'lib, korxonani istiqbolli rivojlantirish yo'nalishlari va tamoyillarini ifodalay olmaydi. Bu holat esa respublikamiz korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning aniq bosqichlarini ishlab chiqish zaruratinu yuzaga keltiradi (8.6-chizma).



#### 8.6-chizma. Korxonalarda boshqaruv qarorlari qabul qilishning asosiy bosqichlari

Boshqaruv qarorlari qabul qilishning dastlabki bosqichida korxona bo'linmalari amaliyotidagi muammolarni aniqlashga e'tibor qaratiladi. Bu bosqichda korxona buxgalteri tomonidan mavjud muammoni hal etish yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

Muammolar yechimlarining muqobil variantlari aniqlangandan keyin buxgalter har bir muhokama qilinayotgan variantlarni xarajatlarni hisoblash, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini tejash imkoniyati hamda xo'jalik muomalalarining moliyaviy natijalarini aniqlashga ta'sirini tahlil qiladi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning har bir bosqichida turli xil hisob axborotlaridan foydalaniladi.

Boshqaruv hisobida oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishda mavjud muammolar yechimiga ko'p variantlilik tamoyili asosida yondashuv talab qilinadi. Bunda muhokama qilinayotgan masalaning ikki yoki undan ortiq variantdagи yechimi mavjud bo'lsa, ular orasida eng maqbulini tanlab olish boshqaruv hisobidagi muhim vazifalarda hisoblanadi.

Tanlash jarayonida menejer uchun boshqaruv samaradorligini baholash muhim hisoblanadi.

Qo'yilgan muammoni yechish uchun talab qilinadigan barcha axborotlar olingach, menejerlar qarorlar qabul qilishning samarali variantlarini tanlashlari mumkin.

Keyingi bosqichda korxona buxgalteri qabul qilingan qarorlar natijalarini tahlil qiladi va o'z xulosasini rahbariyatga taqdim etadi.

Agar mavjud muammolarning yechimlarini topish borasida boshqa choralar ko'rish zarurati bo'lmasa, boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni tugallangan hisoblanadi, aks holda barcha bosqichlar qaytadan amalga oshiriladi.

#### 8.6. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv samaradorligini baholash

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni biznes tarkibini o'zgartirish (qayta tarkiblash) moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda ularni taqsimlash imkonini beradi.

Ushbu tarkibiy o'zgarishlarning asosiy maqsadi korxonaning tanlagan rivojlanish strategiyasiga muvofiq uning tashkiliy tuzilmasini mukammallashtirish, ishlab chiqarishni markazlashmagan holda boshqarishga erishish hisoblanadi.

Quyidagi holatlar korxonalarda qayta tarkiblash zaruratini yuzaga keltiradi:

1. Mablag'larni qayta investitsiyalash, rivojlanishning uzoq muddatli dasturini amalga oshirish, ularning uzlusiz moliyalanishini ta'minlash;
2. Boshqarishning samarali tizimini shakllantirish.
3. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan mablag'lardan maqsadli foydalanishni qat'iy nazorat qilish.
4. Investitsiya loyihalari (biznes-rejalar)ni yagona standartlar asosida, xorijiy investorlar manfaatlari va tashqi omillar (inflyatsiya darajasi, soliq qonunchiligi, tarmoqning rivojlanish tamoyillari va h.k.)ni inobatga olgan holda rasmiylashtirish.
5. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha rejalarini korxona tomonidan bajarilishini joriy nazorat qilish, tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilishda loyihalalar borasidagi mavjud muammolar haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar qilish.
6. Korxona moliyaviy-xo'jalik holati va investitsiya loyihalari samaradorligi tahlili asosida investitsiya faoliyatining strategik rejasini ishlab chiqish.
7. Investitsiya loyihalarini moliyalash strategiyasini rejalashtirish. Bunda investitsiya loyihalariiga mavjud moliyaviy resurslarni taqsimlash, ularni samaradorlik darajasiga qarab guruplash talab etiladi;
8. Fond bozoriga mablag'larni jalb etish uchun sharoitlar yaratish.

9. Qarzlarni qayta tarkiblash va ularni to'lash borasidagi muammolarini hal etish.

Biznes tarkibini o'zgartirish (qayta tarkiblash) bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish quyidagi ijobjiy xususiyatlarga ega:

1)bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini tez muddatlarda o'zgartirish;

2)ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;

3) aylanma mablag'lar aylanishi tezligini ta'minlash va nazorat qilish imkoniyati;

4)korxonaning ishlab chiqarish va boshqa bo'linmalari o'rtaida oqilona baho siyosati yuritilishiga erishish va h.k.

Shuningdek, biznes tarkibini o'zgartirish natijasida ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyasi, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishni boshqarishda muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu holat esa korxona moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Qayta tarkiblash jarayonida korxonani boshqarishning tashkiliy tizimi tahlil qilib chiqiladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'limlari, tsexlari bozorda talab mavjud bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtiriladi, samarali faoliyat ko'rsatmayotgan bo'limlar, ishlab chiqarish shohobchalari tugatiladi. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarzlar foydalanilmayotgan asbob-uskuna, jihozlar yoki binolarni sotish hisobiga qoplanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonini xomashyo va material, texnik vositalar bilan ta'minlovchi korxona yoki firmalar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar ham qayta ko'rib chiqiladi. Shular qatorida qayta tarkiblashning boshqa choratadbirlari ham amalga oshiriladi.

Albatta, bunday usulni qo'llash, birinchidan korxonaning bozor talablaridan kelib chiqqan holda mahsulot ishlab chiqarishi, ikkinchidan xarajatlarni samarasiz yo'naltirilayotgan qismini tejab qolish va korxonaning pirovad moliyaviy natijasini oshishiga olib keladi.

Qayta tarkiblash jarayoni zarar ko'rib kelayotgan korxonalar ishlab chiqarishini tiklash yoki amaldagi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga imkon berishini aniqlash uchun korxonaning so'nggi yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarining holati va dinamikasi, ularga soliqqa tortish tizimining ta'sirini tahlil qilish zarur.

Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Faoliyat yakuniy natijalari (debitorlik va kreditorlik qarzlar tannarx, tushum, taqsimlanmaydigan foya, rentabellik, ishlab chiqarish

quvvatlaridan foydalanish darajasi, xodimlar soni, mehnatga haq to'lash fondi).

2. Investitsiya va ish faolligining holati (o'z va qarz mablag'lari, zaxira va xarajatlarning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi, zaxiralar va o'z mablag'larining aylanuvchanligi).

3. Likvidlilik va to'lovga layoqatlilik (joriy likvidlilik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti).

Korxona aktivlarini qayta tarkiblashda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash.

2. Korxonada foydalanilmayotgan aktivlarni sotish va ijaraga berish, garovga berish hamda ro'yxatdan chiqarish.

3. Tugallanmagan ishlab chiqarish, safarbar etilgan va boshqa mol-mulkni konservatsiyalash.

4. Yangi yuqori sifatli jihozlarni xarid qilish, ijaraga, lizingga olish.

5. Omborlardagi zaxiralarni kamaytirish, foydalanilmayotgan binolarni ijaraga berish.

6. Debitorlik qarzlar qaytarilishi ustidan nazorat qilishni kuchaytirish.

7. Moliyaviy qo'yilmalarni sotish, garovga qo'yish, ishonchli boshqaruvga topshirish.

Korxona passivlarini qayta tarkiblash (passivlarning tarkibi va asosiy unsurlari, ya'ni ustav hamda zaxira kapitali, jamg'arma fondi, ijtimoiy soha fondi, maqsadli moliyalash va tushumlar, taqsimlanmaydigan foya, uzoq muddatli va qisqa muddatli qarz mablag'lari, kreditorlik qarzlarini tahlil qilish) ham yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi.

Ustav kapitali va kreditorlik qarzlarini qayta tarkiblash jarayoniga to'xtalamiz. Faraz qilaylik, «A» korxonaning ustav kapitali «V» korxonanikiga qaraganda 6 marta ko'p. Mazkur holatda «V» korxonaning ustav kapitalini qayta tarkiblash korxona mulkdorlari (aksiyadorlar) tarkibining o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu uning moliyaviy ahvolini yaxshilaydi, salohiyatli investorlarni topishga ko'maklashadi.

Ushbu jarayonning kamchiligi shundaki, bunda korxona mulkdorlari ustav kapitalidagi o'z ulushlarining qisqarishiga rozi bo'lishga majbur. Ammo, mulkdorlar ustav kapitalidagi o'z ulushini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni saqlab qolishlari mumkin. Ayni paytda ular qayta tarkiblash yo'li bilan ustav kapitalini ma'lum darajada ko'paytirishdan manfaatdordir, chunki korxona bankrotlikka uchraganda

uning barcha majburiyatlari amalga oshirilganidan keyin qolgan molmulkni sotishdan mablag'lar olish mumkin.

Korxonalar va xoldingning moliyaviy ahvoliga budget hamda budjetdan tashqari fondlarga qarzlar bo'yicha qayta tarkiblash samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bankning qisqa muddatli kreditlarini uzoq muddatli qarzlarga qayta rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Faraz qilaylik, «A» korxonadagi kreditorlik va debitorlik qarzlar «V» korxonadagiga qaraganda ikki marta ko'p. Bunda mol etkazib beruvchilar va boshqa kreditorlarga qarzlar bir necha usullar bilan qayta tarkiblanadi. Jumladan, bu holda mol etkazib beruvchilarni korxona ustav kapitalida ishtirot etishga qiziqtirishi mumkin. Bunday holatda ustav kapitalini oshirish va aksiyalar (ulushlar va paylar)ning bir qismini mol etkazib beruvchilarga sotish qarzlarni to'lash imkonini beradi.

Qayta tarkiblash asosida mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzdorlikni ham bartaraf etish imkoniyati mavjud. Bunda qarzni ishlab chiqarilgan mahsulot yoki korxonaning aksiyalari bilan qoplash mumkin. Ammo, buning uchun Nizomga muvofiq xodimlar va aksiyadorlarning roziligidini olish talab etiladi.

Passivlar va aktivlarni qayta tarkiblash nafaqat o'zaro uzviy bog'langan, balki ular boshqaruva tizimini qayta tarkiblashning uzviy qismi hisoblanadi. Xususan, passivlarni qayta tarkiblash o'z-o'zidan aktivlarning qayta tarkiblanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida boshqaruva tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Qayta tarkiblash maqsadida boshqaruva tuzilmasi uchta yo'nalishga ajratiladi:

1. Ishlab chiqarishni boshqarish;
2. Xodimlarni boshqarish;
3. Integratsion boshqaruv.

Ishlab chiqarishni samarali boshqarish korxonani rivojlantirish strategiyasiga mos kelishi lozim. Bu esa nafaqat ishlab chiqarishni qayta tarkiblash, balki oqilona kadrlar siyosatini amalga oshirish, moliya-iqtisodiy, marketing va yuridik bo'linmalarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, kadrlarning miqdoriy va sifat tarkibini yangilashga asoslanadi.

Qayta tarkiblashdan oldin ishlab chiqarishni tezkor va strategik boshqarishning tahlili hamda shu asosda boshqaruva qarorlarini qabilish amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni qayta tarkiblashdan maqsad ishlab chiqarishni tayyorlanayotgan mahsulotlarga buyurtmalar bilan imkon darajada ta'minlash, ularni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun sharoitlar yaratib berish hisoblanadi. Shuningdek, bunda ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, kapital mablag'lar tarkibini o'zgartirish, boshqaruva tizimining qayta tashkil etilishini nazarda tutuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ular sifatini oshirish istiqbollarini belgilash ham muhim masalalardan hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni qayta tarkiblash to'g'risida boshqaruva qarorlari qabul qilishning zarurati ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulotning moliyaviy-iqtisodiy va marketing jihatdan tahlilini talab darajasida emasligi hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari asosida joriy yilda va kelgusida qanday tovarlarni qancha miqdorda ishlab chiqarish va sotish imkonini mavjudligini aniqlash mumkin.

Qayta tarkiblash jarayonida korxonalarning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish mahsulot ishlab chiqarishning eng foydali yo'nalishlarini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Bu ma'lumotlar asosida korxonada boshqaruva va ishlab chiqarish bo'linmalarining yangi, samarali tarkibi shakllanadi. Qayta tarkiblashda rentabelli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi bo'linmalardan tashqari bo'linmalarni salbiy natijalar (zarur mutaxassislar shtatining qisqarishi, tushumning kamayishi va h.k.)ga olib kelishiga qaramasdan tugatishga to'g'ri keladi. Chunki, bu tadbir korxonani iqtisodiy sog'lomlashtirishga ko'maklashadi.

Shuningdek, ishlab chiqarishni qayta tarkiblashda quyidagilarga asoslanish zarur:

- 1.Uy-joy communal xo'jaligi, kapital qurilish, yordamchi xo'jaliklar kabi ishlab chiqarishda ishtirot etmaydigan bo'linmalarni mustaqil xo'jalik subyektlariga ajratish;
2. Rentabelli ishlab chiqarishni sho'ba va tobe jamiyatlarga ajratish;
- 3.Tegishli xizmat turlarini sotish jarayonini boshqaruvchi bo'linmalarga topshirish va h.k.

Bu holatlar korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini xarajatlar va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil etishni talab qiladi. Ishlab chiqarishni yuqori iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri xodimlarning malakali kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishidir.

Ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish uchun korxonani qayta tarkiblashning yalpi dasturi ishlab chiqiladi. Mazkur dastur tahliliy amallarning natijalarini sintezlash, ular asosida qo'yilgan maqsad va

vazifalarga erishish yo'llari, usullari, shart-sharoitlarini aniqlash, bu boradagi zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Qayta tarkiblash dasturi maqsad va vazifalar, qayta tarkiblanayotgan korxonaning umumiy xususiyatlari, moliyaviy-iqtisodiy holatining tahlili, tovar bozorlari kon'yunkturasi va mahsulotlar assortimenti tahlili, boshqaruv tizimi, aktivlar va passivlarni qayta tarkiblash, qayta tarkiblash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning taqvim rejasi, moliyaviy reja, mas'ul ijrochilar to'g'risidagi ma'lumotlar, qayta tarkiblashning samaradorligi, xatarlarni baholash, kafolatlar, qayta tarkiblashni amalga oshirilishining nazorati kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

Qayta tarkiblashning yalpi dasturini ishlab chiqish va joriy etish korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni rivojlanish strategiyasi va bozordagi xatti-harakatlari, shuningdek, ishlab chiqarish va marketingni rejalashtirishda hal etiladigan vazifalarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Dastur korxonani boshqarishning vakolatli organi tomonidan muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Ushbu organ tomonidan dasturning ijrochilari va rahbari tayinlanadi.

Dastur bajarilishining borishi haqida hisobotlar korxonaning boshqaruv organiga taqdim etiladi va zarur hollarda unga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Dasturning amalga oshirilishi bo'yicha ishlar tasdiqlangan moliyaviy rejaga muvofiq moliyalashtiriladi. Mazkur dastur korxonani qayta tarkiblash bo'yicha tadbirlar taqvim rejasining bajarilishi bilan yakunlanadi.


Qayta tarkiblashning yalpi dasturi, nafaqat iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolgan korxonalarga, balki samarali faoliyat ko'rsatib turgan korxonalarga ham foydali bo'lishi mumkin. Chunki, u oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish zaruratini asoslash, ishlab chiqarishni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilashga ko'maklashadi. Dasturni amaliyatga joriy etish korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korxonalarda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilishga bevosita bog'liq. Xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvi samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini istiqbolli rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur holatda korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ichki va tashqi omillar ta'sirida takomillashadi. Ular oldiga o'z faoliyatlarini bozor

tamoyillaridan kelib chiqqan holda tashkil etish talabi qo'yiladi. Bu kabi talablar korxonalarga xaridorlar ehtiyojlarini optimal darajada qondirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni yo'Iga qo'yish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan hamda tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchan boshqaruv tizimini vujudga keltirishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda boshqaruv samaradorligi alohida o'r'in egallaydi, chunki har bir iqtisodiy tizim va jarayon samarali boshqarishni talab qiladi. Iqtisodiyotning boshqarish samaradorligi deyilganda, avvalombor, boshqarish jarayonining natijaviyligi tushuniladi.

Agar korxona boshqaruv faoliyatining natijaviyligi xodimlar faoliyatining pirovard natijaviyligi bilan to'g'ri kelsa, boshqarishda murakkab, ko'p qirrali ob'ektni baholash bo'yicha to'liq (umumiy) yoki shaklan samaradorlik yuzaga keladi.



#### 8.7-chizma. Korxonada boshqaruv samaradorligining turlari


Samaradorlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida boshqaruvning barcha tomonlarini qamrab oladi va iqtisodiy, tashkiliy, marketing hamda boshqa munosabatlarni ifodalaydi.

Boshqaruv samaradorligi boshqaruvning o'ziga emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Bu holat boshqaruv va ishlab chiqarishni bir-biridan ajratib bo'lmashigi, biroq bu yaxlitlikda ishlab chiqarish ustuvor hisoblanishi lozimligi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish faqat ishlab chiqarishni emas, balki korxona faoliyatining boshqa jihatlari, xususan, bozorlarni

o'rganish, xodimlar va moliyani boshqarish kabilarning samaradorligini oshirishni ham talab etadi. Shu sababali, boshqaruv samaradorligi deganda pirovard natijada ob'ektni yaxlit tizim sifatida oqilona faoliyat ko'rsatishi va uning rivojlanishini ta'minlaydigan boshqarishni tushunish zarur.

Korxona boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda uning uslubiy jihatdan mezon va ko'rsatkichlari aniqlanishi alohida ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun boshqaruv tizimi samaradorligining tahlilini o'tkazish lozim. Chunki o'tkaziladigan tahlil qanchalik chuqur va sifatli bo'lsa, boshqaruv samaradorligining ob'ektiv baholanishiga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tahlil jarayonida aniqlangan mezon va ko'rsatkichlardan foydalanib boshqaruv samaradorligiga baho beriladi. Quyidagi chizmada boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli keltirilgan (8.8-chizma):



**8.8-chizma. Boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli**

Chizmadan ko'rinish turibdiki, tahlil modeli shartli ravishda uchta blokka bo'lingan:

I-blok – korxonaning ta'minot tahlili (kadrlar, moddiy, texnik, axborot va h.k.);

II-blok – boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv jarayonlari tahlili;

III-blok – ishlab chiqarish bo'linmalari va hisob tizimi holati tahlili.

Ushbu tahlil bloklari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash boshqaruv tizimi samaradorligi tahlilini sifatli va ishonchli o'tkazishni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, muayyan ob'ektning boshqaruv samaradorligiga baho berayotganda uning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Masalan, qishloq xo'jaligi tarmog'iga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Subyektlarning strategik ahamiyatga molik ekanligi.
2. Ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi va sanoat tarmog'i xususiyatlarining uyg'unlashganligi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishida mahsulot tannarxining asosiy qismini xomashyo tashkil etadi ya'ni bunda material sig'imi yuqori.
3. Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarishiga tabiiy iqlim omillarining bevosita ta'sir etishi.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv samaradorligini haqqoniy baholash quyidagi tamoyillarni hisobga olishni taqozo etadi:

1. Tezkorlik hamda boshqaruv jarayoni maqsad va vazifalarini bozor iqtisodiyoti talablarini e'tiborga olgan holda amalga oshirish.
2. Foydalilik va boshqaruvning tashkiliyligi ya'ni ishlab chiqarish hamda korxona boshqaruvining o'zaro muvofiqligini ta'minlash.
3. Tejamkorlik yoki natijaviylik ya'ni boshqaruvni imkon darajada kam mehnat, moddiy va moliyaviy xarajatlar sarflash orqali tashkil etish.

Yuqoridagilarga asoslanib xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvi samaradorligi mezonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Ishlab chiqarishning yuqori darajadagi samaradorligi.
2. Bozordagi ulushning ortishi.
3. Xarajatlar darajasi.
4. Tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorlik darajasi.
5. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning to'g'riligi va tezligi.
6. Tizimning o'z-o'zini tartiblash va tashkil etish imkoniyati.

Bu mezonlardan kelib chiqib, boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini 8.5-jadvalda ko'rsatilganidek asoslash mumkin.

### 8.5-jadval.

#### Boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar hisob-kitobi	Tarkibiy ko'rsatkichlarning izohi
1.	Boshqaruv faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ( $K_{is}$ )	$K_{is} = \frac{D}{X_{is}}$	<b>D</b> - yillik daromad; $X_{is}$ - mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga sarflangan bir yillik xarajatlar
2.	Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi ( $K_t$ )	$K_t = \frac{I_d}{A_o}$	<b>I<sub>d</sub></b> - ishlab chiqarish davrining davomiyligi; <b>A<sub>o</sub></b> - aylanma mablag'lar obozotining davomiyligi.
3.	Ishlab chiqarish va sotish rentabelligi ( $K_r$ )	$K_r = \frac{F_s}{S_x}$	<b>F<sub>s</sub></b> - sof foyda; <b>S<sub>x</sub></b> - mahsulotni sotish hajmi.
4.	Kapitalni manevrlik darajasi ( $K_m$ )	$K_m = \frac{K_{ak}}{K_u}$	<b>K<sub>ak</sub></b> - aylanma mablag'lar summasi; <b>K<sub>u</sub></b> - o'zining kapitalini o'rtacha yillik kapitalidagi ulushti.
5.	Amortizatsiya ajratmalarining jamg'arilishi ( $K_j$ )	$K_j = \frac{AF_b}{A}$	<b>AF<sub>b</sub></b> - asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati; <b>A</b> - amortizatsiya ajratmalarini summasi.
6.	Mahsulot rentabelligi ( $K_{mx}$ )	$K_{mx} = \frac{T}{X}$	<b>T</b> - mahsulot sotishdan olinigan tushum; <b>X</b> - mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan harajatlar.
7.	Aktioner kapitalidan foydalanish samaradorligi. Bitta aksiyaning qiymati ( $K_a$ )	$K_a = \frac{K_{eh}}{S_a}$	<b>K<sub>eh</sub></b> - muomalaga chiqarilgan aksiyalarning qiymati; <b>S<sub>a</sub></b> - sotilgan aksiyalarning qiymati.

8.5-jadvaldagagi ushbu ko'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi subyektning nafaqat ichki samaradorligi, balki tashqi samaradorligini ham o'zida aks ettiradi.

Biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish yirik korxonalarda boshqaruvni kichik va o'rta biznes subyektlari boshqaruvi kabi tashkil etishni anglatadi.

Boshqaruv tizimini bunday tartibda shakllantirishning afzalligi yirik korxonalarining daromadi yuqoriligi va ularning ishsizlik darajasini pasaytirishga ko'maklashishi bilan ifodalanadi.

Biznesni amalga oshiruvchi shaxs biznes subyekti yoki biznesmen deb ataladi. Biznes xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, jumladan, mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishdan iborat faoliyat majmuini ifodalaydi.

Iqtisodiyotda kichik biznesni rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi har bir mamlakatdagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi paytgacha respublikamizda kichik va o'rta biznesni istiqbolli rivojlantirish borasida ko'pgina amaliy ishlar qilindi, jumladan uni bevosita qo'llab-quvvatlovchi quyidagi maxsus qo'mita va kengashlar tashkil etildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash.

2. Oliy Majlisning iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlik bo'yicha qo'mitasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining restrukturizatsiya xususiyashtirish qo'mitasi.

4. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi va h.k.

Ushbu davlat organlarining muhim vazifasi kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy organlar, hokimliklar ham o'z hududiy xususiyatlariga asoslangan holda, kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqib, amalga oshiradilar.

Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes subyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish maqsadida «Korxonalar to'g'risida», «Mulkchilik to'g'risida», «Kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda «Xususiy tadbirkorlik to'g'risida»gi Nizom qabul qilindi.

Kichik va o'rta biznes (KO'B) subyektlarini hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1.KO'Blarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

2.KO'Blarda zamonaviy, rag'batlantiruvchi boshqaruv tuzilmasini barpo qilish.

3.KO'Blarga moddiy-texnika bazani shakllantirishda yordam berish.

4.KO'Blarni ishonchli axborot manbalari bilan ta'minlash.

Ushbu me'yoriy hujjatlar respublikamiz iqtisodiyotida markazlashtirilmagan boshqaruvni yo'lga qo'yish, bu jarayonda kichik va o'rta biznes korxonalarining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishni markazlashtirilmagan holda boshqarishning muhim sharti iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish birliklarini vujudga keltirish hisoblanadi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik jihatdan mustaqil yoki mustaqil bo'lmasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda yangi tahrirda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining (2001 yil 12 maydagi o'zgartirishlar bilan) 5-moddasiga muvofiq respublikamizda kichik va o'rta biznes subyektlarining quyidagi shakllari mavjud:

1. YUriddik shaxs bo'lman, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi alohida jismoniy shaxs;

2. Mikrofirmalar mulkchilik shaklidan qat'i nazar o'zining o'rtacha yillik bandlik hisobiga ega ishlab chiqarish tarmoqlarida 10 kishigacha ishchisi bo'lgan, savdo, xizmat va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 kishigacha ishchisi bo'lgan korxonalar;

3. Kichik korxona mulkchilik shaklidan qat'i nazar, o'zining yillik bandlik hisobiga ega, sanoat sohasida band bo'lgan tarkibida 40 kishigacha ishchisi bo'lgan, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida tarkibida 20 kishigacha ishchisi bo'lgan, fan, fanga xizmat ko'rsatish, chakana savdoda tarkibida 10 kishigacha ishchisi bo'lgan korxona;

4. O'rta korxona mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ishlab chiqarish sohasida 100 kishidan oshmagan, qurilishda 50 kishi, qishloq xo'jaligida, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, ulgurji savdoda 30 kishi, chakana savdo, xizmatlar sohasi va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari tarmoqlarda 20 kishidan iborat ishchisi bo'lgan korxonalar.

Xalqaro tajribaning tasdiqlashicha, kichik biznes subyektlari yirik biznes ko'magi ostida samaraliroq faoliyat yuritadi, chunki yirik korporatsiyalar texnologik jarayonlarning maromiyligini ta'minlaydi.

Kichik biznes subyektlari boshqaruvda bir qator ijobji ustunliklarga ega, jumladan:

1. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning tezkorligi va ixchamligiga erishiladi;

2. Yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ularning taninxini pasaytirish, xomashyo va resurslardan

samarali foydalanishda yirik biznesga qaraganda kichik biznes subyektlarining imkoniyati yuqori;

3. Kichik biznes subyektlarida yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni amaliyotga qisqa muddatlarda joriy etish mumkin;

4. Iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko'maklashadi;

5. Buzor talablariga, raqobatbardoshlik shartlariga tezroq moslashiladi;

6. Qo'shimcha ishchi o'rinalarini yuzaga keltiradi va h.k.

Biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish zarurati korxona iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolganda ya'ni uning kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajara olmaslik hollarida ham yuzaga keladi.

Korxonalarda boshqarishning mazkur tartibini samarali joriy etish ularda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga bevosita bog'liq. Bunda korxonaning hisob tizimini xarajatlar va javobgarlik markazlari ustidan hamda rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishlar bo'yicha tezkor nazorat o'rnatish, shuningdek, bo'linmalar o'rtasida transfert baholarni to'g'ri shakllantirish, ular moliyaviy-xo'jalik faoliyatini batafsil aks ettiradigan segmentar hisobotlarni tuzishga imkon berishi talab qilinadi.

## 8.7. Rivojlangan mamlakatlarda biznesni markazlashtirilmagan holda boshqarish tajribasi

AQSH iqtisodiyotida biznes tarkibini o'zgartirish amaliyoti XIX asrning 50-60-yillarida korxonalarda markazlashgan boshqaruvdan foyda, investitsiya kabi markazlarning huquq va majburiyatlarini oshirishga o'tilishi bilan boshlandi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, korxonalar o'rtasidagi raqobat kurashining kuchayishi ishlab chiqarishning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish, har qanday ichki va tashqi omillar ta'siriga tayyor turish kabi muhim vazifalarni amalgalashishga oshirishni taqozo etadi.

Bunday sharoitda yirik korxonalar oldida vertikal integratsiyalashish darajasini haqqoniy baholash, uni pasaytirish imkoniyatlarini izlash, bo'linmalarning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash kabi vazifalar yuzaga keladi.

G'arb mamlakatlari tajribasining tasdiqlashicha, biznesni nomarkazlashtirishda korxona rahbariyati bozorni o'rganish, ishlab

chiqarishni boshqarish va nazorat qilish, tovar va xizmatlarni sotish to'g'risida etarlicha axborotlar to'plash borasida dastlabki marketing izlanishlarini amalga oshirmsandan iqtisodiy samaradorlikka erishishi qiyin.

Marketing izlanishlari tovar (ish va xizmat)larni bozorda foydali sotish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilishda asos vazifasini bajaradi. Mazkur izlanishlar mahsulotlar sifati va bahosiga ta'sir etuvchi omillar hamda ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlari (sotish hajmi va joyi, mol etkazib beruvchilar, vositachilar va h.k.)ni ifoda etadi.

Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilishda quyidagilar marketing faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

1. Korxonaning istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish;
2. Joriy biznes faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish;
3. Korxonaning ichki biznes tarkibini tahlil qilish;
4. Korxonaning faoliyat ko'rsatayotgan tashkiliy tuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Korxonaning istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilishda uning bozorda muayyan faoliyat turi bo'yicha raqobatlashish darajasi aniqlanadi.

AQSH iqtisodchisi, strategik boshqarish bo'yicha etuk iqtisodchi olim M.I.Porter korxona biznesining rivojlanishiga olib keluvchi to'rtta o'zaro raqobatlashadigan iqtisodiy subyektni ajratadi.

Korxonalar o'z biznes faoliyatini tashkil qilishda mol etkazib beruvchilar to'g'risidagi zarur axborotlarni hisobga olishi zarur. Mol etkazib beruvchilar korxonalar faoliyatiga etkazib beriladigan mahsulotlarni bahosi va sifatining maqbulligini ta'minlash orqali ta'sir ko'rsatadi.

Bu omillarning ta'sir darajasi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Etkazib beriladigan o'rinnbosar mahsulotlarning yo'qligi.
2. Mahsulot (tovar)larning korxona uchun ahamiyatliligi.
3. Mol etkazib beruvchilarning faoliyat doirasi (yirik yoki kichik korxona).

4. Sotuvchi-mol etkazib beruvchi tizimida xaridorlarning hissasi (agar bu hissa yuqori bo'lmasa, sotuvchi baholarni oshirishi yoki mahsulot sifatini pasaytirishi mumkin).

Biznesni boshqarishga ta'sir etuvchi mijoz va xaridorlarning o'zaro aloqasi omili korxonalarga bozorda mustahkam o'rinnegallash uchun


distributerlik tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Mijoz va xaridorlarning korxona faoliyatiga ta'siri mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar bahosini pasaytirish va ularning sifatini oshirish bilan bog'liq.

Ushbu omillarning ta'sir darajasi quyidagilar orqali ifodalanadi:

1. Mijoz va xaridorlarning zarur axborotlar bilan ta'minlanganligi.
2. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning xaridor uchun nafliligi va h.k.

Bozorda o'rinnbosar tovarlarning paydo bo'lishi an'anaviy, zamonaviy talablarga javob bermaydigan tovarlarni siqib chiqaradi. Shuningdek, bu holat bozorda raqobat muhitini shakllantiradi va korxona biznesini boshqarishga yangi talablarni qo'yadi, jumladan:

1. Mahsulot (tovar)larning yangi turini ishlab chiqarishni taqozo etadi;
2. Faol marketing tadqiqotlarini olib borish, tovarlar reklamasini samarali yo'lga qo'yish zaruriyatini yuzaga keltiradi;
3. Mahsulot (tovar)larning bahosini pasaytirish orqali ularning raqobatbardoshligini ta'minlashni talab qiladi;
4. Xaridor (mijoz)larga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, iste'molchilarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo qiladi.



**8.9-chizma. Bozorda harakat qiladigan o'zaro raqobatlashuvchi iqtisodiy subyektlar**

Yuqorida ta'kidlangan omillar korxonalarda biznesni markazlash tirilmagan holda boshqarishni tashkil etish va istiqbolli rivojlanirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlardan tajribasi biznesni samarali amalgam shakllanishi oshirishda korporativ boshqaruvni joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Korporativ boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmalarining shakllanishi yirik va o'rta korxonalarini vujudga kelishi bilan bog'liq iqtisodiyotni kapitalizatsiyalash jarayonining boshlanishidir. Korporativ boshqaruvning asosini korporatsiya, xolding kabi tuzilmalar tashkil etadi.

«Korporatsiya» (lot. corporatio - birlashma) biznesni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, u umumiyligi maqsadlarga erishish, birgalikdagi faoliyatni amalgam shakllanishi oshirish uchun birlashgan va huquqiy mustaqil subyektlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Ko'pchilik hollarda korporatsiyalar aksiyadorlik jamiyatini shaklida tashkil etiladi va menejerlar tomonidan boshqariladi.

Korporativ boshqaruv kontseptsiyasi dastlab Britaniyada 19 asrda ishlab chiqilgan. Korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Korporativ boshqaruv tuzilmasi ko'p pog'onali bo'lib, nisbatan murakkabligi bilan ajralib turadi;

2. Boshqaruv jarayoniga (strategiyasi va taktikasi) tegishli mexanizm orqali (aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi, kuzatuv kengashi) ta'sir eta olish imkonini mavjud;

3. Mulkdorni korxonaga egalik qilishi, biroq, uning korxonani joriy boshqarishga bevosita aralasha olmasligi;

4. Ishlab chiqarishni boshqarish yollanma boshqaruvchilar tomonidan amalgam shakllanishi, aksiyadorlarga esa nazorat qilish funksiyasi yuklatilishi;

5. Aksiyadorlarning soni cheklanmaganligi, bu holat yirik investortlarga korxona boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.

Korporativ boshqaruv tuzilmalarining mohiyatini tushunish uchun aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organi mazmuniga to'xtalib o'tish zarur. Chunki, mazkur tuzilmalarining asosini aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etadi.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvning umumiyligi tashkiliy tuzilmasi 3-ilovada keltirilgan.

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvning oliy organi bo'lib, u kamida bir yilda bir marta

chaqiriladi. Bu organ korxona rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, mavjud qonunchilik doirasida korxonani boshqarishning qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Umumiy majlislar oraliq idagi muddat ichida aksiyadorlarning huquqlarini himoya qiluvchi va Nizomda nazarda tutilgan vazifalarni bajaruvchi Kuzatuv kengash tuziladi. Kengash a'zolari yillik majlisda aksiyadorlar safidan saylanadi. Aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvning a'zolari Kuzatuv kengashiga a'zo bo'la olmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi (ijro organi) yoki Nizomda ko'rsatilgan boshqa idoralar aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi hisoblanib, jamiyat faoliyatini tashkil qiladi va uning faoliyati yakunlari bo'yicha yig'ilishga yillik hisobotni taqdim etadi.

Aksiyadorlik jamiyatining Nizomiga muvofiq tayinlanadigan yoki saylanadigan boshqaruv raisi boshqaruv ishiga rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi ishonch qog'ozisiz jamiyat nomidan faoliyat ko'rsatishga haqlidir.

Aksiyadorlar safidan saylanuvchi taftish komissiyasi jamiyat boshqaruvning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi. Taftish komissiyasining a'zolari jamiyatning ijroiya organi tarkibiga kira olmaydilar.

Aksiyadorlik jamiyatni har yili kamida bir marta o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilishga majburdir.

Jahon tajribasi boshqaruvni tashkil qilishning aksiyadorlik shakli yuqori samaraga ega ekanligini isbotlaydi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi aksiyadorlik jamiyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, Germaniyada aksiyalarning umumiyligi qiymati quyidagicha taqsimlanadi: fuqarolarda - 20 %, korxona va firmalarda - 40 %, sug'urta tashkilotlarda - 12 %, banklarda - 9 %, davlatda - 6 %, xorijiy mulkdorlarda - 13 %. Xodimlar odatda o'z korxonalarini aksiyalarini birja (bozor) kursidan arzon narxda sotib olishadi. AQSHda arzonlashtirish 10 foizni, Buyuk Britaniyada 37 foizgachani tashkil qiladi. Germanyaning «Simens» elektronika firmasi aksiyalarining 47 foizi, «Folksvagen» avtomobil kompaniyasining esa 36 foiz aksiyalarini xodimlarga tegishli.

Korporativ shaklidagi tuzilmalarining rivojlanishini tahlil qilishda ularning afzallik va kamchilik jihatlarini inobatga olish zarur.

Korporativ tuzilmalarining asosiy turlaridan biri xolding kompaniyasi hisoblanadi. Xolding (angl.) – boshqa kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish maqsadida ular aksiyalarining

nazorat paketiga ega bo'lgan kompaniyadir. Amaliyotda sof va aralash xolding turlari mavjud.

Sof xolding aksiyalar nazorat paketiga egalik qila turib, boshqa korxonalar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish bilan shug'ullanadi.

#### 8.6-jadval.

##### Korporatsiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklari
Aksiyadorlar korporatsiyaning qarzları bo'yicha, korporatsiya esa aksiyadorlarning qarzları bo'yicha shaxsiy javobgarlikka ega emas	Korporatsiya mulkdorlarining ikki tomonlama soliqqa tortilishi
Yirik va mayda sarmoyadorlarni jalg etish yo'li bilan kapitalni tezda yig'ib olish imkoniyati mavjud	Yakka tadbirkorlik yoki hamkorlikka nisbatan korporativ faoliyatning ancha qat'iy tartibga solinishi
Aksiyalar egalari almashishi munosabati bilan korporatsiyaning faoliyati to'xtab qolmaydi	Aksiyadorlar uchun korporatsiyani joriy boshqarishda cheklanishlarning mavjudligi

Aralash xolding muayyan sohada (sanoat, savdo, transport va h.k.) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi".

Xoldingning tarkibiga kiruvchi korxonalar sho'ba korxona bo'lib, mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi.

Aksiyalar (paylar, ulushlar)ning nazorat paketi deganda korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida va uning boshqaruv organlarida muayyan qarorlarning qabul qilinishi yoki rad etilishini ta'minlovchi, korxona kapitalida ishtirok etishning istalgan shakli nazarda tutiladi. Aksiyalarning nazorat paketlari to'g'risidagi qaror monopoliyaga qarshi organ tomonidan qabul qilinadi va tartibga solinadi.

Xolding aktivlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Qimmatli qog'ozlar.

2. Muassislar tomonidan shartnoma asosida berilgan, shuningdek, xolding mablag'lari hisobidan xarid qilingan aktivlar.

3. Pul mablag'lari va h.k.

Xoldinglar qisman yoki to'liq xorijiy sarmoya asosida, shuningdek, xorijiy korxonalar aksiyalari nazorat paketlarini sotib olish yo'li bilan ham tashkil qilinadi.

Xoldingning aktivlari tarkibiga sho'ba korxonaları aksiyalarining nazorat paketlari bilan bir qatorda aksiyalarning teng (paritet) paketlari (ikkita ishtirokchi bo'lganda 50 foiz) va boshqa xo'jalik jamiyatlari

kapitalidagi ishtirok paketlari (aksiyalarning nazoratsiz paketlari) kiritilishi mumkin.

Sho'ba korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha ularga tegishli mol-mulk, shu jumladan bosh xoldingga tegishli bo'lgan aksiyalar nazorat paketining qiymati bilan javob berishadi.

Xolding kompaniyalarining tashkil etilishi moddiy, moliyaviy resurslarning integratsiyalashuviga erishish, ularni yirik investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo'naltirishga ko'maklashadi.

Xolding korxonalarini alohida faoliyat turlari bo'yicha, amaldagi monopoliyaga qarshi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga asoslangan holda birlashtiradi.

Xoldingni tashkil etish bosh kompaniya balansini taqsimlashni har tomonlama asoslangan tartib bo'yicha amalga oshirish, ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish va ularni aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlash kabi bosqichlardan iborat.

Bosh va sho'ba korxona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ta'sis shartnomasida bosh va sho'ba korxona o'rtasida balansning taqsimlanish tartibi belgilanadi, asosiy va aylanma mablag'lar hajmi, sho'ba korxonasingning aylanma mablag'larini to'ldirishning umumiy asoslari belgilanadi.

Respublikamizda xolding kompaniyalarini shakllantirish ularning afzalliklari va kamchiliklari taqqoslashga bevosita bog'liq.

Odatda, xoldinglarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam ichki iqtisodiy aloqalar zarur hisoblanadi. Bunga esa uning barcha bo'linmalarini birlashtirish, tashkil etish va boshqarish orqali erishiladi. Bunday tizimli yondashuvga asoslangan boshqaruvni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsad va vazifalarni belgilash; ish turlari va hajmini aniqlash maqsadida vazifalarni guruhlarga bo'lish; javobgarlikni taqsimlash va boshqarish iyerarxiyasida darajalar sonini aniqlash; korxonani qo'yilgan maqsadga erishishi uchun xodimlarni rag'batlantiradigan muhitni shakllantirish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirishni ta'minlovchi kommunikatsiya tizimini loyihalash.

Mazkur boshqaruvni tashkil etishning muhim elementi bu uning tuzilmasidir. Korporatsiyaning tashkiliy tuzilmasiga ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvni har xil darajalaridagi vakolatlarni taqsimlash boshqaruv jarayonining samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

## 8.7-jadval.

### Xolding kompaniyalarining afzallik va kamchiliklarini qiyosiy tavsifi

Afzalliklar	Kamchiliklar
Ishlab chiqarishni kooperatsiyalashuvining rivojlanishi	Turli tadbirlar bilan bog'liq xarajatlarning ko'pligi
Aksiyalar bozorida faol qatnashish imkonisi	Har bir korxonaning alohida taftish qilinishi
Bozordagi raqobatda ustunlikka erishish	Sho'ba korxonalarining hisobotlarni har yili katta xarajat sarflab e'lon qilishga majburligi
Uzoq muddatli investitsiya dasturlarining amalga oshirilishi	Monopoliya va raqobatning chegaralanishiga moyillik
Sarmoyadorlar uchun alohida korxonalarga qaraganda imtiyozlarning ko'pligi	Bozorni muayyan segmentlariga egalik qilish investitsiyalardan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi
Sho'ba korxonalari o'rtaida raqobatni yumshatish	Xolding ichidagi raqobatga barham berilishi iqtisodiy turg'unlikka olib kelishi mumkin
Hisob yuritish va moliyaviy hisobotning birlashtirilishi	Oddiy aksiyadorlar uchun ayrim masalalarni hal etishning murakkabligi
Ishlab chiqarish xarajatlardagi tejamkorlik	Baho shakllanishining nazorat qilinishi mustaqil korxonalarni bankrotlikka olib kelishi mumkin
Resurslarning mobilligini oshirish	Samarasiz korxonalar faoliyatining qo'llab-quvvatlanishi
Malakali xodimlar	Xolding afzalliklaridan keng foydalanish imkoniyatining etishmasligi

Korporatsiya faoliyatini tashkiliy jihatlari uning maqsadi va strategiyasi bilan aniqlanadi.

Maqsad korporatsiyaning kelajakdagi holatidir. Maqsad aniqlangandan so'ng uning strategiyasi ishlab chiqiladi. Korporatsiya o'z strategiyasini ishlab chiqishda moslashuvchan bo'lishi lozim. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning zamonaviy talablarga javob bermay qolishi, texnologiyalarni yangilash zaruratinining yuzaga kelishi hollarida korxona mahsulot nomenklaturasini takomillashtirish orqali bozordagi o'zgarishlarga tezda moslashishi zarur.

Jahon tajribasida korporatsiyani boshqarishda, asosan, 4 daraja farqlanadi.

Birinchi darajada korporatsiyani boshqarishning umumiy siyosati ishlab chiqiladi. Ikkinchisida esa boshqarish va uni muvofiqlashtirish

amalga oshiriladi. Uchinchi darajada xizmat ko'rsatish va maslahatlar berish bo'linmalari tuziladi.

Korporatsiyani boshqarishning to'rtinchi darajasi boshqaruv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan.

AQSH korporatsiyalarida umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi direktorlar kengashi ichki va tashqi a'zolardan iborat.

Ichki direktorlarga qat'iy belgilangan ma'muriy-boshqaruv vazifalarini bajaruvchilar kiradi. Ularni, odatda, «boshqaruvchi direktorlar» yoki boshqaruv tizimiga mansubligi sababli, «topmenedjerlar» deb ham atashadi.

Tashqi direktorlar aksiyalarning asosiy egalari bo'lgan boshqa yirik firmalar, moliyaviy muassasalarning vakillaridir.

Agar ichki direktorlar muayyan miqdorda maosh olishsa, tashqi direktorlar faqatgina kengashning har bir majlisi uchun mukofot olishadi.

Boshqaruv kengashi tarkibida tashqi direktorlar sonini belgilash va ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat korxona rahbariyati tomonidan uning faoliyatini baholashga haqqoniy yondashish imkonini beradi. Shu sababli, Nyu-York fond birjasida kotirovkaga kengash tarkibida kamida uchta, taftish komissiyasida esa kamida beshta tashqi direktorga ega bo'lgan korxonalarining aksiyalariga ruxsat etiladi.

Rivojlangan mamlakatlar korxonalari kuzatuv kengashlari tarkibida tafovutlar mavjud. Bu ularning vazifalaridagi farqlarga emas, balki aksiyadorlarning tarkibi va sonidagi farqlarga hamda tarixiy sabablarga bog'liq.

Masalan, AQSH tarixida kuzatuv kengashining tashqi a'zolari bir vaqting o'zida boshqa korxonalarining boshqaruvchilari bo'lishgan edi. Mazkur holat hozirgi kunda ham tez-tez uchrab turadi.

AQSHda yuqori texnologiyali korxonalarda kuzatuv kengashining tashqi a'zolari ilmiy muassasalarning xodimlari ham bo'lishi mumkin. Yirik korxonalarda ular turli «jamiatlar»ning a'zolari hisoblanishadi. Ammo, kuzatuv kengashi a'zolarining uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha korxona boshqaruvining a'zolaridan iborat bo'lishi talab qilinadi.

O'z tarkibida sanoat tuzilmalarini birlashtiruvchi tashqi a'zolarga ega bo'lgan kuzatuv kengashlarining ustunlik tomonlari shundan iboratki, ular orqali korxona boshqaruvini baholashni sanoat sohasida etarlicha ish tajribasiga ega bo'lмаган kengash a'zosiga qaraganda muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Kengashning tashqi a'zolari, shuningdek,

boshqaruvni kelgusi rivojlantirish borasida ham maslahatlar berishlari mumkin.

Britaniyada korxona kuzatuv kengashlarining tarkibi ko‘p jihatdan AQSH korxonalari amaliyoti bilan o‘xshash, lekin Britaniyada kuzatuv kengashi raisi kengashning mustaqil a’zosi hisoblanadi. Ikkinchidan, kuzatuv kengashida korxona boshqaruvining ko‘p a’zolari ishtirok etishadi.

Germaniya korxonalarida esa amaldagi qonunchilikka muvofiq, kuzatuv kengashi tarkibida korxona boshqaruvining vakillari qatnashmaydi. Bunda faqat aksiyadorlar va korxona xodimlari kengashning a’zolari hisoblanadilar.

Shuningdek, Germaniyada banklar yirik kompaniyalarning aksiya paketlariga egalik qiladi va kuzatuv kengashi tarkibiga kiradi. AQSHda banklar uchun kompaniyaning aksiyadori bo‘lish ta’qiqlangan.

Germanyaning yirik kompaniyalarida 1949 yildan boshlab kengashlarning deyarli 50 foizi kompaniyalar xodimlaridan tashkil etiladigan bo‘ldi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, xolding kompaniyalarida biznesni qayta tarkiblashni amalga oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri xolding tarkibiga bank va boshqa moliya tuzilmalarini kiritgan holda uni moliya-sanoat guruhiiga aylantirishdir.

Moliya-sanoat guruhlari (MSG) moliyaviy, ishlab chiqarish va tovar kapitalini qayta ishlab chiqarish, jamg‘arish va uni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirishni ta’minlovchi davlat siyosatini amalgaga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ularni tuzish asoslarini «Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Moliya-sanoat guruhlari to‘g‘risidagi Nizom, shuningdek, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari tashkil etadi.

MSGda ishtirok etish korxonalarga quyidagi afzallikkлarni beradi:

1. Istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun investitsiyalarni birlashtirish.

2. Ilmiy-tekshirish ishlarini olib borish, yangi texnologiyalarni yaratish maqsadida ilmiy-tadqiqot bo‘limmalarini saqlab turish uchun zarur resurslarni to‘plash.

3. Investitsiyalarni kam rentabelli tarmoqlardan foydali tarmoqlarga o‘tkazish imkoniyati.

4. Investitsiyalarni amalga oshirish uchun kredit resurslari bilan ta’minalash.

5. Bozorni tadqiq qilish, mahsulot va xizmatlarni sotishni yaxshilash uchun yagona marketing xizmatini tashkil etish.

6. Yagona ta’milot xizmatini barpo etish va guruhning barcha korxonalari uchun ulgurji xarid qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini yaratish va h.k.

Banklar uchun MSGda ishtirok etishning jozibadorligi ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etish, o‘z navbatida foyda olishning yangi manbalariga ega bo‘lish, bank faoliyatini kengaytirish va tabaqaqlashdan iborat.

Kelgusida MSGga kirishdan pensiya jamg‘armalari, investitsiya va sug‘urta kompaniyalari ham manfaatdordir. Bunda zaxiralarni yuqori daromadli aktivlarga investitsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi nodavlat pensiya jamg‘armalari uchun pensiya miqdorini oshirish maqsadi qo‘yiladi.

Investitsiya kompaniyalari omonatchilar jamg‘armalarini jalb etgan holda olingan pul mablag‘larini guruhning qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qiladi. MSGga kiruvchi korxonalarning korporativ qimmatli qog‘ozlarini oldindan taxminlash mumkin. Shuning uchun guruhning qisqa va uzoq muddatli investitsion loyihamarida ishtirok etish xatari investitsiya kompaniyasi uchun ancha pasayadi.

### Test topshiriqlari

**1. Amal qilish davriga ko‘ra boshqaruv qarorlari qanday tasniflanadi?**

- a) stereotip;
- b) strategik (uzoq muddatli);
- v) taktik (qisqa muddatli);
- g) b va v;
- d)barcha javob to‘g‘ri.

**2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qo‘yiladigan talablar ifodalangan qatorni aniqlang.**

a) aniq yo‘nalishga ega bo‘lish va korxona manfaatlarini to‘liq ifoda etish;

- b) ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganlik;
- v) qabul qilish va amalga oshirish muddatining aniqligi;
- g) tezkorlik, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lish;
- d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

**3. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlili ...**

- a) menejerlarga ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish, zararsizlik nuqtasini aniqlashga imkon beradi;
- b) mahsulot tannarxini aniqlash usuli hisoblanadi;
- v) xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni hisobga oladi;
- g) ustama xarajatlar hisobini yuritadi;
- d) investitsiyalangan kapital daromadliligini aniqlaydi.

**4. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlilining asosiy elementlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

- a) marjinal daromad, zararsizlik nuqtasi;
- b) davr xarajatlari;
- v) ishlab chiqarish dastagi, chidamlilikning marjinal zaxirasi;
- g) favqulodda foyda va zararlar;
- d) a va v.

**5. Qaysi qatorda investitsiya loyihalarini amaliyotga joriy etish ketma-ketligi to'g'ri ifodalangan?**

- a) loyihani tahlil etish, loyihani muhokama qilish, loyihani tugatish;
- b) loyihani muhokama qilish, loyihani baholash;
- v) loyihani ishlab chiqish, loyihani amalgaga oshirish;
- g) loyihani tahlil etish, loyiha qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash;
- d) to'g'ri javob berilmagan.

**6. Qaysi qatorda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish zarurati to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini tez muddatlarda o'zgartirish;
- b) ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;
- v) aylanma mablag'lar aylanishi tezligini ta'minlash va nazorat qilish;
- g) korxonaning ishlab chiqarish va boshqa bo'linmalari o'ttasida oqilona baho siyosati yuritish;
- d) yuqoridagi javoblarning barchasi to'g'ri.

**7. Quyidagilardan qaysi biri korxonalarda baho siyosatini shakllantirishga ta'sir etuvchi tashqi muhit omillari hisoblanadi?**

- a) korxona ishlab chiqarayotgan tovarga bozordagi umumiy talab;

b) boshqa firmalar tomonidan chiqarilgan o'rribosar tovarlarning hajmi va sifati;

v) mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlar darajasi;

g) xaridorlarni mahsulot bahosi past bo'lishiga yoki tovar sifati yuqori bo'lishiga qiziqishi.

d) a, b va g.

**8. Bahoning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki omillar ifodalangan qatorni aniqlang?**

a) boshqa firmalar tomonidan chiqarilgan o'rribosar tovarlarning hajmi va sifati;

b) uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni qoplash imkoniyati;

v) mehnat va materiallar sifati;

g) cheklangan resurslardan foydalanish darajasi;

d) b, v va g.

**9. Operativ saldo usulining asosiy printsiplari bo'lib.....hisoblanadi.**

a) materiallarning soni ombor kartochkalariga asosan aniqlanadi;

b) materialning harakati ustidan nazorat omborda olib boriladi;

v) ma'lumotlarni solishtirish huquqi buxgalteriyaga beriladi va pul o'chovida yuritiladi;

g) hammasi to'g'ri.

**10. Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan materiallarning kamomad qiymati hisobdan chiqarildi. Buxgalteriya provodkasini bering.**

a) Dt 1010 Kt 9220;

b) Dt 5910 Kt 9220;

v) Dt 5910 Kt 1010;

g) Dt 9220 Kt 1010.

**Nazorat savollari**

1."Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda" tahlili korxona ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda qanday ahamiyatga ega?

2. "Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda" tahlilining qanday asosiy elementlari mavjud?

3. Zararsizlik nuqtasi qanday hisoblanadi?

4. Marjinal daromadni aniqlashning qanday usullari mavjud?

5. Chidamlilikning marjinal zaxirasining iqtisodiy mohiyati nimada?

6. Korxonalarda ishlab chiqarish dastagi mexanizmidan foydalanish qanday xususiyatlarga ega?
7. Ishlab chiqarish dastagi o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
8. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning qanday bosqichlari mavjud?
9. Investitsiyalar samaradorligi qanday aniqlanadi?
10. Korxonalarda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish zaruratini izohlang.

## **9-bob. XO'JALIK SUBYEKTLARINING BOSHQARUV HISOBINI AMALIY TASHKIL QILISH MUAMMOLARI**

### **9.1. Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish**

**Javobgarlik markazlari** – boshqaruv hisobi tizimida muhim ob'ekt hisoblanib, boshqaruv xodimlari faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan yangi psixologik talqindir. Uning asosiy maqsadi nazoratdan ko'ra ko'proq o'zini boshqarishda boshqaruv xodimlariga yordam berishdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda javobgarlik markazlari bo'yicha hisobni tashkil etishning asosiy maqsadi faoliyat xarajatlari va daromadlari haqidagi ma'lumotlarni alohida-alohida umumlashtirish hamda ular bo'yicha mavjud chetlanishlarni bo'lmalar zimmasiga yuklashdan iborat.

Boshqarish nuqtai-nazaridan korxonaning javobgarlik markazlariga bo'limishi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- javobgarlik markazlari korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi bilan bog'langan bo'lishi;
- javobgarlik markazlarida faoliyat hajmini aniqlash, xarajatlarni hisoblash va ularni taqsimlash uchun asos vazifasini bajarishi;
- har bir javobgarlik markazi menejerlarining vakolatlari va javobgarligi aniq belgilanishi zarur. Menejer faqat o'zi nazorat qila oladigan ko'rsatkichlar uchun javob beradi;
- har bir javobgarlik markazi uchun ichki hisobot shakllarini o'rnatilishi;

– javobgarlik markazlari menejerlari o'tgan davr uchun markaz faoliyati tahlilini o'tkazishda va kelgusi davrga rejalar (budgetlar) tuzishda faol ishtirok etishlari lozim.

Shuningdek, korxonani javobgarlik markazlariga bo'lishda tegishli markazlar rahbarlarining e'tirozlariga ta'sir qila oladigan ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish lozim.

Zamonaviy boshqaruv hisobida korxona faoliyatini javobgarlik markazlariga bo'lib tashkil etish tarmoq xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi va uni tashkil etilishi, dastlabki materiallar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tarkibi, texnik jihozlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liq.

Korxonani tashkiliy tuzilma doirasida boshqarishni tashkil

etishning chiziqli, funksional, chiziqli-funksional va matritsali shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

**Chiziqli boshqarish** deganda "vertikal bo'yicha" boshqarish tushuniladi, bunda quyida bo'g'inalar yuqori bo'g'inalarga bevosita bo'ysunadi.

Chiziqli boshqarishda har bir rahbar o'zi mas'ul bo'lgan bo'linmalarni mustaqil boshqaradi va barcha zarur boshqaruv qarorlarini mustaqil qabul qiladi. Bu tizimning o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Jumladan, uning ijobiy jihatlari:

- xodimlarning o'z vazifalarini bajarilishiga shaxsiy javobgarligini yuzaga keltiradi va mustahkamlaydi;
- asoslanmagan va samarasiz topshiriqlar berilish hollarini bartaraf etishga imkon beradi;
- belgilangan vazifalarni tezda bajarish va ularning natijalarini tahlil qilib borish mumkin;
- bo'linmalar xodimlari faqat o'z rahbarlariga hisobot berishlari sababli korxonada ijrochilik va intizom darajasi yaxshilanadi.

Mazkur tizimning salbiy tomonlari esa ko'proq unda oddiy va qisqa muddatli vazifalarni bajarishga e'tibor qaratilishi sababli, kompleks hamda istiqbolli masalalarni hal qilish ancha qiyinlashishi bilan ifodalanadi. Shuningdek, bunday sharoitda buyruqbozlik va rasmiyatçilik muhiti yuzaga kelishi mumkin.

Odatda, bu tizim ishlab chiqarish tsexlari va korxona bo'linmalarini boshqarishda yuqori samara beradi.

**Funksional boshqarish** korxonani moliya, ta'minot, sotish, kadrlar, loyiha-konstrukturlik va texnologik ishlovlari, ish yuritish, tashqi iqtisodiy aloqalar va hokazolar kabi alohida funktsiyalar bo'yicha boshqarishdir. Bu tizim korxona rahbari va alohida funktsiyalar menejerlarining faoliyatini ixtisoslashtirishga mo'ljallangan. Bunda menejerlarning o'z bo'linmalarini faoliyatini chuqur va puxta bilishi, sodir bo'layotgan jarayonlarni istiqbolli tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Funksional boshqarish tizimining afzalligi korxonada boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirilishi bilan belgilanadi. Bu holat boshqaruv samaradorligini oshiriga xizmat qiladi.

Korxonalar faoliyatida boshqarishning **chiziqli-funksional tuzilmasidan** keng foydalaniladi. Bunday tuzilma doirasida chiziqli bo'linmalar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy faoliyat bilan shug'ullanadi, ixtisoslashgan funksional bo'linmalar esa (marketing

bo'limi, reja-moliya bo'limlari, kadrlar bo'limi) asosiy bo'linmalarga xizmat qiladi. Bu holda boshqaruvning ixtisoslashuvi, uning tamoyillari birgalikda to'laroq amalga oshiriladi hamda tayyorolanadigan qarorlarning yuksak darajaliligi va har bir ishlab chiqarish bo'g'iniga yoppasiga rahbarlik qilish ta'minlanadi.

**Matritsali tuzilmada** funksional bo'linmalar bilan birga muayyan ishlab chiqarish vazifalarini hal etish uchun maxsus organlar (loyiha guruhları) tuziladi. Bu guruhlar boshqaruvning turli darajalaridagi alohida funksional bo'linmalar mutaxassislaridan tarkib topadi. Matritsali tuzilmaning afzalligi shundaki, u korxona ichki faoliyatidagi mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi, bu esa funksional ixtisoslashish rivojiga xalal bermaydi. Funksional-qiyomat tahlili (FQT)ning vujudga kelishi ham bunga misol bo'lishi mumkin. Uning maqsadi eng kam xarajat qilgan holda eng yaxshi sifatlari va zamonaviy, yangi buyumni ishlab chiqarishga erishishdir.

Boshqarishni tashkil etishning matritsali shakli rahbar va xodimlarning hamjihatlikdagi faoliyatini ta'minlaydi, ularning shaxsisi qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratadi. Mazkur tashkiliy tuzilmaga muvofiq javobgarlik markazlarini tuzish (tsex, bo'lim, bo'linma) har bir bo'linma faoliyatini muayyan shaxslar mas'uliyati bilan bog'lashga, bo'linmalar moliyaviy natijalarini baholashga va ularning korxona faoliyati natijalariga qo'shgan hissasini aniqlashga imkon beradi.

## 9.2. Javobgarlik markazlarining turlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobining tashkil etishda ushbu markazlarning turlari mohiyatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Korxonada bo'linmalar bo'yicha boshqaruv hisobini samarali tashkil etish uchun ularni quyidagi belgilarga muvofiq tasniflash lozim:

- Vakolatlar va javobgarlik hajmiga ko'ra;
- Markaz bajaradigan funktsiyalar bo'yicha.

Vakolatlar va javobgarlik hajmidan kelib chiqqan holda javobgarlik markazlarini *xarajatlar, sotish, foyda va investitsiyalar markazlariga* bo'lish maqsadga muvofiqdir.


**Xarajatlar markazi** – faqat xarajatlarning maqsadli sarflanishiga mas'ul bo'lgan korxonaning bo'linmasidir (ishlab chiqarish tsexi, konstrukturlik byurosi va h.k.).

Korxonani bunday markaz doirasida boshqarish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarni rejalashtirish, me'yorlashtirish va hisobini tashkil etish amalga oshiriladi.

Keltirilgan chizma xarajatlarni alohida bo'linmalar ichida rejalashtirish imkonini beradi. Unga asoslanib, korxonada xarajatlar hisobini oqilona tashkil etish mumkin.

Xarajatlar markazini, o'z navbatida, boshqariladigan va erkin xarajatlar markazlariga bo'lish mumkin.

Boshqariladigan xarajatlar markazining rahbari, avvalo, mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni eng kam miqdorga keltirishga javob beradi va uning faoliyati mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan me'yoriy va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan baholanadi.




**9.1-chizma. Korxona bo'lmalarida xarajatlarni kelib chiqish joylari bo'yicha turkumlash**

Erkin xarajatlar markazi faoliyatini baholash uchun aniq mezonni belgilash murakkab, chunki korxona rahbariyati bunday markazlar xarajatlari hajmiga ta'sir qila olmaydi. Konstrukturlik byurosi, kimyoviy-texnik nazorat laboratoriyasi va h.k.lar erkin xarajatlar markazlariga misol bo'la oladi.

Boshqariladigan xarajatlar markazida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa bo'limlar o'rtasida samarali munosabat o'rnatiladi. Ushbu markazlarning xarajatlarini boshqarish oldindan tuzilgan moslashuvchan budgetlar yordamida amalga oshiriladi.

Sotish markazi javobgarlik markazining bir turi hisoblanib, bu bo'linmada rahbar faqt tushumga javob beradi. Shu sababli, unda sotishdan olinadigan tushum va uni belgilovchi ko'rsatkichlar: sotish hajmi va baho asosiy nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruvin hisobini tashkil etish shuni ko'rsatadiki, har bir bo'linma faoliyati natijalarini baholash uchun muayyan javobgarlik markazining olishi kutilayotgan foydasi hajmini belgilash zarur. Bunday sharoitda javobgarlik markazlari doirasida foya markazlari tuzish alohida ahamiyatga ega.



**9.2-chizma. Funktsional javobgarlik markazlari bo'yicha analitik hisob chizmasi**

**Foya markazi** – bo'linma rahbari xarajatlar va foya uchun javob beradigan markazdir. Bunday markazlarda xarajat va daromadlar - ishlab chiqarilgan mahsulotning puldag'i ifodasi bo'lib, foya esa ular

o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Foyda markazi menejeri sotish hajmi va bahoni, shuningdek, xarajatlarni nazorat qiladi.

Foyda markazi – kichik ko‘rinishdagi korxona iqtisodidir. Foyda markazi bo‘yicha boshqaruvi modelidan foydalanish ko‘pgina korxonalarda foyda uchun javobgarlikni nomarkazlashtirishga imkon beradi.

Foyda markazi, o‘z navbatida, bir qancha xarajatlar markazlaridan tashkil topish mumkin.

Foyda markazini moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, shuningdek, rejalashtirilgan foyda olish jadvali (operatsion budjet) yordamida boshqarish mumkin.


**Investitsiyalar markazi** – rahbar nafaqat daromadlar va xarajatlarga, balki kapital quyilmalarga ajratilgan mablag‘larga ham javob beradigan bo‘linmadir.

Amaliyotda sof foydasini investitsiya qilish huquqiga ega bo‘lgan bunday markazning maqsadi foyda olish hamda sarflanadigan mablag‘larning rentabelli, investitsiyalarning daromadliligi va xususiy mablag‘ning ortishiga erishish hisoblanadi.

Investitsiyalar markazi faoliyatini rejalashtirilgan foyda olish jadvali (operatsion budjet), shuningdek, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, buxgalteriya balansi yordamida boshqarish mumkin.

**Javobgarlikning asosiy markazlari** bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Ularning xarajatlari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Asosiy ishlab chiqarish brigadalari, tsexlari va sotish bo‘limini ana shunday markazlarga kiritish mumkin.

**Javobgarlikning yordamchi markazlari** javobgarlikning asosiy markazlariga ko‘maklashish uchun tashkil etiladi. Bu markazlarning xarajatlari avval javobgarlikning asosiy markazlari bo‘yicha taqsimlanadi, keyin esa asosiy markazlarning umumiy xarajatlari mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi tarkibiga kiritiladi. Ma’muriyxo‘jalik, texnik nazorat bo‘limlari, ta’mirlash tsexi, asbob-uskunalar ustaxonasi va boshqalarni shunday markazlar jumlasiga kiritish mumkin.



### 9.3-chizma. Ishlab chiqarish korxonalarida javobgarlik markazlari tuzilmasi

Shuni ta’kidlash lozimki, javobgarlik markazlarini aniqlashda korxona texnologik tuzilmasini e’tiborga olish, uni gorizontal va vertikal ko‘rinishlarga ajratish zarur. Gorizontal tuzilmada markaz uchun javobgar har bir shaxs faoliyati doirasi bilan farqlanadi, vertikal tuzilmada esa boshqaruv qarorlari qabul qilishga vakolatli shaxsning harakatlari nazarda tutiladi. Javobgarlik markazlarining har biri bir vaqtida xarajatlar, daromadlar, foyda yoki investitsiyalar markazi bo‘lishi mumkin. Bu chizmaga asoslanib, korxona javobgarlik markazlarining shakllanishini gorizontal va vertikal ko‘rinishlarda tahlil qilib chiqish korxona bo‘lmalari rahbarlari faoliyatini markaziy boshqaruv xodimlari faoliyati bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Javobgarlik markazi rahbari vazifalarni bajarish bo‘yicha belgilangan majburiyatlar bilan birga moliyaviy javobgarlikni ham o‘z zimmasiga olishi shart. Bunda har bir markaz o‘ziga tayinlangan turli funktsiyalarni bajarishi mumkin (ishlab chiqarish, marketing, texnik

xizmatlar, hisob, nazorat va h.k.). Mazkur holatda, muayyan funktsiyalar yoki vositalar emas, balki xodim yoki ma'muriyat javobgarlik markazi ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

### **9.3. Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan tizimlari**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini rivojlantirish ularda boshqaruv hisobini tashkil etishning istiqbolli usullaridan foydalanishga bevosita bog'liq.

Xalqaro tajribada korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning quyidagi ikkita tizimi mavjud:

1. Avtonom.

2. Integratsiyalashgan.

Integratsiyalashgan va avtonom hisob tizimlarini tashkil etish maqsadi, tarkibi, tamoyillari va vazifalari hamda ularni kompyuterlashtirilish darajasi korxonaning yagona hisob yuritish siyosatida belgilab qo'yiladi.

Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom tizimining xususiyati shundaki, unda moliyaviy va boshqaruv hisobi chegaralari aniq belgilangan bo'ladi. Bunga ko'ra, moliyaviy hisobda xarajatlar iqtisodiy elementlari bo'yicha, boshqaruv hisobida esa kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tasniflanadi. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini olib borish uchun 9100-“Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxi hisobi schyotlari”, 9400-»Davr xarajatlari hisobi» kabi tranzit schyotlardan foydalaniladi.

Moliyaviy hisob sintetik hisobni tashkil etish uchun mo'ljallanganligi sababli, u mahsulotlar ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarishga sarflangan xarajatlar summasini aniqlaydi, ammo ularni paydo bo'lish jarayonini hisobga olmaydi. Boshqaruv hisobi esa bu kabi jarayonlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Savdo korxonalarida avtonom hisob tizimini tashkil etishda mahsulot sotishdan olingan tushum moliyaviy hisobda ham boshqaruv hisobida ham aks ettiriladi. Bunda moliyaviy hisob xarajat va daromadlar hisobini olib boradi. Bu holat hisob axborotlaridan tashqi foydalanuvchilar uchun soliq to'lovlar haqidagi ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Boshqaruv hisobini yuritishning avtonom tizimida 9910-»Yakuniy moliyaviy natija» schyotida ishlab chiqarish faoliyatidan olingan moliyaviy natija marjinal foyda va daromad ko'rinishida hisobga olinadi.

Moliyaviy hisobda 9910-»Yakuniy moliyaviy natija» schyotida balans foydasi shakllanib, u nafaqat asosiy faoliyatdan olingan foyda balki boshqa faoliyatdan olingan foyda (daromad)larni ham qamrab oladi. Moliyaviy hisobda tovar-moddiy zaxiralar hisobot yili oxirida inventarizatsiyadan o'tkazilgandan so'ng ro'yxatga olinadi. Moliyaviy natijani aniqlashda esa sotishdan olingan sof tushumga yil oxiridagi TMZlar qiymati qo'shilib, sarflangan barcha xarajatlar ayriladi.

Integratsiyalashgan hisob tizimida xo'jalik muomalalarini ifodalashda tranzit schyotlardan emas, balki yagona schyotlar tizimidan foydalaniladi. Bunda qoldiqqa ega bo'lgan schyotlar bir vaqtning o'zida ham moliyaviy hisobga ham boshqaruv hisobiga tegishli bo'ladi.

Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:


- 1) buxgalteriya hisobining markazlashgan tizimini yaratish;
- 2) moliyaviy, boshqaruv va ishlab chiqarish hisobini yuritish hamda ularni o'zaro muvofiqlashtirish;
- 3) tezkor boshqaruv axborotlarini olish uchun hujjatlar aylanishini tashkil etish;
- 4) hisob tizimini avtomatlashtirish;
- 5) boshqaruv axborotlarining maxfiyligini ta'minlash;
- 6) samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish imkonini beradigan hisobotlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) korxona iqtisodiy, ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyatini budgetlashtirish va moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish;
- 8) moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish ustidan nazorat o'rnatish.

Korxonalarda buxgalteriya hisobi xizmatining markazlashgan tizimi quyidagicha bo'ladi.

Amaliyotda korxonalarda tijorat sirining maxfiyligini ta'minlash uchun moliyaviy hisob schyotlarida faqat qoldiqlar ko'rsatilib, boshqaruv hisobi schyotlarida esa xo'jalik muomalalari to'lig'icha aks ettiriladi.

Korxonalarda o'zaro iqtisodiy aloqadorlikda bo'lgan javobgarlik markazlari va biznes segmentlari o'rtasida yagona axborotlar bazasini shakllantirish, quyi bo'linmalar (tsexlар, omborlar) o'rtasida axborot almashinuvi hamda oqilona hujjatlar aylanmasini ta'minlash chora-

tadbirlarini ishlab chiqish integratsiyalashgan hisob tizimini shakllantirishga bog'liq.



#### 9.4-chizma. Korxonada buxgalteriya xizmatining tashkil etilishi

Umuman olganda, korxonalarda quyidagi holatlar integratsiyalashgan hisob tizimni tashkil etishga asos bo'ladi:

1. Korxona faoliyatida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini boshqarishning markazlashtirilgan, amaliy jihatdan assoslangan mexanizmi mavjud bo'lмаганда.
2. Korxona bo'linmalari o'rtasida hujjatlar aylanishi samarali bo'lмаганда.
3. Korxonaning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnomalar tuzish va boshqa iqtisodiy munosabatlarga kirishishini ta'minlab beruvchi axborotlar manbai shakllantirilmaganda.
4. Boshqaruv qarorlari asosan rahbariyat tomonidan tahlillarsiz qabul qilinganda.
5. Korxonalarda boshqaruv hisobi qo'lda ya'ni jurnal-order shaklida olib borilganda.
6. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda korxona rahbariyati tomonidan resurslar asossiz ravishda ishlatilganda.
7. Buxgalterlar to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga bo'ysunib, natijada ular xoldingning umumiy foydasini hisobga olmasdan boshqaruv hisobini olib borganda.
8. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning markazlashgan tizimi mavjud bo'lмаган va bu holat budgetga katta miqdorda soliqlarni to'lashga olib kelganda.

Bu holatlar integratsiyalashgan hisob tizimini joriy etishdan maqsad kerxona rahbariyatining to'liq, ishenchli va tezkor axborot olishi, ularni tahlil qilishi hamda shu asosda to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishi uchun mo'ljallangan bo'lishi zarurligini anglatadi.

Integratsiyalashgan hisob tizimida axborotlarni qayd etish, to'plash va qayta ishlash korxonaning quyi bo'linmalari (tsexlar)dan boshlanadi. Shundan so'ng, to'plangan axborotlar korxonaning yuqori bo'g'inlarida moliyaviy hisobot shakllarini tuzish maqsadida umumlashtiriladi. Shu tartibda, korxonada yagona axborot tizimi shakllanadi.

Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimini ishlab chiqish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Hisobning tezkorligi va ishonchlilikini ta'minlash.
2. Tushunarlik, ahamiyatlilik.
3. Integratsiyalashgan hisob tizimini joriy etish samaradorligini oshirish va h.k.

Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat.

Mazkur tizimni yaratishning dastlabki bosqichida buxgalteriya xizmati boshqaruv hisobi va tahlili talablariga muvofiqlashtiriladi. Bunda boshqaruv hisobiga doir schyotlardagi axborot to'planadi, korxonaning moddiy, moliyaviy mablag'lari tarkibi, ularning shakllanish manbalarini ifodalovchi boshqaruv hisoboti shakllari tuziladi. Bu bosqichda to'plangan axborotlarni umumlashtirish uchun boshqaruv buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi, kapital fondlar harakati to'g'risidagi boshqaruv hisoboti kabi shakllardan foydalilaniladi. Birinchи bosqichda aktivlar va majburiyatlar, xarajatlar va daromadlar, korxonaning yakuniy moliyaviy natijalari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar olinadi.

Integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etishning ikkinchi bosqichida korxona moliyaviy hisobotiga kiritilmaydigan axborotlarni yig'ish ishlari amalga oshiriladi. Bu axborotlarga korxona raqobatchilarining moliyaviy holati, harakati to'g'risidagi marketing axborotlari, investitsiya loyihalari va ularni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi axborotlar, mehnat resurslari to'g'risidagi axborot kabilar kiritiladi.

Uchinchi yakuniy bosqichda oldingi bosqichlar natijalari asosida boshqaruvni rejalashtirish amalga oshiriladi.


Boshqaruv hisobining avtonom va integratsiyalashgan tizimlarini tashkil etishda muhim omil mazkur hisob turining iqtisodiy samaradorligi

hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik boshqaruv hisobining ko‘lami va uning kompyuterlashtirish darajasiga bevosita bog‘liq. Bu samaradorlikka uni tashkil etishga sarflangan xarajatlar to‘liq qoplangandagina erishiladi.

#### 9.4. Savdo va sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisob tizimini avtomatlashtrishning xususiyatlari

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar boshqaruv hisobida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish hisob tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshqaruv hisobining integratsiyalashgan hisobini samarali joriy etish korxonalar hisob tizimida kompyuter texnologiyalarining qo‘llanilish darajasiga bog‘liq. Bunda korxona bo‘lmalari faoliyatini avtomatlashtrish orqali qo‘lda bajariladigan qog‘oz va yozuv-chizuv ishlarini kamaytirish, zarur hollarda tezkor boshqaruv axborotlarini olish imkoniyati yaratilishi lozim. Ushbu masalani hal qilish uchun korxona boshqaruvi va bo‘lmalar o‘rtasida o‘zaro bog‘langan, yagona kompyuter tizimi (to‘ri) o‘rnataladi hamda ma’lumotlarni tezkor uzatish yo‘lga qo‘yiladi (9.5-chizma).



**9.5-chizma. Savdo va sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisob tizimini joriy etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish**

Savdo korxonalarida integratsiyalashgan hisob tizimida kompyuter texnologiyalarini qo‘llash quyidagi faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi:

1. Ulgurji tovarlar etkazib berish.

2. Boshqa xizmatlarni ko‘rsatish.

Bunda barcha xo‘jalik muomalalari kompyuter dasturlarida quyidagi belgilarga ajratilgan holda ifodalanadi:

1. Faqat boshqaruv hisobida aks ettiriladigan xo‘jalik muomalalari;

2. Faqat moliyaviy hisobda aks ettiriladigan xo‘jalik muomalalari;

3. Moliyaviy va boshqaruv hisobida aks ettiriladigan xo‘jalik muomalalari.

Savdo korxonalarida integratsiyalashgan boshqaruv hisobini olib borish uchun kompyuter dasturi yordamida quyidagilar bajariladi:

1. Xo‘jalik muomalalarini ro‘yxatga olish uchun tegishli analitik schyotlar aniqlanadi.

2. Dasturga mahsulot (tovarlar), pul mablag‘lari qoldiqlariga doir ma’lumotlar kiritiladi.

3. Moliyaviy va boshqaruv hisoboti shakllarini tuzish amalga oshiriladi.

4. Analitik schyotlar va hisobot shakllari ma’lumotlarini qayta ishlash orqali zarur boshqaruv axborotlari tayyorlanadi hamda foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

Savdo va sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisobni avtomatlashtrishning muhim xususiyatlaridan biri u orqali korxona budjetini turli muddatlar uchun osongina tuzish imkoniyatining mavjudligidir. Shuningdek, avtomatlashtrilgan tizim asosida zarur muddat uchun kelgusi daromad va xarajatlar budjetini tuzish, amalga oshiriladigan to‘lovlarni doimiy ravishda kuzatib borish, smetalarning bajarilishini tahlil qilish, korxonani istiqbolli rivojlantirishni nazarda tutuvchi moliyaviy (biznes) rejalarini ishlab chiqish mumkin.

Integratsiyalashgan hisob tizimida biznes rejalarini amalga oshiriladi. Biznes rejalarini amalga oshirishda budjetlar bir martalik (asosiy vositalarni sotib olish) va takrorlanadigan (budjetga soliq to‘lovalari, ijara to‘lovlarni amalga oshirish) xo‘jalik muomalalari asosida tuziladi.

Takrorlanadigan xo‘jalik muomalalarini rejalarini amalga oshirishda budjetlar sana va hafta kunlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda har bir xo‘jalik muomalalari kompyuter dasturida alohida ro‘yxatga olinadi. Mazkur kompyuter dasturlari o‘tgan hisobot davrlaridagi xo‘jalik muomalalari asosida strategik rejalar tuzish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan hisob tizimida kompyuter dasturlaridan foydalanishning afzalligi shundaki, unda oldingi davrlar uchun tuzilgan budgetlarga avtomatik ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjud. Moliyaviy reja (budget)ga kiritilgan xo'jalik muomalalari bo'yicha dastlabki va yig'ma hujjatlar tayyorlanadi.

Ushbu kompyuter dasturining yakuniy qismida moddiy va pul mablag'larining rejalarini layotgan davr oxiriga bo'lgan qoldiqlari aniqlanadi.

Shunday qilib, savdo va sanoat korxonalari boshqaruv hisobini integratsiyalashgan tizim bo'yicha tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish korxona hisob tizimida tegishli budgetlarning to'g'ri tuzilganligi, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilganligi ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi.

#### 9.1-jadval.

#### O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini yuritishga doir qabul qilingan asosiy qonun va me'yoriy hujjatlar

T/r	Me'yoriy hujjatning nomi	Qabul qilingan vaqt
	«Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tomonidan 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan
	«Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qaror bilan o'zgar-tirishlar kiritilgan)
	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustda 474-son bilan ro'yxitga olingan
	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» nomli 3-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 avgustda 484-son bilan ro'yxitga olingan
	O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini schyotlar rejasiga uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi» nomli 21-sonli milliy standarti	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrda 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son bilan ro'yxitga olingan

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz korxonalarida boshqaruv hisobini samarali tashkil etish uning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirishga bevosita bog'liq.

Mamlakatimiz qonunchiligidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini yuritishning ayrim jihatlarini belgilab beradigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Ularni yuqoridagi jadvalda ifodalash mumkin.

Ushbu jadvalda keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobi elementlarini joriy etishga imkon beradi.

Jumladan, «Buxgalteriya hisobi» to'g'risidagi qonunning 7-moddasiga ko'ra, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxona, muassasa va tashkilot rahbari amalga oshiradi. Shuningdek, rahbar ichki hisob va hisobot tizimi ishlab chiqilishini ta'minlashi shart. Bu holat esa korxonada boshqaruv hisobini tashkil etish va uni yuritish tartibini belgilashga korxona rahbari javobgar ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, «Mahsulot (ish va xizmat)lari tan-narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da ishlab chiqarish va davr xarajatlarining tarkibi, tasniflanishi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi ko'rsatib berilgan.

Unga muvofiq, barcha xarajatlar quyidagi tartibda guruhlanadi:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan xarajatlar;

- 9600–»Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» schyotlarida hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;

- 9720–»Favquloddagi zararlar» schyotida hisobga olinadigan favquloddagi zararlar.

Bu esa o'z navbatida korxonalarda boshqaruv hisobining muhim elementi hisoblangan xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini oqilona tashkil etishga ko'maklashadi.

Shu o'rinda, respublikamiz korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashni rivojlangan mamlakatlar boshqaruv hisobida keng qo'llanilayotgan «Direkt-kosting» hisob tizimiga yaqinlashtirishda ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» nomli 3-sonli milliy standarti muhim ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, boshqaruv hisobi schyotlar rejasini ishlab chiqish, mazkur schyotlarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalash korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatini schyotlar rejasи va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomasi» nomli 21-sonli milliy standarti amal qilmoqda. Ushbu schyotlar rejasи 9 ta bo‘lim, 249ta balans va 14ta balansdan tashqari schyotlardan iborat. Ularda moliyaviy va boshqaruv hisobida sodir bo‘ladigan xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirishning umumiy tartibi bayon etilgan.

Korxonalarda boshqaruv hisobining me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishda ular tomonidan ishlab chiqiladigan ichki boshqaruv (segmentar) hisobotlari alohida o‘rin tutadi. Bu hisobot shakllari materiallar va butlovchi qismlar zahiralari to‘g‘risida, tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) to‘g‘risida, xarid qilingan qiymatliklar to‘g‘risida, tayyor mahsulot zaxiralari to‘g‘risida, sotishlar to‘g‘risida, pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida, debtorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risida hisobot kabilardan iborat bo‘ladi. Mazkur boshqaruv hisoboti shakllari korxona rahbariyatini javobgarlik markazlari (bo‘linmalari)da moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari harakati to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruv hisobi elementlari respublikamiz iqtisodiyoti uchun yangilik emas. Sobiq Ittifoq davrida yuqorida markazlashtirilgan rejalashtirish sharoitida reja va moliyaviy bo‘limlarining buxgalteriya xizmatidan asta-sekin ajralib chiqishi unga buxgalteriya vakolatining bir qismini berilishiga imkon tug‘dirdi. Buxgalter va boshqa iqtisodchi mutaxassislar (reja bo‘yicha iqtisodchi, mehnat va ish haqi bo‘yicha iqtisodchi, moddiy-teknika ta‘minoti bo‘yicha iqtisodchi va h.k.) tor doiradagi hisob va rejalashtirish bilan cheklanib qoldilar.

Bu jarayon natijasida buxgalteriya hisobining butun tizimi deyarli moliyaviy tizimga aylandi va faqat voqealarni qayd etuvchi xizmat turiga aylanib qoldi.

Mustaqillik davrida esa bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarishning markazlashgan tizimidan voz kechilib, ko‘p ukladlilik, biznes rejalashtirish, erkin narxlarni shakllantirish, istiqbolli loyihalarni

tanlash, segmentlarning javobgarligi kabi yangi iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar kirib keldi, mulk egasiga ko‘p sonli xodimlarni saqlab turish samarali bo‘lmay qoldi. Bu holatlar mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tarkibida boshqaruv hisobini tashkil etish va rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi.


Boshqaruv hisobining shakllanishi bilan buxgalter-analitik zimmasiga nafaqt xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, balki korxona hisob siyosatini shakllantirish, budgetlashtirish, loyihalar tahlili, segmentlar bo‘yicha xarajat va daromadlarni hisobga olish, ichki xo‘jalik transfert baholarini o‘rnatish, hisob tizimini kompyuterlashtirish kabilar ham yuklatildi.

Hozirgi vaqtda boshqaruv hisobini qo‘llashda ma‘lum qiyinchiliklar mavjud. Ko‘pgina hollarda buxgalterlar moliyaviy hisob va hisobot, soliqlar hisobi va hisoboti fan sifatida tan olinganligi, uning ob‘ekt va subyektlari ma‘lum bo‘lganligiga qaramasdan buxgalterlarning ko‘p vaqt shu masala bilan band bo‘lib, boshqaruv hisobining samarali tizimini tashkil etish uchun vaqt etishmasligini ta‘kidlashadi. Shunga qaramasdan, amaliyotning ko‘rsatishicha, buxgalterning buxgalter-menejerga aylanishi tendentsiyasi kuchaya boshladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda boshqaruv hisobini rivojlantirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini belgilash mumkin

Keltirilgan chizmadan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda boshqaruv hisobini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar faoliyatini budgetlashtirish (rejalashtirish);
- boshqaruv hisobini yuritishga mo‘ljallangan yangi schyotlar rejasini ishlab chiqish;
- xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashning zamонави usul va tizimlarini qo‘llash imkoniyatlarini baholash;
- investitsiya loyihalari bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish;
- segmentlar bo‘yicha hisob yuritish va hisobot tuzishni tashkil qilish;
- korxonalarda transfert bahoni shakllantirish usullarini joriy etish.



### 9.6-chizma. Buxgalteriya hisobi turlarini rivojlantirish yo'nalishlari

Korxonalarda boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirishni amalga oshirishning zarurati shu bilan belgilanadi, uning yordamida rejalashtirilgan hisobot davrida korxona rahbari va xodimlari oldida turgan maqsad va vazifalarni shakllantirish, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, daromad va xarajatlarni aniqlash, amalga oshiriladigan hisob-kitoblar to'g'rilingini kuzatib borish mumkin.

Mamlakatimizda boshqaruv hisobining rivojlanishi mavjud buxgalteriya hisobi tizimining ikki mustaqil: moliyaviy va boshqaruv hisobi schyotlar rejasiga bo'linishiga olib keldi.

Boshqaruv hisobining kontseptsiyasi schyotlar rejasini amaliyotga joriy etish ikki razryadli buxgalteriya hisobi schyotlari tizimidan to'rt razryadli tizimga o'tish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu amaliyotda qo'llanib kelinayotgan schyotlar rejasiga bo'lib, bunda barcha schyotlar balans tuzishda ishtirok etadi. To'rt razryadli schyotlar tizimi ularni to'rtta razryadga ajratadi:

a) balans schyotlari ya'ni balans tuzishda ishtirok etuvchi schyotlar;

b) operatsion, "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" usuli bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalaniladigan schyotlar.

Korxonalarda xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasining zamonaviy usul hamda tizimlarini qo'llash ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini to'g'ri aniqlash, chetlanishlar hisobi va tahlilini yuritish kabi imkoniyatlarni beradi. Ularga «Direkt-kosting», «Standart-kost», «JIT», «ABC», «SCA» va «FQT»larni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobida oqilona investitsiya qarorlari qabul qilishni ta'minlash korxonaning investitsiya faoliyati murakkabligi va dastlab taqdim qilinayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularning ko'p mablag' talab qiladigan tomonlarini tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Shuningdek, korxona bo'limmalarida sodir bo'lgan muomalalarni to'liq hisobga olish ularni muayyan vakolatlar va mas'uliyatlar bo'yicha segmentlarga ajratishni taqozo etadi.

#### 9.2-jadval.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati boshqaruv hisobi schyotlari rejasini ishlab chiqarish xarajatlari turlari bo'yicha tasniflanishi\*

Schyotlar	Schyotlar nomi	Schyotlar tipi
1	2	3
1000	<b>Materiallar hisobi schyotlari</b>	A
1010	Xomashyo va materiallar (yig'uvchi schyot)	
1020	Asosiy xomashyo va materiallar	
1030	Yordamchi xomashyo va materiallar	
1040	Yarim fabrikatlarni ichki ehtiyojlar uchun iste'mol qilish	
1100	<b>Energiya xarajatlari</b>	A
1110	Yogilg'i (turlari bo'vicha)	
1120	Energiya (turlari bo'yicha)	
1200	<b>Ishlab chiqarishning mehnat xarajatlari</b>	A
1210	Ish haqi (yig'uvchi schyot)	
1220	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning ish haqi	
1230	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlarning ish haqi	
1240	Boshqa turdag'i ish haqi va turli kompensatsiyalar	
1300	<b>Ishlab chiqarishning ijtimoiy xarajatlari</b>	
1310	Korxonaning ijtimoiy xarajatlari (yig'uvchi schyot)	

\* Ushbu jadval Germaniya sanoat korxonalari boshqaruv hisobi yagona schotlar rejasining to'rtinchisi klassi misolida mualif tomonidan ishlab chiqilgan. Vrublevskiy N.D. Upravlencheskiy uchet izderjek proizvodstva: teoriya i praktika. – M.: Finansi i statistika, 2002. – 352 s. (s. 90-92).

1320	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot xarajatlari
1330	Xodimlar hayotini uzoq muddatli sug'urtalash
1340	Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta
1350	Xodimlarni saqlash bo'yicha boshqa ijtimoiy xarajatlari
<b>1400</b>	<b>Ishlab chiqarishning ustama xarajatlari</b>
1410	Asosiy vositalar va boshqa mulklarning eskirishi
1420	Tsex darajasidagi boshqaruv xarajatlari
1430	Har xil yordamchi xizmatlarni to'lash xarajatlari
1440	Boshqa ustama xarajatlari
<b>1500</b>	<b>To'lanadigan majburiyatlar</b>
1510	Yer solig'i (soliqlarning turlari bo'yicha)
1520	Yo'l fondiga to'lovlar
1530	Turli xil davlat yig'imirli va badallari
1540	Auditorlik va maslahat xizmatlari uchun to'lovlar
1550	Kredit uchun to'langan foizlar (komission xarajatlar bilan birgalikda)
1560	Boshqa xarajatlari
<b>1600</b>	<b>Transport, vakillik va safar xarajatlari</b>
1610	Umumiy transport xarajatlari
1620	Yuklarni jo'natish xarajatlari
1630	Safar xarajatlari
1640	Pochta xarajatlari
1650	Devonxona xarajatlari
1660	Vakillik xarajatlari
<b>1700</b>	<b>Kalkulyatsiya qilinadigan ishlab chiqarish xarajatlari</b>
1710	Moddiy xarajatlari
1720	Mehnai haqi xarajatlari
1730	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
1740	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
1750	Boshqa xarajatlari

Segmentar hisobot axborotlari biznesning har bir segmenti faoliyatini sifat jihatdan baholash imkonini beradi.

Korxona segmentlari (javobgarlik markazlari) faoliyatini boshqarishda ular o'rtaida transfert bahoni to'g'ri shakkantirish muhim ahamiyatga ega. Transfert baho korxonaning bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan materiallar, yarim tayyor mahsulotlar yoki xizmatlar bahosini aniqlashda qo'llaniladi.

### Test topshiriqlari

**1. Amal qilish davriga ko'ra boshqaruv qarorlari qanday tasniflanadi?**

- a) stereotip;
- b) strategik (uzoq muddatli);
- b) taktik (qisqa muddatli);
- g) a va v;
- d) barcha javob to'g'ri.

### 2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishga qo'yiladigan talablar ifodalangan qatorni aniqlang.

a) aniq yo'nalishga ega bo'lish va korxona manfaatlarini to'liq ifoda etish;

- 6) ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganlik;
- b) qabul qilish va amalga oshirish muddatining aniqligi;
- g) tezkorlik, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lish;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

### 3. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlili ...

a) menejerlarga ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat; qilish, zararsizlik nuqtasini aniqlashga imkon beradi;

- 6) mahsulot tannarxini aniqlash usuli hisoblanadi;
- b) xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni hisobga oladi;
- g) ustama xarajatlari hisobini yuritadi;
- d) investitsiyalangan kapital daromadliligin aniqlaydi.

### 4. "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tahlilining asosiy elementlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- a) marjinal daromad, zararsizlik nuqtasi;
- b) davr xarajatlari;
- b) ishlab chiqarish dastagi, chidamlilikning marjinal zaxirasi;
- g) favqulodda foyda va zararlar;
- d) a va v.

### 5. Marjinal daromad – ...

a) mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o'rtaida farq;

6) korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish usuli;

b) boshqaruv xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, bo'linmalar daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan hisob ob'ekti;

g) korxonaning budjet davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari rejasi;

d) kelajakda yuzaga kelishi kutilayotgan, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaruvchi daromad.

### 6. Zararsizlik nuqtasi (rentabellik chegarasi)...

a) bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi markaz turidir;

b) "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" (Cost-Volume-Profit) tahlil tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi;

- v) mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum ularga sarflangan barcha xarajatlari yig'indisiga tengligini ifodalaydi;  
 g) b va v;  
 d) to'g'ri javob berilmagan.

#### **7. Chidamlilikning marjinal zaxirasi – ...**

- a) bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar yoki xizmatlar bahosini aniqlash imkonini beradigan baho turidir;  
 b) mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar sotishdan olinadigan haqiqiy tushumni sotishning zararsizligini ta'minlovchi ostonaviy tushumdan oshganligini ifodalovchi kattalikdir;  
 c) sarflangan xarajatlar hisobga olinadigan maxsus tashkiliy bo'lim hisoblanadi;  
 d) ishlab chiqarish tsexlari va korxona bo'linmalari bo'yicha boshqaruvni tashkil etish tizimidir;  
 e) kelgusida paydo bo'lishi mo'ljallanayotgan, boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgaruvchi daromad va xarajatlar yig'indisidir.

#### **8. Ishlab chiqarish dastagi ...**

- a) korxona foydasini boshqarishning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni o'zaro mutanosibligiga asoslangan mexanizmi;  
 b) sotish hajmi o'zgarishiga bog'liq ravishda korxona foydasi o'zgarishini taxminlash, shuningdek, zararsiz faoliyat yuritish nuqtasini aniqlash imkonini beradi;  
 c) korxona rahbarlariga xarajatlar va foydani boshqarish, yuqori foyda olish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishga ko'maklashuvchi moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi;  
 d) korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash uchun marjinal daromadning etarli miqdorini belgilashi zarurligini ifodalaydi;  
 e) barcha javoblar to'g'ri

#### **9. Qaysi qatorda investitsiya loyihibarini amaliyotga joriy etish ketma-ketligi to'g'ri ifodalangan?**

- a) loyihibani tahlil etish, loyihibani muhokama qilish, loyihibani tugatish;  
 b) loyihibani muhokama qilish, loyihibani baholash;  
 c) loyihibani ishlab chiqish, loyihibani amalga oshirish;  
 d) loyihibani tahlil etish, loyihibani qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash;  
 e) to'g'ri javob berilmagan.

#### **10. Qaysi qatorda biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish zarurati to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini tez muddatlarda o'zgartirish;  
 b) ishlab chiqarish quvvatlaridan optimal darajada foydalanish;  
 c) aylanma mablag'lar aylanishi tezligini ta'minlash va nazorat qilish;  
 d) korxonaning ishlab chiqarish va boshqa bo'linmalari o'rtasida oqilonla baho siyosati yuritish;  
 e) yuqoridagi javoblarning barchasi to'g'ri.

#### **Nazorat savollari**

1. Boshqaruv hisobini takomillashtirishda buxgalteriya hisobining milliy standartlari qanday o'rinn tutadi?
2. Respublikamizda boshqaruv hisobini mukammallashtirishda buxgalteriya hisobi turlari o'rtasidagi aloqadorlikni qanday izohlaysiz?
3. Boshqaruv hisobini rivojlantirishning nazariy yo'nalishlarini nimalardan iborat?
4. Boshqaruv hisobini rivojlantirishning amaliy yo'nalishlarini sanab bering?
5. Korxonalarda boshqaruv hisobini samarali tashkil etishda boshqaruv hisobi schyotlar rejasiga qanday ahamiyatga ega?
6. Korxonalarda avtonom va integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etishdan maqsad nima?
7. Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan tizimlariga ta'rif bering.
8. Avtonom va integratsiyalashgan hisob tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
9. Savdo korxonalarida avtonom hisob tizimini tashkil etish qanday xususiyatlarga ega?
10. Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?
11. Respublikamiz korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etish zaruratini yuzaga keltiruvchi omillarni sanab bering.
12. Integratsiyalashgan hisob tizimini ishlab chiqish qanday tamoyillarga asoslanadi?
13. Korxonalarda integratsiyalashgan hisob tizimini tashkil etish jarayoni nechta bosqichdan iborat?
14. Integratsiyalashgan hisob tizimida biznes rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
15. Integratsiyalashgan hisob tizimida kompyuter dasturlaridan foydalanishning qanday afzalliliklari mavjud?

## 10-bob. BOSHQARUV HISOBIDA TRANSFERT BAHONI SHAKLLANTIRISH.

### 10.1. Korxona baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni

Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida sotiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)larga ilmiy asoslangan baho siyosatini ishlab chiqish boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Narx omillarining harakati bir yo'nalihsda bormay, ularning narxga qarama-qarshi ta'sir etishi ham yuz beradi. Aytilgan omillardan biri narxni ko'tarsa, boshqasi pasaytiradi. Bir omil ta'sirini boshqasi neytrallashtirib turadi. Masalan, qiymatning pasayishi narxni arzonlashtiradi, talabning ortishi uni qimmatlashtiradi. Nafligining yuqori bo'lishi baland narxni taqozo etsa, raqobat kurashi uni pasaytiradi. Xullas, narx turli omillarning ziddiy ta'siri ostida shakllanadi. Narxga ta'sir etuvchi omillar bozor xarakteriga karab harakatga keladi. Bozorning bir-qismi erkin bo'lsa, boshqasi raqobatsiz, aksincha nazoratli bo'ladi. Bozorda tovar talabi tanho bir firma yoki ozchilik firmalar qo'lida to'plansa va sotuvchilar ko'pchilik bo'lsa - bu monopsoniyani keltirib chiqaradi. Agar tovarlarni taklif etuvchilar ko'p bo'lib, xaridor tanho yoki ozchilik bo'lsa, bu nonomonopoliyani paydo qiladi.

Monopoliya va monopsoniya bozor ustidan hukmdorlik bo'lib, raqobatni cheklaydi. Erkin bozorda sotuvchi va xaridor ko'pchilik bo'lganidan ulardan hech biri tanho narxga ta'sir eta olmaydi. Aksincha, bozorda zo'ravonlik bo'lsa, sotuvchi yoki xaridor o'z izmini o'tkazib narx shakllanishiga ta'sir etadi. Monopoliya sharoitida ham narxni oshirish chegarasi mavjud bo'ladiki, uni bozordagi talab o'rnatadi. Gap shundaki, bozor tovarni ma'lum narxgacha ko'taradi, narx oshib ketsa, bozor kasod bo'ladi.

Bozor ko'tarishiga qarab foydani maksimumlashtirish qoidasi narx belgilashda ko'llanadi, lekin bari bir talab bilan hisoblashishiga to'g'ri keladi. Talab elastik bo'lganidan narx oshib ketsa, u qisqaradi, tovar kam sotiladi, foya miqdori qisqaradi, binobarin, foya maksimumlashmay qolishi mumkin.

Narxlar iste'mol hajmiga qarab ham tabaqlashtiriladi. Iste'mol ma'lum darajagacha samarali bo'ladi, chunki tovar nafligini eng yuqori chegarasi bor, shunga qadar narx oshadi. Shunday xaridorlar borki, ular ma'lum miqdordagi tovarlarni ma'lum vaqt mobaynida yuqori narxda olishlari mumkin. Narx tovarlar turiga qarab ham tabaqlashtiriladi.

Ommaviy tovarlar narxi past bo'lgani holda, nufuzli, obro'talab tovarlar narxi yuqori bo'ladi. Narxni tovarlarga qarab tabaqlashtirish tovarni ko'prok sotib, xaridor pulini chiqarib olish, uning bir qismini foydaga aylantirish vositasi hisoblanadi.

Narxni shakllantirishda "katta barmoq" usuli. Narx va ishlab chiqarish hajmi shunday bo'lishi kerakki, bu chegarali daromad va chegarali xarajatning teng bo'lishini ta'minlashi lozim. Ko'pchilik rahbarlar o'zlarining firmasi duch keladigan o'rtacha va chegarali daromadlarning egri chiziqlari xususida cheklangan axborotga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular faqat ma'lum doirada o'zgarib turadigan ishlab chiqarish hajmiga oid axborotni biladilar. Biz esa chegarali daromad va chegarali xarajatlarga teng bo'lish shartini amalda foydalanish engil bo'lgan qoidaga aylantiramiz.

Buning uchun biz chegarali daromad tenglamasini quyidagicha qayta yozamiz:

$$MR = \Delta R / \Delta Q = \Delta(PQ) / \Delta Q \quad (1.1)$$

Qo'shimcha mahsulot birligi chiqarish natijasida olinadigan qo'shimcha daromad ikki xususiyatga ega bo'ladi.

Qo'shimcha ravishda mahsulot birligi ishlab chiqarib va uni R narxga binoan sotib firma daromad oladi:  $(1)x(R) = R$ .

Ammo firma pastga qarab qiyalangan talab egri chizig'iga duch keladi va shuning uchun mana shu qo'shimcha mahsulot birligini ishlab chiqarish va sotish  $\Delta R / \Delta Q$  narxini bir oz oz pasaytiradi, bu esa barcha mahsulotni sotishdan tushgan daromadni kamaytiradi (ya'ni  $Q [\Delta R / \Delta Q]$  dan iborat daromadni o'zgartirib yuboradi. Shunday qilib:

$$MR = R + Qx(\Delta R / \Delta Q) = R + Rx (\Delta PQ / \Delta Q). \quad (1.2)$$

Formulaning o'ng tomoni biz  $Q x (\Delta R / \Delta Q)$  ni R ga ko'paytirib, so'ngra uni R ga bo'lib hosil etdik. Talab o'zgaruvchanligi  $Ed = (R/QW)(\Delta Q / \Delta P)$  shaklida ifodalanishini yodga olamiz. Demak,  $(R/Q)(\Delta PQ / \Delta Q)$  shunday ifodaki, u talab o'zgaruvchanligi 1/Edga teskarib bo'ladi, binobarin foydani maksimallashtiruvchi ishlab chiqarish hajmi mavjud bo'lganda quyidagi tenglikni yozish mumkin:

$$MR = R + R (1 / Ed) \quad (1.3)$$

Firmaning maqsadi foydani maksimallashtirish bo'lar ekan, biz endi chegarali daromadni chegarali xarajatlarga tenglashtirsak bo'ladi:

$$R + R (1 / Ed) = MS yoki (P - MC) / P = 1 / Ed \quad (1.4)$$

Bu tenglama narxni shakllantirishdagi «katta barmoq» qoidasini bildiradi. Tenglamaning chap tomoni  $(P - MC) / P$  narx necha foizga chegarali xarajatlardan oshib ketganini ifodalaydi. Tenglama shumi

ko'rsatadiki, bu oshib ketish manfiy belgi bilan olingan talab o'zgaruvchanligiga teskari bo'lgan miqdorga teng bo'ladi. Narxni chegarali xarajatlar orqali ifodalab berish uchun biz xuddi shunday tartibda bu tenglamani qayta ko'chirib yozishimiz mumkin:

$$P = MC / (1 + (1 / Ed)) \quad (1.5)$$

Masalan, talab o'zgaruvchanligi — 4 AQSH doll. bo'lsayu, mahsulot birligining chegarali xarajatlari 9 AQSH doll. bo'lsa, narx quyidagini tashkil etadi:  $9/(1-1/4)=9/0,7512$  AQSH doll (mahsulot birligi uchun).

Davlat tomonidan narx tartiblanishining ikki xil usuli mavjud, ya'ni birinchisi bevosita (to'g'ridan – to'g'ri) va ikkinchisi bilvosita.

Narxni bevosita tartibga solish usuli:		Narxni bilvosita tartibga solish usuli:
A) ma'muriy narx o'rnatish; B) narxlarni "muzlatib qo'yish"; C) narxning yuqori chegarasini o'rnatish; D) samaradorlik darajasini belgilab qo'yish; E) narxlarni aniqlash uchun me'yorlarni belgilab berish; F) narxlarni deklaratsiya qilish va boshqalar	NARX	A) soliqqa tortish; B) pul muomalasini tartibga solish; C) mehnat haqi; D) kredit siyosati; E) davlat xarajatlarini tartibga solish; F) amortizatsiya me'yorlarini o'rnatish va boshqalar

#### 10.1-chizma. Narxlarni shakllantirish tartibi

Hozirgi sharoitda olingan axborot oliy sifatli va samarador axborotdan ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilar talabini qondiradigan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, buxgalteriya axboroti ko'rsatkichlarning eng kam miqdoridan iborat bo'lishi, ammo boshqaruv iyerarxiyasining turli darajalaridagi uning foydalanuvchilaridan eng ko'p miqdorini qondirishi lozim.

Taqdim etiladigan axborot zarur, muhim va maqsadga muvofiq bo'lishi, ortiqcha ko'rsatkichlarni istisno etishi lozim. Bundan tashqari, buxgalteriya axboroti eng kam miqdorda mehnat va vaqt sarf qilgan holda shakllantirilishi zarur.

Amaliyotda har bir korxona o'z mahsulotini ishlab chiqara boshlashidan avval qancha foyda olishi mumkinligini rejalashtiradi. Korxona foydasi mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanadigan haqiqiy xarajatlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu

holatda mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishi bo'yicha baland yoki past bo'lishi mumkin emas, u talab va taklif asosida tartibga solib borilishi lozim.


Inflyatsiya jarayonida ya'ni baholarning o'sishi sodir bo'layotgan paytda pulning foydaliligi pasayib boradi. Shu sababli, bunday sharoitda barcha hisob-kitoblar qiyosiy yoki bazis davr baholarida amalga oshirilishi zarur, aks holda, noto'g'ri ma'lumotlar asosida oqilona moliyaviy boshqaruv qarorlari qabul qilib bo'lmaydi. Shu nuqtai-nazardan qiyosiy baholardan foydalanish moliyaviy menejmentdag'i barcha hisob-kitoblarga tegishli talab hisoblanadi. Bunda bir o'lchamning o'zgarishi ikkinchi o'lchamning o'zgarishiga qanday ta'sir etishi tahlil qilinadi.

Ishlab chiqarishning hajmi va baholar darajasi turlicha bo'lgan holatda foyda summasini solishtirishning bir nechta varianti mavjud. Mahsulotning qo'shimcha birligini ishlab chiqarish umumiyligi tushumning ma'lum bir birlikda oshishiga olib keladi va u cheklangan tushum deyiladi. Bunda o'z navbatida xarajatlar miqdorining ham bir birlik miqdorida oshishi kuzatiladi va u cheklangan xarajatlar deb ataladi. Maksimal foyda cheklangan tushum bilan cheklangan xarajatlar bir-biriga teng bo'lgan yoki ular bir-biriga maksimal darajada yaqinlashgan holda yuzaga keladi.

Foydalilikning cheklanganligi nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarishning o'sishi tufayli cheklangan tushum cheklangan xarajatlarga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sib borgunga qadar foyda hajmi o'sib boraveradi, biroq, cheklangan xarajatlar cheklangan tushumdan oshib ketgan paytda mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish zarur. Shunday qilib, cheklangan xarajatlarning cheklangan tushumga yaqinligi (maksimal) eng yuqori darajada ta'minlanganda yoki unga tenglashtirilganda mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va bahosi ishlab chiqaruvchini eng yuqori (maksimal) foyda bilan ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada bahoni shakllantirish va boshqarish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish zarurati tug'iladi. Buning uchun boshqaruv tizimida bahoni shakllantirish bo'yicha funktsional bloklarning o'zaro aloqasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega (10.2-chizma).

Keltirilgan chizmadan ko'rinib turibdiki, bahoning shakllanishi, nafaqat tashqi muhit ta'siriga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.



## 10.2-chizma. Boshqaruv tizimida bahoni shakllantirish bo'yicha funktsional bloklarning o'zaro aloqasi

Tashqi muhitda quyidagi makrodarajadagi o'zgarishlar korxona faoliyatida bahoni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

1. *Iqtisodiyotdag'i o'sish va pasayish* (har qanday mahsulotga bo'lgan ehtiyoj aholining real daromadlari, investitsiya faolligi, davlat xarajatlari, kredit olish va uni qaytarish imkoniyatlari, baholarning o'zgarishiga bog'liq). Shu sababli tashqi muhitni tahlil qilish korxonani baholash uchun boshlang'ich nuqta va qadam bo'lib hisoblanadi.

2. *Tabiiy resurslarga yaqinlik va ularning zaxirasiga ega bo'lish* nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchi, balki qayta ishlovchi korxonalarini ham strategik rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

3. *Siyosat va huquq*. Korxonaning faoliyat yuritishida davlatning iqtisodiy barqarorligi, turli xil mulk egalarining huquqiy jihatdan muhofaza qilinganligi, soliq qonunchiligining o'zgarib turishi, bojxona huquqi kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4. *Demografiya*. Korxona joylashgan hududdagi aholining soni va tarkibi uning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar hududda tug'ilish darajasi yuqori bo'lsa, bolalarbop mahsulotlar assortimentiga talab katta bo'ladi yoki katta yoshdagi aholining hissasiga qarab ularning talabidagi mahsulotlar ishlab chiqarish zarur bo'lsa, korxona shunga qarab mo'ljal olishi zarur.

5. *Ijtimoiy-madaniy muhit*. Jamiyatning iqtisodiy farovonligi oshib borishi bilan unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga, aholining kam ta'minlangan va ishsiz qatlamlarini himoya qilishga imkoniyat oshib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarda baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar tashqi va ichkiga bo'linadi.

Tashqi omillar quyidagilar bilan ifodalanadi:

2. Korxona ishlab chiqarayotgan tovarga bozordagi umumiy talab.

3. Bozorga shu xilda boshqa firmalar tomonidan chiqarilgan tovarlar hajmi.

4. Ushbu tovarlarning sifati va bahosi.

5. Xaridorlarni mahsulot bahosi past bo'lishiga yoki tovar sifati yuqori bo'lishiga qiziqishi.

Bahoning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki omillarga quyidagilar kiritiladi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi;
- uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni qoplash imkoniyati;
- mehnat va materiallar sifati;
- ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- cheklangan resurslardan foydalananish darajasi.

Transfert baholar mexanizmini ishlab chiqish korxona baho siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

## 10.2. Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari

Iqtisodiy barqarorlik va investitsion rivojlanish sharoitida inflyatsiya jarayonida ya'ni baholarning o'sishi sodir bo'layotgan paytda pulning qadri pasayib borayotganligi sababli barcha hisob-kitoblar qiyosiy yoki bazis davr baholarida amalga oshirilishi zarur, aks holda, tahminiy ma'lumotlar asosida oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida: "Islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini

so'zsiz oshirish.

Tarmoqlar bo'yicha tannarx o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsa-da, kimyo va engil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda"-deb ko'rsatib o'tdilar.<sup>24</sup>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada bahoni shakllantirish va boshqarish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun boshqaruv tizimida bahoni shakllantirish bo'yicha funktional bloklarning o'zaro aloqasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.<sup>25</sup>

Mazkur muammoning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik olimlar Kolin Dj. Druri, Ken Garrett, Vaxrushina M.A., Kuznetsova Ye.V., Voronkova N.Yu., vatanimiz olimlaridan Pardayev A.X., Xasanov B.A., Abdusalomova N.B., Maxsudov B.YU., Ergasheva Sh.T.larning asarlarida o'z aksini topgan. Biroq, ushbu ilmiy ishlarda klaster tizimidagi korxonalarda boshqaruv hisobida trasnfert bahoni shakllantirish va segmentar hisobot tuzish masalalari yaxlit, holda tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Ilmiy ishda transfert baho tushunchasiga mualliflik ta'rifi berildi. Bizning fikrimizcha, transfert baho xo'jalik yurituvchi subyekt (fermer xo'jaligi, qayta ishlash, ip yigiruv, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonasi) ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki ish va xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan bahodir.

Transfert bahoni aniqlash quyidagi asosiy talablarga tayanadi:

- ishlab chiqarish korxonasining pirovard maqsadiga erishishini va alohida bo'linmalar maqsadini korxonaning umumiylar maqsadi bilan uyg'un holda birikib ketishini ta'minlash;

- boshqaruvning turli darajalarida menejerlar uchun moslashuvchan va bir xilda bo'lish;

- markazlashtirilmagan holda boshqarish sharoitida sotuvchi va xaridor bo'linmalar rahbarlariga ularning mustaqilligini saqlab qolishga

<sup>24</sup> "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2017 yil 16 yanvar (№ 11 (6705) soni).

<sup>25</sup> A.K.Ibragimov., B.A.Xasanov., N.K.Rizayev. Amaliy boshqaruv hisobi. -T.: «Moliya». 2014. – 404 b. (b.329)

imkon tug'dirishi kerak;

– ichki va tashqi bozorlarning o'zgaruvchan sharoitlarini tez ilg'ab olish, foydani samarali sohalarga yo'naltirish imkonini berish. Masalan, yuqori foydani soliqlardan imtiyozlar mavjud bo'lgan sohalarga, yuqori bo'Imagan foydani esa soliqlari yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirish lozim;

– transfert baholar amaldagi qonunlar talablari asosida shakllantirilishi va ularga mos kelishi.<sup>26</sup>

Transfert baho ciyosati masalasi bo'yicha moliyachi va marketologlar o'rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv - xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida babs-munozara kelib chiqadi.

Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuv eng sinalgan va ishonchli yondashuvdir. Uning asosida real kategoriya yotadi, bu - mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlardir. Ushbu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarishga va sotishga sarflangan haqiqiy xarajatlar kategoriyasi orqali ifodalanadi hamda buxgalteriyada dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

#### 10.1-jadval.

#### Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan yondashuvlar

T/r	Xarajatlar asosidagi yondashuv	Qiymat yondashuvi
1.	Mahsulot ↓	Xaridorlar ↓
2.	Texnologiya ↓	Qiymatliklar ↓
3.	Xarajatlar ↓	Baho ↓
4.	Baho ↓	Xarajatlar ↓
5.	Qiymatliklar ↓	Texnologiya ↓
6.	Xaridorlar ←	Mahsulot ←

Manba:<sup>27</sup>

Eng oqilona yondashuv transfert bahoni shakllantirishga nisbatan faol yondashuv usuli bo'lib, bunda transfert bahoni boshqarish orqali sotishlarning zarur hajmiga mos keluvchi o'rtacha xarajatlar hajmiga erishiladi, bu esa korxonani foydalilikning kutilayotgan darajasiga olib chiqadi.

Aynan mana shunday yondashuv "zaif" bozorlarda (ya'ni, talab

<sup>26</sup> Xasanov B.A., G'aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. –T.: «Iqtisod-Moliya». 2018. – b. 237

<sup>27</sup> Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Yo.B., Xanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – b. 236

pasayib boruvchi bozorlarda) yoki “kuchli” bozorlarda (ya’ni, talab ortib boruvchi bozorlarda juda yuqori baholar xarajat yondashuvini jiddiy kamchiligin chetlab o’tish imkonini beradi).

Shuni ta’kidlash joizki, transfert bahoni shakllantirishga xarajatli yondashuvdan voz kechish korxona menejerlariga oson bo’lmaydi, chunki ular ishlab chiqarishga yangi mahsulot uchun investitsiya qilish va bahoni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinguncha, kutilayotgan foydani aniqlashlari lozim.

Loyihalashtirayotgan yangi mahsulot zamonaviy texnik darajaga mos keluvchi o’lchamlar va xususiyatlarga ega bo‘lishi, konstrukturlik xizmatlari, texnologlar, moliya-iqtisodiy bo‘lim va buxgalteriyada texnik-iqtisodiy asosnoma (TIA) bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Shu bosqichning o‘zida baho aniqlanadi, u xarajatlarning o‘rnini to‘ldirishi va investitsiyalarni zaruriy darajada qoplashi kerak. Shundan so‘ng marketologlar (agar shunday mutaxassislar bor bo‘lsa) mahsulot sotish hajmini aniqlaydilar. Ular mahsulot sotishni tashkil etish, mahsulot xossasi va sifatiga xaridorlarni ishontirishga intiladilar.

Agar bunday “targ‘ibot” natijalari ijobjiy natija bermasa, korxona rahbariyati odatda bahoni pasaytirish taklifi hisobiga vaziyatni saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday sharoitda, odatda, xaridorlar bozorda ustunlik qiladigan vaziyat yuzaga keladi. Bunda aynan ular o‘z shartlarini qo‘yadilar va bahoni yanada pasaytirishga erishadilar.

Transfert bahoni shakllantirishga xarajatli yondashuvni mo‘ljal qilib muvaffaqiyatga erishish g‘oyat mushkul. Bunday sharoitda transfert bahoni shakllantirishga nisbatan qiymatli yondashuvga ko‘proq e’tibor berish lozim.

Baho	Xaridorning manfaati va yutug‘i	Korxonaning foydasi	Qiymat (naf)
	Korxonaning xarajatlari		

Manba:<sup>28</sup>

### 10.3-chizma. Transfert bahoni shakllantirishga qiymatli yondashuv

Transfert bahoga nisbatan qiymatli yondashuvning vazifasi

korxona mijozlarining rag‘batlantirilishidan iborat emas. Bunday natijaga bahoga katta chegirmalar berish hisobiga ham erishish mumkin, lekin qiymatli yondashuv korxona uchun sotishlar hajmini tobora avj olishi hisobiga emas, balki “qiymat-xarajatlar” nisbatining mutanosibligiga erishish hisobiga foyda olishni ta’minlashi kerak.<sup>29</sup>

Transfert bahoning shakllanishi mehnat bozorida raqobatda bo‘lgan boshqa korxonalar ta’siriga ham bog‘liq. Shu bois, korxonaning baho siyosati buxgalterlar, moliyachilar, marketologlar, menejerlar va bozorni o‘rganuvchi axborot xizmatchilarining doimiy hamkorligi natijasida tug‘iladi va takomillashadi. Bunday sharoitda baho siyosatini shakllantirish korxonaga foyda, xaridorga esa ko‘proq naf keltirishi lozim.

Korxona ichki bo‘linmalari o‘rtasida transfert baholarni shakllantirishda uni belgilash usullariga alohida e’tibor qaratish zarur:

Transfert baholarni belgilashning quyidagi usullari mavjud:

- bozor bahosi;
- to‘liq tannarx plyus foyda (to‘liq tannarxdan % sifatida);
- o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda (o‘zgaruvchan xarajatlardan % sifatida);
- tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho;
- to‘liq yoki qisqartirilgan tannarx.

Korxona boshqaruvchilar, bo‘linma-sotuvchilar va bo‘linmaxaridorlarning talablariga birdek javob beradigan yagona transfert baho mavjud emas. Amaliyotda korxonalarning bir qismi shartnomaviy bozor bahosidan transfert baho sifatida foydalanadi, boshqa bir qismi esa «to‘liq tannarx plyus foyda» usulidan foydalanishi afzal ko‘radi.

Mahsulot (ish, xizmat)larning shartnomaviy bozor bahosi hajmi qulay transfert baho hisoblanadi, chunki bu baho har bir markazning foydasini mustaqil xo‘jalik birligi sifatida tahlil qilib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Agar tashqi bozorda baho aniq bo‘lsa (masalan, yangi mahsulot turiga muqobil tovarlar bozori bo‘limganda va baho oldindan belgilanmagan bo‘lsa), unda «to‘liq tannarx plyus foyda» ya’ni to‘liq tannarxdan foiz sifatida olingan bahoni qo‘llash lozim bo‘ladi, chunki bunday baho bozor bahosiga yaqin hisoblanadi va bo‘linmalar faoliyatini kamchiliklarini aniqlashga imkon tug‘diradi.

Bahoga ustama belgilash vaqtida butun korxonani foydalilik

<sup>28</sup> Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Yo.B., Xasanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – b. 237

<sup>29</sup> Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Yo.B., Xasanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – b. 238

koeffitsentini emas, balki mazkur bo'linmaning xarajatlari xususiyatlarini hisobga olish zarur. Amaliyotda foyda ko'pincha moliyaviy qo'yilmalardan olingen daromad hisoblanadi hamda belgilangan reja ko'rsatkichi bilan solishtirilib boriladi. Agar transfert baho sifatida «o'zgaruvchan xarajatlar plyus foyda» usulidan foydalanilsa xomashyo, materiallar, xizmatlar va ish haqi kabi xarajatlarni o'zgarishiga tuzatishlar kiritadigan qoidaga amal qilinadi.

Transfert baho haqiqiy tannarx plyus qo'shimcha foyda tarzida belgilanishi ham mumkin. Mazkur usuldan menejerlar o'z bo'linmalarida mablag'lar sarfi uchun javobgar bo'lgan hollarda foydalanadi, biroq, bu usul mablag'larni tejash imkoniyatini pasaytiradi ya'ni haqiqiy tannarx qancha yuqori bo'lsa, bo'linma-sotuvchi sotish bahosini shuncha yuqori belgilaydi. Shuni nazarda tutish zarurki, tannarx asosida transfert baholarni belgilash vaqtida korxona tarkibiga kiruvchi bo'linmalarni foyda yoki investitsiya markazlari sifatida emas, balki xarajatlар markazlari sifatida qarab chiqish lozim. Bunday sharoitda o'zgaruvchan xarajatlar asosida belgilangan transfert baholar samarali hisoblanadi.

Bu usulda quyidagi ikkita shartga amal qilinadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga sarflangan aktivlar qiymati bir xil;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar darajasi qolgan xarajatlarga nisbatan deyarli o'zgarmas.

O'zgaruvchan xarajatlar asosida korxona ichidagi topshiruvlar paytidagi baho usuli to'liq tannarx asosidagi usuldan korxona zaxiralaridan yanada samaraliroq foydalanishni ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilganimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki xo'jalik baholari hisoblangan transfert baholardan foydalanish mustaqil bo'limnalarning xarajatlar va daromadlarini alohida-alohida aniqlashga hamda baholashga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) talablari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarni transfert bahoni shakllantirishning maqbul variantlarini tanlash va tatbiq etish bo'yicha ilmiy ishlanmalar va uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashda manfaatdor idoralar va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan transfert bahoni shakllantirish tamoyillari va talablariga rioya qilish pirovard

natijada korxonaning boshqaruvi tizimini shaffof va adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

Transfert bahoni shakllantirishga xarajatlar yondashuvidan ko'ra, fikrimizcha, qiymat yondashuvini qo'llash ijobiy samara beradi, buning natijasida, avvalambor mahsulotning buyurtmachisi aniq bo'lib, uning bilan tuzilgan shartnomaviy baholar bo'yicha kelishuv bayonnomasi tuzilgan, bu esa ichki xo'jalik transfert baholarini o'rnatishga asos bo'lib xizmat qiladi. Qiymat yondashuvining yana bir muhim ahamiyati shundaki, bunda korxona omborida tovar-moddiy zahiralarning qoldig'i, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarning sotilmay qolishi kabi salbiy holatlarning oldi olinadi.

### 10.3. Transfert bahoni belgilash usullari

Transfert baholar to'g'risida mulohaza yuritishda uning bozor baholari bilan farqli jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Amaldagi Soliq kodeksining (2019 yilgi yangi tahriri) "Bozor narxlari to'g'risidagi umumiy qoidalar" moddasida bitimlarning narxlari, ushuu bitimlar taraflarining daromadlari va xarajatlari bozor narxlari sifatida tan olinishi uchun quyidagi talablar bajarilishi ta'kidlangan: mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitimlar, birja savdolarining natijalariga ko'ra tuzilgan bitimlardagi shartnomaviy narxlar bandi yoki narxlarni kelishish bayonnomasi, soliq to'lovchi soliq (zarar) summalariga mustaqil tuzatish kiritishni amalga oshirmagan bo'lsa va qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa holatlarda bozor narxi deb topiladi.<sup>30</sup>

Mazkur qonuniy hujjatda soliq maqsadlari uchun transfert narxlaridan foydalanish masalalariga alohida VI-bo'lim "Transfert narxni belgilashda soliq nazorati", 5 ta bob va 27 ta modda ajratilgan. Unga muvofiq o'zaro aloqador taraflar o'rtasidagi bitimlarda shakllanadigan va (yoki) mustaqil shaxslar o'rtasida bitimlar tuzilayotganda taqqoslanadigan iqtisodiy sharoitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan xolis tarzda shakllanadigan narxdan farq qiladigan narx transfert narx deb tushuniladi.<sup>31</sup>

Iqtisodchi olim Kolin Dj. Druri Avstraliya, Kanada va Buyuk Britaniya davlatlarida transfert bahoning qo'llanilishi bo'yicha ijtimoiy so'rovlar o'tkazgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra respondentlarning

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri), 176-178 moddalar. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son. www.lex.uz/docs/4674902.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). 176-178 moddalar. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son. www.lex.uz/docs/4674902.

Avstraliyada 13%, Kanadada 34% va Buyuk Britaniyada 33%ni bahoni shakllantirishning bozor tamoyillari asosida hisob yuritayotganliklarini bildirishgan. To'liq xarajatlarga asoslangan usul bo'yicha xarajatlarni taqsimlash va moliyaviy natijani aniqlash Avstraliyada 65%, Kanadada 46% va Buyuk Britaniyada 27%. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ichki xo'jalik baholarini shakllantirish va alohida hisob yuritishdan ikkita maqsad ko'zlangan:

- har bir alohida bo'linmalarining faoliyatiga baho berish;
- kompaniyaning foydasini maksimal darajada oshirishga xarakat qilish.<sup>32</sup>

Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, transfert bahoning shakllanishiga qiymat (baho) va xarajatlar yondashuvidan tashqari yana bir samarali usul - kelishuvlar asosidagi transfert baholar usuli ham salmoqli o'ringa ega. Bu usulni qo'llovchilarining salmog'i – Avstraliyada 11%, Kanadada 18% va Buyuk Britaniyada 30%ni tashkil etgan. Mazkur usulning joriy etilishiga bir nechta sabablar, avvalo bozordagi oraliq mahsulot ga nisbatan bozor baholarining qayishqoq yoki moslashuvchan emasligi, hususan, ichki va tashqi bozorlar uchun turlicha sotish bilan bog'liq xarajatlarning yoki turlicha baholarning mavjudligi ta'sir ko'rsatadi.<sup>33</sup>

Iqtisodchi olima Soya-Serkho A.A. transfert baholarni ustidan o'rnatilgan soliq nazoratiga ishora qilib, ularni iqtisodiy adabiyotlarda shubhali yoki g'ayrioddiy baho deb qaralayotganini e'tirof etadi. Uning fikricha, transfert bahoga berilgan ta'rif o'rinali bo'lib, bu holat transfert baholarning tijorat maqsadlariga erishish uchun bozordan tashqarida tomonlarning kelishuviga muvofiq aniqlanishi hamda aynan soliq yukini pasaytirish maqsadida qo'llanilishi bilan izohlanadi.<sup>34</sup>

Ta'kidlash zarurki, mamlakatimiz Soliq qonunchiligidagi transfert bahoni aniqlash usullari (Soliq Kodeksining 186-moddasi) MDH davlatlarida qo'llanilayotgan usullarga mos keladi. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- 1) taqqoslanadigan bozor narxlari usuli;
- 2) keyingi realizatsiya qilish narxi usuli;
- 3) xarajat usuli;
- 4) taqqoslanadigan rentabellik usuli;

<sup>32</sup> Druri Dj. Kolin. Upravlencheskiy i proizvodstvennyi uchet: - 6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2012. – s.781-788

<sup>33</sup> Druri Dj. Kolin. Upravlencheskiy i proizvodstvennyi uchet: - 6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2012. – s.781-788

<sup>34</sup> Соя-Серко А.А. Трансферное ценообразование: на что нужно обратить внимание аудиторам. [www.cyberleninka.ru/article/n/transfertnoe-tsenoobrazovanie-na-chto-nuzhno-oblredit-vnimaniye-auditoram](http://www.cyberleninka.ru/article/n/transfertnoe-tsenoobrazovanie-na-chto-nuzhno-oblredit-vnimaniye-auditoram) (мурожаат килинган сана: 17.04.2020)

## 5) foydani taqsimlash usuli.<sup>35</sup>

Shunga e'tibor qaratishimiz lozimki, xo'jalik subyektlari ixtiyoriga Zarur bo'lgan hollarda yuqoridaq tavsiya etilgan usullarning ikki va undan ortig'i dan aralash holda foydalanishga ruhsat beriladi.

Biroq, amaldagi qonunchilikda taqqoslanadigan bozor narxlari usuli, nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini soliq solish maqsadida aniqlash uchun ustuvor hisoblanadi.

Mabodo taqqoslanadigan bozor narxlari usulini soliq solish maqsadida qo'llashning imkonni bo'lmasa yoki uni qo'llash nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligi (nomuvofiqligi) to'g'risida asoslangan xulosa chiqarish imkonini bermasa, yuqoridaq boshqa usullardan birini tanlashga to'g'ri keladi. Masalan, to'qimachilik korxonasi an'anaviy ravishda tarmoqqa hos bo'lgan bir turdag'i o'xshash mahsulot ishlab chiqarish uchun tuzilgan taqqoslanadigan bitimlarda narxlar to'g'risidagi barcha ishtiroychilar foydalanishi mumkin bo'lgan axborot mavjud bo'limgan taqdirda, transfert narxni belgilashda soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning to'liqligini ta'minlash maqsadida yuqoridaq keltirilgan usullarning biridan foydalanishi mumkin.

Transfert baholarini qo'llashda taqqoslanadigan bozor narxlari usulidan foydalanish imkoniyati aniqroq bo'lib, natijada foya (daromad) solig'ini hisoblash va to'lashda shaffoflikni ta'minlaydi deb o'ylaymiz. Fikrimizcha, transfert bahoni shakllantirishning rentabellik va foydani taqsimlash usullaridan amaliyotda foydalanish qiyinchilik tug'diradi. Buning sababi, transfert bahoning shakllanishi va rentabellikni aniqlash hamda foya taqsimoti jarayonlari o'rtasida vaqt nuqtai nazaridan mavjud davriylik ta'sir ko'rsatadi. Bunga ta'sir qiluvchi yana bir omil shundan iboratki, bu ikkala usul ham moliyaviy yoki tijorat bitimlari tuzilgandan keyin aniqlanadi. Demak, transfert bahoni aniqlashning bozor bahosiga asoslangan usuli samaraliroq deb hisoblanadi (10.2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, "OQ SAROV KLASTER" MCHJ korxonasida 2020 yilda paxtani klaster usulida etishtirishda jami xarajatlar 315,0 mlrd. so'mni tashkil etishi, uning asosiy qismini paxta xom-ashyosini etishtirish xarajatlari 268,0 mlrd. so'm (85%), paxta tozalash zavodining xarajatlari 25,0 mlrd. so'm (8%) va boshqa xarajatlар 20 mlrd. so'm(6,4%)dan iborat bo'lishi rejalashtirilgan.

<sup>35</sup> Налоговый кодекс Российской Федерации: часть первая от 31 июля 1998 г. № 146-ФЗ и часть вторая от 5 августа 2000 г. № 117-ФЗ

**“OQ SAROV KLASTER” MCHJ tomonidan 2020 yilda paxtani klaster usulida etishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha HISOBOT**

Nº	Ko‘rsatkichlar	Xarajat mlrd.so‘m	Salmog‘i, %da	Ko‘rsatkichlar	Daromad mlrd.so‘m	Salmog‘i, %da
1	Paxta xomashyosini etishtirish xarajatlari	268,0	85	Paxta tolasini sotish	274,6	75,5
2	Paxta tozalash zavodining xarajatlari	25,0	8	Chigit sotish	80,3	22,1
3	Tashish va saqlash xarajatlari	2,0	0,6	Momiq sotish	7,6	2,1
4	Boshqa xarajatlar	20,0	6,4	Pux va ulyuk sotish	1,2	0,3
	<b>Jami:</b>	<b>315,0</b>	<b>100</b>	<b>Jami:</b>	<b>363,7</b>	<b>100</b>
	<b>Zarar (-)</b>			<b>Foyda (+)</b>	<b>48,7</b>	

Manba. “OQ SAROV KLASTER” MCHJ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jami klaster bo‘yicha rejalashtirilgan daromadlar 363,7 mlrd.so‘m bo‘lib, shundan, paxta homashyosini sotishdan olinadigan daromadlar 274,6 mlrd.so‘m(75,5%), chigit sotish 80,3 mlrd.so‘m(22,1%), momiq sotish 7,6 mlrd.so‘m(2,1%), pux va ulyuk sotish 1,2 mlrd.so‘m(0,3%) daromad olinishi kutilgan.

2020 yilda Klaster tizimidagi korxonalar bo‘yicha 48,7 mlrd so‘m qilib rejalashtirilgan.

Xulosa qilganimizda, mamlakatimizda mahsulot (ish, xizmatlar)ga nisbatan bozor tamoyillariga asoslangan narxlarning o‘rnatalishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularning tarkibiy qismlari o‘rtasida yakuniy moliyaviy natijalarning shakllanishi ya’ni foydalilik darajasining ortishiga bo‘lgan manfaatdorlikni oshayotganligi kuzatiladi.

Ilg‘or xalqaro tajribaning guvohlik berishicha, iqtisodiy jarayonlarda ichki xo‘jalik transfert baholarining ahamiyati va roli beqiyosdir. Buning boisi shundaki, bozor bahosi va mahsulotning to‘liq tannarxi o‘rtasida shakllanayotgan foydaning hajmidan soliqlar vositasida davlat budjeti to‘ldiriladi. Shuningdek, korxona jamoasining moddiy manfaatdorligi qondiriladi hamda qayta investitsiyalash imkoniyatlari yaratiladi.

Transfert baholarini qo‘llashda taqqoslanadigan bozor narxlari usulidan foydalanish imkoniyati aniqroq bo‘lib, natijada foya (daromad) solig‘ini hisoblash va to‘lashda shaffoflikni ta‘minlaydi deb o‘ylaymiz. Shuningdek, rentabellik va foydani taqsimlash usullaridan ham transfert bahoni aniqlash mushkuldir, chunki bu ikkala usul ham moliyaviy yoki tijorat bitimlari tuzilgandan keyin aniqlanadi. Demak, transfert bahoni aniqlashning bozor bahosiga asoslangan usuli samaraliroq deb hisoblanadi.


#### **10.4. Transfert bahoni xarajatlar va qiymat yondashuvlari asosida shakllantirish**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash transfert bahoni aniqlash ishlab chiqarishni tashkil etishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan shakllariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ishlab chiqarish markazlashtirilgan holda tashkil etilgan sharoitda javobgarlik markazlari o‘rtasida mahsulot va xizmatlar almashinuvni ko‘proq haqiqiy (normativ) tannarx asosida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilmagan holda tashkil etilgan ishlab chiqarishlarda javobgarlik markazlari nisbatan mustaqil bo‘lib, korxona ichidagi uzatuv (topshirish) bahosi har bir bo‘linma foydasining aniq va ishonchli ko‘rsatkichini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan holda o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Korxona ichidagi uzatuv (topshirish) bahosini tanlash nafaqat bo‘linma faoliyati natijalarini aniqlash uchun, balki “qanday qilib ishlab chiqarish va sotib olish”, “sotish va bundan keyin ishlov berish” kabi savollar bo‘yicha qarorlar qabul qilish shuningdek, ishlab chiqarishning muqobil variantlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning ustiga, ma‘lum darajada bu yondashuvning nufuzi uni iqtisodiy nazariyada qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq, chunki mahsulotlar o‘rtasida xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, tannarxni shakllantirish va boshqarish bahoni korxona uchun naflilik nuqtai nazaridan daromad olish manbaiga aylantiradi (10.4-chizma).



**10.4-chizma. Bozor iqtisodiyoti sharoitida transfert baho va xarajatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik**

Mahsulotni sotishda baho darajasini sotishning va shunga mos ravishda ishlab chiqarishning taxminiy hajmi belgilaydi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobi e'tirof etadiki, mahsulot birligini ishlab chiqarishning umumiylar o'zgarishi bevosita ishlab chiqarish miqyosiga bog'liq. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi bilan bir buyumga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar summasi va ishlab chiqarishga sarflanadigan o'rtacha xarajatlar hajmi ham o'sadi. Binobarin, tadbirkor menejer transfert bahoni belgilayotganda xarajatlar usuli asosida yoki raqobatchilar tomonidan baho bo'yicha qabul qilingan qarorlar ta'siri ostida passiv baho belgilash yo'lini tanlamasligi lozim.

Transfert bahoni shakllantirishga faol yondashuv mantiqiga o'xshash masalalarni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Eng past bahoda sotiladigan tovarlar miqdorini katta miqdordagi foyda olish uchun qanchagacha oshirishimiz kerak?" yoki "Sotiladigan mahsulotlarning qancha miqdorini ko'proq foyda olish uchun yuqoriroq bahoda sotish kerak?".

Nazarimizda, transfert bahoni shakllantirishda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mahsulotni zararsiz sotish bahosini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

#### *Ostonaviy tushum*

*Zararsizlik bahosi =*

*Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi*

Yuqorida ta'kidlangan zararsizlik bahosini aniqlash uchun quyidagi misoldan foydalanamiz.

**1-misol.** «ABS» HJning faoliyatini izohlaydigan quyidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Sotishdan olinadigan tushum, so'm	358357
O'zgaruvchan xarajatlar,	so'm 288916
	16944
Marjinal daromad, so'm	45568
Doimiy xarajatlar, so'm	23873
Operatsion foyda, so'm	205
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, dona	

Birinchi navbatda, ostonaviy tushumni belgilab olish uchun quyidagicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Marjinal daromad hajmini topamiz:

$$358357-288916= 69441$$

3. Marjinal daromad koeffitsientini chiqarib tashlaymiz:

$$69441: 358357=0,19$$

4. Ostonaviy tushum (zararsizlik nuqtasi)ni aniqlaymiz:

$$45568: 0,19= 239831,6$$

Ostonaviy tushumni hisoblab topgach, uning yordamida mahsulotni zararsiz sotish bahosi aniqlanadi:

$$239831,6:205dona=1169,9$$

Demak, mahsulotning bir-birligini sotish bahosi 358357: 205dona=1748,08 so'm bo'lsa, bir birlikka to'g'ri keladigan foyda summasi 578,18 so'mni tashkil etadi.

Baho ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashi va korxonaga foyda keltira boshlashiga imkon berish uchun uni sotiladigan mahsulotga qanday belgilash lozim? Bu savolga javob berish uchun quyidagi misoldan foydalanamiz.

**2-misol.** Korxona 5000 dona mahsulot sotishni rejalashtirgan, bir-birlik mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan o'zgaruvchan xarajatlar 1600 so'mni tashkil etadi Doimiy xarajatlar – 2000000 so'm. Korxona 3000000 so'm miqdorida foyda olishni mo'ljallagan. Mahsulotni qanday bahoda sotish kerak?

1. Dastlab, marjinal daromad hajmini aniqlaymiz. Buning uchun doimiy xarajatlarga foydaning rejalashtirilgan hajmini qo'shamiz.

$$2000000 \text{ so'm} + 3000000 \text{ so'm} = 5000000 \text{ so'm}$$

2. Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan marjinal daromad summasini topish uchun yalpi marjinal daromad summasini sotiladigan mahsulotlar miqdoriga bo'lamiz:

$$5000000 \text{ so'm}:5000dona = 1000 \text{ so'm}.$$

3. Mahsulot birligi bahosini aniqlash uchun o'zgaruvchan xarajatlar orqali hisoblangan marjinal daromad summasiga doimiy xarajatlar va foydani qo'shish natijasida aniqlangan marjinal daromad summasini qo'shamiz:

$$1600 \text{ so'm} + 1000 \text{ so'm} = 2600 \text{ so'm}$$

Zararsizlik bahosini tahlil qilishga doir yuqorida keltirilgan formulalar mahsulotning belgilangan hajmini sotish jarayonida

foydaning ma'lum darajasiga erishish uchun sotishning zararsiz bahosini aniqlashga ko'maklashadi.

Demak, moslashuvchan transfert baho siyosatini yuritish va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish, iste'molchilarni rag'batlantirish hamda tovar bozoridagi raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi.

### 10.5. Transfert bahoni shakllantirish omillarini ekonometrik modellashtirish usullari.

Tadqiqot ishining bu paragrafida paxta-to'qimachilik klasteriga birlashtirilgan "Baht-textile" va "NAVBAHOR TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining 2016-2020 yillardagi panel' ma'lumotlari asosida transfert bahoni shakllantirish va segmentar hisobot tuzishda omillarning o'zaro ta'sirini o'rganishda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanamiz.

Shu maqsadda ko'p omilli ekonometrik regression model tuzishimiz zarur. Chunki, ko'p omilli ekonometrik model natijaviy omilga bir qator omillar ta'sirini o'rganishga yordam beradi. Ko'p omilli ekonometrik model tuzishda quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil - klasterning sof foydasi, mln. so'm (Y), ta'sir etuvchi omillar - klasterda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, % (X1), klasterda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi (X2), klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi (X3), klasterning buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi, % (X4) va kredit olishning osonligi (X5).

Ko'p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz. Buning sababi shundaki, barcha omillar bo'yicha taqsimotlar normal taqsimotga bo'ysunishlari lozim. Agar normal taqsimotga bo'ysunmasa, u holda egri chiziqli (parabola, giperbola, logarifmik va boshqalar) ekonometrik modellarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Omillar bo'yicha o'tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 10.3-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) - standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.


### 10.3-jadval.

#### Omillar bo'yicha tavsifiy statistika

	LN1	LN1X1	LN1X2	LN1X3	LN1X4	LN1X5
Mean (o'rtacha)	11.58421	4.024678	1.677531	1.732433	4.213961	1.768980
Median (mediana)	12.05624	4.019940	1.749162	1.848176	4.206756	1.686399
Maximum (maksimum)	12.50206	4.133565	1.840550	1.960095	4.301359	2.054124
Minimum (minimum)	9.973573	3.918005	1.163151	1.163151	4.139955	1.568616
Std. Dev. (standart chetlanish)	0.933115	0.065401	0.201474	0.283713	0.056109	0.177189
Skewness (asimmetriya)	-0.693805	-0.025875	-1.854367	-1.224816	0.187387	0.421167
Kurtosis (ekstsess)	1.914767	2.256747	5.389002	2.938248	1.691297	1.573128
Jarque-Bera (Jak-Bera)	1.292996	0.231293	8.109183	2.501881	0.772149	1.143955
Probability (ehtimollik)	0.523877	0.890790	0.017343	0.286235	0.679720	0.564408
Sum (yig'indi)	115.8421	40.24678	16.77531	17.32433	42.13961	17.68980
Sum Sq. Dev. (standart chetlanish yig'indisi)	7.836326	0.038495	0.365325	0.724436	0.028334	0.282564
Observations (kuzatuvlar)	10	10	10	10	10	10

**Manba.** Как предсказать курс доллара. Эффективные методы прогнозирования с использованием Excel и Eviews. <http://ibooks.ru>

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya'ni, simmetrik emas).



10.5-chizma. Omillarning normal taqsimot funkiyalari grafiklari


Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lsa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Barcha omillarning normal taqsimot funktsiyalari grafiklari quyidagi 10.5-chizmada keltirilgan.

10.5-chizmadan shuni ko'rish mumkinki, deyarli barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Ayrim omillarning ekstsess koeffitsiyenti 3 dan katta bo'lgani uchun normal taqsimotning nazariy grafigidan uchqirroq bo'lgan ( $\ln X_2$  va  $\ln X_3$ ).

$\ln X_4$  va  $\ln X_5$  omillardan tashqari barcha omillar ( $\ln Y$ ,  $\ln X_1$ ,  $\ln X_2$ ,  $\ln X_3$ ) ning asimmetriya koeffitsiyentlari musbat bo'lganligi sababli ular grafiklarining o'ng "dumi" nazariy normal taqsimot grafiklaridan o'ngga surilgan. Qolgan omillarning qiymati manfiy bo'lganligi uchun ularning taqsimot funktsiyasi "dumlari" o'ngga surilgan.

Ushbu surilishlar asosan o'rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmasan. Umuman olgandan o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan.

Natijaviy omilning normal taqsimoti grafigi quyidagi 10.6-chizmada keltirilgan.



10.6-chizma. Natijaviy omilni normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish

Buning uchun Jak-Bera mezonidan foydalananiladi. Mazkur mezon statistik mezon bo'lib, kuzatuvlar xatolarini normal taqsimot momentlari bilan uchinchi moment (asimmetriya) va to'rtinchchi momentini (ekstsess) normal taqsimotga tekshiradi va  $S=0$  va  $K=3$ .

10.6-chizmadan shuni aniq ko'rish mumkinki, natijaviy omil

normal taqsimotga bo'ysunar ekan. Bu hisoblangan parametrlar va mezonlar tomonidan tasdiqlanmoqda, ya'ni Jak-Bera hisoblangan koeffitsiyenti 12,3 ga teng va uning ehtimolligi (probability) 0,05 dan kichik ( $\text{prob}=0.0406$ ).

Ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun korrelyatsion tahlil o'tkazish kerak. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 10.4-jadvalda keltirilgan.

Ushbu 10.4-jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari - bu natijaviy omil ( $\ln Y$ ) va unga ta'sir etuvchi omillar ( $\ln X_i$ ) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil klasterning sof foydasi, ( $\ln Y$ ) va ta'sir etuvchi omillar ( $\ln X_i$ ) o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

#### 10.4-jadval.

Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 07/22/21 Time: 13:10

Sample: 2016S1 2020S2

Included observations: 10

	LNY	LNX1	LNX2	LNX3	LNX4	LNX5
LNY	1.000000					
LNX1	0.167788	1.000000				
	0.481402	---				
	0.6431	---				
LNX2	0.485199	0.017626	1.000000			
	1.569470	0.049863	---			
	0.1552	0.9615	---			
LNX3	0.942740	-0.017351	0.284976	1.000000		
	7.994757	-0.049082	0.840902	---		
	0.0000	0.9621	0.4248	---		
LNX4	0.389772	-0.044914	-0.259016	0.405216	1.000000	
	1.197122	-0.127166	-0.758493	1.253662	---	
	0.2655	0.9019	0.4699	0.2454	---	
LNX5	0.692054	0.357496	0.487642	0.464652	0.542040	1.000000
	2.711694	1.082701	1.579831	1.484184	1.824378	---
	0.0266	0.3105	0.1528	0.1761	0.1055	---

Manba. Как предсказать курс доллара. Эффективные методы прогнозирования с использованием Excel и Eviews. <http://ibooks.ru>

Masalan, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) va klasterda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ( $\ln X_1$ ) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,1678 ga teng. Bu esa klasterning sof foydasi va klasterda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi o'rtasida

kuchsiz bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) bilan klasterda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ( $\ln X_2$ ) o'rtaida o'rtacha aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtaidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0.4852 teng ekan. Klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) va klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi ( $\ln X_3$ ) o'rtaida zinch aloqa mavjud. Ushbu omillar o'rtaida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.9427 ga teng. Ammo, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) va klasterning buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi darajasi ( $\ln X_4$ ) o'rtaida sust aloqa mavjud ekan. Klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) va kredit olishning osonligi ( $\ln Y$ ) o'rtaida kuchli aloqa mavjd ekan (10.4-jadval).


Bundan tashqari 10.4-jadvalda juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham mavjud bo'lib, ular ta'sir etuvchi omillar ( $\ln X_i$ ,  $\ln X_j$ ) o'rtaida bog'lanish zichliklarini ko'rsatadi. Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zinch bog'lanmasligi kerak. Ya'ni, ta'sir etuvchi omillar o'rtaida multikolleniarlik mavjud bo'lmasligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtaida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud deyiladi. 10.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ta'sir etuvchi omillar o'rtaida bog'lanish zichliklari 0,7 dan katta emas ekan. Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'sir etuvchi omillar o'rtaida multikolleniarlik mavjud emas.

Shuningdek, 10.4-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligi va ehtimolligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning t-Styudent mezoni hisoblangan qiymati va ehtimoligi keltirilgan. Omillar o'rtaida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmaslik sharti qo'yiladi. Masalan, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) va klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi ( $\ln X_3$ ) o'rtaida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r_{Y,X_3} = 0,9427$ ,  $t = 7,99$  va prob.=0,0000 ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o'rtaida zinch bog'lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o'rtaida musbat bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha, masalan, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ( $\ln X_2$ ) va klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi ( $\ln X_3$ ) o'rtaida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti

$r_{\ln X_2, \ln X_3} = 0,2849$ ,  $t = 0,8409$  va prob.=0,4248 ga teng. Bu ushbu ikki omil o'rtaida sust bog'lanish mavjudligini hamda juft korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli emas ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda har bir omilning natijaviy ko'rsatkich bilan bog'liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko'rib chiqamiz (10.7-chizma).



10.7-chizma. Ta'sir etuvchi omillar ( $X_i$ ) va natijaviy omil (Y) o'rtaida bog'lanish shaklining ko'rinishi

Demak, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtaida korrelyatsiya koeffitsiyentlari t-Styudent mezoni hisoblangan qiymati va ehtimoligi bo'yicha quyiladigan talablarga javob berar ekan.

Demak, Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klastering sof foydasi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelini tuzishda barcha omillarni modelga kiritamiz.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtaida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsiyentlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsiyentlari quyidagi 10.5-jadvalda keltirilgan.

Agar ta'sir etuvchi omillar o'rtaida multikolleniarlik mavjud

bo'lsa, u holda Centered VIF>10 bo'ladi. 10.5-jadvaldan ko'rish mumkinki, barcha ta'sir etuvchi omillarning VIF koeffitsiyentlari 10 dan kichik. Demak, bu ham omillar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili kabi ta'sir etuvchi emillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

#### 10.5-jadval.

##### Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik samarasini o'lchash

Variance Inflation Factors

Date: 07/22/21 Time: 13:31

Sample: 2016S1 2020S2

Included observations: 10

Variable	Coefficient	Variance	Centered VIF
LNX1	1.418036		0.808448
LNX2	0.651680		0.397494
LNX3	2.658456		0.159860
LNX4	-0.281314		1.543935
LNX5	1.166455		0.560408
C	-0.699725		8.518647

**Manba.** Как предсказать курс доллара. Эффективные методы прогнозирования с использованием Excel и Eviews. <http://ibooks.ru>

Keyingi bosqichda Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasterining sof foydasi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Umumiy holda ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + \varepsilon \quad (1)$$

bu yerda  $y$  – natijaviy omil,  $x_i$  - ta'sir etuvchi omillar,  $\varepsilon$  - tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagи (1) noma'lum  $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$  parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" qo'llaniladi.

Ko'p omilli ekonometrik modelning noma'lum parametrlarini hisoblashda EVViews dasturidan foydalanamiz. Hisob-kitoblar bo'yicha natijalar quyidagi 10.6-jadvalda keltirilgan.

10.6-jadval ma'lumotlaridan foydalanib ko'p omilli ekonometrik modelning matematik ko'rinishini keltiramiz:

$$\ln y = -0,6997 + 1,4180 \ln x_1 + 0,6517 \ln x_2 + 2,6584 \ln x_3 - 0,2812 \ln x_4 + 1,1664 \ln x_5 \quad (2)$$

(8,5186)	(0,8084)	(0,2468)	(0,1598)	(0,0884)	(0,4048)
[-0,082]	[1,754]	[2,6395]	[16,629]	[-3,1822]	[2,8814]

bu yerda dumaloq qavslar ichida har bir omilning standart xatoligi va kvadrat qavslarda har bir omilning t-statistika (Styudent mezoni) qiymatlari.

#### 10.6-jadval.

##### Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: Y

Method: Least Squares

Date: 07/22/21 Time: 13:31

Sample: 2016S1 2020S2

Included observations: 11

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNX1	1.418036	0.808448	1.754022	0.1543
LNX2	0.651680	0.246898	2.639473	0.0365
LNX3	2.658456	0.15986	16.62993	0.0001
LNX4	-0.281314	0.088402	-3.182206	0.0423
LNX5	1.166455	0.404817	2.881439	0.0495
C	-0.699725	8.518647	-0.082140	0.9385
R-squared	0.993661	Mean dependent var		11.58421
Adjusted R-squared	0.985738	S.D. dependent var		0.933115
S.E. of regression	0.111438	Akaike info criterion		-1.266996
Sum squared resid	0.049673	Schwarz criterion		-1.085445
Log likelihood	12.33498	Hannan-Quinn criter.		-1.466157
F-statistic	125.4058	Durbin-Watson stat		2.946845
Prob(F-statistic)	0.000175			

**Manba.** Как предсказать курс доллара. Эффективные методы прогнозирования с использованием Excel и Eviews. <http://ibooks.ru>

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasterida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,41 foizga ortsa, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,65 foizga ortar ekan. Klasterda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ( $\ln X_2$ ) o'rtacha bir foizga ortsa, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,65 foizga ortar ekan. Klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi ( $\ln X_3$ ) o'rtacha bir foizga ortsa ( $ya'$ ni ishlovchilar soni), u holda klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 2,65 foizga ortar ekan. Lekin, klasterning buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi darajasi ( $\ln X_4$ ) o'rtacha bir foizga ortsa, klasterning sof foydasi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,28 foizga kamayar ekan. Tijorat banklaridan klaster uchun kredit olishning osonligi ( $\ln X_5$ ) o'rtacha bir foiz punktga ortishi, klasterning sof foydasini ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,16 foizga ortishiga olib kelar ekan.

Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$  - R-squared) 0,9936 ga teng. Bu esa Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasining ( $\ln Y$ ) 99,36 foizi (2) ko'p omilli

ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 0,63 foizi (1,0-0,9936) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

Ko'p omilli ekonometrik modeldag'i (2) omillarning standart xatoliklarining ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Ko'p omilli ekonometrik modelning (2) statistik ahamiyatliligini yoki o'r ganilayotgan jarayonga adekvatligini (mos kelishini) tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan F-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar Fhisob > Fjadval bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model (2) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkich – Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini ( $\ln Y$ ) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Demak, (2) modelning statistik ahamiyatliligini tekshirish uchun F-mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari  $k_1 = m$  va  $k_2 = n - m - 1$  hamda  $\alpha$  ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajalari  $k_1 = 5$  va  $k_2 = 11 - 5 - 1 = 5$  dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati  $F_{\text{qayd}} = 5,19$  ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati Fhisob = 125,4058 va jadval qiymati Fjadval = 5,19 ga teng va Fhisob > Fjadval sharti bajarilganligi uchun (2) ko'p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini ( $\ln Y$ ) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

Ko'p omilli ekonometrik modelning (2) hisoblangan parametrlari (regressiya koeffitsiyentlari) ishonchlilagini tekshirishda Studentning t-mezonidan foydalaniladi. Studentning t-mezonining hisoblangan (thisob) va jadval (tjadval) qiymatlarini taqqoslab, N0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli ( $\alpha$ ) va ozodlik darajasi ( $d.f. = n - m - 1$ ) shartlar asosida topamiz. Bu yerda  $n$  - kuzatuvlar soni,  $m$  - omillar soni.

Ishonchlilik ehtimoli  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajasi  $d.f. = 11 - 5 - 1 = 5$  bo'lganda, t-mezoning jadval qiymati  $t_{\text{qayd}} = 2,570$  ga teng.

O'tkazilgan hisob-kitoblardan shuni ko'rish mumkinki, ozod had va  $\ln X_1$  omillar bo'yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari  $\alpha = 0,05$  aniqlikda jadval qiymatidan kichik ekanligini ko'rish mumkin (10.6-jadval). Bu esa mazkur omillarning ko'p omilli ekonometrik modeldan chiqarib tashlashga imkon beradi. Ko'p omilli ekonometrik modelda (2)


qolga barcha omillar ishonchli bo'lib, ularning hisoblangan t-mezon bo'yicha qiymatlari, jadval qiymatidan katta ekan.

Ko'p omilli ekonometrik model (2) bo'yicha natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz.

Hisoblangan DW qiymati jadvaldag'i DWL va DWU bilan solishtiriladi. Agar DWhisob < DWL dan kichik bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. DWhisob > DWU dan katta bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati DWL = 0,56 ga teng va yuqori chegarasi qiymati DWU = 2,21 ga teng. DWhisob = 2,94 ga teng. Demak, DWhisob > DWU bo'lgani uchun natijaviy omil (Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini ( $Y$ )) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

(2) ko'p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 10.8-chizmada keltirilgan.



**10.8-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasining haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) grafigi


10.8-chizmadan ko'rish mumkinki (2) ko'p omilli ekonometrik

model bo'yicha Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlar grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o'rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas.

Bu esa (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan kelgusi davrlarga natijaviy ko'rsatkichni prognozlashda MAPE (Mean absolute percent error – foizlardagi o'rtacha absolyut xatolik) koeffitsiyenti hisoblanadi. Agar hisoblangan MAPE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo'lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi, aks holda foydalanib bo'lmaydi. Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasi bo'yicha MAPE koeffitsiyentining qiymati 0,5141 foizni tashkil etmoqda (10.9-chizma).

Bu esa 15,0 foizdan kichik (MAPE=0,5141), ya'ni u 0,5141 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini prognozlashda foydalanish mumkin.



**10.9-chizma.** Hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko'rsatkichlari

Shuning uchun ham ushbu (2) ko'p omilli ekonometrik model yordamida Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasini kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.

Buning uchun avvalo har bir ta'sir etuvchi omil bo'yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq

funktsiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln X_t = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

Klasterda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ( $\ln X_1$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_1 = 3,999 + 0,0047 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,7161, F_{\text{XMC06}} = 10,39, t_{\text{XMC06}} = 2,62$$

Klasterda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ( $\ln X_2$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_2 = 1,5138 + 0,0297 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,7472, F_{\text{XMC06}} = 12,000, t_{\text{XMC06}} = 2,4145$$

Klasterda ishlovchilar sonining o'zgarishi ( $\ln X_3$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_3 = 1,3037 + 0,0779 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,8318, F_{\text{XMC06}} = 17,964, t_{\text{XMC06}} = 4,2384$$

Klasterning buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi darajasi ( $\ln X_4$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_4 = 4,1532 + 0,0110 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,6957, F_{\text{XMC06}} = 4,402, t_{\text{XMC06}} = 2,0982$$

Kredit olishning osonligi ( $\ln X_5$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln \hat{X}_5 = 1,4897 + 0,0508 \cdot t \quad (8)$$

$$R^2 = 0,8676, F_{\text{XMC06}} = 24,3644, t_{\text{XMC06}} = 4,9360$$

## 10.7-jadval.

### Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasterining faoliyatini ko'rsatkichlarini prognoz hisob-kitoblarini qiymatlari

yillar	Sof foya, Y	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, X <sub>1</sub> %	Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, X <sub>2</sub>	Ishlovchilar sonining o'zgarishi, X <sub>3</sub>	Buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi, X <sub>4</sub> %	Kredit olishning osonligi, X <sub>5</sub>
1	2	3	4	5	6	7
2021.1	284951.5	57.4	6.3	7.0	71.9	7.8
2021.2	336053.4	57.7	6.5	7.4	72.7	7.9
2022.1	377042.7	58.0	6.7	7.6	73.5	7.9
2022.2	401558.6	58.2	6.9	7.7	74.3	7.9
2023.1	442647.0	58.5	7.1	7.9	75.1	8.0
2023.2	480531.2	58.8	7.3	8.1	75.9	8.1
2024.1	513737.2	59.0	7.5	8.2	76.8	8.1
2024.2	543174.9	59.3	7.8	8.3	77.6	8.1
2025.1	603125.9	59.6	8.0	8.5	78.5	8.2
2025.2	624033.1	59.9	8.2	8.5	79.4	8.2


**Manba.** Как предсказать курс доллара. Эффективные методы прогнозирования с использованием Excel и Eviews. <http://ibooks.ru>

Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki (4) – (8) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatliligi, parametrlarining ishonchhliligi aniqlandi.

Demak, (4) – (8) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo ta'sir etuvchi omillarning proqnoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omilni proqnoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasining (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o'zgaruvchilarining proqnoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (10.7-jadval) (10.10-10.15-chizmalar).

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur klasterda natijaviy omil hisoblangan sof foya 2021-2025 yillar davomida birinchi va ikkinchi yarim yilliklar kesimida proqnoz qilingan. Ta'sir qiluvchi oqibat omillari asosan koeffitsiyentda (mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, X2, ishlovchilar sonining o'zgarishi, X3; kredit olishning osonligi, X5) va foizlarda (ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, X1 %; buyurtmalar bilan ta'minlanganlik darajasi, X4 %) tahlil qilingan. 2021 yil bo'yicha ikkinchi korxona proqnoz tahliliga e'tibor qaratsak, X2 omili 6,5; X3 omili 7,4 va X5 omili 7,9 koeffitsiyentga teng bo'lgan. Mazkur yilda X1 omili 57,7% va X4 omili 72,7%ni tashkil etgan. Xuddi shu ko'rsatkichlarni 2025 yil ikkinchi korxona proqnozi bo'yicha X2 omili 8,2; X3 omili 8,5 va X5 omili 8,2 koeffitsiyentni tashkil etib, ularning 2021 yilga nisbatan o'sishi kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda X1 omili 59,9% va X4 omili 79,4% bo'lib, 2021 yilga nisbatan o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Quyidagi rasmida klaster tizimidagi korxonalarda transfert bahoning tarkibida sof foydani o'n yillik dinamikasi (shundan 2016-2020 yillar hisobot ma'lumotlari va 2021-2025 yillar kutilayotgan istiqbolli ko'rsatkichlar) kesimida regression modellar yordamida tadqiq etilgan. Bunda hisobot davri ma'lumotlari 2016 yilda birinchi yarim yillikda 21 452,0 mln.so'm va ikkinchi yarim yillikda 28 477,0 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilda bu raqam birinchi yarim yillikda 232 354,7 mln.so'm va ikkinchi yarim yillikda 268 891,3 mln.so'mga teng bo'lgan. Demak, hisobot davrida klasterning sof foydasi o'n baravargacha oshganligini kuzatamiz.



10.10-chizma. Navoiy viloyati paxta-to'qimachilik klasteri sof foydasining hisoblangan proqnoz ko'rsatkichlari


Diagrammaning ikkinchi qismini tahlil qiladigan bo'lsak, 2021 yilda birinchi yarim yillikda proqnoz qilinayotgan sof foya 284 951,5 mln so'm va ikkinchi yarim yillikda sof foya 336 053,4 mln.so'm bo'lgani holda, mazkur ko'rsatkich 2025 yilda mos ravishda 603 125,9 mln.so'm va 624 033,1 mln.so'm bo'lishi proqnoz qilinmoqda. Demak, 2025 yilda proqnoz qilinayotgan sof foydani 2021 yil bazis davrining birinchi yarim yilligiga nisbatan 2,1 va ikkinchi yarim yilligiga nisbatan 1,8 marta ko'paytirish imkoniyati mavjud. Istiqbolda bunday natijaga erishish uchun paxta-to'qimachilik klaster korxonalari mahsulotlari to'rt bosqichli chuqr qayta ishlash jarayonlaridan o'tib, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmi talablariga rioya qilishlari zarurligini proqnoz natijalari isbotladi.

Paxta-to'qimachilik klasterining faoliyati ko'rsatkichlarining proqnozi panelb ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilinib, regressiya tenglamasi tuzilgan. Unda omillarning regressiya funktsiyasiga ta'siri quyidagicha: ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi(X1 %da) boshqa omillar o'zgarmagan holda uning natijaviy ko'rsatkichga ya'ni sof foydaga ta'siri aniqlanganda uning 2016 yilning birinchi yarim yillikda 54,6%, ikkinchi yarim yillikda esa 57,8%ni, 2020 yilda mos ravishda 54,3% va 55,2%ni tashkil qilgan. 2025 yil proqnozi bo'yicha birinchi yarim yillikda bu omilning ta'siri 59,6% va ikkinchi yarim yillikda 59,9% bo'lishi proqnoz qilinmoqda.


Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi omili(X2)ni sof foydaga ta'siri 2021 yilda 6,3 koeffitsiyentdan 2025 yilda 8,2

koeffitsiyentga, ishlovchilar sonining o‘zgarishi (X3) 7.0 koeffitsiyentdan 8.5 koeffitsiyentga, buyurtmalar bilan ta’milanganlik darajasi (X4, %) 71.9%dan 79.4%ga, kredit olishning osonligi (X5) 7.8 koeffitsiyentdan 8.2 koeffitsiyentga o’sishi prognoz qilingan.


Keyingi bosqichda klasterda transfert bahoni shakllantirish jarayonida sof foydaga ta’sir etuvchi omillarning har birini alohida tahsil qilib chiqamiz. (10.11-10.15-chizmalar).




**10.11-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to‘qimachilik klasterida ishlab chiqarish qvvatlaridan foydalanish darajasining hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari




**10.12-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to‘qimachilik klasterida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi darajasining hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari



**10.13-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to‘qimachilik klasterida ishlovchilar sonining o‘zgarish darajasining hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari



**10.14-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to‘qimachilik klasterida buyurtmalar bilan ta’milanganlik darajasining hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari



**10.15-chizma.** Navoiy viloyati paxta-to‘qimachilik klasterining viloyat tijorat banklaridan kredit olishning osonligi darajasining hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari

Xulosa qilganmizda, paxta-to‘qimachilik klasterlarida transfert bahoni qo‘llashning qaysi usuli(bozor baholari, shartnomaviy baholar, tannarx plus va boshqa)ni qo‘llashdan qat’iy nazar, xo‘jalik subyekti, mulkdorlar va investorlar oldida foydani optimallashtirish masalasi ko‘ndalang turadi. Bu o‘z navbatida, klasterning sof foydasi va unga ta’sir etuvchi omillarni analiz va sintez, prognoz qilishni talab etadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishida transfert bahoni shakllantirishda natijaviy omil hisoblangan sof foydaga ta’sir etuvchi sabab omillari (ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, ishlovchilar sonining o‘zgarishi, buyurtmalar bilan ta’minlanganlik darajasi, kredit olishning osonligi) ko‘p omilli ekonometrik regression model yordamida tahlil qilib chiqildi.

Natijada bu omillarni bevosita va jiddiy ta’sir qiluvchi (mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, ishlovchilar sonining o‘zgarishi, kredit olishning osonligi) hamda bilvosita va kam ta’sirli (ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, buyurtmalar bilan ta’minlanganlik darajasi) kabi omillar bo‘yicha guruhlashtirildi.

Fikrimizcha, sof foyda(Y) va unga ta’sir qiluvchi beshta omil (X<sub>1</sub>, X<sub>2</sub>, X<sub>3</sub>, X<sub>4</sub>, X<sub>5</sub>)larni qatorini kengaytirish lozim, chunki xalqaro amaliyotda transfert bahoning shakllanishiga inflyatsiya jarayonlarining ta’sirini prognoz qilishga muhim omil sifatida qaraladi. Shu bois, transfert bahoning shakllanishiga ma’lum davlatning milliy

valyutasidagi sof foyda ko‘rsatkichi bilan birgalikda funktsiya sifatida rentabellik darajasining ta’sirini o‘rganishni taklif qilamiz. Uning afzalligi klasterning rentabellik ko‘rsatkichi bilan inflyatsiya darajasini solishtirish natijasida sof foydani moslashuvchan holda tuzatib borishga imkoniyat tug‘iladi.

Ilmiy ishda ta’sir etuvchi omillar va vaqt omili o‘rtasida tuzilgan trend modellar tahibili natijasida undagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatliligi, parametrlerining ishonchliligi aniqlangan. Trend modellarini hisoblab, ularning hisoblangan qiymatlarini matematik ko‘rinishini ko‘p omilli ekonometrik modelga qo‘yib, avvalo ta’sir etuvchi omillarning prognoz qiymatlari, keyin esa natijaviy omilni prognoz hisob-kitoblari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot izlanishlari vatanimiz olimlari akademik S.S.G‘ulomov va i.f.d., prof. T.Sh.Shodiyevlar yaratgan uslubiyot asosida ishlab chiqilgan. Fikrimizcha, ekonometrik modellashtirish jarayonida hisobot davri ko‘rsatkichlari va prognoz davri dinamik qatorlari bir-biriga mos holda olinsa, tadqiqotlarning samarasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Klasterlar iqtisodiyotimizda yangi tuzilma va xo‘jalik yuritish shakli sifatida 2017 yildan boshlab faoliyat yuritayotganligi sababli tadqiqotimizda yillar qatori trendi dinamikasi paneli ma’lumotlari 2016-2020 yillar hisobot davri va 2021-2025 yillar prognoz davri sifatida tanlab olingan. Bu ekonometrik modellashtirish qoidalari va talablariga mos keladi deb o‘ylaymiz.

### Test topshiriqlari

#### 1. Transfert baho...

- a) korxona ichidagi bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o‘tkaziladigan mahsulot yoki xizmatlar bahosi;
- b) asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkich;
- v) mahsulot (ish, xizmat)larning shartnomaviy bahosi;
- g) tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish qiymati;
- d) tovarlarni sotib olish tannarxi.

#### 2. Ishlab chiqarish markazlashtirilgan holda tashkil etilganda javobgarlik markazlari o‘rtasidagi transfert baho qanday ko‘rsatkich asosida aniqlanadi?

- a) shartnomaviy baho bo‘yicha;
- b) bozor bahosi bo‘yicha;

- v) haqiqiy tannarx asosida;
- g) a va b;
- d) to‘g‘ri javob berilmagan.

**3. Transfert baho qanday talablarga javob berishi kerak?**

- a) alohida bo‘linmalar maqsadini korxonaning umumiy maqsadi bilan uyg‘un holda birikib ketishini ta‘minlash;
- b) boshqaruvning turli darajalarida menejerlar uchun moslashuvchan va bir xilda bo‘lish;
- v) markazlashtirilmagan holda boshqarish sharoitida bo‘linmalar rahbarlariga ularning mustaqilligini saqlab qolishga imkon yaratish;
- g) amaldagi qonunlar talablariga mos kelish;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**4. Korxona ichki bo‘linmalari o‘rtasida transfert bahoni belgilashning qanday usullari mavjud?**

- a) bozor bahosi, to‘liq tannarx plyus foyda;
- b) o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda;
- v) tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho, to‘liq yoki qisqartirilgan tannarx;
- g) a, b va v;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

**5. Korxona javobgarlik markazlarida transfert bahoni shakllantirishga nisbatan yondashuvlar ko‘rsatilgan qatorni aniqlang?**

- a) xarajatlar yondashuvi;
- b) qiymat yondashuvi;
- v) faol yondashuv;
- g) a, b va g;
- d) barcha javoblar noto‘g‘ri.

**6. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuvi - ...**

- a) mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlarga asoslanadi;
- b) sotishning zarur hajmiga mos keluvchi o‘rtacha xarajatlar hajmiga erishishni ifodalaydi;
- v) «qiymat-xarajatlar» nisbati mutanosibligini ta‘minlashi zarur;

- g) mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflangan bevosita xarajatlarning yig‘indisini aks ettiradi;

- d) korxona daromadlari uning xarajatlarini to‘liq qoplaydigan nuqtani ifodalaydi.

**7. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan qiymat yondashuvining maqsadi to‘g‘ri ifodalangan qatorni aniqlang.**

- a) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aks ettirish;
- b) “qiymat-xarajatlar” nisbatining mutanosibligiga erishish hisobiga yuqori foyda olishni ta‘minlash;
- v) zararsizlik nuqtasini aniqlash;
- g) doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zaro mutanosibligini ta‘minlash
- d) korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o‘rtasidagi farqni ifodalash.

**8. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan faol yondashuv usuli**

- a) iste‘molchilarni rag‘batlantirishni nazarda tutadi;
- b) sotishning zarur hajmiga mos keluvchi o‘rtacha xarajatlar hajmiga erishishni ifodalaydi;
- v) mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan xarajatlarga asoslanadi;
- g) «qiymat-xarajatlar» nisbati mutanosibligini ta‘minlashga xizmat qiladi;
- d) a va v.

**9. Materiallar birato‘la iste‘molchilarga jo‘natilsa, qaysi hujjat tuziladi?**

- a) limit-ta‘minot karta;
- b) yorliq;
- v) dalolatnoma-talabnoma;
- g) schyot-faktura.

**10. Materiallar o‘zining xo‘jaliklariga jo‘natilsa qaysi hujjat to‘ldiriladi?**

- a) limit-ta‘minot karta;
- b) dalolatnoma;
- v) yorliq;
- g) yuk-xati.

## Nazorat savollari

1. Transfert bahoga ta'rif bering.
2. Korxona faoliyatini rivojlantirishda oqilona transfert baho siyosatini ishlab chiqishning zarurati nimada?
3. Transfert baho va xarajatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuvining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
5. Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan qiymat yondashuvining qanday afzalliklari bor?
6. Korxonada transfert bahoni belgilash qanday talablar asosida amalga oshiriladi?
7. Transfert bahoni shakllantirish usullariga izoh bering.
8. Transfert bahoni shakllantirishda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash qanday ahamiyatga ega?

## 11-bob. OPERATSION SEGMENTLAR HISOBI VA HISOBOTI

### 11.1. Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllari

O'zbekistonda agrar sohada bozor munosabatlarini joriy etish va tarkibiy o'zgartirishlarni yanada rivojlantirish, mahsulotlarni qayta ishlash maqsadida paxta-to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari korxonalarining integratsiyalashuvini kengaytirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda eksperiment tariqasida to'qimachilik va yengil sanoat korxonalar bazasida paxtani qayta ishlash korxonalarini ijaraga olgan holda fermer xo'jaliklari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish asosida klaster va kooperatsilar keng faoliyat yuritmoqda. Bu yangi tuzilmaning maqsadi yakuniy qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotni eksportga yo'naltirish va olingan daromadni yagona markazdan turib, iqtisodiy asoslangan normativlarga binoan taqsimlashdan iborat.<sup>36</sup>

Boshqaruv hisobi va uning tarkibiy qismi hisoblangan ishlab chiqarish hisobi sohasida iqtisodchi olimlar o'rtasida bahs-munozaralar mavjud.

Boshqaruv hisobi qamrovi va tarkibiy qismlariga ko'ra ishlab chiqarish hisobidan hajmdorroq bo'lib, segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish, istiqbolni belgilash kabi hisobning yangi yo'nalishlarini qamrab oladi. Shu o'rinda "istiqbolni belgilash" atamasini zamонави dasturlar va adabiyotlarga mos qilib "strategik rejalashtirish" deb nomlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunday mas'uliyatli vazifalar ijrosini ta'minlash iqtisodiyotga klaster tizimini tatbiq etish, xusan, uning tarkibiy qismlari sanalgan ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtasida javobgarlik markazlarini belgilash, buning uchun esa korxonani iqtisodiy va geografik segmentlarga ajratish, har birining daromadlari va xarajatlarini hisoblash, segmentlar faoliyati yuzasidan ichki hisobot tuzishni korxonaning hisob siyosatiga kiritish talab qilinmoqda.

Ishlab chiqarish hisobining maqsadi korxonani ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlarini samarali boshqarish, uning rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini qidirib topishdan iborat. Boshqaruv hisobning bu turi korxonaning ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini o'zida mujassam qilmog'i zarur.


<sup>36</sup> "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 martdagi 230-son qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2019 y., 09/19/230/2785-son) (b.1)

Ishlab chiqarish hisobi quyidagi ko'rsatkichlarga asosiy e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq:

xarajatlar va daromadlarning elementlari; subyekt xarajatlari va daromadlarini javobgarlik markazlari kesimida hisobini tashkil qilish; xarajatlarni umumlashtirish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish; biznes reja va hisobotning haqiqiy ma'lumotlarini o'zaro solishtirish; daromadlar va xarajatlarni solishtirish hamda moliyaviy natijani aniqlash.

Bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlarda boshqaruvin hisobida segmentlar bo'yicha hisobotni shakllantirish tartibi 1997 yil avgustida qabul qilingan 14-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) bilan tartibga solinlar edi. Unga ko'ra, segmentlarning ikkita ya'ni xo'jalik va geografik turlari ajratib ko'rsatilgan edi. Ushbu BHXS 2009 yil 1 yanvarigacha amal qilib kelgan.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bosqichma-bosqich qo'llanilmoqda. Tadqiqot predmetiga taalluqli 8-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti "Operatsion segmentlar" deb nomlanadi. Bu standartda segmentlar faoliyatini tartibga solish bo'yicha tushunchalar, tamoyillar va umumiy qoidalar mujassamlangan bo'lib, uning 6-bandida operatsion segmentlar sanab o'tilgan. Xususan, ularga daromad keltirmaydigan, boshqaruvgaga taalluqli bosh ofis va ayrim bo'linmalar kiritilmasligi ta'kidlangan.



**Manba.** Вахрушина М.А. Внутрипроизводственный учет и отчетность. Сегментарный учет и отчетность. Российская практика: проблемы и перспективы. - М.: «АКДИ Экономика и жизнь», 2000.-192 с.(с.9)

**11.1-chizma. Korxonaning segmentar hisobi va hisobotini boshqaruv nazorati tizimi bilan o'zaro bog'liqligi.**

Professor Vaxrushina Mariya Aramovna segmentar hisobot tuzish masalasiga munosabat bildirib, quyidagilarni yozadi: "Segmentar hisobot - tashkilot faoliyatining alohida segmentlari uchun tuzilgan hisobot. Vatanimiz iqtisodiy adabiyotlarda segmentlar bo'yicha hisob yuritish va segmentar hisobot tuzish tartibi amalda ishlab chiqilmagan. Bu masalalar mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmagan. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunda faqat moliyaviy hisobot tushunchasiga ta'rif berilgan"<sup>37</sup>.

Professor B.Xasanovning ta'kidlashicha, "Biznes segmenti – bu korxonaning ma'lum qismini yoki nisbatan mustaqil bo'linmasini muayyan vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratishdir.

Boshqaruvin hisobi korxonaning tashkiliy tuzilmasini hisobga olgan holda, turli javobgarlik markazlari (biznes segmentlari) majmuidan tarkib topadi.

Geografik segment – bu muayyan iqtisodiy muhitdagi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, tavakkalchilik va foyda ta'siridagi, tavakkalchiliklar va foydadan farq qiluvchi, segmentlarga xos bo'lgan, boshqa iqtisodiy shart-sharoitlarda amal qiluvchi, ajratib chiqariladigan komponentdir"<sup>38</sup>.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida: "Buxgalteriya hisobi subyektining rahbari: hisob siyosati, ichki hisob va hisobot tizimini ishlab chiqilishini;" ta'minlashi belgilab qo'yilgan.<sup>39</sup>

Segment xarajatlari – bu bevosita segment tarkibiga kiritilishi mumkin bo'lgan xarajatlari yoki ularning korxona umumiy xarajatlarining bir qismi sifatida namoyon bo'lishidir (11.1-jadval).

Jadval ma'lumotlari korxona segmentlari xarajatlarini qiyosiy tahlil qilishda va ularni kamaytirish yo'nalishlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentlar bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish O'zbekiston Respublikasining "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) asosida amalga oshiriladi.

<sup>37</sup> Вахрушина М.А. Внутрипроизводственный учет и отчетность. Сегментарный учет и отчетность. Российская практика: проблемы и перспективы. - М.: «АКДИ Экономика и жизнь», 2000.-192 с.(с.9)

<sup>38</sup> B.A.Xasanov, Z.U.G'aniev, D.A.Muxammedova. Boshqaruv hisobi.-T.: «Iqtisod-Moliya»,2018.- 280 b. (6.245)

<sup>39</sup> "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Xalq so'zi, 14 Aprel 2016 yil. (b.3)

### 11.1-jadval.

Korxonada ichki xo'jalik segmentlari bo'yicha  
xarajatlarning umumlashtirilgan hisoboti, ming so'mda

Ko'rsatkichlar	I - III choraklar bo'yicha jami		Jami yil boshidan	
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda
1	2	3	4	5
Tola tayyorlash tsexi	351510	+1317	1184940	+8820
Ip yigiruv tsexi	360900	-1170	1291800	-2610
To'qish tsexi	404370	+1740	1461960	+5910
Gul bosish va ohorlash tsexi	268050	-570	908037	+690
YOrdamchi ishlab chiqarish tsexlari	278550	-870	1058025	+990
<b>TSexlar bo'yicha jami</b>	<b>1663380</b>	<b>+447</b>	<b>5904762</b>	<b>+13800</b>
Umumishlab chiqarish xarajatlari	86610	+465	233130	+3510
<b>Korxona bo'yicha jami</b>	<b>1749990</b>	<b>+912</b>	<b>6137892</b>	<b>+17310</b>

Manba. Tadqiqotlar natijasida muallif ishlansMASI

Uning 96-bandida shunday deyiladi: "Korxona hisob siyosatining foydalanuvchilar uchun optimal usullari tanlanganda boshqaruvchilar tavakkalchilikni baholash imkoniyatlarini va xo'jalik subyektlarining kelgusidagi pul mablag'lari oqimini nazarda tutishlari lozim. Hisob siyosati quyidagi axborotlarni o'zida aks ettirishi lozim"<sup>40</sup>:

96.17. faoliyat turlarini, jug'rofiy segmentlarni hamda xarajatlarni segmentlar o'rtasida taqsimlash usulini belgilash".

Shuningdek, operatsion segment xarajatlarga quyidagilar kiritilmasligi belgilangan:

qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bo'yicha xarajatlar (ular segmentning asosiy faoliyatni bo'lgan hollar bundan mustasno);  
daromad (foyda) solig'i;  
favqulodda xarajatlar (fors-major majburiyatlar).

Korxonada ichki (segmentlar) hisobotlarni buxgalter moliyaviy, boshqaruv hisobi va reja-moliya bo'limi ma'lumotlari asosida tuzadi.

Segmentar hisobot boshqaruv hisobining ajralmas qismi bo'lib, u javobgarlik markazlari faoliyatini samarali boshqarish uchun daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risida tuziladigan tezkor va joriy

<sup>40</sup> "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli O'zbekiston Respublikasining 1-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti. O'zbekiston Respublikasi Adiyya vazirligida 1998 yil 14 avgustda 474-son bilan ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. – Toshkent: «NORMA» nashriyoti, 2018 – 368 bet. (b.50)

hisobot shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Fikrimizcha, klaster tizimidagi korxonalarda segmentar hisobot har bir bo'linma ichida tuzilishi maqsadga muvofiqdır. Ilmiy ishda uchinchi bobida segmentar hisobot ikkita darajada: klasterning yuqori bo'g'inidagi vertikal integratsiyaga asoslangan korxonalar bo'yicha to'rt bosqichli tuzilmalar kesimida va alohida olingen korxonalarning ichki xo'jalik bo'linmalari bo'yicha tuzilishi tavsiya qilingan.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda modernizatsiyalash jarayonida klaster tizimining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Boisi, u tufayli ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar zanjirini yagona logistik tizimda umumlashtirish hamda xalqaro eksport darajasiga chiqish uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda tan olingen segmentar hisob yuritish va hisobot tuzish tamoyillari va standartlariga o'tish jadallahadi.

### 11.2. Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillari

Mamlakatimizda agrar sohada tarkibiy islohotlarni jadallashtirish va bozor munosabatlarini joriy qilish, mahsulotlarni qayta ishslash hamda to'qimachilik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyalashuvini yanada kengaytirishni asosiy vazifa qilib qo'ymoqda.

Iqtisodchi olima prof. Yo.Karriyevaning "O'zbekistonda klasterlar faoliyatini innovatsion rivojlantirishda logistikani qo'llash" masalalariga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlarda asosiy e'tibor logistikani faoliyat turlari buyicha transport-logistik, bojxona-logistik, industrial-logistik, innovatsion-logistik klasterlarga bo'lib o'rganilgan.

Fikrimizcha, bu boshqaruv zanjirida ishlab chiqarish va ta'minot logistikasi, bu tizimda klaster zanjiridagi korxonalarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish logistikasi ishlab chiqarish menejmenti nuqtai nazaridan qayta turkumlanishi maqsadga muvofiqliq.<sup>41</sup>

Mazkur muammoni tadqiq etgan olim Z.Hakimov to'qimachilik sanoatida klasterlarni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha: "To'qimachilik korxonalarida mahsulot, texnologiya va marketing innovatsiyalarini shakllantirish uchun ularga moliyaviy manbalar, malakali ishchi kuchi hamda yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriylar kerak va

<sup>41</sup> Karriyeva Yo. O'zbekistonda klasterlar faoliyatini innovatsion rivojlantirishda logistikani qo'llash. Biznes-ekspert jurnali 2019 yil 6сон. (b.3)

ularni kichik korxonalarda barchasini jamlash imkoniyatlari mavjud emas. O‘z navbatida, yakuniy mahsulot tayyorlash uchun korxonalarning klasterda birlashishi esa keltirib o‘tilgan imkoniyatlarni ta‘minlaydi”.<sup>42</sup>

#### 11.2-jadval

**Navoiy viloyati “NAVBAHOR TEKSTIL” MCHJ klaster korxonasida 2019 yilda paxta xom ashyosi yetishtirish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar to‘g‘risida hisobotning taklif qilinayotgan shakli**

№	Xarajatlar yo‘nalishi	O‘lchov birligi	FERMER XO‘JALIKLARI (2019 yil)			
			Jami	Bitta fermer xo‘jaligiga	Shundan	Bir gektarga
I.	2	3	4	5	6	7
I.	Fermer xo‘jaliklari	soni ga	311 8 422	x	x	x
II.	Jami tushum	mln.so‘m	69 366,4	223,0	8,2	2,9
	Olingan paxta xom ashyosi	ming tonna	23,7	0,076	0,0028	-
	To‘lanadigan mablag‘	mln.so‘m	69366,4	223,0	8,2	2,9
	<b>Shundan:</b>					
2.1	Moliya vazirligi tomonidan belgilangan paxta xaridi narxi bo‘yicha	mln.so‘m	46244,3	148,7		
2.2	ustama narxi 50%	mln.so‘m	23122,1	74,3	2745,4	
III.	Xarajatlar (moliyalashtirish)		64392,8	207,1	7,6 mln.so‘m	2,7 mln.so‘m
1	Ish haqi	mln.so‘m	1992,7	6,4	0,24	
2	Mineral o‘g‘itlar	mln.so‘m	6049,5	19,5	0,72	
3	O‘simliklarni himoya qilish	mln.so‘m	480,5	1,5	0,06	
4	Agrokimyo stantsiyalari	mln.so‘m	71,1	0,2	0,01	
5	Urug‘lik	mln.so‘m	1085,3	3,5	0,13	
6	Mexanizatsiya xizmati	mln.so‘m	1067,5	3,4	0,13	
7	Lizing to‘lovlar	mln.so‘m	1067,5	3,4	0,13	
8	Suv iste‘molchilar uyushmasi (SIU) xizmati	mln.so‘m	338,1	1,1	0,04	
9	YOqilg‘i-moylash materiallari	mln.so‘m	4021,1	12,9	0,48	
10	Polietilen	mln.so‘m	53,3	0,2	0,01	
11	Elektr energiyasi	mln.so‘m	444,8	1,4	0,05	
12	YAgona yer soliq‘i	mln.so‘m	355,8	1,1	0,04	
13	Qishloq va svu xo‘jaligi boshqarmasi uchun badal	mln.so‘m	71,2	0,2	0,01	
14	Fermerlar Kengashi	mln.so‘m	89,1	0,3	0,01	
15	Monitoring markazi	mln.so‘m	71,1	0,2	0,01	
16	Sug‘urta to‘ovi va boshqalar	mln.so‘m	533,6	1,7	0,06	
17	Terim puli	mln.so‘m	16600,5	53,4	1,97	
18	Qishloq xo‘jaligi texnikalar xaridi uchun	mln.so‘m	30000,0	96,5	3,56	
IV.	Olingan foyda	mln.so‘m	4 973,6	16,0	0,590	0,210
V.	Soliqlar	mln.so‘m	2 011,6	6,5	0,238	0,085
VI.	Sof foydasi	mln.so‘m	2 962,0	9,5	0,351	0,125

**Manba.** “NAVBAHOR TEKSTIL” MCHJ klaster tizimidagi fermer xo‘jaliklari ma’lumotlari asosida muallif ishlansiz.

<sup>42</sup> Xakimov Z. To‘qimachilik sanoatida klasterlarni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi. Biznes-ekspert jurnalı 2019 yil 4-son. (b.4)

Klaster tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalarda boshqaruvin hisobi bilan ishlab chiqarish hisobining umumiyligi va xususiy jihatlarini farqlashga e’tibor qaratish zarur.

Boshqaruv buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi, segmentar hisob va hisobot, transfert bahoni shakllantirish, strategik hisob va tahvil kabi hisobning bo‘limlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2016 yil 13 apreldagi O‘RQ-404-sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida: “Buxgalteriya hisobi subyektining rahbari hisob siyosati, ichki hisob va hisobot tizimini ichki nazorat tartibini ishlab chiqilishini ta‘minlashi belgilab qo‘yilgan”.<sup>43</sup>

Navoiy viloyati Navbahor tumanida tashkil etilgan “NAVBAHOR TEKSTIL” MCHJ klaster korxonasining segmenti hisoblangan fermer xo‘jaliklarida 2019 yilda paxta xom ashyosi yetishtirish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar to‘g‘risida hisobotning shakli taklif qilindi(11.2-jadval).

Mazkur jadval klaster tizimidagi fermer xo‘jaliklari faoliyati bo‘yicha tezkor axborotlar to‘plash uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, uning ma’lumotlaridan segmentlarni samarali boshqarish maqsadida ichki xo‘jalik hisobida ham foydalanan maqsadga muvofiqdir. Jadvalning qulayliklaridan biri uning standart shaklda ekanligi, rekvizitlari tushunarli va tahvilga moslashtirilganligi, daromad va xarajatlarning bitta fermerga, bir gektar yerga hamda bir tonna hosilga kalkulyatsiya qilinganligi hisoblanadi.

Yuqorida jadvalning vertikal qismini tahlil qilganimizda fermer xo‘jaligining yetishtirgan hosili, unga ketgan xarajatlar, olingan tushum, yalpi foyda, soliq to‘languncha bo‘lgan foyda, soliqlar va klasterdagи 311 ta fermer xo‘jaligining sof foydasi to‘g‘risida aniq axborotga ega bo‘lishimiz mumkin(11.3-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “OQ SAROV KLASTER” MCHJ korxonasida 2020 yilda paxtani klaster usulida yetishtirishda jami xarajatlar 315,0 mlrd. so‘mni tashkil etishi, uning asosiy qismini paxta xom ashyosini yetishtirish xarajatlari 268,0 mlrd. so‘m (85%), paxta tozalash korxonasining xarajatlari 25,0 mlrd. so‘m

<sup>43</sup> “Бухгалтерия хисоби тутрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конунига ўзгартиш ва кўшимчалар киритиш хақида Ўзбекистон Республикасининг Конуни. “Халқ сўзи”, 14 Апрель 2016 йил. (6.3)

(8%) va boshqa xarajatlar 20 mld. so‘m(6,4%)dan iborat bo‘lishi rejalashtirilgan.

#### 11.3-jadval.

“OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatida transfert bahoni shakllantirish bo‘yicha segmentar hisobotning taklif etilayotgan shakli

Nº	Ko‘rsatkichlar	Xarajatla r, mlrd.so‘m	Salmog‘ i, %da	Ko‘rsatkichla r	Daromadla r, mlrd.so‘m	Salmog‘ i, %da
1	Paxta xom ashyosini yetishtirish xarajatlari	268,0	85,0	Paxta tolasini sotish	274,6	75,5
2	Paxta tozalash korxonasing xarajatlari	25,0	8,0	CHigit sotish	80,3	22,1
3	Tashish va saqlash xarajatlari	2,0	0,6	Momiq sotish	7,6	2,1
4	Boshqa xarajatlar	20,0	6,4	Pux va ulyuk sotish	1,2	0,3
<i>Jami xarajatlar:</i>		<b>315,0</b>	<b>100</b>	<i>Jami daromadlar:</i>	<b>363,7</b>	<b>100</b>
<b>Zarar (-)</b>				<b>Foyda (+)</b>	<b>48,7</b>	

Manba. “OQ SAROV KLASTER” MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

“OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatida rejalashtirilgan daromadlar 363,7 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan, paxta xom ashysini sotishdan olinadigan daromadlar 274,6 mlrd. so‘m(75,5%), chigit sotish 80,3 mlrd. so‘m(22,1%), momiq sotish 7,6 mlrd. so‘m(2,1%), pux va ulyuk sotish 1,2 mlrd. so‘m(0,3%) daromad olinishi kutilgan.

2020 yilda klaster tizimidagi korxonalar bo‘yicha foyda 48,7 mlrd. so‘m qilib rejalashtirilgan. Mazkur jadvalning amaliyotga tatbiq etilishi va uning korxonaning hisob siyosatiga kiritilishi har bir javobgarlik markazining xarajatlari va daromadlarini tezkor nazorat qilib borishga imkoniyat yaratadi. shuningdek, klaster va kooperatsiya tizimidagi ishtirokchilarining foydasini aks ettirib, agar zarar ko‘rilsa uning kelib chiqish sabablarini aniq ko‘rsatib beradi.

#### 11.4-jadval.

Klaster tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalarda segmentlarning xarajatlari bo‘yicha umumlashtirilgan hisobot, ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar	I-III kvartallar bo‘yicha jami		Jami yil boshidan	
	Reja	Haqiq.	Reja	Haqiq.
Materiallar qiymati(paxta tolasi)	351510	+1317	1184940	+8820
Ip yigiruv tsexi	360900	-1170	1291800	-2610
To‘qish tsexi	404370	+1740	1461960	+5910
Gul bosish va ohorlash tsexi	268050	-570	908037	+690
YOrdamchi ishlab chiqarish tsexlari	278550	-870	1058025	+990
<b>TSexlar bo‘yicha jami</b>	<b>1663380</b>	<b>+447</b>	<b>5904762</b>	<b>+13800</b>
Umumishlab chiqarish xarajatlari	86610	+465	233130	+3510
<b>Korxona bo‘yicha jami</b>	<b>1749990</b>	<b>+912</b>	<b>6137892</b>	<b>+17310</b>

Manba. Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Ushbu jadval ma’lumotlari korxona segmentlari xarajatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi va ularni iqtisod qilish rezervlarini qidirib topishda muhim ahamiyatga egadir.

#### 11.5-jadval.

Klasterlarda paxta yetishtirish va qayta ishlash faoliyati bo‘yicha moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi TEZKOR HISOBOT, mln.so‘m

Nº	Ko‘rsatkichlar	Jami xarajatlar	Jami daromadlar	Sof foyda
1	Jami paxta yetishtirish	74 836,4	96 522,0	21 685,7
2	Paxtani terish va saqlash	21 830,0	-	-
3	Paxta tolasini qayta ishlash	120 827,7	137 236,4	16 408,7
4	CHigitni qayta ishlash	4 253,0	19 635,0	15 382,0

Manba. “NAVBAHOR TEKSTIL” MCHJ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur jadvalni paxta-to‘qimachilik klasterlarida qo‘llash ularning faoliyatini tezkor boshqarish uchun imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, har bir segmentning daromadlari va xarajatlarini aniqlash, ularning sof foydasini transfert baho tamoyillari asosida belgilab borish har bir segmentning moddiy manfaatdorligini oshiribgina qolmasdan, ularning chuqr qayta ishlash jarayonidagi bosqichlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymatni hisobga olishda muhim omil sanaladi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot ob’yektiда paxta xom ashysini ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar bo‘yicha taklif etilayotgan hisobot shakli yillar kesimida hisob yuritish va tahlil qilishga

mo'ljallangan. Jumladan, paxta ekin maydoni, uning hosildorligi, olinadigan yalpi hosil kabi ko'rsatkichlar xarajat moddalari va ularning elementlari bilan mantiqiy bog'langan holda berilgan (11.6-jadval).

#### 11.6-jadval.

#### Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klaster korxonasida paxta xom ashyosi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning kalkulyatsiya varaqasini taklif qilinayotgan varianti

T. r.	Ko'rsatkichlar	O'lichev bir-ligi	2018 yil			2019 yil		
			Jami mln. so'mda	Bir gektarga, ming so'm	Jami xarajat- dagi ulushi	Jami mln. so'mda	Bir gektarga ming so'm	Jami xarajat- dagi ulushi
1	Paxta ekin maydoni	ga	8 422			8 536		
2	Hosildorlik, ts/ga	ts/ga	30,2			25,9		
3	Yalpi hosil	tonna	25 434			22 141		
4	Jami xarajat		74 836,4	8 804,8	100,0	50 215,3	5 820,5	100,0
<i>Shu jumladan:</i>								
a)	Ish haqi, ajratmalar bilan (qo'lda bajariladigan ishlар uchun)	mln.so'm	29 443	3 496	39,7	19 787,4	2 318	39,8
b)	Mineral o'g'itlar qiymati	mln.so'm	14 696,4	1 745,0	19,8	8 903,0	1 043,0	17,9
v)	O'simliklarni himoya qilish, defoliantlar xarajati	mln.so'm	1 979,2	235,0	2,7	1 493,8	175,0	3,0
d)	Agroximkartogramma (tuproq tahlili) ishlari	mln.so'm	80,0	9,5	0,1	68,3	8,0	0,1
ye )	Urug'lik qiymati	mln.so'm	2 376,0	282,1	3,2	1 792,6	210,0	3,6
yo )	Mexanizatsiya xizmati (dizelb yonilg'isiz)	mln.so'm	9 164,8	1 007,2	11,4	6 829,7	737,8	12,7
j)	Yoqilg'i-moylash materiallari qiymati	mln.so'm	10 106,4	1 200,0	13,6	5 911,7	692,6	11,9
z)	Suv iste'molchilar uyushmasi xizmati uchun to'lovlar	mln.so'm	421,1	50,0	0,6	341,4	40,0	0,7
i)	Elektroenergiya xarajatlari	mln.so'm	1 010,6	120,0	1,4	853,6	100,0	1,7
k)	Yagona yer solig'i to'lovi	mln.so'm	1 516,0	180,0	2,0	1 246,3	146,0	2,5
l)	Boshqa xarajatlari	mln.so'm	4 042,6	480,0	5,5	2 987,6	350,0	6,0

Manba. "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa qilganimizda, jami xarajatlari ichida ish haqi ajratmalar bilan, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish va defoliantlar xarajati, agroximkartogramma (tuproq tahlili) ishlari, urug'lik qiymati, mexanizatsiya xizmati (dizelb yonilg'isiz), yoqilg'i-moylash materiallari qiymati, suv iste'molchilar uyushmasi xizmatlari uchun to'lovlar va elektroenergiya xarajatlari hisob va tahlil maqsadlari uchun mo'ljallangan. Ushbu jadvalda yagona yer solig'ining hisob-kitobi moddasining kiritilganligi tezkor boshqaruv hisobotining amaliy qiymatini oshiradi.

#### 11.7-jadval.

#### Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan klasterlar segmentlarining rentabellik darajasi va bank kreditlari bo'yicha qarzdorligi

№	Klasterlar nomi	Bir gektar- ga xara- jat, ming so'm	Bir gektar- dan daromad, ming so'm	Ren- tabelli k dara- jasi, foiz	2020 yilda bankdar- dan qarz- dorlik, mln. so'm	Qayta ishlash yillik quvvatlari:			
						kalava ip, tonna	gazla- ma, ming kv.m	mato, tonna	tayyor mahsu- lot, ming dona
1	jami	14 383	16 543	15	575 454	48 600	38 000	1 500	59 500
1	«Art Soft teks klaster» MCHJ	12 817	14 610	14	199 431	6 400	8 000		52 000
2	«Tushbulog teks» MCHJ QK	16 020	18 417	15	62 388	6 000			
3	«Uztek» Uchqo'rg'om MCHJ QK	15 290	17 437	14	59 589	7 000	10 000		
4	«Uchqo'rg'on tekstil» MCHJ	14 502	17 192	19	58 292	7 000			5 000
5	«Tekstil faynans Namangan» MCHJ	14 777	17 373	18	86 885	12 000			
6	«Namangan to'qimachi» MCHJ	14 829	16 952	14	75 131	7 200	20 000		1 500
7	«Namangan paxta teks» MCHJ	12 443	13 822	11	33 738	3 000		1 500	1 000

Manba. Namangan viloyati klaster tizimidagi korxonalarining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlari tahlilining ko'rsatishicha, klasterlarda 2020 yilda yetti geografik segment mavjud bo'lib, ularning rentabellik darajasi 14-19 foiz oralig'ida, jami bank kreditlari 575 454 mln. so'mni tashkil etgan. Klasterning qayta ishlash yillik quvvatlari oshib borganligini kuzatamiz.

Samarqand viloyati klasterlari tizimidagi xo'jalik segmentlarida paxta xom ashyosini qayta ishlash quvvatlari to'g'risidagi segmentlar hisobotning taklif etilayotgan shaklida vertikal holatda viloyatning to'qqizta klasteri kesimida 2020 yil holatiga yetishtirilgan paxta xomashyosi miqdori, mavjud quvvatlari: tola ishlab chiqarish, ip kalava yigirish, ip kalavadan mato to'qish, matoni bo'yash va matodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish kabi oraliq mahsulotni chuqr qayta ishlash bosqichlarida yangidan yaratilgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar olishni geografik va xo'jalik segmentlari bo'yicha hisobini yuritish usullari ishlab chiqilgan.

## 11.8-jadval.

Samarqand viloyati klasterlari tizimidagi xo'jalik segmentlarida paxta xom ashyosini qayta ishash quvvatlariga to'grisidagi segmentar hisobotning taklif etilayotgan shakli

2020-yil holoriga mavjud quvvatlar														
№	Paxtasi to'qlinchilik klaster nomi miqdori, (tonna)	Tola ishab chiqarishin, (tonna)		To'ldanip kalava ishlab chiqarishin, (tonna)		Ip kalaverdan mato ishlab chiqarishin, (tonna)		Matoan bu'yush, (tonna)						
		Yerishdi- rligani sizov- sizov ashyosi miqdori, (tonna)	Norma Aniada mavjud gaviyat (+/-%)	Farq (+/-)	Norma Aniada mavjud gaviyat (+/-%)	Farq (+/-)	Norma Aniada mavjud gaviyat (+/-%)	Farq (+/-)	Norma Aniada mavjud gaviyat (+/-%)					
1	"Amina gold invest" MCHJ	26331	8953	-903	7610	15900	734	-666	7534	-7200	-334	7157	-7157	
2	"Kattanoyig'on klaster" MCHJ	17033	5791	-4496	-1295	4923	-4923	-4873	4873	-4873	-4630	-4630		
3	"Paxtachi klaster" MCHJ	32780	11145	7612	-3433	9473	2510	-3963	9379	-9379	-9379	8910	-8910	
4	"Markand Sifat" MCHJ	43048	14636	16500	1864	12441	7500	-4941	12316	11000	-1316	11701	-1201	
5	"Markand Sifat Tekstil" MCHJ	34480	11723	15000	3277	9965	10000	35	9865	9865	-9865	9372	-9372	
6	"Samarqand cotton cluster SCC" MCHJ	5486	1865	-1865	1585	-1585	1570	-1570	1570	-1570	-1570	1491	-1491	
7	"Payaroq klaster" MCHJ	44350	15079	8742	-6337	12817	-12817	-12689	-12689	-12689	-12689	-12055	-12055	
8	"Samarqand kamila invest taklif" MCHJ	65960	23786	14030	-9756	20218	7000	-13218	20016	-20016	-20016	19015	-19015	
9	"Almasiyob jins invest" MCHJ	27946	9305	7004	-2501	8079	-8079	-7998	4126	-3872	-3872	7599	-7599	
<b>JAMI:</b>		<b>301424</b>	<b>102484</b>	<b>81344</b>	<b>-21050</b>	<b>87112</b>	<b>41510</b>	<b>-45607</b>	<b>86240</b>	<b>23216</b>	<b>-63114</b>	<b>81788</b>	<b>10360</b>	<b>-71428</b>

Manba. Samarqand viloyati paxta-to'qimachilik klasterlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanshamasi.

340

To'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalash, to'qimachilikda yarim tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishashga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini va tayyor mahsulotlar eksportini oshirish maqsadida 2019-yil 1-apreldan 2019-2021-yillarda ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotning kamida 80 foizini eksport qiladigan tikuv-trikotaj korxonalariga tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilab qo'yilgan.<sup>44</sup>

## 11.9-jadval.

O'zbekistonda 2019-2025 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning maqsadli parametrlari

№	Mahsulotlarning nomi	O'ichov birligi	2018 yil	Prognoz ko'satkichlari				2018 yilda o'sish sur'ati
				2019 yil	2021 yil	2023 yil	2025 yil	
1.	To'qimachilik va tikuv- trikotaj buyumlar ishlab chiqarish hajmi	mln. AQSH dollarri	3 140,8	4 437,4	5 666,4	10 404,4	14 600,1	4,6 marta
2.	Paxta tolasi ishlab chiqarish	ming tonna	974,2	750,0	900,0	992,7	1 000,0	1,0 marta
3.	Paxta tolasini qayta ishash	ming tonna	520,0	720,0	900,0	1 023,5	1 132,5	2,2 marta
4.	Ip-kalava ishlab chiqarish	ming tonna	442,9	608,2	738,0	843,8	940,0	2,1 marta
5.	Tayyor mato	mln. kv.m	462,8	517,4	626,0	1 028,5	1 425,9	3,1 marta
6.	Tikuv-trikotaj buyumlari	mln.do na	409,4	559,0	648,5	1 180,0	1 516,8	3,7 marta
7.	Eksport	mln. AQSH dollarri	1 602,9	1 903,4	2 590,5	4 761,2	7 073,3	4,4 marta

Manba. www.regulation.gov.uz/ru/document/1982

Klasterlar tashkil etish va ularda boshqaruvi segmentar hisobotini

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 12 fevraldagidagi PQ-4186 qarori. www.lex.uz/docs/4199421

tuzish muammolari, afzalliklarini aniqlash masalalari xorij olimlari, jumladan, J.Sallet<sup>45</sup>, G.Bekes<sup>46</sup>, P.Martin, T.Mayer<sup>47</sup>, K.Druri<sup>48</sup> asarlarida tadqiq etilgan.

Darslikda O'zbekistonda 2019-2025 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning maqsadli parametrlaridan, shu sohaga oid xorijiy va vatanimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlardan, shuningdek, O'zbekistonda klaster boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik korxonalarining biznes-rejalari va moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanilgan.

Xalqaro tajribada ijobjiy samara berayotgan boshqaruvning klaster tizimini qo'llash, xususan, klasterning tarkibiy qismlari hisoblangan ichki xo'jalik bo'linmalari o'rtaida javobgarlik markazlarini belgilash, buning uchun esa korxonaning tarkibiy qismlarini iqtisodiy va geografik segmentlarga ajratish, har bir segmentning daromadi va xarajatlarini alohida hisob-kitob qilish, segmentlar faoliyati yuzasidan ichki xo'jalik hisobotini tuzishni korxonaning hisob siyosatiga kiritish talab etilmoqda.

### 11.3. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida

Agrosanoat sektorini tarkibiy o'zgartirish va bozor munosabatlari joriy etish, sanoatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan kooperatsiyasini yanada kengaytirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun asosiy vazifa hisoblanadi.

Klaster tizimidagi korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning mahsulotlarini chuqur qayta ishlash natijasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar zanjirini yaratish eksport hajmini oshirish uchun javobgarlik markazlari (ABC – activity best cost) usulini qo'llash ijobjiy samara beradi.

Dastlab bu iqtisodiy atama o'tgan asrning 80-yillarida "xarajatlarning kelib chiqish joylari va mas'uliyat markazlari" nomi bilan prof.Aksenenko A.F., Novichenko P.P., Lamikin I.A.larning asarlarida tilga olingan. Hozirgi paytda xo'jalik subyektlari tomonidan

<sup>45</sup> Jonathan Sallet, Ed Paisley. Innovation Clusters Create Competitive Communities. Huff Post Social News September 21, 2009.

<sup>46</sup> Gabor Bekes. Clusters, Science Parks and Regional Development (Strategies and Policies in Hungary). Presentation at UNECT TOS-ICP Geneva 14 February, 2008.

<sup>47</sup> Martin P., Mayer T., Mayneris F. (2010) Public support to clusters: A firm level study of French «Local productive systems». Mimeo. University of Paris I. Электронный ресурс: <http://perso.uclouvain.be/florian.mayneris/rsue.pdf>

<sup>48</sup> Colin Drury. Management and Cost Accounting: - 10th edition, Cengage Learning EMEA, Cheriton House, North Way, Andover, Hampshire SP10 5BE, United Kingdom, 2018. ISBN: 978-1-4737-4887-3

javobgarlik markazlari atamasi uchta ko'rinishda foydalanilmoqda. Bunday javobgarlik markazlariga – xarajat markazlari, investitsiya markazlari, foyda markazlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, javobgarlik markazlari – bu xo'jalik subyektining muayyan bir bo'linmasi va undagi mas'ul xodimlar majmui bo'lib, mazkur bo'linmaga xarajatlar va investitsiyalar yo'naltirilishi natijasida mahsulot (ish, xizmatlar) olinishi va foyda ko'riliishi nazarda tutilgan, iqtisodiy munosabatlar shakllanadigan ob'yektdir.

Ushbu maqsadlar uchun 8-sonli "Operatsion segmentlar" nomli xalqaro moliyaviy hisobot standartiga muvofiq korxona va uning tarkibiy bo'linmalari biznes (iqtisodiy) va geografik segmentlarga bo'linadi. Segmental hisobotni tayyorlash uchun qabul qilingan qoidalar va uslublar tashkilot (korxona) ning hisob siyosatiga kiritilishi kerak.<sup>49</sup>

Hozirda Navoiy, Buxoro va O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlarida paxta yetishtiradigan fermer xo'jaliklari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari negizida paxta xom ashyosini qayta ishlash bo'yicha qayta tashkil etilgan korxonalarni ijara berish asosida klasterlar yaratildi. Daromadlarni yagona markazdan iqtisodiy asoslangan me'yorlar bo'yicha taqsimlashga yo'naltirilgan xom ashyo.<sup>50</sup>

Fikrimizcha, boshqaruv zanjirida ishlab chiqarish va ta'minot logistikasini qayta tasniflash maqsadga muvofiqdir. Korxonalarni rivojlantirish klasterlari zanjirida logistika menejment tizimida huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy guruhlarga bo'linishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlar ushbu masala bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning izlanish natijalariga qaratilgan. statistik va monografik kuzatish, taqqoslash, guruhlash va ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Klaster shaklidagi boshqaruv tizimida faoliyat yuritadigan korxonalarda boshqaruv segmentar hisobi va hisobotining mohiyatini chuqurroq anglash buxgalteriya hisobi va ishlab chiqarish hisobi bilan bevosita bog'liqidir.

Ishlab chiqarish hisobining asosiy maqsadi va vazifasi –

<sup>49</sup>Международный стандарт финансовой отчетности (IFRS) 8-«Операционные сегменты». <https://finotchet.ru/articles/87>

<sup>50</sup> «О мерах по дальнейшему развитию хлопковой и текстильной промышленности». Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 марта 2019 года № 230. (Национальная база данных законодательства, 19 марта 2019 г., № 09/19/230/2785) 6.1.

xarajatlarni hisobga olish va mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini aniqlash hisoblanadi. Bu korxonaning tarkibiy bo'linmalari kesimida daromadlar va xarajatlarni boshqarishga yordam beradi. Ushbu hisob turi korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq masalalarni qamrab olishi va to'liq aks ettirishi lozim.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, boshqaruv hisobi ishlab chiqarish hisobiga qaraganda kengroq bo'lib, buxgalteriya hisobining ichki (segmentar) hisoboti va hisoboti, transfert narxlari, prognozlash va strategik boshqaruv hisobi kabi yangi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 2014 yilda O'zbekiston buxgalterlari va auditorlari assotsiatsiyasi tomonidan davlat tiliga tarjima qilingan bo'lib, ulardan biri "Operatsion segmentlar" deb nomlangan 8-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standartidir. Ushbu standartning 6-bandida operatsion segmentlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, bosh idora va daromadlarni boshqarish bilan bog'liq ayrim bo'linmalar bundan mustasno.

Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klaster korxonasida paxta xom ashyosi yetishtirish segmentining daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot

Mazkur jadval fermer xo'jaliklari bo'yicha namuna shaklida 2017 yilning haqiqiy xarajatlari va 2018 yilning prognoz xarajatlari uchta ko'rsatkich bo'yicha hisoblangan: bitta fermer xo'jaligi hisobiga; 1 hektar uchun; 1 tonna pahta xom ashyosi hisobiga.

Bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda boshqaruv hisobida segmentar hisobotlarni tuzish tartibi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan tartibga solinadi va 1993 yildan beri amal qiladi.

2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish" moddasida: "Buxgalteriya hisobi subyekti rahbari quyidagilarni ta'minlashi shart: boshqaruv buxgalteriya hisobi siyosati, ichki hisob va hisobot tizimlarini ishlab chiqish;

ichki nazoratni o'tkazish tartibi".<sup>51</sup>

**11.10-jadval.**  
Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klaster korxonasida paxta xom ashyosi yetishtirish segmentining daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot

№	Korxachilar	O'tchov birligi	Jami	Shundan				Shundan		
				Bitter fermer xo'jaligi hisobiga	Bir gektar uchun	Bir tonna pahta xom ashyosi hisobiga	Jami	Bitter fermer xo'jaligi hisobiga	Bir gektar uchun	Bir tonna pahta xom ashyosi hisobiga
I	2		3	4	5	6	7	8	9	10
I	Fermer xo'jaliklari	soni	311	1	x	x	311	x	x	x
II	Jami tushum	ga	8 422					536		
	Olingan paxta xom ashyosi	min. so'm	77 310,2	248,8	9,2	3,0	42 842,1	137,8	5,0	1,9
	To'lanadigan mablag'	ming. in.	25,4	81,8 in	3,0		22,1	71,1 in	2,6	
	Shundan:	min. so'm	77 310,2	248,8	9,2	3,0	42 842,1	137,8	5,0	1,9
2.1	Moltni varianti tomonidan belgilangan paxta xaridi narxi bo'yicha	min. so'm	64 475,2	207,3		2,535	42 842,1	137,8		1,9
2.2	Usiama narxi 20%	min. so'm	12 895,0	41,5	1,5					
III	Xarajatlari (molvilash uchun)	min. so'm	74 836,4	240,6	8,9	2,9	50 215,3	161,5	5,9	2,3
1	Ish haqi, ajratmalari bilan (qo'sha bajariладиган ishlar uchun)	min. so'm	29 443,3	94,7	3,50		19 78,4	63,6	2,32	
2	Mineral o'g'itar qiymati	min. so'm	14 695,4	47,3	1,75		8 903,0	28,6	1,04	
3	O'simliklarni himoya qilish, defoliantlar xarajati	min. so'm	1 979,2	6,4	0,24		1 493,8	4,8	0,18	
4	Agrorikatogramma (tuproq qabili) ishlari	min. so'm	80,0	0,3	0,01		68,3	0,2	0,01	
5	Uruglik qiymati	min. so'm	2 376,0	7,6	0,28		1 192,6	5,8	0,21	
6	Mezaninsiva xizmati* (dizel, yonilg'isiz)	min. so'm	9 164,8	29,5	1,09		6 829,9	22,0	0,85	
7	Yonilg'isiz mahlulolar	min. so'm	1 0106,4	32,5	1,20		5 911,7	19,0	0,69	
8	SUV ishl molchilari uyushmasi xizmati uchun to'lovlar	min. so'm	421,1	4	0,05		341,4	1,1	0,04	
9	Elektronenergiya xarajatlari	min. so'm	1 010,6	3,2	0,12		853,0	2,7	0,10	
10	Yagona yer so'g'i to'lovi	min. so'm	1 516,0	4,9	0,18		1 246,3	4,0	0,15	
11	Boshqa xarajatlari	min. so'm	4 042,6	13,0	0,48		2 987,6	9,6	0,15	
V	Soliq to'legunchaloyda foyda	min. so'm	2 533,9	8,1	0,30	0,107	-7 373,3	-23,7	-0,86	-0,31
VI	Sollqlar	min. so'm	2 447,7	7,4	0,27	0,095	1 242,4	4,0	0,15	0,032
VII	Sof foydasasi	min. so'm	290,1	0,9	0,03	0,01	-8 615,7	-27,7	-1,01	-0,36

Manba. Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klasteri ma'mumotlari asosida muallif ishlarmasi

<sup>51</sup> Закон Республики Узбекистан о внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете». «Народное слово», 14 апреля 2016 г. [www.xs.uz](http://www.xs.uz). c.3.

Shuni ta'kidlash zarurki, boshqaruv segmentar hisobi va hisoboti klaster korxonalarini gorizontal va vertikal boshqarishga xizmat qiladigan axborot ta'minoti hisoblanadi.

#### 11.11-jadval.

#### "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klasterida transfert baho va qo'shilgan qiymat zanjiri bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisobotning takomillashgan shakli

Maxsulot nomi	O'q-chov birligi	Miq-dori	Summa-si (mln. so'm)	Bir birlikning baho-si (mln. so'm)	Summa-si (ming AQSH dol.)*	Bir birlikning baho-si (ming AQSH dol.)	Foi-z'i (%)	Qo'shilgan qiymat	YAr stiliq anish o'rni
<b>I. Fermer xo'jaliklari: (311ta)</b>		<b>311</b>						<b>450</b>	
1.1 Hosil rejsi	tonna	25 434	64 475,2	2,54	6 089,5	0,24			
Xarid narxiga bonus (20%)	mln. so'm		77 370,2	3,0	7 307,3	0,29			
<b>II. Paxta xom ashyosi:</b>							x		
Kutiyotgan hosil	tonna	25 434,0	77 370,2	3,0	7 307,3	0,29			
Shundan, sanoat navlari kesimida									
1-nav	tonna	22 788,9	73 741,4	3,24	6 964,6	0,31	89,6		
2-nav	tonna	1 246,3	2 097,5	1,68	198,1	0,16	4,9		
3-nav	tonna	635,9	937,2	1,47	88,5	0,14	2,5		
4-nav	tonna	384,1	421,3	1,10	39,8	0,10	1,5		
5-nav	tonna	379,0	172,8	0,46	16,3	0,04	1,5		
<b>III. Paxta xom ashyosini gayta ishlash</b>		<b>25 434,0</b>	<b>91 409,8</b>		<b>8 633,3</b>			<b>14 040</b>	<b>10</b>
3.1 Tola	tonna	8 774,7	96 522,0	11,0	9 116,2	1,04	34,5		
3.2 Urug'	tonna	14 497	10 129,3	0,70	956,7	0,07	57,0		
3.3 Lint	tonna	1 297	3 627,7	2,80	342,6	0,3	5,1		
3.4 Ulvuk	tonna	127	53,2	0,42	5,02	0,04	0,5		
3.5 Momiq	tonna	687	103,0	0,15	9,7	0,01	2,7		
3.6 Chiqindi(yo'qotilish)	tonna	51					0,2		
3.7 Xizmatlar (QQS bilan)	mln. so'm	8774,7	14 039,6	1,60	1 326	0,15			
<b>IV. Tolani gayta ishlash</b>								<b>59 867</b>	<b>150</b>
4.1 Ip kalava	tonna	7 458,5	137 236,8	18,4	12 961,5	1,7	85,0		
4.2 Chiqindi (yo'qotilish)	tonna	1 316,2	5 264,8	4,0			15,0		
Ip kalavani yo'natsirilishi:									
4.3 Qayta ishlashga	tonna	3 729,3	68 618,4	18,4	6 480,8	1,7	50,0		
4.4 Eksportga (50%)	tonna	3 729,3	73 839,4	19,8	6 973,8	1,9	50,0		
<b>V. Mato ishlab chiqarish</b>	tonna	<b>3 692,0</b>	<b>105 221,1</b>	<b>28,5</b>	<b>9 937,8</b>	<b>2,7</b>	<b>99</b>	<b>36 603</b>	<b>100</b>
<b>VI. Bo'yalgan mato ishlab chiqarish</b>	tonna	<b>3 692,0</b>	<b>111 128,2</b>	<b>30,1</b>	<b>10 495,7</b>	<b>2,8</b>	<b>100</b>	<b>5 907</b>	
<b>VII. Tayyor maxsulot (mato bo'yash va gul bosish)</b>	ming p.m.	<b>11 210,0</b>	<b>147 000,0</b>	<b>13,1</b>	<b>13 883,6</b>	<b>1,2</b>	x	<b>35 872</b>	<b>200</b>
<b>VIII. Jatri sotuvga</b>	x	x	<b>234 752,5</b>	x	<b>22 171,6</b>	x	x	<b>152 288</b>	x
Olinigan tolaga nisbatan qo'shilgan qiymat			2,4		2,4				

Izoh.)\* 11.06.2021y holatiga 1 AQSH dollar qiymati 10588 so'm hisobida olingan.

Manba. "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klasteri ma'lumotlari asosida muallif ishlansMASI.

Segmentar hisob va hisobot boshqaruv funktsiyalarini zarur axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi ya'ni u klaster tizimidagi korxonalarining har bir mustaqil bo'linmasini daromadlari va xarajatlari hamda moliyaviy natijalari alohida hisobga olinadi. Bu holat vertikal boshqaruv tamoyili bo'yicha tashkil etilgan klaster korxonalarini boshqarishni gorizontal usulini qo'llashga sharoit yaratadi.

Fikrimizcha, har bir operatsion segmentning xarajatlari va daromadlari klaster tizimidagi korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish dasturi yordamida dastlabki hujjatlarda qog'oz yoki elektron shaklda rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, segmentning xarajatlari va daromadlarini me'yorlarga binoan turkumlash zarur va korxonaning hisob siyosatida aks ettirish talab etiladi(11.10-jadval).

Yuqoridaagi jadval ma'lumotlari asosida klaster korxonalarini hisobot davrida 234 752,5 mln.so'mlik (22 171,6 ming AQSH dollarida) tayyor mahsulot ishlab chiqargan. Bunda paxta xom ashyosining dastlabki qiymatiga nisbatan ( $234\ 752,5 : 96\ 522,0 \times 100\% = 243\%$ ) 2,4 marta yangidan yaratilgan qo'shilgan qiymatga guvoh bo'lamiz.

Shuni ta'kidlash zarurki, xalqaro standartlarga muvofiq, biznesning quyidagi umumiylar xarajatlari segment xarajatlariga kiritilmasligi kerak:

qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun xarajatlar (ular segmentning asosiy faoliyati bo'lgan holatlar bundan mustasno);

daromad solig'i (foyda);


favqulodda xarajatlar (fors-major majburiyatlar).

Segmentar hisob va hisobotlar moliyaviy hamda boshqaruv hisobining dastlabki, yig'ma, analistik va sintetik hisob axborotlariga asoslangan bo'lishi zarur.

"NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ klasterida qo'shilgan qiymat zanjiri va transfert bahoning shakllanishi dinamikasi tahlili yuqoridaagi gistogrammada aks ettirilgan(11.2-chizma).

Segmentar hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun qog'oz yoki elektron shaklda ishonchli birlamchi buxgalteriya hisobini tashkil etish zarur. Bunday holda, sanoatning texnologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Segmentar buxgalteriya hisoboti va hisobotini yuritish orqali korxona segmentlari xarajatlari va daromadlarini qiyosiy

tahliliga erishiladi.



Фермер хўжаликчлари	Пахтани кайта ишланиш корхоналари	Ин вигирув ва тукимачилик корхоналари	Тиккувчилик-трикотаж корхоналари
■ 2017	14040	59867	42510
■ 2018	15724,8	67051,04	40176,64
■ 2019	15865,2	67649,71	48036,3
■ 2020	16005,6	68248,38	48461,4
■ 2021	16146	68847,05	40894,08
■ 2022	16286,4	69445,72	41252,8

Манба. "NAVBAHOR TEKSTIL" МЧЖ кластери ма'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**11.2-chizma. "NAVBAHOR TEKSTIL" МЧЖ кластери segmentlarida qo'shilgan qiymat zanjiri va transfert bahoning shakllanishi dinamikasi tahlili, mln.s'mda**

Xulosa qilganimizda, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro miqyosda tan olingan tushuncha, tamoyillari va standartlariga o'tishni jadallashtirish boshqaruv segmentar hisobi va hisobotini uslubiy, me'yoriy va tashkiliy asoslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi.

#### 11.4. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash

Tadqiqot ob'yekti hisoblangan paxta-to'qimachilik klasterlari afzalligi - bu texnologik tsiklning barcha ishtiokchilari o'rtaida iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishdan iborat.

Jumladan, tadqiqot olib borilgan Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" МЧЖ klasterida intensiv va resurslarni tejaydigan

texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda tolaning rentabelligini 34,5% dan 39% gacha oshirishga;

fermerlar va ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy faoliyatiga mahalliy hokimiyat organlarining aralashuvini kamaytirish;

fermerlarga subsidiyalarni kamaytirish orqali budget mablag'larini yo'naltirishga barham berish;

ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ish o'rinalarini tashkil etish orqali yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishni ta'minlash;

paxta xom ashysosi, paxta tolasi, paxtadan yigirlgan ip, trikotaj mato, bo'yalgan mato, tayyor kiyimlar ishlab chiqarishga erishish;

yangi ishlab chiqarish zanjirlarini qurish, klaster uchun yangi ish joylarini yaratish orqali - 1105 ta yangi ish o'rinalarini yaratish;

ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda, sohani yanada rivojlantirishga e'tibor qaratish;

kreditlash tizimida belgilangan me'yor doirasida har oyda bir xil yo'nalishga mablag' ajratish tartibidan, klaster tizimida fermer xo'jaligi tomonidan mavsumga qarab hamda agrotexnik tadbirdan kelib chiqib mablag' olish usuliga o'tiladi;

bunda 64.5 mlrd. so'm imtiyozli kredit uchun fermer xo'jaliklari tomonidan Agrobankka to'lanadigan 3 foizli kredit stavkasi ya'ni 2 mlrd.so'm mablag'i hamda tumanlardagi 311 ta fermer xo'jaliklariga 2 minimal eng kam ish haqi miqdoridagi 108 mln.so'm kredit tarixi uchun xizmat haqlari olinishiga chek qo'yilishiga;

paxta xom ashysini yetishtirish jarayonining barcha ishtiokchilari o'rtaсидаги о'заро hisob kitoblar va to'lov intizomi holati yaxshilanishiga erishilmoqda.<sup>52</sup>

Pirovard natijada, paxta-to'qimachilik klasterlarning faoliyat birinchi navbatda aholi farovonligi, yangi ish joylarini yaratish, sanoat va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasteri tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalarining segmentar hisoboti avvalambor ularning pasportini tuzishdan boshlanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.(11.12-jadval)

<sup>52</sup> Navoiy viloyati "Navbahor tekstil" МЧЖ ma'lumotlari

**11.12-jadval**

**Navoiy viloyati Navbahor tumanida paxta xom ashvosini "KLASTER"  
usulida yetishtirish taklifi berilgan loyihaning pasporti**

<b>Loyiha tashabbuskori</b>	<b>"NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ</b>
Tashkil topgan yili	2007 yil
Rahbari	Jumayev Sherzod SHoniyofovich
Faoliyati	Ip yigiruv
Yillik tolani qayta ishlash quvvati	6300 tonna
<i>Shundan,</i>	
ip-kalava ishlab chiqarish quvvati	5400 tonna
Ishchilar soni	230 ta
Korxonaning joylashgan manzili	Navoiy shahar, Tinchlik qo'rg'oni 21 uy

**Manba.** Navoiy viloyati "NAVBAHOR TEKSTIL" MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlansmasi.

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, segmentlar bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzish kooperatsiyaga uyushgan korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasi va ularning tsiklik jarayonlarga bog'liq bo'lismi qo'rsatmoqda. Rossiyalik iqtisodchi olim Vorob'yev N.N.ning taklificha, korporativ boshqaruv tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda segmentlar bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzish ikki xil usulda tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: "ishlab chiqarish faoliyatining yopiq tsiklida segmentlarning tarkibi bo'yicha hisobot tuzish; korporatsiya ichida faoliyat turlarini funktsiyalar bo'yicha taqsimlanganda segmentlar tarkibi bo'yicha hisobot tuzish".<sup>53</sup>

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrigacha samaradorlikni baholashda xarajatlar usuli keng tarqalgan edi. Hozirgi paytda iqtisodiyotda davlat mulki hissasining va davlat aralashuvining kamayib borishiga qaratilgan iqtisodiy siyosatning qo'llab-quvvatlanishi, ichki va tashqi investorlarning faollashuvi, klaster va kooperatsiyalarning rivojlanishi rentabellikni aniqlashga yangicha yondashuv - investitsiyalar (yoki ularning alohida elementi, ya'ni kapital) samaradorligini hisoblashni talab qilmoqda.

Tadqiqot ishida boshqaruvning daromadlar, xarajatlar, foyda, moliyalashtirish, pul oqimlarini boshqarish, investitsiyalangan kapital

daromadlilagini hisoblash kabi muhim iqtisodiy usullar takomillashtirilgan. Aynan, daromadlarni shakllantirishda har bir bo'linmaning foydasini kalkulyatsiya varaqafiga kiritish, bu hujjatda nafaqat xarajatlar asosida bahoni shakllantirish, balki bo'linmaning daromadlarini ham aks ettirish zarurligi, kutilayotgan foya hajmidan har bir klaster ishtirokchisining manfaatdorligini oldindan motivatsiya qilishga sharoit yaratadi. Shuningdek, investitsiyalangan kapitalning qaytimi va o'z-o'zini qoplashini hisoblash usullari borasida umumiy maxrajga kelish amaliyot uchun ham muhim masala hisoblanadi.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektlar ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etmasdan rivojiana olmaydilar. Buning uchun asosiy va aylanma kapitalga qo'yilgan investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati tug'iladi. Hozirgi paytda mazkur masala yuzasidan ilmiy-uslubiy ishlanmalar yetarli emas, deb hisoblaymiz. Amaldagi moliyaviy va boshqaruv hisobi xarajatlar rentabelligi va soliq solish talablariga moslashtirilgan bo'lib, u investitsiyalangan kapital rentabelligini to'g'ri va aniq hisoblash imkonini bermaydi. Shu sababli, ilmiy ishimizda Dyuponning mashhur formulasi va piramidasi yordamida "OQSAROV KLASTER" mas'uliyati cheklangan jamiyati misolda investitsiyalangan kapital daromadlilagini hisoblash usuli taklif etilgan.

Tadqiqot ishida "BUKHARA COTTON TEXTILE" qo'shma korxonasida paxta tolasidan Djinsi shim ishlab chiqarishga 2017-2019 yillarda jalb qilingan investitsiyalarni segmentlar bo'yicha taqsimoti tahlili amalga oshirilgan(11.3-chizma).

Sarflangan kapitaldan olinadigan mutlaq iqtisodiy samara (E) sarflangan kapital hisobiga olingan daromad (D) va investitsiya qo'yilmalarining hajmi (Ix) o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$E = D - I_x$$

Kapital qo'yilmalardan kelgan daromad miqdori ularning dastlabki hajmidan oshgan vaqt investitsiyalarni qoplash muddatini anglatadi. Keyingi holatda kapital sarflashdan olingan daromad kapital qo'yilmadan orta boshlaydi. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasidagi kapital sarflash samaradorligining eng zarur ko'rsatkichidir.

<sup>53</sup> Воробьев Н.Н. Развитие сегментарного учета и отчетности в условиях корпоративного управления. Автореферат дисс. на соис. канд. экон. наук. –Ростов-на-Дону — 2009

"BUKHARA COTTON TEXTILE" qo'shma korxonasida 2017-2019 yillarda jahb qilingan investitsiyalar tahlli

Aylanma matbag'lar va boshqalar; 7,2 mln. AQSH dollari						
Fabrikalar va bo'limmalar	6					
	5					
Bo'yoqlash fabrikasi						
Jinsi matolari to'qish						
Pardozlash bo'limi						
Boshqa ob'ektlar						

Manba. "BUKHARA COTTON TEXTILE" qo'shma korxonasining ma'lumotlari asosida muallif ishlammasi.  
11.3-chizma. "BUKHARA COTTON TEXTILE" qo'shma korxonasida 2017-2019 yillarda jahb qilingan investitsiyalar segmentlar bo'yicha taqsimoti tahlli

352

Amaliyotda kichik tadbirdorlik subyektlariga qilingan uzoq muddatli investitsiya qo'yilmalari 2-3 yil ichida qoplanadi, uzoq muddatli investitsiya qo'yilmalarini qoplash uchun esa 10-15 va undan ham ko'proq yil vaqt talab qilinadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi kapital qaytimiga nisbatan investitsiyalardan tushgan foyda bilan belgilanadi.

Iqtisodiy loyiha asosida amalga oshirilgan investitsiyalarning samaradorligi (Is) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_s = \frac{F}{I_x}$$

bu yerda,

F - investitsiya natijasida olingan foyda.

(Ix) - investitsiya qo'yilmalarining hajmi.

Xalqaro amaliyotda investitsiya samaradorligi bir birlikdan ortiq bo'lishi kerak, shundagina qilingan xarajatlar qoplanadi. Xalqaro amaliyotda investitsiyalarning rentabelligi yillik balans foydasini (F) jami avanslangan kapitalga nisbatli bilan aniqlanadi:

$$I_r = \frac{F}{A_1 + A_2 + A_3 + A_4}$$

bu yerda:

Ir - avanslangan investitsiyalarning rentabelligi;

F - yillik balans foyda;

$A_1, A_2, A_3, A_4$  - choraklar bo'yicha avanslangan kapital qiymati.

Aktivlar rentabelligini Dyuponning mashhur formulasi asosida quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:<sup>54</sup>

$$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Aktivlarning o'rtacha qiymati}} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Tushum}} + \frac{\text{Tushum}}{\text{Aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

bu yerda, ROA (Return On Assets) –aktivlarning rentabellik koeffitsiyenti; (kapital aylanishi kapitalning «samaradorligi» ya'ni asosiy va aylanma mablag'larning qaytimi sifatida ta'riflanadi).

$$ROA = ROS \times Koa$$

<sup>54</sup> Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. [Hasanova R.B. and others.] SCOPUS, "International Journal of Advanced Science and Technology", Vol. 28, No.14, (2019), pp. 42-48, ISSN: 2005-4238 IJAST Copyright © 2019 SERSC

ROS (Return On Sales) – sotishlar rentabelligi koeffitsiyenti;  
Koa – aktivlarning aylanish koeffitsiyenti.

Klaster korxonasi aktivlari rentabelligini Dyupon piramidasi yordamida quyidagicha hisoblaymiz. Tadqiqotda yuqoridagi ikki omilli modelning takomillashgan uch omilli modeli ya’ni kapital rentabelligi koeffitsiyenti(ROE)ni klaster korxonalari faoliyatni samaradorligining muhim ko’rsatkichi(KPI) sifatida tavsiya qilingan:

$$ROE = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapital}} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Tushum}} \times \frac{\text{Tushum}}{\text{Aktivlar}} \times \frac{\text{Aktivlar}}{\text{Xususiy kapital}}$$

bu yerda, ROE (Return On Equity) – investitsiyalangan kapital rentabelligi.

Yuqoridagi ikkita formulaning yomasini bir-biriga ko’paytirib, quyidagi nisbatga ega bo’lamiz:

Tadqiqot ishida klasterlarda segmentlar bo‘yicha tuzilgan yig‘ma hisobot axborotlari asosida “OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatining investitsiyalangan kapital daromadliliginin hisoblash usuli taklif qilingan va mazkur xo’jalik subyektining amaliyotiga joriy etilgan.

### 11.13-jadval

#### “OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2020 yil buxgalteriya balansi ma’lumotlari, (ming so‘m)

Aktiv (mulklar)	Summa	Passiv (kapital)	Summa
1.Asosiy vositalar (binolar, inshootlar, kuch uzatuvchi qurilmalar va h.k.) va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati	36 567 434,56	1.Xususiy kapital, qarzlar va boshqa majburiyatlar	190 676 857,29
2.Uzoq muddatli investitsiyalar	0		
3.Aylanma mablag‘lar (tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovarlar va h.k.	154 109 422,73		
<b>Jami (balans)</b>	<b>190 676 857,29</b>	<b>Jami (balans)</b>	<b>190 676 857,29</b>

Manba. “OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatni moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida muallif ishlansasi

Investitsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddat talab qilinishi sababli, mablag‘larni investitsiyalash vaqtida pul mablag‘larini ularning qaytmi bilan taqqoslash zaruriyati tug‘iladi. Bu maqsadda pul mablag‘larining kelgusi va haqiqiy qiymati tushunchalaridan foydalanish zarur deb hisoblaymiz.

Klasterlarning xususiy kapitalini kelgusida foizlar shaklida foya olish maqsadida joriy qiymatida investitsiyalash diskontlash, uning natijasida yaratilgan qo’shilgan qiymat - diskontlangan qiymat deb ta’riflash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Klasterlarda kapitaldan samara olish ya’ni diskontlash koeffitsiyenti (Kd) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_d = \frac{K_i}{O_{pm}}$$

bu yerda,

Ki - investitsiyalarning qiymati;

Opm - yillik pul mablag‘lari oqimi summasi.


### 11.14-jadval

#### “OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2020 yil moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti, (ming so‘m)

Xarajatlар (zararlар)	Summa	Daromadlар (foyda)	Summa
Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi	117 105 671,13		
Davr xarajatlari	3 895 106,53		
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	9 730 885,44		
Soliqlar	302 546,42		
Jami xarajatlar			
*Izoh. (Ushbu xarajatlardan moliyaviy faoliyatning daromadlari va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari ayirib tashlangan)	131 034 209,52	Aylanma (Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum)	132 641 354,04
Sof foyda (xotima yozuvi)	1 607 144,52		
<b>Jami</b>	<b>132 641 354,04</b>	<b>Jami</b>	<b>132 641 354,04</b>

Manba. “OQ SAROV KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatni moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida muallif ishlansasi

Yuqoridagi formulalarni hisoblab chiqamiz va klaster korxonasining investitsiyalangan kapitali daromadliligin Dyupon modeli yordamida aniqlaymiz. (11.4-chizma).



Manba. "OQ SAROV KLASTER" MCHJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**11.4-chizma. "OQ SAROV KLASTER" MCHJ segmentlariga aktivlar rentabelligini Dyupon piramidasi yordamida hisoblash bo'yicha mualliflik taklifi<sup>55</sup>**

Hozirgi paytda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning muhim sharti bu - faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishishimiz lozim. Bu masalada ijobjiy natijaga erishishning oqilona yo'li iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihamonlari puxta shakllantira olishdir.

Ushbu jadval ma'lumotlarini hisob-tahliliy jarayonlarda qo'llash

natijasida korxona segmentlarida foydalanilayotgan ikki xil to'quv dastgohlarini quvvatlari va samaradorligi bo'yicha xarajatlari va daromadlarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

#### 11.15-jadval

##### Korxona segmentlari bo'yicha ishlatalayotgan to'quv dastgohlarining samaradorligini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Nº	Nomi	O'lclov birligi	"STB-180" dastgohi uchun 1-variant	"COMET" dastgohi uchun 2-variant
1.	O'rmatilgan dastgohlar soni	dona	267	120
2.	Dastgohning normativ ish unumi	mashina-soat	5,76	12,8
3.	Mahsulotning yillik yalpi tushumi hajmi	metr	6 135,9	6 128,3
4.	Ishchilarning yillik o'rtacha soni	kishi	148	94
5.	Dastgohlarning bajargan yillik ish soati	mashina-soat	4 156	4 156
6.	Dastgohlarning mehnat unumdarligi,(3-qator/(4-qator * 5-qator))	metri/kishi, mashina ish soati	9,98	15,69
7.	Xodimlarning o'rtacha ish haqi	ming so'm	1 500,0	2 000,0
8.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	ming so'm	33 778 129,5	31 836 518,5
9.	Jumladan: 1 metr matoning tannarxi (8-qator / 3-qator)	so'm	5505,0	5195,0
10.	Sotilgan mahsulot hajmi	ming so'm	38 840 247,0	38 730 240,0
11.	Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (10-qator - 8-qator)	ming so'm	5 062 117,5	6 893 721,5
12.	Davi xarajatlari	ming so'm	2 725 989,0	4 399 309,0
13.	Segmentning sof foydasи	ming so'm	2 336 128,5	2 494 412,5
14.	Segmentning sotish bo'yicha rentabelligi (13-qator / 10-qator * 100)	%	6,0	6,4

Manba. Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Fikrimizcha, bunda ilg'or xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida investitsiyalangan kapital daromadliliginis hisoblashda omilli tahlil usulini qo'llash ijobjiy natija beradi. Xususan, daromad rentabelligi va kapital aylanishi omili ta'sirida foydaning ko'payishi qilingan investitsiyalarning qaytimini hisoblashga imkon beradi.

Segmentlar samaradorligini tahlil qilishda foydalanilayotgan dastgohlarning mehnat unumdarligini baholash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tahlil jarayonida quyidagi hisob-kitoblardan foydalanamiz:

<sup>55</sup> Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. [Hasanova R.B. and others.] SCOPUS, "International Journal of Advanced Science and Technology", Vol. 28, No.14, (2019), pp. 42-48.  
ISSN: 2005-4238 IJAST Copyright © 2019 SERSC

$$P_{M1} = \frac{T_p}{Q_L * M_H} = \frac{6135,9}{148 * 4156} = 9,98 \quad (1)$$

$$P_{M2} = \frac{T_p}{Q_L * M_H} = \frac{6128,3}{94 * 4156} = 15,69 \quad (2)$$

Bu yerda:

PM1, PM2 – dastgohlarning mehnat unumдорлиги.

TP – Mahsulotning yillik yalpi tushumi hajmi, metr.

QL – Ishchilarning yillik о‘rtacha soni.

MH – Dastgohlarning bajargan yillik ish soati.

Xulosa qilanimizda, shu kunning talabi va ehtiyoji shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlarning jamoat tashkilotlari hamkorligida segmentar hisob va hisobotning uslubiy, me’yoriy va tashkiliy asoslarini shakllantirishga amaliy yordam ko‘rsatishlari zarur.

Korxonaning faoliyat turlari va sohalarini segmentlarga ajratish subyekt rahbariyatining boshqaruv siyosati asosida amalga oshiriladi. Shu sababli, segmentlar bo‘yicha olib berilgan moliyaviy axborotlar oshkorlik nuqtai nazaridan olganda shaffof bo‘lmay, tijorat siri hisoblanadi. Shuningdek, segmentar hisobot axborotlaridan turli korxonalar faoliyatini bir-biri bilan taqqoslash uchun foydalanish mumkin emas. Yuqoridaq holatlarni inobatga olmaganda, operatsion segmentlar to‘g‘risidagi axborotlar investorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun zarur va dolzarbdir.

### Test topshiriqlari

**1. Segmentlar bo‘yicha hisobotni tuzish va taqdim qilish tartibi buxgalteriya hisobining qaysi xalqaro standartida belgilab qo‘yilgan?**

- a) «Moliyaviy hisobotni olib berish» (BHXS №1)
- b) «Giperinflyatsiya sharotida moliyaviy hisobot» (BHXS №29)
- v) «Yig‘ma moliyaviy hisobot va sho‘ba korxonalarga investitsiyalar hisobi»
- g) «Segmentlar bo‘yicha hisobot» (BHXS №14).

**2. Segmentlarning qanday turlari mavjud?**

- a) yillik, choraklik va yarim yillik
- b) xo‘jalik va geografik
- v) operativ va statistik

g) umumlashtirilgan va yig‘ma

**3. Biznes segmenti bu - ...**

- a) korxonanin g ma’lum qismini vakolatlar va mas’uliyat berish
- b) tannarx hisoblash usuli
- v) moliyaviy hisobot shakli
- g) korxonaning ishlab chiqarish dasturi

**4. Geografik segmentning ta’rifi keltirilgan qatorni aniqlang.**

- a) korxona faoliyatining muayyan sohasi va turiga, real kapital o’sishiga, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, aylanma mablag‘lar qiymatini o’sishiga, ilmiy- tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlasmalari

- b) mahsulot ishlab chiqarish va sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talablari asosida sifat va muddatni tavsiflovchi kompleks reja

- v) muayyan iqtisodiy muhitda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtiroy etuvchi, risk va foyda kabi iqtisodiy shart- sharoitlar ta’sirida, ma’lum makonda harakat qiluvchi ajratib qo‘yilgan

- g) buxgalteriya boshqaruv xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan, bo‘linmalar xarajatlari va daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumatlar ni umumlashtir adigan hisob ob’ekti.

**5. Quyidagi qaysi qatorda buxgalteriya boshqaruv segmentar hisobotining shakllari keltirilgan?**

- a) materiallar va butlovchi qismlar zahiralari to‘g‘risida, tugallanma gan ishlab chiqarish bo‘yicha, ishlab chiqarilgan mahsulot

- b) xarid qilingan qiymatliklar, tayyor mahsulot zahiralari sotishlar to‘g‘risidagi hisobot

- v) Buxgalteriya balansi, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

- g) 1 va 3 javoblar to‘g‘ri

**6. Segmentlar bo‘yicha hisobot tuzish tamoyillari keltirilgan qatorni aniqlang?**

- a) aniq manzillilik, ishonchlilik, tushunarlilik

- b) muhimlilik, tezkorlik, taqqoslanuvchanlik

- v) ahamiyatlilik, haqqoniylilik, izchillik va tugallanganli

- g) barchasi to‘g‘ri.

**7. Quyidagilarning qaysilari segment daromadlarini ifodalaydi?**

- a) tashqi mijozlar bilan tuzilgan shartnomalardan olinadigan

- b) boshqa segmentlar bilan bo‘ladigan muomalalardan olinadigan

- v) qo‘shma korxonalar faoliyatida ishtiroy etishdan olingan daromadlar

g) 1 va 3 javoblar to‘g‘ri

**8. Segment xarajatlariga kiritilmaydigan qatorni ko‘rsating.**

a) texnologik ehtiyojlar uchun energiya xarajatlari

b) qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar bo‘yicha

v) favqulodda xarajatlar

g) 2 va 3 javoblar to‘g‘ri

**9. Transfert baholari bo‘yicha segmentar hisobotni tuzishda baho belgilashning qaysi usullaridan foydalaniladi?**

a) bozor baholari bo‘yicha

b) tannarx (to‘liq yoki marjinal) asosidagi “tannarx plyus”

v) shartnomaviy transfert baholari asosida

g) yuqoridagila rning barchasi to‘g‘ri

**10. Ombordan tsex yoki bo‘limlarga materiallar berildi, hujjatni aniqlang.**

a) limit-ta’mnot karta;

b) dalolatnoma;

v) yorliq;

g) schyot-faktura.

### Nazorat savollari

1. Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllarini tushuntiring.

2. Korxonalarda segmentar hisobotni tuzish tamoyillarini izohlang.

3. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi deganda nimani tushunasiz?

4. Segmentlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni aniqlang.

5. Kichik biznes subyektlarida boshqaruvni tashkil etish qanday ijobjiy afzalliklarga ega?

6. Korxona biznesini markazlashtirilmagan holda boshqarish qanday hollarda yuzaga keladi?

7. Korxonalarda biznes tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda marketing izlanishlari qanday ahamiyatga ega?

8. Korxonalar biznesini rivojlantirishda Porter M.I.ning o‘zar raqobatlashuvchi sub’etlar nazariyasi qanday ahamiyatga ega?

9. Korxonalar biznesini samarali boshqarishga qanday omillar ta’sir etadi?

## 12-bob. STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH

### 12.1. Strategik boshqaruv hisobining ahamiyati, mohiyati va tashkil etish usullari

Prezidentimizning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan muhim vazifalar, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash<sup>56</sup>, Prezidentning 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida: “iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jalb etish sohasida — makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, sog‘lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, «xufyona» iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valyuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirish” kabi muhim strategik vazifalar qishloq xo‘jaligida klaster tizimini joriy etish masalalari bilan ham chambarchas bog‘liqidir.<sup>57</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmonida qayd etilganidek: “...qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda”<sup>58</sup>.

<sup>56</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>. – 11 b.

<sup>57</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlaniш yiliwaда amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida». PF-5635-son 17.01.2019. <http://www.lex.uz/docs/4168749>. – 2 b.

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. PF-5853-son 23.10.2019. <http://www.lex.uz/pdfs/4567334>. – 1 b.

**12.1-jadval.**  
**O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan ASOSIY KO'RSATKICHLAR VA INDIKATORLAR**

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Asos (2018 y.)	2021 yilga maqsad	2025 yilga maqsad	2030 yilga maqsad
1.	Qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatning yillik o'sishi	117,3 trln so'm (14 mlrd AQSH doll.)	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ish o'rnlari sonining o'sishi: -Qishloq xo'jaligi -Oziq-ovqat sanoati -To'qimachilik sanoati	3 671 300 91 420 140 200	2% 3% 3%	1% 4% 4%	1% 5% 5%
3.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSH doll.	3,5 mlrd AQSH doll.	10 mlrd AQSH doll.	20 mlrd AQSH doll.
4.	Aholi o'tasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq ho'jaligida mehnat unumdortligini oshirish (bir nafer ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSH doll.	4 300 AQSH doll.	5 200 AQSH doll.	6 500 AQSH doll.
6.	Qishloq xo'jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagramm (2016 yil)	10%	30%	50%

**Manba.**<sup>59</sup>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2020-2030 yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish beshta asosiy ko'rsatkich bo'yicha 2018 yilni asos qilib olgan holda, 2021; 2025 va 2030 yillarda rivojlantirish indikatorlari maqsad qilib olingan. Bunda qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatning yillik o'sishi 117,3 trln so'm (14 mlrd AQSH dollari)ga nisbatan 3% dan 5% gacha o'sishi strategiyada mo'ljallangan.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ida ish o'rnlari sonining o'sishi qishloq xo'jaligida 3 671 300 kishiga nisbatan 1%ni, oziq-ovqat

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". PF-5853-som 23.10.2019. <http://www.lex.uz/pdfs/4567334>. – 22 b.

sanoatida 91420 kishiga nisbatan 3-5%ni, to'qimachilik sanoatida esa 140 200 kishiga nisbatan 3-5%ga o'sishi maqsad qilib qo'yilgan.

Eksport hajmi esa 2018 yilda 2,3 mlrd AQSH dollaridan 2021 yilda maqsad 3,5 mlrd AQSH dollari, 2025 yilda 10 mlrd AQSH dollariva 2030 yilda 20 mlrd AQSH dollariga etkazish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini bir nafer ishchiga bir yilda: 2018 yilda 3 960 AQSH doll., 2021 yilda 4 300 AQSH doll., 2025 yilda 5 200 AQSH doll. va 2030 yilda 6 500 AQSH dollariga oshirish belgilangan.

Qishloq xo'jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini 2016 yilda 15 740 gigagrammdan 2021 yilda 10%; 2025 yilda 30% va 2030 yilda 50%oga kamaytirish maqsad qilib qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining: "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish" vazifasi qo'yilgan.<sup>60</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2018 yilda mamlakatimiz hududlarida 16 paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil qilinib, ularga fermer xo'jaliklarining qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydonlari biriktirildi. Joriy yilda respublika bo'yicha klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga etkazish uchun 48 paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.<sup>61</sup>

Shu bilan birgalikda, g'alla va boshqa donli-dukkakli ekinlar, mevasabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, jumladan, kredit tizimini soddalashtirish va bank kreditlari foizlarini tabaqalashtirish, xarajatlarni davlat budgetidan subsidiyalash, yer ajratish bilan bog'liq tartiblarni qayta ko'rib chiqish masalalari ham dolzarb bo'lib turibdi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini samarali boshqarishda hisob va tahliliyi ta'minotni shakllantirishda strategik boshqaruvi hisobi va

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". 841-som 20.10.2018. <http://www.lex.uz/docs/4013356>. – 4 b.

<sup>61</sup> Musayev A. Qishloq xo'jaligida klaster tizimi ommalashmoqda. <http://uza.uz/oz/society/ishlo-kh-zhaligida-klaster-tizimi-ommalashmo-da-14-01-2019>. – 1 b.

tahlilining keng imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa tadbirkorlik va investitsion faoliyatni istiqbolli yo'nalishini belgilaydi va ushbu imkoniyatlardan foydalanish uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Strategik boshqaruv hisobi axborotlардан foydalanish qishloq xo'jaligi korxonasiga o'zgaruvchan sharoitlarga va bozordagi raqobat kurashiga moslashishga imkon beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi an'anaviy buxgalteriya hisobi va tahlil tizimlarini takomillashtirish va ularni strategik menejment ehtiyojlariga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Strategik boshqaruv hisobi va tahlili boshqaruv tizimini hisob-tahliliy ta'minotini shakllantirishga imkon beradi va qishloq xo'jaligini tashkil etish strategiyasini va 80/20 printsipini (Pareto samaradorligi mezonlari) amalga oshirishga yordam beradi.

Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning muhim usullaridan biri ABC (Activity best cost) – samarali faoliyat turini (qulay baho, optimal tannarx) usuliga asoslangan Pareto qoidasi, tamoyilidir. Buning ma'nosi qishloq xo'jalik korxonasi faoliyatining barcha turlarini 100% deb faraz qilsak, uning 20 %i daromad keltiruvchi samarali faoliyat bo'lishi mumkin. Bu degani qolgan faoliyatlar ham ijtimoiy zarur bo'lib, jamiyat tomonidan talab va extiyojga ega bo'lgan zarur mahsulotlardir. Shunday qilib bozorgir va xaridorgir qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xajmini oshirish hisobidan iste'molchilarning talabi va ehtiyojini qondirish mumkin, buning natijasida korxonaning foydasini oshirish imkoniyati tug'iladi.

Strategik boshqaruv hisobi va tahlili jarayoni ob'ekti sifatida, bizningcha, birinchidan, iste'molchilar va raqobatchilarning bozordagi real holati, ikkinchidan, mahsulot turlarini ishlab chiqarishdagi korxonaning aniq ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati hisobga olinishi kerak.

Yuqoridaq ob'ektlarni chuqur o'r ganish orqali bozordagi holat va korxona imkoniyatlari hisobga olingan holda optimal variantdagi ishlab chiqarish dasturi yaratiladi. Bu dasturni amalga oshirish orqali korxona mahsulotini raqobatbardoshligi, barqarorligi ta'minlanadi. Strategik boshqaruv hisobi va tahlilining asosiy vazifalari:

- korxonaning mahsulotiga bo'lgan talab va taklifni baholash, ishlab chiqarish dasturini real asosga ega ekanligini tahlil qilish;
- korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil etish;

- bozorda xaridorgir bo'limgan mahsulotlar turlari, navlari va assortimenti ro'yxatini tuzish;
- bozordagi baho va assortiment siyosatini tahlil qilish;
- mahsulotning sifati, bozordagi o'mi, raqobatbardoshligini baholash va tahlil etish;
- strategik boshqaruv hisobining taktika va strategiyasini ishlab chiqish.

strategik boshqaruv hisobi va tahlilining axborot-ta'minot tizimi ichki va tashqi manbalardan iborat bo'лади. Tahlil etish jarayonida bu bo'limlarning har biri mustaqil axborot tizimi sifatida ishtirok etadi. Ichki axborot manbalari tarkibiga korxonaning tezkor, ishlab chiqarish, texnik, buxgalterlik va statistik hisobotlari manba sifatida xizmat qiladi. Tashqi manbalar tizimiga korxonaning tashqi-iqtisodiy faoliyati, bozor va uning infratuzilmasi, xaridor va mol etkazib beruvchilar holati, raqobatchi-lar harakati, bozor mexanizmini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar va boshqalar kiradi. Bu manbalar vaqtli va maxsus nashr, statistik to'plam, bank va birja axborotnomalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari olib borgan izlanishlarga oid sharhlarda aks etadi. Strategik boshqaruv hisobi va tahlilining axborot manbalari sifatida korxonaning biznes-rejasi, ishlab chiqarish dasturi, yo'l xaritalari, investitsiya (innovatsiya) dasturlaridan ham foydalilanadi.

Xulosa qilganimizda, mamlakatimiz rahbari tomonidan 2030gacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari va indikatorlari asosida respublikamizni barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashda strategik boshqaruv hisobi muhim vazifalarni hal etishga amaliy yordam ko'rsatishi muqarrardir. Buning uchun klaster tizimini keng joriy etish, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan ilg'or usullardan biri Pareto usulini qo'llash strategik boshqaruv jarayonida oqilona qarorlar qabul qilish va raqobat kurashida iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.

Sholi eng qadimgi qishloq xo'jalik ekinlardan biri bo'lib, u global oziq-ovqat xavfsizligi tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahonda sholi mahsulotiga iste'molchilarning talabi yildan-yilga oshib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti(FAO)ning prognoziga ko'ra, 2020 yilga kelib jahonda sholi mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj qariyb 780 million tonna(qayta ishlanmagan xom ashyo)ni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2020 yilga qadar yetishtirilishi kutilayotgan sholi xom ashyosi 750 million tonna bo'lishi

prognoz qilinmoqda, bu holat jahon bozorida sholi mahsulotlariga bo‘lgan talabning yuqoriligini ko‘rsatadi<sup>62</sup>.

AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi (FAS USDA)ning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, 2014-2017 yillar davomida dunyo miqiyosida sholi (qayta ishlangan holatda) yetishtirish hajmi 2,6% ga o‘sib, 494 mln. tonnani, xususan, Hindistonda - 7% ga (112,9 mln. tonna), Xitoyda - 1,5% ga o‘sib (148,9 mln tonna)ni tashkil etdi. Jahondagi sholi ishlab chiqarishning yarmidan ko‘prog‘i ana shu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda sholi etishtirish Janubiy Koreyaning Tong Yang Moolsang kompaniyasining zamonaviy mashinalari yordamida ko‘chat ekish yo‘li bilan yo‘lga qo‘yilmoqda. Mazkur yangi texnologiya hosildorlikni oshiradi, vegetatsiya davrini qisqartiradi, urug‘larni 70-75 foizigacha tejaydi va 20-25 foizgacha suvdan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiyani ko‘llash respublikamiz qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ta’minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi, mamlakatimiz sholi etishtirish ilmiy-tadqiqot instituti, Koreya Respublikasining qishloq xo‘jaligini rivojlantirish boshqarmasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining fikricha, bugungi kunda sholini qo‘lda ekkanda bir hektar maydonga o‘rtacha 12 soat vaqt sarflangan bo‘lsa, qo‘lda boshqariladigan mexanik vositalar yordamida bu vaqt ichida 1,5-2 hektar maydonga sholi ekish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maxsus sholi ekish mashinalari yordamida shu vaqt ichida 7-8 hektarga ko‘chat ekishga sharoit yaratiladi, bu esa mehnat unumdarligini oshiradi. Bugungi kunda sholi hoslining 95 foizdan ortig‘i ko‘chat ekish hisobidan etishtirilmoqda.

Bu yil respublikada 114 ming hektar maydonga sholi ekish rejallashtirilgan, shundan 57,9 ming hektarini asosiy ekin ekiladigan yer maydonlari va 56,1 ming hektari esa donli ekinlardan ozod qilingan maydonni tashkil etadi<sup>63</sup>.

## 12.2-jadval.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari bo‘yicha sholichilik klasterlarida mavjud infratuzilma va ishlab chiqarish quvvatlarining tahlili**

№	Sholichilik klasteri tashkil etuvchi tashabbuskor korxona nomi	Sholichilik klasterlarida bugungi kunda mavjud bo‘lgan infratuzilma ob‘ektlari			
		Sholi saqlash omboriar, tonna		Sholini qayta ishlash tegirmoni	
		ochiq	yopiq	soni	Yillik quvvati, tonna
1	“Besh Xoroz” MCHJ			3	40000
2	“Samoddin Agroklaster” MCHJ		1000	2	30000
3	“Xusaynov Javlonbek” f/x		5000	1	3000
4	“Sholichilik klasteri” MCHJ	500	150		
5	“SHOMANAY SHALI KLASTER” MCHJ		5000		
6	“KUNGRAD RICE CLUSTER” MCHJ		500	1	2000
7	“Juzbasi” f/x		4000	1	36500
8	“Buzatov sholi klasteri” MCHJ				
<b>Jami</b>		<b>500</b>	<b>15650</b>	<b>8</b>	<b>111500</b>

**Manba.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining ma’lumotlari asosida muallif ishlansmasi<sup>64</sup>.

Jadval ma’lumotlari tahlili Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sholichilik klasterlarida bugungi kunda mavjud bo‘lgan infratuzilma ob‘ektlari yetishtirayotgan sholi hosilini to‘liq qayta ishlash uchun yetarli quvvatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sholi saqlash omborlari quvvati bo‘yicha faqatgina “Sholichilik klasteri” MCHJda ochiq maydonlarda 500 tonnagacha sholini saqlashga mo‘ljallangan omborxonalarida mavjud. Yopiq maydondagisi sholi omborlari sakkizta klasterdan oltitasida mavjud bo‘lib, ularning mavjud quvvati 15650 tonnani tashkil etadi.

Respublika bo‘yicha sakkizta sholini qayta ishlash tegirmonlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning yillik quvvati 111500 tonna sholini qayta ishlashga yetadi. Biroq, klaster korxonalarida qoladigan sholi miqdori 18302 tonna, fermer xo‘jaliklari ixtiyorida qoladigan sholi miqdori 6383 tonna, jami 24685 tonna ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, respublikada sholini qayta ishlash tegirmonlarining mavjud

<sup>62</sup> Обзор развития рисоводства в государствах – членах Евразийского экономического союза в 2013-2017 годы. <http://www.eurasiancommission.org/ru>

<sup>63</sup> В Узбекистане рис будет выращиваться на основе новых технологий. <https://www.agro.uz/ru/news/agro/v-uzbekistane-ris-budet-vyrashchivatsya-na-osnove-novykh-tehnologiy/>

quvvatlardan foydalanish darajasi 22,1 foizni tashkil etayotganligi istiqbolda sholichilikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Sholichilik fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ko'rsatkichlarini yaxlit holda tahlil qilish jarayonida uning faoliyatiga daxldor bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sish tendensiyalarini kuzatish maqsadga muvofiqdir(12.3-jadval).

### 12.3-jadval.

**Moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi**

F <sub>1</sub> /F <sub>0</sub>	ST <sub>1</sub> / ST <sub>0</sub>	XK <sub>1</sub> /XK <sub>0</sub>	A <sub>1</sub> /A <sub>0</sub>	1
Sof foydaning o'sishi	> Sotishdan olingen tushumning o'sishi	> Xususiy kapitalning o'sishi	> Aktivlarning o'sishi	> 100
1.Aktivlar o'sishining sharti				
2.Moliyaviy salohiyatning o'sish sharti				
3.Iqtisodiy salohiyatning o'sish sharti				
4.Faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti				

Manba. Moliyaviy tahlil. Xasanov B.A., Raximov M.Yu. va boshq. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 736 b<sup>65</sup>.

Strategik tahlil jarayonida moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi to'rtta omil bo'yicha solishtiriladi:

1. Bunda birinchi bosqichda aktivlar o'sishining sharti sifatida sof foydaning o'sishi sotishdan olingen tushumning o'sishidan katta bo'lishi talab etiladi.

2. Ikkinci bosqichda moliyaviy salohiyatning o'sish sharti belgilanadi. Bu holatda sof foydaning o'sishi va sotishdan olingen tushumning o'sishi xususiy kapitalning o'sishidan yuqori bo'lishi lozim.

3. Uchinchi bosqichda iqtisodiy salohiyatning o'sish sharti sifatida sof foydaning o'sishi, sotishdan olingen tushumning o'sishi va xususiy kapitalning o'sishi ko'rsatkichlari aktivlarning o'sishidan katta bo'lishi maqsadga muvofiq.

4. To'rtinchi bosqichda faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti sifatida to'rtala daxldor ko'rsatkichlarning jami 100 dan katta bo'lishi maqsadga muvofiq.

Sholichilik fermer xo'jaligida moliyaviy natijaga daxldor ko'rsatkichlari daromadlarni strategik boshqaruv hisobining zamonaviy uslublari

talab etiladi. Yuqorida baholash mezonlarining ta'sirini aniq bir sholichilik xo'jaligi misolida tahlil qilib chiqamiz(12.4-jadval).

### 12.4-jadval.

**“JUZ-BASI FERMER XOJALIGI”da moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi, ming so'mda**

Ko'rsatkichlari	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi, +,-	O'sishi %	Daxldorlik
Sof foyda	33 026 990	4 731 920	-28 295 070	14.3	14.3<147.6
Sotishdan olingen sof tushum	365 141 000	538 922 740	+173 781 740	147.6	147.6>84.1
Xususiy kapital	427 026 990	359 331 920	-67 695 070	84.1	84.1<90.0
Aktivlar	394 000 000	354 600 000	-39 400 000	90.0	90.0<100

Manba. “JUZ-BASI FERMER XOJALIGI” ma'lumotlari asosida muallif ishlamasasi<sup>66</sup>.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadi, agar moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi qiyoslansa, sholichilik klasteridagi fermer xo'jaligida hisobot yili oxirida sof foydaning kamayganligi hisobiga sof foyda va sotishdan olingen sof tushum o'rtasidagi nisbat teskari proporsional ekanligini ko'ramiz(14.3<147.6).

Sotishdan olingen sof tushum va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat (147.6>84.1) ijobji bo'lib, u mezon talablariga javob beradi.

Xususiy kapital va aktivlar o'rtasidagi nisbat ham teskari proporsionallikka (84.1<90.0) ega ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Yakunlovchi bosqichda faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti sifatida to'rtala daxldor ko'rsatkichlarning jami (90.0<100) o'rnatilgan mezondan 10 foizga kamaygan.

Xulosa qilganimizda, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha sholichilik klasterlarida mavjud bo'lgan omborlar yetishtirilayotgan sholi hosilini to'liq qayta ishlash uchun ortiqcha quvvatga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Sholini qayta ishlash tegrimonlarining mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi 22,1 foizni tashkil etayotganligi istiqbolda sholichilikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Sholichilik xo'jaligining moliyaviy natijaga daxldor ko'rsatkichlari daromadlarni strategik boshqaruv hisobining zamonaviy uslublari

<sup>65</sup> Moliyaviy tahlil. Xasanov B.A., Raximov M.Yu. va boshq. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 736 b.

<sup>66</sup> Қоракалпог'истон Республикаси “ЖУЗ-БАСЫ ФЕРМЕР ХОЖАЛЫГЫ” молиявий хисобот маълумотлари.

bo'yicha hisoblanganda, ular me'yoriy talablar va mezonlardan ancha past ekanligi boshqaruv xodimlari oldiga muhim vazifalarni qo'yadi.

## 12.2. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlarni strategik tahlil qilish tizimini shakllantirish.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga 1945 yilda asos solingen bo'lib, unga dunyoning 194 ta davlati a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston unga 2001 yilda a'zo qilib qabul qilingan. 2014 yilda Toshkentda tashkilotning vakolatxonasi ochildi.

2022 yilgacha bo'lgan harakatlar rejasini belgilab bergan Hadli dastur doirasida FAO O'zbekiston hukumati bilan kelishilgan uchta ustuvor yo'naliishi qo'llab-quvvatlab keladi, bular: Qishloq xo'jaligi vazirligi va boshqa davlat idoralarini institutsional va strategik qo'llab-quvvatlash; qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat zanjirini rivojlantirish, bozorga kirish; tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, iqlim o'zgarishi va bioxilma-xillik.

FAO va O'zbekiston o'rtaida 2021-2025 yillarga mo'ljallangan mamlakatlararo Hadli bitimning asosiy bandlari muhokama qilindi.<sup>67</sup>

O'zbekistonda loyiha boshqaruvidagi yangicha yondashuvni rivojlantirish mamlakatimiz Prezidentining 2017 yil 24 iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha Boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" №PF-5120 sonli Farmoni bilan boshlab berildi hamda Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etildi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning mavjud mexanizmini chuqur tahlil etish asosida qabul qilingan mazkur farmonda amaldagi mexanizmni tahlil etilishi natijalari quyidagi qator to'sqinlik qiluvchi omillar mavjudligini ko'rsatdi:

- loyiha boshqaruvi (tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilish)da yagona tizimning mavjud emasligi;
- loyihalar jarayoni va ularni amalga oshirilishini onlayn tartibda kuzatish imkonini beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini loyiha boshqaruvi jarayoniga etarli darajada tatbiq etilmaganligi.<sup>68</sup>

<sup>67</sup> O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri va FAO bosh direktori 2021 yildagi hamkorlikning asosiy yo'naliishlarini belgilab olishdi. T.: <https://agro.uz/uz/news>. – 3 b.

<sup>68</sup> Loyiha boshqaruvin rivojlantirish. T.: <https://napm.uz/oz/activities>. – 1 b.

Hozirgi kunga kelib dunyoning eng dolzarb muammosiga aylangan koronavirus pandemiyasi balosi yer yuzi aholisining ijtimoiy-psixologik holatiga salbiy ta'sir etish bilan birga, ularning daromadlarini keskin kamaytirishni va ishsizlikni oshishini keltirib chiqarmoqda hamda butun iqtisodiyotni inqirozli holatlariga duchor qilish xavfini tug'dirmoqda.<sup>69</sup>

2014 yilning 28 may sanasida Moliyaviy Hisobotning Xalkaro Standartlari (MHXS) Ko'mitasi «Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushum» («Revenue from Contracts with Customers») nomli 15-sonli MHXS (IFRS) elon qildi. Ushbu standart 2018 yilning 1 yanvaridan kuchga kiritilgan. 15-sonli MHXS (IFRS) xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalarni bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan barcha tushumlarni hisobga olish tartibini belgilaydi. Shunga ko'ra, u xaridorlar bilan mahsulot (tovar) etkazib berish, xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish bo'yicha shartnomaga tuzayotgan barcha tarmoq korxonalarini tomonidan foydalaniladi. Bundan tashqari yangi standart nomoliyaviy aktiv (masalan, asosiy vositalar)ni sotish muomalalarini baholash, hamda ushbu jarayondan olingan foyda va zararlarni tan olish modelini ham nazarda tutadi.<sup>70</sup>

Amaliyotda qisqa muddatli davrni (odatda bir yilgacha) o'z ichiga olgan istiqbolli boshqaruv tahlili axborotlaridan foydalanish keng tarqalgan. Uni o'tkazishdan maqsad xo'jalik subyektlariga taktik boshqaruv qarorlari qabul qilishga imkon beradi. Biroq, strategik boshqaruv tahlilini tashkil etish jarayonida korxona uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan prognozlarga ehtiyoj sezadi.

Shuni ta'kidlash zarurki, strategik tahlil va uzoq muddatli qarorlarni qabul qilish korxona faoliyatini, shu jumladan barcha samaradorlik omillarini: texnik-iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv darajasini, tashqi iqtisodiy aloqalarni va sharoitlarni, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy va tabiiy sharoitlarini har tomonlama o'rganishga asoslangan bo'lishi kerak. Strategik boshqaruv tahlili korxonaning muvaffaqiyatli strategiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan tahliliy axborotlarni taqdim etish orqali mavjud vaziyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv tahlili bozordagi raqobat muhitini tahliliga o'xshasada, biroq uning qamrovi kengroqdir, u ko'proq rentabellikni

<sup>69</sup> Toshkulov A.H. Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sirini yushmanishda soliq intiyozlardan foydalanish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3, may-yiyun, 2020 yil.

[http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27\\_Toshkulov.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Toshkulov.pdf). – 1 b.

<sup>70</sup> Ismanov I.N., Muydinov E.D. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida daromadni tan olishga yangicha yondashuv. BMA Elektron jurnali. [http://journal.bfa.uz/maqola/BFA\\_maqola\\_5\\_son.pdf](http://journal.bfa.uz/maqola/BFA_maqola_5_son.pdf). – 86 b.

oshirishga yo'naltirilgan chuqur va aniq dasturiy maqsadga ega bo'lib, bu strategiyani ishlab chiqish uchun muhimdir. Shuningdek, tahlilning bu turi ishlab chiqarish xarajatlari, sotish, foyda, pul oqimlari harakati, boshqaruvning tuzilishi va uslubi, faoliyatning strategik muhim yo'nalishlari va boshqalar haqida ma'lumotlarga ko'proq e'tibor qaratadi.

Xo'jalik subyektining soliqlar va ijtimoiy to'lovlarni to'lash bo'yicha moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, qarzlarning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish strategik boshqaruva tahlilining muhim ob'ekti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda xo'jalik subyektining xalqaro amaliyotda tan olingen usullar asosida investitsiya resurslari va pul oqimlarini strategik rejalashtirish sohasidagi imkoniyatlari aniqlanishi kerak ya'ni investitsiyalarni strategik biznes bo'linmalari o'rtaida qayta taqsimlash, dividendlar to'lash, uzoq muddatli kreditlarni jalb qilish, birlashish va boshqalar.

18-soni "Tushum" nomli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartining (MHXS 18.7 bandi)da: "Daromad deganda xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagisi faoliyati davomida (masalan, tayyor mahsulot sotishdan) olinadigan daromadi tushuniladi. Shuningdek, MHXS 18.9-11ga asosan: "Daromad barcha savdo chegirmalari va imtiyozlarni hisobga olgan holda olingen qarzningadolatli qiymati bilan o'lchanadi" – deb belgilab qo'yilgan.<sup>71</sup>

Korxonaning sotishdan olingen tushumlarini strategik tahlil qilishda unga ta'sig etuvchi omillarni tashqi va ichki muhit darajasida o'rganish lozim bo'ladi. Bunda omillarning ikkita guruhi alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Tarmoqdagi shart-sharoit va raqobatning holati.
2. Korxonaning raqobatbardoshligi, uning bozor segmentidagi egallagan o'rni, kuchli va zaif tomonlari.

Korxonaning tashqi muhitdagi holatini strategik tahlil qilish mahsulot assortimenti va bozor segmentlarini tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, tahlil natijalariga bozordagi yuqori mavqega ega bo'lgan yirik va kichik korxonalarning tovar mahsulotlarining hajmi va baholari ham ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda zamonaviy strategik tahlil jarayonida GETS modelidan keng foydalaniladi. Buning mohiyati to'rtta omilning birikmasidan hosil bo'lgan omillar yig'indisidan iborat: hukumat

(government); iqtisod (yeconomy); texnologiya (technology); jamiyat (society).

Fikrimizcha, strategik tahlilni to'rtta tahlil turi bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- SWOT tahlili;
- qiymat zanjirini tahlil qilish;
- xarajatlarni strategik tahlil qilish;
- korxonanining raqobatdoshligini baholash.

SWOT tahlili korxona faoliyatining to'rtta tomonini bir vaqtning o'zida solishtirishga imkon beradigan matritsali(shaxmatli) usul bo'lib, uning mazmuni quyidagicha izohlanadi: korxonanining kuchli tomonlari (Strengths); korxonanining zaif tomonlari (Weaknesses); korxonanining imkoniyatlari (Opportunities); korxonaga tahdidlar (Threats).

Xulosa qilganimizda, qishloq xo'jaligi korxonalarida daromadlar va xarajatlarning strategik boshqaruva tahlilini zamonaviy usullar va yondashuvlar asosida tashkil etish uning bozordagi o'rni va mavqeini egallashiga, baho va xarajatlarni optimallashtirishga, pirovard natijada esa sof foydani ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturi sifatida "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning Farmoni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etib borilmoqda. Bu tarixiy hujjatda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish masalalari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishslash korxonalarini qurish, mayjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib berilgan.

Bunda qishloq xo'jaligining moddiy texika bazasini mustahkamlash, logistika zanjiri tizimini samarali ishslashini yo'liga qo'yish zarur. Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash,

<sup>71</sup> Сравнительный анализ МСФО и РПБУ. –М.: 2012. www.kpmg.ru. – 279-280 66.

tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bu sohada qulay investitsiya muhitini yaratish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarни strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish kabi muhim masalalar vazifa qilib belgilab berilgan<sup>72</sup>.

Xarajatlarni tahlil qilishning an'anaviy usulidan odatda, muqobil qabul qiligan boshqaruv qarorlarining korxona moliyaviy holatiga yoki uning natijalariga ta'siri va oqibatlarini baholash jarayoni sifatida foydalanib kelingan. Xarajatlarni strategik boshqaruv tahlilining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bu kengroq doirani qamrab oladigan xarajatlar tahlili bo'lib, unda strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim ko'rsatkichlar aniq va ravshan, bosqichma-bosqich, davrlarga bo'lingan holda, faoliyat turlari bo'yicha bataysil yoritib beriladi. Korxonaning sarf-xarajatlari to'g'risidagi axborotlar raqobatchilardan barqaror ustunlikka erishishga qaratilgan umumiyy strategiyani ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xarajatlarni hisobga olish tizimi subyektning mulkiy holatini baholash, kapital harakatini boshqarish, majburiyatlarini qoplash sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, strategik rejalashtirishda xarajatlar to'g'risidagi axborotlardan foydalanish xarajatlarni hisobga olish nazariyasi va amaliyotida atroflicha tadqiq etilmaganligini ko'ramiz. Korxonaning xarajatlar tarkibini istiqboldagi ko'rsatkichlarga erishishni mo'ljallab chuqur tahlil qilish unga bozordagi raqobat kurashida sezilarli ustunlikka ega bo'lishi va ishonchli g'alabani qo'lga kiritishiga imkon beradi. Buni xalqaro amaliyotda xarajatlarni strategik boshqarish deb atashadi.

Strategik boshqaruv hisobi sohasida tadqiqotlar olib borgan U.Kostayev shunday yozadi: "Moliyaviy, soliq, boshqaruv hisoblari strategik hisobning uslubiy hamda amaliy asosini tashkil qiladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, an'anaviy hisob kontseptsiyalaridan tashqari strategik boshqaruv hisobi strategik menejment uslubiyotini keng qo'llaydi. Zamonaviy olimlarning aksariyat qismi strategik boshqaruv

hisobining farqli belgisi makromuhit tashqi omillariga qaratilganligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Masalan, Kit Uord strategik boshqaruv hisobida tashqi omillarni birinchi darajaga chiqarish zaruratiniga ta'kidlaydi<sup>73</sup>.

Xarajatlarni samarali hisobga olish bir vaqtning o'zida ham maqsad ham uni amalga oshirishning vositasidir. Shu sababli, korxonaning erishgan yutuqlari va moliyaviy natijalariga qarab hisob va tahlil tizimini samarali yoki samarasiz ekanligiga baho berish mumkin.

Korxona boshqaruvi kontseptsiyasi doirasida buxgalteriya hisobining maxsus usullari, vositalari va tizimlari quyi tizim sifatida ularga yuklatilgan funktsiyalar va vazifalardan kelib chiqib qo'llanilishi lozim. Investitsiyalar bo'ychia qarorlar aksiyadorlar yoki mulk egalari tomonidan markazlashgan holda qabul qilinganida investitsiyalarning rentabelligini tahlil qilish kabi ko'rsatkichlarni hisoblashda o'rta bo'g'in menedjerlarning bu sohadagi fikr-mulohazalari inobatga olinmasdan qolishi mumkin. Shu bilan birga, strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish kontseptsiyasi investitsiya strategiyasini turli xil variantlarining jozibadorligini baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda umumiyy maqsadlar uchun samarasiz deb qaralgan strategik moliyaviy tahlil boshqalar uchun juda foydali bo'lishi mumkin.

Korxonaning boshqaruv buxgalteriya va ichki nazorat tizimini baholashda uning turli elementlarini uyg'unligi juda muhimdir. Xarajatlarni strategik boshqarish jarayonida asosiy e'tibor korxonaning yuqori va quyi bo'g'inlarini boshqarish strategiyasining bir-biriga mos kelishini ta'minlashga qaratilishi zarur.

Strategik boshqaruv hisobining kontseptual yo'nalishlarini belgilashda "Maqsadlar daraxti" usulidan foydalanib, quyidagi savollarni shakllantiramiz:

1. Xarajatlarni strategik boshqarish korxonaning istiqbolli rivojlanishiga xizmat qiladimi?

2. Xarajatlarni strategik boshqarish usulini qo'llash natijasida strategik boshqaruv hisobi tizimining maqsadga erishish imkoniyatlari oshadimi?

3. Strategik boshqaruv hisobi korxonaning buxgalteriya hisobi tizimini samaradorligini oshirishga yordam beradimi?

<sup>72</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. www.lex.uz/docs/3107036

<sup>73</sup> Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi va uni tashkil qilishning metodologik asoslari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnal. № 1, fevral, 2020 yil.

Prof.Xasanov B.A. va boshqa olimlar xarajatlarni strategik boshqarish masalalariga xalqaro miqyosda yondashib, shuni ta'kidlaydilar: "SCA (Strategic Cost Analysis) xarajatlarni strategik tahlil qilish tizimi boshqaruv hisobining muhim elementi sifatida 90-yillarda paydo bo'ldi. Mazkur hisob tizimining asosiy tarkibiy qismi va markaziy ob'ekti iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri (value chain) hisoblanadi. Iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri usulida har bir tarkibiy bo'linma oldiga iste'mol qiymatini hozirgi darajada saqlagan holda xarajatlarni kamaytirish yoki xarajatlarni ko'paytirmagan holda iste'mol qiymati (daromad)ni oshirish imkoniyatini qidirish vazifasi qo'yiladi"<sup>74</sup>.

Xorijlik olimlar Shank Dj. va Govindaradjan V.lar xarajatlarni strategik boshqarish usulini quyidagicha ta'riflaydilar: "SCM (Strategic Cost Management)ning paydo bo'lishi strategik menejment bo'yicha adabiyotlardan olingan uchta asosiy mavzularning birlashishi natijasida yuzaga keldi:

1. Qiymat zanjiri tahlili (SCA).
2. Strategik joylashish tahlili (pozitsiyani tanlash)
3. Xarajatlarni tavsiylovchi omillar tahlili<sup>75</sup>.

Foydali faoliyat bilan shug'ullanuvchi har qanday xo'jalik subyekti uchun iste'mol qiymatini yaratish zanjiri – bu ta'minot jarayonidan tortib, ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotni sotish jarayonigacha va undan so'ng iste'molchilarga etkazib berishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Iste'mol qiymatini yaratish zanjirining asosiy vazifasi korxonadan tashqarida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni strategik boshqarish hisoblanadi. Mazkur zanjirning maqsadi ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va iste'molchigacha bo'lgan oraliqda tannarxni shakllantirish, sof foydani rejalashtirish va qo'shilgan qiymat yaratishni bir tizimga keltirishdir. Bunga misol qilib, Respublikamizda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik, mevabsabzovot va boshqa klasterlar faoliyatini ko'rsatish mumkin. Bunda mahsulot etkazuvchi fermer xo'jaligidan boshlab uni qayta ishlab tayyor mahsulot holiga keltirguncha bo'lgan jarayonda qatnashuvchi tashkilotlar, korxonalar o'zlarining barcha hisob-kitoblarini yagona klaster markazida amalga oshiradilar. Ya'ni shu yerda yangidan

<sup>74</sup> Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Yo. B., Xasanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – b. 137

<sup>75</sup> Джон К.Шанк, Виджей Говиндараджан. Стратегическое управление затратами/Пер.с англ. СПб.: ЗАО «Бизнес Микро», 1999. с. 20

shakllantirilgan qo'shilgan qiymat yaratiladi. Tovar mahsulotining eksport qilinishi yoki mamlakat ichida ichki iste'mol uchun sotilishi strategiyasi mazkur subyekt tomonidan hal etiladi.

Boshqaruv buxgalteriya hisobi yangidan qo'shilgan qiymat yaratish bosqichlarini, mol yuboruvchilardan aktivlar va zaxiralarni qabul qilishdan boshlab, xaridorlardan to'lovlarini qabul qilishgacha bo'lgan jarayonlarni istiqbolli tahlil qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol qiymati zanjiri tushunchasi bilan qo'shilgan qiymat tushunchasini turlicha talqin etadilar. Strategik boshqaruv hisobi istiqboli nuqtai nazaridan qaraganda qo'shilgan qiymat kontseptsiyasining ikkita katta muammosi mavjud: u juda kech boshlanadi va vaqtli tugaydi<sup>76</sup>. Bunday vaziyat korxonani mehnat vositalari va zahiralar bilan ta'minlashdan boshlab, xarajatlar hamda sotish jarayonlarini tahlil qilishga imkon bermaydi. Vaholangki, yuqorida ta'kidlangan holatlar xo'jalik yurituvchi subyektning yakuniy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Strategik joylashish tahlili (pozitsiyani tanlash) usuli etakchilik strategiyasini amalga oshiradigan korxona uchun xarajatlar standartlariga amal qilish muhim vosita bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bozor kon'yunkturasini, biznes tarkibi, mahsulotlar assortimenti va nomenklaturasining o'zgarib turishi sharoitida korxona tomonidan ehtiyojkorlik bilan rejalashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlari unchalik muhim bo'lmay qolishi mumkin.

Xulosa qilganimizda, xarajatlarni strategik boshqarishda qiymatning shakllanishi o'zaro bog'liq ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Xarajatlarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish muayyan holatda amalga oshirilgan xarajatlarni belgilovchi omillar to'plamining o'zaro ta'sirini tushunishni talab etadi.

Strategik boshqaruv hisobida xarajatlar - bu avvalambor ishlab chiqarilgan mahsulotning puldag'i ifodasidir. Xarajatlarni strategik boshqarishda mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, uning hajmi va foya bilan bog'liq tushunchalar mavjud. Bunda o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar, marjinal xarajatlar hamda mahsulot sotishning kritik hajmini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarning shakllanishi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi, iqtisodiyotda kichik

<sup>76</sup> Джон К.Шанк, Виджей Говиндараджан. Стратегическое управление затратами/Пер.с англ. СПб.: ЗАО «Бизнес Микро», 1999. с. 21

biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilishiha xizmat qilmoqda.

Dunyo mamlakatlariida iqtisodiy o'sishning pasayishi, oziq-ovqat xavfsizligi va tibbiy-ekologik muammomar keskin tus olgan bir sharoitda, davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish dolzarb muammoga aylanmoqda.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish kabi vazifalar qo'yilgan.<sup>77</sup>

Bu borada I.Ansoffning fikrlari diqqatga sazovordir: "Strategik qarorlar asosan ichki muammolarga yemas, balki tashqi bozorga, shuningdek kompaniya ishlab chiqaradigan va bozorlarda sotadigan tovarlarga tegishlidir.<sup>78</sup>

Strategiyani tanlashga ta'sir qiluvchi omillar strategik tahlilning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Strategiyani samarali amalga oshirish uzoq muddatga mo'ljallangan kelishuvlar va maqsadlarga, raqobatchi korxonalarining bozordagi mavqeい va raqobat muhitini chuqur his qilishga, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni ob'ektiv baholay olish kabi omillarga bog'liqdir.

Strategiya bu g'alabaga erishish bilan bog'liqdir. Strategiya – bu batafsil tuzilgan reja yoki yoriqnomalar dasturi emas; bu muvofiqlikni ta'minlovchi, inson yoki tashkilotning harakatlari va qarorlariga umumiy yo'nalish beruvchi, umulashuvchi mavzudir».<sup>79</sup>

Korxona faoliyatini strategik tahlil qilishda tahlilning ikkita ob'ektini makonda va zamonda o'zaro bog'lilikda qarash zarur. Bir tomondan korxonaning faoliyati va ikkinchi tomondan unga iqtisodiy muhitni ta'sirini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036)

<sup>78</sup> Ансофф И. Стратегическое управление. - М., Экономика. 1989. 303 с.

<sup>79</sup> Грант Р. М. Современный стратегический анализ / пер. с англ.; под ред. В. Н. Фунтова. 5-е изд. СПб.: Питер, 2008. 560 с. – с. 19

Korxonaning iqtisodiy muhitda faoliyat yuritishini strategik tahlil qilganimizda quyidagi omillarning ta'sirini o'rganish zarur:

- raqiblarning moliyaviy holati va bozordagi mavqeи;
- mol etkazib beruvchi va pudratchi mijozlarning shartnomalarni o'z vaqtida bajarishi;
- xaridor va buyurtmachilarning to'lov qobiliyati.

Strategik tahlilni amalga oshirishda SWOT-tahlili usulidan keng foydalaniladi. Uning mohiyati korxonani bozordagi holati to'rtta mezon bo'yicha baholanadi:

1. Korxonaning kuchli tomonlari (Strengths)
2. Korxonaning kuchsiz tomonlari (Weaknesses)
3. Korxonaning imkoniyatlari (Opportunities)
4. Xavf-xatarlar (Threats)

Yuqorida sanab o'tilgan to'rtta omildan birinchi ikkitasi ya'ni korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilganimizda, ular asosan korxonaning ichki muhiti ta'sirida shakllanadi ya'ni korxonadagi davr xarajatlari, tannarx, transfert baholar, tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keladi. Mazkur ro'yxatdagi keyingi ikkita omil tashqi muhit ta'sirida paydo bo'ladi. Korxonaning bozordagi imkoniyatlari va kutilajak xavf-xatarlari bozor konyun'kturasi ta'sirida talab va taklifning o'zgarishi, narxlarning tebranib turishi, raqobat kuchaygan sari eksport muomalalarini va kapital tushumini rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi xalqaro savdo koidalariga mos ravishda imtiyoz va preferentsiyalar bilan ta'minlanishi zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv xodimlarini qarorlar qabul qilish uchun axborot manbai, ya'ni ma'lumotlar bilan ta'minlash hisob - tahlil tizimi (HTT) vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur tizimning takomillashuvi yangi progressiv hisob turlaridan foydalanishni taqoza etadi. Zamonaviy sharoitda strategik boshqaruv hisobi ana shunday muhim vazifani bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.<sup>80</sup>

Iqtisodchi olma Udalova Z.V. qishloq xo'jaligi korxonalarida strategik boshqaruv hisobini kontseptual masalalari bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilib, shunday yozadi: "Strategiya an'anaviy reja yoki dastur yemas. U zamonaviy menejmentda sodir bo'layotgan korporativ

<sup>80</sup> Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi va uni tashkil qilishning metodologik asoslari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020 yil.

rejalashtirish usulidan strategik menejmentga o'tish davri bilan izohlanadi".<sup>81</sup>

Korxonani rivojlantirish strategiyasini tanlash va amalga oshirishning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Korxonani rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash
2. Strategik tahlil:
  - korxonaning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini aniqash;
  - korxonaning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish.
3. Strategik prognozlashtirish (korxonaning rivojlanish salohiyati inqirozni bartaraf etishga etarlimi? Ha/yo'q).
4. Korxonani rivojlantirish stsenariysi (qulay, ma'qul, noxush)
5. Muqobil strategik modelni aniqlash
6. Korxonani rivojlantirish strategiyasini tanlash.<sup>82</sup>

Xulosa qilganimizda, boshqaruv hisobining muhim tarkibiy qismi hisoblangan strategik tahlilning axborot tahliliy ta'minotini tashkil etish uning nazariy va uslubiy asoslarini atroflicha tadqiq etishga bog'liqdir. Shu munosabat bilan mazkur maqolada xorijiy va vatanamiz olimlarining fikrlarini taqqoslab berilgan takliflar yurtboshimiz tomonidan Harakatlar strategiyasida oldimizga qo'yilgan muhim vazifalarni bajarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

### **12.3. Mahsulot sifatiga sarflanadigan xarajatlarni strategik boshqaruv hisobi usullari**

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi pandemiya sharoitida iqtisodiyotimizga xavf soladigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oqibatlarini yumshatishda qo'l kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotning afzalligi haqida gap ketganda, davlatimiz rahbarining "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat — korruptsiya

<sup>81</sup> Удалова З.В. Концепция стратегического учета и анализа в сельскохозяйственных организациях. Международный бухгалтерский учет. 13 (259) – 2013. [www.cyberleninka.ru/article/n/konseptsiya-strategicheskogo-ucheta-i-analiza-v-selskohozyaystvennyh-organizatsiyah](http://www.cyberleninka.ru/article/n/konseptsiya-strategicheskogo-ucheta-i-analiza-v-selskohozyaystvennyh-organizatsiyah)

<sup>82</sup> Удалова З.В. Концепция стратегического учета и анализа в сельскохозяйственных организациях. Международный бухгалтерский учет. 13 (259) – 2013. [www.cyberleninka.ru/article/n/konseptsiya-strategicheskogo-ucheta-i-analiza-v-selskohozyaystvennyh-organizatsiyah](http://www.cyberleninka.ru/article/n/konseptsiya-strategicheskogo-ucheta-i-analiza-v-selskohozyaystvennyh-organizatsiyah)

balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor", deya kuyinib aytgan gaplarini keltirish o'rinnlidir.<sup>83</sup>

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining yanada chuqurlashuvini anglatadi. Raqamli iqtisodiyot ko'p qirrali faoliyat bo'lib, unda ilm-ma'rifat raqamli axborot ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qo'llaniladi.

Bu vazifani hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlar tabiiy resurslar zaxirasiga boyligi bilan tanilgan yurtimizni ulardan samarali foydalinish bo'yicha rivojlangan mamlakatga aylantirishni jadallashtirib yuboradi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot samarali menejment tizimini joriy qilish, turmush sifatini oshirish, jahon xom ashyo, texnologik va oziq-ovqat bozorlari kon'yunkturasiga bog'liqlikdan xalos etish, yuz berish ehtimoli mavjud bo'lgan jahon moliyaviy inqirozi ta'siridan talafotlarsiz o'tish uchun mustahkam poydevor yaratadi.<sup>84</sup>

Iqtisodiyotda bozor konyunkturasining o'zgarib turishi, raqobatning rivojlanishi strategik boshqaruv hisobi tizimini, xususan, xarajatlarni optimallashtirish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Buning boisi, to'g'ri va aniq hisoblangan mahsulot tannarxi subyektning mahsuloti qiyomatini, pirovardida, uning moliyaviy natijalarini shakllantirishga asos bo'ladi. Bu esa kelajakda ichki va tashqi muhitni boshqarish, unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, korxonani rivojlantirish strategiyasini tanlab olishda axborot-tahliliy ta'minot funktsiyasini bajaradi. Afsuski, hozirgi kunda mamlakatimizda xarajatlarni strategik maqsadlar uchun boshqaruv hisobi va tahlilining tashkiliy, uslubiy va huquqiy masalalari etarli darajada yoritilmagan. Vaholanki, xarajatlarni korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tizimidagi rejalashtirish (budgetlashtirish), buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, ichki moliyaviy nazorat tizimi zanjiridagi markaziy bo'g'in hisoblanadi. Xarajatlarni oqilona boshqarish subyekt rahbariyati tomonidan joriy, shu jumladan strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi xalqaro tajribalardan ma'lumdir.

K.Simonds birinchilardan bo'lib buxgalteriya hisobi tizimiga "Strategik boshqaruv hisobi" atamasini joriy qildi va uni xarajatlarni baho, sotish va bozor ulushi, pul oqimlari va asosiy raqobatchilarning bozordagi mavqeい to'g'risida axborot to'plash orqali kompaniyaning

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. –T.: "Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521). [www.xs.uz](http://www.xs.uz)

<sup>84</sup> Shodihev T., Xasanov B. Yuksalishning eng qisqa yo'li. –T.: "Xalq so'zi", 2020 yil 1 may, №89 (7591). [www.xs.uz](http://www.xs.uz)

tarmoqdagi boshqa raqobatchilariga nisbatan holatini baholash vositasi sifatida tatbiq etdi.<sup>85</sup>

Xalqaro CIMA (Boshqaruv hisobi bo'yicha mutaxassislarining sertifikatlangan instituti) tomonidan strategik boshqaruv hisobiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Strategik boshqaruv hisobi (Strategic management accounting) - bu boshqaruv hisobining shakli bo'lib, unda asosiy e'tibor firma faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar bilan bog'liq bo'lgan axborotlarga qaratiladi. Biroq, shu bilan bir qatorda, ichki axborotlarga ham etarlicha e'tibor beriladi."<sup>86</sup>

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulotlar tannarxini hisoblash sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olima I.N.YEfremovaning quyidagi fikrlari o'rnlidir: "Mahsulot tannarxini hisoblash 2 bosqichda amalga oshiriladi. 1 bosqichda mahsulotlar turlari kesimida xarajatlar yig'ilib, umumiylashtiriladi. 2 bosqichda – bir birlit mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

Korxonalarda har bir qishloq xo'jalik ekin turi bo'yicha mahsulot tannarxi alohida kalkulyatsiya varag'ida hisobga olib boriladi, unda kompleks xarajat moddalarini bo'yicha mahsulot tannarxi umumiylashtirishda aks ettiriladi, ular miqdor va qiymat ko'rinishida ifodalananadi".<sup>87</sup>

Iqtisodchi olim U.Kostayev strategik boshqaruv hisobini yuritishda foydalilanildigan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ichki muhit ko'rsatkichlarini iqtisodiy-moliyaviy turlarga ajratadi. Ularni: doimiy xarajatlar dinamikasi; o'zgaruvchan xarajatlar dinamikasi; ma'muriy boshqaruv apparati xarajatlar dinamikasi; tijorat va realizatsiya xarajatlar dinamikasi kabi turlari bo'yicha xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini tashkil etishni taklif etadi.<sup>88</sup>

Mazkur maqolada ilmiy bilishning analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, tizimli yondashuv, statistik va moliyaviy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalанилди.

Respublikamiz iqtisodiyoti uchun yangi bir holat hisoblangan xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi usuli amaliyotga kirib kelmoqda. Uning mazmun-mohiyati korxona xarajatlarini sarflanish

tamoyiliga ko'ra ichki va tashqi muhit bilan bog'liq xarajatlarga ajratishni taqozo etmoqda. Ichki xo'jalik xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyati jarayonida hosil bo'lgan mahsulot tannarxidan iborat bo'ladi. Ya'ni bu xarajatlar tannarxni shakllanishi bilan bog'liqdir.

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalarini, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi korxonalar faoliyatining asosiy tarmoqlari hisoblangan dehqonchilik va chorvachilik sohalarida etishtirilayotgan mahsulotlar hajmining o'sish dinamikasi xarajatlarni strategik boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga egadir. (12.1-chizma).

### Кишилк ўзжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш хажмиди деҳқончилик ва ҷорвачилик маҳсулотларининг улуси



**12.1-chizma. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi.**

Manba:[https://stat.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=2323&catid=182&lang=uk-UA](https://stat.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=2323&catid=182&lang=uk-UA)

<sup>85</sup> Шешукова Т.Г., Шалаева Л.В. Стратегический управленческий анализ внешней среды: монография. – Пермь: ИПЦ «Прокрости», 2015.- 139 с. ISBN 978-5-94279-261-9

<sup>86</sup> Николаева, О.Е., Алексеева О.В. Стратегический управленческий учет.- М.: ЛКИ, 2008.- 304 с.

<sup>87</sup> Ефремова И.Н. Формирование стратегического управленческого учета и анализа затрат в сельскохозяйственных организациях. Авт.дисс.канд.экон.наук. – Орел 2010. <https://www.dissertcat.com/content/formirovaniye-strategicheskogo-upravlencheskogo-ucheta-i-analiza-zatrata-v-selskokhozyaistvennykh-organizaciyakh>

<sup>88</sup> Kostayev U. Strategik boshqaruv hisobida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi. –Т.: J. "Biznes-Ekspert" 2020, I-son, b. 54

2019 yil 31 dekabr holatiga ko'ra, respublikamizda jami etishtirilgan don ekinlarining tarkibi tahlil qilinganda, ularning etishtirish umumiy hajmining asosiy qismini, yoki 85,2%ini boshqoli don ekinlari tashkil etdi. Jami etishtirilgan don ekinlarining 5,7% - makkajo'xori, 4,2% - sholi, 3,6% - dukkakli don va 1,3 % - boshqa don ekinlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,1 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 % – fermer xo'jaliklariga, 3,0 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.<sup>89</sup>

Shuni ta'kidlash lozimki, korxonaning bozor faoliyati bilan bog'liq tashqi xarajatlar tarkibiga xom ashyo, yoqilg'i-moylash materiallari, asosiy vositalarni sotib olish, uchinchi tomon tashkilotlari ish va xizmatlar haqini to'lash kabi ta'minot jarayoni xarajatlari kiradi. Tashqi xarajatlar xarajatlarning tashqi muhitda ya'ni bozorda shakllanishiga bog'liq bo'lib, ular pul oqimlarining kirimi va chiqimi balansini tuzish bilan boshqarib borildi.

Xarajatlarni boshqarishning turli tizimlari va tamoyillarini o'zida mujassam etgan strategik boshqaruvin hisobini tashkil etishning integratsiyalashgan usuli iqtisodchilar o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bu borada olimlar tomonidan ilmiy ishlammalar va modellar taklif qilinmoqda. Xususan, permlik olima Shalayeva L.V.ning xarajatlarni strategik hisobini tashkil qilishi beshta bosqichga bo'lib tadqiq etish zarurligi to'g'risidagi fikrlarini ilmiy asos sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin:<sup>90</sup>

Birinchi bosqichda bir qator tashkiliy va texnik masalalarni hal qilish zarur:

- korxonani tashkiliy-moliyaviy boshqarish tarkibini hamda mas'ul shaxslarning majburiyatlari va huquqlarini belgilab qo'yish lozim.
- rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, nazorat va boshqarish ob'ektlari ro'yxatini tasdiqlash.
- faoliyatning natijadorligi va samaradorligini baholash uchun tahliliy ko'rsatkichlar tizimini tasdiqlash.

<sup>89</sup> Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi. <https://stat.uz/uploads/doklad/2019/yanvar-dekabr/uz/4.pdf>

<sup>90</sup> Шалаева Л.В. Статегический управленческий учет затрат в сельскохозяйственных организациях: монография. – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2014.– 171 с. ISBN 978-5-94279-213-8. – с 145.

Ikkinchi bosqichda strategik boshqaruvin hisobi maqsadlari uchun buxgalteriya hisobining amaldagi qoidalari va tamoyillariga asosan korxonada hisob siyosati ishlab chiqiladi.

#### 12.5-jadval.

**Strategik boshqaruvin hisobi maqsadlari uchun integratsiya bosqichlari bo'yicha mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarining samarasi va ahamiyatini qiyosiy tahlili**

Tizimlar va tamoyillarni integratsiyalash bosqichlari	Mahsulot tannarxini aniqlash usuli	Usulning samarasi va amaliy ahamiyati	Qo'llanish sohasi
1-bosqich	"Direkt-kosting"	Xarajatlarni o'zgaruvchan, shartli o'zgaruvchan va doimiy qismalarga ajratish yo'li bilan har bir faoliyat turining xarajatlari va daromadlarini alohida hisob-kitob qilishga sharoit yaratadi.	Sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, aloqa, kapital qurilish, transport va h.k.
	"Activity Based Costing" (ABC)	Xarajatlarni javobgarlik markazlari va kelib chiqish joylari bo'yicha turkumlash orqali boshqarishga erishiladi.	
	Tovarning hayot davri xarajat-larini boshqarish kontseptsiyası (Life Cycle Costing - LCC)	Xarajatlarni boshqarishning marketing tamoyillari asosida tovarning hayot davri bo'yicha xarajatlar va moliyaviy natijalarni aniqlashga imkon beradi.	
2-bosqich	"Activity Based Costing" (ABC)	Xarajatlarni javobgarlik markazlari va kelib chiqish joylari bo'yicha turkumlash orqali boshqarishga erishiladi.	Sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, aloqa, kapital qurilish, transport va h.k.
	"Target-kosting"	Uning mohiyati ishlab chiqarish, muhandislik, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va ratsionalizatorlik ishlamalarini qo'llash orqali butun ishlab chiqarish tsikli davomida mahsulot tannarxini pasaytirishdan iborat.	
3-bosqich	"Kayzen-kosting"	"Tejamkor ishlab chiqarish" kontseptsiyasining asosiy g'oyasi barcha turdag'i yo'qotishlarni imkon qadar kamaytirish, kichik-kichik qadamlar bilan xarajatlarni optimallashtirish, sifat uchun kurash va samaradorlikni oshirishdan iborat.	Xarajatlarni boshqarishning marketing tamoyillari asosida tovarning hayot davri bo'yicha xarajatlar va moliyaviy natijalarni aniqlashga imkon beradi.
	Tovarning hayot davri xarajat-larini boshqarish kontseptsiyası (Life Cycle Costing - LCC)	Xarajatlarni boshqarishning marketing tamoyillari asosida tovarning hayot davri bo'yicha xarajatlar va moliyaviy natijalarni aniqlashga imkon beradi.	

3-bosqich	"Direkt-kosting"	Xarajatlarni o'zgaruvchan, shartli o'zgaruvchan va doimiy qismlarga ajratish yo'li bilan har bir faoliyat turining xarajatlari va daromadlarini alohida hisobkitob qilishga sharoit yaratadi.	
	"Standart-kost"	<p>"Standart-Kost" atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: "standart" mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy ishlab chiqarish xarajatlari muddorini (moddiy va mehnat) yoki mahsulot ishlab chiqarish yo'xizmat ko'rsatish birligi uchun oldindan hisoblab qo'yilgan xarajatlarni anglatса, "Kost" so'zi esa mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni bildiradi.</p> <p>Bu tizim - eng avvalo ishlab chiqarishning bevosita xarajatlardan foydalanish ustidan nazoratni o'rnatishga qaretilgan, bir-biriga bog'liq kalkulyatsiyalar esa qo'shimcha xarajatlarni nazorat uchun mo'ljallangan.</p> <p>"Standart-Kost" tizimi ishbilarmonlar talablarini qondiradi va ishlab chiqarish xarajatlarni nazorat qilish uchun qudratli quroq bo'lib xizmat qiladi.</p>	
	Benchmarking (raqiblarning eng yaxshi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash usuli)	<p>Benchmarking korxona faoliyati natijalarini raqiblarning eng yaxshi ko'rsatkichlari bilan solishtirib, raqobatbardosh strategiyani va uni eng maqbul amalga oshirish uchun zarus bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga yordam beradi.</p> <p>Benchmarking strategik boshqaruvin hisobini yuritishning eng muhim texnologiyalaridan biri bo'lib, u tadbirdorlik faoliyati muvaffaqiyati-ning ehtimolini ishonchli baholash imkonini beradi.</p>	

Manba. Ilmiy izlanishlar natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi.

Uchinchli bosqichda boshqaruvin hisobining asosiy funktsiyasi amalga oshiriladi ya'ni korxona faoliyatining natijadorligi va samaradorligini baholashning eng muhim ko'rsatkichlari rejalashtiriladi, uning qisqa va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallab hisoblab chiqilgan aniq o'chovlari tasdiqlanadi.

To'rtinchi bosqichda tezkor nazorat tizimini yo'lga qo'yish tadbirdorlik amalga oshiriladi ya'ni korxona faoliyatidagi salbiy holatlarni, tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni, shu jumladan asosiy

raqobatchilar faoliyatidagi o'zgarishlarni tezda aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Beshinchi bosqichda boshqaruvin hisobining rag'batlantiruvchilik funktsiyasi mehnatni rag'batlantirish tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni boshqarish nuqtai nazaridan hisob siyosatining "Xarajatlar" bo'limida quyidagilar o'z aksini topishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- strategik boshqaruvin hisobi tizimida xarajatlarni rejalatirish, me'yorlashtirish va prognozlashtirish maqsadida ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini muayyan bir zanjirda tizimlashtirishni o'z ichiga olgan budjetlashtirish masalalari;

- javobgarlik va xarajatlar markazlari, mahsulot turlari, xo'jalik jarayonlari bo'yicha xarajat elementlari va kalkulyatsiya muddalarini aks ettiruvchi xarajatlarning dastlabki, yig'ma, analistik va sintetik hisobi. Xarajatlarni analistik hisobga olish uchun jurnal-order shaklini Excel yoki 1C dasturiga moslashtirilgan subkontoda bo'linma va ishlab chiqarishning shaxsiy hisob varaqasi reestri yuritilishi lozim. Xarajatlarning analistik va sintetik hisobi amaldagi 21-sonli BHMSda 2000-3100 schetlarida yuritiladi. Ularning tasdiqlangan normativlar (standartlar)dan chetga chiqishi va o'zgarishi alohida ochilgan 3200-3900 schetlarida hisobga olib borilishi lozim;

- bevosita va bilvosita xarajatlarni taqsimlash, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi va usulini tasdiqlash;

- ilm-fanning innovatsion g'oyalari va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanib, xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan usullarini joriy etish;

- ishlab chiqarish bo'linmalari, mahsulot turlari va sotish bozorlari kesimida korxonaning hisobot davri faoliyati natijalarini aks ettiruvchi boshqaruvin hisoboti;

- xarajatlar va mahsulot tannarxini ekspress, vaziyatli, diagnostik va istiqbolli boshqaruvtahlli usullarini bayon etish;

- xarajatlarni zararsizlik nuqtasini belgilash va strategik davrlar uchun ularni prognozlashtirish usullarini tasdiqlash.

Tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirishni lozim deb hisoblaymiz:

Karajatlarni strategik boshqarish jarayonida xalqaro tajribani tahlil qilanimizda, bu borada ko'plab tamoyillar, tizimlar va usullar xilmaga

xilligi sharoitida ularni integratsiya qilish hamda optimallashtirish zarurati tug'iladi. Shularni inobatga olib, mazkur maqolada amaldagi mavjud tizimlar va tamoyillar turkumlandi, ularning bosqichlari aniqlandi, samarasи va amaliy ahamiyati ko'rsatildi.

Xarajatlarni strategik boshqarishning ichki xo'jalik me'yoriy hujjati sanalgan hisob siyosatining "Xarajatlar" bo'limini shakllantirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar(ish va xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiya qilish usullaridan korxonani kelajakda samarali boshqarish uchun ekstrapolyatsion usul sifatida foydalanish taklifi berildi. Shuningdek, tannarx hisoblashning xalqaro usullarini qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga joriy etish barobarida ularning zararsizlik nuqtasini hisoblash, istiqbol uchun prognozlar qilish zarurligi asoslandi.

Pandemiya sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining oldidagi bosh vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishdan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlil qilishda ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishning bir qancha axborot manbalaridan, xususan, moliyaviy hisobot shakllari va statistik hisobotning 1-mehnat shakli(choraklik), 2-narx shakli(oylik), 1-invest shakli(yillik) kabilardan foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish dasturini tuzish korxona faoliyatini strategik rejalashtirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talabi asosida ishlab chiqarish dasturi sifat va muddatni tavsiflovchi kompleks rejani o'zida namoyon etadi.

Bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib, buyurtmachilarining tovarlarga bo'lgan ehtiyoji, tuzilgan shartnomalarning mavjud portfeli, shuningdek, mahsulot (ish, xizmat)larning taklifi korxona ishlab chiqarish dasturining asosini tashkil etadi.

Talab atamasiga izoh beradigan bo'lsak, u tovar, ish, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni, bu eng avvalo, biron-bir ne'matlarning bozorda namoyon bo'lishi va uni pul bilan ta'minlanishidir.

Taklif - bu muayyan paytda bozorda mavjud bo'lgan yoki unga etkazib berilishi mumkin bo'lgan tovarlar massasi sifatida belgilanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olima T.Paramonova shunday fikr bildiradi:

"Bozor kon'yunkturasini o'rganishda kompleks yondashuv turli xil, bir-birini to'ldiruvchi axborot manbalaridan foydalanishni o'z ichiga qamrab oladi; retrospektiv tahlilni bozor sharoitlarini tavsiflovchi proqnoz ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish; tahlil va bashoratlashning turli xil usullarini birgalikda qo'llash".<sup>91</sup>

Yevropalik olimlar tadbirkorlik subyektlarining foydasini quyidagicha hisoblashni taklif qiladilar: "CHakana savdo va professional xizmatlar bozorini modellashtirishda biz firmalar bir xil deb taxmin qilamiz: har bir firmanın bozordagi foydasi jami N firmalari bilan birgalikda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\pi(N)=v(N)S-f$$

bu yerda:

v(N) - bu har bir firma va har bir iste'molchi uchun o'zgaruvchan foya,

S - iste'molchilar soni bilan o'lchanadigan bozor hajmi  
f - ishlab chiqarishning doimiy xarajatlari".<sup>92</sup>

Mazkur muammoga prof.B.Xasanov shunday munosabat bildiradi: "Darajali taxminlash sotishlar va foydaning kutilayotgan hajmini maksimal, ehtimol, minimal nuqtalari bo'yicha rejalashtiradi.

Vaziyatlari rejalashtirish korxona ishlab chiqarish dasturini shakllantirish bilan birgalikda beqaror bozor sharoitlarida uni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ishlab chiqarish dasturini tuzish, amaliyotda, uch bosqichda ya'ni butun korxona uchun yillik ishlab chiqarish rejasini tuzish; rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun ustuvor maqsadlarni aniqlash; yillik ishlab chiqarish rejasini korxonaning alohida bo'linmalari yoki ishtirokchilar bo'yicha taqsimlash".<sup>93</sup>

Sholi etishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jalik korxonalari xarajatlari va daromadlari bo'yicha ishlab chiqarish dasturining qisqartirilgan shaklini keltiramiz. (12.6-jadval.)

<sup>91</sup> Парамонова Т. Анализ конъюнктуры рынка. Управление финансами. – М.: 2016. <https://www.klerk.ru/boss/articles/452803/> – с 2.

<sup>92</sup> Martin Lábjai, Karol Morvay, Peter Silánik, Christoph Weiss & Biliana Yontcheva. Market structure and competition in transition: results from a spatial analysis. Journal. Applied Economics. Published by Taylor and Francis. United Kingdom. Volume 50, 2018 - Issue 15. Print ISSN: 0003-6846 Online ISSN: 1466-4283. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00036846.2017.1374535> – p. 11

<sup>93</sup> Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 185 b.

### 12.6-jadval.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida 2019 yilda shoii etishtirish xarajatlari va daromadlari bo'yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishi tahlili**

T/r	Tumanlar nomi	Jami ekin maydoni, ga'	Hosil-dorlik, tsentner/ga	Olingen yalpi hosil, tonna	Jami xarajat, mln.so'm	Jami daromad, mln.so'm	Foyda, (+,-)	Renta-bellik darajasi, %
1	To'rtko'l	900	52,6	4734	9412	10660	1248	13,3
2	Beruniy	900	52,9	4761	9492	10786	1295	13,6
3	Ellikqal'a	900	53,1	4779	9438	10763	1325	14,0
4	Amudaryo	1000	54,1	5410	10589	12336	1748	16,5
5	Xo'jayli	1300	53,6	6968	13683	15858	2175	15,9
6	Taxiatosh	330	51,1	1686	3313	3664	351	10,6
7	SHo'manay	1100	51,6	5676	11061	12224	1163	10,5
8	Qanlikul	2780	50,3	13983	28184	31462	3278	11,6
9	Qung'irot	2860	49,8	14243	28879	32040	3161	10,9
10	Nukus	2900	50,1	14529	29224	32413	3189	10,9
11	Kegeyli	1400	48,6	6804	13639	14768	1129	8,3
12	Chimboy	2870	50,1	14379	28797	31241	2443	8,5
13	Qorao'zak	2850	49,8	14193	28888	31928	3040	10,5
14	Taxtako'pir	2550	49,7	12674	25838	28747	2909	11,3
15	Mo'ynoq	360	48,0	1728	3488	3819	331	9,5
	Jami	25000	51,02	126547	253924	282709	28785	11,7

**Manba.** Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlari.<sup>94</sup>

Jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari kesimida boshqoqli don etishtirish bo'yicha hosildorlik o'rtacha 50,6 tsentnerni, jami hosildorlik 126 547 tonnani tashkil etgan. Jami xarajatlarning salmog'i jami daromadlar tarkibida 89,8 foiz bo'lib, kutilayotgan foyda o'rtacha 10,2 foiz darajasida rejasini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich ijobiy bo'lmay, foyda va rentabellikni 20 foizgacha ko'tarish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Bundan ko'riniib turibdiki, tarmoqda sholi etishtirish xarajatlari va mahsulot tannarxi yuqori bo'lib, uni pasaytirish omillaridan biri intensiv texnologiyalarni qo'llash va tarmoqqa zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, xo'jalik subyektining faoliyatini strategik rejashtirishda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlariga

ajratiladi. Shulardan operatsion(ishlab chiqarish) reja o'z navbatida quyidagi tarkibdan iborat: sotish budjeti, ishlab chiqarish budjeti, tayyor mahsulot zaxiralari budjeti, xaridlar budjeti, davr xarajatlari budjeti. Bunda ishlab chiqarish budjeti ishlab chiqarish dasturi (ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibi)dan tashkil topadi. Demak, ishlab chiqarish budjeti strategik boshqaruv hisobida Bosh budgetning birinchi pog'onasi hisoblanib, u barcha rejalar va dasturlarning mantiqiy asosi sanaladi.

Korxona yoki uning bo'linmasining yillik ishlab chiqarish hajmi mahsulot birligini mos taxminiy bozor baholariga ko'paytirish orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M_0 = \sum_{n=1}^N M_n \mathbf{B}_n + \sum_{p=1}^P M_p \mathbf{B}_p + \sum_{y=1}^Y M_y \mathbf{B}_y$$

bu yerda:

$M_0$  - korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturi, so'm;

$M_n, M_r, M_u$  - mahsulot (ish va xizmat)lar yillik hajmi, dona;

$B_n, B_r, B_u$  - mahsulot (ish va xizmat)lar birliklarining taxminiy bozor baholari, so'm/dona;

$n, p, y$  - mahsulot (ish va xizmat)larning nomenklaturasi.

Qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish dasturini tuzish mahsulot sotish rejasini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Mahsulot sotish rejasida mahsulot turlari va navlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, korxona faoliyatining istiqboldagi parametrlari aks ettiriladi.

Sholichilik xo'jaliklarida mahsulot sotishning rejashtiriladigan hajmini bozor segmentlari bo'yicha shartli misollar bilan ko'rsatish mumkin. (12.7-jadval).

Tahlillarning ko'rsatishicha 2018 yilda "Lazer" guruchiga nisbatan "Alanga" guruchiga talab iste'mol bozorida yuqori bo'lgan. 2019 yilning birinchi va ikkinchi yarim yilliklarida mahsulot hajmi va bozordagi istemolchilarining talabi o'sganligini kuzatamiz. Biroq, 2020 yilning choraklari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi pasayganligi ko'riniib turibdi. Ayniqsa 2020 yilning uchinchi choragida jami ishlab chiqarilgan mahsulot 2 859 tonnani tashkil etgan bo'lsa bu raqam hisobot yilining to'rtinchi kvartaliga nisbatan 20 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, mazkur jadval yordamida sholi mahsulotlari bo'yicha monitoring qilishga imkoniyat yaratiladi.

<sup>94</sup> Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlari.

**Sholichilik xo'jaliklarida etishtirilgan mahsulotlarni bozor segmentlari kesimida sotishning rejalashtirilayotgan hajmi**

Iste'molchilar bo'yicha bozor segmentlari	O'ichov birligi	2018	2019 yil		2020 yil, choraklar kesimida			
			1-yarim yillik	2-yarim yillik	I	II	III	IV
<b>"Alanga" guruch:</b>								
-“Nukus dehqon bozori” AJ	tonna	371	1 830	1 220	788	832	601	721
-“Qo'yiliq dehqon bozori” AJ	tonna	617	3 051	2 034	1313	1386	1001	1201
-“Eski juva dehqon bozori” AJ	tonna	247	1 221	814	524	554	400	480
Jami:	tonna	1 235	6 102	4 068	2 625	2 772	2 002	2 402
<b>“Lazer” guruch:</b>								
-“Oloy dehqon bozori” AJ	tonna	265	1 308	872	563	594	429	514
-“Farxod dehqon bozori” AJ	tonna	158	784	524	337	356	257	309
-“Askiya dehqon bozori” AJ	tonna	106	523	348	225	238	171	206
Jami	tonna	529	2 615	1 744	1 125	1 188	857	1 029
<b>Hammasi</b>	tonna	1 764	8 717	5 812	3 750	3 960	2 859	3 431

**Manba.** Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shartli misollarda tuzilgan.

Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini boshqarishda strategik rejalashtirishning ahamiyati oshib bormoqda. Bunda operatsion(ishlab chiqarish) faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish jarayonida sotish budjeti, ishlab chiqarish budjeti, tayyor mahsulot zaxiralari budjeti, xaridlar budjeti, davr xarajatlari budgetini tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mahsulotlarni sotishlar rejasidan tezkor va istiqbolli hujjat sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Marketing tadqiqotlari natijasida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti bilan uning bozor sig'imi va segmentlararo taqsimotini taqoslama tahlil qilish orqali korxonaning ishlab chiqarish dasturini shakllantirish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar omborida naqd bo'lgan va bozorda talab etiladigan tovar mahsulotini qiyosiy tahlili boshqaruv xodimlarini

ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlashning logistik tizimini yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilganimizda, strategik boshqaruv hisobi maqsadlari uchun mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning xalqaro usullaridan foydalanish pandemiya sharoitida iqtisodiy inqiroz oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

### Test topshiriqlari

#### 1. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 1997 yil 1 yanvar;
- b) 1996 yil 30 avgust;
- c) 1998 yil 27 fevral;
- d) 1999 yil 1 yanvar;
- e) 2000 yil 26 may.

#### 2. O'zbekistonda buxgalteriya hisobining milliy standartlari birinchi marta qachon davlat ro'yxatidan o'tgan va hozirgi kunda nechta standartdan amaliyotda foydalilmoqda?

- a) 1996 yil 1 yanvar, 21 ta;
- b) 1997 yil 30 avgust, 10;
- c) 1998 yil 27 fevral, 21ta;
- d) 1998 yil 14 avgust, 21ta;
- e) 2000 yil 15 may 24ta.

#### 3. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash qaysi organ zimmasiga yuklatilgan?

- a) O'zR. Vazirlar Mahkamasi;
- b) O'zR. Oliy Majlis;
- c) O'zR. Moliya vazirligi;
- d) O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi;
- e) O'zR. Iqtisodiyot vazirligi.

#### 4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sloni «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini schyotlar rejasiga uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga»ga nomli milliy standarti qachon tasdiqlangan va ro'yxatga olingan?

- a) O'zR. Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrdagi 103-sloni qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23-oktyabrda 1181-son bilan ro'yxatga olingan;

6)O'zR. Moliya vazirligining 2002 yil 10 martdagи 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 22 oktyabrda 1179-son bilan ro'yxatga olingan;

б)O'zR. Moliya vazirligining 2002 yil 26 apreldagi 25-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 13 sentyabrdagи 1086-son bilan ro'yxatga olingan;

т)O'zR. Moliya vazirligining 2002 yil 15 yanvardagi 16-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 3 oktyabrdagи 1001-son bilan ro'yxatga olingan;

д)to'g'ri javob berilmagan.

**5. O'zbekiston Respublikasi 21-sonli BHMSga muvofiq schyotlar rejasini nechta qism va bo'limdan iborat?**

- а) 5 qism va 10 bo'lim;
- б) 4 qism va 9 bo'lim;
- в) 6 qism va 8 bo'lim;
- г) 5 qism va 9 bo'lim;
- д) 4 qism va 10 bo'lim.

**6. Korxonalar hisob siyosatining mohiyati O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining qaysi milliy standartida bayon etilgan?**

- а) BHMS №2;
- б) BHMS №3;
- в) BHMS №4;
- г) BHMS №5;
- д) BHMS №1.

**7. «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» qachon tasdiqlangan?**

а)O'zR.Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 yanvardagi 453-sonli qarori bilan;

б)O'zR.Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 15 yanvardagi 553-sonli qarori bilan;

т)O'zR.Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 1 fevraldagи 213-sonli qarori bilan;

р)O'zR.Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagи 444-sonli qarori bilan;

д)O'zR.Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 yanvardagi 221-sonli qarori bilan.

**8. «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» necha bo'limdan iborat?**

- а) А,В,V bo'limdan;
- б) А,В,V,G bo'limdan;
- в) А,В,V,G,D bo'limdan;
- г) А,В,V,G,D,E bo'limdan;
- д) А,D bo'limdan.

**9. Qaysi qatorda respublikamizda boshqaruvin hisobini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari keltirilgan?**

- а) korxonalar faoliyatini budgetlashtirish (rejalashtirish);
- б) boshqaruvin hisobini yuritishga mo'ljallangan yangi schyotlar rejasini ishlab chiqish, xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashning zamonaviy usul va tizimlarini qo'llash imkoniyatlarini baholash;

- в) investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruvin qarorlari qabul qilish;

- г) segmentlar bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzishni tashkil qilish, korxonalarda transfert bahoni shakllantirish usullarini joriy etish;

д) barcha javoblar to'g'ri.

**10. Boshqaruvin hisobi schyotlar rejasini...**

- а) balans schyotlari, ya'ni balans tuzishda ishtiroy etuvchi schyotlardir;

- б) operatsion, "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" usuli bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruvin buxgalteriyasida foydalilaniladigan schyotlar hisoblanadi;

- в) faqatgina balansdan tashqari schyotlardan iborat;

- г) moliyaviy hisob schyotlarini o'z ichiga oladi;

- д) faqatgina tranzit schyotlarni qamrab oladi.

**Nazorat savollari**

**1. Strategik boshqaruvin hisobini tashkil etish deganda nimani tushunasiz?**

2.Strategik boshqaruv hisobining ahamiyati, mohiyati va tashkil etish usullariga izoh bering.

3.Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlarni strategik tahlil qilish tizimini shakllantirishning ahamiyati nimada?

4.Mahsulot sifatiga sarflanadigan xarajatlarni strategik boshqaruv hisobi usullarini tushuntirishg.

## **ASOSIY TAYANCH SO'Z VA IBORALAR**

**«ABC» hisob tizimi** («Activity-Based Costing») – mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxini javobgarlik markazlari bo'yicha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lib hisobga olish, ammo asosiy e'tiborni faoliyat turlari va funktsional xizmatlarga qaratishga mo'ljallangan hisob tizimi.

**Boshqaruv hisobi** – korxona bo'linmalari faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotlarni taqdim etuvchi, budgetlashtirish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobot tuzish, transfert baholarni shakllantirish kabi masalalarni qamrab olgan kompleks fan turi.

**Boshqaruv hisobining strategik vazifalari** – budgetlashtirish, uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni jalg qilish, biznes tarkibini o'zgartirish, mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish kabi uzoq muddatga mo'ljallangan vazifalar.

**Boshqaruv hisobi taktikasi** – joriy davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bo'yicha hisob yuritish, dalillash, qabul qilingan qarorlarni tahlil va nazorat qilish hamda ular ijrosi uchun javobgarlik.

**Boshqaruv hisobi schyotlar rejasি** – korxona faoliyatini budgetlashtirish, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini tashkil etish, "Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda" tizimi bo'yicha moliyaviy natijalarini aniqlashga mo'ljallangan schyotlar to'plami.

**Boshqaruv hisobining asosiy ob'ektlari** – korxonaning alohida bo'linmalari: bo'limlar, tseylar, uchastkalar, ish joylari faoliyati to'g'risidagi axborotlar.

**Boshqaruv hisobi tamoyillari** – hisobni ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish, uzlusizlik, aniqlik, ishonchlilik, hisoblash, ehtiyyotkorlik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi va h.k.

**Boshqaruv hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar** – korxona boshqaruvi xodimlari, ta'sischilar va kuzatuv kengashi a'zolari.

**Boshqaruv hisobi axborot manbalari** – moliyaviy hisobot axborotlari, shuningdek marketing, soliq, sug'urtaga oid ma'lumotlar va h.k.

**Boshqaruv hisobi axborotlarini aks ettirish usullari** – moliyaviy hisob usullari, ekonometrika, statistika va iqtisodiy tahlil usullari.

**Boshqaruv hisobi axborotlarining o'chov birliklari** – moddiy, mehnat va qiymat kabi barcha hisob o'chovlari.

**Boshqaruv hisobotlarini taqdim etish muddati** – har kuni, har hafta va h.k. muddatlar. Hisobotlarni taqdim etish muddati korxona rahbariyati tomonidan belgilanadi.

**Boshqaruv hisobida xarajat va daromadlarni guruhlash** – boshqaruv hisobida xarajatlar xarajat moddalar bo'yicha, daromadlar esa bo'linmalar va mahsulot(ish, xizmat)lar turlari bo'yicha guruhlanadi. Xarajat moddalarining ro'yxati tarmoq yo'rinnomalari bilan belgilanadi hamda korxonaning hisob siyosatida ifodalanadi.

**Boshqaruv segmentar hisobotining shakllari** – materiallar va butlovchi qismlar zaxiralari to'g'risida, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) to'g'risida, xarid qilingan qiymatliklar to'g'risida, tayyor mahsulot zahiralari to'g'risida, sotishlar to'g'risida, pul mablag'lari harakati to'g'risida hamda debitorlik va kreditorlik qarzları to'g'risidagi segmentar hisobot shakllari.

**Boshqaruv hisobining huquqiy asoslari** – xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil tartibi, usullari va elementlarini belgilab beruvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar to'plami.

**Bevosita xarajatlar** – mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to'lash, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalar amortizatsiyasi xarajatlari.

**Bilvosita xarajatlar** – ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, boshqaruv asbob-uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari kabi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari.

**Buyurtmali usul** – qabul qilingan buyurtmalarga sarflangan xarajatlarni umumlashtiruvchi, murakkab, alohida va tajriba ishlarini bajarishda qo'llaniladigan tannarx hisoblash usuli.

**Budgetlashtirish** – korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejashtirish.

**Biznes segmenti** – korxonaning muayyan qismini yoki nisbatan mustaqil bo'linmasini ma'lum vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratish.

**Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar** – korxonaning tanlagan rivojlanish strategiyasiga muvofiq uning tashkiliy tuzilmasini mukammallashtirish, ishlab chiqarishni

markazlashmagan holda boshqarish imkonini beruvchi boshqaruv qarorlari.

**Geografik segment** – muayyan iqtisodiy muhitda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, risk va foyda kabi iqtisodiy shart-sharoitlar ta'sirida, ma'lum makonda harakat qiluvchi ajratib qo'yilgan komponent.

**«Direkt-kosting» hisob tizimi** – korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liq holda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishga asoslangan tannarx hisoblash tizimi.

**Darajali taxminlash** – sotishlar va foydaning kutilgan hajmini maksimal, ehtimol, minimal nuqtalari bo'yicha avvaldan rejashtirish.

**Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari** – asosiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va unga xizmat qilish xarajatlari (energiya, transport xizmatlari, ta'mirlash xarajatlari kabilar).

**Javobgarlik** – belgilangan majburiyatlarni to'liq amalga oshirishni his etish.

**Javobgarlik markazlari** – boshqaruv xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan, bo'linmalar xarajatlari va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan hisob ob'ekti.

**Javobgarlikning asosiy markazlari** – bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi markaz turi.

**Javobgarlikning yordamchi markazlari** – javobgarlikning asosiy markazlariga ko'maklashish uchun tashkil etiladigan markaz turi.

**Jarayonli usul** – jarayonli (metallurgiya, to'qimachilik kabi) ishlab chiqarishlarda xarajatlarni hisobga oluvchi tannarx aniqlash usuli.

**«JIT» hisob tizimi** – mahsulotlarni yirik turkumlarda ishlab chiqarishdan voz kechish, buning o'rniga uzlusiz, buyurtma olingan vaqtidan boshlab mahsulot ishlab chiqarish orqali ortiqcha xarajatlarni bartaraf qilish va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanishga imkon beruvchi hisob yuritish tizimi.

**Zararsizlik nuqtasi** – korxona daromadlari uning xarajatlarini to'liq qoplaydigan nuqta.

**Ishlab chiqarish hisobi** – ishlab chiqarish xarajatlari va korxona

daromadini boshqarish, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlab beruvchi hisob turi.

**Ishlab chiqarish dasturi** – mahsulot ishlab chiqarish va sotishning yillik hajmi, nomenklaturasi, tovarlar va xizmatlar bozori talablari asosida sifat va muddatni tavsiflovchi kompleks reja.

**Ishlab chiqarish dastagi** (leverage, so‘zma-so‘z tarjimada richag, dastak) – korxona foydasini samarali boshqarishning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zaro mutanosibligiga asoslangan mexanizmi.

**Ishlab chiqarish dastagi hajmiga ta’sir etuvchi omillar** – o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni summasi, sotish bahosi va hajmi, yuqoridagi omillar kombinatsiyasi.

**Ishlab chiqarish (real) investitsiyasi** – korxona faoliyatining muayyan sohasi va turiga, real kapital o‘sishiga ya’ni ishlab chiqarish vositalari, aylanma mablag‘lar qiyamatini o‘sishiga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini rivojlantirishga asosiy omil bo‘lувчи xarajatlardir.

**Investitsiyalar markazi** – bo‘linma rahbari nafaqat daromad va xarajatlarga, balki kapital quyilmalarga ajratilgan mablag‘larning oqilona sarflanishiga ham javob beradigan markaz turi.

**Investitsiya budjeti** – korxonaning budjet davridagi kapital xarajatlari va uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalari rejasi.

**Investitsiya faoliyati** – korxona tomonidan investitsiya resurslarini (pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, aqliy salohiyat, kredit, yer va boshqa ko‘chmas mulk ob’ektlari kabi) iqtisodiyot sohalariga daromad (foyda) olishni yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida joylashtirish.

**Investitsiya loyihasi** – aniq, puxta o‘ylangan g‘oyaga, maqsadga ega bo‘lgan (shu jumladan kapital qurilish ham), uni amalga oshirish uchun investitsiya qo‘yilishini talab qiladigan xarajat dasturi.

**Kalkulyatsiya birligi** – kalkulyatsiya ob’ekti o‘lchovi.

**Mahsulotlar tannarxi** – mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflangan bevosita xarajatlarning yig‘indisi.

**Moliyaviy budjet** – sotish hajmi va tannarxi, daromad va xarajatlarning nisbati, sof foya, o‘z mablag‘laridan samarali foydalanish, investitsiya qo‘yilmalarining qoplanish muddati kabi ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtiruvchi budjet

shakli.

**Moliyaviy (portfelli) investitsiyalar** – qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalarga sarflangan xarajatlar.

**Marjinal daromad** – korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o‘rtasidagi farq.

**Marjinal daromadning o‘rtacha hajmi** – mahsulot (ish, xizmat)lar bahosi bilan o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar o‘rtasidagi farq.

**Marjinal daromad koeffitsienti** – mahsulot sotishdan tushgan tushumdagagi marjinal daromadning ulushi.

**Ostonaviy tushum** – zararsizlik nuqtasiga mos keluvchi tushum summasi.

**Operatsion budjet** – tovar-moddiy zaxiralari, asosiy vositalarni sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxiralari va davr xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlar hamda moliyaviy mablag‘larning taxminiy manbalarini ifodalovchi budjet turi.

**Relevantli daromad va xarajatlar** – kelajakda yuzaga kelishi kutilayotgan, boshqaruq qarorlari ta’sirida o‘zgaruvchi daromad va xarajatlar.

**Strategik (uzoq muddatli) rejalshtirish** – korxonada 5-10 yil muddatga mo‘ljallangan istiqbolli rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish.

**Statik budjet** – daromadlar va xarajatlarni sotishlar darajasidan kelib chiqqan holda rejalshtirish.

**Sotish markazi** – bo‘linma rahbari mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushadigan tushumga javob beradigan markaz turi.

**Sotish xarajatlari budjeti** – xaridorlar imkoniyati va mahsulotlar hajmini e’tiborga olib, vertikal hamda gorizontal tartibda tuzilgan budjet shakli.

**«Standart-kost» hisob tizimi** – xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilish tizimi bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi avvaldan puxta, obdon hisoblab chiqilgan normativ xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi.

**Segmentlar bo‘yicha hisobot tuzish tamoyillari** – tushunarilik, muhimlilik, ishonchlilik, tezkorlik, aniq manzillilik, ehtiyyotkorlik, muvofiqlik taqqoslanuvchanlik, xolislik va h.k.

**Segment xarajatlari** – bevosita segmentlar tarkibiga kiritiladigan xarajatlar yoki ularni korxona umumiy xarajatlarining bir qismi sifatida namoyon bo‘lishi.

**«SCA» tizimi** (Strategic Cost Analysis) – xarajatlarni strategik tahlil qilish tizimi bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismi va markaziy ob’ekti iste’mol qiyomatini shakllantirish zanjiri hisoblanadi.

**Takroran rejalashtirish** – korxona rahbariyati bilan bo‘linmalar va funksional xizmatlar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rnatish.

**Tezkor rejalar** – korxona asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan taktik rejalar (ishlab chiqarish rejası, umumishlab chiqarish xarajatlari rejası, moddiy texnika ta’minoti rejası kabilar).

**Transfert baho** – korxona tarkibidagi bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o‘tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan baho.

**Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan xarajatlar yondashuvi** – transfert bahoni mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflangan xarajatlar asosida shakllantirish.

**Transfert bahoni shakllantirishga nisbatan faol yondashuv** – transfert bahoni boshqarish orqali sotishlarning zarur hajmiga mos keluvchi o‘rtacha xarajatlar hajmiga erishish.

**Transfert bahoni belgilash usullari** – bozor bahosi, to‘liq tannarx plyus foyda (to‘liq tannarxdan % sifatida), o‘zgaruvchan xarajatlar plyus foyda (o‘zgaruvchan xarajatlardan % sifatida), tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho, to‘liq yoki qisqartirilgan tannarx usullari.

**Tezkor (qisqa muddatli) rejalashtirish** – kun, hafta, dekada, oy, chorak yoki bir yil davomida korxona moliyaviy – xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish.

**Taktik (o‘rta muddatli) rejalashtirish** – 3-5 yil muddat oralig‘ida korxonaning uzoq muddatli maqsadlarga mo‘ljallangan dasturlarini ishlab chiqish.

**Umumishlab chiqarish xarajatlari** – korxonada asosiy va yordamchi ishlab chiqarish uzlucksizligini ta’minalash va boshqarishga xizmat qiluvchi xarajatlar (mashina va uskuna-larni saqlash, ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish, saqlash, sug‘urta qilish xarajatlari va h.k.).

**Uzoq muddatli xarajatlar** – korxonaning strategik maqsa-dini amalga oshirishda yuzaga keluvchi ilmiy tekshirishlar, yangi texnologiyalarni olib kirish va rivojlantirish, tayyor mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar.

**Foya markazi** – bo‘linma rahbari xarajatlar va foya uchun javob beradigan markaz turi.

**Funktsional qiymat tahlili (FQT) usuli** – ob’ekt (mahsulot, jarayon, tuzilma)ni tizimli tadqiq qilishning sifat va foydaliligini oshirgan holda uni loyihalash, ishlab chiqish va foydalanish sohalarida xarajatlarning eng kichik miqdorini ta’minlovchi usul.

**Funktsional boshqarish** – korxona faoliyatini moliya, ta’mnot, sotish, kadrlar, loyiha-konstrukturlik va texnologik ishlovlari, tashqi iqtisodiy aloqalar kabi alohida funksiyalar bo‘yicha boshqarish.

**Xarajatlar markazi** – xarajatlarni maqsadli sarflanishiga mas’ul hisoblangan korxona bo‘linmasi (ishlab chiqarish tsexi, konstrukturlik byurosi va h.k.).

**Xarajatlar ob’ekti** – sarflangan xarajatlar hisobga olinishi zarur bo‘lgan tashkiliy bo‘lim.

**“Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-foyda” tizimi** (Cost-Volume-Profit) – zararsizlik nuqtasini aniqlash, korxona xarajatlari, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganuvchi tahlil tizimi.

**Chiziqli boshqarish** – ishlab chiqarish tsexlari va korxona bo‘linmalari bo‘yicha boshqaruvni tashkil etish.

**Chidamlilikning marjinal zaxirasi** – mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olinadigan haqiqiy tushumning sotishni zararsizligini ta’minlovchi ostonaviy tushumdan oshib ketishini ko‘rsatuvchi kattalik.

**Yuqorida quyiga rejalashtirish** – ishlab chiqarish rejasini korxona bo‘yicha ishlab chiqish.

**Yarim o‘zgaruvchan xarajatlar** – bir vaqtning o‘zida ham o‘zgaruvchan, ham doimiy xarajat xususiyatiga ega bo‘lgan xarajatlar (masalan, telefon xizmati xarajatlari).

**Quyidan yuqoriga rejalashtirish** – ishlab chiqarish rejasini boshqarishning quyi darajasi ya’ni korxona bo‘linmalari va funksional xizmatlar bo‘yicha tuzish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgust.

2.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). 176-178 moddalar. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son. [www.lex.uz/docs/4674902](http://www.lex.uz/docs/4674902).

3.“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2003 yil 11 dekabr.

4.O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy Standartlari. – T.: O‘zBAMA, 1999.

5.Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti. – M.: Askeri – ASSA, 1999.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 17-son, 204-modda.

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag‘i “Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 54-sonli qarori (2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qaror asosidagi o‘zgartirishlar bilan).

8.Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 686 b.

9.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2017 yil 16 yanvar (11 (6705)-soni).

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. <http://www.lex.uz/pages/3107036>

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 17-son, 204-modda.

12.Atkinson E.A.,Banker R.D.,Kaplan R.S.,Yang M.S. Upravlencheskiy uchet. 3-e izdanie.Per.s angl. – M.:Izdatelskiy dom «Vilyams», 2005. – 880 s.

13.Vaxrushina M.A. Buxgalterskiy upravlencheskiy uchet. Uchebnik. – M.: OOO Izdatelstvo «Natsionalnoe obrazovanie», 2013. – 672 s.

14.Soya-Serkо A.A. Transfertnoe tsenoobrazovanie: na chto nujno obratit vnimanie auditoram. [www.cyberleninka.ru/article/n/transfertnoye-tsenoobrazovanie-na-chto-nuzhno-obratit-vnimanie-auditoram](http://www.cyberleninka.ru/article/n/transfertnoye-tsenoobrazovanie-na-chto-nuzhno-obratit-vnimanie-auditoram) (murojaat qilingan sana: 17.04.2020)

15.Nalogovyu kodeks Rossiyskoy Federatsii: chast pervaya ot 31 iyulya 1998 g. № 146-FZ i chast vtoraya ot 5 avgusta 2000 g. № 117-FZ

16.Gadoev E.F.,Yugay L.P.Buxgalteriya hisobi milliy standartini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar. – T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi,1997. – 144b.

17.Gadoev E.F., Xaydarov SH.U., Kim L.A. i dr. Godovoy otchet - 2004. – T.: Mir ekonomiki i prava, 2004. – 352 s.

18.Druri K. Upravlencheskiy i proizvodstvennyy uchet. – M.: YUNITI-DANA, 2003. – 1071 s.

19.Druri Dj. Kolin. Upravlencheskiy i proizvodstvennyy uchet: - 6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2012. – 1424 s.

20.Eric W.N., Peter C.B., Ray H.G. Managerial accounting for managers. Published by McGraw-Hill/Irwin, 2011 – 657 p.

21.Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Rizayev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. -T.: «Moliya». 2014. – 404 b.

22.Pardayev A.X., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 252 b.

23.Pardayev M.Q, Xasanov B.A. va boshqalar. Molivaviv va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: Cho‘lpion, 2012. – 400 b.

24.Pravovoe regulirovanie predprinimatelskoy deyatelnosti. – T.: Korporatsiya Pragma, 2004. – 207 s.

25. Sanayev N.S., Xasanov B.A., To'layev A., Sanayev G.N., Buxgalteriya hisobi asoslari. – T.: Sharq, 2005. – 110 b.
26. Upravlencheskiy uchet. Tom 1. – T.: izd. NABA Respublikি Uzbekistan, 2004. – 139 s.
27. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. – T.: Moliya, 2003. – 247 b.
28. Xasanov B., Xoshimov A. Boshqaruv hisobi. Oliy o'quv yurtlari uchun larslik. – T: Yangi nashr, 2011. – 312 b.
29. Xasanov B.A., G'aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. – T.: «Iqtisod-Moliya». 2018. – 280 b.
30. Xasanov B.A., Alikulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Y.O.B., Xasanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 288 b.
31. Qodirxonov S.B., Jumaniyozov K.K. Chet el firmalarida boshqaruv hisobini yuritish asoslari. – T., 2000.
32. Sharifxo'jayev M., Abdullayev YO. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001. – 704 b.

1-illova

## ILOVALAR


"Bukhara Cotton Textile Cluster" xorijий корхонаси тизимда ишлаб чиқариш жарайёлари

"Bukhara Cotton Textile Cluster" xorijий корхонаси.

Читиг экиш	Пахтани йигиб- териб олиш	Пахтани дастлабки кайта ишлаш	Бўйи фабрикаси	Джинси матолари тўқин	Пародуши бўйими	Джинси шімлари тиқиш
8000 га	26000 тонна пахта хом ашёси	9100 тонна тола	8450 тонна иш калава	12,0 млн.п.м	12,0 млн.п.м	15,0 млн.дана

Ишлайтган ходимлар сони - 3563 киши

Ишлайтган ходимлар сони - 1201 киши



**3-illova**

Transfert bahoni shakllantirish uchun quyidagi stsenariyidan foydalanamiz<sup>96</sup>:

Ko'rsatkichlar	A bo'linma	B bo'linma
	AQSH dollarida	AQSH dollarida
Tannarxni bahoga aylantirish	-	50
Bo'linmaning o'z xarajatlari	30	20
Bo'linmaning foydasi/ustama.	20	20
Transfert bahoning jamisi/yakuniy sotish bahosi.	50	90

**4-illova**

“Baxt tekstil” MCHJ klaster tizimida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining paxta xom ashyosini yetishtirishda moliyalashtirish tizimi, mln.so'm<sup>97</sup>

T/r	Ko'rsatkichlar	2018 yil		2019 yil (klaster)		Farqi, +/-
		Jami, mln.so'm	1 tonnaga ming so'm	Jami, mln.so'm	1 tonnaga ming so'm	
1	Ish haqi	6012	80,7	15 910	250,4	9898
2	Terim puli	34286	460,0	65 641	1033,2	31355
3	Yoqilg'i moylash materiallari	21134	283,5	25 173	396,2	4039
4	Mineral o'g'itlar	28991	389,0	32 071	504,8	3080
5	Kimyoiy himoyalash ishlariiga	4626	62,1	9 043	142,3	4417
6	Texnik xizmatlar	6682	89,7	11 864	186,7	5182
7	Lizing to'lovleri			5 685	89,5	5685
8	Urug'lik (chigit)	6393	85,8	10 048	158,2	3655
9	Soliq to'lovleri					
10	Boshqalar	20 169	270,6	5 496	86,5	-184
	Jami	128293	1721,3	180931	2847,9	1127

Usullar	Ustunliklari	Kamchiliklari
Taqqoslanadigan bozor baholari usuli	1. Shunga o'xshash mahsulot, ishlar, xizmatlar bahosi to'g'risida ob'yektiiv tashqi ma'lumotlarning mavjudligi. 2. Tashqi mol yetkazib beruvchilar bilan raqobat mahsulot, ishlar, xizmatlarning sifatini yaxshilashga va narxini pasaytirishga yordam beradi	1. Shunga o'xshash mahsulot, ishlar, xizmatlar bozori rivojlangan sharoitda uslub samara beradi. 2. O'z malakali ishchilari va ishlab chiqarish quvvatlari bilan doimiy ravishda ta'minlangan holda tashqi mol yetkazib beruvchilarni jalb qilish amaliyoti kompaniyaning umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kompaniya rahbariyati va bo'linmalar rahbarlarining maqsadlari bir-biriga mos va mushtarak bo'iishi juda muhimdir
Xarajatlarga asoslangan usul	1. Nisbatan foydalanish qulayligi. 2. Ishlab chiqarish zanjiridagi har bir moliyaviy mas'uliyat markazi uchun foya olish imkoniyati mavjud	1. Uzatuvchi tomon(bo'linma)ning xarajatlarni kamaytirishga qiziqishi va manfaati mavjud emas. 2. Barcha tavakkalchiliklarni zararlar shartnomaning egasi hisoblangan bo'linma tomonidan qoplanadi
SHartnomaviy baholari usuli	1. Ishlab chiqarish zanjiridagi har bir moliyaviy mas'uliyat markazi uchun foya olish imkoniyati mavjud. 2. Uzatuvchi va qabul qiluvchi bo'linmalar o'rtasida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin	Uzatuvchi va qabul qiluvchi bo'linmalar o'rtasida adolatlari foyda normasini aniqlashning murakkabligi. Teng bo'limgan sharoitlar bo'linmalar o'rtasida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin
Foya (zarar) tahlili usuli	1. Ishlab chiqarish zanjiridagi har bir moliyaviy mas'uliyat markazi uchun foya olish imkoniyati mavjud. 2. Amaqga oshirilayotgan funktsiyalar, foydalilanayotgan aktivlari va iqtisodiy (tijorat) sohasida qilinayotgan subyektiv yondashuvning Yuqori tavakkalchiliklarni hamda rag'batlanirish darajasi o'tasidagi bog'liqlikning mavjudligi	1. Uni qo'llash eng murakkab masala hisoblanadi. Asosiy qiyinchilik foydani taqsimlash uchun adolatlari asosni tanlashdadir. 2. Muayyan moliyaviy mas'uliyat markazining moliyaviy natijalarga qo'shgan hissasini aniqlashga subyektiv yondashuvning Yuqori ehtimoli mavjudligi.

**Manba.** Кузнецова Е.В., Воронкова Н.Ю. Трансферное ценообразование как инструмент повышения рентабельности проектной деятельности. – М.: ж. “Аудит и финансовый анализ”. №1. 2014. с. 341

<sup>95</sup> Кузнецова Е.В., Воронкова Н.Ю. Трансферное ценообразование как инструмент повышения рентабельности проектной деятельности. – М.: ж. “Аудит и финансовый анализ”. №1. 2014. с. 341

<sup>96</sup> Ken Garrett is a freelance writer and lecturer. Transfer prices are almost inevitably needed whenever a business is divided into more than one department or division. <https://www.accaglobal.com/sg/en/student/exam-support-resources/fundamentals-exams-study-resources/5/technical-articles/transfer-pricing>

<sup>97</sup> “Бахт текстил”, “Бахт Навоий” ва “Навбахор текстил” МЧЖ клaster корхоналарининг молиявий хисобот маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

5-ilova

Klasterlarda segmentlar faoliyati samaradorligini baholashning  
muhim ko'rsatkichlari (KPI) va ularni hisoblash mezonlari

Bajarilish foizi (V)	Bajarilish koefitsiyenti (KR)
KPI 60% dan kam bo'lganda	0
KPI 60% dan 89% gacha bo'lganda	0,8
KPI 90% dan 99% gacha bo'lganda	0,9
KPI 100% dan 119% gacha bo'lganda	1
KPI 120% dan ortiq bo'lganda	1,2

**Manba.** Скриптор Андрей Смирнов. Что такое KPI? Ключевой показатель эффективности сотрудника. <https://www.youtube.com>

6-ilova


Samaradorlikni baholishning muhim ko'rsatkichlari (KPI 2) sifatida  
mehnat va ijro intizomini ballar asosida baholash mezonlari

	0 ogohlantirish	1 ogohlantirish	2 ogohlantirish	3 ogohlantirish = chora ko'rish
Mehnat intizomi (vazifani bajarishi)	30 ball	20 ball	10 ball	0 ball
Skripta(muomala madaniyat va qoidalari)ga riyoa qilish	40 ball	30 ball	20 ball	0 ball
Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi(CRM) sharoitida mulqotni qaydnomaga to'g'ri rasmiylashtirish	30 ball	20 ball	10 ball	0 ball

**Manba** Скриптор Андрей Смирнов. Что такое KPI? Ключевой показатель эффективности сотрудника. <https://www.youtube.com>

7-ilova

Boshqaruv hisobini axborot bilan ta'minlash manbalari



8-ilova

**Rejalashtirilgan material xarajatlari  
budjetini shaxmatli tekshirish jadvali, ming so'm**

Kalkulyatsiya moddalarli	Xomashyo va asosiy materiallar	Yordamchi materiallar	Yonig'va energiya	Asosiy ish haqi	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot ajratmalarli	Asosiy vositalar va NMAlarning eskirish	Boshqa xarajatlar	Jami xarajatlar	Yordamchi ishlab chiqarish harajatlari	Hamma xarajatlar
	1	2	-	-	-	-	-	682	35	717
1. Xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar (chiqindilar hisobga olingan)	670	12	-	-	-	-	-	682	35	717
2. Texnologiya maqsadlariga sarflanadigan yonilg'i va energiya	-	-	17	-	-	-	-	17	-	17
3. Xodimlarning asosiy ish haqi	-	-	-	338	-	-	-	338	-	338
4. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot ajratmalarli	-	-	-	-	163	-	-	163	-	163
5. Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirishga sarflangan xarajatlari	6	7	-	25	11	-	12	61	-	61
6. Mashina va uskunalarini ishlatish xarajatlari	-	27	35	63	27	50	33	235	68	303
7. Umumishlab chiqarish xarajatlari	-	2 7	2 7	53 58	21 26	18 23	24 27	120 148	30 35	150 183
8. Davr xarajatlari	-	2 7	1 6	88 93	34 39	15 20	40 45	180 210	20 25	200 235
9. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	-	-	-	-	-	-	23 28	23 28	-	23 28
10. Jami xarajatlar	621 676	50 60	45 65	505 577	294 266	78 93	112 145	160 188 2	140 163	174 204 5
11. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	19 24	8 13	22 27	55 60	21 26	8 13	7 12	140	-	-
12. Jami xarajatlar	640	43	67	560	215	86	129	174 0	-	-

9-ilova

**Korxonaning javobgarlik markazlari bo'yicha  
xarajatlar moddalarini taxminiy ro'yxati**

Yordamchi ishlab chiqarish tsexlari (uchastkalari) uchun	Ishlab chiqarish funktsional xizmatlari uchun
1	2
Mehnatga haq to'lash xarajatlari	Mehnat haqi xarajatlari
Ijtimoiy sug'urtaga chegirmalar	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
Elektroenergiya xarajatlari	Elektroenergiya xarajatlari
Materiallar	Ijara haqi xarajatlari
Xo'jalik inventarlarining eskirishi	Xo'jalik inventarlarining eskirishi
Uskuna va dastgohlarning eskirishi	Uskuna va dastgohlarni eskirishi
YOnilg'i	Aloqa xarajatlari
Boshqa xarajatlar	Safar xarajatlari
.	Obuna xarajatlari
	Malaka oshirish va o'qitish xarajatlari
	Maslahat xizmatlari xarajatlari
	Boshqa xarajatlar

**2020 yilning I choragida mebel taylorlash tsexi  
faoliyati haqida hisobot, ming so'm**

T/ r	Ko'rsatkichlar	O'icho v bir- ligi	Reja	Haqi- qatda	Baja- rilish %i	Far- qi (+,-)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Tovar mahsuloti hajmi	ming so'm	4500,0	5200,0	116,0	+700,0
2.	Ishlovchilar soni	kishi	10	10	100,0	-
3.	Tsex xodimlari mehnatiga haq to'lash fondi	ming so'm	1500,0	1800,0	120,0	+300,0
4.	Bir xodimning mehnat unumdorligi	ming so'm	150,0	180,0	120,0	+30,0
5.	Ishlab chiqarish harajatlari smetasi, shu jumladan: a) xomashyo, asosiy materiallar, sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar b) o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar v) qaytarilgan chiqindilar chiqarib tashlanadi g) yordamchi materiallar  d) yonilg'i va energiya  e) mehnatga haq to'lash xa- rajatlari j) ijtimoiy sug'urtaga aj-ratmalar z) yangi mahsulotni tayyorlash  i) ishlab chiqarish mashinalari va jihozlaridan foydalinish xarajatlari k) umumishlab chiqarish xarajatlari l) boshqa xarajatlar	ming so'm ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm. ming so'm.	3600,0 1100,0 - - - - - 300,0 1500,0 600,0 - 65,0 35,0 -	4160,0 1250,0 - - - - - 310,0 1800,0 720,0 - 55,0 25,0 -	116,0 114,0 - - - - - 103,0 120,0 120,0 - 85,0 71,0 -	+560,0 +150,0 - - - - - +10,0 +300,0 +120,0 - -10 -10 -
	<b>Tsex bo'yicha jami:</b>	so'm	3600,0	4160,0	116,0	+560,0

**Baxodir Akramovich Xasanov,  
Karjaubay Tileubayevich Nurmanov,  
Risolat Bahodirovna Hasanova**

**ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBI**

**Darslik**

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYL» – 2021**

**Muharrir:** S.Alimbayeva  
**Tex. muharrir:** A. Moydinov  
**Musavvir:** A. Shushunov  
**Musahhib:** L. Ibragimov  
**Kompyuterda  
sahifalovchi:** M. Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 5.10.2021.  
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 26,5. Nashriyot bosma tabog'i 26,0.  
Tiraji: 50. Buyurtma № 158**

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»**

**bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,**

**Universitet ko‘chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7626-0-2

A standard linear barcode is displayed vertically. Below it, the ISBN number is printed again: 9 789943 762602